



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



**"JAMIyatning innovatsion taraqqiyotida
axborot-kutubxona muassasalarining o'rni"**

**"THE ROLE OF INFORMATION AND LIBRARY
INSTITUTIONS IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SOCIETY"**

**"РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ
В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА"**

**MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

Toshkent-2025



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“JAMIYATNING INNOVATSION TARAQQIYOTIDA
AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARINING O'RNI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
2025-yil 14-may

Материалы международной научно-практической конференции
**«РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЙ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ
ОБЩЕСТВА»**
14 мая 2025 года

Materials of the international scientific and practical conference
**“THE ROLE OF INFORMATION AND LIBRARY
INSTITUTIONS IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT
OF SOCIETY”**
May 14, 2025

“DONISHMAND ZIYOSI”
Toshkent – 2025

To‘plovchi va mas’ul muharrir:

Muborak Yakubjonovna Hakimova – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi mudiri.

Say Irina Konstantinovna – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi dotsent v.b.

Nurbabayeva Dilfuza Xayretdinovna – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi o‘qituvchisi.

Grebnyuk Martin Valentinovich – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

Nosirov O‘ktam – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedra professor v.b..

Muminxodjayeva Lyudmila Nigmatovna – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedra katta o‘qituvchisi.

Matmurodova Malika Isayevna – “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedra o‘qituvchisi.

Muhammadiyev G‘ayrat G‘aniyevich – GFU, ARM rahbari.

Jamiyatning innovatsion taraqqiyotida axborat-kutubxona muassasalarining o‘rn / Роль информационно-библиотечных учреждений в инновационном развитии общества / The role of information and library institutions in the innovative development of society: mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami, 2025-yil 14-may / mas’ul muharrir B.S.Usmonov; tahrir hay’ati: M.Y.Xakimova [va boshq.]. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2025. – 548 b.

Ushbu to‘plamda – Kutubxona axborot xizmati jarayonlarini takomillashtirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishning nazariy va metodologik muammolari mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning materiallari jamlangan bo‘lib, unda Kutubxonashunoslik yo‘nalishida ta’lim beradigan professor-o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish, ustoz-shogird an’analarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, respublika va xalqaro axborot kutubxona markazlarida xodimlarning muntazam tajriba almashishi, kutubxona muassasalarida xizmat ko‘rsatishning jahon tajribasi kabi masalalar, shuningdek, xorijiy va o‘zbek tildagi materiallarning o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy maqlolalar o‘rin olgan.

Maqlolada keltirilgan dalillarning to‘g‘riligi uchun muallifning o‘zi mas’uldir.

*Nodirbek Sayfullayev
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori, professor*

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH JARAYONIDA KUTUBXONALARNING IJTIMOIY VAZIFALARI

Annotatsiya. Maqolada kutubxonalarining Uchinchi tiklanish poydevorini shaklantirish jarayonida muhim ijtimoiy institutlar sifatida tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi. Kutubxonalarining ijtimoiy funktsiyalariga – ta’lim, kommunikativ va madaniy tejashga alohida e’tibor beriladi. Ularning ijtimoiy ongni rivojlantirish, ilmiy va ma’naviy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash, milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlash va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qo‘sghan hissalari tahlil qilinadi. Muallifning ta’kidlashicha, madaniy merosni saqlovchilar va tarqatuvchilar vazifasini bajaruvchi kutubxonalar innovatsiya, uyg‘unlik va barqaror rivojlanishga qaratilgan ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichini qurishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: kutubxonalar, ijtimoiy funktsiyalar, uchinchi tiklanish, madaniy rivojlanish.

Abstract. The article examines the role of libraries as important social institutions in the process of forming the foundation of the Third Renaissance. Special attention is paid to the social functions of libraries – educational, educational, communicative, and cultural-conservation. Their contribution to the development of public consciousness, the support of scientific and spiritual progress, the strengthening of national identity and the expansion of access to knowledge is analyzed. The author emphasizes that libraries, fulfilling the mission of guardians and distributors of cultural heritage, are becoming one of the key factors in building a new stage of social development focused on innovation, harmony and sustainable development.

Keywords: libraries, social functions, Third Renaissance, cultural development.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida duch keli-shimiz mumkin bo‘lgan barcha to‘siq va g‘ovlarni hisobga olish va ulardan talofatsiz o‘tish, turli og‘ir sinovlar va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni yen-gib o‘tishga qodir bo‘lgan asoslarni yaratish muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Hozirgi zamон va yangi O‘zbekiston” asarida ko‘rsatib o‘tilganidek, “..... oldimizda turgan davr Yangi O‘zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar va boshqa qator sohalarda tub burilish, ulkan o‘zgarishlar va taraqqiyot davriga aylanmog‘i lozim. Chunki ayni paytda xalqimiz g‘oyat baland ruh va ishonch bilan yangicha hayot, yangi taraqqiyot, Uchinchi Renessansga yuzlanib turibdi” [1. B.7]. Ayniqsa, tom ma’noda yoshlar mamlakati deb hisoblanadigan O‘zbekistonda ularning aholining 60 foizdan ortiq qismini tashkil etishi, yoshlar siyosatiga ustuvor vazifa deb qarashni talab qiladi.

Yoshlarning ilmiy, kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ular uchun keng shart-sharoitlar yaratish, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ajratiladigan sarmoyalar-nin ko'paytirish orqali jahon mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash dolzarb masaladir.

XXI asrning uchinchi o'n yilligida kechayotgan globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyojlar yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratish bilan birga ularda innovatsion tafakkurni shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini va salohiyatlarini oshirish kabi talablarni ham qo'ymoqda. Ushbu masalalarni amalga oshirishda, ta'lim tizimi sifatini yuksaltirishda kutubxona-axborot muassasalari ham alohida o'rinn egallaydi. Bu ularning jamiyat hayotida bajaradigan tarbiyaviy, kommunikativ, ma'naviy-ma'rifiy vazifalaridan kelib chiqadi. Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifalarini aniqlash kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyotidagi asosiy masalalardan biridir.

O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ma'lumotlar, axborotlar, turli bilimlarning tarqatuvchisi va tashviqotchisi bo'lgan kutubxonalar alohida o'rinn tutadi. Shuning uchun ham kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni takomillashtirish, mutolaa madaniyati va kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi [4], 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi [5] Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4789-son "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi [6] va bir nechta qarorlarning qabul qilinishi munosabati bilan aholiga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, xususan, yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Ayniqsa, yosh kitobxonlar sonini 2025-yilda 1,5 millionga etkazish maqsadida qabul qilingan "Mutolaa" dasturi yoshlar o'rtaida muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 13 mingga yaqin axborot-kutubxona muassasalari, axborot-kutubxona markazlari, axborot resurs markazlari, maktab kutubxonalarini, mahalla kutubxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakat kutubxonalarining axborot, madaniy-ma'rifiy va aholi dam olish maskanlari sifatida rivojlanishi, avvalambor, ularning kadrlar bilan ta'minlanganligiga, kutubxonachilarining sohani tubdan modernizatsiya qilish salohiyatiga, kasbiy tayyor-garligiga bog'liq. Kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning mifikasini oshirish tizimi zamon talablariga javob beradigan, jumladan, sohadagi o'zgarishlarni (raqamlashtirish, elektron kutubxona, sun'iy intellekt va boshqa) qabul qilish va tatbiq etish orqali tashkil etish talab etiladi.

Hozirda bizda mavjud elektron kutubxonalar xalqaro talablarga javob bermasligini ham ta'kidlab o'tish joizdir. Shu sababli axborot-kutubxona faoliyati xodimlarining malakasi (kompetentligi) darajasini baholash tizimini ishlab chiqish zarur. U nafaqat axborot xizmatlari talablariga, balki mamlakatimizdagi axborot infratuzilmasini, shu-

ningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradigan xalqaro standartlarga ham javob berishi kerak.

Zamonaviy kutubxona xodimlarini tayyorlashda, eng avvalo, zamonaviy kutubxona (elektron kutubxona, aqli kutubxona) haqidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi, ya’ni, kutubxonachilik sohasi bo‘yicha bilimlarni egallashi, badiiy adabiyotni bilishi, taraqqiyot bilan hamnafas bo‘lishi, fan va texnikaning innovatsion yutuklariga ergashishi hamda ulardan foydalanishni bilishidan tashqari o‘zlarining ham kasbiy faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llay olishi kabilar kiradi. Zamonaviy kutubxonachi o‘z ustida ishlab, soha taraqqiyoti uchun ham ma’naviy, ham moddiy tomonidan harakat qilishi, turli grantlar va loyihamalar olish zarurligini asoslab berishi, muayyan ijtimoiy-madaniy dasturlarni amalga oshirishda faol qatnashishi kerak.

Mamlakatimiz kutubxonalarida bo‘s sh o‘rinlarning mavjudligi, mutaxassislarning etishmasligi ishga olinayotgan kadrlarga qo‘yilgan talablar darajasini pasaytiryapti, bu esa malakasiz (ko‘p hollarda mutaxassis bo‘lmagan) xodimlar kutubxonachi lavozimida ishlashiga olib kelmoqda. Bu muammoning echimini topish maqsadida mamlakatimizda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot-texnologiyalar universiteti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali, Termiz davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti kabi oliy talim muassasalarida kutubxonachi kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirgi kunda kutubxonalarimiz tomonidan kutubxona fondlaridagi ilmiy jihatdan boy adabiyotlarni targ‘ib qilish va foydalanuvchilarga masofadan tezkor xizmat ko‘rsatish, kutubxona xizmati vakolati doirasida amalga oshiriladigan xizmatlarni onlayn tarzda yuritish, foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish maqsadida texnik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugun kutubxonalarining vazifalari ancha kengaygan. Ular mamlakatimizdagi kitobxonalar uchun kitob bilan xizmat ko‘rsatish vazifasini bajarish, mahallalarning aholisi uchun kitoblar, adabiyotlar bilan xizmat ko‘rsatish bilan bir qatorda nuroniyalarning uchrashadigan, ular muloqot qiladigan joyga aylantirish bo‘yicha faoliyatlarini olib borishmoqda. Ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi axborot-kutubxona faoliyatining milliy standartlari ishlab chiqildi.

Turli mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va mutaxassislarning tavsiyalari ga asosan, XXI asr kutubxonachisi uchun eng muhim jihat amaliyotdagi yangi talablarga moslasha olish va kerakli vaqtida yangi malakalarni egallashda o‘zida motivatsiya topa olish deb ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun rivojlangan davlatlarda kutubxonachilik sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning ta’lim olishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kutubxonachi-bibliograflarni tayyorlashdagi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari kabi umumiy mavzular, shuningdek, kutubxona boshqaruvi, fondni rivojlanish, foydalanuvchilar bilan muloqot qilish hamda ularni jalb qilish kabi sohaga oid mavzularni o‘z ichiga olgan yaxlit bilim bazasini egallah uchun institutimizda barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Shuningdek, barcha kurs talabalari uchun nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda respublika, viloyat, shahar, oliy ta’lim axborot-resurs markazlarining barcha manbalardan foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bundan tashqari, kutubxona-axborot

xizmatini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, nazariya va amaliyot birligini taminlash maqsadida dual talimga o‘tilmoqda.

E’tiborga molik jihatlaridan biri shundaki, ushbu ta’lim yo‘nalishidagi kafedraning xalqaro top-300 talikka kirgan oliy ta’lim muassasalari bilan aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha ishlari keng miqyosda olib borilmoqda.

Kutubxona-axborot faoliyati fakultetidagi “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedra-si Rossiya Fanlar Akademiyasining Sibir filialidagi ilmiy-texnika kutubxonasi, Boku davlat universiteti, Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi, Belarus Respublikasi Mogilyov davlat mintaqaviy ta’limni rivojlantirish instituti, Moskva davlat madaniyat instituti, Qozon davlat madaniyat va san’at instituti, Mirzo Tursunzoda nomidagi Tojikiston davlat madaniyat va san’at instituti bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatganligi katta ahamiyatga molikdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kutubxona-axborot muassasalarining Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi roli, ularning ijtimoiy vazifalarini qanchalik dara-jada samarali bajarishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning asosiy maq-sadi, umuman, jamiyat hayotiy faoliyatini, xususan, har bir foydalanuvchini alohida maqbul axborot manbalari bilan ta’minlashdan iboratdir. Shuningdek, yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida kutubxona-axborot muassasalari ijtimoiy vazifalari har bir fuqa-roni uning yoshi, jinsi, millati, ma’lumot darajasi, e’tiqodi, dinga munosabati va boshqa ijtimoiy demografik belgilardan qat’iy nazar, axborotlardan erkin foydalanish huquqini ham ta’minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – 560 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
3. “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘zbekiston Respublikasi-ning 2011-yil 13-apreldagi O‘RQ-280-son // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 15-son, 146-modda.
4. Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sen-tabrdagi O‘RQ-637-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
5. Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son // Qonun hujjatlari ma’lu-motlari milliy bazasi, 21.01.2021-y., 03/21/668/0051-son.
6. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob muto-laasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4789-son // Xalq so‘zi. – 2017. 13-yanvar. 10-son.

Murodjon Madjidov
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mustaqil tadqiqotchisi, (PhD)

MADANIY TURIZMNING RIVOJLANISHIDA KUTUBXONALARING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kutubxonalar madaniy turizmning rivojlanishidagi muhim omillardan biri sifatida tahlil etiladi. Kutubxonalar nafaqat ilm-fan va ta’lim maskani, balki tarixiy-madaniy merosni targ‘ib etuvchi, sayyoohlar uchun diqqatga sazovor intellektual makon sifatida qaraladi. Maqolada O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Britaniya kutubxonasi va Vatikan kutubxonasi misolida kutubxonalarining xalqaro turizmda tutgan o‘rni solishtirilib, kutubxona turizmini rivojlantirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: madaniy turizm, kutubxonalar, ilmiy meros, qadimiy qo‘lyozmalar, sayyoohlilik infratuzilmasi, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, madaniyat va turizm integratsiyasi

Annotation This article analyzes libraries as one of the key factors in the development of cultural tourism. Libraries are viewed not only as centers of science and education but also as intellectual spaces that promote historical and cultural heritage and attract tourists. The article compares the roles of the National Library of Uzbekistan, the British Library, and the Vatican Library in international tourism, and provides suggestions for the development of library tourism.

Keywords: cultural tourism, libraries, scientific heritage, ancient manuscripts, tourism infrastructure, National Library of Uzbekistan, integration of culture and tourism.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida turizmning shakllari sifatida xalqaro va ichki turizm, turizmning turlari sifatida esa madaniy-tarixiy turizm, ziyorat turizmi, ekologik turizm, ma’rifiy turizm, etnografik turizm, gastronomik turizm, ishbilarmonlik turizmi, ijtimoiy turizm, sport turizmi, tibbiy turizm, yoshlar turizmi, agroturizm kabilar ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonning boy madaniy tarixi, mamlakatda mavjud moddiy madaniy meros obyektlari, ming yillardan buyon avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan nomoddiy madaniy meros namunalari madaniy turizmni turizmning ustuvor turlariga kiritishga asos bo‘ladi.

Davlatning madaniy turizmni rivojlantirishga qaratilgan oqilona siyosati natijasida ushbu yo‘nalish imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishga erishiladi. Buning asosiy mexanizmlari sifatida tegishli normativ-huquqiy bazani yaratish va takomillashtirish, soha ishtirokchilari uchun imtiyoz va preferensiyalar joriy etish, infratuzilmani rivojlantirishni ko‘rsatish mumkin.

Madaniy turizm – insoniyatning madaniy qadriyatları, tarixiy yodgorliklari, urf-odatlari va ilmiy yutuqlari bilan tanishish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat shakli. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kutubxonalar madaniy turizmning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo‘lib, bunda kutubxonalar katta rol o‘ynagan. Ayniqsa, IX-XII asrlarda, Amir Temur va temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etildi, ilm-fan yuksaldi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi yirik shaharlarda hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan. Kutubxonalar nafaqat kitob va ilm manbai, balki o‘zining tarixiy binolari, noyob qo‘lyozmalar, qadimiy hujjatlari bilan ham sayyoohlar uchun qiziqarli obyektlarga aylanmoqda.

Hozirda ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jadal taraqqiy etib borayotgan sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo’jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm, kutubxona va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirmoqda. Jamiyatda global va axborot xususiyatlari ustun kelmoqda. Milliy siyosatlar va iqtisodiyotlarning yaqinlashuvi va bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanib borishi borgan sari global miqyosni olmoqda. Kutubxonalar ko‘plab turistlarni o‘ziga jalb qiladi va turizm rivojiga hissa qo shadi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- kutubxonalar madaniy turizmga tarixiy va ilmiy boyliklarni namoyish etadi;
- qadimiy binolar va arxitektura namunalari orqali madaniy merosni targ‘ib qiladi, bu madaniy turizmning ajralmas qismi hisoblanadi.

Qadimiy binolar va me’moriy yodgorliklar biror hududning tarixini, madaniyatini va estetik qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ular nafaqat o‘zining o‘ziga xos arxitekturaviy yakkaligi bilan, balki ular bilan bog‘liq tarixiy hodisalar va afsonalar orqali ham sayyoohlarni jalb qiladi. Arxitektura va qadimiy binolar faqat jismoniy obyektlar emas, balki ularga bog‘liq tarixiy voqealar, madaniyat, din va urf-odatlarni saqlovchi muhim manbalardir. Me’moriy obidalar o‘z hududining tarixiy va madaniy identifikatorlari sifatida sayyoohlarni jalb qiladi. Misol uchun, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlardagi tarixiy yodgorliklar o‘ziga xos me’moriy ansamblarni yaratgan, ular O‘zbekistonning madaniy merosining ajralmas qismiga aylanib, sayyoqlikning asosiy manzillaridan biriga aylangan;

– noyob qo‘lyozmalar va kitob fondlarini ko‘rsatish madaniy turizmni rivojlantirishda muhim element bo‘lib, qadimiy adabiyotlar va ilmiy manbalarni ommaga tanishtirish, shuningdek, ularni saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan faoliyatdir. Bunday qo‘lyozmalar va kitoblar nafaqat tarixiy va madaniy boylik, balki ilmiy tadqiqotlar, madaniy almashuv va sayyoohlar uchun noyob merosdir. Qo‘lyozmalar va kitoblar qadimiy tarixning beqiyos guvohlaridir. Bu asarlar o‘z vaqtida o‘zbek, arab, fors, turk, lotin va boshqa tillarda yozilgan bo‘lib, ularning har biri o‘z davrining madaniyatini, bilimini va dunyoqarashini aks ettiradi. O‘zbekistonning turli kutubxonalarida mavjud bo‘lgan noyob qo‘lyozmalar, xususan, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona, Sharq qo‘lyozmalarini tadqiq etish instituti, va Imom al-Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazi kabi mu-

assasalar o‘zining boy fondu bilan mashhur. Bu qo‘lyozmalar va kitoblar faqat ilmiy qiymatga ega bo‘lib qolmay, balki turizm resurslari sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ularni namoyish etish sayyoohlar uchun noyob imkoniyat yaratadi, chunki bunday asarlar faqat cheklangan joylarda va maxsus ruxsatnoma bilan mavjud bo‘lishi mumkin.

Xorijiy davlatlar kutubxonalar faoliyatini tahlil qilganimizda ko‘plab davlat kutubxonalari turistlarni jalb qilishda bir qator muvaffaqiyatga erishayotganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Vatikan Kutubxonasi (lotincha: *Bibliotheca Apostolica Vaticana*) – dunyodagi eng qadimiy va eng boy kutubxonalardan biri bo‘lib, Italiyadagi Vatikan shahrida joylashgan. Bu kutubxona Rim Papasi tomonidan boshqariladi va ko‘pincha “Papa kutubxonasi” deb ham ataladi. Vatikan Kutubxonasining turizmga qo‘shayotgan hissasi ko‘proq madaniy va ilmiy turizm yo‘nalishida seziladi. Bu kutubxona keng ommaga to‘liq ochiq bo‘lmasa-da, u Vatikan shahri tarkibida bo‘lganligi sababli, butun dunyodan kelayotgan ziyoratchilar va sayyoohlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Kutubxona dunyodagi eng qadimiy va nodir bilim manbalaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotchilar, tarixchilar, san’atshunoslar uchun jahon miqyosidagi markaz hisoblanadi. Sayohatchilar Vatikan muzeylari va cherkovlari bilan bir qatorda kutubxona haqida ekskursiyalar orqali bilib olishadi – bu ilmiy turizm shakli. Kutubxona o‘zining nodir qo‘lyozmalarini raqamlashtirib, virtual ko‘rgazmalar tashkil qiladi. Bu onlayn ekspozitsiyalar orqali butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar Vatikan madaniyatiga qiziqish bildiradi va turistik tashriflar sonini oshiradi. Vatikan kichik davlat bo‘lishiga qaramasdan, yillik 5-7 million sayyoohni qabul qiladi. Bu tashriflar orasida San-Pietro bazilikasi, Sikstin kapellasi, Vatikan muzeylari bilan bir qatorda Vatikan Kutubxonasi ham o‘ziga xos rol o‘ynaydi. U haqidagi afsonalar, nodir kitoblar va arxivlar sayyoohlarni o‘ziga jalb qiladi, shu bilan Vatikan turizm infratuzilmasiga xizmat ko‘rsatish (gidlar, mehmonxonalar, ekskursiya xizmatlari) orqali ijobiy iqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi.

Britaniya Kutubxonasi (British Library, London) – dunyodagi eng yirik milliy kutubxonalardan biri bo‘lib, Buyuk Britaniyaning ilm-fan, madaniyat va turizm sohalaridagi eng muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Bu kutubxona ham nafaqat ilmiy, balki madaniy va tarixiy turizmga katta hissa qo‘shmoqda. Ommabop va noyob ko‘rgazmalar orqali sayyoohlarni jalb qilib har yili millionlab sayyoohlar Britaniya Kutubxonasiga tashrif buyurib, Ko‘hna qo‘lyozmalar, Biblya nusxalari, Magna Carta, Leonardo da Vinci chizmlari, Bitlz guruhining qo‘lyozmalari, Shekspir asarlari kabi nodir eksponatlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Britaniya Kutubxonasi ko‘plab xalqaro ilmiy simpoziumlar, konferensiyalar, seminarlarga mezbonlik qiladi. Bu tadbirlar orqali ko‘plab tadqiqotchilar va akademiklar Londonga tashrif buyuradi. Shuningdek, doktorantlar va talabalar bu joyga kelib arxiv bilan ishlashadi – bu ham turizm shakli sifatida qaraladi. Kutubxonada yaratilgan sayyoohlar uchun ochiqligi va qulay infratuzilmasi orqali esa Markaziy joylashuvi (St. Pancras, London) va zamonaviy xizmatlari (kafelar, do‘konlar, Wi-Fi) sayyoohlar uchun qulay muhit yaratadi. Madaniy brend sifatida Buyuk Britaniya turizmini qo‘llab-quvvatlash orqali madaniy merosi ramziga aylangan va ko‘plab xorijiy mehmonlar aynan shu kutubxonani ko‘rish uchun kelishadi. Bu kutubxona orqali Britaniya o‘zini madaniyat, tarix, adabiyot va ilm-fan markazi

sifatida dunyoga tanitadi. Britaniya Kutubxonasi nafaqat kitoblar joyi, balki sayyoohlar uchun boy tajriba manbai, tarixiy va madaniy sayohat markazidir. U ilmiy, tarixiy, va madaniy turizmni rivojlantirish orqali Londonning global sayyoohlik brendiga katta hissa qo'shamoqda.

Xorijiy davlatlardagi faoliyat yuritayotgan kutubxonalar qatori yurtimizda ham kutubxonalar turizm salohiyatimiz rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi – mamlakatdagi eng yirik va zamonaviy kutubxonalardan biri bo'lib, Toshkent shahrining markazida, Mustaqillik maydoni yaqinida joylashgan. Bu kutubxona nafaqat mahalliy o'quvchilar va tadqiqotchilar, balki chet ellik sayyoohlar va ilmiy mehmonlar uchun ham madaniy diqqatga sazovor maskan sifatida turizmga muhim hissa qo'shamoqda. Kutubxona Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur, Ibn Sino kabi buyuk siymolarning nodir asarlari, qo'lyozmalari, eski nashrlari bilan tanishish imkonini berib kelmoqda bu esa o'z navbatida O'zbek adabiyoti, tarix va madaniyatiga qiziqqan xorijlik sayyoohlar uchun o'ziga xos tajriba taqdim etadi. Milliy kutubxonada xalqaro konferensiyalar, kitob ko'rgazmalari, adabiy kechalar, ilmiy uchrashuvlar o'tkaziladi. Bu tadbirdorda xorijlik mehmonlar va olimlar ishtirok etadi. Ayniqsa, turkiy xalqlar, fors-tojik adabiyoti va Islom olami bilan bog'liq akademik tadqiqotchilar uchun bu kutubxona muhim manbadir. Toshkentga tashrif bu-yurayotgan ayrim turistik guruhlar, ayniqsa intellektual turizmga qiziqqanlar, kutubxona alohida ekskursiya nuqtasi sifatida ziyorat qilmoqda. U erda xizmat qilayotgan axborot markazi, kutubxona tarixi bilan tanishtiruvchi stendlar, kutubxona muzeyi turistlar uchun qiziqarli tajriba yaratadi.

Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona O'zbekistonning intellektual va madaniy markazi bo'lish bilan birga, turizmning madaniy, ilmiy va ta'limiy yo'nalishlarida muhim rol o'ynaydi. Uning faoliyati xorijlik sayyoohlar e'tiborini jalg etib, O'zbekistonning madaniy imijini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Yurtimizga sayyoohlarning tashrifini oshishida Imom al-Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazining o'rni juda yuqori hisoblanadi. Mussasaning turizmga qo'shayotgan hissasi, asosan, ziyorat turizmi, ilmiy-ma'rifiy sayohatlar va madaniy merosni targ'ib qilish orqali ko'zga tashlanadi. Har yili minglab musulmon sayyoohlar (xususan, Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Saudiya Arabiston, Qozog'iston, Rossiya va boshqalardan) Imom al-Buxoriy maqbarasini ziyorat qilish uchun kelishadi. Tadqiqot markazi ziyoratchilarga ilmiy tushuntirishlar, diniy manbalar, ekskursiyalar orqali chuqurroq ma'lumot beradi. Markazda joylashgan kutubxona, qo'lyozmalar arxivi va ekspozitsiyalar orqali Imom al-Buxoriy hayoti, ilmi va islomiy meros haqida chuqur ma'lumotlar beriladi. Bu faoliyatlar orqali O'zbekiston islom tamaddunining markaziy hududi sifatida tanilmoqda – bu esa madaniy brend yaratish va xorijiy turistlar oqimini jalg qilishga xizmat qiladi. Imom al-Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazi ziyorat, ilmiy va madaniy turizmning uch asosiy yo'nalishini uyg'unlashtirib, O'zbekistonning jahon sahnasi dagi mavqeini kuchaytirmoqda. Bu markaz sayyoohlar oqimini oshiradi, infratuzilmani rivojlantiradi va xalqaro hamkorlikka xizmat qiladi.

Madaniy turizmni rivojlantirishda kutubxonalar muhim strategik resurs bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston kutubxonalarining ilmiy va madaniy boyligi nafaqat milliy

identitetni mustahkamlash, balki xalqaro maydonda sayyoohlarni jalb qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Kutubxonalarni turizm infratuzilmasiga to‘liq integratsiya qilish orqali mamlakat madaniy brendini kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 18.07.2019-y. O‘QR-549-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-406-son qarori.
4. Mirziyoyev SH. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 3-nashri. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.
5. Бабаева С.Р. Понятие «Культурный туризм», его основные характеристики.
6. Саттарова З.И. Проблемы развития культурного туризма в Самаркандской области. Экономика и управление. 2018. Выпуск 21(207). С.300-303.

*Umida Teshaboyeva
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston
Milliy kutubxonasi direktori, tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

KITOBOXONLIK VA KUTUBXONACHILAR HAQIDA MULOHAZALAR

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mehnat safari davrida kitobxonlar bilan bo‘lgan muloqot , kitob o‘qib o‘tirgan bolalar va hozirgi kunda kitobning o‘rni, mamlakatimiz rahbari tomonidan kitob, kitobxonlik madaniyati yaxshilash to‘g‘risida olib borilayotgan ishlar, Milliy kutubxona xodimlarining respublika bo‘yicha ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatayotgani, axborot-kutubxona sohasini turli yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganish, mala-ka oshirish, monitoring qilish ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mehnat, kitobxon, kitobxonlik , tarbiya, malaka oshirish.*

***Abstract.** This article lists events related to whaling during the whaling safari period, as well as events related to whaling and whaling. A video appeared on the Web showing how during searches, searches and monitoring, data on the whereabouts of the suspect were seized.*

***Key words:** work, reading, readability, upbringing, advanced training.*

Xizmat safari bilan 2024-yilning noyabrida Qashqadaryoda bo‘ldim. Kasbi tumanida yosh, shijoati, bilimi, dunyoqarashi va vatanparvrigi bilan o‘nta yigitga tatigullik Temurbek Poyonov bilan taqdir tanishtirdi. Temurbek buyuk insonning, umrini ilmiga, ziyo tarqatishga baxshida qilgan, o‘zbek xalqining faxri hisoblangan adabiyotshunos olim, adib, kamtar inson Poyon Ravshanovning nabiralari. Uch soat kutubxonalarini o‘rganish davomida suhbatlashdik, atigi 180 daqiqa. Biroq shu vaqtning o‘zi meni Temurbek haqidagi fikrimni shakllantira oldi. Avvalo tarbiyasi, bilimi, tarixni sevishi va Qashqadaryo tarixi, o‘tmishdagi vatandoshlari bilan faxrlanib, ular haqida hamma bilishini istashi; adabiyotni sevishi, o‘zini ham she’rlar bitib turishiga undashi; “Toshkentda ishladim, hammasi a’lo edi, biroq Qashqadaryoda ham shunday bo‘lishi kerak, biz bo‘lmasak kim bo‘ladi, mening farzandlarim ham eng zamonaviy maktabda, Qarshidagi maktabda o‘qishi kerak”, degani va bobosi, Poyon Ravshanovning uy- kutubxonasi haqida yuragi to‘lib, jo‘shib gapirganlari meni to‘lqinlantirdi. Bejizga Temurbek Prezident saylovida Qashqadaryo viloyatidagi ishonchli vakili bo‘lмаган екан, деб qо‘ydim.

Yana bir esda qolarli voqeа Qashqadaryo viloyati hokimligi qo‘riqlash xizmati xodimi, harbiy Yorboboyev Sherbek bilan tanishuv bo‘ldi. Hokimlik binosiga kirib, nazoratdan o‘rnatilgan tartibda o‘tish uchun rasmyatchiliklarni qilayotganda, xona ichkari-sida ikkinchi nazorat punkti xodimi KITOB o‘qib o‘tirganiga ko‘zim tushdi-da, tezgina suratga olishni boshladim. Biz bilan suhbatlashayotgan nazoratchi jahli chiqgandek

bo‘ldi, qarashlaridan sezdim-da, darrov o‘zim uchun dedim. Bizning suhbatga kitobga sho‘ng‘igan harbiy parvo ham qilmadi, biroq Milliy kutubxonasi direktori degan gapni eshitib qoldi chog‘i, o‘rnidan turib xonadan chiqib bizga qaradi. Hamrohim Gulnora opa, viloyat kutubxonasi rahbari, u kishiga ham kimligimizni qaytarayotgandi, men Umida opani taniyman, dedi. Hayron bo‘ldim, xursand bo‘ldim!

Demak, kitobni o‘qiydigan insonlar kutubxonachilarni bilarkan. Men uyalganimdan, shunday holatlarni ko‘rsam doim fotoga olishimni, keyin esa o‘zimning turli chiqishlarimda foydalanishimni aytdim. Tanishdig. Sherbek Yorboboyev o‘z kutubxonasini bundan 2 yil avval shakllantira boshlaganini, bobosi kitob mutolaasiga oshno qilganlarini, har oylik maoshidan 200-300 ming ajratib kitob xarid qilishini, kitoblari uchun maxsus muhr ham tayyorlatganini, kitoblarini asrab-avaylashini (birovga bergani ham qizg‘onaman, o‘zim hatto betlarini ham qatlamayman dedi) bilib oldim.

Kitob sovg‘a qildim, mayli-da, shaxsiy kutubxonasini ko‘payishiga hissa qo‘shdik. Shunday insonlar bor ekan, Vatanimiz hech qachon egilmaydi, bukilmaydi va sinmaydi! Shunday insonlar bilan yangi va yangi marralar zabit etilaveradi. Balki balandparvoz gaplar deb o‘ylarsiz, biroq men ishondim!

Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida jon kuydirib gapi rayotganlari bejiz emas, albatta. Zero kitob bilan oshno bo‘lgan, yoshligidan kitob mutolaasi bilan shug‘ullangan bolaning irodasi baquvvat, aqli butun, vatanvi va xalqiga sadoqati cheksiz bo‘ladi. Kitob mutolaa qilish insonning nafaqat fikrini teran, irodasini mustahkam qiladi, balki xotirasini mustahkamlaydi, zakovat xususiyatlari bilan birga axloqiy, ma’naviy-ruhiy fazilatlarini shakllantiradi, e’tiqod va maqsadga intilish sifatlarini tarkib toptirishda ham xizmat qiladi.

Kutubxonachilik sohasi jamiyatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa hozirgi global mashhuv davrida kutubxonalar bilim va axborot tarqatishda markaziy rol o‘ynaydi. Ular turli yozuv manbalari, kitoblar, jurnallar, elektron resurslar va ma’lumot bazalari orqali jamiyat a’zolariga bilim etkazadi, tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar va milliy madaniy merosni saqlash orqali kelajak avlod uchun muhim manbalarni himoya qiladi. Zamonaviy kutubxonalar elektron kataloglar, raqamli arxivlar va internet orqali masofaviy axborot xizmati ko‘rsatish imkoniyatiga ega, qolaversa, kutubxonachilik insonlarning tafakkurini boyitib, ijtimoiy rivojlanishga ko‘maklashadi. Bepul va keng qamrovli axborotga ega bo‘lish imkoniyati hamma uchun teng ta’lim olish sharoitini yaratadi. Oxirgi o‘n yillikda esa kutubxonalar faqatgina kitob o‘qish joyi emas, balki madaniy tadbirlar, mualliflar bilan uchrashuvlar, kitobxonlik klublari va boshqa ma’rifiy faoliyatlar markazi sifatida ham faoliyatni kengaytirdi. Shuningdek, kutubxonalar internet orqali (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlarda faollashdi) ham faol o‘z xizmatlarini amalga oshirmoqda.

O‘zining 155 yillik tarixiga ega Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatimizdagi eng yirik kutubxona hisoblanib, nainki fondlari bilan, balki axborot-kutubxona sohasida ham etakchi, o‘z o‘rniga ega kutubxonadir. “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida” Qonuning 10-moddasida [1] Milliy kutubxona kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtirishi belgilab qo‘yil-

gan. Kutubxona mutaxassislari tomonidan respublikamizdagi turli vazirlik va idoralar tasarrufidagi kutubxonalar faoliyati axborot-kutubxona sohasini turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rganish, malaka oshirish, monitoring qilish kabilarni doimiy olib boradi.

Milliy kutubxona tizimidagi kutubxonachilar bilan ko‘p uchrashaman, suhbatlashaman. Biroq maktab kutubxonachilar bilan uchrashuvlarga o‘tmagandik. Ikki oyda yurtimizning 9 ta viloyati hamda Qoraqalpog‘istonda maktab kutubxonachilar bilan ham muloqot qildim. Bu amaliyotni davom ettiramiz. Chunki respublikamizda eng katta kutubxonachilar armiyasi aynan maktab kutubxonachilar hisoblanadi. Kutubxonalar faoliyati, kutubxonachining nufuzi, o‘quvchi-kitobxonni kitob va mutolaaga mehr qo‘yish, bilimli, komil inson tarbiyasidagi o‘rni, raqamlı dunyoda, sun’iy idrokning hayotimizga kirib kelishida qanday ishlayapmiz va ishslash kerak kabi fikrlar muhokamasi qizg‘in bo‘ldi.

Yashirmayman, maktab kutubxonachilar hali eshiklarimizni qoqib turgan “mehmonlarni” (mamlakat taraqqiyotdagi yangiliklar, o‘zgarishlar) qabul qilib, ularni mehmon emas, balki taraqqiyot jarayonlarining faol a’zolari ekanliklarini tan olishga tay-yorgarliklari etarli emas. O‘qish, bilim, ta’lim kutubxonachining kelajakdagi o‘rnini belgilaydi.

Maktab kutubxonalarida darsliklar fondidan tashqari nashrlar (badiiy, ilmiy-om-mabop, ijtimoiy-siyosiy, ma’lumotnoma nashrlar va boshq.) ham bo‘lishi kerak, shart. Bilamizki hozirda kutubxonalar fondlarini to‘ldirish ancha faollashdi, biroq bu kutubxonachilik standartlari, me’yorlari talabi darajasiga etmaydi. Bugun maktablar texnik va texnologik tomondan ta’minlangan, internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyati yaratilgan va bu masofadan xizmat ko‘rsatish, o‘quvchi-kitobxon so‘rovini bajarishi mumkin.

Kutubxonachilarga Milliy kutubxonaning ma’lumotlar bazalari haqida va undan foydalanish, sohadagi yangiliklar, mакtab kutubxonasing o‘rni, kutubxonachining bilimi va kitobxonni voyaga etkazish, uyg‘otish, tarbiyalash, kitobxonlikni yanada targ‘ib qilishda yangicha yondashuvlar, qarashlar orqali faoliyatni olib borishi haqida muloqot qildik. Yashirmayman, kutubxonachilar (hammasi ham emas) ham harakatda.

Yana bir masala. Samarqanddagи uchrashuvda mакtab kutubxonachisi faoliyatidagi yuklamalari, muammolari, ziddiyatli vaziyatlar, takliflarini tinglab, shunday xulosaga keldim: kutubxonachilarni eshitish kerak, barcha darajadagi rahbarlar kutubxonaning ehtiyoji bilan doimiy tanishishi zarur. O‘z navbatida kutubxonachi ham talabini asosli, o‘zi tushunib, tahlillar bilan so‘rasa, albatta natijalar bo‘ladi. Biz barchamiz bir maqsad sari yo‘ldamiz, harakatlarimiz natijasi esa har birimizning bilim darajamiz bilan o‘lchanadi.

Dunyoda kutubxonachilik kasbi zamonaviy axborot texnologiyalari va jamiyat ehtiyojlari ta’sirida faol transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Raqam-lashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish, kutubxona xizmatlarining onlayn platformalarga o‘tishi, kutubxonachi faqat kitob taqdim qiluvchi shaxs emas, balki axborotni saralash, tanlash va tahlil qilishda maslahatchiga aylangani, axborot savod-xonligi (media literacy) va kiberxavfsizlik bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish ham kutubxonachilarining yangi yo‘nalishiga aylanayotganida ko‘rish mumkin.

Xulosa o‘rnida: dunyoda hamma narsa eskiradi, ohorini yo‘qotadi. Lekin kitoblaridan olgan taassurotlarimiz qalbimizning go‘zal obidasiga aylanadi. Bu obidalar hech qachon nuramaydi, qulamaydi. Kitob bizga zulmatda mash’ala, yolg‘izlikda hamroh, dard-alam chekkanimi malham, yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz, hayotning taskinbaxsh ne’matidir.

Amerika Prezidenti Djon Kennedy NASA kosmik markaziga tashrif buyuribdi. Markaz olim va mutaxassislari bilan suhbatlashibdi, markaz faoliyati bilan yaqindan tanishibdi. Shunda bir ayolga ko‘zi tushib, “Siz kim bo‘lib ishlaysiz?” – deb so‘rabdi. “Men shu uzun yo‘laklarning tozaligini ta’minlayman, supurib-artish orqali mamlakatimiz kosmonavtlarining oyga uchishiga va uni zabt etishiga yordam beraman”, – deb javob beribdi farrosh ayol.

Qissadan hissa shuki, biz kutubxonachilar bir bolani kitob o‘qishga unday olsak, kitobxon qila olsak, bu harakatlar o‘z mevasini albatta beradi. Kutubxonaching yurtimiz ravnaqi va taraqqiyoti yo‘lidagi ixtiolar, bunyodkorliklar, kashfiyotlardagi mehnati ana o‘sha! Eng katta yutug‘imiz ham o‘sha!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2011-yil 13-aprel O‘RQ-280-son // Xalq so‘zi.–2011.14-apr.
2. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019-yil 7-iyun 4354-sonli // Xalq so‘zi. – 2019. 8-iyun.

Лапо П.М.
Заместитель директора
Научной библиотеки имени Сералы Каниева
Казахского национального женского педагогического университета

ИФЛА И БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ МЕНЯЮЩЕГОСЯ МИРА

Аннотация. В этой статье анализируются ключевые темы и проблемы, обсуждавшиеся на Саммите ИФЛА по Информационному будущему в г. Брисбен, Австралия в 2024 году. В ней излагаются представленные в «Отчете ИФЛА о Тенденциях-2024» основные тенденции, влияющие на будущее информационного общества, такие как изменение практики распространения знаний, возросшее влияние «искусственного интеллекта», проблема доверия к социальной информации, востребованность и важность цифровой инклюзивности и растущие экологические проблемы. Особое внимание уделяется развитию соответствующих компетенций для библиотекарей и специалистов по информации, чтобы адаптироваться и преуспеть в быстро меняющемся мире. Также кратко рассматривается разработанная на саммите программа навыков, в которой особое внимание уделяется практическим, партнерским и личностным навыкам развития.

Ключевые слова: IFLA, информационное общество, цифровая инклюзивность, будущие тенденции, компетенции библиотекарей, программа формирования навыков библиотекаря

Abstract. This article analyzes the key themes and challenges discussed at the IFLA Information Futures Summit 2024 in Brisbane, Australia. It outlines the major trends affecting the future of the information society as presented in the IFLA Trend Report 2024, such as knowledge dissemination, artificial intelligence, trust in information, digital inclusion, and environmental concerns. Emphasis is placed on the development of relevant competencies for librarians and information professionals to adapt and thrive in a rapidly changing world. The Skills Agenda developed at the summit is also briefly reviewed, highlighting practical, partnership, and personal development skills.

Keywords: IFLA, information society, digital inclusion, future trends, librarian competencies, Skills Agenda

Осенью 2024 года в г. Брисбен (Австралия) прошел Саммит Международной федерации библиотечных ассоциаций и учреждений (ИФЛА) «Будущее информационного общества: вместе мы сильнее (IFLA Information Futures Summit: Stronger Together)» [1]. Среди основных тем Саммита было обсуждение подготовленного за 2024 год Отчета ИФЛА «Тенденции развития современного общества-2024: Смотрим на будущее информационного общества с уверенностью (IFLA Trends Report 2024: Facing the future of information with confidence)» [2].

В предисловии к Отчету действующий в 2023-2025 гг. Президент ИФЛА Викки Макдональд пишет о том, что нам, библиотекарям, важно знать, каким будет общество информации и знаний в будущем, как мы будем жить, работать и взаимодействовать в нем и, соответственно, каким будет место библиотек в таком будущем? Как отмечает В. Макдональд, это сложные вопросы, но, в то же время, это не повод сидеть и просто ждать завтрашнего дня. «Библиотечные и информационные работники не должны чувствовать себя зрителями, которые просто наблюдают за тем, как развивается сфера информационной деятельности, в центре которой находится библиотечное дело» [1]. Необходимо выработать правильное видение и правильный инструментарий, чтобы не только быть готовыми к будущему, но и участвовать в его формировании.

Поэтому целью Отчета о тенденциях 2024 года, как и большей части работы ИФЛА, является предоставление библиотечным и информационным работникам видения, инструментов, действующих организованных структур, а также необходимой моральной и теоретической поддержки, из которой они могли бы черпать вдохновение и энергию и благодаря которой смотреть в будущее с оптимизмом.

Эксперты ИФЛА отметили следующие, важные для будущего информационного общества, тенденции:

1. Меняются практики формирования и распространения знаний – защита базового права любого гражданина на доступ к информации является одной из основных задач деятельности ИФЛА, которая отмечает, что будущее несет как возможности, так и проблемы для обеспечения равенства в системах знаний. Данная тенденция ставит перед профессиональным библиотечным сообществом такие вопросы, как: что мы считаем знаниями; как обеспечить поиск информации с привлечением широкого спектра ее разнообразных источников; как обеспечить растущую осведомленность людей о дезинформации.

2. И другие технологии трансформируют общество – генеративный ИИ и новые технологии меняют процессы того, как мы создаем информацию, делимся ею и используем ее. Библиотекарям необходимо исследовать последствия применения ИИ и deepfake технологий, а также потенциал технологий для создания новых способов взаимодействия с информацией и ее защиты.

3. Понятие «доверие» пересматривается – в современном обществе есть проблема недоверия к информации, предоставляемой правительствами и СМИ, и поэтому восстановление доверия к этим «ветвям власти» имеет решающее значение для процветания наших обществ. Данная тенденция рассматривает проблематику, связанную с доверием населения, граждан к государственным институтам, а также к журналистике, к движению открытого доступа к научной и образовательной информации – и эти вопросы сейчас даже более приоритетны, чем вопросы, связанные с обеспечением конфиденциальности информации.

4. Навыки и способности становятся более сложными – людям понадобятся практические, критические и цифровые навыки для процветания в будущем обществе. Данная тенденция подчеркивает растущие требования к навыкам по поиску, обработке и использованию информации, а также обращает внимание би-

блиотекарей как на те дивиденды, которые может получить более информационно грамотное общество, так и на будущие риски для людей с низким уровнем таких навыков. Есть распространенное мнение экспертов о том, что что цифровые навыки будут требоваться для все большего числа людей, поскольку, как ожидается, «с появлением генеративного ИИ к 2030 году во всем мире потребуется 161 000 специалистов в области ИИ» [1]. Возрастает значение медийной и информационной грамотности людей как одной из компонент их интеллектуального потенциала, поскольку растущая сложность дипфейков (deepfakes) не предполагает простых способов их обнаружения. Дипфейки (глубокие фейки, от англ. deepfakes) – это медийный контент, созданный технологиями ИИ, которые, как правило, призваны создавать ложную информацию и являются особенно важным и растущим инструментом для дезинформации и цифрового подражания. Дипфейки генерируются алгоритмами машинного обучения в сочетании с программным обеспечением для картирования лиц, которое может вставлять эти данные в цифровой контент без разрешения. При отличном исполнении результатом может быть чрезвычайно правдоподобный – но полностью сфабрикованный – текст (видео или аудиокlip) человека, делающего или говорящего что-то, чего он не делал [3].

5. Цифровые технологии распределены неравномерно – на этой тенденции внимание библиотекарей акцентируется потому, что только цифровая инклузивность увеличит справедливость в обществе, что, как ожидается уменьшит социальную напряженность в обществе и политическую напряженность на международном уровне. На глобальном уровне, менее развитые страны имеют ограниченный и менее качественный доступ к информации, в то время и как на индивидуальном уровне, люди, находящиеся в неблагоприятном положении (например, живущие с низким доходом, имеющие более низкий уровень образования), также с большей вероятностью будут исключены из цифрового мира. Данная тенденция отмечает растущий цифровой разрыв, а также акцентирует внимание на проблемах, возникающих в связи с переходом на получение услуг только в онлайн-режиме. В качестве противодействия углублению цифрового неравенства, 22 сентября 2024 г. мировые лидеры под эгидой ООН собрались в Нью-Йорке на Саммите будущего и приняли Пакт для будущего (Pact for the Future), включающий Глобальный цифровой договор (Global Digital Compact) [4], чтобы наметить дорожную карту для глобального цифрового сотрудничества и использовать огромный потенциал цифровых технологий для ликвидации цифровых разрывов.

6. Информационные системы используют больше ресурсов – наши информационные потребности влияют на планету. Эта тенденция подчеркивает важность присоединения к зеленой экономике, поиск способов решения как экологических, так и социальных проблем. Рост электронных отходов (e-Waste) является сегодня насущной глобальной проблемой. Электронные отходы (аббревиатура: WEEE, e-waste) – это один из видов отходов, содержащих выброшенные электронные и прочие электрические устройства, а также их части, которые могут иметь высокие классы опасности из-за содержащихся в них веществ, таких как

свинец, ртуть, полихлорированные дифенилы, поливинилхлорид (из-за появления диоксидов при сгорании). Согласно Википедии, вес электронных устройств, от которых ежегодно отказывается человечество, составляет около 42 млн. тонн (за 2014 год) [5].

7. Люди ищут связи в сообществе – создание мест для совместного использования пространства и ресурсов является ключом к построению справедливого общества. Речь здесь идет о тенденциях, связанных как с растущей изоляцией людей в цифровом обществе, так и с усилением местных инициатив для развития существующих или создания новых сообществ. Библиотекарям необходимо также обращать внимание на новые способы коммуникаций, на то, чем могут быть полезны различные онлайн-сообщества, и принимать во внимание также существование, появление и влияние более гибких рабочих схем коммуникай между людьми и сообществами.

Всемирная организация здравоохранения отмечает, что «социальная изоляция и одиночество широко распространены, и, по имеющимся экспертным оценкам, 1 из 4 пожилых людей испытывает социальную изоляцию, а от 5% до 15% подростков испытывают одиночество. Большое количество исследований показывает, что социальная изоляция и одиночество оказывают серьезное влияние на физическое и психическое здоровье, качество жизни и продолжительность жизни. Влияние социальной изоляции и одиночества на смертность сопоставимо с влиянием других общеизвестных факторов риска, таких как курение, ожирение и физическая неактивность» [6]. Проводимые библиотеками локальные мероприятия, направленные на развитие сотрудничества внутри местного сообщества, укрепляют его устойчивость и увеличивают его потенциал.

В Отчете ИФЛА о Тенденциях-2024 для каждой тенденции приведены ее ключевые моменты и вопросы по ней для обсуждения профессиональным библиотечным сообществом, а также связанные с той или иной тенденцией вызовы и возможности.

Отчет ИФЛА о тенденциях дает возможность библиотекарям получить структурированное представление о тех вызовах, с которыми они столкнутся в неопределенном, постоянно меняющемся будущем. Понимая, что только релевантные навыки библиотекаря могут стать основной обеспечения устойчивости библиотек и библиотечной профессии перед этими вызовами, участники Саммита ИФЛА в Брисбене провели семинар, специально посвященный обсуждению и формулированию идей и предложений о том, какими должны быть востребованные сегодня и в будущем навыки библиотекаря. Ими была подготовлена Программа навыков (Skill Agenda) [3], дополняющая Отчет ИФЛА о тенденциях-2024.

В Программе определены 3 основные категории навыков:

Практические навыки (practical skills) относятся к техническим способностям, которые могут помочь библиотекарям лучше и безопаснее использовать технологии и другие возможности для достижения большего воздействия на свою аудиторию.

Навыки партнерства (partnership skills) – это те навыки, которые позволяют библиотекарям более эффективно сотрудничать, а также взаимодействовать с их коллегами, сообществами и партнерами.

Навыки личностного развития (personal development skills) – это те навыки, которые помогают библиотекарям мыслить более широко и глубоко, что способствует им в том, чтобы самим стать лидерами и выявлять лучшие качества в других людях.

В Программе по каждой категории навыков приведены конкретные навыки, входящие в данную категорию, дается описание того, что каждый из них означает, почему он важен, какой уровень его развития характерен для сегодняшнего дня и какие шаги необходимо предпринять для его дальнейшего развития.

В заключение своего очень краткого обзора стратегически важных для развития библиотечного дела документов ИФЛА, автор статьи обращает внимание на необходимость стратегического, с учетом международного опыта и идей, подхода к формированию компетенций библиотечных и информационных работников в странах Центральной Азии. Развитие практических, партнерских и личностных навыков становится не просто важной составляющей профессиональной подготовки, но и основой устойчивости библиотек в условиях глобальных трансформаций. Вовлечение библиотекарей в процессы формирования цифрового общества, борьба с дезинформацией, развитие цифровой инклюзивности и укрепление местных сообществ – все это делает библиотечную профессию ключевым элементом современного информационного мира. Именно активное участие в формировании будущего позволяет библиотекам оставаться значимыми и востребованными.

Список литературы

1. Dezuanni M. Digital Media / M. Dezuanni, K. Osman; Research Centre // IFLA Trend Report: Phase 1. Brisbane. – Kvinslend, 2024.
2. Brisbane: digital media research centre / M. Dezuanni, K. Osman, A. Burton, E. Heck // IFLA Trend Report Scenarios: Phase 2. – Kvinslend, 2024.
3. A skills agenda for the trend report. – 2024. – Режим доступа: <https://repository.ifla.org/server/api/core/bitstreams/14feb864-2026-4f48-b2ae-7c1c8c1985f7/content>

Berdiyeva Zuhra Shukurovna

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxona direktori, Turon FA akademigi, Axborot-kututbxona a’lochisi

**BIRINCHI AYOL KUTUBXONASHUNOS OLIMA –
OSIYO QOSIMOVA 95 YOSHDA**

Annotatsiya. XX asrda O‘zbekiston ilm-fanining rivojlanishida, ayniqsa kutubxonachilik fanining va amaliyotining taraqqiyotida ko‘plab rus va mahalliy millat olimlari alohida o‘rin tutgan. Ayniqsa, kutubxonachilik va bibliografiya ilmining rivojlanishi shiga o‘z hayotini va butun faoliyatini bag‘ishlagan o‘zbek olimlarimiz kam bo‘lsa-da, bor. Ulardan biri Qosimova Osiyo G‘afurovnadir. 2025-yil 25-mayda Osiyo G‘afurovna tavlludiga 95 yil bo‘ladi. Maqolada shu insonning hayoti va faoliyati haqida so‘z yuritiladi

Kalit so‘zlar: kutubxonashunoslik, fan, tarjimai hol, O‘zbekiston.

Abstract. On May 25, 2025, the first female librarian Asiya Gafurovna Kasimova will turn 95. Many of us, her students, know or do not know enough about her. In the XX century, a separate place was occupied, although not much, by scientists, library scientists and bibliograph hers in the development of science, especially library science in Uzbekistan. Especially there were Uzbek scientists who devoted their efforts, lives to the development of library science, one of them is the only woman not only in Uzbekistan, but also in Central Asia in our field – this is a doctor of historical sciences, professor Asiya Kasimova.

Keywords: library science, science, biographies, Uzbekistan.

O‘zbekistonda kutubxonachilik sohasining zahmatkashlaridan, fidoyilaridan biri Osiyo G‘ofurovna Qosimova edi. Osiyo Qosimova 1930-yil Namangan shahrida xizmatchi oilasida tavallud topadi va shu shaharda o‘rtta maktabni bitiradi. 1946-yildan, ya’ni 16 yoshidan boshlab Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli Davlat kutubxonasi (hозири O‘zbekiston Milliy kutubxonasi)da “Kitob saqlash bo‘limi”ning kutubxonachisiga yordamchi xodim sifatida ishga olinadi, keyin kutubxonachi va katta kutubxonachi lavozimlarida faoliyat yuritadi. Opaning o‘z hikyasiga ko‘ra, “xalq dushmani”ning qizi bo‘lganligi sababli oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kira olmagan va Moskvaga borib, ariza bilan o‘sha paytdagi sobiq Ittifoq rahbari qabuliga borib, arizasiga katta rahbar imzosi bilan “farzandlar otalar uchun javob bermaydi” degan rezolyutsiya tufayli Toshkentda qolib ketadi va ishga joylashadi. 1950-yili kutubxona rahbariyati tomonidan eng faol kutubxonachi sifatida Sankt-Peterburgdagi (Leningrad) N.K.Krupskaya nomli Madaniyat institutining kutubxonachilik fakultetiga o‘qishga yo‘llanma beriladi. 1954-yili institutni tugatib, Toshkentga qaytib keladi va O‘zbekiston Milliy kutubxonasining ma’lumot-bibliografiya bo‘limida Bosh kutubxonachi lavozimida faoliyatini davom ettiradi. U, asosan, tavsiya xarakteridagi turli mavzularga oid bibliografik ko‘rsatkichlar tuza

boshlaydi. 1960-yili Nizomiy nomli Toshkent pedagogika instituti (hozirgi universitet) da kutubxonachilik va bibliografiya kafedrasи tashkil etilishi munosabati bilan Osiyo opa 1961-yildan kutubxonashunoslik va bibliografiya fanlaridan o‘qituvchilikka taklif etiladi. 1968-yil “Kutubxonashunoslik va bibliografiya“ kafedrasи mudirligi lavozi-miga tanlovdan o‘tadi. 1974-yil Toshkentda sobiq Ittifoqda 14-nchi bo‘lib Madaniyat instituti tashkil etiladi va shu institutda Nizomiy nomli Toshkent pedagogika instituti tarkibidagi kafedra negizida kutubxonachilik fakulteti tashkil etiladi va opa “Kutubxonashunoslik” kafedrasи mudirligida ishini davom ettiradi. 1996-yilga qadar shu lavo-zimda ishlaydi. Shu yillar davomida o‘zbek olima ayollaridan birinchi bo‘lib, sohaga oid darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratdi, ko‘plab rus kutubxonashunos olimla-rining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi, sohaga oid nomzodlik dissertatsiyalariga rahbarlik qildi, kutubxonachi kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shti, turli respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda ishtirok etdi, IFLAning yig‘ilishlarida O‘zbekistondan yagona vakil sifatida ma’ruzalar bilan qatnashdi.

Opa Navoiy nomli MKda ko‘zga ko‘ringan kutubxonachilardan M.P.Avsharova, Ye.D.Svidinalarning shogirdi sifatida va ular bilan hamkorlikda ko‘plab bibliografik ko‘rsatkichlar tuzdi va nashr ettirdi. Birinchilardan bo‘lib o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan yirik ko‘rsatkichlarni o‘zbek tilida nashr ettira boshlaydi, o‘zbek kitobxoni endilikda mamlakatimizda nashr etilayotgan adabiyotlar bilan o‘zbek tilida tanisha boshlaydi. Kutubxona fondida saqlanayotgan V.I.Mejov tomonidan tuzilgan 416 tomlik “Turkiston to‘plami” bilan katta qiziqish ila ish olib bordi, dastlab Ittifoq miqyosidagi sohaga oid “Bibliografiya” jurnalida “Turkiston to‘plami” nomli maqola bilan chiqdi, bu ishning tuzilishini ochib beradi. Ishga va uning tuzuvchisiga jamoatchilik katta baho berdi hamda uni “o‘lkaga oid entsiklopediya” deb atadi. Keyinchalik rus tilida “Turkestanskiy sbornik” nomi bilan risola nashr ettirdi. Opa 1958-yili Leningrad madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari va talabalari ilmiy anjumanida “Alisher Navoiy nomli davlat kutubxonasining “Turkiston to‘plami” nomli ma’ruza bilan ishtirok etdi. Butun faoliyati davomida sohaga oid ko‘plab dolzarb mavzularda vaqtli matbuot nashrlarida, turli to‘plamlarda maqolalar bilan ishtirok etdi.

Osiyo Qosimova muntazam ravishda o‘zining professional bilimini oshirish, ilmiy salohiyatini takomillashtirib borish bilan shug‘ullandi, 1960-yilda muvaffaqiyat bilan imtihonlarni topshirgan Osiyo G‘ofurovna O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti aspiranturasiga qabul qilinadi. Tinimsiz izlanishlar va mehnati tufayli 1965-yilda tarix fanlari nomzodi G.Chabrov rahbarligida nafaqat O‘zbekistonda, balki O‘rta Osiyoda kutubxonachilik sohasida birinchi bo‘lib “O‘zbekiston ommaviy kutubxonalarining rivojlanish tarixi” (1917–1941-yillar) mavzusida nomzodlik ishini himoya qiladi va kutubxonashunos olima sifatida tan olinadi. Dissertatsiya mavzusiga oid qator maqolarida, alohida asarlarida ommaviy kutubxonalar faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni ochib beradi, ommaviy kutubxonalarning istiqboli haqida fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Natijada 1968-yili alohida “O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi” nomli kitobi nashrdan chiqadi. Bu kitob kutubxonachilik fakulteti talabalari uchun “Kutubxonachilik ishi tarixi” fanini o‘rganishda dastlabki va yagona o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib, ko‘p yillar xizmat qildi. Sohaga oid faoliyatda yengillik tug‘dirish maqsadida 1970-yili “Pedagogika

OO‘Ylari kutubxonachilik fakulteti talabalari, texnikumlar o‘quvchilari va kutubxo-nachi-bibliograflar uchun kutubxonashunoslik va bibliografiyaga oid qisqacha izohli lug‘at”ni nashr ettiradi. Ko‘p yillik tajribalari, ilmiy izlanishlari natijasida o‘sha vaqtida O‘zbekistonda va O‘rtta Osiyoda birinchi bo‘lib, 1975-yili akademik Raxima Amino-va rahbarligida 1917–1974-yillar O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixiga bag‘ishlangan doktorlik ilmiy darajasi uchun ilmiy ishini himoya qiladi. Bir qator taviya va takliflarni inobatga olib, aynan shu mavzuda 1982-yili Tarix instituti ilmiy kengashida qaytadan himoyaga chiqadi. Opa ilmiy ishida har bir tarixiy bosqichda kutubxonalar va ularning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, kishilar tarbiyasida kitobning va kutubxo-nalarning ahamiyatini, yutuq va kamchiliklarini, muammolarni ochib bera olgan, bu ish ham kutubxonachilik ishi tarixini o‘rganishda katta material sifatida foydalanildi. 1975-yildan dissertatsiya mavzusi asosida “O‘zbekiston kutubxonachilik-bibliografik tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot ishlarining taraqqiyoti” nomli asari va risolalari, qator maqolalari o‘zbek tilida nashr etiladi. 1981-yili esa o‘zbek va rus tillarida “O‘zbekis-tonda kutubxonachilik ishi tarixi” nomli darsligi e’lon qilinadi. Osiyo opa bu ishida uzoq feodalizm davridan to shu kungacha kutubxonachilik ishi tarixini yoritib bergen, har bir davrda kutubxonalarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy ha-yotida tutgan o‘rnini ochib berishga harakat qilgan. 10 bosma taboqdan iborat hajmdagi bu o‘quv qo‘llanma Madaniyat instituti kutubxonachilik fakulteti talabalari uchun yagona manba bo‘lib xizmat qildi va O‘zbekistonning madaniy-ma’naviy rivojlanish tarixini o‘rganishda katta ahmaiyat kasb etdi. Bu yillarda opa kafedra faoliyatini bosh-qarish jarayonida professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga, ularning siyosiy va kasbiy malakalarini, nazariy va amaliy bilim saviyasini ko‘tarishga ham be-vosita rahbarlik qildi. Kafedra jamoasi opa rahbarligida ko‘plab o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy qo‘llanmalar tayyorladi va nashr ettirdi. Jumladan, men ham opaning rahbarligi va tavsiyasi bilan bir qator uslubiy qo‘llanmalarni tayyorladim va ular mamlakatimiz kutubxonalari faoliyatida qo‘llanildi.

O‘sha paytlarda kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik ishlari markazi Moskva davlat madaniyat institutida edi. Ilmiy Kengash ham shu va Sankt-Peterburg Madaniyat instituti qoshida edi. Biz, o‘qituvchilar, malaka oshirish uchun Rossiya dav-latiga ijodiy yo‘llanma olar edik. Osiyo Qosimovaning obro‘-etibori, nufuzi Yevropa mamlakatlarida katta edi. Malaka oshirishga, aspiranturaga, Ilmiy kengashga borgan har bir soha vakiliga opaning yordami albatta tegardi. Sohaga oid asosiy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy ishlar albatta Rossiyada nashr etilar edi va barcha respublikalardagi kutubxonachilik fakultetlari uchun ilmiy-uslubiy markaz sifatida ham ta’siri bor edi. O‘zbek tilida o‘tiladigan fanlarni o‘rganish uchun ulardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Osiyo opa rus olimlarining bir qator darsliklarini o‘zbek tiliga o‘giradi. Bular-O.S.Chubaryanning “Umumiyl kutubxonashunoslik”, Abramov K.I. ning “Kutubxonachilik ishi tarixi”, “Kutubxona fondlari” kabilar.

Osiyo G‘ofurovna 1954-yildan Toshkent madaniyat texnikumida “Kutubxonashunoslik” fanini o‘qitish bilan o‘z o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. Keyinchalik Qo‘qon pedagogika institutida, Toshkent pedagogika institutida, 1974-yildan Toshkent madaniyat institutida, malaka oshirish instituti va fakultetlarida bir qator kutubxonashunoslik

fanlaridan ma’ruzalar o‘qidi. Osiyo opadagi sinchkovlik, qattiqqo’llik, talabchanlik, har bir o‘qituvchining o‘ziga xos xususiyatiga qarab vazifa berish va talab etish fazilati kuchli edi. Soha vakillari opani soha uchun “qalqon” deb bilishardi. Kutubxonachilik ishi sohasiga bo‘ladigan har qanday tahdid va tazyiqlar uchun ko‘ksini qalqon qila olar, o‘z qo‘l ostidagi xodimlarni himoya qila olar edi. Nafaqat mamlakatimiz, balki boshqa mamlakatlar kutubxonalarida ham hozirga qadar opadan ta’lim olgan minglab xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda. O‘ta mehnatkash, tirishqoq, “ushlagan joyini uzadigan”, ham o‘zbek, ham rus tillarida mukammal savodga ega bo‘lgan, umrining asosiy qismini Toshkent shahrida o‘tkazgan bo‘lsa-da, namangancha shevasini yo‘qotmagan, erkaklar qolib ayollarning havasini va hasadini keltiradigan go‘zal, suqlanib qarasa arziyidigan ayol edilar.

Osiyo Qosimova 1965-yilda tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun “1917–1941-yillarda O‘zbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmog‘ining rivojlanishi” nomli 267 sahifadan iborat ilmiy ishini Oliy attestatsiya komissiyasining RF 07.00.00, tarix fanlari nomzodi shifri ostida himoya qiladi. Ish hajmi juda katta, mazmuni ham a’lo darajada. Ishning titul varag‘ida ko‘rsatilishicha, ish o‘sha paytdagi V.I.Lenin nomidagi Milliy universitetning tarix fakulteti, SSSR tarixi kafedrasida bajarilgan. Ishga tarix fanlari nomzodi, dotsent, kutubxonashunoslik fani taraqqiyotida, kadrlar tayyorlash tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan G.N. Chabrov ilmiy rahbarlik qilgan.

Ish hozirgi kunda Rossiya Davlat kutubxonasi (Rossiya Milliy kutubxonasi) fonda saqlanadi (61.01-7/542-5 raqami ostida) .

Ishning 1-bobida O‘zbekistonning qadimgi kutubxonalari, O‘rtal Osiyoda va Rossiyada kutubxonalar tarixi haqida ocherk, O‘rtal Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinganidan keyingi davrida kutubxonalar va shu bo‘limning ichida Toshkentdagi Turkiston ommaviy kutubxonasi, inqilobga qadar Turkistonda kutubxonachilik ishi masalalari olib berilgan. Ishning 2-bobi 1918-1924-yillarda Turkiston Avtonom Respublikasida kutubxonachilik ishi, 3-bobda 1924-1932-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kutubxonachilik ishi va ommaviy kutubxonalar tarmog‘ining rivojlanishi, shu bobning o‘zida 1924-1927-yillar- birinchi besh yillik boshlarigacha kutubxonalar tizimi, 1928-1932-yillar – birinchi besh yillik davrida kutubxonachilik ishi tarixi yoritilgan. Ishning 4-bobi 1933-1941-yillar 2- va 3-besh yillikda kutubxonachilik ishi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasida kutubxonachilik ishi taraqqiyoti va uning 1934-yil 27-martda SSR Markaziy ijroiya qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan “Sovet Ittifoqida kutubxonachilik ishi to‘g‘risida”gi Qaroridan 1938-yilgacha bo‘lgan davrdagi holati, 1938-1941-yillar Ulug‘ Vatan urushi boshlanishiqa qadar O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi taraqqiyotiga bag‘ishlangan. Kutubxonachilik ishi sohasida o‘sha paytda yaratilgan eng katta hajmdagi ish bo‘lganligi bilan ham ilmiy, ham tarixiy qimmatga ega. Har bir qism o‘sha davr masalalari bilan bog‘liq holda yoritilgan. Har bir davrda kutubxonalar faoliyati, ularning dolzarb masalalari, kadrlar tayyorlashga bo‘lgan e’tibor, kutubxonalarning ommaviy tadbirlari, ularning kishilarni tarbiyalashdagi o‘rni, ta’siri olib berilgan. Juda katta davr o‘rganilgan. Shulardan kelib chiqib, kattagina xulosa ham berilgan.

O‘rtta Osiyoning Rossiyaga qo‘sib olingeniga qadar (o‘scha davrda Rossiyaning O‘rtta Osiyon bosib olinishi degan fikr bo‘lman) Buxoro, Samarqand, Xiva kabi yirik shaharlarda ko‘plab saroy va ibodatxona kutubxonalar bo‘lgan. Ularning fondi kam nusxada bo‘lsada XX asrgacha etib kelgan. Dastlabki Yevropa tipidagi kutubxonalar rus va chet tillardagi adabiyotlar fondi bilan O‘rtta Osiyoning Rossiyaga qo‘sib olinishidan keyin paydo bo‘lgan va 1970 yil Turkiston ommaviy kutubxonasi tashkil etilgan.

Turkiston harbiy rahbariyati juda erta harbiy qismlarda harbiy kutubxonalar tashkil etilishiga g‘amxo‘rlik qiladi. Juda ko‘plab harbiy qismlarda kamida 10 ta harbiy xizmatchi bo‘lsa ham kichiknagina harbiy kutubxonalar ochilgan. Kitob fondi biror bir fitnali muammo kelib chiqmasligi uchun qattiq nazorat ostida to‘plangan. Viloyat va okrug hududlarida asosan xususiy va jamoatchilik asosida kutubxonalar tashkil etilgan va pullik xizmat ko‘rsatgan. XIX asr boshlarida Qo‘qon va Namangan shahar kutubxonalarini va XX asr boshlarida Samarqand viloyatida qiroatxonalar, 1911-yilda esa Samarqandda eng katta jamoatchilik kutubxonasi-shahar ommaviy kutubxonasi tashkil etiladi.

O‘scha yillari kasalxonalar, mакtablar, gimnaziyalar, harbiy gospitallar va tashkilotlar qoshida ham kichik kutubxonalar tashkil etiladi. Kutubxonalar mas’uliyat va mehr bilan tashkil etilgan bo‘lsada, ular faqat ilmiy jamiyatlar va tashkilot xodimlarigagina xizmat ko‘rsatadi. 1917-yilga kelib Turkiston hududida 2 ta ommaviy, bir qancha shahar, bir necha pullik, xususiy, ilmiy va jamoatchilik tashkilotlari kutubxonalarini mavjud edi.

XX asrning dastlabki yillarida musulmon kutubxonalarini tashkil etila boshlagan. Osiyo G‘afurovna inqilobga qadar kutubxonachilik ishidagi asosiy kamchilik ularning keng kitobxonlar ommasiga xizmat ko‘rsatishdan cheklangan ekanligini ko‘rsatadi. Bir qancha kutubxonlarning Turkiston o‘lkasi tub aholisiga kam bo‘lsada xizmat ko‘rsatganini, bu esa O‘rtta Osiyoning Rossiyaga qo‘sib olingenining natijasi ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Ilmiy ishda kutubxonachi kadrlar tayyorlash yo‘nalishiga oid ma‘lmotlar ham berilgan. Shunga qaramay, birorta ham qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatadigan kutubxona mavjud bo‘lman. Yangidan tashkil topayotgan kutubxonalar esa maxsus kadrlarga muhtoj edi. Ularni kadrlar bilan ta’minalash maqsadida O‘rtta Osiyoda birinchi marta 2 oylik kurslar tashkil etiladi. 40 ta kutubxonachilar tayyorlanadi, Samarqandda yana qisqa muddatli kurslarda 27 ta kadr tayyorlanadi. 1920-yil boshiga kelib Sovet Turkistonida 174 kutubxona, 172 ta qiroatxona, 178 ta qizil choyxonalar kichik kutubxonalarini bilan faoliyat olib borgan. Umuman, Osiyo G‘afurovnaning ilmiy ishi sohaga oid dastlabki yirik tadqiqot natijasi bo‘lib, sermazmun va kutubxonachilik ishi tarixini yorituvchi asosiy manba bo‘lib qolgan. Afsuski, biz o‘z vaqtida bu ishni o‘rganib, tahlil qilib, amaliyotga joriy eta bilmadik. 1920-yil 3 noyabrda “RSFSR da kutubxonachilik ishini markazlashtirish haqida” hukumat qarori qabul qilingandan so‘ng Turkiston ASSRda ham kutubxonachilik ishini markazlashtirish ishlari olib borildi. Xullas, ishda birinchi marta Turkistonda, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan barcha turdagiligi kutubxonalar, ularning faoliyati, jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini ochib berilgan. O.Qosimovaga qadar tarixiy va tahliliy nuqtai nazardan bunday yirik ilmiy-tadqiqot ishi bo‘lman. Sohaga oid ilmiy tadqiqot ishi olib borayotgan, turli mutaxassislik fanlaridan,

ayniqsa kutubxonachilik ishi tarixidan o‘quv mashg‘ulotlarini olib borayotgan professor-o‘qituvchilar uchun barcha ma’lumotlar bir joyga to‘plangan bu ish juda katta ahamiyatga ega. Fundamental kutubxona fondida D-4378 raqami ostida O.G‘ofurovaning 1975-yil dekabr oyida himoyaga chiqqan “O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi taraqqiyotining tarixi va uning mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashdagi roli (1917–1974-yy.) nomli dissertatsiyasi va avtoreferati (188-14 inv.raqamida, keyinchalik AR-33316) saqlanadi. Bu nomzodlik ishidan 7 yil keyin amalga oshirilgan ish edi. Sarlavha ustida Toshkent Davlat madaniyat in-ti deb ko‘rsatilgan, ilmiy maslahatchi tarix fanlari doktori, professor, Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi R.X.Aminova berilgan. Rasmiy opponenti U.A.Nemirovskiy va S.X.Nosirxodjaev, yetakchi tashkilot N.K.Krupskaya nomidagi Leningrad Davlat Madaniyat instituti edi.

Fundamental kutubxonaning dissertatsiyalar fondida 5054-raqami ostida saqlanayotgan Qosimovaning yana bir 1982-yilda doktorlik ilmiy darajasi uchun tayyorlagan “O‘zbekiston SSRda kutubxonachilik ishi taraqqiyoti tarixi va uning mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashda uning roli (1917–1975-yy.)” nomli bir oz o‘zgartirilgan ishi hamda avtoreferati saqlanmoqda. Avtoreferati AR-37998-raqami ostida bo‘lib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida 1982-yil oktyabr oyida himoya qilingan. Nazarimda 1975-yilgi ishi OAKning tasdig‘idan o‘tmagan va uni o‘zgartirish talab qilingan. 1975-yilgi nusxasi 361 sahifadan iborat bo‘lsa, 1982-yilgi nusxasi 370 sahifadan iborat. Mazmun jihatidan katta o‘zgarish yo‘q, ammo tarkibiy tuzilishida o‘zgarish bor. 1975-yilgi varianti 1974-yilgacha yoritilgan bo‘lsa, 1982-yilgisida 1975-yilgacha deb ko‘rsatilgan. Ma’lumki, 1974-yil 25-maydagi hukumat qarori “Mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashda kutubxonalarning rolini oshirish to‘g‘hrisida” deb nomlangan bo‘lib, o‘sha davr uchun muhim edi va dissertation 2-variantda 1975-yilgacha deb ko‘rsatib, kutubxonalarning qaror asosida rolini ko‘rsatishga uringan. Ikkinci variant mazmun jihatidan ancha pishiq, sifatli tayyorlangan, bunda albatta ilmiy maslahatchi Rahima Xodievna Aminovaning ta’siri katta. Albatta, dissertatsiyaning sifati, mazmundorligi, ilm uchun, amaliy taraqqiyot uchun ahamiyati ko‘p jihatdan ilmiy rahbarning talabchanligiga, nazoratiga, bilimiga, ilmda tutgan o‘rniga bog‘liq. Men Osiyo opaning ilmiy rahbarim Rahima Aminovadan faxrlanganiga ko‘p marta guvoh bo‘lganman. Ilmiy ish 3 ta yirik bobdan iborat bo‘lgan. 1-bobi “O‘zbekistonda sotsializm qurilishi va g‘alabasi davrida kutubxonachilik ishining tashkil etilishi va taraqqiyoti” mavzusida bo‘lib, 1917-yil iyunidan to 1941-yilgacha bo‘lgan davrni ochib beradi. Bob 2 ta paragrafdan iborat bo‘lib, 1-paragrafda kutubxonalar tarmog‘ining paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi masalasiga, 2-paragraf Urushgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston kutubxonalarining sotsialistik qurilish vazifalarini hal etishdagi faol ishtiroki masalasiga qaratilgan. Ilmiy tadqiqotning 2-bobi “O‘zbekiston SSRda Ulug‘ Vatan urushi yillarida kutubxonachilik ishi va uning kelgusi, Ulug‘ Vatan urushi yakuni va sotsializm g‘alabasi davrida kutubxonachilik ishi (1941–1958-yy.), 1-paragraf “Ulug‘ Vatan urushi yillarida urush orti vazifalari va front ehtiyojlariga bog‘liq holda respublika kutubxonalari faoliyatini qayta qurish” (1941–1945-yy.), 2-parografi ”Xalq xo‘jaligini tiklash va kelgusi taraqqiyotida kutubxonalar faoliyati” (1946–1950-yy.), 3-parografi “Urushdan keyingi besh yilliklarda kutubxonalar ishini takomillashtirish

xususiyatlari” (1951–1958 yy.) ni olib bergan. Ishning 3-bobi “ Rivojlangan sotsialistik jamiyat sharoitida O‘zbekiston SSR kutubxonalarining faoliyati” (1959–1975-yy.) bo‘limi quyidagi paragraflardan iborat: 1. KPSS MKning 1959-yil sentyabr oyida qabul qilgan “Mamlakatda kutubxonachilik ishining ahvoli va uni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risila ”gi Qarori – O‘zbekiston kutubxonalari faoliyatini takomillashtirishning kompleks istiqbolli dasturi”, “Kutubxonalarning yagona tizimini tashkil etish – aholiga kitob va axborot bilan xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishning muhim sharti”, Kitob fondidan foydalanishni takomillashtirish kitobxonlarni kommunistik ruhda tarbiyalashning harakatchan vositasi sifatida”, Kommunistik tarbiya masalalariga oid KPSS ko‘rsatmalarini amalga oshirish – kutubxonalar ideologik ishining asosiy yo‘nalishi”, KPSS XXIV syezdi va O‘zbekistonda kutubxonachilik ishining rivojlanish istiqbollari”. Ilmiy ish 370 sahifadan iborat va o‘sha davr tarix fani uchun muhim ahamiyatga ega. Ish yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati berilgan bo‘lib, ishga oid 291 ta adabiyot, 369 ta arxiv materiallari, 10 ta dissertatsiya ro‘yhati berilgan. Shu dissertatsiyalar asosida O.Qosimova turli yillarda kutubxonachilik ishi tarixiga oid o‘quv qo‘llanmalarini nashr etdi. Ko‘plab Rossiyalik ustozlarining darsliklarini, o‘quv qo‘llanmalarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O.Qosimova tomonidan bir-birini davom etti-ruvchi va to‘ldiruvchi bu ikki dissertatsiya ishining ahamiyati katta ekanligini tushunib yetishimiz kerak. Turli sabablar bilan ilmiy tadqiqot ishi o‘z vaqtida o‘rganilmadi, e’tibor berilmadi, lekin meni hayratga solgan narsa – ish uchun olingen davrning kattaligi, mazmunning serma’noligi, ko‘rib chiqilgan adabiyotlarning va arxiv materiallarining hajmi, har bir davrning jamiyat tarixi, taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda olib berilgani. Shu paytga qadar O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixini turli davr va yo‘nalishlarda Boqbillo Karimov 1941–1974-yillarni o‘z ichiga olgan “O‘zbekiston SSR ilmiy kutubxonalari taraqqiyoti”, Rahimova M.A. 1917–1941-yillarni yoritib bergan “O‘zbekiston SSR da ilmiy kutubxonalarning rivojlanish tarixi”(1973-y.) kabi ishlar amalga oshirilgan.

Kelgusidagi vazifamiz- ustozlarning ishini davom ettirish. Ular o‘rgangan davrdan bu yog‘ini ilmiy tadqiq qilish, zamon talabalaridan kelib chiqib. Chunki har bir davrda yaratilgan asar o‘sha davr siyosati, iqtisodi, ma’naviyati, madaniyati ta’sirida dunyoga keladi, o‘sha davr vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, o‘sha davr ideologiyasiga ta’sir qiladi va bu ideologiya yaratilayotgan asarlarga ta’sirini o‘tkazadi. Chunki, kutubxonachilik ishi, ayniqsa kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, ularni kitob yordamida tarbiyalash shu makon va zamondan tashqariga chiqib keta olmaydi. Endi bizning vazifamiz kutubxonachilik ishi tarixini yangitdan yaratish. Kelgusi avlodga aniq, ilmiy va tarixiy jihatdan asoslangan ma’lumotlarni qoldirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кормилицын А.И. Библиотековеды и библиографы Узбекистана: очерки и воспоминания / НБ Узбекистана им. Алишера Навои, ТашГИК им. А.Кадыри; отв. ред. А.Умаров. – Ташкент: Изд-во НБ Узбекистана им. А.Навои, 2005.– С.174–185.
2. Berdieva Z.Sh. Birinchi o‘zbek kutubxonashunos olimasi: Osiyo Qosimova xotirasiga bag‘ishlanadi // INFOLIB axborot-kutubxona xabarnomasi. – 2015. – № 2. – В. 74–75. – Meros.
3. Касымова А.Г. История развития библиотечного дела в Узбекистане и его роль в коммунистическом воспитании трудящихся: (1917–1974 гг.) (специальность 07.00.02-история СССР): автореф.дисс. ... докт. истор. наук. – Академия Наук Узбекской ССР. Объединен. учен. совет по истории, отделения истории, языкоznания и литературоведения.– Ташкент, 1975. – 48 с.
4. Касымова А.Г.История развития библиотечного дела в Узбекской ССР и его роль в коммунистическом воспитании трудящихся: (1917–1975 гг.) /Академия Наук Узбекской ССР. Институт истории:автореф. дисс.... докт. ист. наук.–Ташкент, 1982. – 47 с.
5. Касымова А.Г.История развития библиотечного дела в Узбекистане и его роль в коммунистическом воспитании трудящихся: (1917–1974 гг.) (специальность 07.00.02-история СССР): дисс....докт. истор наук, научн. консультант Р.Х.Аминова. – Ташкентский Гос.ин-т кулы. – Ташкент, 1975. – 361 с.
6. Касымова А.Г. История развития библиотечного дела в Узбекской ССР и его роль в коммунистическом воспитании трудящихся: (1917–1975 гг.) /Академия Наук Узбекской ССР. Институт истории.: дисс. ...докт. ист. наук. – Ташкент, 1982. – 370 с.

Baxodir Usmonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti dekani, dotsent*

BANKLAR BITIRUVCHI TALABALARING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHLASHDA ISHONCHLI SHERIK SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda yoshlarga mikromoliyaviy ko'mak ko'r-satish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, tijorat banklari ishtirokida amalgamolayotgan moliyaviy dasturlar, xususan "Kelajakka qadam" loyihasining ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilayotgan kreditlash mexanizmlari, trening va maslahat xizmati, shuningdek, banklar bilan ta'lim muassasalari o'rtaisdagi hamkorlikning ijobiliy jihatlari yoritilgan. Tahlillar asosida mikromoliyalash orqali yoshlar bandligini ta'minlash va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy yondashuvlar muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan..

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, mikromoliyalash, tijorat banklari, kreditlash, bandlik, startap, moliyaviy savodxonlik, biznes inkubator, O'zbekiston yoshlari

Abstract. The article analyzes the measures being implemented in Uzbekistan to provide microfinancial support to young people and involve them in entrepreneurial activities. In particular, it highlights the significance of financial programs carried out with the participation of commercial banks, especially the "Step into the Future" initiative. The article also explores mechanisms of lending that enhance youth economic activity, practical training and consulting services, as well as the positive aspects of cooperation between banks and educational institutions. Based on the analysis, modern approaches to microfinancing are identified as key factors in ensuring youth employment and supporting their business initiatives.

Keywords: Entrepreneurship, Microfinancing, Commercial Banks, Lending, Employment, Startups, Financial Literacy, Business Incubator, Youth of Uzbekistan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarini tamomlayotgan yoshlarga o'z biznesini boshlash, iqtisodiy mustaqillikka erishish va innovatsion g'oyalarni amaliyatga joriy etishda zaruriy moliyaviy va maslahat ko'magi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, banklar talaba-yoshlarga ishonchli sherik sifatida qaralmoqda. Bitiruvchi kurs talabalarning bitirgandan so'ng jamiyatda o'z o'rnini topishda davlatimiz tomonidan ko'plab ishlar amalgamolayotgan.

O'zbekiston Milliy banki tomonidan amalgamolayotgan "Kelajakka qadam" loyihasi yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks dasturdir.

Milliy bank oliv ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda 95 ta “Kelajakka qadam” markazlarini tashkil etdi. Bu markazlar bitiruvchi va yuqori bosqich talabalarning biznes g‘oyalarini aniqlash, ularni rivojlantirish va moliyalashtirishga ko‘maklashadi. Markazlar orqali talabalar biznes reja tuzish, kredit hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha maslahatlar olishadi va amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Milliy bank bitiruvchilarning biznes g‘oyalarini moliyalashtirish uchun 100 million so‘mgacha bo‘lgan imtiyozli kreditlarni 7 yil muddatga taqdim etadi. Bu kreditlar orqa-li yoshlar o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlari mumkin.

Dastur doirasida ish beruvchilar bilan hamkorlikda ochiq tanlovlari o‘tkazilib, bitiruvchilar uchun individual kasbiy ta’lim dasturlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, talabalar ishlab chiqarish obyektlarida amaliyot o‘tashlari va zarur hollarda chet eldag‘ oliy ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli kurslarda ishtirot etishlari nazarda tutilgan. Banklar nafaqat startaplar uchun kredit ajratish, balki biznes-reja tuzish, moliyaviy sa-vodxonlikni oshirish, maslahatlar berish kabi ko‘plab xizmatlarni taklif qilmoqda. Bu esa yosh tadbirkorlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

O‘z navbatida, banklarning talabalarga bo‘lgan bunday yondashuvi ikki tomonlama manfaatlidir: banklar innovatsion g‘oyalarga ega yangi mijozlarni topadi, talabalar esa o‘z biznesini boshlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, banklar bitiruvchi talabalarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashda haqiqiy va ishonchli sherik bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonlari tadbirkorlar hayotida bir qancha ijobiy o‘zgarishlarga erishish imkoniyatini berdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlan-tirish bo‘yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltiryapmiz. Na-tijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo‘lib, ming-lab doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda.

2021-2024 yillar mobaynida tadbirkorlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, minglab murojaatnomalarda ko‘tarilgan muammolarni hal etish va ularning takliflarini amalga oshirishga qaratilgan dasturlar, 90 ga yaqin farmon va qarorlar, xattoki qonunlar qabul qilindi. Biznesni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun 130 trillion so‘m kredit-lar, 3,5 trillion so‘mlik subsidiya va kompensatsiyalar ajratildi.

Ilgari kredit, bozor topish, infratuzilma bilan bog‘liq muammolar, tinimsiz “tek-shir-tekshirlar” sababli 60 foiz yangi tadbirkorlar faoliyati birinchi yilning o‘zidayoq to‘xtab qolar edi.

Hozir-chi? Bugunga kelib, uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etib, ilk bor 300 mingtaga yetdi. Yana 100 mingdan ziyod shunday yakka tartib-dagi tadbirkorlar bor.

Bu yilning o‘zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga ko‘payib, 986 trillion so‘mga yetdi. Yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan 100 milliard so‘mgacha bo‘lgan o‘rta korxonalar 2 karra ko‘paydi. Aylanmasi 100 milliard so‘mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 ming 200 tadan oshdi. Bu ham – o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘p bo‘ldi.

Biroq, so‘nggi yillarda xalqaro maydonda bo‘layotgan o‘zgarishlar dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizga ham katta ta’sir o‘tkazmoqda. Iqtisodiy faollikning pasayishi, tashqi savdo, logistika, oziq-ovqat va xomashyo narxlari, energiya bilan barqaror ta’minlashdagi muammolar tadbirkorlarni albatta xavotirga solmoqda.

Turli ziddiyatlar tufayli davlatlararo logistika va mahsulot yetkazib berish zanjiringning uzilgani, hamkor mamlakatlar valyutasining qadrsizlangani, global miqyosda inflyatsiya darajasining yuqori bo‘lib qolayotgani oqibatida moliyaviy resurslarning qimmatlashishi kabi ko‘pgina omillar ta’siri faoliyat yuritayotgan hamda o‘z faoliyatini boshlash arafasida bo‘lgan tadbirkorlarga salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Bundan tashqari, hammaga ma’lumki 2024 yil oxiriga kelib mamlakat aholisi soni 37,5 millionga yaqinlashib qoldi. Ularga daromad manbalarini topish, ish bilan ta’minlash, o‘z ishlarini boshlab olish uchun imkoniyatlar yaratish bilan bog‘liq muammolar soni ham kundan-kunga ko‘paymoqda.

2021–2024-yillar mobaynida tadbirkorlik uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish maqsadida, tadbirkorlarning fikr-mulohazalari, ulardan kelib tushgan murojaatnomalar asosida, tadbirkorlarning takliflariga amaliy javob bera oladigan 90 ga yaqin qaror va farmonlar hamda qonunlar majmuasi yaratildi.

Lekin tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning birinchi va asosiy yo‘nalishlari dan bo‘lib kichik va o‘rta biznesni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashni ko‘paytirish hisoblanmoqda.

Mazkur yo‘nalishda ham mamlakatimizda bir qancha ishlar olib borildi. 2024-yil mobaynida kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy qilindi. Ushbu yo‘nalishda Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, 2024 yil boshidan 35 mingdan ortiq tadbirkorlarga o‘rtacha 100 million so‘mdan jami 3,5 trillion so‘m mikrokreditlar ajratildi.

Bundan tashqari, “Biznesga birinchi qadam” dasturi bo‘yicha tadbirkorlikni endi boshlayotgan 115 ming aholiga 1 trillion so‘mlik mikroqarzlar berildi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan holatlarning asosiy moliyachisi, ya’ni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash asosan tijorat banklari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilmoqda. Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni bugungi kunda 36 tani tashkil etmoqda. Yangi banklarni shakllantirish esa hozirda qiyinlashib bormoqda. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablarini bo‘yicha 2025-yil 1-yanvaridan yangi tashkil etilayotgan banklarning minimal ustav kapitali 500,0 mlrd.so‘mdan kam bo‘lmasi kerak. Ushbu miqdordagi kapitalni shakllantirish orqali banklarni tashkil etish ko‘pgina tadbirkorlar uchun mushkul hisoblanadi. Shu sababli tadbirkorlarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashda tijorat banklarining soni yetarli emas. Shuning uchun bugungi kunda mikromoliya bozorida nobank tashkilotlarining soni va ahamiyati oshib bormoqda.

2024-yil yakunlari bo‘yicha mamlakatda faoliyat yuritayotgan 100 ta mikromoliya tashkloti tomonidan berilgan mikromoliyaviy mablag‘lari, ya’ni kredit va mikrolizinglari miqdori 7301,6 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi. Vaholanki ushbu yo‘na-

lishda mikromoliya tashkilotlari tmoonidan 2024-yil 1-yanvariga berilgan kreditlar hajmi 3979,6 mlrd.so‘mni tashkil etgan. Bir mobaynida mikromoliya tashkilotlarining kredit va lizing operatsiyalari hajmi 183,5 %ga o‘sgan. Xuddi shundan holat lombard tashkilotlarida ham kuzatilgan. Lombardlar orqali aholiga berilgan kreditlar miqdori 2024-yil 1-yanvarida 279,5 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yanvar holatiga ularning kreditlari portfeli 415,0 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan, o‘sish yil davomida 148,5% ni tashkil etgan.

Yuqorida faoliyat olib borayotgan tijorat banklari va nobank tashkilotlari tomonidan berilayotgan moliyaviy mablag‘lar miqdori oshsada, ammo o‘sib borayotgan tadbirkorlar va aholi talabini to‘liq qondira olmayapti. Bundan tashqari ushbu tashkilotlar orasidagi munosabatlar ayroq holda bo‘lib, ular o‘rtasida bog‘liqliklar juda pastdir. Shuning uchun ma’sul tashkilotlar tomonidan tijorat banklari va nobank tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirish, ular o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni mustahkamlash, mikromoliyalashtirish borasida olib borilayotgan amaliy ishlarni kengaytirish shni davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Shuni alohida aytish lozimki, “Mikromoliyalashtirish” sohasini takomillashtirilish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasida “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi, 2023-yil noyabrda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rnini va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–364-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qonun va qaror bilan mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in yaratish, shuningdek, mikromoliya tashkilotlari uchun qo‘srimcha moliyaviy resurslar, shu jumladan, depozit jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bank xizmatlarini ruxsat etilgan shartlar asosida ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan yuridik shaxs – mikromoliya banki institutini joriy qilish, mikromoliya tashkilotlari mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga hamda aksincha transformatsiya qilishning huquqiy asoslari yaratildi.

Mikromoliyalash umumiyligi holda yuridik va jismoniy shaxslarga mikroqarzlar bershish bo‘yicha faoliyatni ifodalaydi. Mikromoliyalashning bank kreditlashidan farqi beriladigan mablag‘lar miqdori, odatda, kreditlarning minimal miqdoridan kam bo‘lishi, odatda, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan qarz oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, mahalliy miqyosga yo‘naltirilganligi va kreditorning qarz oluvchiga yaqinligi, shuningdek, kreditor sifatida, odatda, kreditga kamroq ixtisoslashgan moliya tashkilotlarining ishtiroy etishi va ularga nisbatan nazorat hamda tartibga solish meyorlarining qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, nobank tashkilotlari tomonidan mikromoliyalashdagi mijozlarining ayrim segmentlari bank tashkilotlari mijozlariga nisbatan belgilanadigan segment-kredit riskining yuqoriligi bilan ajralib turishi va shunga mos ravishda ushbu segmentdagi foiz stavkalarining nominal bank stavkalaridan sezilarli darajada yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Mikromoliyalashtirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mikromoliyalash esa hududiy joylashuvi, moliyaviy infratuzilmaning yetarli

darajada rivojlanmaganligi yoki kredit tavakkalchiligi darajasi tufayli an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan aholi qatlamlari va korxonalariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish vositasi hisoblanadi. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, dunyoda 140 milliondan ortiq kishi turli mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanadi va mikromoliya tashkilotlarining umumiy portfeli 124 milliard dollardan oshadi.

Umuman olganda jahon tajribasi shundan darak beradiki, mikromoliyalash dastlab aholini o'zini-o'zi ish bilan ta'minlashga bog'liq bo'lgan kambag'al odamlarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini ochish usuli sifatida ko'rsatilgan. Keng ma'noda mikromoliyalash aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yordam ko'rsatishning yangi usulini namoyish etadi, bunda to'g'ridan-to'g'ri davlat yordami moliyaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy maqsadlarga ham ega bo'lgan tashkilotlar orqali moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari bilan almashtiriladi. Asosiy g'oya juda oddiy: mikromoliyalash mijozlarning boshlang'ich biznesini kapital bilan ta'minlash orqali o'zgartiradi; bu qarz oluvchilarning daromadlarini oshiradi va natijada qashshoqlikni bartaraf etadi.

Biroq, mikromoliyalash kredit shartnomalariga asosan, innovatsiyalarni joriy etish uchun ham qo'llanilishi mumkin, xususan, guruhli kreditlash va muddatli kreditlash kabilar shular jumlasiga kiradi.

Lekin O'zbekistonda jahon tajribasiga asoslanib, mikromoliyaviy faoliyatni tegishli ravishda tashkil etish maqsadida shakllantirilishi rejalshtirilgan mikromoliya banklari mamlakatda kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim vositasiga aylanishi mumkin.

Chunki mikromoliya banklari mikromoliyalashtirishning ichki manbalariga yo'naltirilganlik konsepsiyasiga mos keladi va mikromoliya banklarining kredit tizimini rivojlantirishiga ko'maklashadi, bu esa tashqi global iqtisodiy tahdidlar sharoitida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashuvchi vosita sifatidagi rolini oshiradi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida mikromoliya bozorida miikromoliya institutlarini, yuqori kredit riski bilan bog'liq bo'lgan holatlarini bartaraf etishga, hududiy nomutanosibliklarni yo'qotib, kredit tashkilotlarini barcha mahalla va hududlarda shakllantishga imkon yaratadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mikromoliyalash bozori, birinchi navbatda, quyidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun samarali vosita sifatida qo'llaniladi: ishsizlik darajasini pasaytirish, ijodiy va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali fuqarolarning ijtimoiy jihatdan noqulay toifalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash; migrantlar va ko'chib kelganlarning jamiyatga og'riqsiz integratsiyasini ta'minlash.

Demak, rivojlangan mamlakatlarda mikromoliyalash aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan tortib, tadbirkorlik tashabbusini rag'batlantirishgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning butun bir doirasini hal etib, ham nodavlat tashkilotlar, ham ixtisoslashgan davlat va yarim davlat muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bayon etilganlarni umumlashtirib, shuni xulosa qilish kerakki, mikromoliyaviy xizmatlar bozori bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, sanoati eng rivojlangan mamlakatlarda ham yetarli darajada keng tarqalgan.

O‘z navbatida shuni ta’kidlash lozimki, mikromoliyalash dasturlaridan foydalanish bozorlari o‘zning raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi. Shu munosabat bilan ko‘pgina mamlakatlarda mikromoliyalash iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Jahon hamjamiyatining ko‘plab mamlakatlarida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan mikromoliyalashtirish va turli mikrokreditlash dasturlari tajribasi asosida mamlakatimizda shakllanayotgan mikromoliya banklariga berilayotgan keng imkoniyatlar va bildirilayotgan o‘ziga xos xususiyat ishonch unga davlatning ma’lum bir vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltiradi.

Har bir mamlakatda mikromoliya banklari va mikromoliyatirish tizimining rivojlanishi mazkur davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy xususiyatlari bilan belgilanadi. Agar kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan va iqtisodiyoti rivojlanmagan sektorga ega bo‘lgan mamlakatlarda mikromoliyalash aholining o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qashshoqlik va kambag‘allikka qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida qaralsa, rivojlangan mamlakatlarda mikromoliyalash ijtimoiy muammolarni hal qilishning samarali iqtisodiy vositasi sifatida kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, shuni yana bir bor ta’kidlash kerakki, barcha hollarda mikromoliyaviy xizmatlar bozori o‘z funksiyalarini amalga oshirgan holda va iqtisodiy jihatdan rentabelli faoliyat turi sifatida xayriya emas, balki birinchi navbatda ijtimoiy yo‘naltirilgan biznesdir.

Albatta, O‘zbekistonda yuksak rivojlanishi kutilayotgan mazkur tashkilotlar faoliyatini samarali faoliyat yuritishi uchun barcha birgalikda ishlashi, ya’ni barcha biznes hamjamiyati vakillari, banklar, kichik va o‘rta biznes, joylarda mahalliy hokimliklar, tegishli davlat organlaridan faoliyat, tashabbuskor bo‘lish va keng jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish talab qilinadi.

“Kelajakka qadam” – bu shunchaki loyiha emas, balki yosh avlod taqdiriga, ularning orzu va intilishlariga qaratilgan e’tibor timsolidir. Milliy bank tashabbusi bilan boshlangan bu harakat orqali O‘zbekiston yoshlariga yangi ufqlar ochilmoqda. Eng muhim, bu tizim yoshlarga nafaqat orzu qilishni, balki o‘z orzusini hayotga tatbiq etishni o‘rgatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – 560 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
3. Raxmonov, D. (2021). Moliyaviy savodxonlik va uning yoshlar tadbirkorligiga ta’siri. // Yosh olimlar jurnali, №1, 23–29.
4. Karimov, A. (2023). Tijorat banklari faoliyatida startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari. // Bank ishi jurnali, №3, 12–18.
5. Gulyamov, S., & Abdurahmonov, Q. (2022). *Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda mikromoliyalashning o‘rni*. // Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, №2, 45–51.

Mirxodjayeva Nargiza Sobirovna

*O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti katta o‘qituvchisi, “University of Business and Science”
axborot-resurs markazi direktori*

KUTUBXONACHILAR KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA MALKA OSHIRISH KURSLARINING O‘RNI

***Annotatsiya.** Maqolada kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta’lim turida bugungi kunda foydalanilayotgan ta’lim me’yoriy-huquqiy hujjatlaridagi mavjud muammolar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilib, ushbu muammolarni bartaraf etish usullari ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** malaka oshirish va qayta tayyorlash, ta’lim me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta’lim talablari, o‘quv dastur va rejalar.*

***Abstract.** The article discusses the existing problems in the legal acts in the field of training and retraining of personnel as a subject of research and develops ways to overcome these problems.*

***Key words:** professional development and retraining, legal documents of education, government educational requirements, curricula and plans.*

Conclusion and recommendations. As a result of the conducted research, it became clear that the delays and artifacts observed in scientific and technological processes significantly affect the objective assessment of scientific activity. Delays are mainly related to the uneven flow of information, late publication of scientific results, or limitations of accepted measurement methods. Artifacts are related to the possibility of manipulating statistical indicators, entering inaccurate data, or misinterpretations. Although scientometric indicators such as the Hirsch index, g-index, and i10 index, which are widely used in the assessment of scientific activity, create a certain understanding in this area, they also have their own limitations. These indicators often reflect the scale rather than the quality of scientific activity and create difficulties in the assessment of interdisciplinary research. The study also showed that multidimensional approaches are needed for a more objective assessment of scientific productivity and impact. These approaches should combine both quantitative and qualitative indicators. In this regard,

- It is recommended not to rely only on numerical indicators in scientific evaluation systems, but to also take into account qualitative and contextual criteria.
- In the application of Hirsch and other indices, their limitations should be taken into account, and the interpretation of evaluation results should be carried out with caution.
- The reasons for the slowdown in scientific activity should be investigated in more depth, and the flow of information and scientific communication tools should be improved to eliminate these problems.
- It is important to develop more transparent and verifiable methodologies in accordance with international standards to prevent the manipulation of scientometric indicators.
- Special attention should be paid to research of interdisciplinary and socio-economic importance, and separate approaches should be developed for their evaluation.
- Scientific policy makers should use complex evaluation systems, not simple indicators, in the decision-making process.

References

1. Azərbaycan Respublikası Prezidenti. (2009, may 4). “Azərbaycan Respublikasında 2009–2015-ci illərdə elmin inkişafı üzrə Milli Strategiya”nın və “Azərbaycan Respublikasında 2009–2015-ci illərdə elmin inkişafı üzrə Milli Strategiyanın həyata keçirilməsi ilə bağlı Dövlət Programı”nın təsdiq edilməsi haqqında: Sərəncam № 255.
2. Akoyev, M. A., və b. *Elmmetriya üzrə vəsait: elm və texnologiyanın inkişaf indikatorları* (Rus dilindən tərcümə). – Bakı: İqtisad Universiteti Nəşriyyatı, 2017.
3. Ağamaliyeva, L. *Elmi fəaliyyətin qiymətləndirilməsi. Elmmetrik bazalar* (Dərs vəsaiti). – Bakı: Turxan Nəşriyyatı, 2024.
4. *Elmmetriya: mövcud vəziyyəti və imkanları* / Əliquliyev, R. M., Aliquliyev, R. M., Fətəliyev, T. X., & Həsənova, R. Ş. – Bakı: İnformasiya Texnologiyaları Nəşriyyatı, 2013.
5. Əliquliyev, R. M. *Bibliometriya: müasir vəziyyəti, problemləri və inkişaf perspektivləri* / R.M.Əliquliyev, N.T.İsmayılova. – Bakı: İnformasiya Texnologiyaları Nəşriyyatı, 2015.
6. Hacıyeva, A. Bibliometrik təhlil üsullarının kitabxana təcrübəsində tətbiqi, onların kitabxananın reytinginin formallaşmasına təsiri // *Kitabxanaşünaslıq və bibliografiya*. – 2016. – №2. – S.61–65.
7. Hirsch, J. E. An index to quantify an individual's scientific research output // *Proceedings of the National Academy of Sciences* / – 2005. – № 102(46). – S.16569–16572. – URL: <https://doi.org/10.1073/pnas.0507655102>
8. Egghe, L. Theory and practise of the g-index // *Scientometrics*. – 2006. – № 69(1).
9. Bornmann, L. The h-index of scholars: An overview of several approaches and new extensions / L.Bornmann, R. Mutz, H.D.Daniel // *Scientometrics*. – 2008. – №75 (2). – S. 685–693.
10. Zhang, L. Citation-based indices for the evaluation of research productivity: A survey and comparison // *Scientometrics*. – 2013. – № 97(2).
11. Waltman, L. The R- and Q-metrics: An overview of the theory and applications of the h-index and other citation-based metrics / L.Waltman, N. J. van Eck // *Scientometrics*. – 2012. – №91 (1). – S. 253–270.

Yuldashev Ibrohim Djurayevich-ilmiy rahbar,

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “O’zbek tili va uni
o’qitish metodikasi” kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor*

Pirmedova Xaytgul Muhammedovna

*Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi direktori.
3-darajali adliya maslahatchisi*

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI – MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI MARKAZLARI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqola raqamli davr sharoitida axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlanishda axborot-resurs markazlarining ahamiyatiga bag’ishlangan. ARM-larning ta’lim jarayonidagi o’rni, ularning media va axborot savodxonligini rivojlanishga, shuningdek, yoshlarning madaniy merosi va intellektual o’sishini qo’llab-quvvatlashga qo’shayotgan hissasi ko’rib chiqilgan. Ishda xalqaro tashkilotlarning media va axborot savodxonligini, shuningdek, raqamli kompetensiyalarini axborot bilan samarali ishlash uchun hayotiy zarur ko’nikmalar sifatida rivojlanishga qaratilgan sa’y-harakatlari yoritilgan. Maqolada ARMning axborot jamiyati va raqamli texnologiyalar sharoitida yoshlarning moslashuviga ko’maklashuvchi eng muhim ijtimoiy institutlar sifatidagi ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: media-axborot savodxonligi, ta’lim, axborot-resurs markazi, media ta’lim, axborot madaniyati, raqamli ko’nikmalar.

Abstract. The article focuses on the significance of information resource centers (IRCs) in shaping and developing information culture in the digital age. The author examines the role of IRCs in the educational process, their contribution to enhancing media and information literacy, as well as preserving cultural heritage and fostering intellectual growth among young people. The work highlights efforts by international organizations aimed at developing media and information literacy, along with digital competencies, as vital skills for effective interaction with information. The article emphasizes the importance of IRCs as crucial social institutions that facilitate the adaptation of young people to the information society and digital technologies.

Keywords: media and information literacy, education, information resource center, media education, information culture, digital skills.

Hozirgi zamonda, ma’lumot rivojlanishning asosiy manbai bo’lib borayotgan bir paytda, Axborot-resurs markazlari (keyingi o’rinlarda – ARM)ning ahamiyati ortib bor moqda. ARM ta’lim, madaniyat va yoshlarning rivojlanishida muhim elementga aylan moqda. Ular nafaqat bilimlarga kirish imkoniyatini ta’minlaydigan, madaniy meros-

larni saqlash va intellektual o'sish uchun noyob resurs bo'lib xizmat qilib qolmasdan, balki yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishga ham katta hissa qo'shamdi.

YUNESKO turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida media savodxonlik va texnik ko'nikmalarni targ'ib qilishda faol ishtirok etib kelmoqda. Bu sa'y-harakatlar 1982-yilda YUNESKO tashabbusi bilan Media ta'limi bo'yicha Gryunvald deklaratsiyasi qabul qilinganidan keyin yangi sur'at oldi. Deklaratsiyada siyosiy va ta'lim tizimlari fuqarolarda kommunikatsiyaga tanqidiy yondashuvni rivojlantirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerakligi ta'kidlangan.

Mutaxassislarning fikricha, media savodxonlikni tarqatish bo'yicha sa'y-harakatlar 1930-yillarga borib taqaladi, "media savodxonlik" atamasi esa taxminan 1955-yilda efir uzatish sifatini yaxshilash doirasida paydo bo'lgan. "Axborot savodxonligi" atamasi 1974-yilda Pol Zurkovskiy tomonidan kelajakda tijorat va sanoat korxonalarini xodimlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy ko'nikmalar haqidagi hisobotda taklif qilingan. "Raqamli savodxonlik" atamasi esa 1997-yilda Pol Gilster tomonidan turli elektron manbalardan ma'lumotni tushunish va undan foydalanish qobiliyatini tavsiflash uchun kiritilgan. 2021-yilning 23–30-aprel kunlari "Fuqarolarning media-axborot savodxonligi: tanqidiy fikrlaymiz, ongli ravishda harakat qilamiz" nomli yangi axborot resursi taqdimoti bo'lib o'tdi. Bu YUNESKOning media-axborot savodxonligi bo'yicha o'qituvchilar va o'quvchilar uchun tayyorlangan namunaviy o'quv dasturining ikkinchi nashri hisoblanadi.

YUNESKO tushunchasida media va axborot savodxonligi axborot yetkazib beruvchilarning keng doirasi tomonidan taklif etilayotgan axborot kanallari va resurslaridan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamidir. Bular jumlasiga OAV muassasalari, boshqa axborot manbalari, shuningdek, internet-xizmatlarini taqdim etuvchi kompaniyalar kiradi [1].

Xalqaro kutubxona assotsiatsiyalari va muassasalari federatsiyasi (IFLA) doirasida Axborot savodxonligi bo'limi faoliyat yuritadi, bo'lim tomonidan 2006-yilda "Butun umr davomida ta'lim olish uchun axborot savodxonligi bo'yicha qo'llanma" (Guidelines on Information Literacy for Lifelong Learning) deb nomlangan hujjatni ishlab chiqilgan. Ushbu qo'llanma axborot savodxonligi sohasida ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan standartlarni o'z ichiga oladi va ushbu kompetentsiyaning uchta muhim jihatini ta'kidlaydi: insonning axborotni topish, baholash va undan foydalanish qobiliyati. Qo'llanma raqamli savodxonlikning uchta asosiy komponentiga e'tibor qaratadi:

Axborot olish ko'nikmalari: bu raqamli formatda axborotni qidirish, topish va raqamli formatdagi ma'lumotlardan foydalanish jarayonini o'z ichiga oladi.

Axborotni baholash: bu internetda yoki boshqa raqamli manbalarda topilgan axborotning ishonchliligi, dolzarbligi va ahamiyatini tanqidiy baholash qobiliyatidir.

Axborotdan foydalanish: bu muammolarni hal qilish, yangi kontent yaratish va raqamli jamiyatda samarali ishtirok etish uchun axborotdan muvofiq tarzda foydalanishdir.

Raqamli savodxonlik bo'yicha qo'llanma kutubxona xodimlari, o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi boshqa mutaxassislarga talabalar va o'quvchilarga zamonaviy raqam-

li dunyoda muvaffaqiyatli ishlash va yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatishga yordam beradigan muhim vositadir.

Umumiy ma’noda axborot madaniyati – bu axborot bilan muomala madaniyatidir. Axborot madaniyati bilim olish va ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Axborot madaniyati har bir fikrlovchi inson uchun, ayniqsa, raqamlar asrda zarurdir [2].

AQShning Ta’lim va ilmiy kutubxonalar assotsiatsiyasi (Association of Colleges and Research Libraries) tomonidan 2000-yilda “Axborot savodxonligi: oliy ta’lim uchun kompetentsiya standartlari” deb nomlangan hujjat tasdiqlangan va Amerika oliy ta’lim assotsiatsiyasi (American Association for Higher Education) tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

Hozirgi dunyoda oliy ta’lim muassasalarining roli shunchaki bilim berishdan ko‘ra kengroqdir. “Axborot savodxonligi va oliy ta’lim” (Information Literacy and Higher Education) standartining 4-bo‘limida oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi – butun hayot davomuda ilm olish rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Oliy ta’lim muassasalari talabalarni nafaqat mulohaza qilish va tanqidiy fikrlash uchun intellektual qobiliyatlar bilan ta’minalashi, balki ularga butun kasbiy faoliyati davomida, shuningdek, xabardor fuqarolar va jamoa a’zolari sifatida uzluksiz ta’lim olish va o’sish uchun asos yaratishga yordam berishi kerak. Axborot savodxonligi butun umr davomida ta’lim olishning muhim tarkibiy qismidir.

Ta’lim dunyosining hozirgi voqeliklarida universitet bitiruvchilarining professional ko‘nikmalari nafaqat to‘plangan bilimlar hajmi, balki ularning yangi sharoitlarga moslashish, yangi bilimlarga yo‘l ochish va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyati bilan ham baholanadi. Muhim jihatlardan biri – mustaqil ravishda o‘qish va o‘z ustida ishlash, shuningdek, axborot hajmining doimiy ravishda o‘sib borishi sharoitida samarali harakat qilish qobiliyatidir. Mutaxassis turli ma’lumot manbalari bilan ishlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish va uning asosida asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Axborot ko‘nikmalarini egallash qobiliyati nafaqat hujjatlar va resurslarga kirish imkoniyatidan foydalanish, balki boshqalarning tajribasidan foydali saboqlar olish imkonini ham beradi, bu esa shaxsiy rivojlanishda yordam beradi.

Bunday kompetentsiyalarni shakllantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida talabalarining axborot tayyorgarligi darajasini oshirish va ularning axborot savodxonligini rivojlantrish zarur.

Oliy ta’lim muassasasining o‘quv rejalariga, shuningdek, ma’muriy hayotiga axborot savodxonligini joriy etish o‘qituvchilar va kutubxonachilarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. O‘qituvchilar ma’ruzalar o‘qib va munozaralar olib borib, ta’lim olish uchun sharoit yaratadilar. ARMLar dastur va xizmatlar uchun intellektual resurslarni baholashni va tanlashni muvofiqlashtiradi, kollekteviyalarni va axborotga ko‘plab kirish nuqtalarini tashkil etadi va qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, axborot qidirayotgan talabalar va o‘qituvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi [3].

Buyuk Britaniyaning Ta’lim sifatini ta’minlash agentligi tomonidan Yevropa oliy ta’lim makonida (ESG European Standards and Guidelines) oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun standart va qo‘llanma ishlab chiqilgan. Ta’lim sifatini ta’minlash uchun ta’lim muassasalari o‘qitish va o‘qituvchilik faoliyati uchun yetarli mablag‘ bi-

lan ta'minlanishi, adekvat va qulay o'quv resurslarini taqdim etishi kerak. Samarali ta-limni ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalari talabalarga o'quv jarayonida qo'llab-quvvatlash va yordam berish uchun zarur bo'lgan bir qator o'quv resurslarini taqdim etishlari lozim. Bunday resurslar moddiy, masalan, kutubxonalar, o'qitish uskunalari, axborot-texnologik infratuzilma bo'lishi mumkin; shuningdek, insoniy, murabbiylar, kuratorlar va boshqa maslahatchilar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Qo'llab-quvvatlash xizmatlarining roli talabalarning mobilligini oliy ta'lim muassasasi ichida ham, turli oliy ta'lim tizimlari o'rtaida ham rag'batlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini samarali boshqarish uchun tegishli ma'lumotlarni toplash, tahlil qilish va ulardan foydalanishni kafolatlashlari kerak. Ishonchli ma'lumot, qaror qabul qilish va nima samarali ishlayotganini, nima takomillashtirishga muhtojligini bilish uchun zarur shartdir. O'quv dasturlari va boshqa faoliyatlar to'g'risida ma'lumot toplash va tahlil qilishning samarali jarayonlari ta'lim sifatini ta'minlashning ichki tizimini yaxshilaydi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida asosiy maqsadlardan biri sifatida kutubxona sohasida xususiy sheriklikni, xususiy va elektron kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish, kutubxonalar ishining samaradorligini va foydalanuvchilarga tezkor xizmat ko'rsatishni (shu jumladan, pullik) oshirish maqsadida elektron kitoblarni tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslari bilan hamkorlikni kengaytirish, axborot-kutubxona muassasalarining xavfsizligini va axborot-kutubxona fondlarining milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida saqlanishini ta'minlash, jamiyatning axborot madaniyatini, milliy tarix va madaniyatga bo'lgan barqaror qiziqishini shakllantirish va oshirish, kitob o'qish madaniyatini oshirish va targ'ib qilish belgilangan. Ushbu qarorning qabul qilinishi kutubxona xizmatlari spektrini, jumladan, elektron resurslarga kirishni kengaytiradi. Shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu o'zgarishlar nafaqat axborot jamiyatini rivojlantirishga, balki savodli va xabardor jamiyatni shakllantirishga ham yordam beradi, bu esa mamlakatni rivojlantirishda muhim qadamdir [5].

Axborot madaniyati tushunchasiga axborotni izlash, tanlash, saqlash va tahlil qilish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida qaraydigan informologik yondashuv mavjud. Insonning axborotlashgan, tobora raqamlashayotgan jamiyatda hayot faoliyati usuli va insoniyat madaniyatini shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi sifatida ta'riflash orqali ushbu tushunchaning mazmunini kengaytirish mumkin. Axborot madaniyati tushunchasining mazmuniga muayyan predmetga e'tiborni qaratish, axborotni uning qadrini oshirish darajasida mantiqiy qayta ishslash, o'z ko'zlar bilan kuzatilgan hodisalarda yangi qirralarni ko'rish kabi zarur ko'nikmalar kiritilishi mumkin.

Tabiiyki, axborot madaniyati shaxsning ijtimoiy tabiatini bilan chambarchas bog'likdir. Shu bilan birga, axborot madaniyati insonning turli qobiliyatlarining mahsulidir. Zamonaviy rivojlanish nuqtai nazaridan olib qaraganda, yoshlarimizning axborot ma-

daniyati nafaqat smartfonlar va shaxsiy kompyuterlardan, balki korporativ va global kompyuter tarmoqlari, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar va neyron tarmoqlari kabi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatida; turli manbalardan axborot olish va taqdim etish qobiliyatida; axborotning katta massivlarini tahliliy qayta ishlash ko‘nikmalariga egalik qilishda; salbiy axborotdan himoyalanish qobiliyatida; ularning faoliyat sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan axborot oqimlarining xususiyatlarini, shuningdek, axborot huquqlari va majburiyatlarini, qonunchilikni bilishda; xalqaro muloqotning ba’zi tillarini egallashda; insонning xulq-atvori va jamiyatning rivojlanishini boshqaradigan axborot mexanizmlarini tushunish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [6].

Ko‘rib chiqilayotgan mavzu juda dolzarb, ayniqsa ARM faoliyati uchun. Axborot va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda ARM foydalanuvchilari ushbu o‘zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun yangi bilim va ko‘nikmalariga talab etiladi.

Keng ko‘lamli axborot resurslariga ega bo‘lgan ARM oliv ta’lim muassasalarida media va axborot savodxonligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning vazifasi talabalar, o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar o‘rtasida ushbu ko‘nikmalarni targ‘ib qilish va mustahkamlashga ko‘maklashishdir. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ARM quyidagi vazifalarni bajarishi zarur:

1. ARM kitob jamlanmasini ta’lim yo‘nalishiga oid axborot-kutubxona resurslari bilan ta’minalash va axborotdan foydalanish imkoniyatini ta’minalash

Axborot-resurs markazi turli xil ma’lumot manbalariga: kitoblar, elektron resurslar, ma’lumotlar bazalari, arxiv materiallariga kirish imkoniyatini ta’minalaydi. Bu foydalanuvchilarga dolzarb va ishonchli bilimlarni olish imkonini beradi.

2. Axborot savodxonligiga o‘qitish

ARM lari axborot bilan ishslash, fondida mavjud ma’lumotlar bazalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari, seminarlar va treninglar o‘tkazadilar, shuningdek kompyuter savodxonligi kurslarini olib boradilar. Bunga axborotni izlash, uni tahlil qilishni o‘rgatib borish zarur.

3. Ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash

ARM lar tadqiqotlar o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ixtisoslashgan ma’lumotlar bazalari, ilmiy jurnallar va boshqa resurslarga kirish imkoniyatini taqdim etadilar. Bu fan va innovatsiyalar rivojlanishiga yordam beradi.

4. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish

ARM foydalanuvchilarda axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni ishonchisizlaridan ajrata olish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, bu ayniqsa soxta xabarlar va axborot shovqini davrida muhimdir.

5. Qulay axborot muhitini yaratish

ARM zamonaviy uskunalar, qulay joylar va raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa darslarga, mashg‘ulotlarga tayyorgarlik jarayonini, axborot bilan ishslashni yanada samarali va qulay qiladi.

6. Madaniy-ma'rifiy faoliyat

ARM bilimni ommalashtirishga va axborot almashinuvi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ko'rgazmalar, ma'ruzalar, taqdimotlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi.

7. Talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

ARM talabalarning turli guruqlarini axborot makoniga kiritishga yordam beradi. Bu ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslarlar uchun muhimdir.

8. Axborotdan axloqiy foydalanish

ARM axborot bilan ishlashning axloqiy me'yorlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunga iqtibos keltirish qoidalari, mualliflik huquqiga rioya qilish va plagiatta qarshi kurash bo'yicha ta'lim kiradi.

Axborot-resurs markazi shunchaki axborot ombori bo'lib qolmasdan, balki turli xil axborot resurslariga kirish imkoniyatini ta'minlaydigan, axborot madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan muhim ijtimoiy makondir. Yoshlarga axborot jamiyati sharoitlariga moslashishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va ilmni targ'ib qilishga yordam beradi, kiberexavfsizlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Global Standards for Media and Information Literacy Curricula Development Guidelines=Руководство по общим стандартам разработки программ обучения медиийно-информационной грамотности / ЮНЕСКО.
2. Guidelines on information literacy for lifelong learning=Руководство по информационной грамотности для образования на протяжении всей жизни (Guidelines on Information Literacy for Lifelong Learning) / ИФЛА.
3. Information Literacy Competency Standards for Higher Education.
4. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area.
5. О дальнейшем совершенствовании информационно-библиотечного обслуживания населения Республики Узбекистан: постановление Президента Республики Узбекистан от 7 июня 2019 года.
6. Karimov A.Z Raqamlı transformatsiyalar sharoitida yoshlarning axborot havfsizligi madanoyati va mediaimmunitetini ta'lim jarayonlari orqali shakllantirish masalalari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2025.– № 2 (5) – B. 548–554.

Нуржанова Гульмира Исатаевна

Кандидат педагогических наук, ассоц.профессор

Казахский национальный женский педагогический университет

ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ВОЗМОЖНОСТИ БИБЛИОТЕК ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАЗАХСТАНА

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы эффективности функционирования библиотек высших учебных заведений Казахстана в условиях цифровизации образования. Проанализированы современные возможности университетских библиотек, включая использование информационных технологий, электронных ресурсов, баз данных и участие в корпоративных сетях. Особое внимание уделено роли библиотек в обеспечении научно-образовательной деятельности, а также их способности адаптироваться к новым вызовам времени. Рассматриваются перспективы развития библиотечных услуг, направленных на поддержку академического сообщества. На основе проведённого анализа предложены рекомендации по повышению эффективности работы вузовских библиотек в Казахстане.

Ключевые слова: университетские библиотеки, информационные технологии, электронные ресурсы, базы данных, корпоративные сети.

Abstract. The article examines the effectiveness of university libraries in Kazakhstan within the context of education digitalization. It analyzes the current capabilities of academic libraries, including the use of information technologies, electronic resources, databases, and participation in corporate networks. Special attention is given to the role of libraries in supporting scientific and educational activities, as well as their ability to adapt to modern challenges. The article also explores the prospects for the development of library services aimed at supporting the academic community. Based on the analysis, recommendations are proposed to improve the efficiency of university libraries in Kazakhstan.

Keywords: university libraries, information technologies, electronic resources, databases, corporate networks.

Университетские библиотеки, как и другие библиотеки, проходят непростые этапы развития. Прежде чем библиотечная индустрия будет построена и послужит своим читателям, она подвергается долгосрочному анализу, пересматривается план самого библиотечного феномена и его будущего. Высшие учебные заведения являются крупнейшими владельцами интеллектуального капитала, основными поставщиками знаний и интеллектуальных ресурсов. Поэтому важная роль в процессе формирования и продвижения интеллектуальных ресурсов вуза отводится «университетским библиотекам». Тот факт, что университетские библиотеки финансируются только по отношению к своему учреждению, приводит

к тому, что оно берет на себя новые функции, так как его актуальность для системы образования сегодня постоянно меняется.

Деятельность библиотеки тесно связана с текущими задачами, стоящими перед университетом – его основателем, управлением образованием. Одной из самых важных вещей в университетской библиотеке является обеспечение фонда для специализации. Сегодня библиотеки отечественных вузов осваивают новые направления работы, такие как поддержка издательской деятельности своих вузов, к которым относятся показатели «количество публикаций» и «индексы цитирования» ученых.

В настоящее время библиотека имеет большой вклад в развитие общих способностей людей к духовному богатству, удовлетворению растущих потребностей. Особое место занимает библиотека вуза. Ведь в эпоху современных технологий информатизации будущее нашего государства – это необходимость овладения передовыми технологиями обучения в современном образовании подрастающего поколения.

Современность, требования времени требуют, чтобы учебные заведения страны, обеспеченные образованными, сознательными, передовыми и опытными профессионалами, отвечали современным требованиям, чтобы молодые люди получали качественное образование и осознанное воспитание на высоком уровне. Каждый молодой человек, стремящийся к обучению, должен, библиотека – единственный источник учебного центра, который расширяет кругозор через информацию, помогает получить всестороннее образование и стать обладателем определенной специальности [1, с.16-18].

Вузы Казахстана – это высококвалифицированные специалисты, полностью отвечающие требованиям XXI века, внедряющие инновационные технологии. Большой вклад в реализацию таких задач вносит научная библиотека как ведущее структурное подразделение вуза-информационно-образовательный центр, обеспечивающий научные изыскания потребителей учебно-воспитательными процессами со своими универсальными, многопрофильными, традиционными книжными и электронными ресурсами [1, с.17].

Поскольку требование современности-информатизация системы образования, вузовские библиотеки рассматривают возможность не только пополнения собственных электронных ресурсов путем внедрения в свою деятельность новых информационных технологий, но и доступа к другим отечественным, мировым информационным ресурсам. С ассоциацией высших учебных заведений Республики Казахстан заключены контракты с Республиканской межвузовской электронной библиотекой (РМЭБ) и казахстанскими национальными электронными библиотеками (КазНЭБ), которые обмениваются информацией и информацией, необходимой для учебного процесса. Читатели всех вузовских библиотек посредством Web-сайта имеют доступ к базе данных электронных каталогов своих библиотек, размещают информационные ресурсы и РМЭБ (<http://www.rmebrk.kz>), КазНЭБ (<http://www.kazneb.kz>) с возможностью использования сайтов.

Почти большинство вузовских библиотек вошли в Республиканскую межвузовскую электронную библиотечную систему. Библиотеки, вошедшие в систему РМЭБ (Республиканская межвузовская электронная библиотека (РМЭБ) – это единая база данных, объединяющая электронные ресурсы вузов Казахстана для обеспечения профессорско-преподавательского состава, обучающихся бакалавриата, магистратуры и докторанттуры современными информационными образовательными ресурсами) с приемом электронных данных, получат возможность:

- 1) просматривать все вузовские ресурсы и получать информацию на портале «Е-Білімгер» в сети Интернет;
- 2) обмениваться между вузами учебной литературой, учебно-методическим комплексом дисциплин, научными статьями;
- 3) иметь возможность после ознакомления системы РМЭБ книжным фондом вуза на основе сети интернет Читать необходимые учебники;
- 4) заниматься наукой магистрантами и студентами, пользоваться электронными библиотечными фондами во время написания диссертации, дипломной работы.

Главная цель создания республиканской электронной библиотеки для высших учебных заведений–охват профессорско-преподавательского состава и студентов широким и передовым информационным фондом путем внедрения электронных учебных ресурсов всех вузов страны в единую информационную систему. Эта электронная библиотека представляет собой единую целостную базу данных, созданную путем объединения электронных библиотек высших учебных заведений [2, с.17].

В результате любой студент или преподаватель получает возможность пользоваться библиотечным фондом не только университета, в котором он обучается, но и других учебных заведений, т. е. укрепляется взаимосвязь между университетами, усиливается обмен информацией. Кроме того, читатели могут широко использовать как традиционные каталоги, так и электронные каталоги. Сотрудники библиотеки работают в соответствии с направлениями и содержанием своей работы, требованиями к оперативному обеспечению науки и образования на современном этапе.

За последние годы библиотеки претерпели изменения, которые игнорировались в течение 200 лет. Причина – развитие информационных технологий:

- оперативное обслуживание населения с высокой скоростью поиска информации;
- расширение информационного пространства за счет использования других библиотек и ресурсов Интернета;
- максимальное удовлетворение запросов, соответственно, минимизация уровня невыполнения заказов;
- многократное использование документов с минимальными затратами;
- одновременно с несколькими пользователями одного и того же документа
- умение;

- предоставление новых видов информации наряду с печатной формой, видеоматериалы, мультимедийные издания, интернет ресурсы;
- внедрение качественных современных услуг и привлечение новых категорий населения;
- эффективное развитие библиотеки новые возможности для оперативного, качественного и удобного для человека представления информации в любое время. Скорость, быстрота, осведомленность, электронная грамотность являются важными факторами успеха.

Обладая такими положительными качествами, библиотеки становятся настоящим центром информации и знаний. В абсолютном информационном пространстве меняются и потребности человечества, связанные с доступом к информации, а также с использованием информации. При этом из источников получения образования является библиотека высших учебных заведений. Библиотека сегодняшнего дня отделена от библиотек, которые были много лет назад. Наряду с структурой и деятельностью библиотек изменились технология работы, виды информационных ресурсов и уровень подготовки персонала, появился полнотекстовый ресурсный фонд [3, с.30].

Современные информационно-коммуникационные технологии позволили качественно изменить традиционные способы информационно-библиотечного обслуживания. Трансформация библиотек в информационные центры неизбежно привела к изменению их пространства, структуры, интерьера, дизайна в условиях цифровой глобализации. Обязательным условием автоматизации библиотек является оснащение их современным техническим оборудованием. Одним из них является внедрение в библиотеке оборудования RFID (технология радиочастотной идентификации). Оборудование RFID-технологии представляет собой специализированное устройство с уникальным номером, которое позволяет удаленно узнавать информацию с электронных RFID-знаков бесконтактным способом.

В комплект технологического оборудования RFID входят: системы автоматизации библиотечных процессов, комплексы хранения и учета библиотечных ресурсов, автоматические книжные магазины, оборудование для автоматизации учета архивных ресурсов, на базе которых оно работает. Преимуществом технологии RFID является сокращение доли «ручного» труда, что повышает качество работы сотрудников. Посетители библиотек и архивов, использующих радиочастотную идентификацию, имеют возможность автоматизировать процесс приема и выдачи книг, контролировать несанкционированный выпуск изданий, проводить регулярную инвентаризацию своих ресурсов.

На сегодняшний день это самое современное решение для автоматизации библиотечных процессов, обеспечивающее сокращение доли «ручного труда», а также существенно снижающее количество краж библиотечных изданий. Кардинально изменился интерьер и внешний вид библиотек, библиотека превратилась из традиционной в библиотеку с развитыми информационными технологиями [4].

Во всех вузовских библиотеках созданы комфортные условия для пользователей. Они отличаются высокой технической оснащенностью современными

персональными компьютерами и внедрением на их основе автоматизированных технологий, копировально-множительной техникой, интерактивными досками, системами видеоконференцсвязи и другой техникой. Все персональные компьютеры подключены к бесплатной высокоскоростной сети Интернет, в читальных залах установлены Wi-Fi зоны, организован открытый доступ к информационным ресурсам. В системе обслуживания пользователей большинства библиотек вузов запись читателей, выдача и прием изданий осуществляются в автоматизированном режиме с использованием соответствующих модулей автоматизированных библиотечно-информационных систем. На базе RFID-технологий внедряются автоматизированные системы управления библиотеками. В библиотеках ведется полная конвертация процесса ведения традиционных карточных каталогов в электронный вид. Многие вузовские библиотеки завершили работу по созданию электронного каталога, раскрывающего весь имеющийся в библиотеке фонд, в крупных вузовских библиотеках раскрывается более 80% библиотечного фонда. Все библиотеки обеспечивают свободный доступ пользователей к электронным каталогам в стенах библиотеки, а также предоставляют удаленный доступ к корпоративной сети вузов и web-сайт библиотеки, как правило, с помощью логина и пароля.

Удаленный доступ к ресурсам электронной библиотеки организуется, как правило, с компьютеров библиотеки, кафедр и отделений высших учебных заведений через локальную сеть высших учебных заведений и с помощью логина и пароля вне высших учебных заведений. Реализуются услуги электронной доставки документов и виртуальной справочной службы. С этой целью задействованы ресурсы сайта или портала библиотеки и электронной почты. Расширяются границы поиска информации за счет использования удаленных источников информации и внешних баз данных [5].

В настоящее время для всестороннего развития и обмена знаниями студентов в библиотеках высших учебных заведений важно внедрить такие системы, как свободный доступ к зарубежным изданиям, фондам библиотек других университетов в общую базу данных. Поэтому обеспечение библиотек университета базами данных в каждом вузе идет полным ходом. В вузовской библиотечной среде преимущественно распространены базы данных производителей стран ближнего и дальнего зарубежья: «ЗАН», «ПАРАГРАФ», «ПОЛПРЕД», «ИНИОН», «РУБРИКОН», «EBSCO», «ELSEVIER», «ИНТЕГРУМ», «SPRINGER», «SCIENCECIRECT», «НАУКА ОНЛАЙН» и др. Наряду с приобретением готовых полнотекстовых баз в библиотеках ВУЗов создаются собственные полнотекстовые базы данных. Многие вузовские библиотеки имеют собственные сайты или размещают свою страничку на сайте университета с возможностью читательского поиска и заказа необходимых документов.

В заключение, предпосылкой автоматизации является расширение доступа к мировым и отечественным научным базам данных и создание качественных интеллектуальных ресурсов. Сегодня университетские библиотеки играют важную роль в самореализации личности, духовном развитии общества и активно уча-

ствуют в формировании цивилизованного человека. В результате автоматизации университетских библиотек они получили свободный доступ ко многим международным базам данных. Роль библиотеки в Республиканской деятельности вуза: определяет «рейтинг образовательных учреждений» в ежегодном мониторинге эффективности высшего образования, повышает информационную активность студентов вуза, принимает онлайн-заказы на книги по различным специальностям, получает редкие и ценные книги по межбиблиотечному абонементу, неограниченный доступ в Интернет обеспечивает связь, внедряет систему быстрого обслуживания.

Библиотеки высших учебных заведений создают профессиональную информационно-технологическую базу для оперативной доставки информации на образовательную платформу, использования новых технологических инструментов. Современные информационно-коммуникационные технологии позволили качественно изменить традиционные способы информационно-библиотечного обслуживания.. Обслуживание остается одной из основных функций библиотеки как системы и социального института, является главной составляющей деятельности библиотеки. Сущность библиотечного обслуживания с течением времени остается неизменной, но выполняемые библиотекарем функции в настоящее время кардинально меняются. Главной целью современного библиотечного обслуживания является организация как можно более широкого доступа к документам. В соответствии с изменением целей обслуживания изменяется и технология работы библиотеки. Сущность деятельности современного библиотекаря, обслуживающего пользователя – оперативная доставка требуемого документа из фонда, выдача документа, контроль за его сохранностью.

Список литературы

1. Машакова Н.С. Электронные ресурсы для науки и образования // Кітапхана әлемі – 2010.- №3.- С. 16-18.
2. Сексенбаева Н.О. Продвижение электронных информационных ресурсов в вузовской библиотеке // Кітапхана әлемі. – 2010. – №3. – С. 16–18.
3. Таушева Г.З. Университет кітапханасының ғылым мен білім берудегі ақпараттық мүмкіндіктері //Кітапхана әлемі. – 2011. – №3. – С. 30–31
4. Мамаева Ж Гумилев атындағы Еуразия Ұлттық университетінің кітапханасы // Кітап патшалығы. – 2010. -№ 5-6. – С.52-54.
5. Коряковцева Н.А. Основные принципы функционирования библиотеки в корпоративном информационно-образовательном пространстве вуза // Науч. техн.б-ки. – 2011. – № 4. – С. 49–50.

Muzafarova Saodat

*O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi mudiri, professor,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi*

YOSHLAR TARBIYASIDA MUSIQANING ESTETIK TA’SIRI VA MADANIY MEROSNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlар ma’naviyatini yuksaltirishda madaniy meros namunalaridan foydalanish, jumladan musiqa san’atiga oid asarlar, ularning yaratilishi tarixi, mazmun-mohiyati, ma’naviy va madaniy ahamiyati, yoshlар tarbiyasida musiqaning estetik ahamiyatiga dior pedagogik qarashlar bayon etilgan. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda musiqa san’atidan foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiylar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, madaniy meros, musiqa, san’at, tarbiya, estetik tarbiya, musiqiy sozlar.

Abstract. The article examines the problems of using cultural heritage in the spiritual education of young people, based on musical works, with their history of creation, content, essence spiritual and cultural significance. The aesthetic and musical significance of the pedagogical approach to the education of young people is also considered. Methodical recommendations on the use of musical art in raising the spirituality of youth are given.

Key words: spirituality, cultural heritage, music, art, education, aesthetic education, musical instruments.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar zamirida yosh avlod ta’lim-tarbiysi va shaxs kamoloti yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy madaniy-tarixiy an’analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar amaliyotga joriy etildi. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni Vatanga sodiq, fidoyi insonlar etib tarbiyalash uzviylik va uzluksizlikni talab qiladigan dolzarb pedagogik jarayon sifatida “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida muhim o‘rin egallaydi [1].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalarini, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analalarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san’ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining o‘tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Bunda ajdodlar tomonidan to‘plangan tarixiy va madaniy tajriba, ular tomonidan yaratilgan boy ma’naviy va moddiy merosdan keng foydalanish, ularni ta’lim tizimiga targ‘ib etish, yoshlar ma’naviyatini yanada yuksaltirishda madaniy meros va ilmiy ijod masalalarini tadqiq etish muhim vazifadir.

Inson va uni tarbiyalash, yuksak ma’naviyatli shaxsni kamolga yetkazish masalasi qadimdan Sharq va G‘arb olimlari, mutafakkir va donishmandlarining diqqat marказida bo‘lib, ular qoldirgan madaniy merosda qayd etilgan inson va uni yashashdan maqsadi, mukammal jamiyat, odil va ma’rifatli shoh, komil inson haqidagi qimmatli fikrlari hozirgacha o‘z qadrini yo‘qotmasdan, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xalqining boy ma’naviy tarixida dunyo ilm-faniga tamal toshini qo‘ygan ulug‘ alloma va mutafakkirlar yashab ijod etganki, ular faoliyatining asosini shaxs tarbiyasi va ularning ma’naviyatini yuksaltirish masalalari tashkil etadi.

Qadimgi va O‘rta asrlar O‘zbekiston hududidagi san’at, uning holati to‘g‘risida fikr yuritganda ikki jihatga e’tibor berish lozim. Birinchidan, azal-azaldan ushbu hududa an’anaviy tarzda san’atning turli shakllari rivojlanib kelgan. Ular ayni paytda ikki daryo oralig‘ida qadimdan yashab kelgan o‘zbek xalqining milliy madaniy merosining o‘zagini tashkil etadi. Ayni paytda, ikkinchidan, O‘zbekistonning hozirgi hududida yuz bergen etnomadaniy jarayonlar, xalqlarning buyuk ko‘chishlari, turli davrlarda istilolar ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan. Mazkur jarayonni O‘rta asrlar qo‘shiqchilik san’ati misolida ham ko‘rish mumkin. Bu davrda qo‘shiqchilik san’ati janlarining boyishi yanada kuchaydi. An’anaviy g‘azallar, taronalar, qasidalar bilan birga amal, naql, peshrav kabi janrlarning paydo bo‘lishi milliy san’at rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi. IX asrdan boshlab professional qo‘shiqchilik san’atida uning nazariy-uslubiy jihatlarini ishlab chiqish va uni asoslash kuchaydi [2, 13–14].

O‘zbek qo‘shiqchilik san’atidagi professionalizm nazariy asoslarining vujudga kelishi aynan shu davr bilan chegaralanib qolmay, Abu Nasr Forobiy (IX–X asrlar), Abu Ali ibn Sino (X–XI asrlar), Ibn Zaylo (XI asr), Safiuddin al-Urmaviy (XIII asr), Mahmud ash-Shirozi (XIII asr), Abdulqodir Marog‘iy (XIV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Zaynulobiddin Xusayniy (XV–XVI asrlar) kabi qator mutafakkirlar tadqiqotlarida yanada takomillashib bordi.

Yoshlar ma’naviyati yuksaltirishda buyuk olim Abu Nasr Forobiy merosi fundamental xarakterga ega bo‘lib, olim an’anaviy qo‘shiqchilik ilmi bilan juda jiddiy shug‘ullangan. Uning “Musiqa haqida katta kitob” nomli asarida O‘rta asr musiqasi tarixi va nazariyasi masalalari, musiqa yaratish tamoyillari va musiqa asboblarining tuzilishi yoritilgan. Forobiy dunyoqarashi jahon sivilizatsiyasining murakkab bosqichlaridan biri bo‘lmish IX–X asrlarning kuchli va zaif tomonlarini o‘zida mujassam etib, shu davr madaniy yutuqlarining ilmiy sintezi bo‘lib qoldi.

Farobiyning musiqashunoslikka qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Musiqashunoslardan qotiga ko‘ra u yangi musiqa asbobi yaratgan mohir sozanda, bastakor, yirik musiqa nazariyotchisi bo‘lgan. Farobi yaralarning musiqa asbobining nomi manbalarda turlicha – “qonun”, “g‘ichchak”, “ud” deb ataladi.

Musiqiy cholg‘ularni ilmiy tasniflashda Ibn Zaylaning (XI) mehnatlari ahamiyatli bo‘lib “Musiqaga oid to‘liq kitob” asarida musiqiy cholg‘ularni tasniflab, ularni quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

- torli, pardali tirnama asboblar – *ud* va *tanbur* kabilar;
- torli, pardalarsiz, nag‘malar orasidagi farq torning uzun va qisqaligi bilan belgilanuvchi cholg‘ular – *sanj* va *shoxrud* kabilar;
- torli pardalarsiz, nag‘malar orasidagi farq eshak va xarraklar vositasida torni qisqartirish yo uzaytirish orqali belgilanuvchi asboblar – *anqo* kabilar;
- torli, bolg‘acha, cho‘plar bilan urib chalinuvchi asboblar – *xitoy changi* kabilar;
- puflama-damli asboblar – *nay*, *yaro ‘a*, *arg ‘anun*, *surnay* va *meshli surnay* kabilar;
- cho‘ziq muttasil tovushli asboblar – *nay*, *surnay* va *rabob*
- (kamonchali asbob) kabilar;
- usul berib turuvchi urma asboblar – *nog ‘ora*, *doira*, *qo ‘lqarsak* kabilar [3, 78].

Ibn Zayla cholg‘ularni tasniflash bilan birga, yoqimli tovushi bilan ajralib turuvchi va inson xalqumiga taqlid qila oladigan cholg‘ular nomini keltiradi, ularni qaysi guruhga mansubligini aniq qilib (*rabab* (kamonli cholg‘u), *mazamir* (damli cholg‘u), *ud* (torli tirnama cholg‘u), *mi ’zafa* (arfason cholg‘u) ko‘rsatib o‘tgan. Allomani ustalik bilan musiqiy cholg‘ularni tovush chiqarish xususiyatiga qarab berilgan tasnifoti, ularni tasavvur etishimizga yordam beradi.

Bu allomadan farqli o‘laroq eronlik musiqa nazariyotchisi Qutbiddin ash-Sheroziy (1236–1310) “Dar ilmi musiqiy” (“Musiqa ilmida”) risolasida musiqa cholg‘ulari haqidagi so‘z yuritar ekan, ularni quyidagicha tasniflaydi. Vibratsiyaga (tebranish) asoslangan cholg‘ular:

- torli (*ud*, *rubob*, *tanbur*, *chang*, *nuzxa*, *qonun* va h.k.);
- torsiz (*anqo*, *avoni*, *mehtar*);
- puflama (*nay*, *surnay*);
- siqiq havo vositasida tovush chiqaziladigan (*arg ‘anun*) [3, 78].

Ajdodlarimiz tomonidan madaniy meros, jumladan musiqa san’ati keng tadqiq etilgan bo‘lib, nafaqat musiqa estetik zavq berishi, balki ibn Sino ta’rifiga ko‘ra “musiqa – jon va ruh ozuqasi” sifatida ham o‘rganilgan.

Shu sababli yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda musiqa san’atidan pedagog omil sifatida foydalanish davr talabi bo‘lib, yosh ijodkorlarga ta’lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida aholining o‘sib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish va targ‘ib etish davr talabidir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatları va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rnini va mavqeini yanada mustahkamlash, yoshlar ongi va tafakkurini madaniy meros namunalarini orqali yanada yuksaltirish yuzasidan quyidagilar tavsiya etiladi:

- musiqa san’atida olib borgan yirik tadqiqotlarini chuqr tadqiq etish va ta’lim tizimiga tatbiq etish;

- zamonaviy media makonda madaniy meros namunalarini globallashtirish va xalqaro madaniy jarayonlarda integratsiyasini ta'minlash;
- soha pedagoglarining kompetentligi va kreativligini takomillashtirish, o'quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlarini chuqur bilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
2. Mavrusov A. O'rta asrlarda O'zbekiston san'atidagi transformatsion jarayonlar // O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari: Xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: Lesson press, 2016. – B. 13–14.
3. Odilov A.I. O'rta Osiyoda xalq cholg'ularining tadrijiy rivojlanishi // O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari: Xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: Lesson press, 2016. – B. 78.
4. Muzaferova S. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda madaniy meros va uning ahamiyati // Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2021. – B. 355–358.

Sayyora To‘ychiyeva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat

*Instituti professori,
falsafa fanlari doktori*

USTOZI AVVAL – KITOB

Annotatsiya. Maqolada kitobning, mutolaaning inson hayotidagi o‘rni, O‘zbekistonda kitobxonlikni targ‘ib qilish borasidagi samarali ishlar, “Yosh kitobxon” respublika tanloving ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Kitob, mutolaa, taraqqiyot, tanlov, tashabbus, bellashuv, ma’rifat, rag‘bat, mukofot, taraqqiyot, motivatsiya.

Annotation. The article is to the meaning of book reading, the processes of organizing an event for the development and stimulation of book reading among the youth of Uzbekistan. The essence of the holidays “Young reader of books”.

Keywords. Book, reading, reading idea, competition, initiative, with competition, enlightenment, encouragement, progress, motivation.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy, madaniy ma’rifiy taraqqiyotida adabiyot niyatda katta o‘rin tutadi. Zotan, aniq fanlar yurt ilmiy taraqqiyotida mo‘jizalar yaratishi mumkin, ammo adabiyot haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalaydi, ulg‘aytiradi, tarbiyalaydi, voyaga yetkazadi. Shuning uchun mutafakkirlarimiz kitobni barcha yaxshi xulq mukammal bilimning asosi deb hisoblaganlar. Kitobga, ilmga, mutolaaga bo‘lgan havas hamma zamonlarda ham ziyo ahlining asl muddaosi bo‘lgan.

Tarix guvohlik beradi, Aleksandr Makedonskiy O‘rta Osiyoni bosib olganda birinchi bo‘lib yerli xalqdan “Avesto”ni tortib olish va uni butunlay yo‘q qilib tashlash haqidagi ezgulik va yovuzlikning mazmun-mohiyatini tushuntiruvchi va amaliy hayotga joriy etuvchi kitob-qomusni xalqdan tortib olish uchun harakat qilgan.

X asrning ikkinchi yarmida yashagan vazir ibn Abbos kitobni juda qadrlagan, kutubxonasining katalogi 10 tomdan iborat bo‘lib, ilohiyotga oid kitoblarining o‘ziga 400 tuyaga yuk bo‘lgan. Shu bilan birga Abbos texnika, tabobat, astronomiya, musiqa, matematika bilan mukammal shug‘ullangan, kutubxonasida hammasi bo‘lib 117 mingga yaqin kitob bo‘lgan va safar paytlarida o‘zi bilan olib yurgan, kitob yuklangan karvon o‘ziga xos katalog vazifasini bajargan, ya’ni tuyalar alifbo tartibida yurgan va kutubxonachilar istalgan kitobni darhol topib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Insoniyat tarixining uch ming yillik silsilasida Urxun Enasoy toshbitiklari, “Devonilug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Alpomish”, “Hamsa” bizning bolalar o‘rganib, keyingi avlodga yetkazadigan durdonalar hisoblanadi.

Sharqda kitob muqaddas sanalgan, ulug‘langan. Sohibqiron Amir Temur zamonida ham juda yirik kutubxonalar bo‘lgan. Sohibqiron mamlakatdan kitob olib chiqib ketishni ma’n qilgan. Sohibqironning kitobga munosabati haqida yana bir misol: u nevarasi Mirzo Ulug‘bekni Rumga (Turkiyaga) boradigan elchilarga boshliq qilib yuboradi.

Ulug‘bek qaytishda bobosiga Jaloliddin Rumiyning “Masnavi-yu ma’naviy” asarini sovg‘a qilib olib kelganda, bu tuhfa sultanat sohibini behad hursand qilganligi ma’lumdir. Umuman Temuriylar sultanatida Ulug‘bek, Boysunqur Mirzo, Alisher Navoiy, Badiuzzamon kutubxonalari madaniy tariximizning qimmatli sahifalarini tashkil etadi. Kitobxonlik madaniyatining yana bir muhim jihatni, insonni bilimdonlik, suhbat, topqirlik sari yetaklaydi. Gruzin xalqi madaniyat va ma’naviyat belgisi sifatida har bir kelein sepiga Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” kitobini qo‘sib berar ekan. Aynan, bizning ham xalqimizda ana shunday mumtoz tarbiyaviy asarlar bor. Faqat ularni targ‘ibot tashviqot qilishimiz, o‘quvchilar qalbiga chuqurroq singdirishimiz kerak bo‘ladi. Donolar ta’rificha, kitob bilim manbai, insoniyat to‘plagan hikmatlar hazinasi, ijtimoiy ong mahsulidir.

Jadid bobomiz Abdulla Avloniy: ”Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsata ola-digan oyinai hayoti bu uning milliy adabiyoti va tilidir” deganlarida turkiy tilni nazmga yaroqsiz deb bilganlarning haddini buyuk Navoiy XV asrda ko‘rsatib qo‘ygani, XX asr boshida o‘zbek tilida nasriy asar yozishning naqadar og‘irligini ro‘kach qilganlarni Qodiriy va Cho‘lponning nasrdagi betakror so‘z nazmi bilan hayratga solganini va bu qutlug‘ silsila keyingi avlod vakillarining hayratlanarli ijodlarida davom etayotgani tarixning o‘chmas zarvaraqlarida muhrlangan.

Adabiyot sahnasida hikmatli so‘z aytgan va aytayotgan so‘z salaflari adabiyot ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatini his qilmoq, munis onalarning allalarini, ming yillik dostonlarni, baxshi va hofizlarning aytimlarini ming asarlarda kitobxonlarga tuhfa qilmoqdalar.

Zero, kitob o‘qigan inson bilan hamsuhbat bo‘lish, u bilan birga vatq o‘tkazish maroqli tuyuladi. Kitob o‘qigan odamda bukilmas iroda, yuksak matonat, Ona Vatanga fidokorona xizmat qilish singari ezgu fazilatlar mujassam bo‘ladi. ”Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita bor, u ham bo‘lsa so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni inson ruhining muhandislari deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta [1].

Davlatimiz rahbarining 2018-yilning 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlар o‘rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-dekabrdagi “Yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan “Yosh kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi majlis bayoni ijrosini ta’minalash, Yurtboshimiz ilgari surgan besh muhim tashabbus doirasida aholi, ayniqsa yoshlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirish borasida “Kitobxon millat” loyihasi asosida boshlangan qutlug‘ tadbir mifiktablar, mahallalar, shahar-tumanlar, viloyatlar oralab, eng zukko bilimdonlarni tanlovning respublika bosqichiga yetib keldi.

Nizomga asosan tanlov besh bosqichda tashkil etildi: birinchi bosqich arizalar qabul qilish va mahalla bosqichi, ikkinchi bosqich tanlovning sektor bosqichi, uchinchi bosqich tanlovning tuman (shahar) bosqichi, to‘rtinchi bosqich tanlovning hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi, beshinchi

bosqich esa Respublika bosqichi hisoblanadi. Unda “Badiiy asarlar bilimdoni”, “Tez-kor savol-javob”, ”Buyuk mutafakkir va adib”, ”She’riyat”, ”Kvest” shartlari asosida belashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Tanlov ishtirokchilari Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Tarag‘ay Ulug‘bek, Nosiruddin Rabg‘uziy singari ulug‘ mutafakkirlar hayoti va ijodidan, Jek London, Maxtumquli Firog‘iy, Jon Staynbek, Xelli Xarper Li, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Muxtor Shoxonov, Ibroyim Yusupov singari xorij va qardosh adabiyot vakillari, Cho‘lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Rauf Parfi, Usmon Azim, Erkin A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Sirojiddin Said, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Eshqobil Shukur, Bahodir Ali, Sobir O‘nar, Ahmad Muhammad, Abdurashid Nurmurodov singari o‘zbek adabiyoti darg‘alari asarlarini tahlil qilib, asar qahramonlarining ibratli ishlari haqida to‘lib-toshib gapirdilar.

Mazkur tanlov yosh kitobxonlarni mustaqil fikrlash, sahnada o‘z fikrini dadil himoya qila olishga o‘rgatishi barobarida minglab oilalarga nur-u fayz olib kirgani esa nur ustiga nur bo‘lmoqda.

Zero, Navoiy “Xamsa”sidagi Farhod timsolida barkamollik va mardlikni, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar”ida Otabek qiyofasidagi o‘zbekona odob-axloqni, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon kuylagan nafosat, milliy g‘urur va matonat, O‘tkir Hoshimov talqinidagi o‘zbek onasi ta’rifi, Chingiz Aytmatovning “Jamila”sidagi toza mehr, Maxtumquli Firog‘iyning insoniy halollik fazilatlarga to‘la she’rlari bilimdon bolalarimizni yuragiga ezbilik,adolat, shijoat tuyg‘ularini joylayotganini ularning pishiq-puxta javoblari va yonib turgan ko‘zlarida ko‘rdik.

Haqiqatdan ham “...bugun kitob o‘qigan bitta bola ertaga televizor ko‘rib o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin” [2].

Bu yilgi respublika tanlovida 10–14 yosh toifasi va sovrindorlari – Toshkent shahridan Dilbarxon Haydarova, 15–19 yosh toifasi g‘oliblari ichra Toshkent shahridan O‘g‘iljeyran Xolturdiyeva, 20–30 yoshlilar orasida xorazmlik Maftuna Ochilovalar Prezident sovg‘asi “Chazor” elektromobilini qo‘lga kiritdilar. Ikkinchisi o‘rin sohiblariga 75 mln so‘mdan, uchinchi o‘rin sohiblariga 50 mln so‘mdan, qolgan barcha ishtirokchilarga 10 mln so‘mdan pul mukofotlari topshirildi.

Toshkent shahridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Al-Xorazmiy maktabining 8-sinf o‘quvchisiman, – deydi Prezident sovg‘asi- avtomobil bilan taqdirlangan g‘oliba kitobxon Dilbar Haydarova, – bolaligimdan o‘zbek va qardosh xalqlar og‘zaki ijodini o‘rganishga ahd qildim, “Kuntug‘mish”, ”Go‘ro‘g‘li”, ”Alpomish”, ”Avazzon” dostonlarini o‘qidim, ertagu masallarni yod oldim, eng muhimi ota-onam, do‘stlarim, ustozlarim oldida yuzim yorug‘ bo‘ldi, Prezident sovg‘asi – bu men uchun ishonch, mas’uliyat, kelgusida olima bo‘lmoqchiman, o‘qish, izlanishlarimga ilhom berdi bu mukofot!

Yana bir g‘oliba- O‘g‘iljeyran Xaldurdiyeva Prezident sovg‘asi “Chazor” elektromobilini qabul qilib olar ekan, quvonchi ichiga sig‘may shunday deydi: ushbu avtomobil ota-onamga mening sovg‘am bo‘ldi, mutolaa bilan shug‘ullangan, kitobga mehr qo‘ygan yoshlarni mukofotlagan davlatimiz rahbariga ming rahmat. O‘zbekiston davlat

jahon tillari Universitetini bitirib, tarjimon bo‘lmoqchiman, yosh kitobxon tanlovida orttirgan do‘stlarimning adabiyotga mehri, kitobga bo‘lgan hurmatini ko‘rib, kelgusida mana shu o‘rgangan asarlarimini baholi qudrat ingliz tiliga o‘girish niyatim bor. Nabi Jaloliddinng “Umar Xayyom” asarini sharhladim, Ahmad A’zam ijodiy faoliyatini tahlil qildim, Navoiyning, Fitratning ijodlarini hayratlanib so‘zlab berdim. Farzandla-ri kitob o‘qisa mashina bilan mukofotlaydigan davlat rahbarining e’tiboridan boshim osmonda!

O‘zim turkman qiziman, Berdi Kerboboyev, Ota Govshudov asarlari qahramonla-ri, Maxtumquli ta’rifini shunday keltirgim keladi:

Maxtumquli – ruhi-joni turkmanning,
Tomirida oqar qoni turkmanning.
Maxtumquli – go‘zal yuzi turkmanning,

Yuksak bilim va qobiliyatli yoshlardan 23 nafari Toshkent shahridan Shohsanam Xolboyeva, Maftuna Umarova, Sevinch Avazova, Gulhayo Soliyeva, Dilbarxon Haydarova, O‘g‘iljeyren Xaldurdiyeva, Toshkent viloyatidan Otabek Eshpo‘latov, Qashqadaryo viloyatidan Surayyo Shodiyeva, Mironshoh Nurmatov, Samarqanddan Mohiniso Shomurodova, Mahliyo O‘roqova, Marhabo Mahkamtosheva, Nargiza Muhammadiyeva, Farg‘onadan Sharofat Isroilova, Muhammadfozil Ismoilov, Namangandan Zamira Abdullayeva, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan Nursulu Kokanova, Shahzoda Karimboyeva, Navoiydan Aziza Ibrohimova, Andijondan Fotimaxon Mamtaliyeva, Buxoro viloyatidan Muxlisa Nasimova, Sirdaryodan Yorqin Hayitboyev, Xorazmdan Maftuna Ochilovalar Prezident sovg‘alari avtomashinalarni qo‘lga kiritdilar.

Shuni mammuniyat bilan qayd etish kerakki, Yangi O‘zbekiston bilimdon yoshlari mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida o‘z o‘rinlari va obru e’tiborlari-ga egadirlar, Qoraqalpog‘istonlik yosh kitobxon Shahzoda Karimboyeva, Samarqandlik g‘olib Mohiniso Shomurodova Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ham qo‘lga kiritgan bo‘lsalar, samarqandlik bilimdon yoshlar Mahliyo O‘roqova, Shohsanam Xolboyeva “Kelajak bunyodkori” medali bilan, andijonlik yosh kitobxon g‘oliba Fotimaxon Mamtaliyeva “Shuhrat” medali bilan mukofotlanganlari kitobxon yoshlarning iste’dodlari va zukkoliklarini davlatimiz tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanayotgani-dan darak beradi.

Sirasini aytganda insoniyatning buyuk kashfiyoti – kitoblarning ma’no-mazmuni, ahamiyati haqidagi qizg‘in bahslar, kitobxonlik tadbirlari ma’rifat bayramlariga aylanib ketmoqda yurtimizda!

Davlatimiz rahbari bekorga: “O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!” demaganlar.

Fikr chizig‘idan o‘tgan har bir satr xalq ko‘ngliga yetib borishini ta’minlash,-yurakdan chiqqan so‘zning yurakka yetib borishiga erishish uchun fidoyilarcha xizmat ko‘rsatgan shoiru adiblarga hurmat ifodasidir.

Zotan buyuk Cho‘lponning “Adabiyot nadir” maqolasida “Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyot o‘lmag‘an va adabiyotning taraqqiysiiga chalishmagan va adiblar yetishtirmag‘an millat bir kuni oxir hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum bo‘lib qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilgan millat o‘zini inqirozda ekanin bildirur” [3] deganida adabiyotning, kitobning insoniyat tarixida taraqqiyot va rivojlanishning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi bo‘lganini nazarda tutgan bo‘lsa kerak.

Inson ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita – so‘z san’ati, badiiy adabiyotni insonshunoslik ekani, o‘sib kelayotgan barkamol avlod insonshunoslik ilmiga os-huftha bo‘lib, Vatan va yurt so‘zini yuragiga o‘yib yozayotgan hikmatli asarlarni mutolaa qilishi- butun mamlakatni ulkan kutubxonaga aylanib borayotgani biz ziyolilarning ko‘nglimizga havas beradi, faxr beradi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 136 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Odob-axloq kitobi. Mutolaa zavqi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020. – B.4.
3. Cho‘lpon. Asarlar: 4 jlldlik. J.4. – Toshkent: Akademiya, 2016. – B. 4.

O‘ktam Nosirov

*O‘zDSMI “Kutubxona-axborot faoliyati”
kafedrasining professori v.b., falsafa fanlari nomzodi*

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI XODIMLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot-kutubxona muassasasi jamoasini o‘zlariga ergashtira oladigan xodimlarni boshqarish va ularning faoliyatini tashkil etish, shuning uchun axborot-kutubxona muassasasi rahbari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ‘ib qilish va ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo‘yicha, ayniqsa, axborot-kutubxona muassasasi jamoasi darajasida zaruriy bilimlar, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarurligi, integrativ mahoratning umumlashtirilgan mahorat bo‘lib, axborot-kutubxona muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatida ijobjiy natijalarga erishish, axborot-kutubxona xizmati jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kutubxona ichki boshqaruvining maqsadini tizimli rivojlantirish va amalga oshirishi-dagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ixtirochilar salohiyati, samarali foydalanish, innovatsion faoliyatlarini natijalari, integrativ mahorat, umumlashtirilgan mahorat, boshqaruv faoliyati, ichki boshqaruv.

Abstract: This article examines the management of staff in information and library institutions and the organization of their activities. Special attention is given to the necessity for library and information institution leaders to possess the essential knowledge, skills, and competencies to introduce innovations, effectively utilize the potential of inventors, promote and disseminate their experience, and evaluate the results of innovative activities. It is emphasized that integrative mastery is a generalized skill, and its presence among library and information institution leaders contributes to achieving positive outcomes in management activities, as well as the systematic development and implementation of internal library management goals aimed at enhancing the library and information service process.

Keywords: Inventors’ potential, effective utilization, results of innovative activities, integrative mastery, generalized mastery, management activities, internal management.

Bugungi kunda kutubxona-axborot muassasasining har bir xodimi uzlusiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, tafakkur yuritishi, o‘z faoliyatiga nisbatan munosabatini o‘zgartirishi, boshqalarda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Kutubxona-axborot muassasalari xodimlari shunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko‘rishlari kerak bo‘lib bu o‘z navbatida kutubxona-axborot muassasasi rahbarlarining asosiy funksiyalaridan bo‘lgan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish-

ning uzoq muddatli strategik rejalarini tuzishda asosiy e'tibori xodimlarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun tushuntirish ishlariga qaratilishi lozim [1]. Bu o'z navbatida xodimlarning kasbiy qiziqishlari ko'lамини kengaytirishga, ya'ni ularning metodik adabiyotlarni o'qib o'rganishidan tortib nazariy, fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Nazariy tayyorgarlikning yetuk bo'lishi amaliy faoliyat bilan uyg'unlashib innovatsion o'zgarishlar uchun zamin tayyorlaydi. Innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi xodimlarning muntazam ravishda o'z o'zini rivojlantirishi ularni kutubxona-axborot faoliyati jarayonini takomillashtirishning katalizatoriga aylantiradi, ya'ni mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kutubxona-axborot muassasasi jamoasini o'zlariga ergashtira oladigan xodimlarning boshqarish va ularning faoliyatini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun kutubxona-axborot muassasasi rahbari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ'ib qilish va ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo'yicha ayniqsa kutubxona-axborot muassasasi jamoasi darajasida zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur bo'lib bu ularning integrativ mahoratlarini belgilaydi. Integrativ mahorat – bu umumlashtirilgan mahorat bo'lib kutubxona-axborot muassasalarini rahbarlari boshqaruv faoliyatida ijobiy natijalarga erishish, kutubxona-axborot xizmati jarayonini rivojlantirishga yo'naltirilgan yo'naltirilgan kutubxona ichki boshqaruving maqsadini tizimli rivojlantirish va amalga oshirishida zarur hisoblanadi. Muayyan ko'nikmaga ega bo'lmadan maqsadga erishishning yo'llari, vositalari va erishish muddatini aniq belgilash mushkul.

Kutubxonashunoslik fanining va oldingi tajribalarning integrativ asosdagi xulosalari va tavsiyalari yangi g'oyalarning manbai hisoblanadi, ular o'z navbatida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Umumiy holda kutubxona-axborot muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'ladi [2]. Obyektiv omillarga davlatning kutubxona-axborot faoliyatiga oid siyosati, ushbu sohadagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, kutubxona-axborot muassasalarining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin.

Subyektiv omillarga kutubxona-axborot muassasasiga ijtimoiy-huquqiy ehtiyoji, muassasa faoliyatining rivojlanish jarayoni, xodimlarning ilmiy-metodik bilim, ko'nikma va malakalari, ilmiy salohiyatlarining rivojlanishi, muassasa salohiyatining o'sishi, boshqaruv xususiyatlarining o'zgarishi misol bo'ladi.

Kutubxona-axborot faoliyati jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart sharoitlarning talablariga mos tarzda o'zgartirish, kutubxona-axborot muassasalarini xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini yaratish va takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatning tizimli tarkibiy qismlariga asoslanishga bog'liqdir.

Kutubxona-axborot muassasasining innovatsion faoliyati jarayonini tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ilmiy-amaliy qoidalar majmuasini ishlab chiqish. Ilmiy-amaliy qoidalar majmuasi innovatsion faoliyatning asoslari bilan belgilanib innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifasi, mazmuni hamda uni tashkil etish tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Kutubxona-axborot muassasasini innovatsion faoliyatiga jalb etuvchi omillar innovatsion faoliyatni takomillashtirishga sabab bo‘ladi. Innovatsion faoliyatni tashkil etish asosiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi va shu munosabati bilan kutubxona-axborot muassasasida asosiy o‘zgarishlar vujudga keladi.

2. Kutubxona-axborot muassasasining ilmiy-tadqiqoq salohiyatini shakllantirish. Muassasaning ilmiy-tadqiqot salohiyatini shakllantirish xodimlar o‘rtasidagi, xodimlar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi hamkorlik asosida rivojlanadi.

3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta’minlashning asosiy shartlari alohida boshqaruv shartlari, ya’ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan, yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan kutubxona-axborot faoliyati jarayoniga innovatsiyalarni kiritishda barqarorlik vujudga keladi [3]. Bunda eng muhimi kutubxona-axborot muassasasi jamoasining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va ehtiyojlarni inobatga olib yangiliklarni tanlash hisoblanadi. Kutubxona-axborot faoliyati tizimining rivojlanishini tizimli boshqarish kutubxona-axborot muassasalarining me’yoriy funksiyalarini bajarish bilan, alohida innovatsion loyihalarni. Yagona maqsadga qaratilgan dasturlar doirasida kutubxona-axborot muassasasi jamoasi a’zolarini birlashtirishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, kutubxona-axborot muassasasini boshqarishning yangilangan tizimini amaliyotga tadbiq etish jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Subyekt – mudir, direktor, turli masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlar, xodimlar, faol foydalanuvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyatini tadbiq etish.

Mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlash subyektlarning xususiyatlarini o‘rganishni (boshqaruv sifatlari, shaxsning yo‘naltirilganligi, innovatsion faoliyatga qiziqish, faoliyatga tayyorgarlikni) talab qiladi.

2. Tatbiq etish jarayonining elementlari innovatsion modelning mustahkam harakatlanishini qo‘llab-quvvatlovchi choralar majmuasi sifatida shakl, metod va vositalarni o‘z ichiga oladi. Tatbiq etishda tag‘lil qilish, natijalarni baholash, boshqaruv subyekti faoliyatining mazmunini takomillashtirish, boshqaruv aloqalarini, munosabatlarining hudud va mas’uliyatlarini belgilash ishlari amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonda funksiyalar taqsimotini tahlil qilishda boshqaruv tizimidagi axborotlar oqimi, hujjatlar aylanishi, ish jadvali, kutubxona-axborot muassasasi holati va tasnifiy hususiyatlari, lavozimlar bo‘yicha ko‘rsatmalar o‘rganiladi, shuningdek, boshqaruv tizimida kutubxona-axborot muassasasi tizimining faoliyatini innovatsion faoliyat jarayonlarini amalga oshiruvchi xodimlarning funksiyalarini va innovatsiyalarni zarur axborotlar bilan ta’minlovchi hujjatlar, nizom, tezkor muvofiqlashtirish rejalarini va boshqa me’yoriy hujjatlar aniqlanadi.

Mazkur yo‘nalishda innovatsion faoliyatning usul va shakllarini yoritish, ilg‘or tashribalarga ega bo‘lgan malakali xodimlar faoliyatini kuzatish va o‘rganish, kutubxo-

na-axborot muassasalari xodimlarining faoliyat jarayonida bir-birlarini kuzatishi, innovatsion faoliyatni modellashtirish yo‘nalishidagi seminarlar, maslahatlar, innovatsion faoliyat (innovatsion jarayonlarni boshqarish) strategiyalarini shakllantirishga ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan xodimlarni jalb etish misol bo‘lishi mumkin.

3. Samarali tatbiq etish sharoitlarining majmuasi. Bu kutubxona-axborot muassasa-sida boshqaruv tizimining takomillashganligi, jamoadagi ijodiy muhitning yaratilganligi, uning bosqichma-bosqich yuksak darajaga ko‘tarilib borishi, boshqaruv subyektlarining o‘z faoliyatlarining ijobiy natijalarga ishonchlari kabilarni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruvning innovatsion modellarini tatbiq etish saiaradorligining ahamiyatli ko‘rsatgichlari kutubxona-axborot muassasasi xodimlarining metodik qo‘llanmalari va ko‘rsatmalar tayyorlash, turli xil tadqiqot ishlarini bajarishlaridagi faolliklarini ifodalaydi [4]. Ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini faollashtirish xodimlarning ilmiy-metodik asoslarda malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish bilan tavsiflandi. Kutubxona-axborot muassasalari xodimlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishda muassasalar rahbarlarini innovatsion faoliyatga undovchi va mazkur yo‘nalishdagi harakatlarini ta’minlovchi asoslarni quyidagi to‘rtta guruhga ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) yangilik yaratish natijasida vujudga keladigan hurmat-ehtirom, mavqe bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy moddiy qiziqishlar;
- 2) tashkiliy tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishiga mos ravishda o‘z o‘zini kasbiy rivojlantirishga intilish;
- 3) jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy muhitida innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglash;
- 4) tezkor boshqaruvning mazmun va mohiyatini tushunish va mantiqiy zaruriyatini qabul qilish.

Bu jarayonda quyidagi qator vazifalar, ya’ni kutubxona-axborot faoliyati jarayonini takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalsha oshirishda kutubxona-axborot muassasasi rahbarlarining asosiy vazifalari va ularning boshqaruv faoliyatining hamda innovatsiyalar samaradorligining asosi hisoblanadi:

- Kutubxona-axborot muassasasi jamoasi uchun yangilik kiritishning dolzarbliги muammolarini uzil-kesil hal qilish va strategik rivojlanishini ta’minalashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;
- Tanlangan innovatsion vositalarning mazkur kutubxona-axborot muassasasining imkoniyatlariga mos kelishi;
- Innovatsiyalarning to‘la ilmiy asoslanganligi;
- Innovatsion jarayonlarning ahamiyatligi va tizimliligi;
- Yangilik yaratuvchilar va undan foydalanuvchilarning shaxsiy kasbiy xususiyatlarini hisobga olish va innovatsiyalarning ahamiyatini anglash, har bir subyektning yuqori darajadagi mas’uliyatini hamda javobgarligini ifodalash;
- Kutubxona-axborot muassasalaridagi innovatsio jarayonlarda tavakkalchilikning minimal darajada bo‘lishi uchun yetarli sharoitlar yaratish, tavakkalchilikning darajasi ni tushunish va ularning asoslanganligining zaruriyat;

- Boshqaruv funksiyalari va boshqaruv mexanizmlarida, kutubxona-axborot faoliyati jarayonining mazmuniga, yangi axborot texnologiyalarida, muassasa dasturi va konsepsiyasida o‘zgartirishlar hamda rivojlanish takomillarining o‘z ifodasini topishi;
- Kutubxona-axborot muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyati metodologiyasi ning innovatsion jarayonlarni boshqarish shartlari va tamoyillariga mos kelishi [5].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan harakatlar strategiyasiga muvofiq tarzidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bevosita kutubxona-axborot faoliyati tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Kutubxona-axborot faoliyatini yangilash uning ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvi, boshvaruvda ma’muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechishni, integrativ jarayonlarni kuchaytirishni talab qiladi. Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda tizimning innovatsion faoliyatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – 3-nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
2. O‘zbekiston pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.
3. Ibrohimov A. Vatan tuyg‘usi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 396 b.
4. Ibrohimov A. Ruhiy oziq mahzani. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 428 b.
5. Ibrohimov A. Yorug‘lug‘. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 376 b.

*O‘ktam Nosirov,
O‘zDSMI ”Kutubxona-axborot faoliyati”
kafedrasining professori v.b.,
falsafa fanlari nomzodi*

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA INNOVATSION BOSHQARISHNI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya. Maqolada barcha axborot-kutubxona muassasalarida va ularning ichki tizimlarida ijodiy muhit yaratish, jamoada va foydalanuvchilarda tashabbuslar va yangiliklarga qiziqish paydo qilish; turli yangiliklarning qabul qilinishi va amal qiliishi uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy (iqtisodiy) sharoitlar yaratish; foydalanuvchilar ehtiyojini maksimal darajada qondirish yo‘nalishidagi har qanday izlanuvchanlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish; eng istiqbolli yangiliklar va mahsuldar loyihalarni real amal qilib turgan axborot-kutubxona tizimiga integratsiyalash va to‘rlangan innovatsiyalarni doimiy amal qiladigan izlanuvchan va eksperimental axborot-kutubxona tizimlari rejimiga o‘tkazish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, tashabbus, innovatika, yangilik, innovatsion jarayon, innovatsion muhit, yangilanish, yangilik kiritish, innovatsiyalar diffuziyasi.

Abstract. The article addresses the creation of a creative environment in all information and library institutions and their internal systems, encouraging initiatives and interest in innovations among staff and users; establishing socio-cultural and material (economic) conditions for the acceptance and implementation of various innovations; developing mechanisms to support any exploratory initiatives aimed at maximizing user satisfaction; integrating the most promising innovations and productive projects into the existing information and library system, and transforming networked innovations into a continuously operating exploratory and experimental information and library system.

Keywords: innovation, initiative, innovatics, novelty, innovation process, innovative environment, renewal, implementation of innovations, diffusion of innovations.

Innovatsiya maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartishlar bo‘lib, xususiy holda ma’lum ijtimoiy birlikka uyushgan muassasa, tashkilot, korxona miqyosidagi, uyushgan holda esa bir butun mamlakatdagi ma’naviy-madaniy munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangiliklar yuritib borishdir. Innovatsiya jarayon sifatida ham talqin qilinib, bunda yangiliklar kiritishning rivojlanishi vaqtga bog‘liq bo‘lib, bosqichlarga ham ajratiladi. Innovatsiyalar xilma-xil tashabbuslar va yangiliklar asosida vujudga keladigan kutubxona-axborot faoliyati evolutsiyasi uchun istiqbolli bo‘ladi hamda uning rivojlanishiga, shuningdek, ancha keng madaniy kutubxona-axborot makonining rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan dolzarb ahamiyatli va o‘zi

tizim hosil qiladigan yangiliklardir [1]. Kutubxona-axborot tizimini rivojlanadirishning innovatsion mexanizmlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Barcha axborot-kutubxona muassasalarida va tuzilmalarida ijodiy muhit yaratish, xodimlarda tashabbuslar va yangiliklarga qiziqishlar paydo qilish;
- Turli ijobiy yangiliklarning qabul qilinishi va amal qilishi uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy (iqtisodiy) sharoitlar yaratish;
- Izlanuvchan axborot-kutubxona faoliyati tizimlarini hamda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish;
- Eng istiqbolli yangiliklar va mahsuldor loyihalarni real faoliyat ko‘rsatayotgan kutubxona-axborot tizimlariga integratsiyalash hamda to‘plangan innovatsiyalarni domiy amal qiluvchi izlanuvchan va eksperimental tizimlar jadvaliga o‘tkazish;

Innovatsiya ko‘p hollarda “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida anglanadi. “Innovatsion jarayon” tushunchasi esa yaratish va ularni o‘zlashtirishi hamda kutubxona-axborot muassasasi amaliy faoliyatida samarali qo‘llashni ifodalaydi. Amaliy faoliyatda “yangilik”, “yangilanish”, “yangilik kiritish” tushunchalari ko‘pincha sinonim tarzida qo‘llanilsada ularning o‘rtasidagi farq quyidagilardan iborat: yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi ixtirolarga nisbatan qo‘llaniladigan tushunchalardir. Yangilik kiritishi qo‘llanilgan yangilikdir. Yangiliklarning amaliyotdagi qo‘llanilishi va ommalash-tirilishi yangi sifat holatiga o‘tishini anglatadi va innovatsiyalar yuz beradi. Yangilik kiritishning ommalashtirilishi va tashkil etilishi – innovatsion jarayonlarning tarkibiy qismlari bo‘lib hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning muassasa ichidagi oddiy jarayon, muassasalararo oddiy jarayon va kengaytirilgan jarayon singari uchta mantiqiy shakllari mavjuddir. Muassasa ichidagi oddiy innovatsion jarayon bitta muassasa doirasida bo‘lib, ichki yangilik ommalashtirish tarzida bo‘lmaydi. Muassasalararo oddiy innovatsion jarayonda, yangiliklar buyumlarni almashtirish tarzida almashtiriladi. Innovatsion jarayonning bu shakli yangilikni yaratuvchilarining funksiyasi iste’molchilarining funksiyasidan farq qilishini ko‘rsatadi. Mavjud yagniliklarni amaliyotga joriy etuvchi yangi ishlab chiqaruvchilarining vujudga kelishida kengaytirilgan innovatsion jarayon yuzaga keladi va o‘zaro raqobat tufayli natijaning xususiyatlari takomillashib boradi.

Innovatsiyalar diffuziyasi ijtimoiy tizim a’zolari o‘rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalar orqali uzatilishi jarayonidir. Ma’lum bir subyekt uchun yangi bo‘lgan g‘oya, narsa va texnologiyalar yangiliklarni tashkil etishi mumkin. Boshqacha so‘z bilan aytganda, diffuziya avval ishlatilgan, o‘zlashtirilgan innovatsiyalarni yangi sharoitda yoki yangi joyda ommalashtirish demakdir. Diffuziya natijasida yangiliklarning tashkilotchilari sifatida yangiliklardan foydalanuvchilar soni ko‘payadi.

Boshqaruv murakkab, ko‘p darajali jarayon bo‘lib, dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ziddiyatlilik, ahamiyatlilik, tavakkilchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi, innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo‘ljallanganlik, insonlarni qiziqishlari bo‘yicha tabaqlashtirish qobiliyati, innovatsiyalarning subyekt tomonidan qabul qilinishi kabilar uning asosiy xususiyatlaridir.

Innovatsion jarayonida eng kamida ikkita subyekt yangilik kiritishning tashkilotchilari va iste'molchilar (foydalanuvchilar) faoliyat ko'rsatadi. Agar yangilik texnologik jarayon bo'lsa uning tashkilotchilari (ishlab chiqaruvchi) va iste'molchilar bitta subyekt sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Oddiy innovatsion jarayon, birinchidan, yangiliklarni yaratish va ularni ommaviylashtirish, ikkinchidan, yangiliklar diffuziyasidan iborat bo'lgan ikkita davr orqali hayotiy odad tusiga o'tadi. Birinchi davr – bu ilmiy tadqiqotning ketma-ketlikdagi bosqichlari, loyihalash ishlari, tajriba ishlarini tashkil etish, ishlab chiqarishni tashkil etish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda yangilik kiritish va samaradorlikka erishish amalga oshirilmaydi, faqat uni amalga oshirib samaradorlikka erishish mumkinligi ko'rsatiladi.

Ikkinci davrda ijtimoiy foydali natija yangiliklarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida qayta taqsimlanadi.

Innovatsiyalarni ommalashtirish – bu axborotlar jarayonida kommunikatsiya vositalarining qudratiga bog'liq bo'lgan axborotlar almashinuvining shakli va to'lig'i, subyektlarning axborotlarni qabul qilish xususiyatlari va mazkur axborotlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatları kabiladir.

Dialektika – bu quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon umumiy aloqadorlikka, bosqichma-bosqich rivojlanish taraqqiyoti, yangilanish jarayonini ifoladovchi jarayonlardir. Shunga asosan innovatsiyalar mavjud an'analar bilan ijodiy ziddiyatlarni vujudga keltiradi, ular asosida amalga oshadi va rivojlanadi. Ushbu tizimning doimiyligi va uzlusizligi muassasaning innovatsion rivojlanish ko'rsatgichini belgilaydi. Innovatsiyalarning davriyligi mavjud an'analarning maqsadga muvofiq holda, bosqichma-boschiq almashib borishida ifodalanadi. Chunki, avvaldan mustahkam o'rashib qolgan fikrlar, tushunchalarni o'zlashtirish ancha murakkab kechadigan jarayondir.

Innovatsiyalarning asoslanganlik darajasi – sifat o'zgarishlarining miqdoriy o'zgarishlarga o'tishi bilan belgilanadi. Innovatsiya shu paytgacha mavjud bo'lgan harakatdagi standartlardan qanchalik ko'p darajada farq qilsa, uning o'zgartirish salohiyati va asoslanganlik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Innovatsiyalarning ziddiyatliligi. Yaratilgan yangiliklarni joriy etish muayyan holatlarda ziddiyatli vaziyatlarni vujudga keltirish mumkin. Paydo bo'lgan murakkab vaziyat muassasada an'ana tarziga aylangan munosabatlarni o'zgartiradi. Innovatsiyalarning ahamiyatliligi – innovatsion jarayonlar muassasalar rahbarlarining xodimlarning yangiliklarga bo'lgan munosabatlarini obyektiv baholash imkoniyatlarini yaratadi, jamaoda vujudga kelgan keskin ichki munosabatlarning o'zgarishi natijasida unga mos keluvchi boshqaruv taktikalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Innovatsion tavakkalchilik – innovatsiyaning ehtimol tutilgan xususiyatlariga bog'liqdir. Natijaviylikka nisbatan ishonchsizlik innovatsiya subyekti tavakkalchilik va xavotirlik hissiyotini vujudga keltirishdan tashqari pirovard natijalarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Innovatsiyalarning rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati. Innovatsion yo'naltirilgan rahbarlik uslubi innovatsion jarayonning natijasiga har bir xodimning qiziqishini vujudga keltirishni nazarda tutadi [2].

Innovatsiyaning vaziyatga aloqadorligi. Muassasa innovatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish jamoa muhitiga va uning yangiliklarni qabul qilish darajasiga ham bog‘liqdir.

Innovatsiyalarning tizimliligi. Yangiliklar bilan to‘la tanishlik, baholash, sanash, ma’qullash va qabul qilish innovatsiyani amaliyotga tatbiq etishning asosiy bosqichlarini ifodalaydi.

Innovatsiyalar rahbarlikning innovatsion uslublari strategiyasini shakllantirish imkoniyatidir.

Innovatsion dasturlarni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini innovatsiya subyektlarining qiziqishlariga innovatsion jarayonlarga individlarning psixologik tayyor-garligining shakllantirish hamda tayyorgarlik darajasining oshirilishiga bog‘liqdir.

Innovatsiyalarning boshqaruvchanligi. Yangiliklarni tatbiq etish tashkiliy vaziyatlarni rivojlantirishning dasturlashtirish imkoniyatlariga bog‘liq va vazifalarni tashkiliy tizimning maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirish asosida innovatsion jarayon subyektlarining o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish istiqbollarini belgilaydi.

Innovatsiyalarning insonlar qiziqishi bo‘yicha tabaqalashtirilishi. Innovatsiyalar ning joriy qilinishi natijasida ma’lum xodimlarning qo‘srimcha imtiyoz olishi muayyan tabaqalanishni vujudga keltiradi va shuningdek boshqalarning ham qiziqish va intilishlarining kuchayishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsiyalarning subyekt tomonidan qabul qilinishi. Muayyan yangiliklarning shaxslar tomonidan qabul qilinishi harakatdagi mavjud tizimning o‘ziga xos xususiyatlari qay darajada mos kelishiga hamda shaxs faoliyatining ijobjiy yoki salbiy yo‘nalishlariga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha sifatlar ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik tizimlarning ajralmas qismi sifatida o‘z-o‘zini yangilovchi ekanligini ko‘rsatadi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishga yetaklovchi omillar obyektiv va subyektiv xususiyatiga ega bo‘lib uning asosiy yo‘nalishini belgilaydi [3].

Kutubxona-axborot muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat jarayonidagi maqsadga yo‘naltirilganlik, ilmiy asoslanganlik innovatsiyalar rivojlanishini takomillashtirish uchun imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Innovatsion faoliyatini rivojlantirishning yuqori samaradorligiga erishish uchun ushbu qoqliyatni tashkil etish jarayonini modellashtirish zarur. Kutubxona-axborot muassasalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish modeli muassasada o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi, funksional vazifalari aniq belgilangan mutaxassislar, boshqaruv subyekti tizimini tasvirlaydi. Eng avvalo, umumiylar maqsadlarning mavjudligi, boshqaruv tizimining qulay va demokratik xususiyati, rahbarning o‘z sohasiga mosligi, jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mavjudligi, innovatsion faoliyatda jamoa asosiy qismining ishtirok etishi singarilar kutubxona-axborot muassasalari amaliyotiga innovatsion modelarni samarali tatbiq etishning boshlang‘ich shartlari hisoblanadi.

Innovatsion jarayonni tashkil etish hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, kutubxona-axborot muassasasidagi mavjud muammolarni o‘rganish va tahlil qilish, muammolarni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni aniq belgilab olish alohida ahamiyatga egadir.

Kutubxona-axborot muassasasining imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib innovatsion jarayonning mazmun va mohiyatini belgilashning sifati va basharilish samadorligi subyektlarning faoliyatiga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, kutubxona-axborot muassasasi faoliyatida belgilangan maqsadlarga ko‘ra yuqori natijalarga erishish ularning innovatsion faoliyati hamda innovatsion jarayonlarni tashkil etish qobiliyatlariga shu darajada bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, barcha ko‘rsatgichlar bo‘yicha ma’lumotlar olish uchun anketa so‘rovnomalari, hujjatlar tahlili singari bir qator metodlar ham qo‘llaniladi.

Ushbu metodlarni qo‘llash yordamida olingen ma’lumotlar ishlab chiqilgan innovatsion modelning hayotiy ahamiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Kutubxona-axborot muassasasida innovayion jarayonlarni boshqarishning turli modellarini tatbiq etish boshqarish jarayonlari samadorligini (boshqaruv sifatlari, innovatsion faoliyatga qiziqish va tayyorlanish) ta’minlovchi, tatbiq etish (kuzatish, eksperiment, hujjatlar tahlili, seminarlar, maslahatlar) shakllari, vosita va metodlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. “Innovatsiya” va “innovatsion jarayonlar” iboralari o‘zaro yaqin o‘xhash bo‘lsada, bir xil ma’noni anglatmaydi.

Innovatsion jarayon. Innovatsiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsion salohiyatiga ko‘ra yangiliklar: modernizatsiya faoliyatini takomillashtirish, shaklan o‘zgartirish, rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma’lum bo‘lgan metodlar eksmentlarining yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o‘xshashlikka va umumiylikka ega bo‘lmagan radikal innovatsiyalar islohotlarning asosi sifatida belgilanadi.

Kutubxona-axborot muassasasi jamoasi a’zolarini innovatsion jarayonga jalgan etish alohida bir jamoa a’zosining faoliyatiga yoki butun jamoa faoliyatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Innovatsiyalarni tatbiq etishning natijaviyligini tekshirish, ularning samadorligini baholash masalalarini talab etadi va bunga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:

Kutubxona-axborot muassasasi jamoasi kasbiy mahoratining o‘sishi; kutubxona-axborot muassasasida turli xizmatlarning takomillashishi; jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitning mavjudligi; jamoaning ilmiy va ilmiy-uslubiy salohiyatini oshirishga moyilligi; xodimlar o‘rtasida, xodimlar va foydalanuvchilar, foydalanuvchilararo axborotlar almashinuvida sifatining o‘sishi; foydalanuvchilarning axborotga, ma’lumotga va bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirilishiga intilish.

Kutubxona-axborot muassasasi innovatsion faoliyatida xodimlarning ishtirok etish asoslari ham muhim ahamiyatga ega (masalan, kutubxona-axborot muassasalari faoliyatini o‘zgartirish va yangilanish jarayonida xodimlar o‘z ishtirokini muhim va zarur deb hisoblaydimi yoki hisoblamaydimi va h.k. [4]. Jamoadagi munosabatlarni ham tahlil qilish muhim hisoblanadi, chunki bu jamoada sog‘lom ruhiy muhitning shakllantirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishga imkoniyat yaratadi. Kutubxona-axborot muassasasi jamoasidagi o‘zaro munosabatlar “o‘zaro yordam va hissiy qo‘llab-quvvatlashlar”, “ishonch va bir biriga nisbatan yuqori darajadagi talabchanlik” jamoaga tegishli bo‘lgan masala yuzasidan muhokamada o‘z fikrini erkin ifodalash va h.k.

Kutubxona-axborot muassasalarida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishni amalga oshirish uchun quyidagi talablar qo‘yiladi:

- kutubxona-axborot faoliyati tizimini boshqarishning mavjud tizimi bilan uning integratsiyalashuvini amalga oshirish.

Boshqaruv faoliyati asosan, innovatsion jarayonlar natijasida rivojlanadi. Innovatsion boshqaruvning turli xil modellarini samarali tatbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardir: boshqaruv tizimining qulay va demokratik xususiyatlari; tizimlararo va tizimosti tizimlarini muvofiqlashtirishning aniqligi; rahbar xususiyatlarining kutubxona-axborot faoliyati tizimining rivojlanish va harakatlanish samaradorligini ta’minlashga mos kelishi; kutubxona-axborot muassasasi jamoasi xususiyatlari majmuasi; kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash; ularni innovatsion jarayonlarga jalb etish, qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish hisoblanadi.

Kutubxona-axborot faoliyati boshqaruvida innovatsion faoliyatni ta’minlashning nazariy tahlili uning obyektivligini, foydalanuvchilar ehtiyojlarini har tomonlama qondirishiga oid tamoyillar asosida zamonaviy talablarga mos yangi vazifalarni bajarish, foydalanuvchilar ehtiyojini qondirishda guruhlashtirish tarzida yondashuv, kutubxona-axborot xizmati jarayoniga innovatsiyalarni, yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish zaruratini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 3-nashr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
2. O‘zbekiston pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.
3. Ibrohimov A. Vatan tuyg‘usi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 396 b.
4. Ibrohimov A. Ruhiy oziq mahzani. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2012. – 428 b.
5. Ibrohimov A. Yorug‘lug‘. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 376 b.

*To‘ychi Bayturayev,
O‘zDSMI “Kutubxona axborot faoliyati
kafedrasi” dotsenti, p.f.n.,*

*Sevara Abduraximova,
O‘zDSMI “Kutubxona axborot faoliyati
fakulteti” 4-bosqich talabasi*

KUTUBXONALAR FAOLIYATINI SHAKILANTIRISHDA INTEGRATSION JARAYONLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz kutubxonalarida kitobxonlarga kutubxona xizmatini ko‘rsatish uchun tashkil qilinayotgan hamkorlikning asoslarini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada kutubxonalardagi hamkorlikni tashkil qilishdagi assosatsiyalarni tashkil qilish bo‘yicha Rossiya davlatining olib borayotgan ishlariga alohida to‘xtalib o‘tiligan. Shuningdek, maqolada hamkorlikning asosiy turlari alohi-da tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kutubxona, hamkorlik, mamlakat, mintaqa, tarmoqlar, kitobxon, xizmat ko‘rsatish, boshqarish.

Аннотация. Статья направлена на изучение основ сотрудничества, организованного для оказания библиотечных услуг читателям в библиотеках нашей страны. Также в статье рассматривается деятельность Российского государства по организации объединений в организаций сотрудничества библиотек, анализируются основные виды сотрудничества.

Ключевые слова: библиотека, сотрудничество, страна, регион, сети, библиотека, сервис, управление.

Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarida bo‘layotgan voqealar kutubxonalarning jamiyatdagi o‘rni va vazifalarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Ular oldiga yangi maqsad va vazifalar qo‘yilmoqda, innovatsion faoliyat olib borish zaruratinini keltirib chiqarmoqda. Davlat kutubxonalardan foydalanuvchilarning turli guruhlariga xizmat ko‘rsatishning yangi shakl va usullarini qidirib topish, o‘z faoliyatlarida yangi yo‘nalishlarni qidirib topishni talab qilmoqda. Kutubxonalardan vositalarini izlash bilan birga atrof-muhit bilan unda yashovchi aholi bilan yangicha munosabatlarni tashkil etishga undamoqda.

Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, davlatlararo va madaniyatlararo aloqalarni yanada faol rivojlanishiga sabab bo‘layotgan hozirgi kunda kutubxonalar tarmoqlari ham jamiyatdagi o‘rnini ular bilan hamkorlikda tashkil qilish orqali rivojlanishini ko‘ra bilishi kerak. Hozirgi globallashgan jamiyatda insonlar ular dunyoning qaysi qit’asi yoki bir qismida joylashganligidan qat’iy nazar barcha bilan muloqot qilish imkoniyati borligini hisobga olib o‘z faoliyatlarini birlashtirishlari kerak bo‘ladi. Insoniyat faoliyatining ba’zi sohalari, chunochi madaniyat, fan, sport, biznes,

tibbiyot va boshqalar alaqachon davlatlar o‘rtasidagi chegaralarni bosib o‘tib bo‘lish-ganligini mutaxassislar ko‘rsatmoqdalar.

Shuning uchun biz boshqa madaniyatlarni va ularning qarashlarini hurmat qilishni va tushunishni kutubxonalarimizdagi adabiyotlarni o‘rganishni yo‘lga qo‘yishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotning ahamiyatini doimiy ortib borayotganini ommaviy axborot vositalari va hayotiy vaziyatlar ko‘rsatib turibdi.

Bu masalada asosiy vazifa madaniy qadriyatlarni saqlovchilar va kitobxonlarning barcha guruhlarga yetkazib bera oluvchi muassasa sifatidagi kutubxonalarning o‘rni va vazifasini to‘g‘ri belgilaishga olib kelmoqda. Global axborotlashtirish va axborotli jamiyatiga o‘tish bilan kutubxonalarning asosiy vazifalarini belgilashni ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Global axborotlashtirish sharoitida ham kutubxonalarning asosiy turlari o‘z o‘rnini saqlab qoladi, lekin har xil turdagи kutubxonalar o‘rtasidagi chegaralar kamayib borayotganligini hisobga olishimizga to‘g‘ri keladi.

Turli xildagi kutubxonalar misolida viloyat AKM faoliyatidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish shakillarini ko‘rib chiqish orqali o‘zgarmoqda. Kutubxonalar bilan ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tendensiyasining ortib borishi kuzatilmoqda. Bunga mahallalar, tumanlardagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatuvchi tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorliklarni misol keltirishimiz mumkin.

Kutubxonalarning rivojlanish jarayonini tushunmasdan jamiyatdagи turli ijtimoiy qatlamlarning kutubxonaga nisbatan munosabatini anglab olmasdan, madaniy rivojlanish va kutubxonachilik qurilishi sohasida to‘plangan tajribalarni tanqidiy o‘zlashtirib olmasdan, hozirgi kutubxonachilikni taraqqiy ettirib bo‘lmasligini turli mamlakatlarining mutaxassislari keng va chuqur tahlil qilmoqdalar.

Kutubxona va kutubxonalar tizimlari o‘rtasidagi hamkorlikni amalga oshirishda asosiy etibor ularning boshqaruv tizimidagi hamkorlikni o‘rnatishga qaratilgan bo‘lishi mumkin deb hisoblanmoqda mutaxassislar tomonidan. Ular kutubxonalarimizdagi xizmat ko‘rsatish usullarini ajratib o‘rganish orqali, barcha mamlakatlardagi davlat unversal ilmiy fondga ega davlat kutubxonalari, idoraviy-tarmoqli, hududiy (mintaqaviy) va kutubxonalar ichidagi hamkorlikka ajratish mumkin.

Kutubxonalararo hamkorlikni o‘rnadishda ko‘pgina mamlakatlarda kutubxona asosatsiyalarini tashkil qilish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini keng kutubxonachilik jamoatchiliga turli xil nashrlar yordamida, ya’ni monografiyalar, maqolalar to‘plami, vaqtli matbuotdagi maqolalar, ilmiy hisobotlar, ilmiy-amaliy konferensiylar tavsiyalari, uslubiy o‘quv qo‘llanmalari, dissertatsiyalar avtoreferatlari va boshqalar orqali yetkazilishida faoliyat tashkil qilinganligini ham yaxshi olib borilayotgan ish sifatida baholashimiz mumkin.

Bunday hamkorlik asosan:

1. Malakatdagi kutubxonalar – birlashtirish asoslarini o‘rganish huquqiy asoslarni yaratish, mamlakatning kutubxonachilk ishining rivojlanishi, rivojlanish dasturlarini ishlab, yagona kutubxonachilik tizimini yaratish, mamlakatdagi kutubxonalar tizimla-

ri hamkorligini o‘rnatish. Kutubxonachilar va kitobxonlarning o‘zaro munosabatlariga ularning kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishini o‘rganish, ya’ni mamlakat aholisini o‘zaro madaniy muloqotni joriy etish g‘oyasi kutubxonashunoslikda keng o‘rin olishi kerak bo‘lib, malakatdagi kutubxonalar madaniyatlararo o‘zaro ta’sir markaziga aylanib, turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotning dialogik turini ishlab chiqish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Система театрального воспитания нацелена на общее развитие личности, как в интеллектуальном плане, так и в плане духовном, нравственном и эстетическом. Основные принципы театральной педагогики заключаются в том, чтобы раскрыть и сформировать гармоническую личность студента, создать условия для творческой атмосферы, эмоционального проявления, раскованности и взаимного доверия. Современный актёр должен хорошо декламировать, профессионально владеть постановкой голоса. Голос для актёра, как и для певца является рабочим инструментом, и это требует постоянной тренировки, корректировки. Звучание голоса не может рассматриваться вне связи с общим состоянием студента и его развитие неотделимо от индивидуальных качеств личности. Одна из важнейших целей на первом этапе работы со студентом – это правильное определение типа голоса, а также выработать необходимые качества певческого голоса. Как правило, каждое занятие по вокалу начинается с вокальных упражнений, которые подбираются индивидуально для решения конкретных проблем и задач в звукообразовании. Вместе с тем, некоторые упражнения применяются постоянно в качестве вокальной гимнастики для всех студентов. Именно на упражнениях приобретается навык пения красивым и ровным по силе, качеству и тембру звуком. Результат хорошего исполнения – это когда мышечный автоматизм во время пения проходит через слуховой контрол поющего. Следовательно, с самых первых занятий студента надо учит услышать свой голос и контролировать его. Непрерывность и ровность красивого звучания голоса – основа художественной ценности пения.

Наряду с техническими знаниями, студент приобретает огромное количество теоретических навыков. Еще одной из главных задач педагога является воспитание внутренней свободы во время исполнения того или иного произведения. Конечно, не у каждого человека бывает сильный, гибкий, с большим диапазоном голос. Он может быть хриплым, гнусавым, очень слабым, невыразительным. К.С.Станиславский говорил, что некоторые недостатки вокала неисправимы, та-ко-во их природное свойство или результат болезни голоса. Но чаще всего голосовые изъяны можно устраниć с помощью правильной постановки звука, а при болезни – с помощью лечения[2].

Необходимо отметить, что вокальное искусство основано на синтезе речи и пения. Известный учёный в области физиологической акустики профессор В.П.Морозов впервые использовал термин «вокальная речь» [3], имея в виду пение. Это указывает на тесную связь пения и речи, на их взаимовлияние в процессе функционирования голосового аппарата. Некоторые недостатки или усталость в голосе связаны с отсутствием навыков правильного дыхания. Исходя из этого в процессе работы певческого или речевого голоса важнейшим моментом является работа над формированием навыков правильного дыхания [4]. А это значит, что у педагога по речи и педагога по вокалу единая цел – постановка дыхания и правильное звукообразование. Таким образом, сначала необходимо овладеть правильным поставленным дыханием, затем основами правильного звукообразования по-

ставленным голосом в речи и пении. Хорошо поставленный голос даёт возможность передать слушателям краски и тонкости исполнения, малейшие смысловые оттенки, помогает аудитории воспринять мысль, идею во всей ее содержательной полноте, а также создаёт эмоциональный настрой для восприятия.

В учебную программу по вокалу рекомендуется включать произведения различных жанров и стилей, так как разучивание разнохарактерных произведений расширяет кругозор студента, повышает его интеллектуальный уровень. При этом необходимо учитывать вокальные способности студента. Для того, чтобы студент использовал все свои знания и навыки, полученные на занятиях по мастерству актёра и на уроках по вокалу материал должен быть сюжетным. Только тогда он сможет продемонстрировать свою музыкальность, воображение, артистические, вокально-технические возможности. К примеру, обратимся к искусству театра кукол. В кукольном театре музыка и песня является одним из важных выразительных средств. С помощью музыки или песни создаётся сказочная атмосфера, которая создаёт настроение, раскрывает внутренний мир действующих лиц. Ведь чаще всего после спектакля в памяти ребёнка остаются музыкальные номера, песенки каждого из персонажей. Для того, чтобы перевоплощаться в какого-либо сказочного героя, актёр должен ознакомиться с характером данного ему персонажа, изучить свою вокальную партию, и далее голосом своего героя исполнят сильные песни. Таким образом через вокальные номера дети ближе знакомятся с тем, или иным персонажем. Герой в спектакле может быть добрым или злым, весёлым или грустным, часто это могут быть звери, и для того, чтобы использовать нужные интонации и звуки необходима хорошая вокальная подготовка. К сожалению, на сегодняшний день занятиям вокала для студентов театрального искусства уделяется очень мало внимания, что приводит к низкому уровню профессионализма актёров кукольного театра.

Богатый внутренний мир артиста является материалом из которого он черпает силы, творчески отбирая необходимое для передачи состояния и переживаний того или иного персонажа, а это означает, что каждый обучающийся студент должен пробовать себя во всех направлениях театрального искусства. И для того, чтобы была внутренняя свобода существует определённая система подготовки. Постоянная работа над актёрским мастерством, вокалом, музыкальностью, совершенствование своих всесторонних возможностей – это цел и вершина, к которой должен стремиться каждый студент, будущий актёр в работе над собой.

Список литературы:

1. Аникеева З.И. Как развит певческий голос / З.И.Аникеева, Ф.М.Аникеев. – Кишинёв: Штиинца, 1981. – С. 105.
2. Станиславский К.С. Работа актёра над собой. – Москва, 2025. – Ч.2. – URL: <https://urait.ru>.
3. Морозов В.П. Тайны вокальной речи. – Ленинград: Наука, 1967. – 204 с.
4. Стулова Г.П. Взаимосвязь речевой и певческой функции учащихся в процессе их вокального воспитания // Наука и школа. -2021. -№ 1. – С.196.

Arislanbayeva Z.YE.
O‘zDSMI “Ijtimoiy gumanitar fanlar”
kafedrasi dotsenti – ilmiy rahbar:

Xushvaqtova Nigina
O‘zDSMI “Kutubxona va axborot foliyati” fakulteti
KAF 2-bosqich talabasi

ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA AYRIM MULOXAZALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada did bilan estetik didning farqlari va uxshash jihatla-ri bo‘yicha qiyosiy tahlil yuritiladi. Estetik didning oila va bola tarbiyasiga ta’siri, uni shakllantirish bo‘yicha maktab va ta’lim muassasalarining roli, tabiat va muhit ta’siri xaqida mulohalar olib boriladi.

Kalit so‘zlar: did, estetik did, qiyosiy taxlil, rassmochilik, qandolatchilik, mijozlar, madaniyat, ma’naviyat, tarbiya, urf-odat, ijtimoiy muhit, badiiy ijod, kitob, inson didi, elektron kutubxona, muhitni obodonlashtirish.

Abstract. The article describes in detail the differences between aesthetic views and comparative analysis of the state of health in jurisprudence. Esthetician Didning’s family and higher education have had an impact, shaping a school and educational institution based on the role, nature, and environment of Olib Boriladi’s true influence.

Key words: vision, aesthetic vision, comparative analysis, painting, confectionery, midjozlar; culture, spirituality, education, customs, social environment, art, book, human vision, electric room, environmental improvement.

Har bir fanning predmetini belgilash uning o‘zini o‘zi anglash harakati orqali maqsad, muammosi va qiziqish doirasi, amaliyot orqali aniqlanadi. Jumladan, bu dunyo va uning aloqalari bilan bog‘liq bo‘lgan taraflarini, shu tufayli dunyoning faqat ma’lum aloqalari va tomonlari ushbu fanning predmetiga kirishini va uning ochib berilishi zarur,[1] deydi olimlarimiz.

Estetika – (nafoatshunoslik) eng kadimiy fanlardan biri xisoblanib, uning tarixi ikki yarim-uch ming yillikni o‘z ichiga oladi. Ushbu atamani birinchilardan bo‘lib buyuk Olmon faylasufi Aleksandr Gotlib Baumgarten ilmiy muamolaga kiritgan. Baumgarten faylasuf Vilgelm Leybnits ta’limotiga asoslanib, fanga oid kuyidagi munosabatni bildiradi. U estetikani xissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib karab, bu fanning moxiyatini “san’at falsafasi” yoki “guzallik falsafasi”ga bo‘lib urganadi. YA’ni, “san’at falsafasi” – bu ijodkorlarga mos deb bilsa, “guzallik falsafasi”ni tashqi muhit, tabiat va butun go‘zallikni kamrab oladigan jarayon [2] deydi.

Y.Borevning ta’kidlashicha, “Estetika – umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy jihatdan aniqlangan mohiyati, ularni yaratish, idrok etish, baholash va birgalikda tasavvur qilish haqidagi fan” [3] deb, u didning shakllanishida muhim tomonlarini qamrab oladi.

Kelinglar, eng avvalo, did nima? degan savolga javob topishga xarakatlanamiz.

Did – bu insonning nafaqat go‘zallikni, balki umumiy ma’noda yaxshi va yomonni, ma’qul va noma’qulni, munosib va nomunosibni ajratish qobiliyatidir. Did shaxsning shaxsiy qobiliyati, bilim darajasi, madaniyati, hayot tajribasi va muhitiga bog‘liq holda shakllanadi [2]. *Masalan, odam qanday kiyinishni ma’qul ko‘radi, uyini qanday bezaydi, qanday musiqani eshitishni yaxshi ko‘radi* – bularning barchasi uning didiga bog‘liq.

Estetik did esa – hayot va san’atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyati bilan bog‘liq. U uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, mehnatning turli sohalaridagi tajribalar natijasida vujudga keladi.

Estetik did – didning bir qismi bo‘lib, u maxsus ravishda go‘zallikni anglash va baholash, san’at, tabiat, inson va atrof muhitdagi nafosatni qadrlash bilan bog‘liq. *Masalan, u insonning go‘zal ranglar, musiqa, she’r, rassomlik, dizayn, tabiat manzaralari, arxitektura va boshqa estetik jihatlarga nisbatan his etish qobiliyatini ifoda etadi*. Estetik did emotsiyal va intuitiv jihatdan kuchliroq bo‘ladi. U faqat zehn emas, qalb bilan ham bog‘liq.

Did va estetik did farqlari

Qiyosiy jihatlar	Did	Estetik did
Ma’nosi	Umumiy ma’noda tanlash, baholash qobiliyati	Go‘zallikni his qilish va qadrlash qobiliyati
Qamrovi	Kiyinish, ovqat, muhit, odob, gapirish uslubi va boshqalar	San’at, musiqa, tabiat, ranglar, arxitektura va go‘zallik bilan bog‘liq jihatlar
Omillari	Madaniyat, muhit, tarbiya, urf-odat	Badiiy ta’lim, emotsiyal tajriba, estetik muhit
Funksiyasi	Yaxshi va yomonni tanlashga yordam beradi	Go‘zal va xuniklikni ajratishga yordam beradi
Masalan	Qanday kiyim kiyishni ma’qul ko‘radi	Rasmning tarovati yoki she’rdagi nafosatni his qila oladi

Demak, estetik did insonning nafosatni his etish, go‘zallikni anglash va qadrlash qobiliyatidir. U jamiyatdagi madaniy, ma’naviy, ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Inson ongida estetik did bolalikdanoq vujudga kela boshlaydi va umr bo‘yi turli omillar ta’sirida takomillashib boradi. Keling shuni bir tahlil qilib chiqaylik.

Oila va bolalik tarbiyasi jarayonida. Estetik didning asosi eng avvalo oilada qo‘yiladi. Bolada nafosatga bo‘lgan qiziqish, tozalik, or-nomus, go‘zallikni anglash va uni asrash hissi, ota-onaning shaxsiy namunasi orqali shakllanadi. *Masalan, uyda go‘zallikka, ozodalikka e’tibor berish, yaxshi musiqa eshitish, adabiyot o‘qish muhiti bola*

ongida estetik didni rivojlantiradi. Agar oilada qiz farzand bo'lsa, demak estetik did ta'limotini ota-onada yanada kuchayttirishi lozim. Uyning tozaligi, ta'om tayyorlanishi balki kiyib yurgan kiyimingiz tozaligigacha qiz farzand mas'ul bo'ladi va kelajakda o'z farzandlariga ham bu borada ta'lim beradi.

Maktab va ta'lim muassasalarini roli. Maktab va boshqa ta'lim muassasalarida o'quvchilarni san'at, adabiyot, musiqa, teatr, rassomlik kabi turli madaniy sohalar bilan tanishtirish, ularda go'zallikka bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki go'zal his-tuyg'ular bilan ham boyitish zarur.

Maktab uqo'vechilarining xar biriga kelajakdagi sohasi yoki tanlagan kasblarining moxiyatiga bog'liq to'g'ri va mukammal tushintirilishi lozim. Agar uqo'vechi kelajakda oliy ukuv yurtiga kirishni xoxlamasa uni o'zi qiziqqan kasbga yo'naltirilishi kerak. *Masalan, qizlar kandolatchilik kasbini tanlashsa ishni nimadan boshlashdan tortib uni kanday yuritish rejalarini tuzib olish kerak bo'ladi. Boshqa kandolatchilik joylaridan farq qilishi uchun xonalarni ajratib olamiz.* Birinchi xonani bolalar xonasi qilib, *bu xonaga kirgan bolalar ertaklar olamiga tushib qolgandek bulishi kerak.* Faqat muxit emas, balki bir munkha shirinliklarning shaklini ertak qaxramonlari kurinishida tayyorlash kerak bo'la-di. Ikkinci xonani esa, qanaqadir koinot kilib yaratamiz. *Bu xonaga kirgan mijoz o'zini yer sayyorasidan uzoqlarda koinotga tushib qolgandek, balki o'zini kosmanavtlardek xis qilishi kerak.* Shirinliklar kurinishini ham shu manzara darajasida berilishi lozim. Uchin-chi xonani esa, kompyuter xonasi kilamiz. Shirinliklar kurishi ajoyib bo'ladi. *Masalan, sichkoncha, klaviatura, printir kurinishidagi shirinliklar tayyorlanadi.*

Tabiat va muhit ta'siri. Insonning estetik didi uning atrofidagi muhit bilan ham uzviy bog'liq. Go'zal tabiat manzaralari, obod shaharlar, toza va ozoda ko'chalar in-sonning didiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, muhitni obodonlashtirish, yashash joylarini go'zallashtirish ham estetik tarbiyaning muhim jihatidir. Atrof muxit tozaligi nafaqat estetikaga, balki sog'lom turmush tarziga ham foydali.

Adabiyotshunoslar, rassomchilar, o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa kasb egalari uchun etika-estetika tayanch ustuni hisoblanadi. *Masalan, rassomchilikni misol qilib oladigan bo'lsak estetik did, estetik fikrlash hattoki estetik harakat ham asosiy detal hisoblanadi.* Rassomlar shu darajada mayinlik va nafosat bilan xarakat kilishadi-ki, buni e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Shifokorlarda esa, estetika va gigiyena alohida asos hisoblanadi. *Masalan, stomatologiyada har ikkisini ham ochiqchasiga ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunoslar ham estetik tartib harflar va raqamlar ketma-ketligi bilan ish jarayonini olib borishadi.*

Ommaviy axborot vositalari va internet. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va internet inson didiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Televizor, kino, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan kontentlar ba'zan ijobiy, ba'zan salbiy estetik ta'assurot qoldiradi. Shu sababli, yoshlarda tanlov qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarur. Shuni ta'kidlab utish joizki, yoshlarimizning kiyinish ma'daniyati ham ommaviy axborot vositalari orkali Yevropa madaniyatiga karab bormoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Estetik did faqat tashqi go'zallik bilan emas, balki ma'naviy go'zallik – insoniylik, muhabbat, mehr-oqibat, hayol, noziklik kabi sifatlar bilan ham bog'liq. Milliy an'analar, xalq ijodiyoti, urf-odatlar, milliy liboslar,

hunarmandchilik mahsulotlari orqali ham estetik didni boyitish mumkin. *Masalan, urf-odatlarni oladigan bo‘lsak, eng mashxur an’analarimizdan biri – bu kelin salom. Bu an’ana xam xamma viloyatlarda har xil hisoblanadi.* Bunday xolat tabiiiy albatta. *Masalan, milliy kiyinish madaniyatiga qarab, qaysi viloyatga tegishli ekanligini bema-lol bilib olamiz.* Bu bizning urf-odat dasturlarimizdagi estetik did darajasini aniqlanishiga yordamlashadi.

Xozirgi kunda innovatsion taraqqiyot davrida tezkor rivojlanish jarayoni: masofadan turib bir muncha ishlarimizni amalga oshirmoqdamiz, ijtimoiy tarmoqlar orkali ma’lumotlar to‘plash, yangiliklardan xabardor bo‘lish yengillashib qoldi. Xattoki kutubxonalarga ham extiyoj kamayib, kitoblarni elektron kutubxonalardan yoki pdf shakllidan foydalanishga erishdik. To‘g‘ri, bu shoshilinch, kerak bo‘lgan kitoblarni topishda qulay xisoblanadi, ammo buning zararli tomonlari ham bor. Shu boisdan an’anaviy kutubxonalarni rivojlantirishda yangi g‘oyalar, innovatsiyalar kiritishimiz lozim. Ajoyib kurinishga ega estetik muxit yarata olsak-gina kutubxonaga bo‘lgan talab oshadi. **Masalan, interer dizayni:** kitob joylashuvi, ranglar uyg‘unligi, yorug‘lik va mebel joylashuvi kutubxona muhitining ko‘ngilochar va unumli bo‘lishiga xizmat qiladi. Tozalik va shinamlikka e’tibor: estetik muhit insonda ijobiy hissiyot uyg‘otadi. Tartib va jozibadorlik: kitoblarning joylashtirilishi, belgilar, ko‘rgazmalar dizayni orqali vizual tartib saqlanadi. **Ko‘rgazma va tadbirlar:** tematik ko‘rgazmalarni estetik jihatdan jozibali tayyorlash. Badiiy-ijodiy tadbirlarni tashkil qilishda estetik qoidalarga amal qilish (dekoratsiyalar, bannerlar, bukletlar dizayni). **Mavsumiy bezaklar:** Yangi yil, Navro‘z, mustaqillik kuni kabi bayramlarga bag‘ishlangan estetik bezaklar kutubxonaga mazmun va joziba qo‘sjadi. **Kutubxonachilarining shaxsiy qiyofasi va uslubi:** kutubxona mutaxassis sifatida toza, samimiyl, yuqori madaniyatli va estetik didli bo‘lishi lozim. Muomala madaniyati va nutq madaniyatida ham estetik yondashuv muhim.

Natijada, **foydanuvchi diqqati jalb qilinadi:** estetik muhit insonni o‘ziga tortib, u vaqt o‘tkazishni, o‘qishni xohlaydi. Kitobga qiziqish va madaniyatga ehtirom orttiriladi. **Foydanuvchilar soni oshadi:** shinam va jozibali muhitda ko‘proq foydalanuvchilar faol ishtirok etadi. Tadbirlarda qatnashish foizi ortadi. **Kutubxona obro‘si oshib boradi:** estetik qoidalarga amal qiladigan kutubxona jamoatchilik oldida yuqori baholanadi. Zamonaviy va madaniyatli muassasa sifatida qabul qilinadi. **Ta’lim va tarbiya samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:** estetik muhitda kitobxonlik faoliyati samarali bo‘ladi. Yaxshi did, madaniyat va estetik tafakkur shakllanadi.

Demak, kutubxona kasbida ham estetik didning bo‘lishi muhim, chunki kutubxona nafaqat axborot markazi, balki madaniyat va ma’naviyat maskani hisoblanadi. Estetik did bilan o‘qilgan xar qanday kitob, gazeta va jurnallar axborot muhiti samarası va ta’sirchanlik darajasini oshirib, kutubxona foydalanuvchining qalbiga yo‘l topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Borev, Yuriy Borisovich. Estetika / Yuriy Borev. – 4-ye izd., dop. – Moskva: Politizdat, 1988. – 496 s.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/did-uz/>
3. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. – Toshkent, 2001.

Xakimova M.Y.
O‘zDSMI “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi mudiri

MAKTAB KUTUBXONALARIDA KITOBOXONLARGA XIZMAT KO‘RSATISH MASALALARI

***Annatatsiya.** Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ular ongida oliyjanob tuyg‘ularni chuqurlashtirishda, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va ma’naviy boyligimiz bo‘lgan kitoblarni targ‘ib qilishda kutubxonalarining o‘rni beqiyos. Kutubxona – axborot xizmati tamoyillari, kutubxonalarining shaxsning ijtimoiylashuvidanagi roli, kutubxona muloqoti, foydalanuvchilarni o‘rganish muammolari, mutolaa madaniyati targ‘ib etilgan.*

***Kalit so‘zlari:** kitob, kutubxona, o‘quvchi, o‘smir, mutolaa, mutolaa madaniyati, ilm-fan, idrok, mukammal inson, burch, vijdon, g‘urur, mas‘uliyat.*

***Annotation.** The role of libraries in educating the younger generation as perfect people, deepening noble feelings in their minds, educating them in the spirit of devotion to the Fatherland, and popularizing books that are our spiritual heritage is invaluable. The principles of library and information services, the role of libraries in the socialization of the individual, library communication, the problems of user education, and the culture of reading are being promoted.*

Key words: book, library, reader, teenager, reading, culture of reading, science, knowledge, perfect person, duty, conscience, pride, responsibility.

Kitob – umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘sit. Insonning ma’naviy kamolotini ta’minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu bois azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilmu odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan.

Vatanimiz kelajagining yanada ravnaq topishida, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ular ongida oliyjanob tuyg‘ularni chuqurlashtirishda, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va ma’naviy boyligimiz bo‘lgan kitoblarni targ‘ib qilishda kutubxonalarinin o‘rni katta.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitusiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta’minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

rini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda [1].

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor berilib, ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi, ilm-fan sohasini rivojlantirish strategiyasi [2] mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobjiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratdi.

Yoshlar kutubxonalaridagi ma'lumot va axborot xizmatlaridan asosan uy vazifalarini bajarishda foydalanishadi. Shuning uchun ham o'ziga nima kerakligini unchalik bilmagan va bilishga unchalik ham intilmagan foydalanuvchi bilan ma'lumot berish oldidan savol-javob o'tkazish ancha qiyin kechadi.

Bunday savol-javoblar odatda foydalanuvchining mavzuga qiziqishi, xabardorlik darajasi, izlanayotgan ma'lumot qanday maqsadlarda ishlatalishiga oid tasavvuriga bog'liq bo'ladi.

Bunda vaziyatni chigallashtiruvchi ba'zi omillar mavjud bo'lib, ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: birinchidan, kutubxona xodimi o'quvchi maktab kutubxonasida manbalarni izlash malakasini shakllantirib ulgurgan deb hisoblashi natijasida o'quvchiga yetarli e'tibor bermasligi, ikkinchidan, o'qituvchilar o'quvchilarga uy vazifasini berish chog'ida ularning o'zлari uchun oson ko'ringan vazifani bajarish keng ko'lamli izlanishlarni talab qilishi va qancha manbadan foydalanish kerakligi haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmaslidir.

Bundan tashqari ularning o'quvchilarga internetdan foydalanishni ma'n qilishi, o'quvchilarning ba'zi kerakli ma'lumotlarni topishi va samarali foydalanishiga imkon bermaydi.

Bosma nashr manbalari va kataloglardan foydalanish ancha urinishlar va vaqtini talab qilganligi va elektron manbalardan foydalanish ancha oson bo'lganligi bois o'quvchilar va talabalar bosma nashrlardan foydalanishni unchalik xohlashmaydi. Shu boisdan yoshlar bilan ishlovchi kutuxonachi ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra bilishi, ko'rishi mumkin bo'lgan choralar strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Bugungi kunda axborot savodxonligi axborotni topish, baholash, undan mas'uliyat bilan foydalanishdangina iborat bo'lib qolmasdan, yangi texnologiyalardan samarali foydalana bilish hamdir. Aksariyat kutubxonachilar o'z vazifasini foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni topib berish yoki kerakli ma'lumotni topishida yordamlashishdan iborat deb tushunadilar. Lekin ular shuni unutmasliklari zarurki, yoshlar o'zлari topgan axborotlarni o'rganish va baholash uchun yetarli ma'lumotga ega emasliklari tufayli axborotni tartiblashtirishda kutubxonachining yordamiga muhtoj bo'ladilar. Bunday sharoitda kutubxonachi foydalanuvchining savolini aniqlashtirishda ham ishtirok etishi lozim bo'lib, bu axborot madaniyatini shakllantirishning bir turi bo'lib hisoblanadi [5].

Kutubxonachi yoshlarning ma'lumot izlash jarayonida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolari bilan bir qatorda ular uchun mo'ljallangan axborot manbalari joylashtirilgan saytlardan ham xabardor bo'lishi lozim.

Shuningdek, ko'pchilik yoshlari intellektual mulk tushunchasi bilan tanish bo'lma-ganliklari bois internetdagi ma'lumotlar kimningdir mulki bo'lishi mumkinligini hayoliga ham keltirmagan holda ularni ko'chirib olishi, video yoki audiofayllarni o'zlashtirilib olishi – ular uchun oddiy holat bo'lishi mumkin. Bunday holatlar kutubxonachilar tomonidan hisobga olinishi va foydalanuvchilarning axborot savodxonligini oshirishda, albatta, e'tiborga olinishi lozim.

Yoshlarning ma'lumotga bo'lgan ehtiyoji o'qitiladigan fanlar dasturlari asosida shakllanishi bois tajribali kutubxonachilar o'quvchilar va talabalar qanday ma'lumotlarni so'rab murojaat qilishlarini oldindan yaxshi bilishadi. Bunda kutubxonachining yaqin atrofdagi maktablarning o'quv dasturlari va uy vazifalari ketma-ketligi bilan tanish bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Maktab kutubxonalarida esa uy vazifalari ketma-ketligini belgilashda o'qituvchilar bilan oldindan maslahatlashib olish ham alohida ahamiyatga egadir. Kutubxonachilar ko'p qaytariluvchi mavzular bo'yicha manbalar topish jarayonini osonlashtirish uchun oldindan chora ko'rishlari natijasida kerakli manbalarni bir necha nusxada tayyorlab qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ham kutubxonachilarning yordamiga muhtoj bo'lgan foydalanuvchilar sirasiga kirganliklari uchun ularga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatishda alohida e'tibor talab qilinadi.

Psixologiya fanida o'quvchilarning biologik-jismoniy, psixologik jihatlariga ko'ra ularni 6 yoshdan 11yoshgacha kichik maktab yoshi davriga kiritiladi. Bu yosh davriga ajratish qat'iy va mutlaq tarzda qabul qilinmasada, umumiyligi holatda bola idrokining o'tkirligi, aniqligi, qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, hayoliy dunyosining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagagi o'quvchilardan ajralib turadi.

Bola shu paytgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni egallab kelgan bo'lsa, endi u o'z xohish irodasi bilan, muayyan motivatsiyaga asoslangan holda zarur ma'lumotlar va axborotlar olishga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi.

Bu yoshdan bolalar o'qish, idrok qilish, o'zlashtirish texnikasi bilan tanishishning muayyan darajasiga erishgan bo'ladilar.

Bolalarda so'z – mantiq xotirasining mavjudligi ularda matnning ma'nosini tushunib, esda olib qolish jarayonining samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Bolalar ma'nosiz so'zlardan ko'ra, ko'proq ma'nodor atamalarni yaratish, tuzish va esda olib qolish imkoniyatiga egadir. Ular eshitgan narsalarini, voqelik to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuntira oladi, mavjud axborotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi, guruhlarga ajratish, taqqoslash, hukm chiqarish iqtidoriga ham egadir.

Bolalarda shaxsga xos bo'lgan nisbiy mustaqillik, qat'iylik, maqsad qo'ya bilish, burch, javobgarlik hissi singari fazilatlar va xususiyatlar ko'zga tashlana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri – o'ziga xos ehtiyojning mavjudligi bo'lib, ushbu ehtiyoj o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim,

ko‘nikma va malakalarni egallahsga qaratilgan bo‘lmasdan, o‘quvchi bo‘lish istagi bilan cheklangan bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagilar o‘qishning tub mohiyatini va vazifasini to‘la tushunib yetmasalarda kattalarning ko‘rsatmalariga (kutubxonachining maslahatlariga) amal qilgan holda tirishqoqlik bilan mashg‘ulotlarga kirishib ketishi mumkin.

O‘quvchi ma’lum muddat o‘tgach o‘qishning irodaviy zo‘r berish, diqqatni taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan kundalik aqliy mehnat ekanligina anglab yetadi va dastlabki taassurotlar o‘zgarib, uning uchun maktabga xos bo‘lgan ba’zi belgilar o‘z ahamiyatini yo‘qota boradi. Aqliy mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan o‘quvchining o‘qishdan ko‘ngli sovib ketishining oldini olish maqsadida o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorligida o‘qish-o‘rganishning o‘quvchi uchun ehtiyojga aylanishini ta’minalash alohida ahamiyatga egadir.

O‘qish faoliyatiga qiziqish, moyillik, keyinchalik predmetning mazmuniga qiziqishni vujudga keltiribgina qolmay, balki bilim olish ehtiyojini tug‘diradi, o‘qish motivlarini ham tarkib toptiradi.

Bilimni egallahsga qiziqish o‘quvchining o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan chambarchas aloqadordir. Ushbu his o‘qituvchi va kutubxonachining hamkorlikdagi yordami va rag‘batlantirish orqali namoyon bo‘ladi, o‘quvchiga o‘z ustida yanada ko‘proq va samaraliroq ishslash mayli paydo bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qituvchining har bir so‘zi, har bir hatti-harakati, ta’sir o‘tkaish uslubi uning uchun haqiqat me’zoni rolini o‘ynaydi. Chunki o‘quvchilar o‘z o‘qituvchisiga juda qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga qulq soladilar, qo‘ygan talablariga hamisha amal qiladilar. Ana shu boisdan pedagog tomonidan berilgan barcha vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham kutubxonachi o‘zining shaxsiy kuzatishidan tashqari o‘qituvchilardan har bir o‘quvchining oilaviy sharoiti, qiziqish darjasasi, qiziqadigan yo‘nalishlari bo‘yicha aniq ma’lumotlarni olishi va faoliyatida foydalanishi o‘qituvchi – kutubxonachi-foydalanuvchi hamkorligida aniq maqsadga erishish imkoniyatini beradi. Ayni shu davrdan boshlab kuyidagicha ko‘nikmalar vujudga keltirish imkoniyati paydo bo‘ladi:

- 1) o‘quvchining psixikasiga tashqi ta’sir ko‘rsatish;
- 2) atrof-mikromuhitdagi kishilarga yordam berishga undash;
- 3) nima bilan shug‘ullanish zarurligi to‘g‘risida yo‘llanma berish;
- 4) unga oddiy individual yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan burch hissini tushuntirish;
- 5) uni to‘g‘ri mulohaza yuritishga o‘rgatish;
- 6) ijobjiy his-tuyg‘ulari va ezgu niyatlarini quvvatlash;
- 7) o‘qilgan kitobni, san’at asarini birgalikda muhokama qilish.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish jarayonida ularning yosh individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish kutubxonachiga o‘qituvchi bilan hamkorlikda yuqorida aytib o‘tilgan vazifalarning to‘g‘ri bajarilishiga yordam beradi. O‘z faoliyatida kutubxonachi o‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqur o‘rgangan bo‘lsa, ularga ta’sir o‘tkazish kuchi sezilarli va samarali bo‘ladi. Kutubxona – axborot xizmati jarayonida har

bir o‘quvchining ruhiy dunyosiga oqilona yo‘l topa olish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. Psixologiya fanidagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan “o‘quvchanlik” darajasi o‘quvchilarda har xil bo‘ladi. O‘quvchanlik fikrlashning faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual xususiyatlar yig‘indisi hisoblanadi.

O‘quvchanlik darajasi va ko‘rsatgichi past bo‘lgan o‘quvchilar ta’lim jarayonida juda sust bo‘lib, ularda o‘qituvchi o‘quv materialini to‘la tushuntirib beradi degan xo-tirjamlik mavjud bo‘lib, umumlashtirish, analiz va sintez faoliyati ham bo‘shashgan holda amalga oshadi.

Kutubxonachilar ular bilan yakka holda ishlashni tashkil qilishda murakkab ilmiy va mavhum tushunchalarni ko‘rgazmalilik asosida tushuntirib berishi, axborotga bo‘lgan ehtiyoji va bilish motivini muayyan darajada qondirish uchun intilish tuyg‘usini kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir.

Bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tavsiya etiladigan ma’lumotlar va axborotlar hajmini bosqichma-bosqich oshira borish evaziga ko‘rsatiladigan yordamni kamaytirib borishini rejorashtirishga asoslanishi lozim.

Lekin, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar axborotlarni mustaqil tahlil qila olishlariga ishonch hosil bo‘lgandagina ularga muayyan topshiriqlarni berish mumkin. Axborotlar hajmini kamaytirib borish esa ularning aqliy jihatdan charchaganliklari aniqlanganda-gina to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun ham ba’zi holatlarni doimiy qoidalar tarkibiga ki-ritib bo‘lmaydi.

Uquvchanlik darajasi past bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan kutubxonachi tomonidan qo‘yilgan talablar ularning ma’lumotlar, axborotlar va bilimlarni o‘zlashtirish imko-niyatlariga mos tushmog‘i kerak. Aks holda ularda axborotlarni o‘zlashtirishning mu-rakkabligidan cho‘chish, hadiksirash, mustaqil o‘zlashtira olishga ishonmaslik singari salbiy xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning fikr yuritishlarini rivojlantrishda ularga yakka tartibda yondashuvda kutubxonachi quyidagi talablarga aml qilishi shart:

1) Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va aqliy imkoniyatlari darajasini bilish;

2) Ularga interfaol ta’sir ko‘rsatish usullari va metodlarini to‘g‘ri qo‘llashda individual xususiyatlarini hisobga olish;

3) Kutubxonachi va o‘quvchi muloqotining oqibatlarini oldindan ko‘rish asosida asosiy maqsadga yo‘naltira olish.

O‘quvchilarning 10-11dan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davri o‘smirlilik yoshi bo‘lib, o‘z o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlik-ka egaligi ularning jinsiy yetilishi, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sishlarida namo-yon bo‘ladi.

O‘smirlarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ularning o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga olish kutubxonachi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarda anglashmov-chilikning oldini oladi va psixologik muhitni sog‘lamlashtirishga ijobjiy tasir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda o‘smirlar guruhiga alohi-da e’tibor berilayotganligining asosiy sabablari quyidagilardir:

1. Fan-texnikaning rivojlanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotganligi;
2. Axborot tizimining misli ko‘rilmagan darajada kengayishi tufayli o‘smirlar ong-lilik darajasining oshishi;
3. O‘smirlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan yetarli daraja-da xabardorligi;
4. Jismoniy va aqliy kamolotlarining jadallahsganligi;
5. O‘smirlar bilan ishslashda ma’naviy – ma’rifiy tartibga alohida yondashish zarurligi;
6. Shaffoflik, ijtimoiyadolat, demokratiya normalarining ijtimoiy hayotdan to‘la o‘rin olayotganligi;

7. O‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikr yuritishi, tafakkur erkinligiga, o‘zini-o‘zi bos-hqarishi, anglashi, baholashi va nazorat qilishlariga keng imkoniyat yaratilayotganligi.

O‘smirlar yoshi dunyoqarash, e’tiqod, nuqtai-nazar, o‘zligini anglash, baholash shakllanadigan davr hisoblanadi.

O‘smirlar shaxsining shakllanishida axloq alohida ahamiyat kasb etadi va ularning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, mag‘rurlik, samimiylilik, adolatlilik kabi tushunchalarni to‘g‘ri anglay boshlaydilar. O‘smirlarda o‘zini anglash jarayoni shaxsiy xulq-atvorini tushu-nishdan boshlanib, axloqiy fazilatlari, aqliy imkoniyatlari va qobiliyatini anglashi bilan yakunlanadi.

O‘smirning hatti-harakati, o‘z kuchiga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, mu-ayyan muhitda o‘z o‘rnini topishga intilishi uning o‘z-o‘zini anglashining takomil-lashuviga zamin yaratadi [5].

Ular o‘zini anglashning yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan o‘zlar uchun axloqiy namunani tanlay boshlaydilar. Ushbu axloqiy namuna bilan o‘zlarini taqqoslashlari na-tijasida ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadilar. Natijada ularda o‘zini o‘zi tarbi-yalash bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalish shakllanadi.

Kutubxonachining tajribasi va mohirligi shunda namoyon bo‘ladiki u shunday vaziyatda kerakli nashr mashg‘ulotlarini, ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘smirning iroda kuchi va xarakterli xususiyatlarini ishga solib, faoliyatini kerakli yo‘nalishga burib yubora olishi kerak.

Kutubxonachi o‘smirlar bilan muloqotda ularda o‘z kuch-quvvati, chidamliligi, bilim saviyasi ortayotganligi natijasida kelib chiqadigan voyaga yetish yoki kattalik hissini o‘rinsiz homiylik, ortiqcha nazorat, zeriktiradigan g‘amxo‘rlikdan xoli bo‘lish istagini hisobga olgan holda faoliyat ko‘rsatishi zarur. Ilk o‘spirinlik davri 15-18 yosh-dagilarni (yuqori sinf o‘quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari) qamrab oladi. Ilk o‘spiringning 16 yoshida mamlakat fuqarosi bo‘lishi va 18 yoshida saylash, saylanish huquqiga ega bo‘lishi fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan jihatdan voyaga yetishi, o‘z taqdirlini o‘zi hal qilishi, shaxs sifatida ma’naviy shakllanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilganligini ko‘rsatadi.

Ilk o‘spirinlik yoshidagilarning o‘zlar ta’lim olayotgan shart-sharoitlar ta’sirida ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni hal etishda qatnashishlari, dunyoqarashlarning, barqaror e’tiqodlarining, masalalarga ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashlari ning shakllanishiga olib keladi.

Ilk o'spirinlik davridagi o'quvchilar o'zlaridagi ijobiy fazilatlarni ongli, izchil va muntazam rivojlantirib borishga ehtiyoj sezganliklari uchun oqilona o'lcham, me'zon, mukammal timsol obrazini izlaydilar.

Masalan, ular o'zlarining idealarini taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsoliga tasavvur qiladilar. Ular burch, vijdon, g'urur, mas'uliyat, or-nomus kabi tushunchalarni tahlil qilishga harakat qilsalarda, axloqiy tushunchalarning mohiyatini to'la anglab yetmaydilar.

Ilk o'spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish uchun ularga eng saralangan kitoblar mutolaasini tavsiya etish, eng yaxshi filmlarni ko'rish, taxlil qilish asosida xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Ularning ruhiyatiga va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi "asarlar" ta'siridan asrash pedagoglar bilan hamkorlikda kutubxonachilarning ham asosiy burchidir.

Ilk o'spirin turli xil kitoblarni o'qish, muayyan ma'lumotlar va axborotlarni o'rganish, tushunish orqali mustaqil fikrlashga mulohaza yuritish va munozaraga o'rgana boradi. Tabiat va jamiyatga nisbatan shakllangan nuqtai nazar va qarashlar, e'tiqodlar mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarishning natijasidir.

Ilk o'spirinlarning kitoblar, jurnal maqolalari, turli ma'lumotlarni va axborotlarni o'rganishlari ular haqida o'z shaxsiy fikrlarini bildirishi, bahslashuvi orqali insoniy xislatlarining ishtiroki ular tafakkuridagi tanqidiylilikning ko'rinishidir.

Kutubxonachining ana shu paytdagi asosiy vazifasi – ular tafakkuridagi tanqidiylilikni o'qib chiqilgan har bir manbaning mohiyatini ilmiy jihatdan chuqr anglab yetishga o'rgatish asosida haqqoniylilik darajasini ko'tarish, voqelikni odilona baholay bilishga o'rgatishdir. Buning uchun foydalanuvchilarga tavsiya etiladigan manbalar oddiydan murakkablikka tomon takomillashtirib borilishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019 yil // Xalq so'zi.– 2019.– 11 iyunъ.

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.03.2020 yildagi PF-5953-son // Xalq so'zi.– 2020. – 3 mart.

3. Yoshlarni ma'naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim – tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora – tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2018 йил 13 август // Xalq so'zi,– 2018.– 14 avg.

4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – Toshkent: O'zbekiston,2017. – 592 b.

5. Yuldashev I. Kutubxona–axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti / I. Yuldashev, O'. Nosirov. – Toshkent: Fan va ta'lim poligraf, 2020. – 360 b.

*Maxmudov Mirali Xaydarovich,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Kutubxona-axborot faoliyati ”kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

OILAVIY MUTOLAA VA TA’LIM-TARBIYA MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda oilaviy mutolaaning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashdagi ish shakllariga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga kutubxonalarning ushbu yo‘nalish bo‘yicha ishlariga ham to‘htalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: oila, mutolaa, ta’lim-tarbiya, kutubxona

Abstract. This article is devoted to the role and importance of family reading in the educational process in modern society, especially the forms of work with young children. At the same time, libraries are working in this direction.

Keywords: family, reading, education, library

Mutolaa – bu shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi, insonni intellektual, ahloqiy, estetik rivojlantirish omili xisoblanadi. Kitob bilan to‘g‘ri muomilada bo‘lish asoslarri oilada yaratiladi. Kitobxonlik darajasini rivojlanishi, kitobxonlik sifatlari kitob bilan muomillada bo‘lish shakli va stiliga bog‘liq bo‘ladi va u oilada shakllanadi.

Mutaxassislarni fikriga ko‘ra o‘tgan asrning 90 yillardan boshlab o‘qishga bo‘lgan qiziqishda o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Butun dunyodagi o‘zgarishlar hayotga, madaniyaga va bolalar tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlarda ham sodir bo‘lmoqda.

Respublikamizda oilaviy mutolaa an’anasi yo‘qolib ketayotganiga qaramasdan, aynan uni rivojlanishi ajoyib tarixiga egadir. Mamlakatimizda oila bu muqaddas dargohdir. Oilada insonni shaxs sifatida tug‘ilishi, shakllanishi va rivojlanishi yuz beradi. Bundan tashqari aynan oilada yuqori xissiyotlarmujassamlashadi: sevgi-muxabbat, o‘zaro tushunish va mas’uliyat.

Yurtimiznibutun tarixi mobaynida kitoblar qo‘ldan qo‘lga o‘tgan. Oilalarda kitoblarni bir biriga ovoz chiqarib she’r, doston va badiiy bo‘limgan adabiyotlarni o‘qib berish va bir-birlari bilan o‘qilgan kitob xaqida fikr-mulohazalar almashish urf bo‘lgan. Oilaning kattalari kichiklar o‘zlarining yoshlik chog‘larida sevimli bo‘lib qolgan kitoblarga diqqatini qaratganlar. Bu sevimli kitoblar oila kutubxonasida saqlangan. Oilaviy kutubxona butun oila a’zolari tomonidan to‘plangan. Har bir yangi kitobni zarurligi haqida ko‘pgina fikr mulohazalar yuritilgan. Oiladagi nozik masalalarga e’tibor berishda badiiy kitoblarni o‘rni beqiyos bo‘lgan.

Oilaviy mutolaa ajoyib an’anadir. Oilaviy mutolaa maxsus yo‘naltirilgan bo‘lmashdan, kattalar va yoshlar o‘rtasida tabiiy ma’naviy, ma’rifiy muloqoti bo‘lgan. “Oktabr” inqilobidan so‘ng ko‘pgina madaniy an’analar aholining o‘qimishli qatlami bilan yo‘q

bo‘lib ketdi.“Keng ommani” dunyo qarashini shakllantirishda badiiy adabiyotni o‘rni beqiyosligiga ishonish yo‘q bo‘lib ketmasdan balki kuchaydi. Ba’zi davrlarda kattalar ba’zi sabablarga ko‘ra muhim asarlarni oila davrasida emas, balki kutubxonachilar bilan fikr-mulohazalarini ulashganlar. Unda bolalar, yoshlar va keksa yoshdagi kitob ixlosmanlariga tizimli xizmat ko‘rsatilgan. Kutubxonalarda doimiy mutola konferensiyalari, kitoblar tahlili, adabiy kechalar o‘tkazilgan. Adabiy klublar va mexmonxonalar ishlardi. Kutubxonalarda turli yoshdagi bolalarga xizmat ko‘rsatish usullari ishlab chiqilgandi. Maxsus oilaviy kutubxonalar ichida “Yosh oila kursi” va “Ota-onalar universiteti” ochilib, ularda malakali mutaxassislar o‘z ma’ruzalari bilan qatnashib, tashrif buyurganlarni oilada o‘qish uchun kerakli adabiyotlar bilan tanishtirganlar.

1990 yillardan boshlab kutubxona va mutolaaga bo‘lgan munosabatlarda o‘zgarishlar paydo bo‘la boshlandi. Shu yillardan boshlab kitob o‘qishga ijtimoiy xayotga kirib boruvchi vosita emas, balki amaliy talablarni qondiruvchi vosita sifatida qarala boshlandi. Bu qarashlar kutubxonalar faoliyatiga ham katta ta’sir ko‘rsata boshladi. Shunga qaramasdan ilgari va hozirda ham ko‘pchilik oilalarda o‘zini kutubxonasi mavjud bo‘lib, ularni salmoqli qismini badiiy adabiyotlar tashkil qiladi. Barchaga ma’lumki rivojlanayotgan shaxs tarbiyasiga kitobni ta’siri beqiyosdir. Aynan bolalik va o‘smirlik chog‘larida dunyoqarash, o‘z idealini qidirish, xayotda o‘z o‘rnini topish shakllanadi. Shuning uchun bolalarni mutolaaga bo‘lgan qiziqishini odat tusiga kiritmoq lozim. Mutaxassislarni fikricha aynan mutolaasi insonda fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiruvchi va xayolini bir joyga yig‘ishga yordam beruvchi omildir. Dunyo tajribasi shuni isbotladiki – bolani qancha oldin kitob va mutolaaga o‘rgatilsa unda bilim, g‘oya va tajriba oshadi. Bolalar mutolaasi mamlakatning intelektual resursi, millatning insoniylik potentialining rivojlanishini asosiy manbasidir. Mutaxassislarni fikricha ota-onalar bolalarni mutolaaga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur ekanligini qayd etdilar:

1. Bolaning yosh ehtiyojlariga mos keladigan adabiyotlarni tanlash. O‘smirlar xavf-xatarga intilish, katta bo‘lish qobiliyatini sinab ko‘rish, ota-onalar va o‘qituvchilarning g‘amxo‘rligidan mustaqillik istagi, sarguzashtlarga chanqoqlik va do‘stlarni izlash bilan ajralib turadi. Shu munosabat bilan o‘smirlar uchun eng qiziqarli adabiy asarlar sarguzashtli xarakterdagi asarlar bo‘lishi mumkin. Bunday kitoblarni o‘qish orqali o‘smir o‘zini o‘z hayotining muallifi kabi his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. O‘smirning kino orqali o‘qishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish. Hech kimga sir emaski, turli xil ommaviy axborot vositalari orasida yashovchi hozirgi avlod audiovizual avlod bo‘lib, dunyonи boshqa hislar bilan emas, balki birinchi navbatda ko‘zлari va quloqlari bilan idrok etadilar. O‘smir uchun ushbu film kitobni o‘qishdan ko‘ra film tomosha qilish osonroq va yoqimli. O‘smirga film va kitobni solishtirishni taklif qilib, siz taqqoslash atrofida yakka yoki guruhi muhokamasini tashkil qilish, bolaning o‘qishga qiziqishini uyg‘otishi mumkin.

3. Kattalar va bola tomonidan bir xil kitobni bir vaqtida o‘qish. O‘qigan narsalar haqida taassurot almashish, bahslashish, kelishish va bir-biringiz bilan kelishmaslikdan ko‘ra qiziqroq narsa yo‘q. O‘qishni yoqtirmaydigan bolalar yo‘q. Agar bolalar ulg‘aygan va o‘qishga umumiyl munosabatni shakllantirgan bo‘lsa, oilaviy an’anani shakllan-

tirish juda qiyin. Yana bir narsa-bu yosh oilalar, bu yerda ota-onalar bolaga dunyoning barcha go‘zalligini namoyish etishlari, butun hayoti davomida ishonchli hayotiy pozitsiyani shakllantirishlari mumkin.

4. Har bir kitob bolani o‘rgatishi, tarbiyalashi kerak. Farzandingiz ulg‘ayib, o‘zi o‘qishni o‘rgansa, ovoz chiqarib o‘qishni to‘xtatmang, u bilan o‘qing. Agar siz bolanning o‘qishini istasangiz, uning yonida ota-onaning o‘qishi yoki undan ham yaxshiroq ota-onaning bolasi bilan o‘qishi kerak. Bolalar qanday qilib zavq bilan o‘qiganingizni ko‘rsin: iqtibos keltiring, kuling, parchalarni yodlang, o‘qiganlaringizni baham ko‘ring. Ota-onaning ovoz chiqarib o‘qishi, odatda, bola hali o‘zini qanday o‘qishni bilmasa, zarur hisoblanadi. U maktab o‘quvchisi bo‘lganida, ko‘pchilik ota-onaning o‘qishini u uchun keraksiz deb hisoblaydi. Lekin bu e’tiqod noto‘g‘ri. Bolalarni mustaqil o‘qish maktab yoshida birgalikda o‘qish bilan to‘ldirilishi kerak. Qulay sokin joyda bir-birining yonida o‘tirib, asarni navbatma-navbat o‘qish yaxshiroq, bir qismini kattalar, bir qismini bola o‘qiydi.

5. Agar oilaviy o‘qish odati kun yoki kechqurun ma’lum bir vaqtida kundalik bo‘sh vaqtni birga o‘tkazish marosimiga aylansa yaxshi bo‘ladi. O‘qish jarayonining o‘zi ko‘zga tashlanmaydigan suhbat bilan birga bo‘lishi mumkin: o‘qish paytida bolaga hamma narsa tushunarli bo‘ladimi, unga notanish so‘zlar bormi, u va siz qanday taxminlarga egasiz. syujetni yanada rivojlantirish, bu qiziq ushbu taxminlar oqlanishini bilish.

6. Oilaviy o‘qish bo‘yicha mutaxassislar kitob haqidagi suhbatni imtihonga aylantirishdan ogohlantiradilar, test suhbatidan qochish va bolani takrorlashga majbur qilmaslik kerak deb hisoblaydilar. Bola o‘zini aqlli va tushunarli his qilishi uchun o‘qiganlaringiz haqida gapirish kerak. Tezkorligi va mehnatsevarligi uchun uni tez-tez maqtang. Agar u siz xohlagan narsani tushunmagan bo‘lsa ham, unga tanbex bermang. Uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlang. Keyinchalik u siz bilan kitob o‘qiganligini va samimiy suhbat soatlarini albatta eslaydi va bu uning qalbini isitadi.

7. Yosh psixologiyasi mutaxassislarining ta’kidlashicha, ota-onaning pedagogik fakoliyati insonning keyingi hayoti uchun hal qiluvchi rol o‘ynaydi, shu jumladan u kitoblarga va o‘qishga bo‘lgan munosabatni belgilaydi. Ota-onalarning ta’siri bolalar bilan adabiy muzeylarga va ma’lum bir yozuvchining nomi bilan bog‘liq joylarga birgalikda tashrif buyurish orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Ekskursiyalar paytida olingan taassurotlar ko‘pincha bolalarni yozuvchining ijodi bilan yaqindan tanishishga, uning asarlarini ekskursiyalar paytida ko‘rgan va eshitganlari bilan uyg‘unlashtirishga undaydi.

Zamonaviy dunyoda oilaviy mutolaa an’anasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Qayerda, agar kitoblarda bo‘lmasa, odam tasalli va ko‘plab savollarga javob topishi mumkin. Kitob oilaviy sevimli mashg‘ulotlari doirasiga kiritilishi kerak. Oilaviy mutolaaning unutilgan an’analalarini qayta tiklash kerak-bunday oila a’zolari bir-biriga yaqinlashadi va bu oqshomlar bir umr esda qoladi. Bolaning o‘qishi uchun uning yonida ota-onaning o‘qishi yoki undan ham yaxshiroq ota-onaning bolasi bilan o‘qishi kerak.

Bir oilaning bir necha avlodlarini o‘qishga jalb qilish vazifasi dolzarb. Mutaxassislarini kuzatishlariga ko‘ra, ota-onalar bolalarning o‘qishini tashkil etish, pedagogika,

psixologiya va oila huquqini tashkil etishda yordamga muhtoj. Kitoblarga qiziqishning pasayishi, o‘qishni bolalar uchun televizion, ko‘ngilochar dasturlar va kompyuter o‘yinlarini tomosha qilish bilan almashtirish va kattalarning umuman aholining umumiy madaniy darajasining pasayishiga olib keladi.

Zamonaviy oila tez o‘zgarib bormoqda, bir oilaning bir necha avlodlarining birgalikda yashash an’analari va oilaviy moliyaviy an’analari yo‘qolmoqda. Qadriyatlar, qiymat yo‘nalishlari o‘zgarib, jamiyatning tabaqlanishi chuqurlashmoqda. Shunday qilib, oilaviy mutolla an’analarining tiklanishi juda muhim. Aynan oila insonning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyat yo‘nalishlarining asosini tashkil etadi. Shunday qilib, oila va kutubxonaning o‘zaro ta’siri aholining ta’lim va madaniy darajasini oshirishga yordam beradi.

Kutubxonalarda oilaga oid adabiyotlar, davriy nashrlar va maqolalar to‘plamli mavjud. Oilalarni kutubxonaga jalb qilishga qaratilgan ko‘plab ommaviy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Kutubxonada ommaviy ishning turli shakllari qo‘llaniladi: qo‘g‘irchoq teatrлari, tanlovlari, o‘yinlar, adabiy sayohatlar, viktorinalar, adabiy va mavzuli kechalar, adabiy va musiqiy zallar, ko‘rgazmalar, taqdimotlar va boshqalar.

Bolalar o‘qishi bo‘yicha mutaxassislar oilaviy mutolaani ahamiyatini bir qancha omillar bo‘yicha asoslab berishga xarakat qildilar. Bular quyidagilardir:

– Oilaviy mutolaa bolani kitob madaniyati dunyosiga olib kiruvchi sinovlardan o‘tgan tarbiya vositasi hisoblanadi. Bu jarayon hali u alifboni o‘rganmasdan oldin boshlanadi.

– Oilaviy mutolaa insonni kitob bilan yaqinlashtiradi, diqqatni jalb qilish va uni chuqurlashtirish, o‘qishga bo‘lgan talabni shakllantiradi.

– Oilaviy mutolaa ilk yoshdanoq o‘z ona tilida to‘g‘ri so‘zlashishni egallahsga yordam beradi. Ilk yoshdan boshlab doimiy ravishda ovoz chiqarib o‘qish bolada o‘qish jarayoni bilan tanishtiradi va mustaqil o‘qishni egallahsga tutki bo‘ladi. Kelajakda esa kitobxon sifatida shakllanishga olib keladi.

– Oilaviy mutolaa kitoblarni ruhiy –estetik qabul qilishni shakllantiradi. Inson, quvonchli, xursandchilik, g‘amginlik, xazil, kulgiliy so‘zlarni eshitishi natijasida o‘zida ularni ta’sirini sezadi.

– Oilaviy mutolaa badiiy obrazlarni idrok qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

– Ovoz chiqarib mutolaa qilish nafaqat kichik yoshdagil bolalar, shunindek katta yoshdagil bolalar uchun ham, hatto yoshi ulug‘ kishilar uchun ham muhimdir. Kattalar bolalarni ma’naviy rivojlanishini kuzatishi va uni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

– Oilaviy mutolaa -o‘sib kelayotgan avlodni ijtimoiylashuvini samarali yo‘li xisoblanadi.

– Oilaviy mutolaa qarishni oldini olish sifatida ham qo‘llash mumkin. Mutaxassislarini fikriga ko‘ra, qarish bu kitobsiz, mutolaasiz hayot. Kitob o‘qish faol aqliy faoliyat bilan shug‘ullanishga rag‘batlantiradi.

– Oilaviy mutolaa o‘z ichiga ovozli o‘qish, bolalar bilan birgalikda o‘qish, o‘qish motivlari, o‘qigan kitoblarini muxokama qilishdan tashkil topadi.

Xulosa qilib aytganda bolalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini o‘rganishga bag‘ishlangan nazariy va ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy mutolaa muammosi ta’limdagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda, iqtisodiy qiyinchiliklar har bir oilaga ta’sir qilganda, yaxshi, aqlii kitob va oilaviy mutolla odamlarni yana birlashtirishi va murakkab insoniy munosabatlarda sevgini ilhomlantirishi kerak.

Oila insonning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyat yo‘nalishlarining asoslarini shakllantiradi. Oilaning qadriyatlaridan biri bu oilaviy mutolla an’anasidir. Ammo bugungi kunda bu xavf ostida bo‘lganlarga tegishli bo‘lgan qiymat ekanligi aniq, chunki oila tuzilishining o‘zgarishi, insoniy munosabatlarda, shu jumladan oilada an’anaviy axloqiy meyorlarning yo‘q qilinishi, kognitiv munosabatlardan ko‘ra ko‘ngilochar imtiyozlarning ustuvorligi mavjud. Kitobni oilaga qaytarish uchun buni qilish kerak.

Zamonaviy jamiyatdagi maktabgacha va mакtab muassasalari qanchalik ajoyib zamonaviy bo‘lmасin, bolalarning ongi va fikrlarini shakllantiradigan eng muhim vositalar ota va ona – oiladir. Oilaning madaniy qadriyatlarini oilaviy mutolla an’analarini tiklash uchun ta’lim va madaniyat muassasalarini, eng muhimi, ota-onalarning say-harakatlarini birlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golubeva YE. I. Podderjka semeynogo chteniya – obshaya zadacha spetsialistov // Nedetskiye problemi detskogo chteniY. – Moskva: Rossiyskaya gosudarstvennaya detskaya biblioteka, 2002.– 288 s.
2. Karpova N. L. Semeynoye chteniye – semeynaya biblioterapiya // Shkolnaya biblioteka. – 2004.– № 5.– S. 53–57.
3. Roditelskoye sobraniye po detskomu chteniyu: metod. posobiye / sost. T.D. Jukova. – Moskva: Russkaya shkolnaya bibliotechnaya assotsiatsiya, 2007. – 288 s. – (Professionalnaya biblioteka shkolnogo bibliotekarY. Ser. 1; Vip. 7-8).
4. Rossinskaya S.V. Podrujut rebenka s knigoy: k voprosu o snijeniinteresa k chteniyu, o semeynom chtenii i roli bibliotek v vospitanii lichnosti// Bibliotechnoye delo. –2007.– № 15. –S. 35–36.
5. Skuridina Y. Yesli ne rasskazivat skazki...: semeynoye chteniye kak duxovnoye razvitiye rebenka // Bibliopole. – 2007.– № 11.– S. 32–35.
6. SokolskaY.L.V.Materinskoye chteniye: nauchno-prakticheskoye posobiye. – Moskva: Liberiya Bibinform, 2007. – 80 s. – (Bibliotekar i vremY. XXI vek; Vip. № 54).
7. Stepicheva T. V. Semeynoye chteniye. ZACHEM? // Shkolnaya biblioteka. – 2004.– № 4. – S. 87–92.
8. Treyn B. Issledovaniye v oblasti semeynogo chteniya: mejdunarodnaya perspektiva // Shkolnaya biblioteka. –2006.– № 7.– S. 28–31.
9. Xolodnitskaya T. Vozrojdeniye traditsiy semeynix chteniy i ix rol v formirovaniii lichnosti rebenka, vospitanii rravstvennosti i kulturi // Novaya biblioteka. – 2003.– № 9.– S. 16 –19.
10. Xudyakova S. N. Semeyniye tayni. Kak virastit chitayushego rebenka // Bibliotechnoye delo. – 2007.– № 7. – S. 33–35.

Davlatov Soyibnazar Xo‘janiyazovich
fil.fan.nomzodi
«*Kutubxona-axborot faoliyati» kafedrasi dotsenti,*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

ALISHER NAVOIY DAVRIDA KITOBATCHILIK ISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy davri kitobat madaniyatining yusak taraqqiyot bosqichi ham bo‘ldi. Navoiyning o‘zi buyuk madaniyat arbobi sifatida kitobat ishi rivojiga o‘zining barakali va serqirra hissasini qo‘sghanligi, Alisher Navoiy o‘z davrining qomusiy allomasi sifatida xattotlik san’atini ham yaxshi bilgan, o‘zi ham barcha asosiy arab yozuvi turlarini mahorat bilan egallaganligi haqida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, Qo‘lyozma, kitob, asar, kutubxona, bibliografiya, yozuv, saroy, muallif, tarjimon, hattotlik san’ati, kitob ombori, xususiy kutubxona, madrasa

Abstract: The article examines the high stage of development of book culture during the time of Alisher Navoi. It is believed that Navoi himself, as a great cultural figure, made a rich and diverse contribution to the development of accounting, and Alisher Navoi, as an encyclopedist of his time, had an excellent command of the art of calligraphy and mastered all the main types of Arabic graphics.

Keywords: Literature, Manuscript, book, work, library, bibliography, letter, writing palace, author, translator, calligraphy, book depository, private library, madrasah

XIV–XV asrlarda Temuriylar davrida O‘rta Osiyo feodalizm jamiyatida qisqa muddatli bo‘lsa ham markazlashgan feodal davlati joriy qilinib, mamlakat hayotida iqtisodiy, siyosiy va madaniy yuksalish ro‘y berdi. Ayniqsa, XV asr Hirotda, Samarqandda O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati o‘zining eng porloq davrini boshidan kechirdi. Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurohmon Jomiy, Xondamir, Behzod Sulton Ali va Mirzo Bobur bu davrning buyuk aql egalaridan bo‘lganlar. Mir Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir [1]. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qilolgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho‘qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik “ko‘p va xo‘b” (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o‘zini “Xitoydan to Xuroson” gacha yoyilgan turkiy “qavm” (el, urug‘)larning shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog‘i ostida birlashtirdi, “yakqalam” qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ravnaqiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug‘ildi. Zamondoshlari uni bizga “Nizomiddin Mir Alisher” deb tanishtiradilar. “Nizomiddin” – din, diyonat nizomi, degandir. Ko‘pincha, donishmand mansab egalariga nisbatan aytilgan. “Mir” – amir demakdir. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni “G‘iyosiddin Kichkina” ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlardan, onasi amirzoda Shayx Abusaid

Changning qizi bo‘lgan. Ismi ma’lum emas . Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) edi.

Yozuv tizimi va kitobat madaniyatining mavjudligi, uning rivojlanish saviyasi u yoki bu xalq ma’naviy qiymatini belgilovchi muhim omildir. Kitobat madaniyati bevosita kitobni yuzaga keltirish bilan bog‘liq kitob san’ati bilan bir qatorda,yana kitob ko‘chirish va chop etish,kitobfurushtlik va kutubxonachilik vositasida kitoblarни jamiyat a‘zolari o‘rtasida taqsimlash,shuningdek,kitoblar haqida turli bibliografik ma’lumotlar tarqatish orqali ularni qayta ishlab chiqarish kabi jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu tariqa Alisher Navoiy davri kitobat madaniyatining yuksak taraqqiyot bosqichi ham bo‘ldi. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixi manbalardan ma’lum. Mirzo Bobur arab grafikasining turkiy xalqlariga moslab isloh qilingan yengil yozuv-“xatti boburiy”ni ijod etgan. Munis Xorazmiy xattotlar san’ati haqida “Savodi ta’lim” nomli risola yozgan va Alisher Navoiyning “Xamsa”sining nihoyatga go‘zal xat bilan ko‘chirgan. Navoiyning o‘zi buyuk madaniyat arbobi sifatida kitobat ishi rivojiga o‘zining barakali va serqirra hissasini qo‘shdi. Alisher Navoiy o‘z davrining qomusiy allomasi sifatida xattotlik san’atini ham yaxshi bilgan,o‘zi ham barcha asosiy arab yozuvi turlarini mahorat bilan egallagan. U qo‘lyozmalarni badiiy bezashga, matn taqsimotiga oid qonun-qoidalarning, kitob ishlab chiqarish jarayonlariga tegishli masalalarning chuqr bilimdoni bo‘lgan.

Alisher Navoiy arab tili va tilshunosligi,poetikasi, so‘fizm ta’limoti, fiqhni chuqr egallagan olim, Qur’on va din ta’limotiga oid adabiyotlarning bilimdoni bo‘lgan. U so‘nggi 800-1000 yillar davomida qadimiy tillarda hamda fors,turkiy va arab tillarda yaratilgan mumtoz diniy, adabiy-badiiy, tarixiy, jo‘g‘rofiy, falsafiy, filologik, tibbiy kitoblar olamida o‘zini nihoyatda erkin sezар edi [2].

Alisher Navoiyning arab imlosidagi sharq qo‘lyozmalari kitobat va matn xususiyatlari naqadar nozik bilimdoni bo‘lganligi uning “Navodir un-nihoya” va “Badoyi ul-bidoya” nomli dastlabki devonlari hamda o‘zining ichki tuzilishi jihatidan biron sharq xalqlari adabiyotida uchramaydigan “Chor devon”, ya’ni to‘rt devondan tashkil topgan “Xazoyin ul-maoniy” asarlari to‘plamini yaratish jarayonida o‘z aksini topdi. Alisher Navoiy o‘z zamoni kitobshunoslari safidan o‘rin olgan. Shoирning shaxsiy mablag‘lari hisobiga qurilgan ulkan kutubxonada 10 ming jilddan ortiq qo‘lyozma kitoblar jamlangan bo‘lib, unda Navoiyning ukasi Darvesh Ali kitobdor lavozimini bajarar edi. Kutubxonaning binosi “Unsiya” deb nomlangan mashhur arxitektura kompleksiga kirar va Navoiyning o‘zi “Unsiya”da istiqomat qilar edi.

O‘rta asr etikasida ham hattotning qobil va fozil bo‘lishidan tashqari, xalqqa munosib xizmat qilish uchun hammadan avval olajanob tabiatli, odamlarga mehribon, nafs balosini yenga oladigan, pok qalbli kishi bo‘lishi talab qilingan. Bu haqda Alisher Navoiy davrining hattotlar qiblagohi Sulton Ali Mashhadiy “Husnixat” haqidagi risolasida shunday degan:

Kitob tayyorlash texnikasi o‘rta asr jamiyatidagi mehnat taqsimotida alohida o‘rin tutgan, xattotlik esa professional kasb bo‘lib qolgan. Madaniy hayotning o‘sishi bilan kitoblarga bo‘lgan talablar tobora osha boradi. Bu narsa kitob tayyorlash korxonalarining tashkil topishiga sabab bo‘ldi. Hirot, Buxoro, Xiva, Samarqand va Qo‘qon singa-

ri o‘z zamonasida dong‘i ketgan madaniy markazlarda kitob tayyorlaydigan maxsus korxonalar tashkil qilinib, unda xalq ehtiyojini qoplash maqsadida kitobfurushlik ishlari keng avj oldirilgan.

Hattot qo‘lyozmani batamom yoki ma’lum bir qismini tugatgach, qo‘lyozma lavvoh qo‘liga o‘tardi. Bu san’atkor lavvoh barcha ko‘chirgan tekstlarini rangdor chiziqli jadval Ichiga xoshiyani esa, odatda, qizil yoki xavo rang chiziq ichiga olardi. Agar hoshiya rangdor bo‘lishi kerak bo‘lsa, u holda lavvoh bo‘yalgan qog‘ozdagagi tekst uchun ajratilgan qismini kesib olib, keyin mohirlik bilan rangli hoshiyaning keng ramkasiga yopishtirardi. Qog‘ozdagagi yopishtirilgan joylar lavvoh tomonidan ustalik bilan oltin yoki rangli kashtalar (chiziqlar) bilan pardalanardi. Ish shunday mahorat bilan bajarilar edi.

Lavvoh ba’zan oddiy naydan yasalgan maxsus asbob vositasida qo‘lyozmalarning satrlari orasiga zarhal, surx yoki lojuvardlardan afshon berardi. Hoshiyalar hamma vaqt faqat rang bilangina chegaralanib qola bermasdan, ba’zan unga sof oltin bilan o‘simplik va hayvonot dunyosidan nafis tasvirlar berilardi. Bunday tasvir (naqsh)lar turli ranglardagi hoshiyalardan ko‘ra chiroyli ko‘rinardi. Umuman, hoshiyani turli ranglar bilan bo‘yash yoki o‘simplik stilida naqshlash o‘rniga ko‘proq yirik oltin jim-jimalar bilan bezatilardi. Bunga XV-XVI asrning eng yaxshi qo‘lyozmalari misol bo‘la oladi. Lavvoh qo‘lyozma (asar)ning bosh qismiga suyuq oltin bo‘yoqlar bilan katta va kichik naqshlar chizardi. Bu naqshlar, odatda, “unvon” yoki ”sarlavha” deb atalar edi. Darhaqiqat, ming-minglab jiddlardan tashkil topgan saroy kutubxonalari saroy ahlining emas, butun bir xalqning, butun bir millatning bebafo ma’naviy xazinasi bo‘lgan. “Qimmatbaho qo‘lyozmalarning xazina mulki ekanligining isboti uchun Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan Alisher Navoiyning “Navodir un-nihoya” devoni keltirish mumkin.

Alisher Navoiy bilimdon kitob muxlisi va jiddiy kitob to‘plovchi –bibliograf sifatida qimmatbaho va go‘zal bezakli qo‘lyozmalarni to‘plab bordi. Buxoro, Hirot va Samarqandning eng usta va iste’dodli hattot, lavvoh va sahhoflari Navoiy maxzani uchun kitoblar yaratar edilar. Alisher Navoiy hattotlik va miniatyura san’atlarining bilimdoni, ko‘plab shoir, olim, kitobat san’ati ustalarining homiysi bo‘lishi bilan birga, juda keng miqyosda xayriya ishlari bilan shug‘ullangan. Navoiy Hirotda, Astrobod, Marv kabi shaharlarda madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurdirish bilan birga ularning atrofini obodonlashtirish ichini jihozlash ishlarini ham nazaridan chetda qoldirmas edi, madrasalar qoshida Kutubxonalar uchun asos yaratar edi. Navoiyning ishonchli vakillari uning ko‘rsatmasi bilan bu kutubxonalarga kitobfurush va sahhoflardan kitoblar sotib olar, kitobat ishi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis kishilarni qog‘oz va boshqa yozuv ashyolari bilan ta’minlab turar edi.

Navoiyning mashhur “Majolis un-nafois” (“Nafis yig‘inlar”) tazkirasini, bu asarning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi-o‘quvchilarga shoir, hattot va kitobat ishining boshqa vakillari haqida turli xil ma’lumotlar berishiga ko‘ra, bibliografik asarlar qatoriga ham qo‘yish mumkin. Alisher Navoiy tazkirasida bu toifadagi asarlar uchun an’ana naviy bo‘lgan o‘z davri shoirlari va adiblarining hayoti va ijodiga oid, ularning asarlari haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

“Majolis un-nafois” da Navoiy o‘zigacha o‘tgan ijodkorlarga bir bo‘lim bag‘ishlaydi. Navoiy o‘z do‘sti, maslakdoshi, ustoz va piri Abdurahmon Jomiyni (1414–1492) juda e’zozlar, barcha ezgu ishlarda bu ulug‘ shoir va mutafakurni ibrat deb bilar edi. Mutafakkir o‘zining ayrim asarlarida Jomiy qalamiga mansub ijod namunalarini alohi-da qayd qilib o‘tadi. Jomiy to‘g‘risidagi bunday ma’lumot Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida ham bor.

“Nasoim ul-muhabbat”da Navoiy o‘z ustozи Jomiyga maxsus maqola bag‘ishlagan. Bu maqolada: “Nazm va nasr tasniflaridan ellikka yaqin borki, zamon ahli andin bahramanddurlar. Nazmlaridan uch devondur: “Fotihatush shabob”qa mashhur, ikkinchisi “Vositatul ikd”qa ma’rufdur va uchinchisi “Xotimatul hayot”qa mavsum” va nasrlaridan “Tafsir”dur va “Shavohidun nubuvvat”dur va “Nafohotul uns” va “Sharhi Fusus” va “Ashi’atul lama’ot” va “Lavoeh” va “Lavome” va “Sharhi ruboiyot”dir.

Alisher Navoiyning shaxsan Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan “Xamsatul mu-tahayyirin” asari shaxsiy bibliografik ko‘rsatkichlar (yevropacha personal kitob turi-ga) toifasiga kiradi. Kitob muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayin” [3] (“Ikki til to‘g‘risidagi muhokama”) asarida shoirning o‘zi yozgan asarlar to‘g‘risidagi ma’lumoti mavjud. “Muhokamat ul-lug‘atayin” da Na-voiy kitobat qilingan o‘z asarlarining qisqacha ro‘yhati bibliografiyasini ham keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. To‘la asarlar to‘plami- 1-jild – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013.
2. Navoiy Alisher. Muhokamat ul-lug‘atayin. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
3. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 2021.

FEATURES OF MARKETING ACTIVITIES IN LIBRARIES

(advertising and public relations in modern libraries)

ОСОБЕННОСТИ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В БИБЛИОТЕКАХ

(реклама и связи с общественностью в современных библиотеках)

Аннотация: Некоммерческая деятельность по своей природе носит рекламный характер и не имеет целью получение дохода от этой деятельности. Такой подход формирует разное восприятие государственных образовательных учреждений, учреждений культуры и библиотек.

В организации деятельности библиотек в зависимости от их типа и вида применяются совершенно различные методы и формы. В последние годы в зависимости от целей и задач Библиотека стала широко использовать современные PR-технологии при организации своей работы. Университетские библиотеки выполняют свою функцию научных библиотек различными способами. В статье мы анализируем деятельность ведущих научных и вузовских библиотек и пытаемся выявить общие аспекты организации PR-деятельности в этих типах библиотек. Сделана попытка сформулировать научно-практическую модель с целью достижения современных PR-эффектов посредством применения как традиционных, так и современных технологий.

Ключевые слова: PR-маркетинг в библиотеках, реклама в библиотеках, брендинг в Информационном пространстве, некоммерческий маркетинг, подготовка специалистов.

Abstract. Non-profit activities, depending on their nature, engage in advertising activities and do not pursue profit-making purposes in this activity. This approach gives rise to different thoughts for state educational institutions, cultural institutions and libraries. When organizing the activities of libraries, completely different methods and forms are used depending on their type and type. In recent years, depending on its goals and objectives, the library has begun to widely use modern PR technologies in organizing its work. Higher education libraries express their function as a research library in different ways. In the article we analyze the activities of leading scientific and university libraries and try to determine the general aspects of the organization of PR activities in these types of libraries. An attempt has been made to formulate a scientific-experimental model with the aim of obtaining modern PR effects through the use of both traditional and modern technologies.

Keywords: PR marketing in libraries, advertising in libraries, branding in the information space, non-profit marketing, training of specialists.

The scope of public relations – the professional knowledge of libraries in the field of active public relations in the Republic of Azerbaijan has manifested itself in the last twenty years, and their specific practical activities have manifested themselves in the last ten years. During the Soviet era, libraries were presented as an institution of ideological propaganda, and many equate this with the system of public relations, since library experience contains a lot of material in this area[1]. But if we approach the problem beyond this concept, our attention is drawn to serious research by famous marketers in the world [2].

Public relations has become a productive process of news production in the media. It has become the public relations industry. This field is vast and is currently developing rapidly. Despite the breadth of its activities, public relations functions are mainly performed behind the scenes. Thus, effectively organized PR work forms and strengthens public solidarity. Although these activities are often confused with advertising and news, PR is significantly different.

What is the public relations industry? To do this, let's try to describe the modern meaning and role of public relations.

In recent decades, the process of transition to a new information society – the knowledge society – has been expanding in the world. In such a society, the role of scientific libraries as information centers increases.

The field of public relations (PR) is one of the most dynamically developing fields in the world. Understanding the need to improve the forms and methods of library work, we can take a closer look at foreign experience and incorporate it into the library environment of Azerbaijan. The use of PR measures in library practice is still relevant today, since “today, the use of public relations in knowledge and creative practice is perhaps more necessary for Azerbaijani libraries than any other area of management.”

The purpose of this study is to explore and present one of the new areas of activity of academic libraries – the practice of public relations, which is rapidly expanding.

The French scientist Descartes said that defining a term is the easiest way to avoid many misunderstandings. The range of opinions regarding the definition of the subject of “public relations” is very diverse. The famous American researcher Rex F. Harlow noted more than five hundred definitions collected in the specialized literature since the beginning of the 20th century. We will focus on just a few. Some authors describe PR as “planned and executed efforts aimed at establishing and maintaining friendly relations between an organization and its public”; Others believe that PR is “a planned effort to influence public opinion through favorable attitudes and responsible actions based on mutually acceptable two-way communication”; Others define PR as “the science and art of building mutual understanding and goodwill among the public of an individual, firm or institution”[3].

Taking into account the above definitions, in our PR activities we follow the classification of B. Usherwood, tested at the Ural State University (Ural State University) [4]. One of the fundamental principles of organizing our work in the field of public relations is “widespread information about the activities of the library as a whole and its individual divisions.” In a number of leading university libraries, the main role in the

field of public relations is played by the reference and bibliographic department and the mass work sector that exists on the basis of this department. PR activities are carried out in three areas: closely related and complementary scientific information services and image formation.

The scientific direction is represented by publications in collections and almanacs, participation in scientific conferences. Participation of the management of a scientific library in local, regional and international scientific and practical conferences “Information and bibliographic activities of a university library,” as well as reports and speeches published in the conference collection, are factors that serve the image of the institution. and enhance your reputation through public relations. The reports present the experience of the library’s reference and bibliographic department in the field of collecting and systematizing local history material: the formation of thematic folders with newspaper materials related to history, culture, economics, ecology, education, library newspapers with materials for anniversaries and memorable dates. directions.

The library’s reputation is enhanced by the library’s participation in intra-university and regional scientific and practical conferences. For example, a research library director, department director, or research library director speaking on historical events or historical figures at local, regional and international conferences enhances the reputation of a research library in the wider scientific and cultural space. There is no doubt that libraries that create such an image gain access to funding for many projects.

A number of university libraries organize exhibitions of rare publications and attract the attention of various event participants to the rare collection of the library [5]. Libraries organizing such exhibitions can create a serious PR effect by presenting the rich and monumental features of their collection. Of course, this direction of activity is due to the monumental function of libraries. Not all libraries have such capabilities.

Scientific libraries that do not have rare copies or ancient manuscripts in their collections can attract funds from central libraries to conduct such events. Of course, the nature of the upcoming event and the level of professionalism of the exhibition will ultimately show the professionalism of the scientific library, as well as the level of its image.

SCIENTIFIC MODELING

There are many information areas in the PR activities of scientific libraries. Because it can fundamentally combine four information flows.

1. The first stream is information about the library on the official website of the university and on social networks. Reviews of new literature are necessarily presented on these resources with a large information capacity: books, special periodicals and “thick literary magazines”; a block of news about the life of the library, exhibitions in different sections of the library and other events; information about significant dates, etc. d. Projects implemented jointly with library and IT specialists – “Digital Environment”, “Information School”, “Information Culture” – can have wide success [6].

2. The second flow of information is the promotion of scientific library collections in the city and republican press and university newspaper, through internal media. Research libraries regularly participate in this platform and take a systematic approach [7].

3. The third information flow can be news from monitoring the differentiated service zone of the university's scientific library. The news "Today we served 3 thousand readers..." [8] creates unexpected content about the library. Although the increase in the workload of university libraries with the beginning of the academic year is a temporary difficulty, the dissemination of this news affects the formation of the image [9].

4. The fourth stream of information is the release of booklets, selective bibliographies and various publications. This type of information service for academic libraries is not new [10].

There is a wide range of technical options for building strong relationships with readers. Convenience of registration, time to receive and respond to requests, completeness of service, compliance with ethical standards and the academic level of communication with readers are factors influencing the image of the library. The formation of a positive image of the library is influenced by the uniform of library staff, library design, and interior. The library combines cleanliness, comfort, and appropriate furnishings with new information technologies. Visitors are offered networked computers with Internet access. Users are given the opportunity to work in a text editor, print, scan, burn data to CDs, and make copies. Service providers should also try to make literature distribution points as convenient as possible. Users are provided with furniture and appropriate equipment, and a properly designed lighting system.

In university libraries, one of the interesting methods is the promotion of "advanced personnel" through blogging activities. Since leading library employees are active in all areas of the library's activities, through blogging activities they can become a PR tribune for the library. In addition to being a library blogger, he can become a publicist on cutting-edge activities and gain insight into public perceptions of service industry weaknesses.

CONCLUSION

According to J. Gröning, PR is the management of communication between an organization and its public, in which employees must know their client "by sight" in order to successfully sell their services. Accordingly, many library PR projects should begin with the study of public opinion polls. Thus, in order to improve the work of the photocopying service in the scientific library, a survey was conducted among users who are more likely to use this type of library services. The results obtained help to identify weaknesses in the service and eliminate the problems that caused them; future activities to develop copying can be identified [11]. Within the framework of library and bibliographic classes, excursions of first-year students to the library, the activities of the newly elected scientific library council, cultural and educational work, and information support for scientific and practical conferences of the academy can also be considered. All these approaches are activities aimed at creating a positive image of a scientific library.

PR events make it possible to "obscure" the weakest aspects of the activities of a scientific library and create the opportunity to most adequately reflect the daily work of a certain library team, increase the popularity of the library, and attract more and more readers to it. The above allows us to conclude that PR events in the university library are promising areas of work and will be actively used in the future.

References:

1. Oqlu K.P.F. Conflict of Relevance and Reliability of Information and the Global Network // Trends in Humanities and Social Sciences. – 2021. -№ 1(1). – P.1-2.
2. Designing the Repository of Documentary Cultural Heritage / N. Kunanets, V. Dobrovolska, N.Filippova, K.Parviz, H.Lypak, O.Duda, L.Dubrovina // In Conference on Computer Science and Information Technologies. – [W.p.]: Springer International Publishing, 2020. – P.1034-1044.
3. Kazimi P.F. Information engineering in library activity. B. BSU. – 2011.
4. Kazimi P.F. The concept of reliable information on the global network in times of crisis / P.F.Kazimi, N.A.G Guliyeva // Technium Soc. Sci. – 2022. – №30. – P.742.
5. Kazimi P.F. Sosyal ve Kültürel Ortamın Oluşmasında Kitap ve Kütüphanelerin Rolü // Türk Kütüphaneciliği. – 2017. – № 31(2). – P. 245-250.
6. Kazimi P.F.O. “Time” spent in youth’s “global information space” (problems of satisfaction of reading or information need) / P.F.O.Kazimi, N.A.G. Guliyeva // Procedia Computer Science. – 2023. – №219. – P. 720-723.
7. Kazimi P.F. Today’s factors of user satisfaction with library services and their quality / P.F.Kazimi, A.I.Gurbanov // Scientific and Technical Libraries. – 2022. -№ (2). – P.109-122.
8. Kazimi P.F. Global information network and conflicts of interest (parties, interests and conflicts) // IEEE 16th International C... International Computer Sciences and Information Technologies (CSIT), 22-25 Sept. 2021. – URL: <https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/9648733>.
9. Kazimi P. Evaluation criteria of censorship and limitation in library and information activity / P.Kazimi, A.Aliyeva // Historical sciences. – 2019. – № 17.
10. Agamirzaev A.Ch. The last of the “Mohicans” of Soviet library science. (To the 90th anniversary of the memory of Professor A.A. Khalafov) / A.Ch.Agamirzaev, P.F. Kazimi // Scientific and technical libraries. – 2023. – № (12). – P.124-134.
11. Agamirzaev A. Marketing concept of current libraries (marketing activities of libraries) / A.Agamirzaev, N. Seidli // Scientific and theoretical almanac Grani. – 2023. №26(2). – P.47-50.

Komilova Umida Sobir qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Kutubxona-axborot faoliyati” fakulteti

1-bosqich sirtqi ta’lim 101-guruh talabasi

Hakimova Muborak Yakubjonovna

“Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasи

mudiri, dotsent – ilmiy rahbar

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI – MEDIA VA RAQAMLI SAVODXONLIK MARKAZI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot-kutubxona muassasalarining zamonaviy axborot makonidagi o‘rnii xususan, ularning media va raqamli savodxonlikni shakllantirishdagi ro‘li taxlil qilinadi. Mualliflar kutubxonalarni faqat axborot saqllovchi joy emas, balki raqamli texnologiyalar asaosida foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan extiyojini to‘liq qondiruvchi va ularni media savodxonligi, raqamli ko‘nikmalarga ega shaxslar sifatida shakllantiruvchi markaz sifatida ko‘rsatadi. Maqolada axborot texnologiyalari internet resurslari, raqamli platformalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda kutubxonalarning yangi vazifalari yoritiladi.

Kalit sozlar: axborot-kutubxona muassasalari, media savodxonlik, axborot texnologiyalari, raqamli axborot resurslari, kutubxonachilik, zamonaviy kutubxona, axborot madaniyati.

Abstract. This article analyzes the role of information and library institutions in the modern information space, particularly their contribution to the development of media and digital literacy. The authors present libraries not merely as places for storing information, but as centers that, through digital technologies, fully meet users’ information needs and shape individuals equipped with media literacy and digital skills. The article highlights the new responsibilities of libraries in developing skills for working with information technologies, internet resources, and digital platforms.

Keywords: Information and library institutions, media literacy, information technologies, digital information resources, librarianship, modern library, information culture.

Axborot kutubxona muassasalari jamiyatda muhim rol o‘ynaydi va ularning vazifalari o‘zgarib, zamон talablariga muvofiq rivojlanmoqda. Bugungi kunda, axborot-kutubxonalari faqat kitoblar saqlaydigan va tadqiqotchiga ma’lumot yetkazuvchi joylar emas, balki media va raqamli savodxonlik markazlariga aylanmoqda. Axborot-kutubxona muassasalari, odatda, ma’lumotlar va bilimlarni saqlash, ularga kirish, taqdim etish va tarqatish vazifasini bajaradi. Bunday muassasalar nafaqat kitoblar va jurnallar, balki raqamli axborot resurslari, onlayn kutubxonalar va multimedia materiallарini ham o‘z ichiga oladi. Raqamli savodxonlik markazi, aynan shu sohada ta’lim berish

va jamoatni raqamli vositalardan to‘g‘ri va samarali foydalanishga o‘rgatishga qaratilgan. Bu markazlar odatda kutubxona muassasalari yoki boshqa jamoat xizmatlari bilan hamkorlikda ishlaydi va keng jamoatchilikka ochiq bo‘ladi. Bunday markazlar o‘quvchilar, talabalar, yoshlar va o‘qituvchilar uchun juda foydali bo‘lishi mumkin. Bu markazlar nafaqat axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish, balki shuningdek, jamiyatni raqamli dunyoda muvaffaqiyatlari va xavfsiz ishlashga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli savodxonlik markazlari, odamlarni faqat texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki ularni raqamli fuqarolik tamoyillari, etikasi va madaniyatiga ham o‘rgatadi. Internetdagi ijtimoiy munosabatlar, e’tiborli va hurmatli muloqot, xakerlik, zo‘ravonlik va kiberhujumlardan himoyalanishni xam o‘rgatadi. Raqamli savodxonlik markazlari onlayn ta’limni kengaytirish va ochiq ma’lumotlar bilan ishslash imkoniyatlarini yaratadi:

– Ochiq ta’lim platformalari: Internetda o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan bepul va pullik ta’lim resurslari. Masalan, Coursera, edX, Khan Academy kabi platformalardan foydalanish.

– Ochiq ma’lumotlar: Raqamli kutubxonalar va arxivlar orqali foydalanuvchilar ilmiy, madaniy, tarixiy va boshqa ma’lumotlarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu ayniqsa yoshlar va yosh avlod uchun juda muxim.

Axborot-kutubxona muassasalari (AKM) jamiyatda axborot almashinushi va bilim tarqatishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va media vositalarining taraqqiyoti bilan, AKMlari o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqib, raqamli savodxonlikni oshirish va media kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan markazlarga aylanmoqda. Bu maqolada axborot-kutubxona muassasalari va ularning media va raqamli savodxonlik markazi sifatidagi roli tahlil qilinadi:

1. Axborot-kutubxona muassasalari va ularning tarixi. Axborot-kutubxonalar o‘zining tarixi davomida ko‘plab funksiyalarni bajarib kelgan. Ular, avvalambor, ta’lim va tadqiqot uchun zarur bo‘lgan adabiyotlarni ta’minalash vazifasini amalga oshirgan. Bugungi kunda esa, axborot-kutubxonalar jamiyatning ma’naviy va axborot xo‘jaliqidagi muhim markazlarga aylandi. Axborot kutubxona muassasalari jamiyatdagi axborotni yig‘ish, saqlash, tarqatish va tadqiq qilish sohasidagi muhim o‘rinni egallaydi. Ular ilm-fan, ta’lim, madaniyat va axborot sohasidagi rivojlanishning asosiy markazlari bo‘lib, o‘z tarixi va rivojlanish bosqichlari bilan katta ahamiyatga ega. Misol uchun kutubxonalarining rivojlanish tarixiga to‘xtalib o‘tamiz:

– Axborot-kutubxonalarining tarixi. Kutubxonalarining tarixi bizning eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Eng avvalgi kutubxonalar Misr, Mesopotamiya va Xitoyda tashkil etilgan. Misrdagi Aleksandriya kutubxonasi, maskanning ajoyib va eng qadimiy va yana Mesopotamiyadagi kutubxonalar, doimiy kitobxonlar, sayohatchilar uchun markaz bo‘lgan. Bu kutubxonalarda keng ko‘lamli yozma manbalar va ilmiy asarlar saqlangan.

– Grek-Rim davri. Grek va Rim madaniyatida axborot tarqatish va butun dunyo bilimlarini bir joyga to‘plash bilan davlatlar orasidagi aloqalar yanada rivojlandi. Aleksandriya kutubxonasi (boshqa yirik kutubxonalar bilan birga) ilmiy va adabiy merosni

saqlashda muhim rol o‘ynagan. Bu kutubxonalarda odamlar nafaqat adabiy asarlarni, balki ilmiy qo‘lyozmalarini ham topishgan.

– O‘rta asrlar (5-15 asr): O‘rta asrlarda xristianlik va arab madaniyatida kutubxonalarning ahamiyati katta bo‘ldi. Arablar ilm-fan va madaniyat sohasida katta ilmiy markazlarni tashkil etishgan, ular kutubxonalarini har tomonlama rivojlantirgan. Ispaniya va Buyuk Britaniyadagi kutubxonalar bu davrda anchagina yuqori mavqega ega bo‘lgan. Kutubxonalar diniy ma’ruzalar va ma’rifatni saqlash va tarqatishga xizmat qilgan.

– Yangi davr (16-19 asr): Yangi davrda kutubxonalar kitoblar va adabiy merosni saqlashdan tashqari, ilmiy tadqiqotlar uchun markazga aylandi. 16-asrda chop etilgan bиринчи kitoblar va joriy etilayotgan choplash texnologiyalari kutubxonalarning rivojlanishini tezlashtirdi. Vena, London va Parij kabi shaharlardagi kutubxonalarning tarqalishi natijasida ilmiy va adabiy asarlar turli sohalarda yo‘nalish oldi.

– Modern davr (XX–XXI asr): XX asrda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji kutubxonalarning funksiyasini yanada kengaytirdi. Elektron kutubxonalar, internet va sifrlashtirish jarayonlari kutubxonalarga yangi yondoshuvlar va imkoniyatlar beradi. Ayni paytda, axborotga qulay va tezkor kirish kutubxonalarga bo‘lgan talabni oshirdi.

– Axborot kutubxonalarining muammolari va rivojlanish yo‘nalishlari. Sifrlashtirish: axborot-kutubxonalarining kontentlarini raqamlashtirish, o‘qish va kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

– Texnologik innovatsiyalar: Kutubxonalarda foydalanuvchilar uchun yangi xizmatlar va resurslar, shu jumladan virtual kutubxonalar, mobil dasturlar va elektron kitoblar, amalga oshirilmoqda.

– Axborot xavfsizligi: Axborot xavfsizligi va maxfiylik masalalari kutubxonalarda alohida ahamiyatga ega, chunki ma’lumotlar aniq va xavfsiz saqlanishi kerak.

Axborot kutubxonalari tarixiy rivoji jamiyatning ma’naviy va ilmiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Ularning har bir davrdagi ahamiyati va roli kelajakda ham muhim bo‘lib qoladi. Axborot kutubxona muassasalarining evolyutsiyasi;

Traditsion AKMlar. An’anaviy AKM lar asosan kitoblar va bosma matnlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular axborotni saqlash va tarqatishning asosiy manbai bo‘lgan. Ular jamiyatning ma’naviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega edi.

2. Axborot kutubxonalarining media markazi sifatidagi roli. Axborot-kutubxonalari endi faqat kitoblar emas, balki ommaviy axborot vositalari, televizion va radiostantsiyalar, internet platformalari va media markazlarini ham taqdim etmoqda. Ular media-savodxonlikni oshirish, ommaviy axborot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish va kontentni tanlashda yordam beradi. Zamonaviy AKMlar, internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan, AKM lar o‘z faoliyatini kengaytirib, raqamli resurslar, onlayn baza va multimedia kontentni taqdim eta boshladi. Bu o‘zgarishlar AKMlarning rolini yana-da murakkab va ko‘p qirrali qildi.

3. Raqamli savodxonlik. Hozirgi kunda raqamli savodxonlik (digital savodxonlik) axborot-kutubxonalarining muhim vazifasiga aylandi. Raqamli texnologiyalarning ja-miyatda keng tarqalishi bilan axborot-kutubxonalari o‘z faoliyatini raqamli platforma-

lar orqali amalga oshirishga harakat qiladi. Buning natijasida, axborot-kutubxonalar jamiyatning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. AKMlarning media va raqamli savodxonlik markazi sifatidagi vazifalari.

– Raqamli savodxonlikni oshirish. AKM lar aholining raqamli savodxonligini oshirish maqsadida treninglar, seminarlar va master-klaslar tashkil etmoqda. Bu tadbirlar foydalanuvchilarga internetdan foydalanish, axborot xavfsizligi va raqamli manballardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

4. Axborot-kutubxonalarida media va raqamli savodxonlikka oid ta’lim dasturlari. Qator axborot kutubxonalar media va raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, master-klasslar va kurslar tashkil etmoqda. Bu dasturlar fuqarolarga internet va raqamli qurilmalardan samarali va xavfsiz foydalanishni o‘rgatadi. Shuningdek, media savodxonlikka yo‘naltirilgan loyihalar kutubxonalarda tanqidiy fikrlashni va axborotni tahlil qilishni rivojlantiradi. Media kompetentsiyalarni rivojlantirish:

– Media savodxonlik AKMlar faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishidir. AKM lar media tahlil, feyk axborotni aniqlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirmoqda.

– Axborot resurslarini taqdim etish. AKMlar foydalanuvchilarga turli xil axborot resurslarini, jumladan, elektron kitoblar, jurnallar, ba’zalar va multimedia kontentni taqdim etmoqda. Bu ularning bilim olish va o‘zini o‘rganish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

5. Axborot-kutubxonalarining ijtimoiy vazifalari. Axborot-kutubxonalar jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar uchun axborotga erkin kirish imkoniyatlari yaratishda katta rol o‘ynaydi. Ommaviy axborot vositalari, jamiyatdagi demokratik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda AKMlarning roli. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra, Milliy kutubxona qoshida 186 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari tashkil etildi. Bu markazlar aholiga zamonaviy axborot xizmatlarini ko‘rsatish, raqamli savodxonlikni oshirish va media kompetentsiyalarni rivojlantirishda faoliyat yuritmoqda. Tadqiqot natijalari. Toshkent tibbiyot akademiyasi axborot resurs markazi yoshlar orasida “Kitobxonlar haftaligi” doirasida ma’naviy ma’rifiy tadbirlar tashkil etdi. Bu tadbirlar yoshlarimizning ma’naviy savodxonligini oshirish va kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

Axborot kutubxonalar o‘zlarining asosiy vazifalarini bajarish bilan birga, media va raqamli savodxonlik markazlari sifatida jamiyatdagi axborot madaniyatini shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shayotganini ko‘rsatmoqda. Ushbu markazlar zamon talablariga muvofiq raqamli va media savodxonlikni oshirish, axborotni to‘g‘ri va samarali ishlatalishga yordam beradi. Axborot-kutubxona muassasalari jamiyatda axborot va bilim tarqatishda muhim rol o‘ynamoqda. Zamonaviy AKMlar media va raqamli savodxonlik markazlari sifatida faoliyat yuritib, aholining axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistondagi AKM lar ham bu yo‘nalishda faol ish olib borib, jamiyatning ma’naviy va intellektual rivojiga hissa qo‘shmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xakimova M. Elektron kutubxona axborotlashgan jamiyatda kutubxona mavjudligining shakli sifatida / M. Xakimova // Muhammad al-Xorazmiy avlodlari.-2024. – №1(27). – B.7-16.
2. Ruziyeva N.P. The social funktion of libraries and their role in the development of society / N.P.Ruziyeva // Научный импульс. – Международный научный журнал. – 2025. – № 31 (100), ч. 2. – С.143-146.
3. Abdullaeva M. Raqamli savodxonlik va media texnologiyalar / M.Abdullayeva. – Toshkent: Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi,2020.-176 b.
4. Yormatova N. Media savodxonlik: asoslar va trendlar / N.Yormatova.-Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,2021.-216 b.
5. Ro‘ziyeva N.P. Kutubxonalararo axborot resurslarini almashishda konsorsiumining afzalliklari / N.P.Ro‘ziyeva // Raqamlashtirish davrida kutubxona sohasi ekotizimi: Hamkorlik,Integratsiya va innovatsiyalar 1 Xalqaro ilmiy-amaliy koferensiya: to‘plam, 2-qism.–Тошкент: Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, 2024. – B.274-281.
6. Petrova A. Axborot-kutubxonalari va internet foydalanish madaniyati. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti,2020.-196 c.
7. Abdullaeva M. Raqamli savodxonlik va media texnologiyalar. Toshkent: Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi,2020.-210 b.
8. <https://www.ziyonet.uz> – ZIYO NET – Uzbekistan Education Portal (accessed: March 2025)
9. <https://www.kitob.uz> – National Electronic Library (accessed: March 2025)
10. <https://elibrary.ru> – E-LIBRARY.RU – Russian Scientific Electronic Library (accessed: March 2025)
11. <https://www.scopus.com> – Scopus – Scientific article database (accessed: March 2025)
12. <https://www.webofscience.com> – Web of Science – Scientific research database (accessed: March 2025)

*Kavilova Dilyoraxon Abdujabbor qizi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti “Vokal” kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**VOKAL-XOR SAN’ATINING INNOVATSION TARAQQIYOTIDA
YANGI PEDAGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI
JORIY ETISH ISTIQBOLLARI**

*“Musiqaning vatani yo‘q,
uning vatani butun koinotdir”.
Friderik Shopen*

Annotatsiya. Ushbu maqolada vokal-xor san’atining innovatsion taraqqiyotida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish istiqbollari haqida fikr-muhohazalar keltirilgan. Musiqa tushunchasi va uning ahamiyati, vokal-xor san’ati rivoji yo‘lidagi imkoniyatlar bayon etilgan. Juhon ta’lim tizimining o‘rni, sohada uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, g‘oya, vokal-xor san’ati, innovatsiya, taraqqiyot, pedagogika, texnologiya, metod.

Аннотация. В данной статье представлен обзор перспектив внедрения новых педагогических и информационных технологий в инновационное развитие вокально-хорового искусства. Изложены понятие музыки и ее значение, возможности на пути развития вокально-хорового искусства. Освещается роль мировой системы образования, проблемы, с которыми сталкивается отрасль и способы преодоления недостатков.

Ключевые слова. Музыка, идея, вокально-хоровое искусство, инновация, прогресс, педагогика, технология, метод.

“Musiqa” so‘zi yunoncha “mousiche” so‘zidan olingan bo‘lib, muzalar (ilhom parilar) san’ati ma’nosini anglatadi. Musiqa – insonning ichki hissiy kechinmalari, ruhiyati, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (nag‘ma)lar izchilligi va majmui vositasi-da aks ettiruvchi san’at turi hisoblanadi. Musiqani tinglayotgan inson bevosita, uning og‘ushiga, ya’ni boshqa olamga g‘arq bo‘ladi. U insonni o‘yga tomishga, fikrlashga, hayol surishga, xursand bo‘lishga, darddan forig‘bo‘lishga va kerak bo‘lsa, shirin xotiralar ila ko‘z yosh to‘kishga ham majbur qiladi [1].

Hozirgi kunga kelib, musiqaning bir necha turlari, janrlari mavjud. Xattoki, ular alohida san’at turlari sifatida ajralib chiqqan va rivojlanib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldaggi PQ-112-soni “Musiqiy madaniyatini va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa meyo-

riy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi [2].

Bu esa, davlatimizning, qolaversa, Prezidentimizning musiqaga va vokal-xor san'atiga bo'lgan e'tiborlaridan darak beradi. Xalqini ardoqlaydigan, yosh avlodning kelajagi porloq bo'lishi uchun jon kuydiradigan, uzoqni ko'ra oladigan shunday yurtboshimiz bor ekan, demak, yurtimiz tinch, osoyishta, hayotimiz ham o'z go'zalligini yo'qotmagan holda davom etadi.

Vokal-xor san'ati rivoji yo'lida shunday imkoniyatlar yaratib berilayotgan ekan, undan oqilona foydalanishimiz va ishonchni oqlashimiz zarur. Zero, musiqa ta'limining yanada gurkirab rivojlanishi soha mutahassislarining qo'lidadir. Shunday ekan, biz musiqaning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishimiz, ilmiy yangiligini yaratishimiz, o'z kasbimizga sodiq qolgan holda iqtidorli yoshlarmizni tarbiyalab, jahonga tanitishimiz, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishimiz darkor.

Shuningdek, jahon ta'lim tizimida foydalaniladigan vokal-xor san'atiga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlarni Respublikamiz ta'lim tizimiga tadbiq etish va ulardan samarali foydalanish soha rivojiga katta hissa qo'shamdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, jahon standartlariga javob bera oladigan yangi metod va texnologiyalarni ishlab chiqqan holda milliy vokal-xor san'atini yaratishimiz va o'z uslubimizni jadallashtirishda davom etishimiz darkor.

Bizning ulug' bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur, Al-Farobi, Al-Xorazmiy, Al-Buxoriylar ilg'or kashfiyotlar qilib, butun dunyoni lol qoldirishgan. Biz ularning yaratgan yetuk kashfiyotlarni birma-bir sanab o'tirishimiz shart emas, deb o'yaymiz. Bu insonlar haqida qancha gapirilsa, shuncha oz. Ularning bizga o'rnak bo'la oladigan yetuklik, matonat, donolik, ilmlilik kabi sifatlarini qalbimizga joylashimiz lozim. Ular nafaqat bitta sohada, balki bir necha sohalarda faoliyat yuritib, ixtiolar qilishgan. Biz ularga munosib avlod bo'lishimizni isbotlashimiz zarur.

Bunda bizning asosiy vazifamiz – hech bo'lmaganda, sohamiz yo'lida olib borilayotgan islohotlar bilan birgalikda qadam tashlashimiz va vokal-xor san'atini rivojlantirishimiz lozim. Vokal-xor san'atining o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgan o'rnini saqlab qolish bizning qo'limizda. Demak, biz bu masalani ko'ndalang qo'ygan holda barcha chora-tadbirlarni namoyon etmog'imiz darkor.

Birinchidan, vokal-xor san'ati mutahassisligidagi ilmiy tadqiqot ishlariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishimiz lozim. Soha mutahassislari o'z bilim, ko'nikma va tajriba-larini ilmiy ishlari orqali namoyon etishlari zarur. Chunki, yoshlarmiz ana shunday tadqiqotlar orqali vokal-xor san'atida yuz berayotgan muammolar bilan tanishib, ularni bartaraf etish yo'llarini izlashadi va ushbu san'at davomchilarini tarbiyalashda o'zlarining munosib hissalarini qo'shadilar.

Imom al-Buxoriy o'z kitoblarida keltirgan hadislarida: "Agar sen bu dunyoda yaxshi yashashni xohlasang – savdogar bo'l, agar sen u dunyoda yaxshi yashashni xohlasang – taqvodor bo'l, agar sen ikki dunyo saodatiga erishaman desang, ya'ni ham savob, ham ro'zg'or tebrataman desang – ilmli bo'l, – deb aytganlar" [3].

Demak, har bir inson ilmi, ma'rifatli bo'lishi, tinmay izlanishi, o'z kasbining fidoysi, o'zidan kelajak avlod uchun yaxshi nom qoldirishi va ibrat bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, dars o'tish jarayonida, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalan-gan holda, turli metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Talabaning kasbiga bo'lган qiziqishini so'ndirmaslik va kerak bo'lsa, har bir talabaga individual yondashish bizning vazifamizdir.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Farzandlarimizga ta'lim – tarbiya berishda bor kuch-g'ayratimizni sarflashimiz va imkoniyatlarimizni ishga solishimiz darkor.

Ulug' mutafakkir, shoир, davlat arbobi Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida mакtab, muallim, o'qitish usullari, ta'lim-tarbiya xususida pedagogik fikrlarini bayon etgan [4].

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoир va pedagog Abdulla Avloniy: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgon, birining vujudi biriga boylangan, jon ila tan kabidur", – deb bejiz aytmaganlar [5].

Yana bir muammo – uzlusiz ta'lim tizimiga alohida ahamiyat berishimiz lozim. Har bir qobiliyatli bolani maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib, to oliy ta'lim muassasasigacha bitta yo'nalishda tahsil olishga chorlashimiz darkor. Bu muammoga na-faqat pedagoglar, balki, ota-onalar ham jiddiyroq qarashsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'z kasbimizga sodiq qolgan holda, bu muammolarni bartaraf etishimiz, o'z ustimizda ishslashdan to'xtamasligimiz, ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz, mutahassisligimizga oid turli o'quv va uslubiy qo'llanmalar, darsliklar ishlab chiqishimiz kerak. Bundan tashqari, yosh avlodning komil, barkamol va yetuk inson bo'lib yetishishida o'z hissamizni qo'shmog'imiz, ularga o'z kasbiga sodiq bo'lish va yurtning ravnaqini ta'minlash maqsadida, izlanishdan to'xtamaslik va o'z ustida ishslash lozimligini uqtirish – ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Agar, inson ma'naviy boy va sog'lom bo'lsa, turli xil buzg'unchi va vayronkor g'oyalarga aldanib qolmaydi. Kitobga do'st, bilimga chanqoq, ilmli, ziyoli va zukko bo'lish har bir inson uchun ham qarz, ham farz demakdir. Zero, kelajagimiz, oilalarimiz, vatanimiz tinchligi o'z qo'limizda.

Bundan ko'riniб turibdiki, har kim o'z kasbiga vijdonan va qalban yondashsa, vokal-xor san'atining jadal rivojlanishida oz bo'lsa-da, o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik. Bizning vokal-xor san'atimiz hali ulkan marralarga erishishda davom etishi zarur. Bizning xalqimiz ma'naviy va ilmiy jihatni tomonlama juda salohiyatlari. "O'zbek" degan nomni butun dunyoga taratuvchi juda ko'p ilmiy yangiliklar va yaratilmagan kashfiyotlar hali oldinda!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi.–Toshkent: Musiqa, 2005. – B.58.
2. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2022 yil 2 fevral PQ–112 -son// Xalq so'zi.– 2022 .–3 fevr.

3. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyyati, 1991. – 362 b.
4. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 72 b.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 b.

Xodjayeva Maxfuza
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Vokal” kafedrasи dotsenti

**O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATINING BUYUK
NAMOYANDALARI IJODINI MUSIQA DARSLARIDA
O‘RGANISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI**

Annotatsiya. Ushbu maqola 20-asr o‘zbek musiqa madaniyatining yirik vakillari Ota Giyos Abdug‘ani, Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Hoji Abduaziz Abdurasulov, Tuychi Hofiz Toshmuhamedov, Yunus Rajabiy kabi mashhur musiqachilar ijodini o‘rganishning yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyatiga bag‘ishlangan. Maqolada nafaqat bastakor, hofiz – sozanda bo‘lgan bu buyuk namoyandalarning ajoyib xotira va keng bilimlarga ega salohiyatlari, ularning o‘zbek kasbiy musiqasining saqlanishi, rivojlanishi, keng tarqalishi va o‘rganilishiga qo‘sghan hissalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu buyuk musiqachilarining yorqin ijodiy yo‘li yosh avlodga axloqiy-e’tiqodiy va ruhiy tarbiya berish, musiqa ta’limini samarali olib borishda katta tarbiyaviy manba ekanligi alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: musiqiy meros, bastakorlik ijodi, xonanda, sozanda, an’anaviy musiqa, musiqa madaniyati, musiqiy ta’lim, dars mavzulari.

Abstract. This article is dedicated to the importance of studying the works of renowned musicians such as Ota Giyos Abdugani, Ota Jalol Nosirov, Domla Khalim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Khoji Abduaziz Abdurasulov, Tuychi Khofiz Toshmukhamedov, Yunus Rajabi, and other prominent figures of 20th-century Uzbek musical culture in the upbringing of youth. The article examines not only the remarkable memory and broad knowledge of these great composers, singers, and musicians, but also their contributions to the preservation, development, dissemination, and study of Uzbek professional music. It is emphasized that the brilliant creative path of these great musicians serves as an important source of moral, spiritual education for the youth and effective musical training

Keywords: musical heritage, composer’s creativity, singer, musician, traditional music, musical culture, music education, lesson topics.

Umumta’lim maktablari musika darslarida uzbek musika madaniyatining yirik namoyandalari ijodini o‘rgatish musiqiy ta’limning dolzarb masalalaridan biri. Bu namoyandalarning sermazmun, tarixiy axamiyatga to‘la ibratli hayot yo‘llari, ijodlari o‘kuvchilarni milliy musika merosi bilan tanishtirishda katta badiiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, XX asr tarixida xalk ichidan yetishib chiqqan va o‘zlarining ijro mahoratlari, murabbiyliklari bilan xalk xotirasida

o‘chmas iz qoldirgan san’atkorlarimiz ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Ulardan musikiy san’atimizning yorkin namoyandalari Ota G‘iyos Abdug‘ani, Ota Jalol Nosirov, Dom-la Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, To‘ychi Xofiz Toshmuhamedov, Ma’murjon Uzokov, Jo‘raxon Sultonov, Orif Kosimov, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiyning nomlari xalk dilidan abadiy joy olgan. Bu sozanda-xonandalar yuksak ijro makoratiga, kuchli xotiraga, katta ovoz diapazoniga va keng nafasga ega bo‘lganlar, uzok muddat tinimsiz kuylay olganlar. Ularning faoliyati 1920-1950 yillarga kelib uzining yaxshi samarasini beradi. Bu san’atkorlar iste’dodli yoshlarni tarbiyalash va milliy musika merosini saqladashda ham astoydil xizmat kilganlar. Shu yillarda uzbek musika janrlarining rivojlanishida, milliy kuy, kushik va ashulalarni sahna asarlari bilan uzviy bog‘lashda ko‘philik keksa ustozlarning hissasi benihoya katta bo‘lgan. Xususan, Buxoroda 1920 yilda ochilgan ”Shark musika maktabi” keksa san’atkor Ota Jalol boshchiligida o‘zbek va tojik xalklarining boy musika merosi – Shashmakomni targ‘ib kilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

V.Uspenskiy 1923-yili Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘aniyevlardan Shashmakomning Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Irok makomlarini yozib olishi, 1924 yili nashr etishi o‘zbek musiqa madaniyatida katta voqeа bo‘lgan. Bu davrda Ota Jalol 80 yoshda edi. Shunga karamay u Shashmaqomni mukammal bilganligi, ijro etish uslubi bilan hammani hayratda koldirgan.

O‘zbek musika san’atining yana bir ulkan namoyandasasi, o‘z zamonasining ilg‘or ziyoysi Mulla To‘ychi Toshmuhamedov o‘zbek hofizlari ichida birinchi bo‘lib o‘zi ijro etgan ashulalarini gramplastinkaga yozdirgan. To‘ychi Hofiz ijro etgan ”Bayot”, ”Ushshok”, ”Segoh”, ”Giryा”, ”Chorgoh”, ”Ko‘cha bog‘i”, ”Shahnozi Gulyor”, ”Taronai Dugoh” kabi mumtoz ashulalari o‘zbek musiqa va qo‘sik san’ati tarixida alohida o‘rin tutadi. To‘ychi Hofizning san’atda o‘z o‘rnini topgan munosib shogirdlaridan – SH.Shoumarov, Y.Rajabiy, K.Zokirovlar uning ijrochilik an’analarini ko‘p yillar davom ettirdilar.

O‘zbekiston xalq artisti, Fanlar akademiyasining o‘zbek san’ati tarixidagi *birinchi* akademigi, ”Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Yunus Rajabiy xalq musiqa boyliklarini to‘plib, 1955–1959-yillarda besh jildli ”O‘zbek xalq musiqasi” kitoblarini nashr ettirdi. ”O‘zbek xalq musiqasi” kitobining 5-jildi o‘zbek xalqining durdonasi bo‘lgan ”Shashmaqom”ga bag‘ishlangan. Unda Shashmaqomning cholg‘u va ashula bo‘limlari dagi musiqiy namunalar, turkumlar to‘liq ifodasini topadi. Yunus Rajabiyning o‘zbek xalqiga qilgan beqiyos xizmatlari haqida to‘lib toshib yosh san’atshunos olima I.Abdulaziz shunday yozadi: ”Hokisor yashagan zot bir umr ma’naviy maxzan yig‘ib, o‘zini, xalqini davlatmand etdi: san’atimiz koni ganjini ochib, avlodlar boyligiga aylantirib ketdi” (1, B.19).

O‘zbek musika madaniyati buyuk namoyandalarining ana shunday yorkin, mazmunli ijodi kelajak avlodni kamolot sari yetkazishda va ularda milliy iftixor, milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashda katta axamiyat kasb etadi. O‘zbek xalkining uzoq o‘tmishidan buyon ijro etib, turli vaziyatlar va davralarda kuylab kelinayotgan qo‘sik va yallalarini, mehnat aytimalari-yu laparlarini, maqom va katta ashulalarini, ya’ni ko‘p asrlik nodir musiqiy an’analarini XX asrda saqlab qolish va rivojlantirishda faol

ishtirok etgan bu buyuk insonlar ijodi musiqa ta'limining milliy asosini tashkil etishi juda muhim.

Bu buyuk siymolar ijodini o'rganish, uni ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga kiritish o'quvchilarda o'zlikni anglash, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, mehr-oqibat, birodarlik, poklik kabi chin insoniylik fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni xalk urf-odatlari,milliy musiqa va undagi ijrochilik san'ati an'analarini vositasida tarbiyalash masalasi bir qator musiqashunos, tarixchi, pedagog-olimlar ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbek zamonaviy musiqashunosligrining ko'zga ko'ringan yirik olimlari I.Rajabov, F.Karamatov, R.Yunusov, O.Ibragimov, T.G'urbekov, R.Abdullayev, A.Jabborov va boshkalar tadqiqotlari maxsus va umumiy ta'limda milliy musiqiy san'at qadriyatlarini adolatli baholash, kayta tiklash masalalarini yoritishga bag'ishlangan.

Umumta'lim maktablari uchun yaratilgan musiqa darsliklarida hozirgi milliy musiqa san'atimizning asosiy mazmuni muayyan darajada qamrab olingan. Ayniksa, bu borada 2020- yilda nashr etilgan "5-sinf uchun musika" (A.Mansurov, D.Karimova), 2017-yilda nashr etilgan "b-sinf uchun musika" (S.Begmatov) va "7-sinf uchun musika" (O.Ibragimov,J.Sadirov) darsliklarini alohida ko'rsatish mumkin.

5–7-sinflarga kelib o'kuvchilarda ijodiy faollikka ichki ehtiyoj kuchayadi, musiqa asarlarini hissiy va ongli idrok eta olishga imkon hosil bo'ladi. O'smirlar o'z dunyoqarashlari, tarixiy, adabiy va badiiy bilimlari doirasida fikr va mulohazalarini o'kituvchiga dadil va ravon bayon eta oladilar. O'z istak va xohishlariga mos keluvchi musikiy faoliyatga qatnashish istagi ortadi. O'kituvchi o'kuvchilarning ushbu ijobiy xususiyatlaridan foydalanib,ularga milliy musiqa san'ati,uning qonuniyatları va badiiy-g'oyaviy jihatlarini chuqur va ongli tushunib olishlariga yordam berishi lozim.

Biz 6- va 7-sinflarda musika madaniyati darslarining dastur asosidagi yil va chorak mavzulari va ularda milliy musika san'atining yoritilishiga e'tiborni karatdik. Dastur mavzulari asosida beriladigan ma'lumotlar o'kuvchilarga ustozona musika an'anasi ha-kida, uning xalk musikasidan farqli jihatlari, ularning shakli, mazmuni, ijro uslublari haqida 6sinfda umumiy tushunchalar sifatida berilsa,7-sinfda har bir mavzu anchayin kengaytirilgan holda yoritiladi.

7-sinfga kelib o'kuvchilar dastur bo'yicha to'rt mahalliy uslub va unga kiruvchi janrlar, ustozona musiqa hamda o'zbek sozanda va xonandalari bilan tanishadilar.Har bir mahalliy uslub o'z xususiyati va an'analariga, xususan, maqom va maqom yo'li ijrochiligi an'analariga ega ekanligi dars mavzularining asosiy mazmunini tashkil etdi.

Ustozona musiqa mohiyatan mumtoz ahamiyatga ega bo'lgan badiiy yetuk barkamol asarlardan iborat. O'zbekiston sarhadida ustozona musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analariga boy ega ekanligi hamda ularning o'zaro o'xshash va o'ziga xosligi hakida tasavvur, bilim, tushuncha va malakalar o'quvchilarga berilishi lozim. Dasturda berilgan asarlarni tinglash, tahlil qilish orkali bu asarlarning usul va ijro uslubi, musiqiy ohangining o'ziga xosligidan ularning qaysi vohaga taalluqlilagini bilib olishlari quyi sinflarda olingan bilimlarning qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

O‘kuvchilar hayotiy tajribalarining boyligi va dunyoqarashlarining kengayganligi e’tiborga olingan holda o‘rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy jixatdan tobora jiddiylashib boradi. Bunda musiqa ta’limining milliy asoslari muhim axamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga bu bilimlarni berishda e’tiborni XX asr buyuk namoyandalar – Ota G‘iyos Abdug‘ani, Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Hoja Abdulaziz Abdurasulov, To‘ychi Hofiz Toshmuhamedov, Y.Rajabiy faoliyati va ijodlari, xalk san’atkorlarining hayot yo‘lidagi ajoyib lavhalariga alohida e’tibor qaratish, bu ijodkorlarning ijro repertuariga kirgan asarlarni tinglab, tahil kilish *bahs-munozara*, *badiiy tahlil*, *aqliy hujum*, *tafovutli taqqoslash* kabi qator samarali usul va metodlardan foydalanishni taqazo etadi.

Xulosa kilib aytish lozimki, o‘zbek musika madaniyati buyuk namoyandalarining yorkin, mazmunli ijodi kelajak avlodni kamolot sari yetkazishda va ularda milliy iftixor, milliy gurur tuyg‘ularini tarbiyalashda katta badiiy-pedagogik ahamiyatga ega.

XX asrda O‘zbekiston ma’naviyatining ravnaqiga katta hissa qo‘sghan mashhur madaniyat va san’at arboblari ijodini keng va har taraflama o‘rganish orqali ma’naviy-madaniyat sohasidagi yutuqlarimizni yosh avlodga singdirish, “ularni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish, [2]” maktabda musika ta’limi va tarbiyasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulaziz Ioda. Arjumand. – Toshkent: Sharq, 2012. – 272 b.
2. Umumiyl o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi (musiqa, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya). – Toshkent: Sharq, 1999. – 256 b.
3. Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional muzika asoslariga kirish. – Toshkent:O‘qituvchi, 1983. – 64 b.
4. Ibrohimov O. Musiqa: 7-sinf uchun darslik / O. Ibrohimov , J.Sadirov. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2017.
5. Begmatov S. Musiqa: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2017.

*Dusyorova Klara Narmuminovna
Qarshi davlat universiteti
“Yangi o‘zbek adabiyoti va dabiyot nazariyasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

YOSHLAR TARBIYASIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. O‘smirlilik-shaxs kamolotinihg va rivojlanishinihg muhim bosqighidir. Bu qadam bolalikdan mustaqil va mas’uliyatli,katta yoshlar safiga o‘tish,jismoniy kamolotni yakunlash va ijtimoiy kamolotga erishish bosqichidir.

Ushbu yosh davrinihg yangitdan shakllanishi,shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashidir.Bu dunyoqarash va hayotiy qadriyatlar tiziminishakllantirish bilan bog’liq.O‘smirlilik davri bilimlar hajminihg ortishi,aqliy dunyoqarashnihg kengayishi,nazariy qiziqishlarnihg paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu maqolada shaxs kamolotini rivojlantirish hamda yoshlarning internetdan to‘g‘ri va samarali foydalanishi hamda tarmoqdan foydalanishda axborot xavfsizligini ta’minlashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan chora-tadbirlar va bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Asr, intellektual, qonun, qaror, axborot, internet, global tarmoq, portal, kutubxona, ZiyonET, ma’lumot, Google, virtual tahdid

Abstracnt. Adolescence is an important stage of personal maturation and development. This stage is the transition from childhood to independent and responsible adulthood, the completion of physical maturity and the achievement of social maturity.

The central new formation of this age period is personal and professional self-determination. This is associated with the formation of a worldview and a system of life values. Adolescence is characterized by an increase in the volume of knowledge, the expansion of intellectual worldview, the emergence of theoretical interests. This article discusses the measures that should be taken into account in developing personal maturation and ensuring the correct and effective use of the Internet by young people and information security when using the network, and the priority tasks that should be implemented in this regard.

Key words: Century, intellectual, law, decision, information, internet, global network, portal, library, ZiyonET, data, Google, virtual threat.

Yurtimizda sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar keng ko‘lamda aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar asosida amalga oshirilib borilmoqda. “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-ax-

loqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ‘ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”-gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo‘ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo‘luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning ta’qilishni belgilab qo‘yilgan. 2014-yilda “Bolalarni, ularning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi va 2017 yil 8 sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Global axborot makonida ishonchli qalqon sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat ta’lim axborot tarmog‘i «ZyonET» ga asos solinganligiga qariyb 20 yilga yaqinlashdi. O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish borasida ko‘plab sezilarli ishlar olib borildi. «ZyonET» portalini rivojlantirish doirasida “Kutubxona” bo‘limida o‘tgan vaqt mobaynida o‘zbek, rus, qoraqalpok, qozoq, tojik, ingliz va boshqa tillarda yozilgan iktisosdiyot, fan, madaniyat, san’at va jamiyat hayotining turli sohalari buyicha yoshlarga mo‘ljallangan 59868 dan ortiq axborot resurslari jamlangan. Portal 2013-yildan boshlab ingliz tili o‘rganuvchilar uchun bepul repetitor sifatida xizmat qilib kelmoqda. Portalda “Picture dictionary” materiallari joylashtirib kelinmoqda. Uyali aloqa vositalari uchun “E-darslik” mobil dasturi ishga tuşirildi. O‘quvchilarga mobil qurilmalar yordamida elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Xavfsiz internet dorasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, 2015-yil-dayoq UZ xududidagi faol domenlar soni 19 mingdan ortiqni, uMail.uz elektron pochta xizmatida ochilgan pochta qutilaring soni 91,3 mingni tashkil etgan edi. Hozirgi kunda xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish umumiy tezligi 12000 Mbit/s dan ziyodni tashkil etmoqda. 2014-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-noyabrdagi PQ-2069-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi investitsiya Dasturi” ga asosan, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qomitasi tomonidan 228.01 mln. AQSH dollari miqdoridagi 9 ta loyiha amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son farmoni ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi qabul qilingan.

Bugungi kunda dunyoda qadriyatlar almashinushi, integratsiyalashuv, globallashuv, madaniyatlar aralashuv, sintezlashuv, jarayoni kechayotgan bir paytda, ma’naviy qadriyatlarning, milliy tarbiyaning o‘rnini masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda ko‘plab tadqiqodchilar islohotlarida kishilar ongini programmalashtirish, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperalizim kabi iboralar tobora keng qo‘llanilmoqda. Unda yangi madaniy tamoyillarga va hukmron madaniy tamoyillarga ko‘r-ko‘rona ergashish, hukmron madaniy axloqqa bo‘ysunish maylini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Achinarlisi shundaki, bunday say harakatlar nafaqat kattalar, birinchi galda yoshlar ongi va qalbini zabt etishga qaratilgan. Farzandlarimiz ma’naviy dunyosini egallash borasida barcha mavjud vositalar qo‘llanilmoqda, yangi texno-

logiyalar ishlab chiqilmoqda. Yoshlar ong-u shuurini egallash qurollaridan biri global tarmoq hisoblanib, u boshqa vositalarga qaraganda yetakchilik qilmoqda. Yoshlarimiz tarbiyasiga bevosita va bilvosita tahdid solmoqda. Xavf-xatarning hosilasi raqamli tah-didning turli xil shakllari beozor ko‘rinishda hayotimizning ko‘p jabhalarida namoyon bo‘lmoqda.

Bugun axborot kommunikatsion texnologiyalari -hayotimizda mustahkam o‘ringa ega, kompyuter savodxonligi ko‘rsatkichi esa ko‘p hollarda insонning yuqori saviyasi-ni belgilab beradigan omillardan biriga aylanib bormoqda. Oilada, jamiyatda, fuqarolar oldida, ota-onalarning raqamli kompetentlik mavsuliyatini yanada kuchaytirish lozim-ligini ta’kidlamoqda.

Agar o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg‘ulot-lari musiqa tinglash va teleko‘rsatuvalar ko‘rish bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda esa raqamli ma’lumotlar bilan muloqot qilish va ularni muhokama qilish ularning eng sevimli mashg‘ulotiga aylangan. Global dunyodagi axborotlar – yosh avlodni avvalgi qiziqishlarni hayotida siqib chiqarmoqda. Zamonamiz yoshlarning aksariyati o‘z qiziqish va sevimli mashg‘ulotlari haqida so‘z yuritganda sport, do‘stlar bilan suhbat-lashish, ma’naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda virtual makonlarga sayr-sayohat qilishni birinchi o‘rinda tilga oladi. Ularning bu virtual makondagi soni soat sayin oshib bormoqda, o‘zlarinng turli xil ehtiyojlarini shu makonlarda qondirmoqdalar. Axborotga bo‘lgan chanqoqlik, ilmga bo‘lgan intilish, sirlariga sirdosh do‘stlarni, ya’ni o‘zlarining raqamli dunyolarini yaratib bo‘lishgan. Aksariyat hollar-da bu holat biz ota-onalarni farzandlarimiz dars, uy vazifasini tayyorlayapti, zamo-naviy tezkor bilimlarni o‘z vaqtida olyapti degan bir tomonlama fikrga kelishimizga sabab bo‘lmoqda.

Qaysidir jihatdan bu yaxshidir, ammo masalaning boshqa tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim bo‘ladi. Alovida e’tibor talab etadigan jihat – global tarmoq orqali vujudga keladigan xavf-xatar tahdid (virtual tahdid) deb nomlanadi.

Hozirda muktab yoshdagi bolalar muktab yon atrofidagi kafe yoki klublarga kirib, Internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyida ham Internetga ulanish imkonini bo‘lishini hohlashi tabiiy. Lekin mutaxassislarining fikricha, yoshi o‘nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda Internetdan foydalanish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy, tahliliy fiklash va shu asosda ma’lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda “filtrlay” olish qobiliyatiga ega emas.

Biz real hayotda yosh bolalarimizni asrab avaylashni odat qilganmiz. Biroq ular virtual olamda ham turli xavf-xatarlarga uchrab qolishlari mumkinligi borasida hamma vaqt ham qayg‘urmaymiz. Har bir havola yoki ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlar ortida bolalarni turli xatarlar kutishi mumkin. Bular pornografiya, pedofiliya, diniy oqimlar yoki o‘z joniga qasd qilishni o‘rgatuvchi guruuhlar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Yosh bolalarni bunday xavf xatarlardan ihotalash lozim. Buning uchun dastlab uyda kompyuterni risoladagidek qilib o‘rnatish shart. So‘nggi vaqtarda yosh bolalari bir bur-chakda miq etmay o‘tirishlari uchun ota-onalar tomonidan ularning qo‘llariga aypad, noutbuk yoki smartfon kabi qimmatbaho o‘ynichoqlarni tutqazish odat bo‘lgan.

Kompyuterni kattalar nazari doim tushadigan joyda o‘rnatish lozim. Uni shunday joyda qo‘yish kerakki, uzoqdan turib bo‘lsada, bola internetda nimalarni izlayotganini kattalar kuzata olsinlar.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib-ulg‘aygan ko‘plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko‘proq, deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg‘itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodi etmasligi (kompitentligi pastligi) aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo‘yish ham to‘g‘ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e’tiborga loyiq: aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda bolalarda kibernetik do‘stiga nisbatan munosabat shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov aytganidek, “Jahon axborot maydonida tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yanmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz”. Demak, insonning axborot sohasidagi xavfsizligini ta’minalash uchun fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya’ni ularga axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Axborotni tanlash va undan unumli, to‘g‘ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog‘liq. Bu masalada ota-onalar oldiga “Men farzandimga axborotni tanlay olishni o‘rgata olamanmi, undan qay maqsadda, qanday foydalaniladi, qachon, shu axborot to‘g‘rimi?” degan savollar bilan murojat etish o‘rinlidir. Aslida qanday yo‘l tutish kerak?

Mashhur Google qidiruv tizimiga “Bolalar uchun saytlar” topshirig‘ini bersak, 150 ming dan ortiq o‘zbek tilida, 23 milliondan ortiq rus tilida, 1 milliardga yaqin ingliz tilida ilovalarni topadi. Ulardan keraklisidan qayerda, qanday foydalanish foydalanuvchi hohishiga qoladi.

Statistik ma’lumotlariga ko‘ra aksariyat ota-onalar farzandlarini internetda ishlashini xavfsiz deb bilishar ekan. Hozirgi yoshlarning aksariyati Internet va kompyuter texnologiyalarni ota-onalaridan yaxshiroq bilishi aniqlanmoqda. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo‘lgan «filtrlash» dasturini o‘rnatib qo‘ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishgan. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyat qismi, aniqrog‘i, 90 foizga yaqini farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtini chog‘ o‘tkazadi. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi do‘stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish

maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni real hayotda davom ettirar ekan.

Albatta global tarmoqda bolalarning xavfsizligi uchun birinchi navbatda ota-onalar javob beradi. 92% ota-onalar bolalarni internetda ishlashi uchun aniq ko'rsatmalar ber-ganligini ta'kidlassa, 34% bolalar ota-onalari ular uchun hech qanday foydalanish uchun to'siq yoki meyorlar belgilamaganliklarini aytishgan. «EU Kids Online» loyihasining onlayn-resurslar dorasida o'tkazilgan taddiqotlar shuni ko'rsatganki, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan axborotlarni mavjudligi «YouTube»da (32%)ni, veb saytlarda (29%)ni, sotsial tarmoqlarda (13%)ni va o'yinlarda (10%)ni tashkil etgan. «YouTube»dagi video lavhalarning (30%) shafqatsizlik, (27%) pornografiya va (30%)dan ortig'i nomaqbul kontentlardan iborat ekanligi, sotsial tarmoqlarda-gi xavfni (48%)ni nojoiz harakatli va (30%) nomaqbul kontentlardan, veb saytlardagi axborotlarning (43%) pornografiya, o'yinlarda (39%) zo'ravonlik, shafqatsizlik bilan yoritilgan sahnalar mavjudligi aniqlangan.

Internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremik xarakter-dagi sekta va uyushmalar saytlarni foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagи saytlarga yetaklashi, bu veb saytlarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib keli-shi tabiiy. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylor onlayn savdolarida qatnashib kichik o'yinchoqdan tortib, eng so'nggi rusumdagи avtomobil sotib olish huquqiga ham ega bo'lmoqda. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Virtual olamda kechayotgan zo'ravonlik, behayolik, o'g'rilik, buzuqlik ertaga real hayotga ko'chmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Internet kafelarda, uy-dagi kompyuterlarda saytlarni "kovlayotgan" bolalarning ota-onalari o'ylab mulohaza yuritsalar, farzandlarining tarbiyasiga ozroq vaqt ajratsalar yaxshi bo'lar edi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, buning uchun ota-onalarning o'zлari kompyuter bo'yicha savo-dxonliklarini yanada oshirishlari foydadan xoli bo'lmas edi. Bu farzandlariga to'g'ri yo'l ko'rsatishga yordam beradi. Chunki, yuqoridagi holatlardan nafaqat o'zлari, balki butun bir jamiyat zarar ko'radi.

Ota-onalarga internetdan foydalanayotgan farzandlari uchun tavsiyalar:

- Bolalar internetga ota-onalari bilan birga tashrif buyursin, ularni tarmoqdagi tajribalarini o'rtoqlashishiga undang, rag'batlantiring.
- Bolalarga ularni internetda nimadir bezovta qilsa, ichki hissiyoti (intuitsiyasi) ga ishonishga va ota-onalariga ma'lum qilishga o'rgating.
- Bolalarga shaxsiy ma'lumotlar (uning ismi, elektron pochta manzili, telefon raqami, turar joy manzilidan) dan foydalanmay, ro'yxatdan o'tish nomi hamda shaklini to'ldirishni talab etadigan dasturlarda ro'yxatga o'tishga yordam bering. Buning uchun maxsus elektron pochta ochish maqsadli.
- Bolalarga hech qachon o'z turar joy manzili, telefon raqami yoki boshqa shaxsiy axborot, masalan o'qish joyi, sayr joylarini notanish kishilarga bermasligini qattiy talab qiling.

- Bolalarga internetda ham, real hayotda xam yaxshi va yomon farqi bir xil bo‘lishini tushintiring.
- Bolalar internetda tanishga insonlar bilan real hayotda ota-onalarining nazoratisiz uchrashishlari mumkin emas.
- Bolalarga internetda o‘qigan yoki ko‘rgan ma’lumotlarining barchasi to‘g‘ri emasligini o‘rgating. Ular ota-onalaridan muhokama so‘rasinlar.
- Ota-onalar farzandlaringiz qaysi manzillarga kirayotganini maxsus dasturlar yordamida nazorat kilishni yo‘lga qo‘ying.
- Ota-onalar farzandlaringizga boshqaning mulkini hurmat qilishni o‘rgating. Noqonuniy ko‘chirib olingan ma’lumotlar – o‘g‘rilik ekanligini tushintiring.
- Ota-onalar farzandlaringizni boshqalarni hurmat qilishga, ularni virtual olamdan ham yaxshi muomala madaniyatiga amal qilishga o‘rgating.

Internetdan oqilona foydalanish, oqni qoradan ajrata olish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada taqqlash yo‘lidan borish kutilgan samara bermaydi. Chunki biror nimani ta’qilashdan avval unga muqobil boshqa yaxshi narsani taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar farzandlariga berayotgan tarbiyada yuqoridagi fikr-mulohazalar qanchalik muhim ekanligini tushunib yetishlari va hozirgi vaqtda axborotning xavfsizligiga e’tibor berib, ish olib borishlari lozim. Chunki mukammal tarbiya uchun zamonaviy bilimlarni bilish, ulardan samarali foydalanish bugungi kunda asosiy ishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Global tarmoqning yoshlar ma’naviy-ahloqiy tarbiyasiga ta’sirini kamaytirish, oldini olish uchun, ota-onalar oldida raqamlı kompetentlik darajasini oshirish masalasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Jamiyatdagi barcha fuqarolar, o‘zlarida raqamlı tahdidiga javob bera oladigan, ma’naviy immunitetni shakllantirishlari davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2020-yil 14-dekabr 781-sonli // [https://nrm.uz/contentf?doc=645164_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_vazirlar_mahkamasining_](https://nrm.uz/contentf?doc=645164_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_vazirlar_mahkamasining_https://nrm.uz/contentf?doc=645164_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_vazirlar_mahkamasining_)
2. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘grisida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2017-yil 13-sentabr PQ-3271 sonli// Xalq so‘zi. – 2017. – 14-sent.
3. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yana da takomillashtirish to‘g‘risida : O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019-yil 7-iyun 4354-sonli // Xalq so‘zi. – 2019. – 8-iyun.
4. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish -halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir: Prezident SH. O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari vakiillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. – 2017. – 4-avg.

5. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi 2017 yil 12 yanvar // Xalq so‘zi. – 2017. – 13-yanv.

6. Munavvarov A. Pedagogika : o‘quv qo‘llanma / A.Munavvarov. Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 200 b.

7. Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq / Abdulla Avloniy Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 31 b.

Sharipova Dilbarxon Atajanovna

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Nukus filiali “Kutubxona faoliyati” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI MEDIA VA RAQAMLI SAVODXONLIK MARKAZI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola axborot-kutubxona muassasalarining zamonaviy rolini o‘rganadi, xususan, ularning media va raqamli savodxonlik markazi sifatidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada kutubxonalar faqat axborot manbalarini saqlash joylari bo‘lmasdan, foydalanuvchilarni media va raqamli savodxonlikka o‘rgatish markazlariga aylanishi kerakligi ta’kidlanadi. Kutubxonalarning media savodxonligi va raqamli ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan xizmatlaridan, shuningdek, innovatsion texnologiyalarning kutubxonalarga integratsiya qilish jarayonlaridan so‘z boradi. Maqola dunyo bo‘yicha kutubxonachilikda joriy etilgan yangi metodlar va ularning ijtimoiy rivojlanishga qo‘sishgan hissasini ko‘rsatib beradi. Ushbu tahliliy ish ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega bo‘lib, kutubxonalar tizimidagi zamonaviy o‘zgarishlarni, axborot texnologiyalarining roli va jamiyatda raqamli savodxonlikni rivojlanirishdagi o‘rinlarini keng ko‘lamda o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: axborot-kutubxona muassasalari, media savodxonlik, raqamli savodxonlik, innovatsion texnologiyalar, kutubxona xizmatlari, raqamli ta’lim, multimedia resurslari.

Abstract. This article explores the contemporary role of information and library institutions, particularly analyzing their significance as centers of media and digital literacy. The article emphasizes that libraries should not just be places for storing information sources, but should become centers for educating users in media and digital literacy. Library services aimed at improving media literacy and digital skills, as well as the integration of innovative technologies into libraries, will be discussed. The article shows new methods introduced in librarianship worldwide and their contribution to social development. This analytical work has scientific and methodological significance and extensively studies modern changes in the library system, the role of information technologies and their place in the development of digital literacy in society.

Keywords: information and library institutions, media literacy, digital literacy, innovative technologies, library services, digital education, multimedia resources.

Axborot-kutubxona muassasalari tarixan faqat kitob va axborot manbalarini saqlash va taqdim etish joylari sifatida faoliyat yuritgan. Biroq, axborot va texnologiyalar sohasidagi tezkor o‘zgarishlar, raqamli resurslarning kengayishi, shuningdek, jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojining o‘sishi kutubxonalarning yangi roli va vazifalarini shakllantirdi. Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat an’anaviy kitoblar va jurnallarni saqlash, balki foydalanuvchilarni media va raqamli savodxonlikka o‘rgatish, axborot

va texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etish markazlariga aylanishi kerak [3, 379–386].

Raqamli savodxonlik, ya’ni raqamli texnologiyalarni samarali va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalari, zamonaviy jamiyatda ta’lim va ishbilarmonlik muvaffaqiyati uchun muhim omilga aylangan. Shu sababli, kutubxonalar raqamli ta’lim dasturlari, media savodxonlikni rivojlantirish va foydalanuvchilarni axborot texnologiyalariga o‘rgatishda yetakchi o‘rin tutmoqda.

Ushbu maqola axborot-kutubxona muassasalarining zamonaviy rivojlanishidagi yangi yo‘nalishlarni ko‘rib chiqadi, xususan, kutubxonalarning media va raqamli savodxonlik markazlari sifatidagi rolini tahlil qiladi. Maqolada kutubxonalarning innovatsion xizmatlari, raqamli va media savodxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, global tajribalar va yangi texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilinadi.

Kutubxonalarning an’anaviy roli faqat kitoblar va axborot manbalarini saqlashdan iborat bo‘lgan bo‘lsa-da, zamonaviy dunyoda ular kengaygan xizmatlar tarmog‘ini taqdim etmoqda. Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat axborot manbalarini taqdim etish, balki foydalanuvchilarga media va raqamli savodxonlikni oshirishga yordam berish, ularga axborotni tanqidiy qabul qilishni o‘rgatish markazlariga aylangan.

Kutubxonalar uchun media savodxonligi rivojlantirish hozirgi kunda muhim vazifaga aylangan. Bu, foydalanuvchilarga turli media manbalaridan (gazeta, televide niye, internet, ijtimoiy tarmoqlar) axborot olishda tanqidiy yondashuvni o‘rgatadi. Media savodxonligi, axborotni tahlil qilish va ishonchli manbalardan foydalanishni o‘rgatish orqali jamiyatda axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini oshiradi. Kutubxonalar, shuningdek, foydalanuvchilarga media resurslar orqali o‘qish va ma’lumotni izlash qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi [6, 100–103].

Raqamli savodxonlik bu zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli yashash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalardan biridir. Raqamli texnologiyalarni samarali va xavfsiz ishlash, onlayn ma’lumotlarni izlash, axborot xavfsizligini ta’minalash – bularning barchasi raqamli savodxonlikka kiradi. Kutubxonalar foydalanuvchilarga kompyuter texnologiyalari va internet xavfsizligi bo‘yicha treninglar va kurslar taqdim etish orqali raqamli savodxonlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu xizmatlar kutubxonalarni raqamli ta’lim markazlariga aylantiradi, foydalanuvchilarga zamonaviy axborot va texnologiyalardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Kutubxonalar nafaqat kitoblar va jurnallar bilan ta’minalash, balki foydalanuvchilarni raqamli va media savodxonlikka o‘rgatish bo‘yicha yangi xizmatlar taqdim etadi. Bugungi kutubxonalar ko‘plab innovatsion xizmatlar bilan ta’minalangan bo‘lib, bu xizmatlar foydalanuvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatadi.

Kutubxonalar foydalanuvchilarga kompyuter savodxonligi, internet xavfsizligi, onlayn ma’lumot qidirish va boshqa raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun kurslar va treninglar o‘tkazmoqda. Masalan, foydalanuvchilar uchun raqamli resurslarga kiring, elektron kitoblar va ma’lumot bazalaridan foydalanish bo‘yicha yordam beradigan kurslar taqdim etiladi. Bunday dasturlar kutubxonalarning ta’lim markazlari sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Kutubxonalar foydalanuvchilarga multimedia resurslarini taqdim etmoqda. Videolar, audio materiallar, interaktiv dasturlar va boshqa multimedia vositalari yordamida axborot olish va o‘rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi. Bu xizmatlar kutubxonalarni zamonaviy ta’lim va axborot tarqatish markazlariga aylantiradi.

Kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni yanada kuchaymoqda. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlar bazalari kabi yangi texnologiyalar kutubxonalarga foydalanuvchilarga yanada samarali xizmatlar ko‘rsatishga imkon beradi.

Kutubxonalarda sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar foydalanuvchilarga axborotni tezda izlash, yangi ma’lumotlarni topish va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos xizmatlarni taqdim etishda yordam beradi. Ma’lumotlar bazalari yordamida kutubxonalar ko‘plab ilmiy va ma’lumot resurslarini foydalanuvchilarga taqdim etmoqda [1, 104-106].

Bulutli texnologiyalar kutubxonalar uchun resurslarni saqlash va foydalanuvchilar bilan ulashishning yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu texnologiyalar yordamida kutubxonalar onlayn kitoblar, ma’lumotlar va boshqa resurslarga masofadan kirishni ta’minlaydi, shuningdek, foydalanuvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatadi.

Dunyo bo‘yicha kutubxonalarda innovatsion xizmatlar va yondashuvlar joriy etilmoqda. Boshqa mamlakatlarda kutubxonalarning media va raqamli savodxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni kengaymoqda. Misol uchun, Skandinaviya davlatlarida kutubxonalar raqamli savodxonlik va media savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha yirik dasturlarni amalga oshirishmoqda. Shu bilan birga, AQSh da kutubxonalar foydalanuvchilarini axborot va raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish uchun yangi xizmatlarni joriy etmoqda.

Kutubxonalarning zamonaviy roli faqat axborot manbalarini saqlash va taqdim etish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda kutubxonalar raqamli savodxonlikni rivojlantirish, foydalanuvchilarga axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish, media va raqamli xizmatlar ko‘rsatish markazlariga aylanishi kerak. Bu jarayon kutubxonalarni jamiyatda axborot va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan biriga aylantiradi.

Ushbu maqola axborot-kutubxona muassasalarining zamonaviy rivojlanishidagi yangi yo‘nalishlarni, xususan, kutubxonalarning media va raqamli savodxonlik markazlari sifatidagi o‘rnini tahlil qildi. Kutubxonalar bugungi kunda faqat kitoblar saqlash joylari bo‘lmasdan, balki foydalanuvchilarni media va raqamli savodxonlikka o‘rgatish, axborot va texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli va media savodxonlikni rivojlanishda kutubxonalar innovatsion xizmatlar va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va ma’lumotlar bazalari kutubxonalarni foydalanuvchilarga yanada samarali xizmatlar ko‘rsatishga tayyorlayapti. Shu bilan birga, global tajribalardan foydalanish va kutubxonalarning raqamli ta’lim markazlari sifatida rivojlanishi jamiyatda raqamli savodxonlikni oshirishda katta ahamiyatga ega.

Kutubxonalar jamiyatda o‘zgarishlarga moslashib, axborot va raqamli texnologiyalarni tarqatishda o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi. Kelajakda kutubxonalar foydalanuvchilarga yanada samarali xizmatlar ko‘rsatib, zamonaviy axborot jamiyatining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurashidovna U.D. Elektron kutubxonaning shakllanishi va tuzilishi // Sustainability of education, socio-economic science theory. – 2025. – №3(26). – P.104-106.
2. Keldibekova S. Jamoat kutubxonalari va aholining axborotga bo‘lgan extiyoji / S.Keldibekova, N. Ro‘ziyeva // Exploring new horizons in education and academic research. – 2025. №1(1). – P.597-601.
3. Mannonov Y.A. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hal qilish bo‘yicha asosiy vazifalar // Miasto Przyszlosci. – 2022. – №28. – P.379-386.
4. Ubaydullayeva D. Kutubxonalar uchun texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘llab quvvatlash // World of Philology. – 2024. – №3(4). – P.45-48.
5. Yoqubjanova Y. Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-ma’lumot xizmatini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi (Rossiya kutubxonalari misolida) // Science and innovation. – 2022. – Series B. – Vol.1, Issue 8 – P.1730-1733.
6. Shahzodaxon A. Milliy axborot resurslari bilan ishlash va ularning hayotimizdagи o‘rni / A.Shahzodaxon, A.Ilhomjon // Izlanuvchi. – 2024. – Vol. 1, №1. – P.100-103.

Исмоилов Эрадж,

Таджикский государственный институт культуры
и искусства имени Мирзо Турсунзаде
Душанбе, Республика Таджикистан

**ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМ ИННОВАЦИОННОГО
МЕНЕДЖМЕНТА КАК ВАЖНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ
НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОТЕЧЕСТВЕННОМ
БИБЛИОТЕЧНОМ ДЕЛЕ**

Аннотация: Статья посвящена важным вопросам инновационного менеджмента, при этом автор отметил, что он является функциональным направлением менеджмента и использует специальные формы управления инновационным направлением библиотеки. Это самостоятельная область научных знаний и профессиональной деятельности. По мнению автора, инновационный потенциал библиотекаря можно трактовать как совокупность способностей и возможностей человека, которые можно использовать в процессе инновационной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: менеджмент, инновация, специалист, библиотекарь, проект, библиотека, методология, технология.

Annotation: The article is devoted to important issues of innovation management, while the author noted that it is a functional area of management and uses special forms of managing the innovative direction of the library. This is an independent area of scientific knowledge and professional activity. According to the author, the innovative potential of a librarian can be interpreted as a set of human abilities and capabilities that can be used in the process of innovative professional activity.

Key words: management, innovation, specialist, librarian, project, library, methodology, technology.

Инновация как экономическая категория рассматривается как объект управления субъектов, влияющих на процесс создания, внедрения и развития инноваций, а также экономические связи процесса инновационной деятельности.

Инновационный менеджмент – функциональное направление менеджмента, учитывающее специфику инновационной деятельности библиотеки, использующее специфические формы управления. Это самостоятельная область научных знаний и профессиональной деятельности [1]. В большинстве учебников по теории инновационного менеджмента инновационный менеджмент определяется как совокупность принципов, форм, методов, способов и средств научно обоснованного управления инновациями в направлении их создания, развития и расширения на рынке. цел получения прибыли. Из этого следует, что инновационный менеджмент можно объяснить двояко:

- 1) как научную область менеджмента;
- 2) как практическое направление деятельности.

Несмотря на то, что понятия и правила инновационного менеджмента стали использоваться в научной литературе библиотечного дела лишь с начала 1990-х годов, изучение и рассмотрение проблем адаптации (оптимизации), автоматизации, научно-технического прогресса продолжалось лишь с начала 1990-х годов. период, когда «инновационный менеджмент» вошел в сферу библиотечного дела». была опубликована на страницах профессиональной прессы [2, с. 54–56].

- Moliyaviy resurslar yetishmasligi: Raqamlashtirish jarayoni yuqori texnologiyalarni va zamonaviy asbob-uskunalarni talab qiladi, bu esa katta mablag‘larni talab etadi. Aksariyat madaniy muassasalar va davlat tashkilotlarida yetarli moliyaviy resurslar yo‘q.

- Texnik salohiyatning cheklanganligi: Raqamlashtirishning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun nafaqat ilg‘or texnologiyalar, balki yuqori malakali mutaxassislar ham zarur. Hozirgi kunda O‘zbekistonda raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar soni cheklangan, bu esa jarayonni sekinlashtiradi.

- Axloqiy va huquqiy masalalar: Madaniy merosning raqamlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy masalalar ham mavjud. Xususan, ba’zi madaniy ob’ektlarning raqamli nusxalarini yaratish va tarqatish, ularning haqiqiy egalarining ruxsatisiz amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston madaniy merosni raqamlashtirish bo‘yicha kelajakda bir qator istiqboli yo‘nalishlarga ega. Bular orasida:

- Davlat tomonidan raqamli infratuzilmaning rivojlanishi: Raqamlashtirishda barqaror, o‘zaro integratsiyalashgan tizimlarni yaratish. Bu tizimlar, o‘z navbatida, milliy madaniy meros ob’ektlarini saqlash va ularni xalqaro miqyosda ommalashtirish imkonini yaratadi.

- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO va boshqa madaniy merosni saqlash bo‘yicha ish olib boradigan tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilishni davom ettirishi zarur.

- Raqamli platformalar orqali o‘quv jarayonini mustahkamlash: O‘zbekistonning madaniy merosini o‘rgatish va tarqatish uchun raqamli platformalar va virtual sayohatlar yordamida nafaqat tarixiy ob’ektlarni, balki xalq an’analari, san’at asarlarini ham keng ommaga yetkazish imkoniyatlari yaratiladi.

O‘zbekiston madaniy merosni raqamlashtirishda muhim yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, bu jarayon hali ham o‘zining ba’zi texnik, moliyaviy va huquqiy qiyinchiliklariga duch kelmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonning raqamli madaniy merosni saqlashdagi tajribasi va kelajakdagi potentsiali mamlakatning madaniy boyliklarini dunyoga tanitish va ularni kelajak avlodlarga yetkazish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekistonning madaniy merosini raqamlashtirishda xalqaro hamkorlik va texnologik yangilanishlar, shuningdek, ijtimoiy va axloqiy masalalarga to‘liq e’tibor qaratish zarur.

Raqamli asrda madaniy merosni saqlab qolish – bu faqat arxivlash emas, balki uni global madaniy muomala jarayoniga jalb qilish demakdir. Quyidagi tavsiyalar dolzarb: Davlat siyosatida madaniy raqamlashtirishga ustuvorlik berilishi, xalqaro hamkorlik va texnologik almashinuvni kuchaytirish,mahalliy mutaxassislarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish,sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalaridan foydalanish,raqamlashtirilgan ma’lumotlarni ommaviy ta’lim va turizmda keng joriy etish. Shu yo‘l bilan biz o‘z tariximizni nafaqat saqlab qolamiz, balki uni global madaniyat sahnasiiga olib chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Digital Heritage: Applying Digital Technologies to Preserve Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 2021.
2. Europeana Strategy 2020–2025: Empowering Digital Transformation of the Cultural Heritage Sector. – Europeana Foundation, 2020.

3. Smith L. Heritage, communities and archaeology / L.Smith, E. Waterton. – London: Bloomsbury Academic, 2009.
4. Matsuura K. The Preservation of Cultural Heritage in the Age of Digital Reproduction // Journal of Digital Information. – 2003. – №4 (2).
5. Raqamli Madaniyat Strategiyasi: 2023–2027-yillar uchun yo‘nalishlar / O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va Turizm Vazirligi. – Toshkent, 2023.
6. Mirzaev A. O‘zbekiston Madaniy Merosini Raqamlashtirish: Holat va Istiqbollar. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2022.

*Nigora DONAYEVA Alisher qizi,
Mirzacho ‘l tuman axborot-kutubxona markazi,
Fondlarni to ‘ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati rahbari*

O‘ZBEKİSTONDA MILLİY KUTUBXONA FAOLİYATINI ISLOH QILISHNING TADRIJIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston milliy kutubxonasining hozirgi holati, muammolari va ularni hal qilishning istiqbolli yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Xususan, raqamli kutubxona tizimini joriy etish, xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘quvchilar uchun interaktiv xizmatlarni rivojlantirish kabi islohotlar samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy kutubxona, kutubxona islohoti, raqamli kutubxona, axborot resurslari, elektron fond, innovatsion kutubxona xizmatlari, O‘zbekiston madaniy merosi

Abstract: This study examines the current state of Uzbekistan’s national library system, its challenges, and prospective solutions for improvement. Special focus is given to the effectiveness of reforms such as implementing digital library systems, aligning with international standards, and developing interactive services for users.

Keywords: national library, library reform, digital library, information resources, electronic collection, innovative library services, cultural heritage of Uzbekistan

Zamonaviy axborot jamiyatida kutubxonalar an’anaviy kitob saqlash va tarqatish markazlaridan tashqari, ilg‘or bilim va madaniyat markazlariga aylanishi zarur. O‘zbekistonda milliy kutubxona faoliyatini isloh qilish – bu nafaqat kitob fondlarini raqamlashtirish va xizmatlarni yangilashni, balki axborot resurslarini qulay va innovatsion usullarda taqdim etishni nazarda tutadi. Milliy kutubxonalar mamlakatimizning madaniy merosi, ilmiy va ma’naviy boyligini saqlashda asosiy rol o‘ynaydi. Biroq, global raqamlashtirish jarayonlari, elektron resurslarning o‘sishi va o‘quvchilar ehtiyojlari ning o‘zgarishi tufayli kutubxona tizimini yangi metodlar asosida qayta qurish talab etilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida kitob ilm-fan, madaniyat va insonlar tafakkurining rivojlanishiga xizmat qilib kelgan. Zamonlar osha kitoblar kishilarni tarbiyalashi, ularni aqliy rivojlantirishi natijasida kitoblarning ham shakl-shamoyillari o‘zgarib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab elektron kitoblar yaratila boshlangan. Endi butun bir binoni egallab turgan yozma axborot manbalari-kitoblar, gazeta, jurnal va boshqa hujjatlar birgina kompyuter yoki kichkina telefonda jamlangan [1]. Bugungi kunda ulardan foydalanish samarasini oshirish maqsadida to‘la matnli ma’lumotlar bazasini yaratilmoqda.

2014-yilda yurtimizdagи axborot-kutubxona muassasalarining mutaxassislari Ko‘reya Respublikasining Kyonxi universiteti markaziy kutubxonasida zamonaviy kutubxonalarning boshqarish usullarini o‘rganish masalasida malaka oshirganlar. Respub-

likamizdagi joriy etilgan ilk Milliy umumta'lim elektron kutubxona (UZNEL) loyihasi ham Koreya Respublikasining iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg'armasi bilan birgalikda amalga oshirilgan [2]. Ushbu dastlabki loyiha asosida O'zbekiston milliy kutubxonasi va viloyatlardagi 20 ta kutubxonalar o'zaro bog'langan. Kelgusida loyiha asosida o'zaro tarmoqlarga bog'lanish O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 200 ta kutubxonani qamrab olish rejalashtirilgan.

Loyiha asosida, rivojlangan telekommunikatsion tarmoqlar va elektron ma'lumotlar bazasini shakllantiruvchi dasturiy mahsulotlar konsorsium ishtirokchilari o'rtaida yuqori tezlikdagi kanallar orqali ilmiy-ta'limiylar axborotlarni almashishga imkon yaratildi [3].

Bugungi kunda xalqaro hamkorliklar natijasida yurtimizda yuqori malakali mu'taxassislarning yetishib chiqishi hamda ma'lumot bazalarini, axborotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chiqilishi, axborotni tashuvchi, tarqatuvchi tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikning mavjudligi kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ilmiy markazlarning zarur ilmiy-ta'limiylar bilan ta'minlanishi korporativ tarmoqni rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi paytlarda mamlakatimizda foydalanuvchilarining kutubxonalardan foydalanish darajasining pasayishi kuza tilayotgan edi, lekin horijiy mamlakatlar bilan o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy hamkorliklar bugungi kunda zamonaviy, yangi innovatsion va samarali texnologiyalarning kirib kelishi hamda horijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari mamlakatimizdagi barcha axborot-kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarga zamon talablari asosidagi interfaol xizmat turlaridan foydalanish sharoitlari yaratildi. Barcha turdag'i ilmiy-texnik, badiiy adabiyotlarning elektron shakllari yaratilib, respublikada-gi axborot-kutubxona markazlarining axborot resurslari jamlab, internet tarmog'ida korporativ tarmoq yaratilgan. Bu tarmoq orqali respublikamizning barcha axborot-kutubxona markazlari bitta markaziy tarmoqqa bog'lanib kutubxonalardagi barcha adabiyotlar haqidagi ma'lumotlar jamlanib, elektron kataloglar ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Korparativ tarmoqlarning rivojlanishi yurtimiz kitobxonlariga axborot-kutubxona markazlari xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini bermoqda. Shu tarzda kutubxonalardan foydalanuvchilarining soni ortmoqda [4].

O'zbekistonda milliy kutubxona faoliyatini isloq qilishning asosiy yo'nalishlari va natijalari

1-jadval: Milliy kutubxona islohotining asosiy bosqichlari

Bosqich	Vazifalar	Ishlar Natijasi
Raqamlashtirish	Kitob fondlarini skanerlash, elektron katalog tizimini joriy etish	50 000+ raqamli resurs, tez qidiruv imkoniyati
Xalqaro standartlar	MARC21, RFID texnologiyasini joriy qilish, xalqaro kutubxona tarmoqlariga ularish	ISO standartlariga moslashuv, chet el resurslaridan foydalanish

O‘quvchilar uchun xizmatlar	Virtual kutubxona, audiokitoblar, onlayn arizalar	Foydalanuvchilar sonining 40% o‘sishi
Kadrlar tayyorlash	Kutubxonachilar uchun zamonaviy axborot kurslari	Malakali mutaxassislar sonining oshishi
Infratuzilma	Smart-kutubxona loyihasi, elektron kitob o‘qish stansiyalari	Yangi filiallar ochish, foydalanish qulayligi

Ayniqsa, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘sishimcha ravishda yangi o‘qitish shakli – masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va ta’lim oluvchilar Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagida bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “virtual o‘quv guruhi” talabalari bilan muloqotda bo‘ladi. Ma’lum sabablarga ko‘ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, mutaxassiligin o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi [5].

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiylar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘ladilar. Elektron masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir. “2019–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiysi” asosida bugungi kunda kadrlar masalasiga juda katta e’tibor qarilib, soha xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda ularga uzluksiz axborot-kutubxona ta’limini berish tizimi yaratilib zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida, axborot-kutubxona kadrlarini masofadan turib o‘qitish tizimini joriy qilinmoqda (masofaviy ta’lim axborot texnologiyalaridan faydalangan holda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bir-biri bilan masofa yoki vaqt oralig‘ida ajratilgan ta’lim turi) [6].

Shuningdek, o‘qituvchi va assistentlarning xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilotlarda (kutubxona fakultetlarida) stajirovka o‘tashi tashkil qilinib, axborot-kutubxonachilik ishi bo‘yicha ilmiy maktablar rivojlantirilmoqda. Kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish asosida sohaga ixtisoslashgan

oliy ta’lim muassasalarida “Kutubxona-axborot faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha qabul kvotalarini oshirish, axborot-kutubxona xodimlarining malakasini oshirish, tajriba almashish bo‘yicha xalqaro loyihalarda axborot-kutubxona muassasalarining ishtirokini kengaytirish va boshqa ishlar samaradorligi oshirilmoqda.

2-grafik: Elektron va an’anaviy kutubxona resurslaridan foydalanish statistikasi (2020-2024)

(Diagramma: Stolbikli grafik – elektron resurslar foydalanishi 2020-yilda 15% dan 2024-yilda 65% ga o’sganini ko‘rsatadi.)

3-jadval: Islohotlarning Iqtisodiy va Madaniy Samaralari

Ko‘rsatkich	Islohotdan oldin	Islohotdan keyin
Oylik tashrif buyuruvchilar	10 000	25 000+
Chet el hamkorlari	5 ta	20+ ta
Raqamli arxiv hajmi	1 TB	50+ TB

Respubikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad a vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o’zgarishlarga va xalqaro amaliyatga mos bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta^in^digan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifati jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish xisobiga axborot-kutubxona muassasalarini faoliyatini tashki1 etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda [7].

Bu esa axborot-kutubxona fao^atiga, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni to‘ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, Axborot-kutubxona muassasalarini faoliyatini rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilindi. Aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta’minalash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishni barqaror rivojlantirishga ko‘maklashish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi [8].

Axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta’minalandi. Kutubxona sohasida davlat-xusu-

siy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog‘ini rivojlantirish va kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko‘rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta’minlash bora-sida chora tadbirlar rejasiga ishlab chiqildi. Jamiatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish a kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish ya targ‘ib qilish; axborot-kutubxona muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlashga oid Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resusr markazining (keyingi o‘rinlarda – Milliy kutubxona) xodimlar umumiylar cheklangan soni 227 nafardan iborat boshqaruv apparati tuzilmasi tasdiqlandi [9].

Xulosa qilib aytganda, xalqaro hamkorliklar natijasida yurtimizda yuqori malakali mutaxassislarning yetishib chiqishi hamda axborot-kutubxona muassasalari masofadan turib, kadrlarining malakasini oshirish natijasida xodimlarning sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish uchun kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish va xodimlarning ijodiy fəolligini rivojlantirishdir. Shu bilan birgalikda xodimlarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishslash ko‘nikmasiga ega bo‘lish, ilg‘or xorij tajribalarini o‘rgatishdir.

Foydalilgan adabiyotlar:

1. OCLC tizimlari va xizmatlari: Xalqaro raqamli kutubxona istiqbollari 17-jild 2-son.
2. Axborot–kutubxona faoliyati to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2011-yil 13-aprel // Xalq so‘zi. – 2011. – 14-apr.
3. 2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 11-may PF–134 // Xalq so‘zi. – 2022. – 12-may.
4. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalgalash oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 5-oktabr PF–6079 // Xalq so‘zi. – 2020. – 6-okt.
5. Abdullayev A. Zamonaviy axborot texnologiyalari va kutubxona tizimlari // *Ilmiy-ma’rifiy jurnal*. – 2021. – №3. – B. 45–52.
6. Karimova D. Milliy kutubxonalarda raqamli transformatsiya: yangi imkoniyatlar va muammolar // Kutubxona .UZ. – 2023. – №1. – B. 12–20.
7. Smith J. *Digital Libraries: Principles and Practices*. – Springer, 2020.
8. UNESCOning “Global kutubxona taraqqiyoti” hisoboti, 2021.

Mardonova Gulnoza Baxodir qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyat Axborot-kutubxona markazi
Elektron resurslardan foydalanish va o‘quv zallari xizmati xizmat rahbari*

KUTUBXONACHI KASBI: ILM VA MA’RIFAT XAZINACHISI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kutubxonachi shunchaki kitoblarni tartibga soluvchi inson emas, balki ilm-ma’rifatni targ‘ib qiluvchi, kitobxonlarga yo‘l ko‘rsatuvchi muhim shaxslardan biri ekanligi haqida so‘z boradi. Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat kitob saqlanadigan joy, balki bilim va madaniyat markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu muassasalarning yuragi esa, shubhasiz, kutubxonachilardir.

Kalit so‘zlar: Kutubxonachi, kitobxon, ilm-ma’rifat, madaniyat.

Abstract. This article discusses the role of a librarian not just as a person who organizes books, but as one of the important figures who promotes knowledge and enlightenment and guides readers. Today, libraries are not only places where books are stored, but also as centers of knowledge and culture. The heart of these institutions, of course, are librarians.

Keywords: Librarian, reader, science and enlightenment, culture.

Kutubxonachilik – nafaqat kasb, balki bilim va ma’rifatga xizmat qiluvchi sharafli sohadir. Kitob orqali jamiyatni rivojlantirish, yosh avlodga ilm berish va ularni kitobga oshno etish kutubxonachilarning asosiy vazifalaridandir. Shunday ekan, kutubxonachilik sohasi doimo qadrlanib, rivojlantirib borilishi lozim. Axir, kitob – insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim boyliklaridan biridir, kutubxonachilar esa bu boylikning sodiq posbonlaridir. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kutubxonachilik sohasi ham o‘zgarib bormoqda. Hozirgi kunda elektron kutubxonalar, onlayn kataloglar va virtual kutubxona xizmatlari keng tarqalmoqda. Shu bois zamонавиy kutubxonachilar nafaqat an’anaviy kitoblar bilan, balki elektron resurslar bilan ham ishlashni bilishlari zarur. Hozirgi kunda kutubxonachilik jadal rivojlanmoqda va bir necha muhim yo‘nalishlarda o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ko‘plab kutubxonalar raqamlashtirish jarayonini tezlashtirmoqda. Kitoblar, qo‘lyozmalar va arxiv materiallari elektron shaklga o‘tkazilib, onlayn platformalar orqali o‘quvchilarga taqdim etilmoqda. Masalan, Google Books, Europeana, Milliy elektron kutubxonalar kabi loyihalar buning yaqqol misolidir. Kutubxonalar sun’iy intellektdan foydalanib, foydalanuvchilarga individual tavsiyalar beradigan tizimlarni yaratmoqda. Masalan, foydalanuvchilarning qiziqishlari asosida kitob tavsiya qiluvchi algoritmlar ishlab chiqilmoqda. An’anaviy kutubxona faqatgina kitob o‘qish joyi bo‘lib qolmay, ta’lim, ilmiy tadqiqot va ijodiy faoliyat markaziga aylanmoqda. Interfaol zonalar, kutubxona ichida kafe va ko-working hududlari tashkil qilinmoqda. Ko‘plab ilmiy va badiiy manbalar bepul foydalanish uchun taqdim qilinmoqda. Open Access harakati doirasida ilmiy jurnallar va maqolalar ham ochiq foydalanishga

o‘tkazilmoqda. Odamlar qulaylik uchun elektron kitoblar va audiokitoblarga ko‘proq murojaat qilmoqda. Shuning uchun kutubxonalar Kindle, Google Play Books, Storytel, Audible kabi platformalar bilan hamkorlik qilib, raqamli resurslarni kengaytirmoqda. Ba’zi kutubxonalar kitoblarni saralash, berish va qaytarish jarayonlarini avtomatlash-tirgan. RFID texnologiyasi yordamida kitoblarni avtomatik tarzda o‘qish va ro‘yxatga olish imkoniyati yaratilmoqda. Kutubxonalar endilikda nafaqat kitob berish joyi, balki kitobxonlik klublari, muhokamalar, seminarlar va treninglar o‘tkaziladigan markazlar-ga aylanmoqda. Hozirgi kutubxonachilik tendensiyalari ilmga chanqoq insonlar uchun yanada qulay va samarali imkoniyatlar yaratmoqda.

Kutubxonachi qanday bo‘lishi kerak? Kutubxonachi – bu nafaqat kitoblar bilan ishlaydigan mutaxassis, balki axborotni tartibga soluvchi va uni o‘quvchilarga yetkazuvchi fidoyi insondir. Zamonaviy kutubxonachi an’anaviy kitob berish vazifasidan tash-qari, axborot texnologiyalari, tadbirlar tashkil qilish va o‘quvchilarga maslahat berish kabi vazifalarni ham bajaradi. Quyida kutubxonachining asosiy fazilatlari, vazifalari va malakalari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Yaxshi kutubxonachi bo‘lish uchun quyidagi shaxsiy fazilatlar muhim:

- Mas’uliyatlilik – kitoblar va axborot bilan ishlashda ehtiyyotkor bo‘lish kerak.
- Tartiblilik va diqqat-e’tibor – kutubxona fondini to‘g‘ri yuritish va axborotni aniq boshqarish zarur.
- Muloqotchanlik – o‘quvchilar, tadqiqotchilar va hamkasblar bilan samarali mu-loqot qilish.
- Texnologiyalarni bilsiz – elektron kutubxonalar va raqamli resurslar bilan ishslash.
- Ijodkorlik – tadbirlar, kitobxonlik klublari va seminarlar o‘tkazish qobiliyati.
- Sabr-toqat va xushmuomalalik – har xil yoshdagi va turli darajadagi o‘quvchilar bilan ishslash.

Bugungi kunda kutubxonachilik kasbi jadal rivojlanmoqda va yangi tendensiyalar paydo bo‘lyapti:

- Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ishslash
- Elektron kitoblar va audiokitoblarga e’tibor qaratish
- Raqamli axborot resurslarini boshqarish
- Tahlil va statistik ma’lumotlar bilan ishslash

Kutubxonachi bo‘lish – nafaqat kitoblar bilan ishslash, balki o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, texnologiyalarni o‘rganish va madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish demakdir. Zamonaviy kutubxonachi doimiy ravishda o‘z bilimini oshirib borishi, yangi texnologiyalar va axborot tizimlarini o‘zlashtirishi lozim.

Jamiyat rivojida kutubxonaning o‘rni juda kattadir. Kutubxona – bu nafaqat kitob saqlanadigan joy, balki jamiyatning intellektual, madaniy va axborot markazi hisoblanadi. Kutubxonalar orqali insonlar bilim oladi, fikrlaydi, tadqiqot olib boradi va ijod qiladi. Ta’lim va ilmiy taraqqiyotda kutubxonaning roli juda muhim. Kutubxonalar ja-miyatda uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilar va talabalar uchun bilim manbai – kutubxonalar turli yoshdagi insonlarga kitob va elektron resurslar orqali bilim olish imkoniyatini taqdim etadi. Ilmiy izlanishlar uchun manba – olimlar va tadqiqotchilar kutubxonalardagi ma’lumotlardan foydalangan holda ilmiy ishlanma-

lar yaratadilar. O‘qituvchilar va professorlar uchun qo‘llab-quvvatlovchi manba – pedagoglar dars materiallarini to‘ldirish va o‘quvchilarga qo‘srimcha adabiyotlar berish uchun kutubxonadan foydalanadilar. Misol uchun, milliy kutubxonalar ko‘pincha ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qiladi va yangi ilmiy ishlanmalar uchun platforma yaratadi. Axborotga teng huquqli kirish imkoniyatini ta’minlash kutubxonaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kutubxonalar har bir insonga bepul bilim olish huquqini beradi. Kitoblarni sotib olish imkoniyati bo‘lmagan insonlar kutubxonalar orqali o‘qib-o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yelektron kutubxonalar tufayli insonlar onlayn tarzda ilmiy maqolalar, darsliklar va boshqa resurslarga ega bo‘ladilar. Nogironligi bo‘lgan insonlar uchun audiokitoblar va maxsus xizmatlar tashkil qilinmoqda. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Madaniy-ma’rifiy markaz sifatida kutubxonaning o‘rnii har doim o‘ta muhim bo‘lib kelgan. Kutubxonalar nafaqat bilim markazi, balki madaniy va ijodiy rivojlanish uchun ham muhimdir. Adabiy tadbirlar va ijodiy uchrashuvlar – yozuvchilar, shoirlar va san’atkorlar kutubxonalarda o‘z kitoblarini taqdim qiladilar, ijodiy muhokamalar olib boradilar. Madaniy merosni saqlash – kutubxonalar qadimiy qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar va milliy adabiyotlarni asrab-avaylash bilan shug‘ullanadi. Kitobxonlik klublari va o‘quv dasturlari – yoshlarni kitobga qiziqtirish va mutolaa madaniyatini shakllantirish uchun tashkil qilinadi.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli kutubxonalar hozirgi rivojlangan innovatsion texnolgiyalarning yutug‘i hisoblanadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan kutubxonalar raqamli va innovatsion markazlarga aylanmoqda. Yelektron kutubxonalar – foydalanuvchilarga istalgan joydan axborot olish imkoniyatini beradi. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar bazasi – zamonaviy kutubxonalar axborotni tez topish va tartibga solish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanmoqda. Audiokitoblar va elektron resurslar – odatiy kitoblardan tashqari, zamonaviy formatlar ham keng ommalashmoqda. Misol uchun, World Digital Library, Google Books, Europeana kabi platformalar dunyo miqyosida ilmiy va badiiy adabiyotlarni ommaga taqdim etmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga kutubxonaning ta’siri juda kattadir. Kutubxonalar jamiyatda axborotni erkin tarqatish va fuqarolarning bilim darajasini oshirish orqali ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘sadi. Demokratiya va huquqiy madaniyatni rivojlanish – kutubxonalar huquqiy bilimlarni keng targ‘ib etish orqali aholining huquqiy savodxonligini oshirishga yordam beradi. Ishbilarmonlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – biznes-rejalar, marketing va menejment bo‘yicha kitoblar tadbirkorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Ijtimoiy tenglik va ta’lim olish huquqi – kutubxonalar orqali hamma qatlama vakillari bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda kutubxonalar ichida startap markazlari va tadbirkorlik inkubatorlari tashkil qilinib, yangi biznes g‘oyalarni ilgari surish uchun sharoit yaratilmoqda.

Ayrim sohalar jadal suratlarda rivojlanib borayotgan bir davrda, boshqa bir sohalarga e’tibor susayishi tabiiy. Mana shunday kasblardan biri kutubxonachilik hisoblanar edi. U qadimdan alloma va mutafakkirlar tomonidan bajarilib kelinganligiga qaramay, bir muddat soha hamda soha vakillariga e’tibor susaydi. Biroq, Prezidentimiz

tomonidan yuritilayotgan islohotlar tufayli, ushbu kasb davlat siyosati darajasiga qadar ko‘tarildi. Buni 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-sonli qarorida ham yaqqol kuzatishimiz mumkin. 2019–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiysi respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimini o‘zida aks ettiradi. Milliy madaniyatni chuqur anglash, rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda respublikaning universal fondga ega bo‘lgan axborot-kutubxona muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun jamiyatida yuksak ma’naviy qadriyatlarning qaror topishi axborot-kutubxona muassasalari oldiga shaxsga e’tiborni kuchaytirish, uning umummadaniy darajasini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish, odob-axloq jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarni qo‘yadi. Ushbu qaror konsepsiyasida esa, axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitusiyaviy huquqlarini ta’minlovchi aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, milliy va jahon madaniy boyliklari, amaliy va fundamental bilimlar bilan tanishtirish, shuningdek, mamlakatimizning axborot-kutubxona muassasalarida mavjud milliy-madaniy merosni saqlashdan iborat ekanligi hamda axborot-kutubxona sohasini samarali rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish uchun quyidagi masalalarni hal etish zarurligi, axborot va raqamli texnologiyalar rivojlanishi hamda zamonaviy umumjahon tendensiyalarni e’tiborga olgan holda axborot-kutubxona sohasini isloh qilishni jadallashtirish, bugungi kun talablarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi, aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalani-shining ijtimoiy kafolatlarini taminlash maqsadida meyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xususan yangi bino va inshootlar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta’minalash, eng yangi, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, korporativ tizimlarni rivojlantirish, axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog‘ini rivojlantirish, milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini va axborot-kutubxona fondining saqlanishini ta’minalash, jamiyatning axborot madaniyatini, milliy tarix va madaniyatga qiziqishini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targ‘ib qilish, axborot-kutubxona muassasalarini malakali xodimlar bilan ta’minalash zarurligi haqida so‘z yuritiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yaratilib berilayotgan imkoniyat va sharoitlarga qaramay, ayrim shaxslar o‘z burchlarini suiste’mol qilgan holda, kutubxonachilik kasbiga hurmatsizlik va pisandsizlik bilan qarayotganlar ham yo‘q emas. Shuni unutmashlik kerakki, shonli o‘tmishimizda kitobni asrab, undagi bilimlarni biz avlodlarga eltmoq uchun, bobokalonlarimiz jonlarini fido qilganlar. Kasbning ahamiyati shundan iboratki, kelgusi avlodlarga go‘zal va betakror o‘tmish hamda takrorlanmas bilim manbalarini aslidek yetkazib berish. Bunday ma’suliyatli va sharafli kasbni tanlagan har bir shaxs o‘zini, avvalo, buyuk alloma hamda mutafakkirlarimiz Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Alisher Navoiy davomchilaridek his etishlari darkor. Ne-

gaki, ular o‘zlari o‘rgangan, kashf etgan bilim va ko’nikmalarni targ‘ib etish bilan bir qatorda ularni asrab, avaylashgan ham. Ta’bir joizki, ularning har birini kitobxon hamda kutubxonachi deya atasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shunday ekan, bunday sharaflı kasb egalarining fidokorliklari hamda jonkuyarliklari va albatta, eng avvalo, o‘zlari ilmga, bilim olish hamda uni keng ommaga yoyishga intilishlari suv va havodek zarur. Sababi, har bir kutubxonachi shaxs boshqa kasb egalari kabi yoshlarni ilmga oshno etishda, porloq kelajakni yanada porlashi uchun xizmat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova O.O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi.– Toshkent: O‘qituvchi,1989. – 154 b.
2. Qosimova O. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. – Toshkent, 1992. – 154 b.
3. Oxunjonov E. O. Turkistonda O‘rta asr kutubxonachilik va bibliografiya ishlari madaniyati. – Toshkent, 1994. – 150 b.
4. To‘ychiyeva S.N. Oilada bolani kitobga qiziqtirishning yo‘llari va vositalari. – Toshkent, 2022.
5. To‘ychiyeva S.N.Barkamol avlodni tarbiyalashda axborot-kutubxona maarkazlaring roli. – Toshkent, 2022.
6. To‘ychiyeva D. Amir Temur va Temuriylar davrida kitobat san’ati va kutubxonalar. – Toshkent, 2022.
7. To‘ychiyeva D. Axborot-kutubxona muassasalarida reklamaning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning turlari. – Toshkent, 2023.

*Nurimova Qunduzay
Fanlar Akademiyasi Fundamental kutubxonasi kutubxona
ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

**O‘ZBEKİSTON BİBLİOGRAFİYASINING RIVOJİGA HAMDA
KADRLAR TAYYORLASHGA HİSSA QO‘SHGAN
BİBLİOGRAF AYOLLAR**

***Annotasiya:** Maqolada O‘zbekiston bibliografiyası ishining rivojiga hamda kadr-lar tayyorlashga katta hissa qo‘shgan mashhur professional kutubxonachi va bibliograflarning hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** bibliograf, kutubxonachi, ustoz, xotiralar*

***Abstract:** The article highlights the life and activities of renowned professional librarians and bibliographers who have significantly contributed to the development of bibliographic practices and personnel training in Uzbekistan.*

***Key words:** bibliographer, librarian, mentor, memoirs.*

Barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy, tarixiy, badiiy qimmatga ega adabiyotlardan unumli foydalanish, kitobxonlarda zamonamizning dol-zarb masalalariga, mavzulariga qiziqish uygotish, shakllantirish va ularni to‘la hamda sifatli qondirish, yoshlarning intellektual salohiyatini, bilimga, axborotga bo‘lgan inti-lishlarini, ularning ijodiy qobiliyatini tarbiyalashda, dunyo axborot resurslari haqida o‘z vaqtida ma’lumotga ega bo‘lishlarida bibliografik axborot mahsulotlari- bibliografik ko‘rsatkichlar, tavsiya ro‘yhatlari, bibliografik sharxlar alohida o‘rin tutadi. Ma’lumot – bibliografiya apparati, katalog va kartotekalar, elektron kataloglar, elektron bibliografik resurslar esa kitobxonlarning talablarini, qiziqishlarini tezkorlik bilan va samarali ba-jarishda yordamga keladi. ULARNI TAYYORLASH, ULARDAN UNUMLI FOYDALANISH JARAYONLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYA VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN UNUM-LI FOYDALANISH BIBLIOGRAFDAN JUDA KATTA BILIMNI, PROFESSIONAL MAHORATNI, PSIXOLOGIK QO-BILIYATNI, PEDAGOGIK MALAKANI, TEKNOLOGIK SAVODXONLIKNI TALAB ETADI. O‘ZBEKİSTONNING HAM SOHA RIVOJİGA HİSSA QO‘SHGAN BIBLIOGRAF OLIMA AYOLLARI HAQIDA MA’LUMOT BERADIGAN USHBU MAQOLADA O‘ZBEKİSTON BİBLİOGRAFİYASIGA O‘ZİNING HİSSASINI QO‘SHGAN VA QO‘SHIB KELAYOTGAN BIBLIOGRAF, USTOZ-PEDAGOG AYOLLAR HAQIDA TANISHISHIİNGİZ MUMKIN.

Nosirova Matluba Yaxyayevna – kutubxonachi-bibliograf sifatida tanilgan ustoz-larimizdan biri. M.Y. Nosirova Toshkent shahrida 1924-yili tavallud topadi, ota-onasidan juda erta ayrılib qolganligi sababli bolalar uyida tarbiya topadi. 1942-yili o‘rta maktabni tugatib, o‘sha paytdagi komsomol kotibasi kursida o‘qiydi va komsomol tas-hkilotlarida ishlagan.

1949-yildan komsomol yo‘llanmasi bilan Farg‘ona viloyat kutubxonasida kutubxo-nachi sifatida ish boshlaydi. 1951-yildan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston dav-lat kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi)da

faoliyatini davom ettiradi va o‘z malakasini, bilimini oshirish maqsadida Moskva Davlat madaniyat institutining kutubxonachilik fakultetiga ta’lim olgani boradi va 1957-yili uni tugatib, kutubxonachi-bibliograf mutaxassisligiga ega bo‘ladi. 1972-yilga qadar Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat kutubxonasining bibliografiya bo‘limida oddiy bibliograf lavozimidan to bo‘lim mudiri lavozimigacha ishini davom ettiradi. Milliy kutubxona boshlang‘ich partiya tashkilotiga rahbarlik qiladi. 1972-yili partiya topshirig‘i bilan Toshkent madaniyat texnikumiga direktorlik lavozimiga o‘tkaziladi. 1974-yili Toshkent Davlat madaniyat instituti tashkil etilgandan so‘ng, institut rektori, akademik Aziz Po‘latovich Qayumovning taklifi bilan “Bibliografiya” kafedrasining katta o‘qituvchisi lavozimida nafaqaga chiqqunga qadar talabalarga ustozlik qiladi.

Kutubxonada ishlab yurgan vaqtlarida juda ko‘plab mavzularda, turli xil bibliografik ko‘rsatkichlarni mustaqil va hamkorlikda tayyorladi hamda nashr ettirdi. Ulardan “O‘zbekiston”, “O‘zbek adabiyoti”, “O‘zbekiston SSRning 30 yilligi” kabi ko‘rsatkichlarni eslab o‘tish mumkin. 9 ta yirik bibliografik ko‘rsatkich va qo‘llanmalarga muharrirlik qiladi, bir qator muammoli maqolalar bilan O‘zbekiston va Rossiya jurnallarida qatnashadi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat kutubxonasining 100 yilligi munosabati bilan nashr etilgan monografiyaning yirik bo‘limi – “1917-yildan so‘nggi davrda kutubxonaning ilmiy-bibliografik faoliyati” ni yozgan. Unda muallif bibliografiya ishining taraqqiyotini batafsil yoritib bergen. Matluba opa “Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bibliografiyasi” fanidan dars o‘tib, o‘zining siyosiy bilim saviyasi yuqori ekanligini, o‘sha davr siyosatining malakali targ‘ibotchisi, malakali rahbar ekanligini ko‘rsata oldi.

Mamatraimova Xamroxon – respublikamizning bibliografiya ishi nazariyasi va amaliyoti sohasida ish olib borgan bibliograf olimalarimizdan biri. 1952-yilda Andijon viloyati Xo‘jaobod tumanining Yangi chek mahallasida tavallud topgan va o‘rta maktabni shu yerda tugatgan. Avval Namangan madaniyat texnikuming kutubxonachilik bo‘limini va 1977-yili Toshkent Davlat madaniyat institutining kutubxonachilik fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Keyinchalik Moskva Davlat Madaniyat institutining kunduzgi aspiranturasini tugatib, 1987-yili shu institutda kutubxonachilik ishi sohasida o‘zbek ayollaridan ikkinchi bo‘lib “O‘lkashunoslik spravka-bibliografiya apparati mahalliy bibliografik resurslarning tarkibiy qismi sifatida. Ko‘p tillik sharoitda uning tuzilishi va foydalanish muammolari” mavzusida Moskva Madaniyat instituti professori Nikolay Nikolayevich Sherbaning ilmiy rahbarligida nomzodlik dissertasiyasini himoya qiladi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. Tadqiqot respublikamizning viloyat kutubxonalari negizida bajarilgan va unda o‘lkashunoslik bibliografiyasida spravka bibliogarafiya apparatining o‘rni, kutubxonachilik-bibliografik resurslarning ahamiyati, ma’lumot bibliografik apparati (MBA)ning tuzilishi, kutubxona bibliografik klassifikatsiyasi (KBK) jadvalining MBAni tashkil etishdagi roli, o‘lkashunoslik katalogini tashkil etishdagi o‘rni, Rossiya kutubxonalarining shu sohadagi tajribasi, ikki tillik yoki ko‘p tillik sharoitda MBAni tashkil etishning xususiyatlari masalalari o‘rganilgan. 1977-yildan “Bibliografiya” kafedrasida bibliografiya oid barcha fanlardan dars bergen. Bir qator o‘quv qo‘llanmalari, dasturlari, uslubiy qo‘llanmalari nashrdan chiqqan. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida nashrdan chiqqan ko‘plab dolzarb mavzudagi uslubiy-bibliografik qo‘llan-

malarning muallifi, tuzuvchisi va muharriri sifatida faoliyat yuritgan. O‘zbekiston om-maviy kutubxonalarida o‘lkashunoslik ishini tashkil etish masalasiga oid uslubiy-o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan va tarqatilgan. Ko‘plab xalqaro, respublika va institut ilmiy to‘plamlarida bibliografik kadrlar tayyorlash, bibliografiya ishi nazariyasi, tarixi va metodikasiga oid ilmiy maqolalar bilan ishtirok etgan. Turli anjumanlardagi chiqishlari, ilmiy maqolalari dolzarbligi, mazmundorligi bilan barchaning e’tiborini tortar edi. O‘zbekiston Respublikasining Milliy ensiklopediyasi nashr etilganda asosiy mualliflardan biri sifatida “Davlat bibliografiyasi”, “Kitob belgisi”, “Kitobxon jamiyati”, “Kongress kutubxonasi”, “Madaniyat instituti” kabi mavzulardagi ilmiy maqolalari bilan ishtirok etdi. Mamatraimova pedagoglik faoliyatini amaliyot bilan uzviy bog‘liqlikda olib bordi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining ilmiy-uslubiy bo‘limida yetakchi va keyinchalik Bosh uslubchi lavozimida faoliyat olib borib 300 dan ortiq uslubiy qo‘llanmalarini tuzdi va muharrirlik qildi. Xamroxon Mamatraimova ishlagan vaqtidagi uslubiy-bibliografik qo‘llanmalar har jihatdan savodliligi, sifati va mazmundorligi, dolzarbligi bilan ajralib turgan. Bibliografik yozuv qoidalariga bag‘ishlangan O‘zbekistonning dastlabki Davlat standarti (2009) ning asosiy muallifi. O‘zbekistonda tabiiy fanlar va qishloq xo‘jaligiga oid adabiyotlar bibliografiyasi”, “O‘zbekistonda bibliografiya ishi nazariyasi, tarixi va metodikasi”, “O‘zbekiston o‘lkashunoslik bibliografiyasi” o‘quv qo‘llanmalarining muallifi. Umrining so‘nggi kunlariga qadar kadr-lar tayyorlashga o‘zining hissasini qo‘shib keldi. Uning ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan diplom ishlari va keyinchalik bitiruv malakaviy ishlari o‘zining sifati, mazmuni bilan ajralib turgan, ayrimlari kitob holida ham nashr etilgan. Uning shogirdlari O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Laos, V’etnam, Afg‘oniston, Hindiston davlatlari kutubxonalarida faoliyat yuritib keladi. Mamatraimova X. talabalarning qattiqqa‘l , talabchan va mehribon ustozi edi. Bir necha yillar davomida Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutining aspirantura bo‘limini boshqargan.

2012-yil sentabr oyida 60 yoshida Toshkent shahrida vafot etgan.

Berdiyeva Zuhra Shukurovna – 1956-yil Sirdaryo viloyati Guliston tumanida tavallud topgan. 1973-yilda o‘rta maktabni tugatib, tuman xalq maorif bo‘limida ish faoliyatini boshlagan. 1974-yilda Toshkent davlat madaniyat institutiga kutubxonachilik fakultetiga o‘qishga kirib, 1978-yilda institutni imtiyozli diplom bilan tugatdi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, ko‘zga ko‘ringan bibliograf marhuma Matluba Yaxyayevna Nosirova maslahati bilan “Abdulla Qahhor biobibliografiyasi”ni tuzib, diplom ishi sifatida himoya qildi. Shu ishning samarali bo‘lishi uchun Abdulla Qahhorning shaxsiy kutubxonasini ko‘rib chiqish, qo‘lyozmalari bilan tanishish, u yashagan muhitni ko‘rish maqsadida Kibriyo opa Qahhorova (Abdulla Qahhorning rafiqasi) bilan tanishdi va ularning yordamida yozuvchining barcha arxiv materiallaridan foydalangan holda 156 sahifalik diplom ishini yozib tugatdi, bu xajm-dagi ish fakultetning 20 yillik tarixida eng katta ish deb tan olindi va respublika talabalarining ko‘rik tanlovida 2-chi o‘ringa sazovor deb topildi. Diplom ishi himoyasida ishtirok etgan 7 kishidan iborat o‘sha paytdagi hukumat rahbari tomonidan jo‘natilgan tekshirish komissiyasi a’zolari diplom ishini nashr qilishga tavsiya etib, uni institutda

o‘qituvchi sifatida qolishga tavsiya qilib, shu joyning o‘zida diplom ishi a’lo baholandı. Bu diplom ishi 1989-yil H. Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutining bosmaxonasida nashr etildi. Ushbu diplom ishi Berdiyevanıg birinchi bibliografiya ishi hisoblanadi. 1991-yili Alisher Navoiyning 550 yilligi munosabati bilan 1968–1991-yillarni o‘z ichiga olgan “Alisher Navoiy” nomli bibliografik ko‘rsatkich (A.Turapova bilan), “Abdulla Qahhor” biobibliografiyasi, Oybekning 100 yilligi munosabati bilan “Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek” biobibliografiyasi (X.Mamatraimova bilan), 2014-yili Rustamxo‘jayev Sh. bilan hamkorlikda “Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar bibliografiyasi”, 2016-yili akademik navoiyshunos olim Aziz Po‘latovich Qayumovning 90 yillik yubileyi munosabati bilan biobibliografik ko‘rsatkich, hammualliflikda “Bibliografiya” o‘quv qo‘llanmasi, “Xalqaro bibliografik MARK formatlar”, muharirligida 3 tomlik “Kutubxonashunoslik” darsligi, “Chet el adabiyotlari bibliografiyası” o‘quv qo‘llanmasi (M.Matmurodova bilan) jami 7 ta, ”Kutubxonada fandrayzing”, “Badiiy adabiyotlarni targ‘ib qilishning ommaviy usullari”, “Adabiy o‘qishlarni tashkil etish metodikasi”, “Adabiy viktorinalar” kabi 27 tadan ortiq uslubiy qo‘llanmalari, 70 dan ortiq Xalqaro, Respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar to‘plamlarida, vaqtli matbuotda kutubxonachilik ishi, bibliografiya ishi masalalariga oid maqolalari nashrdan chiqdi. “Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar bibliografiyasi” 2014-yili Bobur Xalqaro jamg‘armasining mukofoti bilan taqdirlandi. O‘zbekiston bibliografiyasi tarixida 2 ta bibliografiya mukofotga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, ularning biri “Abdulla Qahhor” biobibliografiyasi, ikkinchisi “Bobur va boburiylar bibliografiyasi” dir. Berdiyeva Zuhra Shukurovnanning hayoti va ijodi, asarlari haqida 1979-yili “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida, 1977-yili “Saodat” jurnalida, 2004-yili A.I. Kormilitsinning “Видные библиотековеды и библиографы Узбекистана” nomli to‘plamida, “Jamiyat”, “Shifo info” gazetalarida 10 dan ortiq maqolalar chop etilgan.

1979-yildan boshlab to shu kunga qadar Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutining kutubxonachilik fakultetida, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” kafedrasida, pedagogika kollejlarida, malaka oshirish institutlari va fakultetlarida o‘qish madaniyati, kutubxonachilik ishini rivojlantirish, jamiyat rivojida kutubxonalar rolini oshirish, aholiga namunali va sifatlari axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish, bibliografik faoliyat masalalari, axborot savodxonligi, kitobxonlik faoliyatini tashkil etish, yoshlarni kasb tanlashga tayyorlash, elektron kataloglarga oid masalalar yuzasidan mashg‘ulotlar o‘tmoqda, qator maqolalar bilan matbuotda, radio va televideniyada ishtirok etib kelmoqda, Xalqaro anjumanlarda ishtirok etadi, 30 dan oshiq uslubiy, bibliografik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi sifatida nashr ettirmoqda. 2011-yil avgust oyidan O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Fundamental kutubxonasi direktori lavozimida faoliyat olib borish bilan birga bir necha bibliografik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi va muharriridir. 2012-yili yaxshi insonlar tavsiyasi bilan O‘rta Osiyo “Turon” Fanlar akademiyasining akademigi unvoni berildi. Bu kutubxonachilik sohasida birinchi marta ayollarga berilgan unvondir. 2021-yilda “Axborot-kutubxona a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Shu yilda yana O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi tomonidan “I-darajali Mehnat

faxriysi”, Qurolli kuchlar vazirligi tomonidan “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar a’lochisi”, O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

Matmurodova Malika Isayevna – 1961-yil Toshhovuz viloyatining Toshhovuz tumanida tavallud topgan. 1978-yilda o’rtta məktəbni tugatib mehnət fəoliyatını qishloq kutubxonasında boshlagan. 1988–1992-yillarda Abdulla Qodiriy nomidagi TDMIning “Kutubxonachilik” fakultetini imtiyozlı diplom bilan tugatib, Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasında uslubiyotchi, sho’ba mudiri bo’lib fəoliyat yuritdi. 1999-yildan Toshkent Davlat madaniyat institutining “Bibliografiya” kafedrasıda o’qituvchi, katta o’qituvchi lavozimlarda, 2001-yildan fakultet dekani o’ribbosari lavozimlarda ishlab keldi. “O’zbekistonda badiiy adabiyotlar va adabiyotshunosligi bibliografiyası” kursidan mashg’ulotlar olib boradi. 2001-yil institutning aspiranturasını tamomladı.

Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasında uslubiyotchi sıfatida 40 dan ortiq ko’plab milliy ijodkorlarımız, yozuvchi, shoirlarımız, san’atkorlar, milliy qadriyatlarımız, muhim sanalar, voqealar munosabati bilan ko’plab uslubiy-bibiliografik qo’llanmalar muallifi. Masalan, “Millatni uyg’otgan adib”, “Asli dunyo mehrdan yaralgan”, “Sharqning ulug’ musavviri”, “G’afur G’ulom”, “Ubaydullo Solih o’g’li Zavqiy”, “Ma’rifatparvar shoir”, “Ozodlik va istiqlol kuychisi” kabi qo’llanmalar shular jumlasidan. Grant asosida amalga oshirilgan tadqiqot ishi natijasida nashr etilgan “Mafkura va yoshlar” uslubiy qo’llanmasining mualliflaridan biri. Bundan tashhari 1999–2018-yillar Respublika ko’zi ojizlar kutubxonasining ilmiy uslubiy ishlariga yordam bergen. 2021-yilda “Axborot-kutubxona a’lochisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi. Hozirgi kunda O’zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutining Kutubxona-axborot fəoliyati kafedrasıda bibliografiya yo’nalişida ta’lim berib kelmoqda.

Yana ko’plab bibliograflar haqidagi ma’lumotlarni A.I. Kormilitsinning 2005-yilda nashr etilgan “Библиотековеды и библиографы Узбекистана” ko’rsatkichdan tanishib, ma’lumotlar olishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, madaniyatning zamini insonlarga ziyo tarqatuvchi, umrning aql-idrokiga ma’naviy-ma’rifiy ozuqa beruvchi tafakkur mahsuli- kitobat olamidan iborat. Binobarin, bir avlod hayot tajribasi, yutuq va kamchiliklari, g’alaba-yu, mag’lubiylatlari, hatto kamchiliklari keyingi avlodga kitob orqali meros bo’lib qoladi. Kitob esa o’z-o’zidan dunyoga kelmaydi, o’quvchilar qo’liga borib qolmaydi. Uning kitobxon hayotidagi ahamiyati, kitob muallifidan so’ng kutubxonachi, ustoz murabbiy, kitob targ’iboti, uning ilmiy-bibliografiya munosabatlarida yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda gender tengligi siyosati ko’tarilgan vaqtida kutubxonachilik va bibliografiya sohasiga o’zining munosib hissasini qo’shgan va qo’shayotgan ustozlarımız fəoliyatini yoritish, yosh avlodga yetkazish, ularning ishlarini targ’ib qilish, ulardan o’rganish biz mutaxassislarining burchi hisoblanadi.

Maqolada esga olingan, ozmi ko’pmi ma’lumotlar keltirilgan bevosa va bilvosita ustozlarımızning o’tganlarining oxirati obod bo’lsin, Hozirgi kunda fəoliyat yuritayotgan ustozlarımızning umrlari uzoq bo’lsin. Yosh avlodni tarbiyalashda, o’z bilim va tajribalarini berishda charchashmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berdieva Z.Sh. Bibliografiya: “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” yo‘nalishi o‘quvchilari uchun darslik / Z.Berdieva.– Tuzatilgan va to‘ldirilgan 3-nashri; ma’sul muharrir M.Zuparova.–Toshkent: Premium poligraf biznes, 2024. – 185 b .
2. Fidoyi inson va mehribon ustoz / O‘zRFA Fundamental kutubxonasi; nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir M. Matmuradova. – Toshkent, 2018. – 80 b .
3. Кормилицин А.И. Библиотековеди и библиографи Узбекистана: очерки и воспоминания / А.И. Кормилицин; отв. ред. А. Умаров; Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои, Ташкентский Государственный институт культуры им А. Кадири. – Ташкент: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана имени Алишера Навои, 2005. – 296 с.
4. Yuksak sadoqat va fidoyilik ramzi / O‘zRFA Fundamental kutubxonasi; nashrga tayyorlovchi va to‘plovchi M. Matmuradova; muharrir Z. Berdiyeva.–Toshkent, 2019.–100 b.

*Rustamova Nilufar Mustafo qizi
Ilmiy-metodika xizmati rahbari Sharof Rashidov nomidagi
Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi*

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA ZAMONAVIY AXBOROT-TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola axborot-kutubxona muassasalarida zamonaviy axborot-texnologiyalarning qo‘llanilishi, ularning xizmat sifatiga ta’siri va O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini o‘rganadi. Tadqiqotda raqamli kutubxonalar, onlayn kataloglar va bulutli tizimlar kabi texnologiyalarning afzalliklari – tezkor axborot ta’minoti va madaniy merosni saqlashdagi roli hamda muammolar – moliyaviy cheklovlar va malaka yetishmasligi tahlil qilinadi. Natijalar texnologiyalarning kutubxonalarini modernizatsiya qilishdagi muhimligini ko‘rsatib, O‘zbekistonda ularni rivojlantirish uchun infratuzilma va kadrlar tayyorlashga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Maqola kelajakdagi tadqiqotlar uchun mahalliy yechimlar ishlab chiqishni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: axborot-texnologiyalar, kutubxona muassasalari, raqamlashtirish, onlayn kataloglar, bulutli texnologiyalar, madaniy meros.

Abstract. This article explores the application of modern information technologies in information and library institutions, their impact on the quality of services and their importance in the conditions of Uzbekistan. The study analyzes the benefits of technologies such as digital libraries, online catalogs, and cloud systems – their role in maintaining fast – paced information supply and cultural heritage, and the challenges-financial constraints and lack of competence. The results show the importance of technology in the modernization of libraries, emphasizing the need to focus on infrastructure and personnel training for their development in Uzbekistan. The article offers the development of local solutions for future research.

Keywords: Information Technology, Library institutions, digitization, online catalogs, cloud technologies, cultural heritage.

Bugungi kunda axborot jamiyatining jadal rivojlanishi dunyoning barcha sohalari, jumladan, kutubxona muassasalari faoliyatiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilm-fan, ta’lim va madaniyatning muhim markazlari sifatida xizmat qilgan kutubxonalar endi an’anaviy kitob saqlash joyidan zamonaviy axborot resurslarini boshqarish va tarqatish platformasiga aylanmoqda. Bu jarayonda zamonaviy axborot-texnologiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqib, kutubxona xizmatlarining sifati, foydalanuvchilar uchun qulaylik va axborotga erishish tezligini tubdan o‘zgartirib yubordi. Raqamli kutubxonalar, onlayn kataloglar, masofaviy xizmatlar va sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalari bugungi kundagi kutubxonachilikning ajralmas qismiga aylandi. Shu bilan birga, ushbu o‘zgarishlar nafaqat imkoniyatlar, balki yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda, masalan, moliyaviy resurslarning yetishmas-

ligi, texnologik infratuzilmaning nomukammalligi va mutaxassislar malakasini oshirish zarurati.

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda kutubxona muassasalari jamiyatning madaniy va intellektual hayotida muhim o‘rin tutadi. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona yoki viloyat axborot-kutubxona markazlari kabi tashkilotlar xalqqa bilim va axborot yetkazib berishda ko‘p yillik an’analarni davom ettirib kelmoqda. Biroq, global raqamlashtirish tendensiyalari va foydalanuvchilarining o‘zgaruvchan ehtiyojlari ushbu muassasalarini zamon bilan hamnafas bo‘lishga undamoqda. Zamonaviy axborot-texnologiyalarni joriy etish orqali kutubxonalar nafaqat o‘z xizmatlarini takomillashtirishi, balki kengroq auditoriyaga, shu jumladan, masofadan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu texnologiyalarning kutubxona faoliyatidagi o‘rni va ularning jamiyat uchun ahamiyatini o‘rganish dolzarb vazifaga aylanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi axborot-kutubxona muassasalarida zamonaviy axborot-texnologiyalarning qo‘llanilishini tahlil qilish, ularning afzallikkari va kamchiliklarini aniqlash hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida kutubxona xizmatlarining bugungi holati, texnologik yangiliklarning ta’siri va O‘zbekiston sharoitida ularni qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola nafaqat mavzuning ilmiy ahamiyatini olib berishga, balki amaliy jihatdan kutubxona tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar berishga qaratilgan. Shu tariqa, ushbu ish kutubxonachilik sohasini rivojlantirishda texnologiyalarning strategik roliga e’tibor qaratadi va ularning kelajakdagi o‘rnini bashorat qilishga harakat qiladi.

Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatida zamonaviy axborot-texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilarining e’tiborini tortgan. O‘zbekiston va xalqaro miqyosda bu soha bo‘yicha olib borilgan ishlar kutubxona xizmatlarining raqamlashtirish jarayonidagi o‘zgarishlarni, texnologik yangiliklarning afzallikkari va muammolarini tahlil qilishga qaratilgan. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar va ularning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019-yildagi PQ-4354-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” mamlakatda kutubxona sohasini rivojlantirishning huquqiy asosini belgilaydi. Ushbu hujjatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, kutubxona fondlarini raqamlashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkmalash va foydalanuvchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish kabi ustuvor vazifalar qayd etilgan. Qarorda, shuningdek, 2019–2024-yillarga mo‘ljallangan axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiysi va chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo‘lib, bu hujjatlar O‘zbekistonda kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat siyosatini aks ettiradi. Biroq, ushbu hujjat amaliy qo‘llanilishi va natijalari bo‘yicha yetarli ilmiy tahlil mavjud emas, bu esa tadqiqot uchun qo‘srimcha imkoniyatlar ochadi.

Mannonov va Mavlyanov (2013) tomonidan yozilgan “Axborot-kutubxona texnologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma” kitobida kutubxona jarayonlari ni avtomatlashtirish va zamonaviy texnologik vositalarning qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Mualliflar elektron kotiblar (PDA – Personal Digital Assistance)

kabi qurilmalarning kutubxona xizmatlarida axborotni boshqarish va saqlashdagi rolini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bu qurilmalar kichik hajmiga qaramay, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va almashish imkonini beradi. Biroq, ushbu ishning asosiy kamchiligi shundaki, u 2013-yilda nashr qilinganligi sababli, so‘nggi o‘n yillikdagi raqamlı kutubxonalar va sun’iy intellekt kabi yangi texnologiyalarni qamrab olmaydi.

Xalqaro miqyosda Febriyanti va boshqalar (2023) tomonidan “Information Technology Development’s Impact On Library Services” nomli maqolada axborot-texnologiyalarning kutubxona xizmatlariga ta’siri tahlil qilingan. Mualliflar raqamlı kutubxonalar, elektron kitoblar va ma’lumotlar bazalarining foydalanuvchilar uchun axborotga erishishni osonlashtirganini ta’kidlaydilar. Ularning xulosasiga ko‘ra, kompyuterlash-tirilgan boshqaruv tizimlari axborotni qidirish va filtrlashtirish jarayonlarini tezlashtir-gan. Shu bilan birga, tadqiqotda raqamlı resurslarga bog‘liqlikning moliyaviy barqarorlikka tahdid solishi va internet infratuzilmasining yetishmasligi kabi muammolar ham qayd etilgan. Ushbu ish global tendensiyalarni yaxshi yoritgan bo‘lsa-da, rivojlanayot-gan mamlakatlar, xususan, O‘zbekiston sharoitiga mos namunalar keltirilmagan.

Shahid (2018) o‘zining “Modern library services in developing world: An overview of Aga Khan University Libraries” maqolasida Aga Khan Universiteti kutubxonalarining tajribasini o‘rganadi. Ushbu tarmoq Janubiy Osiyo, Sharqiy Afrika va Buyuk Britaniyada joylashgan bo‘lib, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasida boy raqamlı kollek-siyalarni taqdim etadi. Muallif kutubxonaning 11 mingdan ortiq kitob va 21 ming elektron kitobdan iborat resurslari foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratganini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlarda kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha amaliy misol keltirsa-da, u faqat bitta institutsional tajribaga e’tibor qa-ratganligi sababli umumiylar xulosalar chiqarishda cheklowlarga ega.

Sofiyani va Ayu (2024) tomonidan chop etilgan “Transformation: Library Services Traditional And Modern” maqolasida an’anaviy va zamonaviy kutubxona xizmatlari solishtirilgan. Mualliflar an’anaviy kutubxonalarining jismoniy resurslarga tayanishi va qo‘lda boshqarilishi bilan zamonaviy kutubxonalarining raqamlı platformalar va avto-matlashtirishga asoslanishini taqqoslaysilar. Tadqiqotda zamonaviy kutubxonalarining bulutli saqlash tizimlari va internet kataloglari orqali samaradorlikni oshirgani ko‘rsa-tilgan. Biroq, ushbu ishda texnologiyalarni joriy etishdagi moliyaviy va infratuzilmaviy to‘siqlar yetarli darajada muhokama qilinmagan.

Yuqoridaq adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, zamonaviy axborot-texnologiyalar-ning kutubxona xizmatlarini rivojlantirishdagi roli bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar mavjudligi aniq bo‘ladi. O‘zbekiston kontekstida Prezident qarori va Mannonovning ishi mahalliy sharoitlarni yoritishda muhim bo‘lsa-da, ularning zamonaviy tendensiya-larni to‘liq qamrab olmasligi kuzatiladi. Xalqaro tadqiqotlar esa global tajribani aks et-tirgan bo‘lsada, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘ziga xos muam-molariga kam e’tibor qaratadi. Shu sababli, ushbu maqola mazkur bo‘shliqlarni to‘ldi-rishga, O‘zbekiston kutubxonalarida texnologiyalarning qo‘llanilishini amaliy misollar bilan tahlil qilishga va mahalliy sharoitlarga mos takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot axborot-kutubxona muassasalarida za-monaviy axborot-texnologiyalarning qo‘llanilishi va ularning O‘zbekiston sharoitidagi

ta'sirini o'rganishga qaratildi. Sifatli va miqdoriy usullarning kombinatsiyasi qo'llanilib, adabiyotlar tahlili, amaliy misollar yig'ish va statistik ma'lumotlarni o'rganish asos qilib olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019-yildagi PQ-4354-son qarori, ilmiy maqolalar va Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona kabi muassasalarning faoliyati asosiy manba sifatida ishlatildi. Kuzatuv usuli orqali raqamli kataloglar va onlayn xizmatlarning qo'llanilishi o'rganilib, Madaniyat vazirligidan olingan statistik ma'lumotlar bilan texnologiyalarning samaradorligi baholandi. Xalqaro tajriba (masalan, Aga Khan Universiteti kutubxonalarini) bilan solishtirish mahalliy muammolar va imkoniyatlarni aniqlashga yordam berdi. Ma'lumotlar sifatli tahlil (foydalanuvchi qulayliklari va muammolar) va miqdoriy tahlil (jihozlanish darajasi, foydalanuvchilar soni) usullari bilan qayta ishlandi. Tadqiqot yirik muassasalarga e'tibor qaratganligi sababli kichik kutubxonalarini to'liq qamrab olmadi. Ushbu ish O'zbekiston kontekstida texnologik ta'sirni mahalliy misollar bilan yoritib, amaliy takliflar berishga yo'naltirildi.

Zamonaviy axborot-texnologiyalar kutubxona muassasalarining faoliyatini tubdan o'zgartirib, ularni an'anaviy kitob saqlash joyidan zamonaviy axborot markazlariga aylantirdi. Bu jarayonda raqamli kutubxonalar, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlar bazasi tizimlari kabi vositalar asosiy rol o'ynaydi. Raqamli kutubxonalar kitoblar, jurnallar va arxiv hujjatlarini elektron shaklda taqdim etib, foydalanuvchilarga istalgan joydan, istalgan vaqtida axborotga kirish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalar esa katta hajmdagi ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va tezkor qayta ishlashni ta'minlaydi, bu esa kutubxona resurslarini boshqarishda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Sun'iy intellekt foydalanuvchilarning qidiruv so'rovlarini tahlil qilib, ularga mos keladigan materiallarni avtomatik ravishda tavsiya qilish yoki kataloglashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish kabi murakkab vazifalarni bajaradi. Ma'lumotlar bazasi tizimlari esa millionlab kitoblar va maqolalarni bir joyga jamlaydi, bu esa axborotni qidirish va topishni misli ko'rilmagan darajada osonlashtiradi. Masalan, O'zbekistonda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona tomonidan joriy qilingan elektron kataloglar foydalanuvchilarga kitob nomini yoki muallifni kiritish orqali bir necha soniya ichida kerakli manbani topish imkonini bermoqda. Kutubxona muassasalarida ushbu texnologiyalarning qo'llanilishi xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga ko'tardi. Kitoblarni raqamlashtirish jarayoni milliy madaniy merosni asrashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, qog'oz nuxsalar eskirishidan himoyalanib, ularning raqamli versiyalari keng ommaga taqdim etilmoqda. Onlayn kataloglar foydalanuvchilarga kutubxonaga kelmasdan turib, fondagi mavjud resurslarni ko'rish va bron qilish imkonini beradi, bu esa ayniqsa masofadan foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi. Masofaviy xizmatlar, masalan, elektron kitoblar va jurnallarni yuklab olish yoki vebinarlar orqali ilmiy tadbirlar tashkil etish kabi yangiliklar kutubxonalarini global axborot tarmog'inining bir qismiga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi qaroriga asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish va foydalanuvchilarga tezkor xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan. Masalan, viloyatlardagi axborot-kutubxona markazlarida bulutli tizimlar orqali birlashgan ma'lumotlar bazasi joriy etilmoqda, bu esa resurslarni hududlar o'rtasida al-

mashishni osonlashtirdi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar kitobxonarning qiziqishlarini tahlil qilib, ularga shaxsiy tavsiyalar berishda sinovdan o’tkazilmoqda.

Texnologiyalarning afzalliklari ko‘p jihatdan kutubxona xizmatlarining samaradorligini oshirdi. Tezkor axborot ta’minoti foydalanuvchilarining vaqtini tejaydi, masalan, onlayn katalog orqali kitobni topish an’anaviy kartochkali tizimga qaraganda bir necha barobar tezroq amalga oshiriladi. Xarajatlarni kamaytirish ham muhim afzallikklardan biri bo‘lib, raqamli resurslar jismoniy nusxalarni chop etish va saqlash xarajatlarini qisqartiradi. Bundan tashqari, masofaviy xizmatlar tufayli kutubxonalar kengroq auditoriyaga xizmat ko‘rsata oladi, bu esa jamiyatning axborot madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud. Moliyaviy cheklolvar, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik infratuzilmani rivojlantirishda katta to‘siq bo‘lib turibdi. Yangi uskunalar sotib olish, internet tar-mog‘ini kengaytirish va dasturiy ta’minotni yangilab borish uchun katta mablag‘ talab qilinadi. Xodimlar malakasining yetishmasligi yana bir jiddiy muammo sifatida ko‘zga tashlanadi – ko‘plab kutubxonachilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emas, bu esa joriy etilgan tizimlardan to‘liq foydalanishga xalaqit beradi. Masalan, viloyatlardagi ba’zi kutubxonalarda raqamli tizimlar o‘rnatilgan bo‘lsa-da, xodimlarning malaka darajasi pastligi sababli ular faqat qisman ishlatilmoqda. Shu bilan birga, internet aloqasining barqaror emasligi va raqamli resurslarga obuna xarajatlari kabi omillar ham texnologiyalarning keng qo‘llanilishini cheklamoqda.

Ushbu o‘zgarishlar fonida O‘zbekiston kutubxonalari uchun zamonaviy texnologiyalar nafaqat imkoniyat, balki muhim sinov sifatida ham ko‘rinadi. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari milliy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda yangi imkoniyatlar ochsa-da, infratuzilmaviy va kadrlar bilan bog‘liq muammolar bu sohada jadal rivojlanishga to‘sinqlik qilmoqda. Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, masalan, Aga Khan Universiteti kutubxonalari kabi muassasalarda bulutli tizimlar va sun’iy intellekt keng qo‘llanishi samaradorlikni oshirganini ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda ham shunga o‘xhash yondashuvlarni qo‘llash orqali kutubxona xizmatlarini zamon talablariga moslashtirish mumkin, ammo bu jarayon davlat siyosati, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va mutaxassislar tayyorlash bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur.

Ushbu tadqiqot zamonaviy axborot-texnologiyalarning kutubxona muassasalarida-gi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish jarayonida bir qator muhim natijalarga erishdi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli kutubxonalar, onlayn kataloglar, bulutli tizimlar va ma’lumotlar bazalari kutubxona xizmatlarini sezilarli darajada yaxshilagan. Bu vositalar axborotga tezkor kirish imkonini berib, foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratdi va kutubxonalarning an’anaviy chegaralarini kengaytirdi. O‘zbekiston misolida, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona kabi muassasalarda raqamlashtirish va onlayn xizmatlar joriy etilishi foydalanuvchilar sonini oshirishga va milliy madaniy merosni saqlashga xizmat qildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda elektron resurslardan foydalanish darajasi o‘sib bormoqda, bu esa kutubxonalarning zamona-viy axborot markazlariga aylanish potentsialini ko‘rsatadi. Biroq, texnologiyalarning afzalliklari bilan birga, bir qator qiyinchiliklar ham aniqlandi. Moliyaviy resurslarning

cheklanganligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, ayniqsa, viloyatlardagi kutubxonalarda sezilarli to'siq bo'lib turibdi. Xodimlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malakasining pastligi ham samaradorlikni pasayti-ruvchi omil sifatida ko'zga tashlandi. Shu bilan birga, raqamli resurslarga bog'liqlik va internet aloqasining barqaror emasligi foydalanuvchilar uchun xizmat sifatiga salbiytasir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik integratsiyaning murakkabligini ko'rsatadi, lekin ularni bartaraf etish yo'llari mavjud.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat axborot ta'minotini tezkorlashtiradi, balki jamiyatning bilim va madaniyatga bo'lgan ehtiyojini qondirishda yangi imkoniyatlar ochadi. O'zbekiston sharoitida bu jarayon davlat siyosati bilan qo'llab-quvvatlanmoqda, masalan, 2019-yildagi Prezident qarori ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Biroq, muvaffaqiyatga erishish uchun moliyaviy investitsiyalarni ko'paytirish, xodimlarni o'qitish va infratuzilmani yaxshilash zarur. Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, raqamli kutubxonalar va avtomatlashtirilgan tizimlar keng qo'llanilgan mamlakatlarda kutubxona xizmatlari yanada samarali va foydalanuvchilar uchun qulay bo'lganini ko'rish mumkin.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar kutubxonalarning kelajakdagi rolini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib qoladi. O'zbekistonda ushbu jarayonni tezlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mahalliy mutaxassislarini tayyorlashga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, raqamli resurslarning xavfsizligi va foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar kutubxonalarni nafaqat axborot saqlovchi, balki uni targ'ib qiluvchi va jamiyatni rivojlantiruvchi muassasalarga aylantirish qudratiga ega. Kelajakda bu sohada yanada kengroq tadqiqotlar o'tkazish orqali mahalliy sharoitga mos yechimlar topish mumkin.

Ushbu tadqiqot zamonaviy axborot-texnologiyalarning kutubxona muassasalarida-gi o'rni va ahamiyatini o'rganib, ularning xizmat sifatini oshirishdagi muhim rolini tasdiqladi. Raqamli kutubxonalar, onlayn kataloglar va bulutli tizimlar axborotga tezkor kirishni ta'minlab, kutubxonalarni zamonaviy axborot markazlariga aylantirdi. O'zbekiston misolida, bu texnologiyalar milliy madaniy merosni saqlash va foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishda samarali bo'ldi. Biroq, moliyaviy chekllovlar, xodimlar malakasining yetishmasligi va infratuzilma muammolari kabi to'siqlar aniqlandi. Texnologiyalar kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilishda katta imkoniyatlar ochsa-da, ularning to'liq joriy etilishi davlat qo'llab-quvvatlashi, kadrlar tayyorlash va resurslarni oshirishga bog'liq. Kelajakda bu sohada mahalliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqish va raqamli xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarur. Umuman, zamonaviy texnologiyalar kutubxonalarni jamiyat rivoji uchun muhim institutga aylantirish salohiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yana da takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019-yil 7-iyun 4354-sonli // Xalq so‘zi. – 2019. – 8-iyun.
2. Mannonov Y.O. Axborot-kutubxona texnologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / Y.O. Mannonov, K.G. Mavlyanov. – Toshkent: Noshir, 2013. – 288 b.
3. Information technology development’s impact on library services / R. A.Febriyanti, T.Nurtino, M. L.Huzaifah, D. A. R. Kusumawardhani // International Transactions on Education Technology (ITEE). – 2023. – №2 (1). – P. 24-30.
4. Shahid, S. Modern library services in developing world: An overview of Aga Khan University Libraries // Pakistan Library & Information Science Journal. – 2018. – №49 (3). – P.41.
5. Sofiyani Z. Transformation: library services traditional and modern / Z.Sofiyani, C. R. Ayu // LibTech: library and information science journal. – 2024. – №5 (1). – P.13-24.
6. Ganiyeva B. Axborot kutubxona katalogi va fondi: o ‘quv qo ‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 214 b.
7. Migranova, E. and Pozilova, S. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish/ E. Migranova, S. Pozilova. – Тошкент: Aloqachi, 2017. – P. 5–6.
8. Piatnychuk I. Modern information technologies and services in public institutions / I. Piatnychuk, H. Pyatnychuk // Journal of vasyl stefanyk precarpathian National University. – 2021. – №8 (3). – P. 43-51.
9. Jessy A. Marketing of resources and services with emerging technologies in modern libraries: an overview / A. Jessy, M. Rao // International Journal of information dissemination and technology. – 2016. – №6 (1). – P. 15-20.

**УДК: 027.6:364.65-056.262(476)+
+ 027.54(476-25)**

Гаврилович И.И.
заведующий отделом библиотечного обслуживания
Национальная библиотека Беларусь

ЦИФРОВИЗАЦИЯ И ДОСТУПНОСТЬ ФОНДОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ БИБЛИОТЕКИ БЕЛАРУСИ ДЛЯ НЕЗРЯЧИХ И СЛАБОВИДЯЩИХ ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ

***Аннотация:** статья рассказывает о положительном влиянии цифровизации на обеспечение доступа к фондам Национальной библиотеки Беларусь для незрячих и слабовидящих пользователей. Описывает такие направления выполнения их информационных запросов, как предоставление тифлосредств для работы с документами в читальном зале, преобразование документов в доступные для их восприятия электронные форматы, удаленное обслуживание. Акцентирует внимание на значимости внесения изменений в Национальное законодательство об авторском праве и ратификации в Республике Беларусь Марракешского договора для развития библиотечного обслуживания данной категории пользователей. Очерчивает ближайшие задачи расширения возможностей удаленного доступа к предназначеному для них контенту.*

***Ключевые слова:** Национальные библиотеки, доступ, библиотечные информационные ресурсы, библиотечное обслуживание, инвалиды по зрению, преобразование документов, Марракешский договор*

***Annotation:** the article describes the positive impact of digitalization on providing access to the collections of the National Library of Belarus for blind and visually impaired users. The article describes such areas of fulfilling their information requests as providing tiflo-means for working with documents in the reading room, documents converting into accessible to their perception electronic formats, and remote servicing. It emphasizes the importance of amending the national copyright legislation and ratification in the Republic of Belarus for the development of library services for this category of users. It outlines the immediate tasks of expanding the possibilities of remote access to the intended for them content.*

***Keywords:** national libraries, access, library information resources, library services, visually impaired, document conversion, Marrakesh Treaty*

Национальная библиотека Беларусь – это алмаз знаний, визитная карточка страны. Главная ее задача – формирование Национальной библиографии и максимально полной коллекции Национальных документов, а также собрания зарубежных изданий, которые представляют собой образовательную, научную и культурную ценность.

Доступ к фонду, который насчитывает более 10,5 млн экземпляров, и электронным ресурсам библиотека обеспечивает как в читальных залах, так и удаленно, создавая равные возможности для всех категорий читателей.

Фонд изданий, предназначенных для незрячих и слабовидящих пользователей, насчитывает сегодня около 1300 изданий, напечатанных шрифтом Брайля, и около 2000 аудиокниг. При этом практически любой документ библиотеки доступен для них благодаря установленному в читальных залах тифлооборудованию, работе по преобразованию документов в доступные для их восприятия (непосредственного и с помощью тифлосредств) цифровые форматы, электронной доставке документов.

С помощью луп слабовидящие читатели могут работать как с плоскопечатными, так и с электронными документами библиотеки. Электронная лупа проецирует страницы печатного издания на экран компьютера и значительно их увеличивает, а экранная лупа,строенная в Windows, укрупняет электронную информацию.

Незрячие читатели для работы с документами используют озвучивающие тифлопрограммы, которые поддерживают голосовые модули на русском, белорусском, английском и других языках. Программа экранного доступа NVDA озвучивает взаимодействие незрячего пользователя с компьютером и текстовую информацию с экрана. Программа Balabolka озвучивает электронный текст и сохраняет его в виде аудиодокумента.

Тифлопрограммы озвучивают только электронную информацию, и только ее текстовый слой. Для того, чтобы незрячие читатели могли использовать эти программы, печатные издания и электронные документы, имеющие графический формат (например, PDF), должны быть преобразованы в электронный текстовый формат (например, Word, txt, или PDF с текстовым слоем).

Преобразование документов осуществляется в несколько этапов. Печатный документ преобразуется в электронный путем сканирования, а графический формат в текстовый – путем автоматического распознавания. Полученный документ содержит множество разнородных ошибок, поэтому при программном озвучивании воспринят его может только хорошо подготовленный и сильно мотивированный слепой пользователь. Чтобы документ стал доступен большинству инвалидов по зрению, его необходимо отредактировать: вручную исправит грамматические ошибки и технические помарки распознавания, описат важные для восприятия текста рисунки, перевести в текстовый вид таблицы, графики, схемы, диаграммы. Это самый трудоемкий этап преобразования, требующий внимательности и терпения. По запросу пользователя отредактированный электронный текстовый документ, готовый к озвучиванию синтезаторами речи, может быть подвержен дальнейшему преобразованию программой Balabolka, которая его не только озвучит, разбив на аудиофрагменты, но и сохранит как аудиодокумент, готовый к воспроизведению. В последнее время для озвучивания малобъемных документов используются также бесплатные программы искусственного интеллекта, обладающие более приятными и более естественными голосами.

Незрячие и слабовидящие пользователи, к сожалению, маломобильны, они испытывают значительные трудности в передвижении и посещении библиотеки. Однако многие из них имеют в личном пользовании тифлосредства, аналогичные установленным в Национальной библиотеке Беларусь, что позволяет развивать удаленное обслуживание.

Бесплатную электронную доставку фрагментов документов библиотека начала осуществлять еще в 2013 году. С внесением поправок в Национальное законодательство об авторском праве и присоединением в 2020 году Республики Беларусь к Марракешскому договору об облегчении доступа слепых и лиц с нарушениями зрения или иными ограниченными способностями воспринимат печатную информацию к опубликованным произведениям (далее – Марракешский договор) наступил новый этап в развитии электронной доставки документов для инвалидов по зрению. Библиотеки получили право по запросам бенефициаров, во-первых, преобразовывать не только фрагменты, но и полные произведения; во-вторых, преобразовывать не только в специальный, например, рельефно-точечный, а в доступный, т.е. удобный для восприятия незрячего пользователя, формат; в-третьих, передавать им в личное пользование целые преобразованные произведения.

Сегодня для инвалидов по зрению Национальная библиотека Беларусь осуществляет электронную доставку фрагментов и целых произведений, преобразованных в электронные доступные форматы: PDF – доступный для слабовидящих с помощью луп или других увеличивающих устройств; Word, txt – доступные для незрячих с помощью программ экранного доступа и синтезирования речи; MP3 – непосредственно воспринимаемый бенефициарами аудиоформат с синтезированным голосом.

Преобразование документов и доставка преобразованных экземпляров выполняются с соблюдением обязательных условий:

только по запросу инвалида по зрению при предъявлении им удостоверения либо другого документа, подтверждающего инвалидность по зрению;

с обязательной фиксацией в учетной форме информации о заказе (заказчик, даты поступления и выполнения, формат, исполнитель);

с проставлением на преобразованных экземплярах отметки о том, что они преобразованы по запросу пользователя с инвалидностью по зрению и предназначены для его личного пользования;

с ограничением доступа к преобразованным экземплярам лиц, для которых эти экземпляры не предназначены.

Не менее важным условием является и обеспечение возможности поиска произведений в доступных для инвалидов по зрению форматах – посредством библиотечных каталогов, что наиболее эффективно, либо каким-то другим способом. Документы, напечатанные шрифтом Брайля, и аудиодокументы из фондов Национальной библиотеки Беларусь отражены в электронном каталоге и его веб-версии. Задачу информирования о преобразованных экземплярах библиотека решает пока с помощью интернет-портала. Списки документов, преобразованных библиотекой по запросам бенефициаров, размещены в разделе портала “Брайл и

речь. Обслуживание незрячих и слабовидящих пользователей". В этом разделе имеется также подробная информация о контактах и услугах, предоставляемых библиотекой для инвалидов по зрению, порядке их получения.

Благодаря развитию цифровых технологий расширяются возможности коммуникации и выполнения информационных запросов инвалидов по зрению. Если раньше главными инструментами удаленного обслуживания бенефициаров были телефон и электронная почта, то сегодня к ним добавились различные виртуальные файловые системы, социальные сети и мессенджеры. Пользователи с глубокими нарушениями зрения могут выбрать наиболее удобный для них способ обращения в библиотеку и получения необходимой консультационной помощи и документов в доступных для них форматах.

Национальная библиотека Беларусь впервые обратилась к вопросу обслуживания незрячих и слабовидящих пользователей в 2006 г., когда при открытии нового здания в одном из читальных залов было установлено тифлооборудование. Сегодня библиотека обеспечивает их информационные потребности, работая в цифровой среде: выполняет преобразование документов в доступные электронные форматы с помощью бесплатных тифлопрограмм; активно использует возможности системы межбиблиотечного абонемента для выполнения заказов других библиотек, в том числе специальных библиотек для слепых, на преобразование документов и для правомерного получения электронных копий изданий из фондов зарубежных библиотек с целью последующего их преобразования; развивает удаленное обслуживание путем электронной доставки документов и коммуникации посредством электронной почты, социальных сетей и мессенджеров.

Решение стоящих перед Национальной библиотекой Беларусь задач каталогизации преобразованных документов и предоставления удаленного доступа к документам, преобразованным и предназначенным для пользователей с инвалидностью по зрению, через электронную библиотеку позволит обеспечить еще большую доступность ее уникального фонда для бенефициаров.

Список литературы:

1. Марракешский договор об облегчении доступа слепых и лиц с нарушениями зрения или иными ограниченными способностями воспринимать печатную информацию к опубликованным произведениям: принят в г. Марракеш 27 июня 2013 г. (дата обращения: 09.04.2025).
2. Об авторском праве и смежных правах: Закон Республики Беларусь от 17 мая 2011 г. № 262-З: в ред. от 9 января 2023 г. № 243-З: [принят Палатой представителей 27 апреля 2011 г.: одобрен Советом Республики 28 апреля 2011 г.] // ЭТАЛОН: информ.-поисковая система. (дата обращения: 09.04.2025).
3. Приступая к действиям. Реализация норм Марракешского договора для лиц с ограниченными способностями воспринимать печатную информацию: практ. рук. для библиотекарей / Дж. Коутс, К. Фелсманн, Т. Хакетт [и др.]; ред. В. Оуэн. – [Б. м.]: [Б. и.], 2018. – 23 с. (дата обращения: 09.04.2025).

Джафарова Гумиера Аласгар гызы,
Заведующая отделом библиографии, Институт рукописей имени
Мухаммеда Физули НАН Азербайджана

**ЦИФРОВОЙ БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЙ РЕСУРС ПОСВЯЩЕННЫЙ
МУХАММАДУ ФИЗУЛИ КАК ЭЛЕМЕНТ СОХРАНЕНИЯ
ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ**

Аннотация. В научно-исследовательской работе, помимо произведений, входящих в богатое наследие великого азербайджанского поэта Мухаммеда Физули, к анализу привлечен библиографический ресурс, отражающий достаточно большой объем проведенных научных исследований и многочисленных источников по его жизни, личности, искусству и творчеству. Подчеркивается важность этого источника, который систематически собирает рукописные копии наследия великого поэта, хранящиеся в мировых книжных сокровищницах, отдельные издания его произведений, а также опубликованную о нем литературу и доносит их до любителей Физули. В целях удовлетворения потребностей потребителей информации изучается библиографический указатель под названием “Мухаммад Физули”, составленный в 2011 году сотрудниками Института рукописей имени Мухаммада Физули НАНА.

Ключевые слова: литературное наследие, поэзия, нравственная ценность, Информационный ресурс, документальный ресурс.

Abstract. In the scientific research work, in addition to the works included in the rich heritage of the great Azerbaijani poet Muhammad Fuzuli, a bibliographic resource reflecting a fairly large volume of scientific research and numerous sources conducted on his life, personality, art and creativity is involved in the analysis. The importance of this source, which collects manuscript copies of the legacy of the great word master stored in world book treasures, separate editions of his works and printed literature about him and delivers them to Fuzuli lovers in a systematic manner, is emphasized. In order to meet the needs of information consumers, a bibliographic index named “Muhammad Fuzuli” compiled in 2011 by the employees of the Institute of Manuscripts named after Muhammad Fuzuli of ANAS is being studied.

Keywords: literary heritage, poetry, moral value, information resource, document resource.

Анализ библиографического ресурса показывает, что при его составлении были использованы: каталоги библиотек и музеев разных стран, библиографии М. Джумбура и А. Халафова, посвященные 400-летию со дня смерти Физули, библиографические указатели “Магомед Физули”, составленные Дж. Гахрамановым и А. Халиловым к 500-летию со дня рождения великого поэта, “Издание произведений Магомеда Физули”, подготовленное к печати Ф. Мамедовым, библиографии, прилагаемые к отдельным изданиям произведений самого поэта, а также библи-

ографические сведения в монографиях, написанных о нем. Также были изучены каталоги и картотеки ведущих библиотек нашей республики и собраны ценные материалы. Одним из положительных качеств издания является группировка документальных и Информационных ресурсов, включенных в библиографию, в отдельные разделы по их историческому и алфавитному принципам.

Изучение первого раздела, охватывающего рукописные копии, дает основание утверждать, что древнейшей из рукописей Физули с исторической точки зрения является маснави “Лейли и Меджнун”. Эта рукопись хранится в библиотеке Музея Мевланы в Турции. Источник утверждает, что экземпляр с 2317 цифрами был переписан на 107 листах шрифтом талик в 948 г. хиджры (1541/42 г. н.э.) – при жизни поэта. Информация об этом взята из второго тома каталога, составленного Абдулбаги Гёльпинарли (Анкара, 1971, стр. 310-311) [1]. Примечательно, что вторая по древности копия произведения “Хадикатус-суада” находится с точки зрения даты его перевода. Установлено, что в мировых книжных сокровищницах имеется 232 экземпляра этого произведения, написанного поэтом по просьбе Мухаммеда-паши, одного из приближенных османского султана Сулеймана Великолепного. По мнению исследователей, древнейшей рукописью произведения считается копия, переписанная Мир Али Харави в 953 году по хиджре (1546 год н. э.). Добавление 17 миниатюр к этому великолепному художественному памятнику, несомненно, делает рукопис еще более ценным источником.

Целесообразно предоставить краткую Информацию об их работах, отраженных в библиографическом ресурсе, в целях их популяризации и исследования. Во-первых, упомянем еще одну копию “Хадикат-ус-суада”, которая была скопирована при жизни Физули в 954 г. по хиджре (1547 г. н.э.) и хранится в библиотеке Юсифа Аги в Конье, Турция. Еще один древний экземпляр, переписанный в Багдаде Хабиуллой Исфахани еще при жизни великого поэта, принадлежит персидскому дивану. Эта копия, датированная 959 годом по хиджре (1552 годом н.э.), хранится в библиотеке Мурадийя в Манисе. Самый древний экземпляр “Турецкого дивана”, занимающий второе место по количеству копий (192 экземпляра), хранится в библиотеке медресе Супехсалар в Тегеране. Лицевая сторона этого экземпляра была переписана шрифтом насталик еще при жизни поэта в XVI веке [1].

Несомненно, известность поэту принесли и другие его произведения, а также его диваны. Большой интерес представляют такие его произведения, как эпос “Лейли и Меджнун”, посвященный правителю Багдада Увайзу-паше, “Бенгу Баде”, посвященный шаху Исмаилу и написанный на общественно-политическую тему, “Сем чаш” (“Сакинама”), передающий идеи о мире и творении посредством языка музыкальных инструментов, аллегорические поэмы “Сохбетуль-асмар” (“Беседа плодов”), посвященные критике высокомерия, “Хадикатус-суада”, написанная в качестве предисловия к труду персидского ученого и писателя Хусейна Ваиза Кашифи “Ровзатуш-шухада”, и “Сеххат ве Мараз”, в котором обсуждаются идеи и соображения, связанные с медициной и природой [3]. Также прозаические произведения Физули, такие как “Ринду Захид” и “Матлуф-этикад”, повествующие

о мировоззрениях отца и сына и их противоречиях, о значении науки, искусства и чтения, “Муаммати-фарси”, в котором рассматриваются теоретические вопросы жанра детектива, “Анисул Калб” – 138-стиховое произведение, посвященное “Касиди-шинийя” великого азербайджанского поэта Хагани, “Хадиси Арбаин” в переводе с А. Джами и другие рукописные копии его произведений украшают книжные сокровищницы библиотек, музеев и институтов, действующих в Баку, Париже, Лондоне, Риме, Нью-Йорке, Уппсале, Берлине, Тегеране, Тебризе, Стамбуле, Анкаре, Каире, Тбилиси, Ташкенте, Душанбе, Санкт-Петербурге и других городах. Исследования также показывают, что богатый словарный запас великого поэта сделал его бессмертным, и что последующие мастера слова, критики и педагоги обращались к нему и извлекали пользу из его творчества.

Необходимо также учитывать один момент: особое место и роль средневековых комментаторов в распространении произведений Физули. Латифи, Сэм Мирза, Ахди Багдади, Ашик Челеби, Хасан Челеби, Али, Садык бей Афшар, Риязи, Файзи, М. Насрабади, Лютфали бей Азер и другие комментаторы привели примеры произведений Физули и высказали свое мнение о них. Латифи описывали как “новаторского в стиле и независимого в своем пути”, Сэма Мирзу – как “Мевлану Физули”, Али – как “обладающего силой и добродетелью в поэзии и прозе”, а Ахди Багдади – как “совершенного в знании и просвещении, добродетельного в искусствах, веселого в речи, приятного в разговоре, ... не имеющего себе равных в новом смысле и содержании”, – и говорили о таланте Физули [1]. Конечно, широко распространит стол богатое поэтическое литературное наследие только посредством средневековых комментариев было бы невозможно. По этой причине, помимо исследования и изучения творчества Физули, вопрос подготовки совершенного издания его произведений всегда волновал фузулиеведов.

Исследования показывают, что “Диван Физули” был впервые составлен в 1828 году на основе существующих рукописных диванов. Этот диван был напечатан методом литографии в городе Тебриз. После этого диван Физули многократно издавался в Стамбуле, Каире, Хиве, Ташкенте и других городах Востока. Аналогичным образом читателям стали доступны различные издания сборников и отдельных произведений великого поэта. В частности, поэма Ашига Калаби “Лейли и Меджнун”, в комментарии к которой “Машайруш-шуара” он говорит, что “каждое слово – яркая свеча, каждая точка – огонь, разбрасывающий искры”, была опубликована в Азербайджане спустя пять лет после ее первой печати в типографии “Амири”.

В настоящее время редкий экземпляр этого произведения под шифром Х-787, не отраженный в библиографических источниках, хранится в сокровищнице старопечатных книг Института рукописей имени Мухаммеда Физули НАНА среди многочисленных литографий. В примечании секретаря в конце этого издания, напечатанного в Тебризе, говорится, что поэма была написана каллиграфом Юсуфом аль-Мусави в 1234 году по хиджре (1819 год н. э.) для публикации по просьбе ахунда Моллы Абдуллы аль-Муртазави. Этот год можно считать датой зарождения печатной книги в Азербайджане. Тот факт, что этот шедевр гения Физули доступ-

пен на родном языке и используется в качестве учебника в школах и медресе, создал необходимость его публикации. Поэтому этот экземпляр, представленный читателям 203 года назад, можно считать первой книгой, напечатанной на родном языке в Азербайджане.

В первом разделе, охватывающем рукописи библиографического издания, являющегося ценным источником в системе документально-информационного обеспечения фузулиеведения, материалы перечислены по дате копирования рукописи. В рукописях, дата перевода которых неизвестна, за основу берется алфавитный порядок имен писцов, а если писец не указан, то описания рукописей все равно представляются читателям с указанием мест их хранения в рамках жанра. Во втором разделе рассматриваются опубликованные произведения Физули. В этом разделе материалы сгруппированы в два подраздела: “На азербайджанском языке” и “Произведения Физули на других языках”. Внутри подразделов источники перечислены по типу публикации и во внутреннем хронологическом порядке. Третий раздел включает в себя сначала книги, а затем статьи о жизни, личности, творчестве и творчестве Физули. В данном разделе материалы сгруппированы по признаку публикации на “азербайджанском” и других иностранных языках.

Таким образом, на основании включенных нами в исследование библиографических данных можно сказать, что только до 2011 года наследие Мехмеда Физули было опубликовано в виде книги 55 раз. Помимо многочисленных копий его произведений в отдельных книгах, наиболее поэтически характерные образцы, отражающие основные линии лирики Физули, в основном из турецкого дивана и эпоса “Лейли и Меджнун”, доведены до сведения читателей в переписке, учебных изданиях по истории литературы, сборниках, хрестоматиях, учебниках для средней школы, периодических изданиях, за небольшими исключениями. Конечно, это связано с тем, что наш бессмертный художник обогатил азербайджанский литературный язык, что эти произведения были любимы и распространены среди широких слоев населения, что они использовались в качестве учебных пособий в школах и медресе и т. д. заложил основу. Подобные образцы начали публиковаться на разных языках в странах Европы, России, Турции, Средней Азии и Грузии еще в середине XIX века. Следует с уверенностью сказать, что деятельность работавших в этой области немецкого востоковеда Йозефа фон Хаммера, английского востоковеда Э. Гибба, русского востоковеда-ученого и просветителя Мирзы Кязым-бека, П.И. Родионова, Э.М. Лазарева, В.Д. Смирнова, украинцев М.И. Гулака, А.А. Навроцкого, турок Мухаммеда Лабиба Эфенди, Мидхата Джамала, Ахмеда Хамди, известных азербайджанских поэтов-просветителей М.Ш. Вазеха, С.А. Ширвани, А. Шаига, М.Н. Ширвани, литературоведа Я.В. Чеменземинли, Алаббаса Музниба и других имеет большое значение.

Список литературы:

1. Мухаммад Физули. Библиография. – Баку: Нурлан, 2011. – 392 с.
2. Мухаммад Физули. Избранные произведения.–Баку: Часыоглу, 2004. – 600 с.
3. Рустамов Ш. Физули и его влияние на мировую литературу. – Баку: Наука и образование. – 2002. – 248 с.

Muxammadiyev G.G.
GFU Axborot-resurs markazi direktori

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI KOMPYUTER TIZIMLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLARI

Annotation. Maqolada axborot-kutubxona muassasalari (AKM) kompyuter tizimlari axborot xavfsizligini ta’minalashning asosiy tushuncha va tamoyillari, kutubxona kompyuter tizimlarida axborotlarni himoyalashning dolzarbligi va zarurati, shuningdek, kompyuter tizimlarida resurslarini himoyalashning zamonaviy yechimlari tahlil etiladi. AKM kompyuter tizimlarining ishlashini qo’llab-quvvatlash, kompyuter tarmoqlarini boshqarish va sozlash, shuningdek, mumkin bo’lgan nosozliklarni bartaraf etish choralarini, samaradorlikni oshirish usullari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: axborot xavfsizligi, ruxsatsiz kirish, elektron resurs, kiberxujum, axborot, Internet, simsiz tarmoq.

Аннотация. В статье анализируются основные понятия и принципы обеспечения информационной безопасности компьютерных систем информационно-библиотечных учреждений, актуальность и необходимость защиты информации в библиотечных компьютерных системах, а также современные решения по защите ресурсов в компьютерных системах. Рассматриваются меры по поддержке работы компьютерных систем информационно-библиотечных учреждений, управлению и настройке компьютерных сетей, а также устранению возможных сбоев, методы повышения эффективности.

Ключевые слова: информационная безопасность, несанкционированный доступ, электронный ресурс, кибератака, информатсия, Интернет, беспроводная сеть.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta’lim va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog’liqdir. Bu maqsadga erishishda kutubxonalar faoliyatini yangi axborot texnologiyalari vositalari asosida tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kutubxona faoliyatining asosiy jarayonlari: axborotlarni yig‘ish, ishlov berish, saqlash, qidirish va iste’molchiga yetkazib berishda zamonaviy telekomunikatsiya texnologiyalari va vositalarini qo’llash samarali natijalar beradi.

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanib borishi ko’pgina sohalar kabi kutubxona jarayonlarini ham avtomatlashtirishga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatib, natijada bir qancha qulay imkoniyatlarni taqdim etuvchi AKAT yaratilgan va ular doimiy takomillashtirilib borilmoqda [12, b.83]. Kutubxonalarda xizmat ko’rsatish turlari ham keskin kengaydi: Internet tarmog‘idan foydalanish, axborot-tahliliy materiallarni jamlab berish, kutubxona kataloglarining elektron ko’rinishi va to’liq matnli ma’lumotlar ba-

zalarini kitobxonlarga taqdim etish shular jumlasidandir [1, b.172]. Ayniqsa, keyingi vaqtarda elektron kutubxonalardan foydalanish borasida katta o'sish kuzatildi va bu kutubxonalar axborot resurslariga masofadan turib murojaat qilish mumkinligi, qidirib topish tezligining keskin oshishi, vaqt va makon chegaralarining yo'qolishi evaziga iste'molchilarga o'z uylaridan chiqmasdan turib, onlayn o'qish va izlanish imkoniyatlarini yaratdi. Biroq ushbu imkoniyatlar, kutubxona resurslar xavfsizligi, foydalanuvchilarning shaxsiy axborotlari himoyasini ta'minlash kabi muammolarning ham paydo bo'lishiga olib keldi [5, b.235].

Axborot xavfsizligining nazariy va uslubiy asoslari texnik, tashkiliy, huquqiy va insoniy omillarni qamrab oluvchi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Axborot xavfsizligi asoslari axborotni himoya qilishga asoslangan tamoyillarni va uning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash uchun foydalaniladigan usullarni belgilaydi. Axborotni himoya qilish – axborotning yaxlitligini, mavjudligini, uni ruxsatsiz kirishdan, insonlarning noqonuniy yoki tasodifiy harakatlari bilan o'zgartirish yoki yo'q qilishdan, zararli dasturlardan yoki boshqa omillardan himoya qilishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar majmui.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ko'pgina korporativ axborot tizimlari, ilovalar va ma'lumotlarga Global tarmoqdan kirish imkoniyati mavjud, buning natijasida tashkilotlar o'zlarining axborot infratuzilmalariga nisbatan ko'payib borayotgan turli xil tahdidlarga duch kelmoqdalar. Misol uchun ruxsatsiz kirish, viruslar, xizmat ko'rsatishni rad etishga qaratilgan hujumlar va boshqalar [12, b.15]. Shu sababli, har qanday tashkilotning kompyuter tizimlari axborot xavfsizligi masalalariga e'tiborni kuchaytirmasdan, AKTdan foydalanishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda deyarli har bir tashkilot yoki korxona o'z infratuzilmalarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa, agar ularning ishi axborotlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishslash va shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olsa. Axborot xavfsizligi endi nafaqat AKT sohasidagi mutaxassislar, balki turli muhandislik, ijtimoiy, iqtisodiy, ta'lim va moliyaviy sohalarda faoliyat yuritadigan odamlar uchun ham zarur bo'lgan bilim sohasiga aylanib ulgurdi.

Zamonaviy AKM kompyuter tizimlari o'zaro bog'langan va axborot almashindigan, turli darajadagi segmentlar va ko'p sonli komponentlardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Bunda, deyarli har bir komponent, ichki va tashqi ta'sirlarga duchor bo'lishi, natijada axborot xavfsizligining asosiy aspektlari bo'lgan, ma'lumotlarni konfidensialligi, yaxlitligi va foydalanish uchun ochiqligini ta'minlash kabi mezonlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu o'z navbatida tizim qurilmalari va dasturiy vositalarining noto'g'ri ishslashiga yoki ishdan chiqishiga, xizmat ko'rsatish uzluksizligini ta'minlashdagi muammolarning kelib chiqishiga va iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin.

AKM kompyuter tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash har qanday korporativ axborot tizimlarida bo'lgani kabi, asosiy aksioma, ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va foydalanish uchun ochiqligini ta'minlashga asoslanadi [2, b.11]. AKM axborot xavfsizligi – bu uning axborot tizimlarida axborotlarni saqlash, qayta ishslash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida tizim resurslariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan

ichki va tashqi ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati bo'lib, axborot tizimi obyektlari va subektlar o'rtasidagi munosabatlarni qonuniy asosda ma'muriy, dasturiy va texnik jihatdan tartibga solish orqali amalga oshiriladi, bu resurslarni ruxsatsiz foydalanishlarni istisno qiladi yoki sezilarli darajada murakkablashtiradi [12, b.17].

Xavfsizlik talablari axborot tizimining maqsadiga, foydalanadigan ma'lumotlarning tabiatiga va mumkin bo'lgan tahdidlar turiga qarab farq qilishi mumkin. Butunlik va mayjudlik buzilishi xavf tug'dirmaydigan tizimni tasavvur qilish qiyin, ammo konfidensiallikni taminlash har doim ham majburiy bo'lmasligi mumkin [6, b.743]. Misol uchun, agar kutubxona biror elektron adabiyotni veb-saytda onlayn foydalanish uchun taqdim etsa va bundan maqsad uni eng keng auditoriyaga taqdim etish bo'lsa, unda konfidensiallik talab qilinmaydi. Biroq, axborotning butunligi va foydalana olishlik talablari dolzarbligicha qoladi. Bundan kelib chiqgan holda, AKM kompyuter tizimlari xavfsizligini ta'minlash dolzarbligining kuchayishiga sabab bo'layotgan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- korxonalar ehtiyojlari uchun olib borilgan ilmiy-tadqiqot va texnik ishlanmalar natijalarining mamlakat iqtisodiyoti va xavfsizligi uchun ahamiyati [3, b.93];
- kutubxonalar axborot tizimlarida va tarmoqlarida saqlanayotgan axborotlar hajmi hamda kutubxona foydalanuvchilar sonining keskin oshib borishi [5, b.238];
- turli ko'rinishlarda taqdim etilishi. YA'ni, axborot kutubxona tarmoqlarida turli xil muhimilik darajasiga va foydalanuvchilariga ega bo'lgan matn, jadval, grafik, audio, video kabi ko'rinishlardagi axborotlarning mavjudligi [4, b.16];
- resurslarga ega bo'lgan tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarning mumkin bo'lgan tahdidlar, ruxsatsiz kirish va ulardan himoyalanishning zamonaviy dasturiy va apparat vositalari to'g'risida yetarli darajada xabardor emasligi [9, b.123];
- hujumlarning aksariyati avtomatlashtirilganligi, botlar avtomatik ravishda Internetda mavjud bo'lgan barcha xostlarning zaif tomonlarini qidirishi va keyin ulardan foydalanishga harakat qilishi [7, b.11];
- axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish jarayonlari uzluksizligini ta'minlashning to'liq yoki qisman AKATlarga bog'liqligi;
- xavfsizlik tizimlari va qo'riqlash xizmatlarining avtomatlashtirilganligi (kuzatuv kameralari, yong'in xavfsizligi, turniketlar va x.k.).

Kompyuter tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategiya ishlab chiqishda, birinchi navbatda tahdidlarni tahlil qilish va xavflarni baholash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichning maqsadi tizim uchun qaysi xavflar eng muhim ekanligini va qaysi himoya choralarini birinchi navbatda amalga oshirish kerakligini aniqlashdir. Ushbu jarayon bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi va quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm Tahdidlarni tahlil qilish va xavflarni baholash tizimi, uning bosqichlari).

**ТАХДИДЛАРНИ ТАХЛІЛ ҚИЛИШ ВА ХАВФЛАРНИ
БАХОЛАШ ТИЗИМИ**



1-rasm. Tahdidlarni tahlil qilish va xavflarni baholash tizimi, uning bosqichlari

Tahdidlarni tahlil qilish va xavflarni baholash tizimini ishlab chiqishning birinchi bosqichida kutubxona axborot tizimidagi mavjud aktivlarni aniqlab olish kerak bo‘la-di. Bu bir qarashda juda oddiy va tushunarli vazifa bo‘lib tuyuladi, biroq, o‘rganishlar bo‘yicha ma’lumki, 60–70 foiz mutaxassislar o‘z tashkiloti uchun qanday raqamli aktivlar muhimligini bilishmaydi [8, b. 17]. Bundan tashqari, har bir aktiv (ma’lumot) biz bu qiymatni bilmasak ham, infratuzilma umumiyligi xavfsizlikni ta’minlashda o‘z qiymati giga bo‘lishi kerak.

Zamonaviy AKM kompyuter tizimlari ma’lumotlar bazalari, veb-saytlar, tizim va tarmoq qurilmalari, dasturiy ilovalar kabi tizim ma’murlari tomonidan boshqariladigan umumiyligi aktivlarni o‘z ichiga oladi [10, b.284]. AKM kompyuter tizimlaridagi himoyalananadigan aktivlarni ikki turga bo‘lish mumkin: moddiy va nomoddiy (1-jadval) [9, b.124].

1-jadval.
Kutubxona axborot tizimlaridagi himoyalananadigan aktivlar

Kutubxona axborot tizimlaridagi himoyalananadigan aktivlar	
Moddiy aktivlar	Nomoddiy aktivlar
<ul style="list-style-type: none"> ✓ AT vositalari, kompyuterlar, serverlar, tarmoq qurilmalari ✓ Maxsus monitorlar, periferik qurilmalar, printerlar ✓ Jismoniy himoya vositalari ✓ Apparat himoya vositalari 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Elektron katalog ✓ Dasturiy vositalar ✓ Ma’lumotlar bazalari ✓ Foydalanuvchi va xodimlarning shaxsiy ma’lumotlari ✓ Kutubxona sayti (sayt resurslari). ✓ Mualliflik huquqi bilan himoyalangan axborot resurslari ✓ Axborot-kutubxona xizmatlari ✓ Muassasa boshqaruviga oid hujjatlar

AKM kompyuter tizimlari himoyasini tashkil etishda ushbu tizim resurslarining konfidensialligi, butunligi va foydalana olish uchun ochiqligini buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlar va zaifliklar o‘rganiladi. AXga tahdidlar va zaifliklar tahlili deyilganda ma’lumotlarni qayta ishlash tizimiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan harakatlar va hodisalar, bunga sabab bo‘lgan zaifliklarni tadqiq etish tushuniladi.

Kompyuter tizimi resurslari himoyasiga tahdid – bu tizim xavfsizligining buzilishi-ga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar va harakatlar to‘plami (resurslarning konfiden-sialligi, butunligi va foydalana olishligi buzilishi). Biz asosan tabiiy ofatlar, harbiy ha-rakatlar, terroristik hujumlar yoki iqtisodiy tahdidlarni hisobga olmasdan, faqat texnik tahdidlarni, ya’ni sun’iy ravishda yaratilgan texnik va texnologik omillardan (xususan, Internetdan) kelib chiqadigan tahdidlarni ko‘rib chiqish bilan cheklanamiz.

Kompyuter tizimidagi zaiflik qatoriga dasturiy ta’midotda kuzatiladigan xatoliklar, tizimga kirish parollarining xavfsizlik talabdlariga mos kelmasligi (soddaligi, qisqali-gi), muhim ma’lumotlarga ega fayllardan foydalanish huquqini noto‘g‘ri tayinlash va tizimni ishlab chiqish, ishlatish yoki sozlashdagi boshqa ko‘plab kamchiliklarni kiriti-shimiz mumkin. Shuningdek amaliyotda juda tez-tez kuzatiladigan zaifliklarning yana bir turi dasturiy ta’midot va apparat konfiguratsiyasidagi xatolardir.

Tahdidlar va zaifliklarni aniqlash AXTning muhim qismi bo‘lib, AKM kompyuter tizimidagi tahdidlarning manbalarini, tahdidlar tomonidan foydalaniladigan zaifliklarni, hujum usullari va mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar turlarini va mumkin bo‘lgan zarar darajasini umumlashtirib 2-jadvaldagi ko‘rinishida tasvirlash mumkin [4, b.28].

2-jadval

Resurslar, tahdidlar hamda himoya vositalari tasnifi

Kutubxona resursi	Tahdid turlari	Resursning buziladi-gan xususiyatlari	Himoya usullari va vositalari
Ma’lumotlar bazasi	DoS/DDoS	Foydalana olishlik	Dasturiy, apparat Blokirovkalash.
	Zararli dasturlardan foydalanish	Butunlik, foydalana olishlik, konfidensiallik	Dasturiy, apparat Foydalanishni boshqarish.
	SQL-kiritish	Butunlik, foydalana olishlik, konfidensiallik	Dasturiy, apparat. Filrlash, tahlillash.
Veb-sayt	DoS/DDoS	Foydalana olishlik	Dasturiy, apparat Blokirovkalash.
	SQL-kiritish	Butunlik, foydalana olishlik, konfidensiallik	Dasturiy, apparat. Filrlash, tahlillash.
	XSS-hujum	Butunlik, foydalana olishlik, konfidensiallik	Dasturiy, apparat. Filrlash, tahlillash.
Dasturiy ta’midot	Zararli dasturlardan foydalanish	Butunlik, foydalana olishlik.	Dasturiy, apparat. autentifikatsiy. Shifrlash.
Qurilmalar va jixozlar	Buzg‘unchining jismoniy harakatlari	Butunlik, foydalana olishlik, konfidensiallik	Fizik. Signalizatsiya, Qo‘riqlash.
Tarmoq qurilmalari	Tarmoq hujumlari, Buzg‘unchining jismoniy harakatlari	Butunlik, foydalana olishlik, konfidensiallik	Fizik, apparat Blokirovkalash.

To'lov tizimlari	Tizimdan ruxsatsiz foydalanish, firibgarlik	Tizimning ish qobiliyati	Dasturiy, apparat. Shifrlash, Autentifikatsiya
Mualliflik huquqlari	Axborotdan noqonuniy foydalanish	Mualliflik huquqi	Huquqiy, tashkiliy. Stenografiya
Shaxsiy ma'lumotlar	Tarmoq hujumlari, firibgarlik	Shaxs huquq va erkinligi	Shifrlash, Xeshlash, Autentifikatsiya.
Statistik axborotlar	Tarmoq hujumlari, firibgarlik	Shaxs huquqi va erkinligi	Tashkiliy, dasturiy, apparat. Shifrlash, Autentifikatsiya

Axborot xavfsizligi haqida gap ketganda, ko'pchilik antiviruslar, tarmoqlararo ekran, IPS va boshqalar haqida o'yay boshlaydi. Umuman olganda, xavfsizlik – bu maxsus texnik vositalar yoki dasturiy ta'minot yordamida hal qilinadigan, faqatgina axborot texnologiyalariga bog'liq sof texnik masala degan tushuncha o'zini oqlamasligi mumkin. Axborot texnologiya vositalari tashkilotning umumiyligi axborot xavfsizligi kontsepsiyasining 80% dan kamini tashkil qiladi [7, b.8]. Kutubxona axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan barcha himoya choralarini ikkita katta sinfga bo'lish mumkin (3-jadval) [8, b.15].

3-jadval.

Kutubxona axborot tizimlari himoya choralarini

Kutubxona axborot tizimlarida amalga oshiriladigan barcha himoya choralarini		
Ma'muriy himoya choralarini	Texnik himoya choralarini	
	Himoya darajalari	Qo'shimcha texnik himoya choralarini
✓ Xavfsizlik siyosati ✓ Yo'riqnomalar ✓ Treninglar va kurslar ✓ Byudjetlashtirish ✓ Infratuzilma auditlash	✓ Internet darajasi (Internet Layer) ✓ Perimetrik darajasi (Perimeter Layer) ✓ Tarmoq darajasi (Network Layer) ✓ Ishchi stansiyalar darajasi (Endpoint Layer) ✓ Foydalanuvchilar darajasi (User Layer)	✓ Zaifliklarni skanerlash ✓ AXBT (SIEM) ✓ Zaxira nusxalash ✓ Monitoring ✓ Tarmoqni segmentlash ✓ Va boshqalar

Ma'muriy himoya choralarini – bunga infratuzilma auditlari, xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, tartibga solish, hujjatlashtirish, infratuziomi sinovdan o'tkazish, xodimlar va foydalanuvchilar uchun treninglar, byudjetlashtirish kabi narsalar kiradi. Aynan shu choralar bilan tashkilotda axborot xavfsizligini yaratish jarayonini boshlanishi kerak.

Texnik himoya choraları – bu yerda axborot tizimining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinib maqsadli ravishda dasturiy himoya vositalari yoki va apparat-dasturiy himoya vositalaridan foydalaniladi. Ushbu himoya vositalarining juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib ularni qandaydir tarzda segmentlash uchun ularni ikkita katta guruhga bo‘lishimiz mumkin:

Himoya darajalari – bu kompyuter tarmog‘i bo‘ylab taqsimlangan texnik vositalar bo‘lib, axborot tizimida himoya choralarini amalga oshirish imkonini beradigan quydagi himoya darajalari mavjud: Internet qatlami (Internet Layer), perimetrik qatlami (Perimeter Layer), tarmoq qatlami (Network Layer), Ishchi stansiyalar qatlami (Endpoint Layer) va foydalanuvchi qatlami (User Layer). Ularning maqsadi haqida keyinroq gaplashamiz.

Qo‘sishma texnik himoya choraları – bu barcha himoya darajalaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi, shuningdek, doimiy axborot xavfsizligi jaryonini ishga tushirishga yordam beradigan texnik vositalar.

Internet qatlami (Internet Layer) – tizim perimetri tashqarisida kiber tahdidlarni qidirish va oldini olish. Ushbu darajaga tahdidlarni oldini olish toifasidagi yechimlar kiradi, ular kompaniyaga joriy tahdidlarni ular sodir bo‘lishidan oldin ham qidirishga yordam beradi.

Perimetrik daroji (Perimeter Layer) – tizim resurslariga hujum qilish parametrlarini maksimal darajada kamaytirish, kontentni filtrlash, ruxsat etilgan trafikni tekshirish, tizim resurslarini himoya qilish maqsadlarida foydalaniladi.

Ishchi stansiyalar daroji (Endpoint Layer) – tizimdagagi kompyuter va mobil qurilmalarni har tomonlama himoya qilish. Tizimdagagi incidentlarni batafsil tekshirish bilan fishing tahdidlari, dasturlar, viruslar, zaifliklar va hokazolarning oldini olish vazifasida foydalaniladi.

Tarmoq daroji (Network Layer) – mahalliy tarmoq qurilmalari o‘zaro aloqalari uchun ichki trafikni tahlil qilish. Bu daraja perimeter va ishchi stansiyalar darajalari oldini ololmagan tahdidlarni aniqlash zarurati sifatida uchinchi foydalaniladi. Ushbu darajadagi birinchi yechimlardan biri IDS/IPS (buzilishlarni aniqlash va oldini olish tizimi).

Foydalanuvchi qatlami (User Layer) – tizimda foydalanuvchilarni axborot xavfsizligi asoslariga o‘rgatish orqali kompaniya xavfsizligini oshirish. Ushbu xavfsizlik qatlami juda tez mashhurlikka erishmoqda, chunki foydalanuvchilar har doim tizimi himoya qilishdagi eng zaif bug‘indir. Hozirgi vaqtida foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini oshirish uchun juda ko‘p xizmatlar mavjud (User Awareness).

Ma’lumki, AKM kompyuter tizimlaridagi biror resursni himoyalash boshqasining himoyasi bilan uzviy bog‘liqidir. YA’ni, AKMda axborot xavfsizligini ta’minalash uchun u saqlanayotgan server, tarmoq va boshqa komponentlarning ham xavfsizligini ta’minalash zarurdir.

Bundan kelib chiqadiki, “kompyuter tarmog‘i xavfsizligi” tushunchasi “axborot tizimi xavfsizligi” tushunchasiga qaraganda ancha torroq bo‘lsa, ularni alohida, bir-biridan ajratilgan holda ko‘rib chiqish mumkin emas.

AKMda xavfsizligini ta'minlashda, dolzarb bo'lgan quyidagi asosiy tamoyillarga inobatga olinadi:

Eng kam imtiyozlar tamoyili – har bir foydalanuvchi o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan minimal kirish huquqiga ega. Bu ma'lumotlarning sizib chiqishi va tizimga zarar yetkazish xavfini kamaytiradi.

Tarmoqni segmentlash tamoyili turli tizimlarga kirishni cheklash uchun tarmoqni xavfsizlik zonalariga bo'lishdir. Masalan, umumiy foydalanish uchun kompyuterlar tahdidlardan himoyalanish uchun ichki kutubxona tizimlaridan ajratilishi mumkin.

Malumotlarni segmentlash tamoyili ma'lumotlarni ularning ahamiyati va qiymatiga qarab toifalarga bo'lishdir. Bu qo'shimcha xavfsizlik choralar bilan muhim ma'lumotlarni himoya qilishga yordam beradi.

Zaxira nusxalash va tiklash tamoyili muntazam ravishda ma'lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish va o'chirib yuborilgan yuborilgan ma'lumotlarni tiklash rejalarini ishlab chiqishdir. Kutubxonada bu raqamli resurslar va ma'lumotlar bazalari, shuningdek tizim ma'lumotlarini nusxalashni o'z ichiga olishi mumkin.

Foydalanishlarni boshqarish tamoyili bu foydalanuvchilar o'z vakolatlari doirasida tizim va ma'lumotlardan foydalanishini nazorat qilishdir. Bu ayniqsa tizim ma'lumotlaridan ruxsatsiz foydalanishni oldini olish uchun tizimga kirishni boshqarish (RBAC) tizimlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Viruslar va zararli dasturlardan himoya qilish tamoyili antivirus dasturlarini muntazam yangilash va tizimlarni tahdidlarni tekshirishdan iborat.

Jismoniy xavfsizlik – uskunalar (serverlar, kompyuterlar va boshqa qurilmalar) va saqlash vositalarini jismoniy ta'sirlardan (yong'in, o'g'irlik, shikastlanish) himoya qilish. Masalan, bular kuzatuv kameralari, xavfsizlik signalizatsiya tizimlari va ma'lumotlarni saqlash seyflari bo'lishi mumkin.

Umumi kompyuterlarni himoya qilish tamoyili – umumiy foydalanish uchun taqdim etilgan kompyuterlarda cheklavlarni o'rnatish kerak, masalan, dasturlarni o'rnatishni taqiqlash, asosiy tizimni himoya qilish uchun virtual mashinalardan foydalanish va foydalanuvchi seanslari tugagandan so'ng ma'lumotlarni muntazam ravishda tozalash.

Xodimlarni malakasini oshirish va xabardor qilish tamoyili – kutubxona xodimlarini axborot xavfsizligi masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar va o'quv kurslari tashkil etish orqali malakalarini oshirib borish, ularni zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallaganini doimiy sinovdan o'tkazish. Bu foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish uzlyuksizligini ta'minlash, axborotlardan foydalanishning samarali, maqsadli va xavfsiz usullarini tashkil etish, ma'lumotlarni uzatishda tasodifiy xatoliklar yoki resurslardan noto'g'ri foydalanish kabi inson xatolarining oldini olish uchun muhimdir.

Kompyuter tizimlari xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda har qanday miqyosdagi va murakkablik darajasidagi kompyuter tarmoqlarida axborotlarni uzatish va qabul qilish uchun eng dolzarb masala darajasiga kshtarilgan desak adashmagan bshlamiz. Bugungi kunda barcha zamonaviy tashkilot va korxonalar: davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, o'quv markazlari, kutubxonalar, ofislar, restoranlar, mehmonxonalar,

savdo markazlari, omborlar, fabrikalar – o‘zlarining kompyuter tizimlariga ega va bar-cha uchun shz kompyuter tizimlari xavfsizligini ta’minlash dolzarb masala hisoblanadi. Kopyuter tizimlari axborotni imkon qadar tezroq uzatish, qabul qilish, qayta ishlash va saqlash muammosini muvaffaqiyatli hal qilmoqda va rivojlanishda davom etmoqda.

AKMlarda kompyuter tizimlarini himoya qilish ma’lumotlarning sizib chiqishi, ki-berhujumlar va boshqa tahdidlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Maxfiylik, yaxlitlik va foydalana olishlik tamoyillariga rioya qilish, shuningdek, axborotni himoya qilishning zamonaviy vositalarini joriy etish kutubxona axborot tizimlarining barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minlashga yordam beradi, bu esa, o‘z navbatida, foydalanuvchilarining zarur resurslardan xavfsiz foydalanishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lutfullayev M. Axborot-resurs markazlari faoliyatini mobil aloqa asosida tashkil qilish masalalari // Интернет и информационно-библиотечные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе: материалы ХИИ Международной конференции “Central Asia – 2018”, 19–20 апреля 2018 г., г. Термиз, Узбекистан. – Термез, 2018. – С. 171–173.
2. Muxammadiyev G‘.G‘. Akademik kutubxonalarda axborot xavfsizligini ta’minlash tendensiyalari va muammolari tahlili // Kutubxona axborot xizmati jarayonlarini takomillashtirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishning nazariy va metodologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plam. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2024. – В. 9–14.
3. Назаровская, В.С. Информационная безопасность библиотечных систем предприятий / В.С. Назаровская, Д.Н. Баранников, И.А. Русетская // Вестник РГГУ. Церийа: Информатика. Информационная безопасность. Математика. – 2024. – № 3. – С. 87–103.
4. Normatov SH.B. Korporativ axborot-kutubxona tarmoqlari axborot xavfsizligini baholashning usullari, algoritmlari va dasturiy kompleksi: texnika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiY. – Toshkent, 2019.
5. Норматов Ш. Ахборот кутубхона ресурсларини ҳимоялаш муаммолари ва ечимлари // Интернет и информационно-библиотечные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе: материалы ХИИ Международной конференции “Central Asia – 2018”, 19–20 апреля 2018 г., г. Термиз, Узбекистан. –Термез, 2018. – С. 235-241.
6. Олифер В., Олифер Н. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы: учебник для вузов / В.Олифер, Н. Олифер. – 5-е изд. – СПб.: Питер, 2016. – 992 с.: ил. – (Серия «Учебник для вузов»).
7. Олков Е. Азии КиберБезопасности: Экспресс курс по основам ИБ / Олков Е. – Москва: Лидер Принт, 2022. – 73 с.
8. Олков Е. Архитектура защищенных сетей: Экспресс курс по основам ИБ / Олков Е. – Москва: Лидер Принт, 2023. – 186 с.

9. Ro'ziyeva N, The social funktion of libraries and their role in the development of society // Научний импульс: международний научний журнал. – 2025. – № 31, ч. 2. – С. 143-146.
10. Рахматуллаев М.А. Защита научно-образовательных ресурсов в информационно-библиотечных системах / М.А.Рахматуллаев, Ш.Б. Норматов // Наука и научная информация. – 2019. – №2(2). – С.121-128.
11. Федякова, Н.Н. Обеспечение информационной безопасности Электронной библиотеки / Н.Н. Федякова, Э.М. Ивойлов, Р.А. Табачников // Контентус. – 2016. – № 6(47). – С. 283-291.
12. Челухин В.А. Комплексное обеспечение информационной безопасности автоматизированных систем: учебное пособие / В.А. Челухин. – Комсомолск-на-Амуре: КнАГТУ, 2014. – 207 с.
13. Шангин В.Ф. Защита информации в компьютерных системах и сетях / В.Ф. Шангин. – Москва: Пресс, 2012. – 592 с.
14. Normatov Sh. Extended Model of Access Control for the Library Information Systems / Sh.Normatov, M.A. Rakhmatullaev // International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – [W.p.], 2017. – P. 1-6.

*Mahliyo Tulanboyeva
Zafarobod tuman axborot-kutubxona
markazi Axborot bibliografiya xizmat rahbari*

AUDIO KITOBLAR – YANGI DUNYO SARI

Annotatsiya. Maqola insoniyat tarixida yozma axborotdan audio shakliga o‘tish jarayonini tahlil qiladi. Audio kitoblarning paydo bo‘lishi, texnologik rivojlanishi va zamonaviy audio formatlarning ahamiyati yoritiladi. Maqolada audio yozuvlarning axborotni saqlash va yetkazishdagi ustunliklari, ovozning ruhiy ta’siri hamda audiokitob yaratish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berilgan. Audiokitoblar bilim olishda, vaqt ni tejashda va hissiy ta’sir kuchaytirishda muhim vosita sifatida ko‘rsatib beriladi. Bundan tashqari audiokitoblar axborot-kutubxona markazlarida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning yangicha uslublari, zamonaviy talablariga doimiy ravishda mos kelishini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Audiokitob, ovoz yozish, audio yozuvlar, raqamli format, texnologik taraqqiyot, audio muharrir dasturi, analog va raqamli yozish, ovoz tahriri, ovoz izolyatsiyasi, axborotni saqlash, elektron kitob, flesh-xotira, bulutli texnologiya, fonogramma, audiovizual axborot, audio material, mikrofon, signalni siqish, fon musiqasi.

Abstract. The article analyzes the transition from written information to audio format throughout human history. It highlights the emergence of audiobooks, their technological development, and the significance of modern audio formats. The article discusses the advantages of audio recordings in preserving and transmitting information, the psychological impact of voice, and provides practical guidelines for creating audiobooks. It emphasizes the role of audiobooks in facilitating learning, saving time, and enhancing emotional influence. Additionally, it demonstrates how audiobooks contribute to developing new methods of user services in information and library centers, ensuring their constant adaptation to modern demands.

Keywords: audiobook, sound recording, audio recordings, digital format, technological progress, audio editing software, analog and digital recording, sound editing, sound isolation, information storage, eBook, flash memory, cloud technology, phonogram, audiovisual information, audio material, microphone, signal compression, background music.

So‘z inson ziynati. Lekin uni yetkazib bera olish ham bir san’at. Bolaligimdan hikoya va she’rlarni o‘qishga juda qiziqardim. So‘zlarning yurakka kirib borishi, tasavvurimni kengaytirishi meni ilhomlantirardi. Keyinchalik bu qiziqishimni yanada rivojlantirish maqsadida audiolar yozishni boshladim. Avvaliga bu shunchaki hobbi edi. Lekin hozirgi kunga kelib aynan mana shu qiziqishim ishlayotgan joyim kutubxona – nurxonamda kasbimga aylanadi – deb sira o‘ylamagan edim. Mana shu hunarim orqali men oddiy kitoblarni audiokitob shakliga keltirib, ularni yanada jonli, ta’sirchan

va voqealarga boy qilib taqdim etaman. Bu jarayon menga zavq bag‘ishlaydi, chunki so‘zga jon ato etish – san’atdir. Odamlar ovoz orqali his qilganida, kitobdan oladigan taassuroti yanada ortadi.

Ovoz tarixi: yozuvdan audioga Insonlar nima ko‘p ommalashsa albatta o‘shanga e’tibor qaratishadi. Dastlab odamlar o‘z xotiralarini faqat yozma shaklda saqlagan. Qo‘lyozmalar, kitoblar va kundaliklar inson tafakkurining yodgorliklari edi. Keyinchalik texnologiyalar rivojlanib, patefon, radio, televizor va telefon paydo bo‘ldi. Har bir innovatsiya axborotni uzatishning yanada qulay usullarini yaratdi. Audiokitoblar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular ilk bor XX asrning 1930-yillarida AQShda ko‘zi ojizlar uchun yaratilgan maxsus loyiha doirasida paydo bo‘lgan. Ushbu loyihada audiokitoblar gramplastinkalarda yozib olinib, maxsus markazlar orqali ehtiyojmandlarga yetkazilgan. Bu tajriba muvaffaqiyatl chiqqach, audio shakldagi kitoblar kengroq auditoriyaga taqdim etila boshlandi. O‘tgan asrning oxirlariga kelib, audiokitoblar kassetalar, CD va DVD disklarda tarqala boshladi. Keyinchalik esa bu jarayon raqamli formatlarga o‘tdi: MP3 fayllar, mobil ilovalar, striming platformalar – bularning barchasi audiokitoblarni tinglashni yanada qulay va ommabop qildi. Bugungi kunda audiokitoblar nafaqat ko‘zi ojizlar uchun, balki ko‘plab band insonlar, tez o‘quvchilar, harakatda bo‘lgan paytda ham bilim olishni istovchilar uchun bebaho vositaga aylangan. Va bu vosita orqali yaxshi natijaga erishilgan.

Bundan tashqari ta’sir etuvchi omillarni ham hisobga olsak, Yozuvlar vaqt o‘tgan sayin o‘z qadr – qimmatini yo‘qotib boradi. Xususan, qo‘lyozmalar sarg‘ayadi, mo‘rtlashadi, sekin – asta biologik ahamiyatini yo‘qotib boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida bir noyob nashrning yo‘qolishi degani. Aynan mana shu yerda audio yozuvlar yordamga keladi. Audio yozuvlar orqali noyob kitoblarni yozib olamiz va keljak avlodga saqlab qo‘yamiz. Audio yozuvlarchi deyishingiz mumkin? Ularga hech narsa qilmaydimi? Yozma shakldagi materiallar vaqt o‘tgan sayin o‘z sifatini yo‘qotganidek, audio yozuvlar ham doimiy saqlashga muhtoj. Eski audiokassetalar bir necha-yillardan so‘ng buzila boshlaydi, tovush tiniqligi pasayadi. Shuning uchun ular vaqtida boshqa formatlarga ko‘chirilishi zarur. Shu maqsadda olimlar yangi saqlash texnologiyalarini ishlab chiqdilar: CD, DVD, flesh-xotiralar, bulutli texnologiyalar va raqamli arxiv tizimlari yartildi. Raqamli formatlar esa oson ko‘paytiriladi, tahrir qilinadi va uzoq vaqt davomida sifatini yo‘qotmaydi.

Audio yozuvlar nafaqat saqlash, balki ta’sirchanlik nuqtai nazaridan ham kuchli vositadir. Har bir insonning ovozi, ohangi va his-tuyg‘ulari orqali matn yanada chuqurroq idrok etiladi. Bu esa axborotni faqat o‘qib emas, balki his qilib qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda audio kitoblar juda katta talabga ega, chunki ularni vaqt oralig‘ida, piyoda yoki sayohat paytida tinglash mumkin. Shu jarayonda ovoz yozish ham o‘z o‘rnini topdi. Avvallari esdaliklar faqat qog‘ozda qolar edi. Endi esa biz nafaqat eshitishimiz, balki o‘zimiz ham audiolar yozib, fikrlarimizni keljakka saqlab qo‘yishimiz mumkin. Bu esa yuqori sifatli audiokitobni nafaqat studiyada, balki o‘zingizning uyingizda ham yozib olishingiz mumkin degani. XX asrga kelib, texnologik taraqqiyot tu-fayli axborotni nafaqat yozma, balki audiovizual shaklda ham saqlash mumkin bo‘ldi. Patefon, radio, televizor, telefon kabi vositalar odamlar orasida yangi axborot tarqatish

usulini ommalashtirdi. Bularning barchasi ovozning imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga zamin yaratdi.

Audio haqida Xo'sh, audio nima degani? Audio bu – ovoz (tovush) yozish – tovush signallarini yozish jarayoni. Ovozlarni yozish natijasi esa fonogramma hisoblanadi. Ma'lum bo'lgan eng qadimgi ovoz yozuvni 1860-yil 9-aprelda parijlik ixtirochi Edouard-Léon Skott de Martinvil tomonidan "fonoavtograf" deb nomlangan qurilma yordamida qilingan. Audio deganda faqat musiqa yoki inson ovozi tushunilmaydi. Bu atama turli tovush signallarini yozib olish va ularni eshitish imkonini beruvchi keng qamrovli soha hisoblanadi. Hayvonlarning tovushi, tabiat tovushlari, musiqa asboblarining ohanglari – bularning barchasi audio kontentning bir qismini tashkil etadi. Shunday ekan, biz endi audioni bemalol keng qamrovga ega tushuncha deb ayta olamiz.

Mashhur olim Garvard universiteti biznes boshqaruvi magistri Timoty Dodson esa audiokitoblarning yaratilishi tez o'qish yoki yozganlarini vizual idrok etishga qodir bo'lmagan ko'plab odamlarning imkoniyatlari doirasini kengaytirishi haqida juda ko'p marotaba o'z chiqishlarida aytib o'tgan. Bundan tashqari, u ushbu ixtiro zamon bilan hamnafas insonlarning vaqtini tejashga yordam beradi, – degan. Yangi audiokitob sotib olish uchun ko'p pul sarflashingiz shart emas, uni o'zingiz yaratishingiz mumkin, – degan fikrlar ham aynan unga tegishli bo'lgan. Ovozlar deganda faqat musiqa cholg'usi yoki inson ovozi emas balki turli hayvonlar, qushlar, musiqa asboblaridan chiqqan tovushlarni ham aytib o'tishimiz lozim. Har qanday yangi g'oyalar rivojlanishga chorlaydi, bu kabi yangi fikrlar esa insonlar manfaati yo'lida doimo xizmatga shaydir. Biz bilamizki, odamni aqlini o'zlashtirsa va qaytadan yasasa bo'ladi, ammo uning his hayajonini o'zlashtirib bo'lmaydi.

Ovozning ruhiy va ijtimoiy ta'siri Ovozning o'zi ham bir san'at, bir ma'no. Har bir inson bir xil so'zni har xil ohangda aytadi va bu orqali turli his-tuyg'ularni yetkazadi. Bu borada yozuvchi Ibrohim G'afurovning fikri bejiz emas: inson tafakkurini o'zlashtirish mumkin, ammo uning his-hayajonini takrorlab bo'lmaydi.

Audio orqali faqat eshitmaymiz, balki:

1. Eshitamiz,
2. Idrok qilamiz,
3. Atrofdagilar bilan bo'lishamiz,
4. Yangi g'oyalar paydo qilamiz.

Bu esa inson tafakkurining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Ovoz yozish qanday ishlaydi?

Oddiy qilib aytganda, ovozni yozish – bu tovushlarni maxsus qurilmalar yordamida saqlash jarayoni. Mikrofon ovozni qabul qilib, uni elektr signaliga aylantiradi. Bu signal maxsus dasturlar orqali raqamlashtiriladi va saqlanadi. Hozirgi kunda audio yozishning ikkita asosiy turi mavjud:

Analog yozish – eski usul bo'lib, tovushlar magnit lentalarga yoki boshqa materialarga yoziladi.

Raqamli yozish – zamonaviy usul bo'lib, ovoz kompyuter, telefon yoki maxsus audiotexnikalarga raqamli shaklda yoziladi.

Raqamli yozish nafaqat sifatni oshirdi, balki ovoz ustida ishlashni ham osonlashtiridi. Endi har kim o‘z ovozini professional tarzda yozib, uni tahrirlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Deyarli barcha zamonaviy telefonlar ularda yozilgan musiqiy asarlarni ijro eta oлади. Ammo mobil telefoningizda sevimli musiqangizni tinglash uchun u yerda ushbu kuylarni yozib olishingiz kerak. Musiqani telefoningizga yozib olish usullari mobil telefonning modelining imkoniyatlariga bog‘liq.

Zamonaviy odam tobora ko‘proq an’anaviy kitoblardan audiokitoblarni afzal ko‘rmoqda. Axir bunday kitobni har qanday joyda “o‘qish” mumkin, u juda ko‘p joyni egal-lamaydi va ko‘zning charchashiga olib kelmaydi va qulayligi bilan ajralib turadi. Ovoz yozish bugungi kunda ko‘plab sohalarda muhim o‘rin tutmoqda – bu podkastlardan tortib, audiokitoblarga, onlayn ta’limdan musiqiy loyihalargacha bo‘lgan keng doirani o‘z ichiga oladi. Ovoz yozish deganda, tovushlarni maxsus qurilmalar yordamida saqlab, ularni keyinchalik tinglash yoki tahrirlash uchun tayyorlash tushuniladi.

Audiokitoblar: An’anaviy kitobga zamonaviy yondashuv. Uyda professional darajadagi audio yozuvni yaratish unchalik qiyin emas. Quyidagi qadamlarga rioya qilgan holda siz ham sifatli audiomaterial yozishingiz mumkin.

Audioyozuvlarni yozib olish uchun ko‘rsatmalar Yuqori sifatli audiokitobni nafaqat studiyada, balki o‘zingizning uyingizda ham yozib olish mumkin.

1. Yaxshi mikrofon tanlang USB orqali ulanadigan mikrofonlar boshlovchilar uchun juda mos. Ular ko‘pincha qulqochin ulangan holda darhol o‘z ovozingizni eshitish imkonini ham beradi.

2. Xonani ovoz izolyatsiyasi bilan jihozlang. Yozuv paytida tashqi shovqinlar sifatga salbiy ta’sir qiladi. Kichik xonani tanlab, devorlarini gilam, adyol yoki maxsus akustik materiallar bilan qoplash tavsiya etiladi.

3. Audio muharrir dasturini o‘rnating Adobe Audition – qulay va kuchli dastur bo‘lib, ovoz tahririni ancha yengillashtiradi. Undan tashqari, Audacity kabi bepul dasturlar ham bor, ular orqali ovozni normallashtirish, shovqinni yo‘qotish, ovoz balandligini sozlash mumkin.

4. Matnni ifodali tarzda o‘qing. O‘qish jarayonida intonatsiyaga e’tibor bering. Fikr va ruhiyatga mos ravishda ovozingizni o‘zgartirish yozuvni jonli va esda qolarli qiladi.

5. Ovoz yozuvini tahrir qiling. Yozilgan materialdan keraksiz sukunatlarni olib tashlang, shovqinlarni maxsus pluginlar yordamida tozalang. Buning uchun Steinberg De-Noiser, Waves X-Noise yoki boshqa vositalardan foydalanish mumkin.

6. Siqish va musiqa qo‘sish. Ovoz balandligini tenglashtirish uchun signalni siqing. So‘ngra, agar kerak bo‘lsa, fon musiqasi qo‘sing. Bunda matn bilan musiqaning balandligi muvozanatli bo‘lishi muhim.

7. Faylni saqlash va bo‘lib chiqish. Yakuniy faylni MP3 formatida saqlang. Keyin uni qismlarga – sahna yoki boblarga ajrating. Har bir bo‘lim 5-7 daqiqadan oshmasligi foydalanuvchi uchun qulaylik yaratadi. Buning uchun mp3 DirectCut dasturidan foydalanishingiz mumkin.

Ovoz yozish texnologiyasi oddiy bo‘lishi mumkin, biroq e’tibor va sinchkovlik talab qiladi. To‘g‘ri tanlangan uskuna, yaxshi tayyorgarlik va to‘g‘ri tahriri yondas-

huv orqali siz professional darajadagi audiomateriallar yaratishingiz mumkin. Har bir qadamda ijodkorlikni qo'shing – bu sizning ovozingizni boshqalarnikidan ajratib turadi. Mana shunday ko'rsatmalarga amal qilsangiz sizning ovozingiz eng yaxshisiga aylanadi.

Shu o'rinda aytish lozimki audio kitoblar ham o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi. Buning uchun so'z ravonligi, ovoz ohangdorligi, nutqning tiniqligi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Men audiokitob yozish ishiga qanday kirishganimni yaxshi eslayman. Bir kuni bir shoirning "Musofir" monologini ovozimda yozib ko'rdim. Ilk bor o'zim tinglab, ovoz ravonligimni sinab ko'rdim. Keyin esa uni kitobxonlarga taqdim qildim. Kutilmaganda, tinglovchilardan iliq fikrlar oldim: "Siz ushbu she'rga jon ato etibsiz!" Bu e'tirof menga ilhom bag'ishladi va audiokitob yaratish jarayonini yanada mukammal-lashtirishga undadi. Endi men nafaqat kitob o'qiyman, balki uni ovoz orqali his qilib, tinglovchilarga yetkazaman. Chunki har bir asar shunchaki quruq matn emas, balki yurakka yo'l topuvchi san'atdir. Bugungi kungacha bir qancha asarlar, hikoyalar va she'rlarni audiosini yaratgan bo'lsam, menda faqat zavq va jo'shqinlik, kitobga bo'lgan mehr paydo bo'lgan. Chunki o'sha asarni birovga oddiy, shunchaki bir kitob emas, balki jo'shqin va limmo – lim muhabbat bilan yetkazaman va bundan o'zim xursand bo'laman.

Audio ovozlar ohangdorligi, va insonlarni o'ziga jalb qilishi orqali juda ko'p sohalarda muvaffaqiyatga ega bo'ldi. Xususan, insonlarning tarbiya maktabi kutubxonalar uchun bu dastur qulay va kerakli vositaga aylandi. Masalan, kitobxon har doim ham kitob o'qishga vaqt topa olmaydimi? U albatta ana shu kitobning audio shaklini olib eshitadi. Kitob o'qishni sevadi ammo ijtimoiy imkoniyati yoki sog'ligi to'g'ri kelmaydimi? U albatta audio kitoblarni olib tinglaydi. Shunday kitobxonlar bor audio kitobni eshitganda asar ohangiga mast bo'lib xayolot dunyosiga g'arq bo'ladi. O'sha asardagi obrazda yashayotgandek his qiladi. Va o'sha qahramon o'rnida o'zini ko'rganday yonadi, iztirob chekadi, hayotni qadriga yeta boshlaydi.

Audio kitoblarni qanday sotib olish mumkin?

Bugungi kunda kitobxonlik an'anaviy shakldan chiqib, tobora yangi formatlarga o'tmoqda. Bosma kitoblar, albatta, o'zining qadri va alohida o'rniga ega. Ammo zamon bilan hamnafas bo'lish, texnologiyalar qulayliklaridan foydalanish orqali kitob mutolaasini yanada kengaytirish mumkin. Ayniqsa, oxirgi-yillarda audio kitoblar juda om-malashdi. Ko'plab insonlar, ayniqsa yoshlar va band kishilar uchun audio formatdagi asarlar – bilim olishning qulay va samarali usuliga aylandi.

Bosma nashrdagi kitoblarni olib o'qimoqchi bo'lsak, albatta uni sotib olishimiz yoki kutubxonalarga a'zo bo'lib, so'ngra olib o'qishimiz mumkin. Lekin noyob nashrlar yoki talab darajasi ko'p ammo kam nussxali kitoblar bo'lsachi bu masalani qanday hal qilish mumkin? Aynan mana shu yerda ham elektron kitoblar qatori audio kitoblar ham tezda yordamga kela boshladi. Yaqinda men tanlov uchun tayyorgarlik ko'rayotganima, Jeyms Klirning "Atom odatlar" kitobini o'qishim kerak bo'ldi. Bosma nashr hali do'konlarga kelmagan edi, kutubxonada ham topilmadi. Internetda elektron varianti ham yo'q edi. Ammo izlanishni davom ettirib, nihoyat kerakli audio variantni topdim. Uni tinglab, tayyorgarligimni samarali olib bordim va tanlovda yaxshi natijaga

erishdim. Bu holat menga yana bir bor audio kitoblarning qanchalik foydali va kerakli ekanini isbotladi. Eng muhimi audio kitobni tinglash menga tanlovda yaxshi natijaga erishishimga sababchi vosita bo‘ldi. Bu kabi qiziq voqealar har bir kitobga ehtiyoj sezgan kitobxonlarda ko‘p bo‘lsa kerak. Agar siz audio kitoblarni tinglashga moyil bo‘lsangiz internet havolalari orqali izlaning albatta topasiz. Jismoniy jihatdan klassik va zamonaviy asarlarni o‘qishga vaqtлari bo‘lmaganlar ularni ko‘plab do‘konlarda va Internet saytlarida keng ko‘lamda taqdim etilgan audiokitoblarni sotib olish orqali tinglashlari mumkin.

Nega aynan audio kitob?

Audio kitoblar – bu nafaqat ko‘zni zo‘riqtirmasdan kitob “o‘qish” imkoniyati, balki vaqtни samarali boshqarishning ham usuli hisoblanadi. Darsga borayotganda, mashina haydayotganda, sport bilan shug‘ullanayotganda yoki oddiy uy ishlari davomida ham sevimli asaringizni tinglashingiz mumkin. Ayniqsa, ko‘zlar charchaganida yoki bosma kitobni o‘qishga vaqt topilmayotganida audio kitoblar eng yaxshi yordamchiga aylanadi.

Audio kitoblarni qayerdan topish mumkin? Audio kitoblarni topish uchun hozirda juda ko‘plab onlayn platformalar mavjud. Quyidagilar eng mashhurlaridandir:

Audible (Amazon) – bu eng yirik va ishonchli platformalardan biri bo‘lib, ko‘plab bestsellerlar, klassik asarlar va yangi chiqayotgan kitoblarning audio variantlarini topish mumkin. Pullik obuna asosida ishlaydi.

Storytel – o‘zbek, rus, ingliz va boshqa tillardagi turli janrdagi kitoblarni taqdim etuvchi xizmat. Obuna asosida ishlaydi, mobil ilovasi qulay va foydalanuvchi uchun interaktiv.

LitRes – asosan rus tilidagi asarlar bilan mashhur. Ayrim kitoblarni bepul tinglash mumkin, ko‘pchilik esa pullik.

Google Play Books / Apple Books – rasmiy ilovalar orqali audio kitoblar xarid qilish yoki tinglash imkoniyati mavjud.

YouTube va Telegram kanallari – ayrim asarlar havaskorlar yoki mustaqil ijodkorlar tomonidan audio shaklga keltirilib, bepul taqdim etiladi. Biroq bunday manbalarda mualliflik huquqlariga e’tibor berish kerak.

O‘zbek tilidagi audio kitoblar qayerda bor? So‘nggi-yillarda o‘zbek tilidagi audio kitoblar soni ham ortib bormoqda. Quyidagi platformalar bunga misol bo‘la oladi:

Kitobxon.com – o‘zbek tilida turli janrlarda yozilgan asarlarning audio va elektron variantlarini taklif etadi.

Ziyo Music ilovasi – diniy, ma’rifiy va badiiy asarlarning audio shaklini taqdim etadi.

Xulosa qilib shularni aytishim mumkinki, audiokitoblar – yangi dunyo sari bir yo‘l dir. Zamonaviy hayotda bizga ko‘plab axborot oqimi ta’sir qiladi. Lekin inson tafakkurini rivojlantiradigan eng samarali vosita – bu kitobdir. Agar vaqt topib o‘qishga ulgurmasangiz, audiokitoblarni tinglang! Buyuk arboblarning hikmatlarini, jo‘shqin yozuvchilarning ta’sirli asarlarini tinglab, hayotga yangi nigoh bilan qarashni istaysizmi? Unda audiokitoblarni maroq bilan eshititing va o‘zingizga yangi hayot baxsh eting!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Skott de Martinvil, E. L. Fonoavtograf: Dastlabki ovoz yozish qurilmasi. – 1860.
2. Timoty Dodson (Harvard Business School). Audiokitoblar va tez o‘qish haqida fikrlar.
3. Ibrohim G‘afurov. Ovozning ruhiy va ijtimoiy ta’siri haqida.
4. “Audible” platformasi va audiokitoblarni sotib olish haqida ma’lumot.
5. “Storytel” va “LitRes” platformalaridagi audio kitoblar haqida umumiylumot.

Айзада Байдарова
магистр, старший преподаватель
Казахский национальный женский
педагогический университет

ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА В РАМКАХ СИСТЕМЫ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Обеспечение библиотек образованными, квалифицированными кадрами-главная проблема библиотечной отрасли. В решении этих вопросов внедрена дуальная система обучения. Дуальная система обучения напрямую влияет как на обучение, так и на мотивацию специалиста в будущем найти рабочее место по будущей профессии. Они учатся с интересом, с пониманием ответственности, с особым отношением к учебе. Кроме того, студент рано приспосабливается к общению в производственном коллективе и привыкает к социальной среде.

Ключевые слова: дуальная система обучения, библиотечное дело, библиотечный специалист, образовательная программа, обучающийся, договор.

Abstract. Providing libraries with educated, qualified personnel is the main problem of the library industry. A dual training system has been introduced to address these issues. The dual training system directly affects both the training and the motivation of a specialist in the future to find a job in a future profession. They study with interest, with an understanding of responsibility, with a special attitude to study. In addition, the student adapts early to communication in the production team and gets used to the social environment.

Keywords: dual training system, library science, library specialist, educational program, student, contract.

Качественное профессиональное образование сегодня – это средство социальной защиты, гарантия стабильности, профессиональной самореализации человека на разных этапах жизни. Профессиональное образование не может быть полноценным без связи с производственной сферой, без организованной практики.

В связи с этим, модернизация профессионального образования в стране определяет необходимость принципиального изменения ряда традиционных подходов к системе подготовки специалистов. Взаимодействие образования с бизнесом, субъектами рынками труда – это одна из составляющих современной модели, которая востребована обществом. Поэтому именно сейчас необходима всенарядная поддержка программы дуального обучения и ее реализация в тесном сотрудничестве с работодателями и социальными партнерами.

На сегодняшний день дуальная система обучения – одна из самых эффективных форм подготовки профессиональных кадров в мире. Дуальная форма обучения позволяет значительно укрепить практическую часть учебного процесса, сохраняя

при этом уровне теоретической подготовки, помогает решить задачу подготовки специалистов, полностью готовых к выполнению конкретных трудовых функций.

Дуальное обучение – это обеспечение современного профессионального становления студентов, когда в специальных и высших учебных заведениях вводят теоретическую и практическую подготовку одновременно (параллельно), выделяя для выработки соответствующих умений и качества специальное время, место и др. При использовании системы дуального образования, учебные заведения, в целях практической подготовки специалистов привлекают к практическому обучению студентов учебные заведения привлекает те организации, где необходимы или имеются опытные кадры в рамках конкретных образовательных программ, направлений подготовки, способных поделиться личным опытом, научит студентов правильно пользоваться теоретическими знаниями, работают с конкретным оборудованием, программами и т.д..

Дуальная система обучения является продуктом партнерства образовательных учреждений и работодателей по успешной профессиональной и социальной адаптации будущего специалиста, она строится на взаимодействии двух самостоятельных в правовом отношении 2 сфер в рамках официально признанного профессионального образования, то есть осуществляемого в соответствии с законодательством.

Под дуальной моделью обучения понимают такую модель, при которой весь процесс овладения профессией происходит в двух учебных заведениях, то есть практическая (производственная) часть – на обучающем предприятии, а профессионально-теоретическая – в образовательном учреждении. Студент включается в производственный процесс в качестве работника предприятия, согласно своим обязанностям распоряжается выделенными ресурсами, несет должностную ответственность, овладевает профессиональными навыками. Работодатель имеет возможность “вмешаться” в процесс обучения, дополняя содержание обучения кругом насущных проблем для производства. Партнерство с учебным заведением дает возможность на стадии профессиональной подготовки оценить потенциальные кадры и прогнозировать их востребованность на ближайшие годы.

Дуальная система обучения как продукт социального партнерства является эффективным и гибким механизмом в деле профессиональной подготовки высококвалифицированных специалистов, решает сложные производственные задачи и быстро адаптирующихся к постоянно меняющимся реалиям времени.

Для внедрения дуального обучения, нужно сделать много на законодательном уровне – закрепить обязательства предприятий в рамках дуального обучения, обеспечить учебным заведениям максимальную самостоятельность при разработке совместно с работодателями учебных планов, программ. Каждому учебному заведению необходимо определить специальность и базовое предприятие, по которым будет внедряться дуальное обучение, разработать план поэтапного внедрения проекта дуального обучения с указанием сроков реализации. В образовательных учреждениях должна быть разработана нормативно-правовая и учебно-методическая документация по системе дуального обучения, рассмотрены вопросы обучения

персонала предприятия основам педагогического мастерства, а также прохождение производственных стажировок преподавателями колледжа на предприятиях в целях повышения квалификации. Это лишь некоторые из проблем для внедрения дуального обучения.

Для студентов дуальное обучение – достижение высокой мотивации в получении знаний, адаптация к производственным отношениям в коллективе. Сначала закрепившись на предприятии в качестве потенциальных работников, они учатся более осознанно и заинтересовано, легче осваивают сложные теории через практику и решение реальных профессиональных задач.

Система дуального образования практикуется во многих странах мира. Начало объединения теоретического и практического обучения в учебных заведениях было положено в Германии.

В Казахстане такой вид подготовки специалистов в техникумах и колледжах начали внедрять с 2012 года. В этом направлении есть ряд успехов: в нормативных актах закреплено понятие “дуальное обучение”. В первую очередь это касается Трудового кодекса, где на законодательном уровне утвержден баланс теории и практики в системе обучения. Позже система дуального обучения стала применяться и в высших учебных заведениях.

В Казахстане принимаются реальные меры по внедрению дуального образования. Создана нормативная правовая база. В Законе Республики Казахстан “Об образовании” дано определение кооперативного обучения как одной из форм организации профессиональной подготовки кадров, основанной на корпоративной ответственности государства, работодателей и учебных заведений (п.1 ст.35-1), определены основные направления взаимодействия партнеров в области профессионального образования (п.2 ст.45-1) [1].

Внедрение казахстанской модели дуального образования способствует решению следующих вопросов:

- определения потребности кадров по конкретной специальности;
- трудоустройство выпускников (некоторые студенты остаются работать в тех предприятиях, где проходили практическую часть обучения);
- соответствие содержания образования требованиям работодателей.

Чаще всего в реализации дуальной системы обучения на базе колледжей и вузов действуют базовые кафедры, которые сотрудничают с соответствующими компаниями. Студенты для прохождения практической подготовки и стажировки направляются в организации, соответствующие всем требованиям подготовки специалистов соответствующего образовательного направления, с учетом заявленных требований вуза: масштабы и вид деятельности, наличие подходящей материально-технической базы и пр. Притом важно, чтобы учащийся был не просто формально на практике, но и выполнял реальные задания с учетом уровня его подготовки.

Подготовка специалистов по образовательной программе 6B03201 – “Библиотечное дело” на основе системы дуального обучения в Казахстане осуществляется с 2016 года на базе Национальной библиотеки РК двумя вузами: Казахским

национальным университетом им.Аль-Фараби (Кафедра Всемирной истории, историографии и источниковедения) и Казахским национальным женским педагогическим университетом (Кафедра библиотековедения и библиографии).

В каждом конкретном случае были составлены и подписаны двусторонние Договоры о дуальном обучении, в которых детально предусмотрены обязательства и ответственности каждой из сторон. Важнейшей задачей указанной здесь является развитие сотрудничества в различных сферах научно-образовательной деятельности, включая в него ученых, педагогических практических работников, обучающихся на основе равноправия и взаимной выгоды. Договора ежегодно обновляются.

Высшим учебным заведением и предприятием также совместно решаются вопросы структуры и содержания учебных дисциплин, их перечень и т.д. Также определяются сроки проведения обучения по образовательной программе 6В03201 – “Библиотечное дело” на базе Предприятия, основные направления деятельности обучающихся в период прохождения учебной и производственной практики на базе Предприятия, количество обучающихся, направляемых Университетом на Предприятие.

По каждой из специальных дисциплин составляются и утверждаются совместно КазНУ им.аль-Фараби, КазНацЖенПУ и Национальной библиотекой РК Рабочие программы специальности “Библиотечное дело” по дуальному обучению.

Дуальная система обучения по образовательной программе 6В03201 – “Библиотечное дело” основывается на следующих правилах:

Начальная и полная теоретическая подготовка ведётся в стенах образовательного заведения: лекционные и семинарские занятия, практические занятия, проведение которых возможно в имеющихся лабораториях, научная работа;

Практическая подготовка производится по мере усвоения базовой части, но проходит на территории действующей организации;

Учебный план по каждой специализации создается на основе требований МОН РК, действующих ГОСТов, а также рекомендации работодателей и предприятий (практики), с учетом актуальных требований, предъявляемых к соискателям и работникам, уровню их подготовки и др.

В соответствии с Договором о дуальном обучении Национальная библиотека РК устанавливается в качестве практического центра подготовки обучающихся по образовательной программе 6В03201 – “Библиотечное дело” и обязуется принимать на обучение студентов в установленном количестве и в указанные сроки, выделит квалифицированных работников в качестве преподавателей и ведущих специалистов для проведения образовательной деятельности на ее базе по каждому направлению (дисциплине) программы дуального обучения, обеспечит участие обучающихся в работе по выполнению практических заданий, формирование профессиональных, компетенций через непосредственное участие в библиотечно-библиографической деятельности.

В свою очередь, КазНУ им.аль-Фараби, КазНацЖенПУ обязуются обеспечить предварительную подготовку обучающихся, направляемых на обучение и практи-

ку, изучение и соблюдение правил технической эксплуатации производственного оборудования, правил поведения на рабочих местах и на территории Предприятия, правил техники безопасности, охраны труда и других норм и правил внутреннего трудового распорядка Предприятия, оказывают работникам Предприятия своевременную методическую помощь в проведении занятий и практики, обеспечит обучающихся необходимыми учебно-методическими материалами.

В Национальной библиотеке РК была открыта Кафедра библиотековедения, которая носит в настоящее время имя видного деятеля библиотечного дела Казахстана Бердигалиевой Р.А. Здесь созданы все необходимые условия для проведения занятий по специальным дисциплинам: обширный фонд учебной, учебно-методической, производственной литературы библиотечно-информационной тематики, традиционный и электронный справочно-библиографический аппарат, включающий книги и материалы из профессиональных периодических изданий, интерактивная доска и др. Кроме того, на кафедре проводятся семинарские и практические занятия по специальным дисциплинам, защита студентами профессиональной практики и др.

Для проведения практических занятий и к руководству прохождением практики студентов наряду с преподавателями КазНУ им. аль-Фараби и КазНацЖенПУ привлекаются опытные сотрудники Национальной библиотеки. В каждом конкретном случае практические занятия проводятся в разных подразделениях библиотеки, в зависимости от самой учебной дисциплины и темы практического занятия и поставленных перед студентами задач. К примеру: по теме “Модули Web-РАБИС” – в подразделении Службы компьютерного и сетевого обеспечения, по теме “Аналитико-синтетическая обработка документов” – в подразделении Службы справочно-библиографической и информационной работы, по теме “Импорт-экспорт библиографических записей и баз данных библиотек-участниц КЦКК” – в подразделении Службы информационных ресурсов, по теме “Казахстанская национальная электронная библиотека. Роль Национальной библиотеки РК в формировании КазНЭБ” – в подразделении Службы цифровых технологий т.д. В соответствии с рабочими программами в разных подразделениях и Службах Национальной библиотеки проходят занятия по таким учебным дисциплинам как: “Теория и практика библиотечной рекламы”, “Инновационные библиотечные услуги”, “Культура делового общения в библиотеке”, “Основы научных исследований библиотечной деятельности”, Менеджмент библиотечно-информационной деятельности, Документные ресурсы библиотек и информационных служб, История казахской книги и документов, Компьютерные технологии в библиотечном деле, Библиотечные и информационные технологии и другие.

Своевременно, не позднее, чем за две недели до начала учебного периода и практики, в соответствии с Договором о дуальном обучении, кафедры КазНУ им. аль-Фараби, КазНацЖенПУ, где обучаются студенты по образовательной программе 6В03201 – “Библиотечное дело” в Национальную библиотеку РК направляется согласованный списочный состав обучающихся и календарные сроки проведения производственной практики.

В процессе прохождения производственной практики студенты овладевают практическими знаниями и навыками, предусмотренными программой практики. Количество часов (кредитов), содержание библиотечно-информационных процессов зависят от утвержденной Рабочей программы. К примеру, студенты 3 курса проходят производственную практику “Электронные библиотеки и ресурсы”. Защита производственной практики проходит в Национальной библиотеке в присутствии представителей от базовой кафедры университета, руководства библиотеки (директор, заместители директора, руководители Служб) и непосредственных руководителей производственной практики от Национальной библиотеки. Студенты отчитываются о выполненной работе, рассказывают о приобретенных навыках работы, отвечают на вопросы.

Наряду с созданием условий для прохождения студентами практических занятий, производственной практики и других форм обучения, в Национальной библиотеке РК проводятся мероприятия, способствующие повышению статуса специальности “Библиотечное дело” и созданию современного имиджа библиотечного работника. В них принимают участие не только преподаватели и студенты, занимающиеся по системе дуального обучения, но и студенты Каскеленского колледжа культуры, учащиеся старших классов общеобразовательных школ, которые в будущем могут стать студентами КазНУ им. аль-Фараби, КазНацЖенПУ.

Дуальная система обучения по образовательной программе 6В03201 – “Библиотечное дело” вносит свой вклад в подготовку специалистов информационно-библиотечного дела с учетом современных требований, акцентируя внимание на приобретение профессиональных навыков одновременно с теоретическим обучением.

Список литературы:

1. Закон Республики Казахстан от 27 июля 2007 года № 319-III “Об образовании” (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.01.2022 г.)

*Shahrizoda Beknazarova
O‘zDSMI Kutubxona-axborot faoliyati
(kutubxonachilik va bibliografiya)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

OILA VA MAKTAB KUTUBXONALARI HAMKORLIGINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila va maktab kutubxonalari hamkorligining zamonaviy tendensiyalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada raqamli kutubxonalar, ota-onalarni jalg qilish dasturlari, ijtimoiy tadbirlar va innovatsion loyiham kabi dolzarb mavzular yoritilgan. AQSH, Finlandiya, Singapur, Buyuk Britaniya va Kanada kabi mamlakatlarning muvaffaqiyatli amaliyotlari taqdim etilgan. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, oila va maktab kutubxonalari hamkorligi bolalarning o‘qishga qiziqishini oshirish, ularning bilim darajasini yaxshilash va oila a’zolarini ta’lim jarayoniga faol jalg qilish imkoniyatini beradi. Maqola zamonaviy ta’lim tizimida kutubxonalarning o‘rni va ularning rivojlanish istiqbollarini ko’rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Oila va maktab kutubxonalari hamkorligi, raqamli kutubxonalar, ota-onalarni jalg qilish dasturlari, innovatsion loyiham, elektron kitoblar va audiokitoblar, ijtimoiy tadbirlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, o‘qish qiziqishini oshirish, bolalarning bilim darajasi, ta’lim jarayonida oila ishtiroki

Abstract. This article analyzes modern trends in family and school library cooperation, based on the experience of developed countries and statistical data. The article covers such topical issues as digital libraries, parental involvement programs, social activities and innovative projects. Successful practices from countries such as the USA, Finland, Singapore, Great Britain and Canada are presented. Studies show that family and school library cooperation allows you to increase children’s interest in reading, improve their level of knowledge and actively involve family members in the educational process. The article shows the role of libraries in the modern education system and their development prospects.

Key words: Family and school library cooperation, digital libraries, parental involvement programs, innovative projects, e-books and audiobooks, social activities, experience of developed countries, increasing interest in reading, level of knowledge of children, family participation in the educational process

Oila va maktab kutubxonalari hamkorligi bolalarning o‘qishga qiziqishini oshirish, ularga mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini o‘rgatish va oila a’zolarini ta’lim jarayoniga jalg qilish orqali ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Zamonaviy dunyoda bu hamkorlik yangi texnologiyalar, raqamli resurslar va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari) maktab

kutubxonalar raqamli platformalarga o‘tishni davom ettirmoqda. Masalan, AQSHda 85% maktab kutubxonalar elektron kitoblar, audiolar va interaktiv darsliklarni taklif qiladi. Bu oila a’zolariga uydan turib kutubxona resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Finlandiya, Singapur kabi mamlakatlarda oila va maktab kutubxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, “Ota-onalar bilan birga o‘qish” loyihalari orqali oila a’zolari bolalarga kitob o‘qishda yordam berishadi.

Zamonaviy kutubxonalar nafaqat kitoblar, balki ijtimoiy tadbirlar, seminarlar va o‘quv dasturlari uchun ham markazga aylanmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada kutubxonalarda oilalar uchun adabiy kechalar, bolalar uchun interaktiv o‘yinlar va ta’lim kurslari tashkil etiladi.

AQSHda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab kutubxonalar bilan faol hamkorlik qiladigan oilalarning bolalari o‘qishda 30% yuqori natijalarga erishadi [1].

Finlandiya ta’lim tizimi dunyoda eng yaxshilardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda maktab kutubxonalar oila bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor beradi. “Kutubxona oila bilan” loyihasi: Bu loyiha orqali oila a’zolari kutubxona faoliyatiga faol jalb qilinadi. Ota-onalar bolalari bilan birga kitob o‘qish, kutubxona da tadbirlarda qatnashish va hattoki kutubxona fondini boyitishda ishtirok etishadi. O‘qish qiziqishini oshirish: Finlandiyada kutubxonalar bolalarning o‘qish qiziqishini oshirish uchun interaktiv o‘yinlar, kitob tanqidlari va adabiy kechalar tashkil etadi. Bu tadbirlar orqali bolalar kitoblar bilan yaqindan tanishadi. Finlandiyada 90% maktab kutubxonalar oila a’zolarini o‘quv jarayoniga jalb qilish uchun maxsus dasturlar ni qo’llaydi [2].

Raqamli kutubxonalar: Singapurdagi maktab kutubxonalar elektron kitoblar, audiokitoblar va interaktiv darsliklarni taklif qiladi. Ota-onalar bolalarning o‘qish progresini onlayn platformalar orqali kuzatishlari mumkin.

Ota-onalar uchun platformalar: Singapurda ota-onalar uchun maxsus raqamli platformalar yaratilgan. Bu platformalar orqali ular bolalarning o‘qish qiziqishlarini kuzatish, kitoblar tanlash va kutubxona tadbirlarida qatnashish imkoniyatiga ega.

“Oilaviy o‘qish” dasturi: Bu dastur orqali oila a’zolari birgalikda kitob o‘qishadi va ular haqida muhokama qilishadi [3]. Bu bolalarning o‘qish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Raqamli resurslar: AQSHda 85% maktab kutubxonalar elektron kutubxona xizmatlarini taklif etadi [4]. Bu resurslar orqali ota-onalar uydan turib kutubxona fondidan foydalanishlari mumkin.

Ota-onalarni jalb qilish: AQSHda kutubxonalar ota-onalarni bolalarning ta’lim jarayoniga jalb qilish uchun maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Masalan, “Ota-onalar bilan birga o‘qish” loyihalari orqali oila a’zolari bolalarga kitob o‘qishda yordam berishadi.

Buyuk Britaniyada maktab kutubxonalar ijtimoiy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Ijtimoiy tadbirlar: Kutubxonalarda oilaviy adabiy kechalar, she’riyat marafonlari va kitob taqdimotlari o‘tkaziladi. Bu tadbirlar orqali o‘qish qiziqishi oshiriladi. “Kitoblar orqali yordam” loyihasi: Bu loyiha doirasida kam ta’minlangan oilalarga kitoblar tarqatiladi. Bu orqali bolalarning o‘qish imkoniyatlari oshiriladi. Buyuk Britaniyada

kutubxonalarda tashkil etilgan oilaviy tadbirlar ishtirokchilari soni 2015-yildan beri 40% ga oshgan [5].

Manbalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Finlandiya, Singapur va boshq). maktab va oila kutubxonalar hamkorligi ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mamlakatlarda kutubxonalar nafaqat kitob berish maskani, balki ijtimoiy ta'lim markazi sifatida faoliyat yuritadi. Ota-onalar va bolalar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali oilalar ta'lim jarayoniga jalb etiladi. Raqamli texnologiyalar (elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn resurslar) kutubxonalar imkoniyatlarini kengaytirib, ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

O'zbekistonda ham kutubxona tizimi rivojlanayotgan bo'lsa-da, xorij tajribasi bilan solishtirganda hali ko'plab kamchiliklar mavjud. Maktab kutubxonalarini ko'pincha faqat an'anaviy kitoblar bilan cheklanadi, raqamli resurslar esa keng joriy etilmagan. Ota-onalarni jalb qilish bo'yicha maxsus dasturlar kam uchraydi. Kutubxonalarning ijtimoiy markaz sifatida faoliyati hali to'liq shakllanmagan.

Shu sababli, O'zbekistonda maktab va oila kutubxonalar hamkorligini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Raqamli kutubxonalarni rivojlantirish – elektron va audiokitoblar fondini kengaytirish, onlayn platformalar yaratish.

Ota-onalarni jalb qilish dasturlarini joriy etish – “Oila bilan o'qish” loyihalari orqali ota-onalarni bolalar bilan birga kutubxonaga jalb qilish.

Kutubxonalarni ijtimoiy markazga aylantirish – adabiy tadbirlar, seminarlar, interaktiv o'yinlar tashkil qilish.

Xalqaro tajribani o'rganish va tatbiq etish – rivojlangan mamlakatlarning ilg'or loyihibarini mahalliy sharoitga moslashtirish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston kutubxona tizimi rivojlangan davlatlar tajribasidan o'rganib, raqamli texnologiyalar va innovatsion loyihalarni tatbiq etsa, bolalar va oilalar orasida o'qishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyati ortadi. Ushbu tajribalar biz uchun yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Family Engagement in Libraries / American Library Association (ALA). – 2022.
– URL: <https://www.ala.org/pla/initiatives/familengagement>
2. Parent's Expereinces on a Family Literacy Program in Finland Europen // Journal of Education and Pedagogy. – 2023. – URL: <https://www.ej-edu.org/index.php/ejedu/article/view/762>
3. Digital Libraries and Family Involvement // Singapore Ministry of Education. – 2023.
4. Global Trends in School Libraries / UNESCO. – 2020.
5. Family Literacy and School Libraries in the UK / British Library. – 2022. – URL: www.bl.uk.

**AXBOROT-RESURS MARKAZLARIDA FOYDALANUVCHILARGA
XIZMAT KO‘RSATISHNING ZAMONAVIY TALABLARI
(MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
AXBOROT-RESURS MARKAZI FAOLIYATI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Maqolada axborot-resurs markazlarida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning zamonaviy talablari doimiy ravishda elektron katalogni to‘ldirib, fondlar va kolleksiyalarni raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish orqali elektron kutubxona hajmini kengaytirish, virtual xizmat turlarini ko‘paytirish, internet tezligini oshirish singari yo‘nalishlari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron katalog, raqamlashtirish, virtual xizmat, ma’lumot-qidiruv apparati, komplektlash, infokiosk, axborot bozori, model, qidiruv strategiyasi, axborot tizimi.

Abstract. The article highlights the modern requirements for providing services to users in information resource centers, using the example of expanding the volume of the electronic library by constantly replenishing the electronic catalog, accelerating the digitization of funds and collections, increasing the types of virtual services, and increasing Internet speed.

Keywords: electronic catalog, digitization, virtual service, information retrieval device, complementation, infokiosk, information market, model, search strategy, information system.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazida yuz-yildan ortiq davr mobaynida tarixiy-madaniy an‘analar va kutubxonachilik muhiti shakllangan bo‘lib, unda doimiy ravishda axborotning aylanishi, xodimlar va foydalanuvchilar o‘zaro huquq va majburiyatlari, muloqot qoidalari va meyorlari amalda qo‘llanilib kelinmoqda.

Milliy universitet axborot-resurs markazi (o‘rinlarda ARM) fondlarining qamrab olish kengligi va xronologiyasi tadqiqotchilik faoliyatini olib borish, foydalanuvchilarning turli axborotlar, ma’lumotlar, bilimlarga bo‘lgan talablarini qondirish uchun sharoit yaratadi. Milliy universitet ARMning alohida nufuzi boy adabiyot fondi, katalog va kartotekalardan tashkil topgan ma’lumot-qidiruv apparati, guruhshtirilgan va yuqori malakali kutubxona-bibliografik xizmat ko‘rsatishi, umuman olganda, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish uchun barcha sharoitlar yaratilganligi bilan ajralib turadi. ARMning o‘zi xizmat ko‘rsatadigan barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun ahamiyati shundaki, boshqa ta’lim muassasalari tizimidagi axborot-resurs markazlari topilavermaydigan zarur materiallarni taqdim etuvchi muhim markaz ekanligidir. Axborot-resurs markazida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, foydala-

nuvchilar auditoriyasi transformatsiyasi va “ARM-foydalanuvchi” tizimidagi munosabatlar, barcha toifadagi foydalanuvchilarga teng imkoniyatlarni ta’minlash asosida yondashuvga sharoit yaratmoqda.

Bugun kun foydalanuvchisi xizmat ko‘rsatishga ancha yuqori talablar qo‘ymoqda, chunonchi, ARMdagi tashrif vaqtini qisqartirishga, yangi texnologik vositalardan kengroq foydalanishga hakarat qilmoqda. Shuningdek, talabalar maktabda o‘qigan davrida avvalgilarga nisbatan boshqacharoq ta’lim olgan, boshqacha fikrlaydi, kompyuter texnikasini yaxshi qo‘llay biladi, sharoit shinamligini talab qiladi, vaqtini qadrlaydi, chunki, ularning ko‘pchiligi turli o‘quv kurslarida qo‘srimcha bilim egallaydi, ayrimlari esa, ishlaydi.

Zamonaviy ARM foydalanuvchisining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, bu ularda jonli muloqotga kirishish ko‘nikmalarining sustlashib borayotganligidir. Milliy universitet axborot-resurs markazi bularni e’tiborga olib, ARM va undagi resurslar haqida ma’lum beruvchi infokiosklarni o‘rnatgan. Shuningdek 2020–2021 o‘quv-yildan e’tiboran turli yo‘nalishlarda aynan jonli muloqot qilish, fikr almashish, u yoki bu masala bo‘yicha o‘z nuqtai-nazarini bemalol bildirish, auditoriya oldida o‘zini tutishga qaratilgan bir qancha “Iqtidorli yoshlar” klublari faoliyat ko‘rsatmoqda. Komplektlash, saqlash va foydalanish jarayonlarida elektron shakldagi axborot-resurslar hajmining ortishi axborot-kutubxona xizmatlarini taqdim qilishdagi texnologik va tashkiliy o‘zgarishlar foydalanuvchilar auditoriyasi va ARMning o‘zaro moslashishi uchun asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazi foydalanuvchilari tarkibida-
gi- “Elektorn resurslardan foydalanuvchi” toifasi faollashib borayotganligini ta’kidlash joiz. Bunday toifadagi kitobxonlarning paydo bo‘lishi xizmat ko‘rsatish jarayonidagi islohotlar foydalanuvchi axborot talablariga javob beruvchi resurslar bazasi va zarur infratizimni yaratishiga turtki bo‘ladi.

Bu esa axborot-resurs markazi xodimlari doimiy ravishda rivojlpnib borayotgan axborot bozorini o‘rganib borishini, foydalanuvchi fe’l-atvori va taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini baholashni talab etadi. Milliy universitet ARM mutaxassislari va xizmatlarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni amalga oshirish uchun xizmat ko‘rsatishning yangi modelini, ya’ni ARM xodimi va foydalanuvchi munosabatlari o‘zaro ishonch va teng huquqli xarakterga ega bo‘lgan xizmatni taqdim etmoqda. Xorijiy kutubxonalar amaliyotida bunday model xizmat ko‘rsatishning “Gorizontal modeli” deb ataladi va 2000-yillardan buyon qo‘llanilib kelinmoqda. Global tarmoqyordamida katta hajmdagi axborotdan foydalanishda ARM xodimlarining roli o‘zgarib boryapti. U manbalarni saqlovchi xodimdan turli axborotlar, ma’lumotlar va boshqa bilimlar manbalaridan foydalanishni ta’minlab beruvchi vositachiga aylanmoqda. Axborot-resurs markazlari ning ijtimoiy funksiyalari esa, avvalgidek qolmoqda. Foydalanuvchi ishonchini oqlash, uning axborot talablarini qondirish, axborotning qaerga joylashganligidan qat’iy-nazar, undan foydalanish uchun taqdim etish, shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish tobora mustaqil foydalanishga aylanmoqda. Chunki foydalanuvchining o‘zi kompyuterda ishlab, qidiruv strategiyasini o‘ylamoqda, o‘z talabini aniqlashtirib, turli darajadagi dasturiy menyulardan foydalangan holda, xayoli qidiruv ko‘rsatmalarini “tuzmoqda”, qidiruv-

ning turli belgilari, (bibliografik elekmantlar, kalit so‘zlar, indekslar) bo‘yicha amalga oshirmoqda, axborot tizim taqdim etayotgan ma’lumotlar yoki hujjatlarga bo‘lgan talabni identifikatsiya qilmoqda, olingan ma’lumotlarni guruhlashtirmoqda. Bunday o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishni ochiq fondlardan ham kuzatish mumkin. Bunda hujjatlarni rasmiylashtirish va foydalanuvchilarga taqdim etishdagina ARM xodimining ishtirotki talab etiladi.

Bugungi foydalanuvchi “Istalgan axborot, istalgan joyida va istalgan vaqtida” shioriga amal qilmoqda. Shunday kelib chiqib, axborot-resurs markazi veb-saytlari orqali virtual kirishni yo‘lga qo‘yan. Foydalanuvchi kompyuteridan ARMga “tashrif buyurish” va ko‘plab xizmatlardan masofaviy rejimda foydalanishi mumkin. Bunday tashriflar, xuddi an’anaviy jismoniy tashriflar singari, “virtual tashriflar” deb ataladi. Albatta, bunday xizmat ko‘rsatish natijasida foydalanuvchilarning ARMLarga jismoniy tashrifi-yildan-yilga kamayib ketishi xodimlar sonining qisqarishiga ham olib kelishi mumkin. Lekin ARMLar faoliyatining to‘liq avtomatlashtirish, zamonaviy xizmatlarni joriy etish ishlar hajmining qisqarishi degani emas. ARMLarda resurslar yadrosini qamrab oluvchi va ularni yoritib beruvchi ishlar xarakteri o‘zgaradi, yangi mahsulot turlari (elektron kataloglar, elektron ma’lumotlar bazasi, virtual xizmatlar, elektron kutubxona) paydo bo‘ladi. Masofadan foydalanuvchilar ma’lum darajada “anonim”, “no-ma’lum” foydalanuvchilar hisoblanib, zarur axborotni mustaqil qidiradilar va shunga muvofiq ular o‘z so‘rovlaringin bajarilishida xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakllarini va ARM tomonidan o‘zgacha munosabatlarni talab qiladilar.

Shuningdek ARM manbalarni uzatish jarayoni avtomatlashtirilishi foydalanuvchi uchun “Buyurtma onlayn” xizmatidan foydalanish imkonini beradi. Foydalanuvchi elektron katalogda zarur bo‘lgan resurslarni izlab topib, unga buyurtma berishi va kutubxona o‘quv zallariga o‘ziga qulaymqaqtda tashrif buyurishi va undan foydalanishi, buyurtmaning bajarilishi uchun ketadigan vaqtini tejashi mumkin. Eng muhim, bunday foydalanuvchilar uchun ularning so‘rovlari tezlikda bajarilishi, axborotning to‘liqligi va haqqoniyligi katta ahamiyatga egadir.

Qoidaga ko‘ra, elektron resurslar (kompakt-disklardagi nashrlar, litsenziya keli-shuvlari yoki ochiq foydalanishdagi resurslar) oqimiga kirish tizimi ulardan foydalanishning quyidagi shartlari asosida aniqlanada:

Masalan foydalanish. Milliy universitet axborot-resurs markazi foydalanuvchilari uchun axborot tashuvchilardagi elektron nashrlar, shaxsiy yaratilgan resurslarning ba’zilari bilan ishlashni nazarda tutadi;

Masofadan ochiq kirish-ARMning barcha ochiq resurslaridan foydalanish, shuningdek, masofadan foydalanuvchilar uchun bepul resurslar yoki internet resurslaridan havolalar bo‘yicha foydalanish;

Masofadan chegaralangan kirish-ARMning aniq IP-manzilli kompyuterlari yordamida masofaviy axborot resurslaridan foydalanish.

Milliy universitet axborot-resurs markazi respublikamizdagi yirik ARMLar ichida eng ko‘p xorijiy ilmiy-ta’limiy elektron bazalarga obunani amalga oshirib kelmoqda. Ushbu bazalardagi axborotlarning hajmi millionlab nusxani tashkil etishi, dunyo miq-yosida fanning barcha sohalari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy ishlar

va ixtirolarni aks ettiruvchi eng yangi nashrlar bilan tezkor ravishda tanishish imkonini beruvchi manba hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazi global tarmoqda <https://library.nuu.uz/> rasmiy sayti orqali qayd etilgan bo‘lib, unda ARM haqida to‘liq ma’lumotlar-xizmatlar va faoliyat yo‘nalishlari, yangiliklar, tashkil qilinadigan tadbirlar kabi axborotlar bilan tanishish imkonini beradi. Saytdagi axborotlar lokal va masofadan foydalanuvchilar uchun, shuningdek, axborot-resurs markazlarida faoliyat olib borayotgan hamkasblar uchun mo‘ljallangan.

Axborot-resurs markazining sayti mazmuni va mavzusining to‘ldirilishi ilmiy, ta’li miy va ma’rifiy maqsadlarga muvofiqligi jihatidan yangilanib boriladi. Yangi sahifalar ochiladi, elektron hujjatlar bilan to‘ldiriladi.

O‘zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazining zamonaviy sharoitda rivojlanishning asosiy maqsadi, bu foydalanuvchilar talabini qondirish, ularning axborotlarga, ma’lumotlarga va turli bilimlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib, resurslar bazasini kengaytirish, tarixiy-madaniy an’analarga tayangan holda, dunyo miqyosida ochiq foydalanishni ta’minalashdan iboratdir.

Asosiy maqsadi erishish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalarni takomillashtirish asosida foydalanuvchilarning ARM resurslaridan ochiq foydalanishlarini ta’minalash, milliy va jahli elektron makoniga izchillik bilan integratsiyani amalga os-hirish, O‘zbekiston kitobatchilik madaniyatini axborot-resurs markazi fondlari asosida yoritish (bosma nashrlar, hujjatlar asosida), uni milliy ijtimoiy-madaniy kommunikatsiyalar markazi va intellektual suhbatlar o‘tkazish joyi sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, foydalanuvchilar tomonidan qo‘yilayotgan talablardan, shuningdek, bugungi kun axborot makonida axborot-resurs markazi xizmatini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan faoliyatda quyidagilarga asosiy e’tibor qaratilishi lozim:

doimiy ravishda ARM elektron katalogini to‘ldirib borish va qidirib imkoniyatlarini takomillashtirish;

ARM fondlari va kolleksiylarini raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish orqali elektron fond hajmini kengaytirish;

elektron resurslardan o‘zaro foydalanish va ularni birlashtirish, elektron fondlari tashkil qilish bo‘yicha xalqaro loyihalarda ishtirok etish;

ARM veb-saytida virtual xizmat turlarini ko‘paytirish;

ARM o‘quv zallaridagi resurslarni joylashuvi bo‘yicha elektron katalog bilan integratsiyalashgan maxsus dasturiy (navigator) yaratish;

Internet tezligini oshirish ishlarini jadallashtirish singari ishlari ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Uchinchi nashr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.

2. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli Farmoni // Xalq so‘zi. – 2017. – 25-may.
3. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalar kolleksiyalari / Salaeva M.S, Kislisina I.L., Salaeva M.S. Mas’ul muharrir Shomusarov Sh.G‘. – Toshkent: MVMTO3, 2018. – 112 b.
4. Кормилицын А.И. Научная библиотека Ташкентского Государственного университета (1918–1993). – Ташкент, 1996. – 98 с.
5. Mo‘tabar ziyo maskani (1918–2008). – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU, 2008. – 152 b.
6. ToshDU ilm va ma’rifat maskani. – Toshkent: Universitet, 1995. – 182 b.

Go‘zal Matnazarova
O‘zDSMI Kutubxona-axborot faoliyati
(kutubxonachilik va bibliografiya)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Bahodir Usmonov
O‘zDSMI Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti
dekani, dotsent – ilmij rahbar

MAKTAB KUTUBXONALARI: KITOBdan UZOQLASHAYOTGAN YOSHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar orasida kitobxonlikka qiziqish pasayib borayotgani, buning sabablari hamda uning oqibatlari atroficha tahlil qilin-gan. Xususan, maktab kutubxonalarining holati, ulardagи mayjud muammolar va xiz-mat ko‘rsatishdagi samaradorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada kutubxona resurslarining yetishmasligi, raqamlı axborot manbalariga kirish imkoniyati ning cheklanganligi, xodimlar malakasining past darajada ekanligi kabi dolzarb masalalar ko‘tarilgan. Shu bilan birga, yoshlarni kitob o‘qishga qiziqtirish va kutubxona xizmatlarini takomillashtirish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, yoshlar, maktab kutubxonasi, raqamlı resurslar, ta’lim, axborot texnologiyalari, kutubxona xizmati, tarbiyaviy omillar

Abstract. This article explores the declining interest in reading among modern youth and analyzes the root causes and consequences of this trend. Special attention is given to the current state of school libraries, their challenges, and the effectiveness of the services they provide. Key issues such as lack of library resources, limited access to digital information sources, and insufficient staff training are thoroughly discussed. In addition, the article offers practical recommendations and strategies to improve library services and foster a reading culture among students.

Keywords: reading habits, youth, school library, digital resources, education, information technology, library services, educational factors

Rus tadqiqotchilarining aytishicha so‘ngi paytlarda yoshlarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi halokatli darajada pasaygan. Kitob o‘rniga ommaviy axborot vositalari (telefon, planshet va hakazo)ni qo‘lida ushlagan o‘smirlarga har qadamda duch kelamiz. Ular kitob o‘qish bilan emas, kitob ushlab chiroyli manzaralarda rasmga tushish, aslida ma’no ma’no-mazmuni bir pulga qimmat kitoblardan esa qaysidir jumlanı qalam bilan ajratib ko‘rsatib aforizmlar yaratish bilan band bo‘lib qolishgan. Ular kitoblarni boshqa tobora ommabop va jozibador axborot olish vositalari bilan almashtirgan holda bo‘sh vaqtlarini samarasiz va mazmunsiz o‘tkazishmoqda. Kutubxonlarga qadam bosmaydi-gan talaba yoshlarning aksariyatida esa o‘zining shaxsiy uy kutubxonasi bo‘lishini va kitob o‘qishni yaxshi ko‘rishini aytishadi. Bu holat elektron ommaviy axborot va ko‘n-

gil ochar industriyaning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. “NOP World” xalqaro reyting agentligining 2020-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyoda kishilar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazar ekan, 6,5 soatlik davrini esa mutolaaga ajratadi.

Qancha ko‘p kitob o‘qisangiz shuncha ko‘p va turli joylarga borasz. Ayniqsa bolalar kitoblari juda rang barang bo‘lib, ular bolalarga televizorga qaraganda 50% ko‘proq so‘zlarni o‘rgatadi. Kaliforniya universitetida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, so‘z boyligi boshqalardan ko‘ra ko‘roq bo‘lgan odamlar nafaqat o‘qish testlarida, balki boshqa fanlarda ham muvaffaqiyat qozonishadi. Shu o‘rinda yana bir narsani esdan chiqarmaslik kerak agar sifatli o‘qishni hohlasangiz, bosma kitoblarga murojaat qiling. Yana bir tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ekrandan o‘qish kitobdan o‘qishga qaraganda odamlarni 20-30% ga sekinlashtiradi. Buyuk Britanyaning Neurology jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko‘ra o‘rtacha 89 yoshgacha bo‘lgan 294 ta kishi bilan o‘tqizilgan surishtiruvga ko‘ra kitob o‘qish kabi aqlni rag‘batlantiruvchi mashg‘ulotlarga ko‘proq vaqt sarflaydigan odamlar qarish va xotirani yo‘qotish kabi holatlarga kamroq duchor bo‘lishadi. Bunday tashqari aqliy mashqlarni muntazam ravishda bajarmaydigan odamlar bajaradigan odamlarga nisbatan aqliy qobiliyatlarini 48% ga tezroq yo‘qotar ekanlar. Proceedings of the National Academy of Sciences jurnalining 2021-yilda olib borgan tadqiqotlariga qaraganda, o‘zining sevimli mashg‘ulotiga aylanib qolgan jumboqlarni yechish bilan shug‘ullanadigan odamlarning miyyasi odatdagidan ko‘proq ishlar ekan va bu ularda Alsgeymer kasalligini paydo bo‘lishiga olib keladi. Ular kitob o‘qish orqali ushbu kasallikning rivojlanish xavfini keskin kamaytirishadi. Kitob o‘qish umuman mutolaa qilish osoyishta va tinch uplash imkonini ham berar ekan.

Uhlashga yotishdan oldin kundalik stressni kamaytiradigan mashg‘ulotlardan musiqa tinglash, qiziqarli kinolar tomosha qilish va har taraflama o‘zimiz uchun foydali bo‘lgan usul esa kitob o‘qish. Elektron qurilmalar ekranidagi ochiq rangli chiroqlar miyyaga uyg‘onish signallarini beradi, shuning uchun to‘shagingizda xira nurda kitob o‘qish notebook yoki planshetni ochishdan yaxshiroqdir. Kitob o‘qish, mutolaa qilish yuqumli hamdir. Agar siz farzandingiz kitob o‘qishini istasangiz, oldin o‘zingiz kitob o‘qishni boshlappingiz kerak. Scholastic jurnalida chop etilgan hisobotga ko‘ra uyida ota-onasi kitob o‘qigan o‘rta maktabgacha bo‘lgan bolalar kelajak hayotlarida muntazam kitob o‘quvchilar bo‘lishadi. Bugungi kunda eng ko‘p kitob o‘qiydigan kattalarning 40% ini 6 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qiladi. O‘qish insonlarning ekspersiv qobiliyatini yaxshilaydi. Kitob o‘qish szni yaxshi kommunikator yoki ijtimoiy jihatdan rivojlangan odamga aylantirmasligi mumkin, ammo bu sizga o‘zingizni kenroq doirada, aniqroq so‘zlar va tushunchalar bilan ifoda etishga imkon beradi.

Shunday ekan nega kitob o‘qish tobora kamayib bormoqda, nega yoshlarning qo‘lida kitob yo‘q? Avvalo yoshlarni kitob o‘qishga, umuman mutolaaga qiziqishini oshirishda maktablar ham katta o‘rin tutadi. Maktab kutubxonalar o‘quvchilarga bilim olish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qish madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu kutubxonalar ko‘plab muammolarga duch kelmoqda, bu esa o‘quvchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishning samaradorligini pasaytiradi. Quyida maktab kutubxonalaridagi xizmat ko‘rsatish muammolari va ularni hal qilish uchun takliflar keltirilgan.

1. Kutubxona resurslarining yetishmasligi. Maktab kutubxonalarida o‘quvchilarga kerakli kitoblar, ilmiy jurnallar yoki raqamli resurslar yetishmaydi. Bu o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini cheklaydi. Birgina 2020-yilda manlakatimizda 11092 ta kutubxona va axborot resurs markazlari mavjud edi, shundan deyarli 90% yani 9911 tasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim maktablaridagi kutubxonalar edi. Afsuski ularning hammasi ham kitobxonlarning talablariga javob bera olmaydi [1].

- Kutubxonalar uchun maxsus byudjet ajratish va yangi kitoblar, jurnal va raqamli resurslarni xarid qilish.

- O‘quvchilarga onlayn kutubxona resurslariga kirish imkoniyatini yaratish, masalan, elektron kitoblar va ilmiy maqolalar.

- Kutubxonalarda mavjud bo‘lgan resurslarni doimiy yangilab borish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Bazi bir maktab kutubxonalarida zamonaviy kitoblar va zamonaviy texnologiyalar ni joriy etishdan oldin, ulardagи bundanda dolzarb bo‘lgan muammolarni (o‘quvchilar ga darsliklarning yetishmasligi, kutubxona uchun sharoit yaratilmaganligi, oddiy dars xonalaridan kutubxona sifatida foydalanilishi kabi) ham nazardan chetta qoldirmasligimiz kerak.

2. Kutubxona xizmatlarini samarali tashkil etish

Kutubxona xodimlari ko‘p vaqtini kutubxonada kitoblarni tartibga solish yoki boshqa ma’muriy ishlар bilan o‘tkazadilar, o‘quvchilarga to‘g‘ri maslahatlar berish va yordam ko‘rsatishga yetarlicha vaqt ajratmaydilar. Bundan tashqari kutubxonalarda shu soha bo‘yicha yetarli bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lmagan hodimlarning ishlayotganligi ham asosiy muammolarimizdan biri bo‘lib qolmoqda.

- Kutubxona xodimlariga maxsus treninglar tashkil etish, shunda ular o‘quvchilarga maslahat berish va ilmiy izlanishlar o‘tkazish bo‘yicha yaxshi xizmat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

- Kutubxonada o‘quvchilar uchun maxsus vaqt va xizmatlarni joriy etish (masalan, kutubxonaga kirish va yordam olish bo‘yicha ma’lumot vaqtлari).

3. Raqamli resurslarga kirishning cheklanganligi

Ko‘p maktab kutubxonalarini raqamli resurslarga kirish imkoniyatlariga ega emas, bu esa o‘quvchilarning zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. O‘quvchilar onlain kutubxonalardan, onlayn resurslardan foydalanishni bishmaydi. Telefon va shunga o‘xshash boshqa texnikalar rivojlangan bo‘lsada ulardan ota-onalar farzandlarini to‘g‘ri foydalanishga undashmayapti. Har xil o‘yinlar, video roliklar va hozirgi kunda nihoyatda jamiyatimiz odamlarini qamrab olgan Instagram, yoqi tuba, Tik Toklar bilan cheklanib qolishgan [2].

- Maktab kutubxonalarini internet va raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash, o‘quvchilarga onlayn ma’lumotlar bazalariga, e-kitoblar va ilmiy jurnallarga kirish imkoniyatlarini yaratish.

- Kutubxona va boshqa ta’lim muassasalarini raqamli resurslar bilan ta’minlash uchun hamkorlik o‘rnatish.

4. Kutubxonalar faoliyatining kam reklama qilinishi.

Ko‘p o‘quvchilar kutubxonaning resurslari va xizmatlari haqida bilmasligi mumkin. Bu o‘quvchilarni kutubxonadan foydalanishga undamaslikka olib keladi. Reklama aholini kutubxonaga jalb etishning eng muhim usulidir. O‘tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirlar haqida e’lon, chorlovlar berib boorish orqali o‘quvchilarni kutubxonaga jalb etish mumkin.

- Kutubxona xizmatlari va resurslari haqida o‘quvchilarga doimiy ravishda reklama qilish, masalan, maktabda kutubxona haftalari, ma’lumotlar taqdimotlari yoki kitob o‘qish kampaniyalarini tashkil etish.

- O‘quvchilarni kutubxonaga jalb qilish uchun turli faoliyatlar, masalan, kitob klublari, adabiy kechalar yoki ilmiy seminarlar tashkil etish.

5. Fizik joyning noqulayligi. Maktab kutubxonalari ko‘pincha kichik maydonlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarga qulay o‘qish va izlanish imkonini yaratib bera olmaydi. Bu, ayniqsa, katta o‘quvchi soniga ega maktablarda muammo bo‘lishi mumkin. Kitoblar yoki o‘quv materiallari to‘g‘ri joylashtirilmaganligi sababli, o‘quvchilar kerakli resurslarni topishda qiyonalishi mumkin. Kitoblar tartibsiz joylashtirilganligi, joylar esa yetarli darajada yoritilmaganligi noqulaylikka olib keladi. Ba’zi kutubxonalarda eski mebellar, yomon holatda bo‘lgan uskunalar yoki eskirgan kompyuterlar bo‘lishi mumkin, hattoki ba’zilarida shuni o‘zini ham topa olmaysiz. Bu o‘quvchilarga o‘qish yoki ishlashda albatta qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari kutubxona juda gavjum bo‘lsa yoki unda tinchlikni saqlashga alohida e’tibor berilmasa, shovqin va chalg‘itish muammosi yuzaga kelishi mumkin, bu esa o‘qish yoki o‘rganish jarayonini qiyinlashtiradi. Maktab kutubxonasida ko‘plab o‘quvchilar bo‘lganligi sababli, kutubxonaning kichik maydonida joy yetishmasligi mumkin, bu esa o‘qish yoki muhokama qilish uchun quaylay joyni topishda qiyinchiliklar yaratadi.

Bunday holatlarda kutubxonalarining dizayni, uskunalar va xizmatlar yaxshilanishi, shuningdek, kutubxona faoliyatining samarali rejalashtirilishi kerak.

- Kutubxonaning bo‘sh joylaridan samarali foydalanish, masalan, o‘quvchilar uchun maxsus o‘qish va ish joylari tashkil etish.

6. O‘quvchilarning kutubxonaga bo‘lgan qiziqishining yo‘qligi. Ba’zi o‘quvchilar kutubxonalarga kam murojaat qiladilar, bu esa kitob o‘qish madaniyatining rivojlanmasligiga olib keladi. O‘quvchilarning kutubxonaga bo‘lgan qiziqishining yo‘qligining asosiy sabablaridan biri, kitoblar va o‘qish materiallarining ularning yoshiga mos kelmasligi yoki zerikarli bo‘lishi mumkin. Ko‘plab o‘quvchilar, ayniqsa yoshlar, ilg‘or va zamonaviy formatdagi materiallarga qiziqishadi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, internet va smartfonlar, o‘quvchilarning o‘qish va o‘rganish istagini internetdagi oson va tezkor resurslarga yo‘naltirishi mumkin. O‘quvchilar kutubxonalarda kitoblar o‘rniga internet resurslariga ko‘proq murojaat qilishadi. O‘quvchilarga o‘qishning foydalari va kutubxonaning ahamiyati haqida to‘liq tushuncha berilmagan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘qish jarayonini qiziqarli va foydali tarzda tashkil etish uchun qo‘llaniladigan metodlar yetishmayapti.

- O‘quvchilarga kitob o‘qishning foydalarini tushuntirish va ularni rag‘batlantirish.

- Kitoblarni turli yosh guruhlariiga moslashtirish, shuningdek, zamonaviy va qiziqarli adabiyotlarni kutubxonada mavjud qilish. Kutubxonalarda o‘quvchilar uchun

qulay muhit yaratish, masalan, o‘quvchilarning o‘zlari faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilochar, interaktiv joylar tashkil qilish muhim. Shuningdek, kutubxona dizaynnini yoshlar va bolalar uchun jozibali va qulay qilish kerak. O‘quvchilarning kutubxonaga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil faoliyatlar, masalan, kitoblarni tanlash, mualliflar bilan uchrashuvlar, adabiy musobaqlar va seminarlar o‘tkazish mumkin. Bu tadbirlar o‘quvchilarni faollashtirib, ularga kitoblar va kutubxona haqida ko‘proq bilishga yordam beradi. O‘quvchilarga o‘qishning foydalari haqida muntazam ravishda tushuntirishlar o‘tkazish va o‘qishning ijobiy tomonlarini ko‘rsatish zarur. O‘quvchilariga o‘z qiziqishlarini rivojlantirish uchun kutubxonada qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni tashkil qilish foydali bo‘lishi mumkin [3]. Maktab kutubxonalaridagi xizmatlarni takomillashtirish uchun ko‘plab muammolarni hal qilish zarur. Yaxshi tashkil etilgan kutubxona o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, kutubxonalarni samarali ishlatish va ularga kerakli resurslar bilan ta’minlash o‘quvchilarga eng yaxshi bilim olish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida: PQ–781-son qarori, 2020-yil 14-dekabr // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Kutubxonachiga yordam: dayjest / Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi; tuzuvchi M. Kamilova; muharrir D. Mansurov; mas’ul muharrir U. Teshabayeva – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. – 64 b.
- 3.https://simavdemirciilkokulu.meb.k12.tr/icerikler/her-elde-bir-kitap-var-projesi-kapsaminda-kitap-okuma-etkinligi_6396818.html.

*Go‘zal Rasulova
Toshkent viloyati “Turon”
Axborot-kutubxona markazi*

KUTUBXONA VA ARXIV XIZMATLARIDA SUN’IY INTELLEKT: INNOVATSION YECHIMLAR VA YANGI DAVR BOSHLANISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqola XXI asr texnologiyalarining ajralmas qismi bo‘lgan sun’iy intellektning kutubxona va arxiv faoliyatida qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Sun’iy intellektning rivojlanishi kutubxona va arxiv xizmatlarining avtomatlashtirilishi va foydalanuvchilarga yanada samarali xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratmoqda. Maqolada global tajribalarga tayanib, sun’iy intellekt asosida ishlovchi yechimlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, O‘zbekistondagi kutubxona va arxiv sohasida sun’iy intellektni joriy etishning afzalliklari va ehtimoliy muammolari tahlil qilinadi. Maqola sun’iy intellektni kutubxona va axiv faoliyatiga samarali tarzda integratsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kutubxona, arxivshunoslik, chatbot, raqamlashtirish, sohalar rivoji, virtual kutubxonachi, jahon tajribasi

***Abstract.** This article focuses on the application of artificial intelligence (AI) in the field of library and archival activities, which is an integral part of the technologies of the 21st century. The development of AI is enhancing the automation of library and archival services, providing more efficient ways to serve users. The paper discusses innovative AI-based solutions such as automated data retrieval, chatbots, OCR technology, recommendation systems, and language recognition. It also examines the advantages and potential challenges of implementing AI in libraries and archives in Uzbekistan. The article emphasizes the necessary measures to effectively integrate AI into library and archival practices.*

Keywords: *artificial intelligence, library, archival science, chatbot, digitization, sector development, virtual librarian, global experience*

XXI asr texnologiyalar asri jumlesi allaqachon insonlar hayotiga moslashib, bu asr yangiliklari insonlarni birmuncha hayratlantirmay ham qo‘ydi. “Sun’iy intellekt” ham shu kabi texnologiyalar asrining kashfiyoti. Avvaliga jamiyat qulog‘iga o‘rnashmagan, aql bovar qilmagan va tushunarsizdek ko‘ringan bu “yangilik” bugungi kunda barcha sohalarga birdek kirib bormoqda. Aslida sun’iy intellekt kompyuter va tizimlarga inson aqlini taqlid qilish imkoniyatini beruvchi bir necha texnologiyalar to‘plami hisoblanib, ularning o‘zini-o‘zi o‘rgatish, muammolarni qisqa vaqt ichida hal qilish va qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatları mavjud. Bunda inson omili birmuncha kamayadi. Shu sababli ham deyarli barcha sohalar hozirda sun’iy intellekt yordamiga ehtiyoj sezmoqda. Shunday ekan, nega biz buni kutubxonachilik va avxivshunoslik faoliyatlariga tatbiq etmasligimiz kerak? Tanqid bo‘lsada, O‘zbekistonda faoliyati birmuncha oqsayotgan

sohaga balki shu “aqlli dastyor”ning ko‘magi kerakdir..? Keling bugun jahon tajriba-lariga asoslangan holda biz bu sohalarda nimalar qilishimiz kerakligi va nimalar qila olishimizni ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bugungi kunda axborot va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, ayniqsa sun’iy intellekt, kutubxona va arxivshunoslik sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga yordam bermoqda. Shu bilan bir qatorda bu imkoniyatlar sohadagi ba’zi muammolarga innovatsion yechimlarni ham taklif qilmoqda. Bizning hayotimizga yangi kirib kelgan, ammo jahonda allaqachon insonlar turmush tarzini qulaylashtirayotgan bu sun’iy intellektning joriy etilgani foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning samadarligini oshirish bilan bir qatorda raqamli materiallarni saqlash va boshqarish jarayonlarini ham yanada takomillashtirayapti. O‘zbekiston kutubxona va arxivlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etiliishi axborot xizmatlarini takomillashtirish, foydalanuvchilarga qulaylik yaratish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kutubxonalar va arxivlar jamiyatda axborot almashinuvi va saqlashning markaziy va asosiy muassasalarini hisoblanadi. Shunday ekan bu ma’lumotlar xavfsiz saqlanishi, tezkor taqdim etilishi, jamiyat va bu muassasalar o‘rtasida doimiy aloqa bo‘lishi, foydalanuvchilarga tez va sifatli xizmat ko‘rsatilishi bu sohalarning asosiy vazifalari va muammoli jihatlari hisoblanadi. Sun’iy intellektni tatbiq qilish yordamida esa bu muammolarni birmuncha yengillashtirishimiz mumkin.

Kutubxona va arxivlarda sun’iy intellektni tatbiq qilish orqali quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz mumkin:

Avtomatlashtirilgan ma’lumot izlash

Bu eng sodda variant desak ham bo‘ladi. Misol uchun:

“Alisher Navoiyning ijodiy merosi haqida maqolalar bormi?” – deb yozsangiz, sun’iy intellekt sizga so‘rovingizga mos maqolalarni topib beradi.

Raqamlashtirish va matnni tanib olish xususiyati (OCR+AI) Kutubxonalar nodir nashrlar fondida yoki arxivlarda eski hujjatlar, qo‘lyozmalar, yuksak qiymatga ega bo‘lgan maolalar saqlanadi. Ularni nusxa ko‘paytirish yoki foydalanishga topshirishda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga yechim sifatida sun’iy intellekt yordamida hattoki qo‘lyozmalarni ham skaner qilish va matnga aylantirish, tarixiy hujjatlarni esa raqamlari arxivga joylashtirish imkoniyati mavjud.

Chatbotlar va virtual kutubxonachilar Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotlar foydalanuvchilarga kechayu kunduz yordam bera olishi bilan mashhur. Bu chatbotlar allaqachon ko‘p sohalarga kirib bordi. Buni o‘zimizning sohaga ham tatbiq qilsak foydalanuvchilarga birmuncha qulayliklar beradi. Ularni kutubxona yoki arxivlarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari yoki rasmiy saytiga integratsiya qilish yo‘li bilan foydalanuvchilardan istalgan vaqtida kelgan savollarga avtomatik javob berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Tavsiya tizimlari (rekomendatsiyalar) Spotify yoki Youtube’da har bir foydalanuvchiga mos kontent chiqqani kabi kutubxonalarda ham sun’iy intellekt yordamida foydalanuvchilar qiziqishlari asosida kitob yoki maqolalar tavsiyasini yo‘lga qo‘yish mumkin. Misol uchun bir kitobxon O‘lmas Umarbekov asarlarini qidiradigan bo‘lsa,

uning so‘roviga shu adibning boshqa kitoblari yoki hayoti va ijodi, u haqida yozilgan asarlarni avtomatik tavsiya etishimiz mumkin.

Tilni aniqlash va tarjima qilish tizimi Yuqorida aytib o‘tganimizdek arxivdagi xorijiy materiallar yoki kutubxonalar nodir fondlaridagi arab, eski o‘zbek yozuvlaridagi materiallarni sun’iy intellekt orqali til, yozuv turi, matn strukturasi kabi belgilarini aniqlab, ularni tarjima qilish imkoniyatini yaratish.

Kutubxonachilik – bu axborotni izlash, saqlash, tartibga solish va foydalanuvchiga yetkazib berish bilan bog‘liq intellektual kasb hisoblansa, sun’iy intellekt esa bu faoliyatga yangi metod va vositalarni olib kirib, kutubxonachining ishini yangicha yo‘nalishga burmoqda. An’anaviy kataloglashtirishda bibliografik yozuvlar kutubxonachi-bibliograflar tomonidan yaratiladi. Endilikda sun’iy intellekt asosidagi NLP (Natural Language Processing) vositalari mat mazmunini tushunib, avtomatik annotatsiya qilish imkonini beradi. Bu kutubxonachilik ishi sifatini oshirishga va xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

Arxivshunoslik sohasi esa hujjalarni tizimli tartibga solish, ularni saqlash va ilmiy-huquqiy qiymatini belgilash bilan bog‘liq sohaga aylandi. Bunda sun’iy intellektni arxivlarga arxivlardagi tarixiy, yozma hujjalarni tanib olish, tahlil qilish, ularni muhim mavzular, davrlar yoki shaxslar bo‘yicha tematik guruhlarga ajratish orqali tatbiq qilsak to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘layman. Bu ilmiy izlanishlarga qulay manba bazasini ham yaratib berar edi.

Mavzu boshidan beri sun’iy intellekt deb ko‘p gapiryapmiz, buni qanday tatbiq qilish kerak, jahonda bu borada ahvol qanday keling buni ham ko‘rib chiqamiz. Aslida bu sohaga tatbiq qila oladiganimiz eng asosiysi sun’iy intellekt asosida ishlovchi virtual referent xizmatlari ya’ni foydalanuvchilarga 24/7 rejimda axborot beruvchi, izlashda yordam beruvchi va kutubxona xizmatlarini soddalashtiruvchi chatbotlar, ovozli yordamchilar yoki virtual kutubxonachilardir. Quyida men sizga real dasturlar va platformalardan kutubxonachilik va arxiv faoliyatiga mos keladigan misollarni keltiraman:

LibAnswers (by Springshare) <https://springshare.com/libanswers/> Bu platforma ko‘plab universitet kutubxonalarida ishlatiladi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi chatbot (LibChat) foydalanuvchilarning savollariga avtomatik javob beradi

EBSCO‘s “Ask a Librarian” (AI-assisted virtual reference service) <https://www.ebsco.com> Bu xizmat foydalanuvchilarga ilmiy maqola, elektron manbalar bo‘yicha maslahat beradi, so‘rovlarni tahlil qiladi va tegishli resurslarni taklif qiladi. Google Dialogflow yoki Microsoft Azure Bot Services

Kutubxonalar o‘zлari uchun chatbot yaratmoqchi bo‘lsalar shu saytlardan foydalan-sa bo‘ladi. O‘zbekiston kutubxonalarida ham “kutubxonachi-bot”, “axborot yordamchisi” yoki “kitob izlayman” kabi avtomatik chatbotlar yaratish mumkin.

ChatGPT (API orqali kutubxonalarda integratsiya qilish) OpenAI‘ning ChatGPR API xizmatlari orqali kutubxona saytiga sun’iy intellektli virtual yordamchi joylash-tirish mumkin hattoki ba’zi jahon kutubxonalari aynan ChatGPT‘ni o‘zining “virtual kutubxonachisi” sifatida sinovdan o‘tkazib ko‘rmoqda.

Darhaqiqat, jahon kutubxonalari va arxivlari bu borada ancha oldinda va sun’iy intellekt texnologiyalarini faol ravishda kundalik amaliyotga tatbiq etib kelyapti. Masalan

Buyuk Britaniya kutubxonasi (British Library) OCR (Optical Character Recognition) asosida qadimiy hujjatlarni raqamlashtirmoqda. Digitised Newspapers Project yordamida esa gazeta arxivlari yordamida tematik, xronologik va geografik bo‘linmalarga ajratmoqda. Yoki bo‘lmasam Singapur milliy kutubxonasida ham AI-based content curation yordamida foydalanuvchilarning qiziqishlariga qarab yangi materiallar tavsiya qilinar ekan. Xattoki kutubxonalar bo‘yicha xalqaro tashkilot IFLA ham kutubxonalar da sun’iy intellekt texnologiyalarini etika, axborot xavfsizligi va axborot adolati asosida joriy etishni targ‘ib qilmoqda

Xulosa qilib aytganda, shu va shu kabi sun’iy intellekt afzalliklaridan foydalanib, soha rivojida yangiliklar va qulayliklar yaratish mumkin. Lekin sun’iy intellekt kutubxona yoki arxiv xodimlari o‘rnini bosa olmaydi. U jarayonlarni yengillashtirishi, tezlashtirishi, avtomatlashtirishi kabi oddiy ishlarni bajarishi mumkin, ammo kutubxonachilar esa murakkab, ilmiy va kreativ ishlar bilan shug‘ullanadilar. Bu jihatdan sun’iy intellekt kadrlar masalasiga xavf sola olmaydi, balki kutubxonachi va arxivshunosning yangi rolini yaratadi. Endilikda kutubxonachi yoki arxivshunos Axborotni saralaydi va sun’iy intellektni to‘g‘ri yo‘naltiradi, foydalanuvchilarga yanada murakkab, tanqidiy tahlil asosidagi xizmatlarni taklif qila oladi, axborot etikasi va axloqiy mezonlar asosida sun’iy intellekt tizimlarini nazorat qiladi. Faqatgina har bir kutubxonachi yoki arxiv xodimi o‘zining intellektual faoliyati, axloqiy yondashuvi va tuxnologik savodxonligi orqali sun’iy intellektni to‘g‘ri boshqarishga o‘rganishi kerak. Shuning uchun ham sun’iy intellektni bu sohalarga tatbiq qilishdan qo‘rmasligimiz kerak, balki undan kasbiy o‘sish uchun vosita sifatida foydalanish kerak, menimcha. O‘zbekiston kutubxonalari va arxivlarida sun’iy intellektni xizmatkor emas, balki hamkor sifatida ishlatish lozim. Chunki texnologiyalar inson o‘rnini emas, uning imkoniyatlarini kengaytirib beradi, sohani modernizatsiya qilishda yordam beradi. Baribir xoxlaymizmi yo‘qmi sun’iy intellekt kelajakda baribir barcha sohalarni qamrab, inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qoladi. Bu yo‘nalishda esa xalqaro tajriba – yo‘l xaritasi, o‘zimizning boy ilmiy merosimiz esa mazmuniy asos bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ismatov A. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirishning zamnaviy holati va istiqbollari. – 2020.
2. IFLA. Artificial Intelligence in Libraries: Ethical Guidelines. International Federation of Library Associations and Institutions. – 2019.
3. Barber M. Artificial Intelligence in Libraries: Applications, Trends, and Case Studies / M. Barber, C. Kerns. – [W.p.]: Springer, 2019.

Hilola Batirova

*TATU “Kutubxona –axborot faoliyati”ta ’lim
yo ‘nalishi 3-bosqich talabasi*

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI MEDIA VA RAQAMLI SAVODXONLIK MARKAZI SIFATIDA

Annotatsiya. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va zamonaviy ilmiy usullar yordamida moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlab qolish, ularni global miqyosda targ‘ib qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu maqolada madaniy merosni asrab-avaylashning muhim jihatlari, zamonaviy texnologiyalarning ushbu sohadagi o‘rnini hamda O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, Arxeologiya yodgorliklar, Raqamli arxivlar, Ommaboplilik va ta’lim, 3D skanerlash va modellashtirish.

Abstract. Today, digital technologies and modern scientific methods are expanding the possibilities of preserving tangible and intangible cultural heritage and disseminating it on a global scale. This article discusses important aspects of the preservation and promotion of cultural heritage, the role of modern technologies in this area, and the work being carried out in Uzbekistan.

Keywords: cultural heritage, archaeological discoveries, digital archives, public awareness and education, 3D scanning and modeling.

Ma’lumki, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi madaniy merosni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazish jarayoniga bugungi kunda tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida madaniy merosni asrab-avaylash, uni raqamli texnologiyalar yordamida hujjatlashtirish va keng targ‘ib qilish borasida muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, 2017-yil 20-apreldagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–5028-sonli farmoni va 2018-yil 19-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining madaniy merosini asrash, o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4068-sonli qarori ushbu yo‘nalishda huquqiy asos yaratdi [1]. Shuningdek, 2020-yil 21-oktabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida milliy madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilgan [2]. Ushbu hujjatlar asosida O‘zbekistonning boy madaniy merosi – qadimiy qo‘lyozmalar, arxeologik topilmalar, me’moriy yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy san’at asarlari raqamli shaklda saqlanib, jahon ilmiy va madaniy hamjamiyatiga taqdim etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi boy madaniy merosi bilan ajralib turadi. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mamlakatimizda jami 8 210 ta madaniy meros obyekti mavjud

bo‘lib, shundan 7 827 tasi davlat mulki, 383 tasi esa xususiy mult hisoblanadi [3]. Ushbu obyektlar quyidagicha tasniflanadi:

Arxeologiya yodgorliklari: 4 797 ta

Arxitektura yodgorliklari: 2 266 ta

Monumental yodgorliklar: 617 ta

Diqqatga sazovor joylar: 530 ta

Raqamli texnologiyalar yordamida madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Saqlash va himoya qilish: Raqamli arxivlar obyektlarning yuqori sifatli nusxalarini yaratib, ularni tabiiy ofatlar, eskirish yoki yo‘qolishdan himoya qiladi.

O‘rganish va tadqiqot: Raqamli ma’lumotlar olimlar va tadqiqotchilar uchun obyektlarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Ommabopliz va ta’lim: Raqamli platformalar orqali keng jamoatchilik va talabalar madaniy meros bilan tanishishlari mumkin.

Madaniy meros har bir xalqning tarixi, madaniyati va milliy o‘zligini aks ettiruvchi bebafo boylik hisoblanadi. U nafaqat o‘tmishni anglash va kelajak avlodlarga yetkazish vositasi, balki millatning jahon madaniy merosiga qo‘shgan hissasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Moddiy madaniy meros yillar o‘tishi bilan tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishlari va inson omili tufayli zarar ko‘rishi mumkin. Shuningdek, noqonuniy qazish ishlari va tarixiy obidalarni asossiz buzish ham ushbu merosning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Nomoddiy madaniy meros esa urbanizatsiya, globallashuv va an’anaviy bilimlarning yo‘qolishi natijasida xavf ostida qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning milliy an’analar va qadriyatlarga qiziqishining kamayishi bu borada jiddiy muammolardan biridir. Raqamli texnologiyalar madaniy merosni himoya qilish va keng targ‘ib etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda [4]. Quyidagi texnologiyalar ushbu jarayonda samarali qo‘llanilmoqda:

3D skanerlash va modellashtirish – tarixiy obidalar va eksponatlarning aniq raqamli nusxalarini yaratib, ularni saqlab qolish va ta’mirlashda qo‘llaniladi.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) – qadimiy yozuvlarni o‘rganish, madaniy obyektlar tarixini tiklash va ularga oid ma’lumotlarni tizimlashtirish uchun ishlatiladi.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) – muzey va tarixiy obyektlarni interaktiv ko‘rinishda namoyish etish imkonini beradi.

Blockchain texnologiyasi – madaniy meros obyektlari haqidagi ma’lumotlarni bузib bo‘lmas tarzda saqlash uchun ishlatiladi.

O‘zbekistonda bu borada qator muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2020-yilda Toshkent shahrida joylashgan O‘zbekiston davlat san’at muzeyi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi eksponatlari raqamlashtirilib, ularning onlayn versiyalari yaratildi.

O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan: Raqamli “O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga

alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va boshqa te-gishli tashkilotlar tomonidan muzey eksponatlari, arxeologik topilmalar va me'moriy yodgorliklarni raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Raqamli texnologiyalar, jumladan, 3D modellashtirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), blockchain tizimi va virtual reallik (VR) texnologiyalari madaniy meros obyektlarini saqlashda samarali vositalardan biri bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada raqamli davrda madaniy merosni asrash muammolari, zamonaviy texnologiyalar yordamida ularni hujjatlashtirish, tiklash va keng ommaga yetkazish yo'naliishlari tahlil qilinadi. O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahr-isabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro'z", "Katta as-hula", "Askiya", "Palov madaniyati va an'analari" nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatla-ri xalqaro bazasi ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganiga yorqin misol bo'la oladi.

Shuni unutmaslik kerakki, madaniy merosni saqlash faqat davlat organlari zimma-sidagi vazifa emas. Jamiyatning har bir a'zosi, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar ham bu jarayonga o'z hissasini qo'shishi zarur.

Xususan, ta'lim muassasalari va yosh avlod orasida raqamlashtirilgan madaniy meros obyektlariga qiziqishni oshirish va ularni innovatsion texnologiyalar orqali o'r-ganish imkoniyatlarini yaratish lozim [5]. Kelajakda raqamlashtirish jarayonlarini ken-gaytirish va innovatsion texnologiyalardan yanada kengroq foydalanish orqali milliy madaniy boyliklarimizni asrab-avaylash, ularni xalqaro ilmiy jamoatchilik va keng au-ditoriyaga taqdim etish mumkin [4]. Bu esa O'zbekistonning madaniy merosini nafaqat mahalliy, balki jahon miqyosida ham tanitish imkonini beradi. Shu sababli, madaniy merosni raqamlashtirish jarayonlarini tizimli va uzlusiz davom ettirish, bu boradagi ilmiy, texnologik va huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Faqat shundagina biz milliy madaniy merosimizni kelajak avlodlarga to'liq va boy holatda yetkazishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Raqamli texnologiyalar bugungi kunda madaniy merosni saqlash va keng targ'ib qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Madaniy merosni raqamlashtirish – bu nafaqat tarixiy yodgorliklarni himoya qilish, balki ularni global darajada tanitish va ilmiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishning muhim yo'nalishitdir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, 3D modellashtirish, virtual va kengaytiril-gan reallik kabi ilg'or texnologiyalar madaniy meros obyektlarini sifatli va bardavom saqlashga yordam beradi. O'zbekistonda ham raqamlashtirish jarayonlari davlat siyosa-ti darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida arxeologik yodgorliklar, tarixiy hujjatlar, me'moriy obidalar va milliy qo'lyozmalar-

ni raqamlashtirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Bundan tashqari, muzey eksponatlarini 3D formatda modellashtirish va ularni onlayn platformalar orqali ommaga taqdim etish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2017-yil 20-aprel PF–5028 // Xalq so‘zi. – 2017. – 21 apr.
2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” davlat dasturi / O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologialari va kommunikatsiualarini rivojlantirish vazirligi. – Toshkent, 2020.
3. Xakimov F. T. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli transformatsiuaning asosiy yo‘nalishlari. – URL:<https://suberleninka.ru/>
4. Turgunbaev R. O‘zbekiston nomoddiu madaniy amaliotlarini muxofaza qilishda raqamlashtirish va ommalashtirish strategiuaning ahamiuati // Oriental Art and Sulture. – URL: <https://oas.dsni-qf.uz> Volume 5 Issue 6 / Desember 2024.

*Nilufar Djabbarova
TATU “Kutubxona –axborot faoliyati”
ta ’lim yo’nalishi 3-kurs talabasi*

AXBOROT – KUTUBXONA MUASSASALARIDA MEDIA VA RAQAMLI SAVODXONLIK MARKAZI FAOLIYATI

Anotatsiya. Ushbu maqolada axborot-kutubxona muassasalarida media va raqamli savodxonlik markazi sifatida yuritilishi borasida Jizzax viloyatidagi Maktabgacha va muktab ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi muktab kutubxonalari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zi: axborot-kutubxona markazi, axborot-resurs markazi, axborot-kutubxona muassasalari, raqamli savodxonlik, media, ijtimoiy tarmoq, elektron resurslar.

Аннотация. В статье рассматривается функционирование информационно-библиотечных учреждений как центров медиа- и цифровой грамотности на примере школьных библиотек Управления дошкольного и школьного образования Джиззакской области.

Ключевые слова: информационно-библиотечный центр, информационно-ресурсный центр, информационно-библиотечные учреждения, цифровая грамотность, СМИ, социальные сети, электронные ресурсы.

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivoji bilan kutubxonalar an’anaviy kitob saqlash joylaridan ko‘proq funksiyalarga ega bo‘ldi. Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat kitoblar, balki raqamli resurslar, multimedia kontent, ta’lim platformalari va ijtimoiy faollik markazlarini o‘z ichiga olgan media va raqamli savodxonlik markazlariga aylanyapti.

Respublikamizda bugun axborot texnologiyalari kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkorlik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotir. Shu bois yurtimizda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta’minalash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jahaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Shu holni inobatga olgan holda yurtimizdagи barcha axborot-kutubxona muassasalari o‘zlarida mavjud bo‘lgan fondlarni elektron shakliga o’tkazish, shu orqali aholiga masofadan turib axborot-kutubxona xizmatlarini ko‘rsatishni kengaytirishga katta e’tibor qaratib, innovation yondashuv sifatida yuksak baholanib kelinmoqda.

Bugungi kunda elektron kutubxonalarni tashkil etish, ish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda rivojlanirish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fondlarning elektron nuxsalari-

ni yaratish hamda foydalanuvchilarga elektron resurslarni masofadan yetkazib berish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Axborot texnologiyalarining kundan-kunga rivojlanayotganligi axborot-kutubxona faoliyatini yangi yo‘nalishda taraqqiy etishida hamda foydalanuvchilarga innovation xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘rsatishda ya’ni media va raqamli savodxonlik bo‘yicha ham axborotlarni taqdim etishni amalga oshirish muhim vazifa hisoblanmoqda.

Keling Jizzax viloyatining ayrim axborot-kutubxona muassasalari misolida yuqoridagi mavzuga chuqurroq kirishga harakat qilamiz.

Jizzax viloyatida 1 ta Sharof Rashidov nomli viloyat axborot-kutubxona markazi, 12 ta tuman axborot-kutubxona markazlari, viloyat Bolalar kutubxonasi – 1 ta, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi umumta’lim va ixtisoslashgan maktablarda 574 ta hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarida – 4 ta axborot-resurs markazlari, Ma’daniyat boshqarmasi tasarrufidagi Ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari – 9 ta, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi tibbiyot birlashmalarida – 9 ta, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi professional ta’lim tizimi bo‘yicha – 77 ta kutubxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Jizzax viloyatida 687 tadan ortiq axborot-kutubxona muassasalari keng kitobxonlar xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Viloyatdagi axborot-kutubxona muassasalari avtomatlashtirilgan ish joylarini yaratish, electron resurslar orqali kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda ammo axborot-kutubxona muassasalarini media va raqamli savodxonlik markazi sifatidachi?

Birinchi novbatda, Media – bu nima? Ma’lumot uzatish vositasi? Umuman olganda, shunday. Media marketing bu ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga asoslangan marketing. Reklama, auditoriyani o‘rganish, u bilan muloqot qilish – bularning bar-chasi ma’lumot tarqatish vositalarining mavjudligi tufayli sodir bo‘ladi. Shunday ekan hozirda axborot-kutubxona muassasalarida asosan ijtimoiy media turidan keng foydalaniladi. Ijtimoiy media – bu internetga asoslangan aloqa vositalari bo‘lib, odamlarga ma’lumot almashish va iste’mol qilish orqali bir-birlari bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Raqamli savodxonlik – zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir.

Ushbu kerakli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish borasida olib borilayotgan kompleks ishlar natijasida IT sohasiga bo‘lgan qiziqish va kelajakda ushbu kasb egalari bo‘lib yetib chiqish poydevori qurilmoqda.

Shu bilan birgalikda olib borilayotgan ishlar natijasida aholi orasida raqamli platformlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati targ‘ib qilinmoqda. Bunday vaziyatda raqamli savodxonlik kiberjinoyatchilar uchun muhim to‘siq va Internet maydonida jinoyatchilikni kamaytirish usuli sifatida xizmat qilmoqda.

Shunday ekan yuqoridagi mavzuga qaytdigan bo‘lsak, Jizzax viloyatida jami 687 tadan ortiq axborot-kutubxona muassasalari faoliyat olib borayotgan bo‘lsa, ularning ko‘p qismini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi umumta’lim va

ixtisoslashgan maktablardagi 574 ta axborot –kutubxona muassasalari hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak .(2024 –yil xolat)

Jizzax viloyatida Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi maktab kutubxonalarini jami 574 tani, Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab va maktab internatlari 13 ta, Prezident maktabi 1 ta hamda Hamid Olimjon va Zulfiya ijod maktabi 1 ta, viloyat Bolalar kutubxonasi 1 ta va maktab kutubxonalarini esa 558 tani tashkil etadi.

Maktablarda taxsil olayotgan o'quvchilar soni 271 401 nafar bo'lib, kutubxona foydalanuvchisi sifatida ro'yxatga olinganlari jami 287 027 nafarni tashkil etadi.

Maktab kutubxonalarini umumiyligi kitob (darsliklardan tashqari) fondi 696 691 nusxani tashkil etib, shundan,

Nº	Adabiyotlar turlari	Nusxada	Foiz %
1	Bolalar adabiyoti	255 949	36,7
2	Adabiy-badiy adabiyot	405 764	58,2
3	Ensiklopediya va lug'atlar	16 475	2,4
4	Davriy bosma nashrlar	12 979	1,9
5	Audio kitoblar	1 498	0,2
6	Elektron kitoblar	2 544	0,4
7	Boshqa turdag'i adabiyotlar	1 482	0,2

Maktab kutubxonalarini kitob fondini tizimli ravishda bosma va elektron nashrlar bilan to'ldirish bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda 56 655 nusxa adabiyot bilan to'ldirilgan bo'lib, shundan, 49 639 tasi (83,9 foiz) turli mavzudagi adabiyotlar, 7 016 tasi (16,1 foiz) davriy bosma nashrlarni tashkil etadi. Shu bilan birga 2024-yilda 57 113 nusxa adabiyot bilan to'ldirilgan bo'lib, shundan, 49 897 tasi (83,9 foiz) turli mavzudagi adabiyotlar, 7 216 tasi (16,1 foiz) davriy bosma nashrlardan iborat.

Maktab kutubxonalaridagi kadrlar tarkibi bugungi kunda jami 674 nafar xodim fəoliyat olib bormoqda.

Nº	Mutaxassislik bo'yicha	Nafar	Foiz %
1	Axborot -kutubxona sohasida oliy ma'lumotli	26	3,8
2	Axborot -kutubxona sohasida o'rta maxsus ma'lumotli	223	33,1
3	Boshqa sohalar bo'yicha oliy ma'lumotli	151	22,4
4	Boshqa sohalar bo'yicha o'rta maxsus ma'lumotli	270	40,1
5	O'rta ma'lumotli xodimlar	4	0,6

Viloyatdagi 574 ta maktab kutubxonasida faqat 50 ta (4,3 foiz, ular ham jismonan eskirgan holatda) kompyuter, 43 ta (7,7 foiz) printer, 9 ta (1,6 foiz) skaner mavjud bo‘lib, bor-yo‘g‘i 490 ta (85,4 foiz) mакtab kutubxonasi internet tarmog‘iga ulangan.

Ko‘rinib turibdiki, biz qanday qilib mакtab kutubxonalarida media va raqamli savodxonlik markazlari deb aytishimiz mumkin. Men hozir bitta Jizzax viloyati misola da aytib o‘tdim ammo Respublikamizning barcha viloyatlarida mana shunday ahvol. Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlardan tashqari quyidagilarga e’tibor qaratilsa ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

1. Viloyatdagi mакtab kutubxonalarini ta’mirlash, zaxira kitoblarni saqlash va o‘quv zallari uchun alohida-alohida xonalar ajratish va ularni zarur moddiy-texnika va mebel jihozlari bilan ta’minalash.

2. Mакtab o‘quvchilarining sonidan kelib chiqib, bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan badiiy adabiyotlar, shuningdek, tojik, qozoq va qirg‘iz tillarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun ushbu tildagi badiiy adabiyotlar bilan ta’minalash choralarini ko‘rish.

3. Mayjud shtat jadvallaridagi mакtab kutubxonachisi lavozimini texnik xodimlar ro‘yxatidan chiqarish.

4. Mакtab darsliklariga kiritilgan badiiy adabiyotlar sonini ko‘paytirish.

5. Mакtab darsliklarini qabul qilish, tarqatish va hisobini yuritish ishlarini mакtab kutubxonachisidan olib, mas’ul bo‘linmaga yuklash chunki 1 shtat birligida 1 nafar xodim ham jismonan ham ma’nан ulgurishi mushkil.

6. Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligining 2023-yil 16 avgusdagи 247-son buyrug‘i bilan Umumiy o‘rta ta’lim mакtabi (mакtab-internat) kutubxona mудirlari, kutubxonachi lavozimlari malaka tavsiflarida mutaxassislik talab etilmasligi belgilanishi mакtab kutubxonalari faoliyatini tashkil etishga salbiy ta’sir ko‘rsatishini inobatga olib, uni qayta ko‘rib chiqilishi va aynan mакtab kutubxonalariga sohaviy mutaxassisga ega mutaxassislarni lavozimga tayinlanishini qat’iy belgilab qo‘yish.

Meni maqsadim aslida mакtab kutuxbonalarini muammolarini ko‘tarishdan iborat emas edi. Hozirda media va raqamli savodxonlik markazi sifatida barcha axborot –kutubxona muassasalari loyiq qachonki o‘sha axborot-kutubxona muassasasida kompyuter jamlamalari, internet tarmog‘lari, yetarlicha mutaxassis kadrlar bilan ta’minalsa. Shunday ekan axborot –kutubxona muassasalarini media va raqamli savodxonlik markazi deb atashimiz uchun keraklicha tayyorgarlik va malaka ko‘nikmalari etarlicha bo‘lishi kerak.

Hozirda IT sohasi kundan –kunga rivojlanib bormoqda, axborot-kutubxona muassasalariga ham axborot-kutubxona resurslarini keng targ‘ib qilish ishlari uchun mutaxassis kutubxona ishidan tashqari IT sohasi ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab qilinmoqda.

Yaqinda internetda Gazeta.uz veb saytining sahifasining 2025-yil 9-yanvardagi bir xabarga ko‘zim tushdi. Xabarning mavzusi “O‘zbekiston aholisining raqamli savodxonlik darajasi tadqiq qilinadi” deb nomlangan edi. Xabardada shunday yangilik yoritilgandi.O‘zbekiston aholisining raqamli savodxonlik darajasi tadqiqot qilinadi. Ushbu maqsadlar uchun Shveysariya hamkorlik va taraqqiyot agentligi tomonidan 2 mlrd so‘mlik grant mablag‘i ajratildi.

Loyihaning dastlabki bosqichida aholining raqamli ko‘nikmalari holati tahlil qilinadi, bozor ehtiyojlariga mos yangi kasblar aniqlanadi va IT ta’lim resurslarini birlashtiruvchi platforma ishlab chiqiladi.

Bu haqda Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi hamda IT ta’lim uyushmasi o‘rtasida “O‘zbekistonda IT va raqamli ta’lim landshaftini rivojlantirish inklyuziv o‘sish uchun manfaatdor tomonlarni bog‘lash” loyihasi doirasida kelishuv shartnomasi imzolandi.

Mazkur loyiha doirasida yoshlarning IT savodxonligini oshirish, malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etish, shuningdek, qishloqlarda yashovchi yoshlar va ayollarni ish bilan ta’minalash ko‘zda tutilgan ekan. Bu albatta yaxshi yangilik zero axborot –kutubxona muassasalarini media va raqamli savodxonlik markazlari sifatida aylanishiga ham qo‘yilgan qadamlardan biri xisoblansa ajab emas.

Shu o‘rinda Argentalik yozuvchi Jorj Luis Borxesning so‘zlari esimga tushdi. Men doimo Jannat kutubxonaga o‘xshagan joy bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Shunday ekan kitob – oftob misoli. Quyish xonodonimizga nur olib kirsa, kitoblar qalbimizga ziyo nurlarini ulashadi.

Kutubxonalar endi nafaqat kitoblar saqlanadigan joy, balki raqamli dunyoda bilim, innovatsiya va ijtimoiy almashinuv markazidir. Ular jamiyatning raqamli savodxonligini oshirishda, yangi texnologiyalarni ommalashtirishda va ijtimoiy tenglikni ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ham kutubxonalarning zamonaviy shakllari rivojlanmoqda, bu esa bilimli va innovatsion jamiyat barpo etish yo‘lida muhim qadamdir.

Foydalnilgan adabiyotlar:

1. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida O‘zbekistan Respublikasining Qonuni 2011-yil 13-aprel // Xalq so‘zi. – 2011. – 14-apr.
2. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2002-yil 6-iyun // Toshkent oqshomi. – 2002. – 10-iyun.
3. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz / Sh.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 353 b.
4. Karimov, U. Elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyasi va manbalari: monografiya / U. Karimov. – Toshkent: Fan, 2006. – 193 b.
5. www.lex.uz
6. www.natlib.uz
7. www.Gazeta.uz

*Nasiba Suyarova
O‘zDSMI “Kutubxona-axborot faoliyati”
ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

ELEKTRON KUTUBXONALARNING RIVOJLANISH VA TARAQQIY ETISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy axborot texnologiyalari asosida elektron kutubxonalarining rivojlanishi va taraqqiy etish tendensiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda elektron kutubxonalarining jahon miqyosida qo‘llaniladigan eng so‘nggi texnologiyalari, ularidan foydalanishning afzalliklari, shuningdek, O‘zbekistonda elektron kutubxonalarini joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, raqamli kutubxonalarining kelajakdag‘ rivojlanish istiqbollari, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar (big data) texnologiyalarining kutubxona tizimiga ta’siri ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: elektron kutubxona, raqamli kutubxona, axborot texnologiyalari, sun‘iy intellect, katta ma‘lumotlar (big data), virtual kutubxona, kutubxona tizimlari

Abstract. This article is devoted to studying the development and progress trends of electronic libraries based on modern information technologies. The research analyzes the latest technologies used in electronic libraries worldwide, their advantages, and the ongoing efforts to implement and develop electronic libraries in Uzbekistan. Additionally, the future development prospects of digital libraries and the impact of artificial intelligence and big data technologies on library systems are examined.

Keywords: electronic library, digital library, information technologies, artificial intelligence, big data, virtual library, library systems

O‘zbekistonda elektron kutubxonalarini yaratish masalasi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biriga aylanib ulgurgan. Qadimdan O‘zbekiston hududida kutubxonalar mavjud bo‘lgan bo‘lib, ular zamonlar o‘tgan sari rivojlanib, shakllanib borgan. Elektron kutubxonalarini yaratilishi bevosita kutubxona xizmatlari evolyutsiyasi bilan bog‘liq. Zero bu evolyutsiyada elektron kutubxonalarining yaralishi evolyutsiyasi o‘rin egallagan. Mazkur kutubxona xizmatlari evolyutsiyasiga to‘xtalib o‘tamiz.

Davrlar misolida ko‘rib o‘tamiz:

I. davr: 4000-yildan ortiq. Bunda an‘anaviy kutubxona xizmatlari va qog‘oz kataloglari, 2–3 xil xizmatlar mavjud bo‘lgan;

II. davr: 1950–1960-yillardan bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bunda elektron katalog orqali ma‘lumotlar qidirish mavjud bo‘lgan;

III. davr: 1970–1980-yillardan bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Aynan mana 212 shu davrda elektron kutubxonalaridan foydalanish shakllangan va amalga oshirila boshlagan. Shu bilan birgalikda korporativ kutubxona tarmoqlaridan ma‘lumot qidirish funksiyasi ham mavjud bo‘la boshlagan.

IV. davr: 1990-yillardan boshlab, masofadan xizmat ko'rsatish xalqaro kutubxona tarmoqlaridan foydalanish rivojlanib borgan. Shu bilan birgalikda internetdan foydalanish ham mavjud bo'lgan.

V. davr: 2000-yillardan boshlab, bunda virtual kutubxonalar 70 dan ortiq turlari paydo bo'la boshlagan. Library 2.0 (2006-yildan boshlab) O'zbekistonda kutubxonachilik sohasining rivojlanishida jumladan, elektron kutubxonalarini yaratilishida sohaga oid qonun va qarorlar muhim o'rinn egallab kelmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli yozuvlar to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini shular jumlasiga kiritish mumkin [2]. Jumladan, "Axborot kutubxona faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-280-sonli O'zbekiston Respublikasi qonunida elektron kutubxona haqida alohida to'xtalib, unga ta'rif berilgan. Electron kutubxonaning elementlarida biri bo'lgan elektron katalog haqida ham atama va ta'rifi ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra: Elektron katalog tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro'yxatining elektron shakli. Elektron kutubxonadagi barcha xujjatlar haqidagi ma'lumotlar, ya'ni nomi, muallifi, nashriyot nomi, nashr etilgan-yili, xajmi kabi ma'lumotlar elektron katalogning ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. To'liq matnnini ham kiritish maqsadga muvofiq. Shu tarzda foydalanuvchi elektron katalog yordamida kerakli xujjatni qisqa muddatda topadi va unga buyurma berish imkoniga ega bo'ladi. Elektron kutubxonalar va ularning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Elektron kutubxona navigatsiya va qidiruvning zamonaviy vositalari bilan ta'minlangan, tartibga solingan turli-tuman elektron hujjatlar (shuningdek, kitoblar) "kolleksiya-sidir", dea ta'rif beriladi wikipedia saytida. Elektron kutubxonalar o'zida juda katta hajmdagi materiallarni jamlagan holda universal hamda ixtisoslashgan bo'lishi kerak. Elektron kutubxonalarini aralash tarkibli, asosan, adabiy saytlardan farqlash lozim. Adabiy jurnal bosma nashr bo'lib, ular 213 hech bir o'zgarishlarsiz internetga joylashtiriladi, elektron kutubxona esa, adabiy saytlardan farqli o'laroq, doimiy yangi materiallar bilan yangilanib turiladi [3]. "Gutenberg" – ilk loyiha Elektron kutubxona tashkil etish bo'yicha birinchi loyiha "Gutenberg" loyihasidir (1971-yil). Komputer va internetdan foydalanuvchilar soni ortishi bilan ko'plab odamlar elektron kitoblardan foydalanishni boshladilar. Bu o'z-o'zidan offlayn kutubxona foydalanuvchilari sonining kamayishiga sabab bo'ldi.

**2020–2025-yillarda elektron kutubxonalar rivojining
asosiy ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkich	2020	2023	2025
	Foydalanuvchilar soni (mln)	1.2	3.5	6.0
	Raqamli resurslar (TB)	50	120	300
	Mobil ilova orqali kirish (%)	35%	65%	85%
	Sun’iy intellektdan foydalanish darajasi (%)	10%	40%	70%

Masalan, 2017–2022-yillar mobaynida Aydaxo universiteti kutubxonasiga tashrif buyuruvchilar soni 20% foizdan ko‘proq tushib ketdi, kutubxonaning elektron talqinidan foydalanuvchilar esa 35% foizga oshdi. Shu bois ko‘plab kutubxonalar fondlaridagi kitoblarning elektron talqinini yaratishga jiddiy kirishib ketdilar. 1990-yili AQSh Kongress kutubxonasi mamlakat tarixiga oid elektron materialarga erkin va be-pul kirish imkonini beruvchi “Amerika xotirasi” loyihasini boshladi. Google 2022-yili kitoblarni raqamlash bo‘yicha loyihani amalga oshirishga kirishdi. 2024-yilning de-kabrida “Google Print” deb nomlangan kutubxona loyihasi ishlari boshlangani haqida e’lon qilindi va bu loyiha 2005-yili “Google kitoblar qidiruvi” deb qayta nomlandi [4]. 2018-yilning 20-noyabrida Evropeana umumevropa raqamli kutubxonasi amaliyotga tatbiq etildi. 2019-yilning 21-aprelida esa Butunjahon raqamli kutubxonasingning ras-miy ochilishi bo‘lib o’tdi. Elektron kutubxonalarda joylashgan asarlar shakllarini ikki toifaga ajratish mumkin – matnni o‘qish uchun onlayn tarzda taqdim etiladigan hamda o‘quvchi komputeriga yuklab olish uchun taqdim etiladigan shakllar. Birinchi toifaning eng ko‘p tarqagan shakli – HTML bo‘lib, matnlar TXT shaklida bo‘ladi.

Bu ushbu an’ana bilan bog‘liq: dastlabki elektron kutubxona paydo boigan vaqt (1994-yil)da internetda ishlash tezligi juda past bo‘lgan va jo‘natishning mana shu eng yengil shakli qo‘llanilgan. Yuklab olish shakllari – TXT; RTF va DOC; Mobipocket .PRC (shaxsiy komputerlar va telefonlarda kitob o‘qish uchun shakl). Shuningdek, badiiy asarlami saqlash uchun maxsus tashkil etilgan Fiction Book (FB) formati juda mashhurdir [5].

Ilk elektron kutubxona – “Gutenberg” loyihasi ko‘chirib olinadigan fayllarning ZIP arxivlarda matn ko‘rinishida bo‘lishini talab etadi, chunki bu matnlami istalgan qurilmada o‘qish mumkin, qolaversa, foydalanilayotgan formatlarga ishlov beruvchi dasturlarga ziyon yetgan taqdirda ham, ular yo‘qolmaydi. Matematik formulalar va murakkab chizmalar tasvirlangan kitoblarni 214 skanerlashdan so‘ng matnli shaklga o‘tkazish bir muncha qiyin, shu bois ular doim oddiy PDF grafik shakllarda saqlanadi. Darhaqiqat, elektron kutubxonaga mazkur sohaning klassiklari qanday ta’rif berishgan? Elektron kutubxonaga berilgan ba’zi bir ta’riflarni eslab o‘taylik F.S.Voroyskiy o‘zining [3] ishida EKga quyidagi ta’rifni beradi. Elektron kutubxona bu – fondida elektron shakldagi axborotlarni saqlaydigan va ulardan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan kutubxonadir. Kennet Doulin esa EKnii o‘zining 1984-yili e’lon qilingan “Elektron kutubxona” nomli kitobida quyidagicha ta’riflaydi: – Resurslarni kompyuter orqali boshqarish; – Axborot

ta'minotchisini axborot iste'molchisi bilan elektron kanallar orqali bog'lash qobiliyati; – Zarur hollarda xodimlarni elektron jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyati; Elektron vositalardan foydalanib, axborotlarni saqlash, ishlov berish va iste'molchilarga uzatish qobiliyati [5]. 1991-yili Buyuk Britaniyada "Elektron kutubxona" dasturining ishga tushirilishi munosabati bilan unga dastlab "Kutubxona, elektron kutubxona deyiladi, agarda uning fondidagi hujjatlarning katta qismi elektron shaklga o'tkazilgan bo'lsa" degan ta'rif berilgan. Bu ta'rifdan ko'rindan, to'liq avtomatlashtirilgan kutubxona "Elektron kutubxona" bo'lishi mumkin ekan. AQSh Massachusset universitetidan Vil'yam Adams o'zining kitobida EKga "Servislarga mos axborotlarning boshqariladigan kollektsiyasi, bunda axborot raqamli shaklda saqlanadi va unga kirish tarmoq orqali amalga oshiriladi" deb ta'rif bergan. Y.L.Shrayberg o'zining kitobida elektron kutubxona quyidagicha ta'rif beradi, "Elektron kutubxona – bu strukturalashtirish va kirishning umumiy ideologiyasi asosida birlashtirilgan lokal yoki global elektron resurslaridir". Axborot-kutubxonalarida (AK) elektron kutubxona yaratish uchun ishni quyidagi jarayonlardan boshlash kerak: Axborot-kutubxona yetarli miqdorda kompyuterlar sotib oladi. AKda ichki tarmoq yaratiladi [6].

AK xodimlarining barchasi kompyuterlardan foydalanishga o'rgatiladi. AK kompyuterlari Internet tarmog'iga ulanadi. AK xodimlari Internetdan axborot qidirish, elektron katalogdan (Internetning elektron bibliografik resurslaridan) foydalanishga o'rgatiladi. AKdagi asosiy axborot jarayonlari (axborotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatish) avtomatlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus dasturiy vosita 215 (avtomatlashtirilgan kutubxona axborot tizimi (AKAT) sotib olinadi va tatbiq qilinadi. AKAT sotib olish bilan cheklanib qolmay, balki AK xodimlarini undan foydalanishga o'rgatish ham kerak bo'ladi. AKda AKATning tatbiq qilinishi AK fondini olib beruvchi elektron katalog yaratishiga olib keladi. Kitob berish, qaytarib olish, "qarzdorlarni" aniqlash, kutubxona statistikasini yuritish, kitobxonlarga masofadan xizmat ko'rsatish kabi bir qator jarayonlar avtomatlashtirilgan tarzda kompyuterlar yordamida bajariladi. AK fondini elektron katalog yordamida olib berish imkoniyati yaratilgach, kitobxonlarning ehtiyojlarini o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi [7].

O'zbekistonda Elektron Kutubxonalarini Rivojlantirish Bosqichlari

Nº	Bosqich	Davr	Asosiy yutuqlar
	Dastlabki	2015-2018	Raqamlashtirishning boshlanishi
	O'sish	2019-2021	Milliy platformaning yaratilishi
	Innovatsion	2022-2025	AI va mobil ilovalarning joriy etilishi
	Integratsion	2026-2030	Xalqaro tizimlar bilan uzviylashtirish

AK statistikasini AKAT orqali olib borish qaysi adabiyotlarning ko'proq o'qilayotganligi, qaysi adabiyotlarga ehtiyoj ko'pligini aniq aytish imkoniyati tug'iladi. Shunday qilib, AK fondidagi adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazishda kitobxonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ish tutishga sharoit yaratiladi. AK maxsus skaner sotib oladi va kerakli

adabiyotlarni elektron shaklga o‘tkaza boshlaydi. Ayni paytda AKAT elektron katalogi-dagi bibliografik tavsifga kitobning to‘liq matni bog‘lanadi. Shu tarzda AKning AKAT bazasida elektron kutubxona yaratila boshlanadi. Elektron katalogsiz “Elektron kutubxona” yaratish maqsadga muvofiq emas. Masalan, Siz Internetning biror-bir qidiruv mashi-nasiga “Informatika” so‘zi ishtirok etgan adabiyotni qidirish so‘rovini berib ko‘ring. Siz 7 000 000 dan ko‘p axborotga ega bo‘lasiz [8].

Bunday katta axborotlar oqimidan o‘zingizga kerakligini topa olasizmi? Umringiz yetarmikan? Elektron kutubxona uchun elektron katalog qidirish samarasini oshirish uchun kerak bo‘ladi. Virtual kutubxona qanday yaratiladi? Ko‘pincha kompyuterlash-tirilgan kutubxona, avtomatlashtirilgan kutubxona, raqamli kutubxona, elektron kutubxona, virtual kutubxona tushunchalarini aralash holda ishlatalishining guvohi bo‘lamiz. Virtual kutubxona bu elektron kutubxonalar majmuining axborot kommunikatsiya vositalari orqali birlashtirishdan hosil bo‘ladi. Tarmoq orqali ixtiyoriy elektron kutubxonadan foydalanish – virtual kutubxonadan foydalanish bo‘ladi. Shunday qilib, AKda elektron kutubxona yaratish bosqichlari quyidagicha: – Kompyuterlashtirilgan kutubxona; – Avtomatlashtirilgan kutubxona; – Elektron (raqamli) kutubxona; – Virtual kutubxona. Axborot-kutubxonani avtomatlashtirish nimadan boshlanadi? Axborot-kutubxonalarda yangi axborot texnologiyalarini, kutubxona 216 jarayonlarini avtomatlashtirish vositalarini joriy qilishga asosli va izchil yondashish zarur [9]. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan elektron kutubxonalar bilgan sanoatining yangi ko‘rinishi sifatida shakllana boshladi. Bugungi kunda elektron kutubxonalar nafaqat an’naviy kutubxonalarining raqamli muqobili, balki yangi avlod bilim resurslarini boshqarish tizimiga aylandi.

O‘tgan-yillarda elektron kutubxonalar sohasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ldi:
Internetning global tarqalishi
Raqamli kontentning eksponent ravishda o‘sishi
Mobil qurilmalarning keng qo‘llanilishi
Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalarining rivojlanishi
O‘zbekistonda ham elektron kutubxonalarining rivojlanishi jadal sur’atlar bilan da-vom etmoqda. Xususan:

Milliy elektron kutubxona loyihalari ishga tushirildi
Raqamli resurslar bazasi kengaytirilmoqda
O‘quvchilar uchun yangi interfeyslar ishlab chiqilmoqda
Xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda
Ushbu maqolada elektron kutubxonalarining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy ten-densiyalari va kelajakdagi istiqbollari chuqur o‘rganiladi. Tadqiqotda xalqaro tajriba bilan birga O‘zbekiston amaliyoti ham qiyosiy tahlil qilinadi [10].

Ayni paytda elektron kutubxonalar faqat kitoblarni raqamli shaklda taqdim etishdan tashqari, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Personalizatsiya qilingan tavsija tizimlari
Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari
Ochiq ma’lumotlar platformalari

Kollektiv bilimlar bazasini shakllantirish

Elektron kutubxonalarning kelajagi qo'shimcha ravishda sun'iy intellekt, blokcheyn va 5G texnologiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Bu esa bilim resurslariga kirishni yanada demokratiklashtiradi va global bilim almashinuvini yangi darajaga ko'taradi [11].

Elektron kutubxonalarning rivojlanishi va taraqqiy etish tendensiyalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni isbotlab berdi:

Texnologik taraqqiyot asosida keskin o'sish: Elektron kutubxonalar so'nggi o'n-yillikda nafaqat an'anaviy kutubxonalarning raqamli versiyasiga, balki butunlay yangi funksiyalar va xizmatlar ko'rsatadigan kompleks axborot tizimlariga aylandi.

Global va mahalliy tendensiyalarning uyg'unligi: Jahonda qabul qilingan raqamli kutubxona standartlari bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihamoqda o'rtaida izchillik mavjud. Xususan, Milliy elektron kutubxona loyihasi xalqaro tajribani hisobga olgan holda ishlab chiqilmoqda.

Innovatsion yechimlarning ahamiyati: Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va bulutli texnologiyalar elektron kutubxonalarning ishslash samaradorligini keskin oshirish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy ahamiyat: Elektron kutubxonalar bilim resurslariga kirishni demokratiklashtirib, ta'lim va ilmiy faoliyat uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Kelajakdagi rivojlanish yo'naliishlari: Blokcheyn texnologiyalari, 5G tarmoqlari va virtual reallik yechimlari elektron kutubxonalarning keyingi evolutsiya bosqichini belgilab beradi.

O'zbekiston kontekstida elektron kutubxonalarini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni taklif qilish mumkin:

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish Mahalliy raqamli kontentni boyitish

Foydalanuvchilar uchun personalizatsiya qilingan interfeyslarni ishlab chiqish Kutubxonachilar malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlarni joriy etish

Xulosa qilib aytganda, elektron kutubxonalar zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ularning strategik ahamiyati kelajakda yanada oshib boradi. Bu sohada ilg'or texnologiyalarni qo'llash va sifatlari kadrlar tayyorlash O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining kalit omillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiysi" (2020-y.)
2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Kutubxona sohasidagi islohotlar bo'limi
3. Elektron kutubxonalarini rivojlantirish to'g'risida: Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarori 2021 -yil 15 oktabr // Qonun hujjalari to'plami, 2021.
4. Abdurahmonov S. Zamonaviy axborot-kutubxona tizimlari. – Тошкент: O'qituvchi, 2022. – 245 b.
5. Chen L. Digital Libraries: Principles and Case Studies. – [W.p.]: Springer, 2021. – 189 p.

6. Karimova D. Elektron kutubxonalar: nazariya va amaliyot.-Toshkent : Akadem-nashr, 2023. – 176 b.
 7. Global Trends in Digital Libraries 2022 /UNESCO. – [W.p.], 2023.
 8. World Report 2022: Digital Library Development / IFLA. – [W.p.], 2022.
 9. Digital Infrastructure Assessment in Uzbekistan / World Bank. -[W.p.], 2022.
-
10. Ahmedov B. Sun’iy intellekt elektron kutubxonalarda // Kutubxona.uz. – 2023. – №2. – B. 34-41.
 11. Kim H. Blockchain Applications in Library Systems // Journal of Digital Information. – 2022. – Vol. 23, Issue 4.
 12. To‘rayev O. O‘zbekistonda milliy elektron kutubxona loyihasi // Axborot texnologiyalari. – 2023. – №1. – B. 15–22.
 13. www.natlib.uz – O‘zbekiston Milliy elektron kutubxonasi rasmiy sayti.
 14. Digital 2023: Uzbekistan (global internet statistikasi) / Data Reportal. – [W.p.], 2023.

Тамилла Махаррам кызы Аскерова

*Заведующий библиотекой и информационным центром
Азербайджанский Государственный Университет Культуры и Искусств*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ КНИЖНЫХ ПАМЯТНИКОВ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Аннотация. В статье подробно излагается ряд важных моментов, на которые следует обратить внимание в области изучения книжных памятников. Книжные памятники изучаются по их исторической и литературно-культурной ценности по трем категориям: книги мирового значения, то есть универсальные книги; книги национального значения; книги местного значения. Обобщены основные характеристики книжных памятников как важного компонента национальной культуры. Рассматривается важная государственная политика, реализуемая в Азербайджане в направлении охраны, реставрации и использования редких изданий. Тщательно анализируется информация о проводимой в республике работе по цифровизации в этой сфере.

Ключевые слова: редкое издание, оцифровка, культурное наследие, уникальная книга, защита фонда, информационная служба.

Abstract. The article provides a detailed explanation of a number of important points that should be paid attention to in the field of studying book monuments. Book monuments are studied based on three categories according to their historical and literary-cultural value: books of world importance, that is, universal books; books of national importance; books of local importance. The main characteristics of book monuments as an important component of national culture are summarized. The important state policy implemented in Azerbaijan towards the protection, restoration and use of rare editions is reviewed. Information on the work done in this area related to digitization in the republic is comprehensively analyzed.

Keywords: rare edition, digitization, cultural heritage, unique book, fund protection, information service.

В области изучения книжных памятников следует отметить ряд важных моментов. Первая из них – определить, является ли книга “книжным памятником”, то есть является ли она историческим или культурным памятником своего времени. Здесь следует учитывать, что книги считаются одним из основных компонентов культуры каждой страны. Книга – настолько ценный памятник культуры, что ее содержание невозможно представить отдельно от ее материального оформления. Существует множество книг, которые своим содержанием могут повлиять на ход истории, но при этом могут быть довольно простыми на вид. Безусловно, редким экземпляром нельзя считать книгу, которая привлекает внимание своим глянцевым, иллюстрированным изданием, но не является исключительно редким и выдаю-

щимся произведением искусства [3]. По этой причине библиотекари порой не уделяют должного внимания книгам, не зная истинной ценности хранящихся у них книг. Что касается другого момента, то он связан с тиражом книги. Традиционно, когда библиофилы и библиотекари определяют, является ли книга редкой, они учитывают тираж данного издания.

Treninglar va malaka oshirish yo‘nalishlari kutubxona xodimlarining malakasini oshirish uchun quyidagi treninglar tashkil etilishi kerak:axborot texnologiyalari bo‘yicha kurslar – kutubxonachilar uchun elektron tizimlar bilan ishlash, raqamli resurslarni boshqarish va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. mijozlarga xizmat ko‘rsatish treninglari – foydalanuvchilar bilan samarali muloqot qilish, axborot berish va maslahat xizmatlarini rivojlantirish. innovatsion menejment bo‘yicha seminarlar – kutubxona menejmentining zamonaviy usullarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish.Treninglarning samarali o‘tkazilishi kutubxona xodimlarining kasbiy malakasini oshirishga, natijada xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi [11].

Kutubxona menejmenti va innovatsion xizmatlarni rivojlantirish zamonaviy kutubxonalar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Yangi boshqaruv modellarini joriy etish, foydalanuvchilar bilan muloqotni rivojlantirish va kutubxona xodimlarining malakasini oshirish orqali xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Kutubxonalarning axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi, raqamli xizmatlarning rivojlanishi va menejment tiziminining modernizatsiya qilinishi kelajakda ularning yanada samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi Kutubxona menejmenti zamonaviy jamiyatda axborot va bilim markazlarini samarali boshqarishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi [12]. Innovatsion xizmatlar foydalanuvchilar talablariga moslashib, kutubxonalarning ahamiyatini oshir-

moqda. Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va interaktiv xizmatlar kutubxonalarining rivojlanishini ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, kutubxonalar menejmenti zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un holda rivojlanishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019-yil 7-iyun PQ-4354-sonli // Xalq so‘zi. – 2019. – 8-iyun.
2. Ro‘ziyeva N.P. Raqamli kutubxona xizmatlarining rivojlanishi / N.P.Ro‘ziyeva, Z.Uralova // Exploring new horizons in education and academic research. – 2025. – March.
3. Kariev,A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kutubxona faoliyatidagi o‘rnvi / A.Kariyev // Ilm va taraqqiyot. – 2021. – №3. – B.25–30
4. Ro‘ziyeva N.P. The social funstion of libraries and their role in the role in the development of society / N.P.Ruziyeva// Nauchniy impuls. – 2025. – № 31 (100), ch. 2. – C.143-146.
5. Ro‘ziyeva N.P. Kutubxonalararo axborot resurslarini almashishda konsorsiumining afzalliklari / N.P.Ro‘ziyeva // Raqamlashtirish davrida kutubxona sohasi ekotizimi: Hamkorlik,Integratsiya va innovatsiyalar 1 Xalqaro ilmiy-amaliy koferensiya: to‘plam, 2-qism. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2024. – B. 274-281.
6. Ro‘ziyeva N.P. Jamoat kutubxonalari va aholining axborotga bo‘lgan extiyoji / N.P. Ro‘ziyeva, S.Keldibekova // Exploring new horizons in education and academic research. – 2025. – March.
7. Axmedova M. Kutubxona ishini tashkil etish va boshqarish. / M. Axmedova Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – 258 b.
8. <https://unesdoc.unesco.org> – UNESCO. Open Science Recommendation (accessed: March 2025)
9. Kulmatova Z. Kutubxona xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari / Z.Kulmatova // Innovatsion ta’lim. – 2022. – №2. – B. 44–49.
10. Azizova S. Raqamli kutubxona tizimlari va sun’iy intellekt asosida axborot xizmatlarini takomillashtirish / S. Azizova // Axborot texnologiyalari. – 2023. – №1. – B.17–22.
11. Qodirova, N. Kutubxona xodimlari uchun xizmat ko‘rsatish madaniyati va kommunikatsiya asoslari / N. Qodirova // Ma’naviyat va ma’rifat. – 2022. – №4. – B.35–39.
12. Tavakkalova, D. Kutubxona menejmentida innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi/ S.Tavakkalova // Ijtimoiy fanlar. – 2024. – №1. – B.11–16.
13. <https://www.scopus.com> – Scopus – Scientific article database (accessed: March 2025)
14. <https://www.webofscience.com> – Web of Science – Scientific research database (accessed: March 2025)

Kulmurodov Oybek
Teacher of the "Puppet Theater Acting" department

THE IMPORTANCE OF THE PUPPET THEATER IN ACHIEVING YOUTHFUL PERFECTION

Abstract. This article focuses on the upbringing of children, and puppet theater plays an important role in instilling in their minds the concepts of love, good and evil. Because any knowledge and visual impressions received in childhood will remain in the child's mind for a lifetime.

Keyword: children, knowledge, puppet, theater, spectacle, watch, scene, culture, actor, hero, fairy tale, magic, art

Аннотация. В этой статье реч идёт о воспитании детей, и кукольный театр играет важную роль в формировании у них представлений о любви, доброе и зле. Всё любые знания и зрительные впечатления, полученные в детстве, остаются в памяти ребёнка на всю жизнь.

Ключевые слова: дети, знания, куклы, театр, представление, смотреть, сцена, культура, актёр, герой, сказка, волшебство, искусство.

The development, destiny and future of the world community is, of course, the upbringing of children, this is connected with their spiritual consciousness, knowledge and skills.

In educating young people on the basis of good ideas, their culture and spirituality and expanding your worldview and illuminating your innocent hearts with feelings Acquaintance in the future is mature, perfect, love for the Motherland, respect for parents, fulfilling one's filial duty from the heart, selflessness and philanthropy for the benefit of the people, perfection in the spirit of virtues, in a word, in the spirit of patriotism, the theater is one of the effective means of artistic education.

"The theater is the strength of its art in that it is a playwright, actor, director, artist, musician, dancer and is a collective creator, uniting the creativity of many other stage characters." its attractive in all aspects, movement and development

He deeply penetrated the spiritual world of thousands of spectators, his heart VG Belinsky wrote thoughts about the strings.

For the first time a young viewer gets acquainted with art from the puppet theater begins. Therefore, he often skins this dargokh, and finds answers to riddles that he could not solve from this dargokh. That is why the performances of the puppet theater are young, understandable to the viewer, diverse in terms of genre, meeting the requirements of the time, works with perfect content must be intellectually mature thoughts of love, good and bad creates concepts.

Another important aspect of the puppet theater is to introduce young people to the performing arts, to get used to the stage culture. They go from childhood to adulthood

Time passes, themes change, and this youth theater and the musical drama theater go to see performances in theaters, for example, but so far the first puppet theater is considered the first theater that forms the worldview.

Because all the knowledge gained in childhood and the impressions seen with the eyes remain the same in the mind of the child for life.

As you know, the puppet theater has an ancient and rich history; the puppet theater has its own magical world. So magically traveling the world, you will definitely encounter archmages. Usually these are wizards – actors. With their help, we travel to the world of fairy tales, we make the pros and cons of the heroes of a fairy tale, their adventures, in short, to observe their experiences on the stage of the puppet theater through the play of actors, we make Puppets – the biggest helpers of the puppet theater artist.

She is a puppet artist and puppet master, according to the theme and idea of the performance prepared actors are simple inanimate puppets, speaking humanly, he is happy or sad, sleeps, moves his mouth and eyes, skillfully leads and votes for the heroes. In the magical world of the puppet theater, watching the actions of the heroes with soul and soul, a person who sees how the birds take food gets pleasure and enthusiasm. In our country, since the first days of independence, the state youth policy has been carried out in order to make our youth physically strong, healthy and spiritual.

At the same time, it should be emphasized that at present, President Sh.M. Mirziyoyev is raising a healthy generation, the moral formation of a rich, morally mature, intellectually developed, highly educated personality, is being implemented in the field of educating young people in order to become perfect people in all aspects, the consistent development of theatrical art in spiritual and educational reforms, creators to support and encourage the creativity of our compatriots the creation of artistic works that are inviting, especially professional puppet theater development is a priority proof of this – 2017–2021 “Strategy of Action” and Five we can see in the important initiative.

Today in our republic there are ten professional puppet states the theater works. Most of the population of this republic is made up of young people. Like the moon, the category is a very low score for society, obviously. However, there is another side of the matter: are these theaters able to perform the important tasks assigned to them, what is the role of puppet theaters in the cultural life of children today?

In Tashkent, whether the residents of the capital will be able to satisfy their spiritual needs or how many children this theater can accommodate spectators in one year, such questions as they can serve remain transverse.

According to the Uzbekistan News Agency, the city of Tashkent has a permanent population of 2.71 million as of December 2021. It is cited to estimate the degree of coverage of the population by the puppet theater of the capital by numbers, this is not difficult to do. The same is true with the regional puppet theaters, figures will definitely appear. It is a pity that these figures are in some region. This is a sign that young people are growing up without this art form. ladies.

Further development of national culture in the Republic of Uzbekistan is a new creation of a new history of Uzbekistan, tangible and intangible cultural heritage, preservation and popularization of masterpieces of folk art and amateur arts, popularization,

active work in the world cultural space of our country, ensuring integration, innovative culture and art on the implementation of systemic measures, aimed at the development of “Culture and Art” On May 26, 2020, the President of the Republic of Uzbekistan took measures to further increase the role and influence of the field in the life of society. Decree No. PF-6000 was signed and on the basis of this Decree of Ministers, court decision No. 754 was approved on November 30, 2020. In the decision of the State puppet theaters in the Syrdarya, Namangan, Navoi and Tashkent regions, the transformation of the Uzbek National Puppet Theater into the Republican Puppet Theater giving status is one of the things that has never been done in the history of the puppet theater, the owner of an important profession in the activities of professional puppet theaters, i.e. . “The Puppet Master” has not been studied anywhere until today, but was staged in the theater – they made puppets for performances in their own way.

Now, in the decree and resolution of the State Administration of Arts and Culture of Uzbekistan, in the 2021–2022 academic year, a bachelor’s degree in the specialty “Puppet Making Technology” at the institute plans to open an educational field.

The art of puppet theater is the most important art of our people and the peoples of the whole world. It is considered one of the rich ancient art forms, such as ballet theater, music and drama – an independent theater that has its own direction, like other theaters. Puppet theater is different, clearly different from theaters. Because in other theaters, the actors on the stage show it live in front of the audience, and in the puppet theater, on the contrary, the puppeteers will be behind the scenes. So it can be seen from this that at present state puppet theaters in our republic work with gloves and puppets are widely used on wires. However, today’s modern processes are “ripening” even in young children from all sides.

Before school, modern computer technology and a telephone for school-age children when watching cartoons using devices, in these processes, “convince” to the spectacles on the stage of the performance, through these spectacles, education of the spirit will further increase its relevance. In these processes, the widespread use of the media on stage and in the manufacture of puppets of technology and mechanics of management from the developed countries of the world by studying and conducting a comparative analysis involving new methods, innovations, in my opinion, it is important to use in republican puppet theaters.

When we talk a lot about the puppet theater, we still talk about the history of the puppet theater, not about the theory, but about what kind of puppets really are, what is the point of making it according to the mentality of different peoples and nationalities? Many people have no idea about its content. European peoples or American peoples with their puppets Uzbekistan or Eastern peoples of dolls cannot be compared with each other, and these are just dolls. The meanings of the face, eyes or type of hair are different for all peoples.

Gradually, this affects his clothes, behavior, upbringing, and vitally begins to be reflected in the processes. “Our brave and courageous national heroes, the children of so many fairy tales that encourage kindness, kindness and deep thinking, as long as we have legends, our children are addicted to such dolls, you cannot ignore their depar-

ture.” Therefore, raising children is very important considered a serious process. Our little children, who are simple-hearted, will be gullible.

Don’t bring Barbie-type dolls to play with your child, maybe. to puppet shows that provide spiritual and cultural food, we, parents, bring kids as spectators, our children in the future, of course, to his physical and spiritual maturity, to the formation of his thinking, this helps to develop skills to do good deeds.

References:

1. Boltaboeva U. The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – №11. – P.16-24.
2. Usmonov S. Work of the director with an artist / S. Usmonov, A. Talaboyev // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – №11 (3). – P.2407- 2410.
3. Abdunazarov Z. Features of Theatrical Art // International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – №11. – P. 1-7.
4. Tursunova, G. Russian Music in the First Half of the XIX Century // A Look at the Culture: International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – №11. – P.76-82.

*Islom Berdimurodov,
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi*

*Sobirjonova Umida Maxmudjon qizi
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi”
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN’ATINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILAYOTGAN AMALIY ISLOHOTLAR

Annotatsiya. Bugungi kunda yurtimizda ko‘plab sohalar qatori madaniyat va san’at sohasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Aynan teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha ham ko‘plab farmon va qarorlar tasdiqlanib respublika bo‘ylab Ushbu maqolada qo‘g‘irchoq teatr san’atini rivojlantirishga qaratilayotgan amaliy islohotlar xususida tahliliy fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Teatr, madaniyat, globallashuv, qo‘g‘irchoq teatri, spektakl, ta’lim, yoshlar, hamkorlik.

Abstract. Today, in our country, along with many areas, special attention is paid to culture and art. It was on the development of theatrical art that many decrees and resolutions were approved throughout the republic. This article provides analytical considerations on practical reforms aimed at the development of puppet theater art.

Key words: Theater, culture, globalization, puppet theater, performance, education, youth, cooperation.

Xorij mamlakatlarida bugungi kunda sodir bo‘layotgan madaniy, mafkuraviy jaryonlarda xalqlarning o‘zligini anglash, fuqarolarga milliy qadriyat va ruhni singdirish alohida dolzarblikni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda har bir xalq madaniyatini keng yoyish milliy sahma san’atini targ‘ib qilish, uning an’analarini asrab-avaylash hamda rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, jamiyat va xalq hayotidagi evrilishlar, tarix faniga nisbatan e’tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi tarixchilar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. So‘ngi-yillarda O‘zbekistonda o‘zbek sahma san’atining tarixiy ildizlarini xolisona o‘rganish, uni jahonga tanishtirish, sohani zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘zbek sahma san’ati an’analarini saqlab qolish, tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish muhimligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida, “ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozim”ligi ta’kidlandi [1]. Xususan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilishi unda eng

yaxshi pesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Man-non Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish kabi vazifalar nazarda tutildi. Korxona va muassasalar xodimlariga oyning bir kuni "Teatr kuni" deb belgilandi. Shu jihatdan ushbu tadqiqot sahna san'atining tarixiy ildizlarini o'rganish va tadqiq etishda dol-zarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan joriy-yilning 27-mart kuni madaniyat vazirining birinchi o'rinnbosari Avazxon Tadjixanov boshchiligidagi teatr san'ati oldida turgan masalalar va ularning yechimlari, soha vakillari zimmasidagi dolzarb vazifalar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda Madaniyat vazirligi huzuridagi teatrlar faoliyati bo'yicha Badiiy kengash a'zolari, respublikada faoliyat yuritayotgan barcha davlat teatrlari direktori, bosh rejissyorlari va adabiy bo'lim mudirlari, dramaturglar ishtirok etdi. Mazkur yig'ilishda quyidagi masalalar atroficha tahlil qilindi:

davlat teatrlarida faoliyat yuritayotgan Badiiy kengashning javobgarligini oshirish;

teatrlarda yangidan sahnalashtirilayotgan spektakllarni sahnalashtiruvchi rejissyor tomonidan teatrning ichki Badiiy kengashi hamda Madaniyat vazirligi huzuridagi teatrlar faoliyati bo'yicha Badiiy kengash huzurida himoya qilish tizimini yanada yaxsilash;

har bir davlat teatrlari 2025-yilda sahnalashtirishi rejallashtirilgan spektakllarni 2024-yil oktabr oyida Madaniyat vazirligi huzuridagi Badiiy kengashda himoya qilishi zarurligi;

Har chorakda bir marta vazirlik huzuridagi teatrlar faoliyati bo'yicha Badiiy kengash a'zolari qolaversa tajribali mutaxassislar jalb qilgan holda bosh rejissyor va sahnalashtiruvchi rejissyorlar bilan seminar o'tkazishni tashkil etish;

Har bir qo'g'irchoq teatrlarida bolalar uchun emas o'smirlar uchun ham spektakllar sahnalashtirishni (qo'g'irchoqlar yoki jonli aktyorlar ishtirokida) joriy etish;

Viloyatdagi musiqali drama teatrlarida musiqali spektakllar sahnalashtirilishi sust darajada bo'lганligi sababli har bir musiqali drama teatri musiqali spektakllar sahnalashtirish bo'yicha zaruriy choralar ko'rish;

Har bir teatrga ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ijodiy maslahat berish maqsadida sohaning tajribali mutaxassislaridan iborat ekspertlarni (ijodiy maslahatchilar) biriktirish kabi masalalar ko'rib chiqildi [2].

Shuningdek, teatr san'atida olib borilayotgan islohotlar doirasida soha vakillariga bir qator muhim vazifalar yuklanayotganligi, ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan teatr san'atiga berilayotgan alohida e'tibor natijasida "Teatr kuni" doirasida oddiy aholidan tortib hukumat rahbarlarigacha teatrlarga tashrif buyurish soni ortayotganligiga barcha guvoh bo'lmoqda. Shulardan kelib chiqib, teatr repertuarini zamon talablariga mos, yuksak saviyadagi spektakllar bilan boyitish zarurligi ta'kidlandi.

Respublikamizda qo'g'irchoq teatr san'atini rivojlantirishda xalqaro va mahalliy festivallarning ham o'rni beqiyosdir. Jumladan, 2022-yilning iyun oyida Respublika qo'g'irchoq teatrlarining an'anaviy XIII ko'rik-festivali o'tkazildi. Unda Farg'ona viloyati qo'g'irchoq teatrining "Samolarda uchgan alloma" spektakli rassomi Sergey

Seduxin “Eng yaxshi Ssenograf-rassom”; Samarcand viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Qanotli Bars” spektakli aktyorlar ansamblı “Eng faol jamoa”; Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq teatri direktori Davronbek Atabayev “Eng yaxshi ishbilarmon rahbar”; Buxoro viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Frontga xat” spektakli “Tinchlikni qadrlash mavzudagi eng yaxshi spektakl”; Surxondaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Tohir va Zuhra” spektakli “Xalq og‘zaki ijodiga eng yaxshi yangicha yondashuv”; Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Do‘mbiralar sadosi” spektakli “Milliy qadriyatlarning eng yaxshi tarannumi”; Jizzax viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Xonatlas” spektakli tovus roli ijrochisi Temur Raxmatullayev “Eng yaxshi qo‘g‘irchoq o‘ynatuvchi aktyor” nominatsiyasi uchun; O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri esa, “Bahrom va Dilorom” spektakli uchun 1-darajali diplom bilan taqdirlандilar. O‘ylaymanki bu kabi festivallarning muntazam o‘tkazilib turilishi sohani yanada rivojlanishiga, xalqimizning ma’naviy ola mini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Teatr san’ati orqali ayniqsa qo‘g‘irchoq teatr san’ati orqali yosh avlodni vatanparvarlik, ezgulik va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruxida tarbiyalash mumkin. Bugungi kunda respublikamizdagi qo‘g‘irchoq teatrlarida faoliyat yuritayotgan aktyorlardan ham kuchli mas’uliyat talab qilinadi. Ular o‘z sohasini puxta egallashi va yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarishi lozim. Bu borada sohada uzoq-yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan ustozlar ham muhim tavsiyalarni berishadi. Yosh tomoshabin san’atga ilk qadamini qo‘g‘irchoq teatridan boshlar ekan, uni teatrdan olgan birinchi taassuroti bir umrga esda qolishi va bu dargohni tez-tez qumsab turishi lozim. Shuning uchun ba’zan kattalar bilgan san’at to‘g‘risida suhbatlashganingda ular qo‘g‘irchoq teatrida birinchi marotaba ko‘rgan spektaklini eslab, undagi o‘zida yaxshi taassurot qoldirgan obrazi va shu obrazni yaratgan aktyorni eslashadi [3].

Qo‘g‘irchoq teatri spetsifikasini belgilovchi asosiy farq shundan iboratki, agar boshqa teatrlarda qahramonlar qiyofasida aktyorlarning o‘zлari ko‘rinsa, bunda ijrochilar tomoshabinlarga pinhon qolgani holda qo‘g‘irchoq-personajlar namoyon bo‘ladi. Ha olamda qo‘g‘irchoqbozday kamtarin, insofli, odamshavanda artist bo‘lmasa kerak. Zotan, u o‘z qaddi-qomati, aktyorlik mahoratini bevosita namoyish etishdan mahrum. Butun qobiliyati, bilirni, hatto husni – latofatini qo‘g‘irchoqqa bag‘ishlaydi. Ana oliyjanoblik! Lekin shu narsani ham qayd qilib o‘tish lozimki, qo‘g‘irchoqboz bir tomondan o‘zligini to‘la ko‘rsatolmay jabrlansa, ikkinchi tomondan, dramatik aktyorga nisbatan bir qancha afzallik va imtiyozlarga egadir [4].

Chunonchi, qo‘g‘irchoq teatri uchun bo‘y, qad, yosh jismoniy kamchilikning ahamiyati bo‘limgani sababli bunda qobiliyati to‘g‘ri kelsa yoshi o‘tgan aktrisa qizcha rolini rohat qilib o‘ynayveradi; oriq ijrochi semiz qog‘irchoq-personajni, pakana – alp qomatni, qiz – cholni, bola – kampirni bemalol olib chiqaveradi. Qo‘g‘irchoq teatrining sharti shu: xohlagan rolingni o‘ynayver, iste’doding, mahorating, ijodiy harorating va shavqing bo‘lsa bas. Ikkitagina qo‘g‘irchoqboz muvaffaqiyat bilan ko‘p personajli katta bir spektaklni namoyish qilishi mumkin.

Darhaqiqat, qo‘g‘irchoq teatri ajoyib va g‘aroyib, ta’sirli san’at. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi va qandaydir sodda go‘zalligi “mo‘jizali” tabiatga ega bo‘lishidandir. Ha, qo‘g‘irchoqbozlik – mo‘jizali teatr. Jonsiz, zabonsiz oddiy qo‘g‘irchoqlar

vositasida inson hayoti, munosabatlari, axloqi, odati ko‘rinishlariyu badiiy haqqoniy va jozibali qilib namoyish etish mo‘jiza emasmi, axir!

Teatr tomoshabinni faqat tarbiyalamay, uning ongini shakllanishiga, dunyoqarashini kengayishga, borliqni jonli obrazlar orqali ko‘rishiga hamda kelgusi hayot yo‘lini belgilab berishida ham unga yaqindan yordam beradi. Shuning uchun ham bo‘lg‘usi aktyor o‘z kasbining qiymatini, uning mohiyatini tushungan holda uning oldida turgan katta mas’uliyatni anglamog‘i zarur. Zero, u butun ijodiy yo‘li davomida tinmay o‘z ustida ishlab, iste’dodining yangi qirralarini rivojlantirib, ijod pog‘onalariga ko‘tarilib, tomoshabin olqishiga sazovor bo‘lib, uning qalbidan joy olib, san’atda o‘z o‘rniga ega bo‘la oladi. Ana o‘shanda u o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. – URL: <https://president.uz/uz/lists>.
2. <https://gov.uz/oz/madaniyat/news>
3. Ashurova M. Qo‘g‘irchoq teatr san’atining aktyorlik maktabi. – Toshkent, 2007.
4. Qodirov M. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi / M.Qodirov, S.Qodirova. – Toshkent: Talqin, 2007.

*Dilfuza Nurbabayeva
O‘zDSMI “Kutubxona-axborot faoliyati”
kafedrasi o‘qituvchisi*

*Yulduz Qo‘ziyeva
O‘zDSMI “Kutubxona-axborot
faoliyati” fakulteti 3-bosqich talabasi*

VIRTUAL (ELEKTRON) KUTUBXONA XIZMATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron kutubxona tushunchasi, uning yaratilishi va rivojlanishining tarixiy asoslari, hamda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan bog‘liq afzalliklari keng yoritilgan. Elektron kutubxonalarining asosiy maqsadlari, jumladan, axborot xizmatlarini takomillashtirish, foydalanuvchilar sonini oshirish va axborotga yetkazib berishdagi cheklowlarni bartaraf etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, virtual kutubxona xizmatining turlari, foydalanuvchilar va kutubxonachilar o‘rtasidagi muloqot xususiyatlari, va bu xizmatlardan samarali foydalanish usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Foydalanuvchilarga axborot yetkazishda virtual usullar (chat, elektron pochta, SMS) va ularning qulayliklari ham muhokama qilingan. Ushbu maqola virtual kutubxona xizmatini tashkil etish va uni takomillashtirishga oid amaliy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Elektron kutubxona, virtual axborot xizmati, axborot texnologiyalari, foydalanuvchilar bilan muloqot, kutubxona avtomatlashtirilgan tizim, axborot resurslari, Chat va SMS orqali axborot yetkazish, elektron pochta orqali xizmat, axborot qidiruv tizimi, virtual kutubxonachilik.

Abstract. This article examines the concept of electronic libraries, their history of development, and the advantages associated with modern information technologies. Particular attention is given to the goals of electronic libraries, including improving information services, increasing the number of users, and overcoming limitations in access to information. Various types of virtual library services, features of interaction between users and librarians, and methods for effectively utilizing these services are discussed in detail. The article also addresses virtual methods of delivering information (chat, email, SMS) and their conveniences. Practical recommendations for organizing and enhancing virtual library services are provided.

Keywords: electronic library, virtual information service, information technology, user interaction, automated library system, information resources, information delivery via chat and sms, email-based service, information search system, virtual librarianship

Virtual (elektron) kutubxona xizmati haqida so‘z byuritishdan avval elektron kutubxona tushunchasini aniqlashtirib olish zarur. Elektron kutubxonalarining yaratilishi mavjudligi va rivojlanishi tarixiy nuqtai nazardan quyidagilar bilan taqozolanadi:

Birinchidan, kutubxona omillarining tashqi jihatlariga munosabatiga ko‘ra kompyuter va kommunikativ tehnologiyalarning barcha uchun ochiq imkoniyatlarining mavjudligi;

Ikkinchidan, jamiyatning, eng avvalo, iqtisodiyot va yuksak tehnologiyalar taraqqiyotiga mos holda kutubxona-axborot tehnologiyalarning rivojlanishi. Shuni alohida takidlash joizki elektron kutubxonalar ananaviy kutubxonalarini inkor etuvchi emas, balki axborot xizmatini to‘ldiruvchi sifatida qabul qilinishi kerak. Aslida virtual kutubxona, raqamli kutubxona, mediateka, elektron kutubxona tushunchalari bir xil manoda qo‘llaniladi. Ularning ichida eng keng tarqalgani elektron kutubxona tushunchasi bo‘lganligi uchun ushbu tushuncha ko‘proq qo‘llaniladi. Elektron kutubxona – yalpi (lokal) yoki taqsimlangan elektron resurslarning tizimlashtirilgan jamlanmasidir. Elektron kutubxonalarining yaratilishidan asosiy maqsad :

1. Bosma nashr mahsulotlarining mazmuni bilan tanishish sharoitini yaratish orqali hizmat ko‘rsatish sifatini takomillashtirish; axborot xizmati oshirish, har qanday turdagи va mavzudagi axborot xizmati ko‘rsatilishi uchun imkoniyat yaratish, quyidagilar xisobiga elektron resurslardan foydalanishga o‘tishda foydalanuvchilar miqdorini oshirish;

– har qanday turdagи multimediya axboroti, tasvir va ahborot matni bilan tanishish uchun imkoniyat yaratish; turli jamlanmalar va fondlarda mavjud bo‘lgan ashyolar, turli darajadagi nashrlar, milliylik va muassasaga mansublik bo‘yicha chegaralanma-gan malumotlar bilan tanishish imkoniyatini yaratish; keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan taminotchilar va axborot oluvchilar doirasini yanada kengaytirish;

– jismoniy yoki ijtimoiy jihatdan cheklangan foydalanuvchilarning axborotga ega bo‘lishidagi imkoniyatlarini oshirish; axborotning har qanday joyga (uyga, ofisga) yetib borish imkoniyatlarini kengaytirish; axborot olish uchun murojaat qilish va unga ega bo‘lish vaqtidagi cheklovlarini bartaraf qilish;

– yil davomida va har sutkada 24 soat foydalanishni taminlash;

2. Bosma nashrlar eng avvalo noyob va qimmatli nashrlarni saqlash, bosma va qo‘lyozma ashyolarga ilmiy sharhlar berish yo‘li bilan yangi xossalalar bag‘ishlash, turli shakllarda, shuningdek, multimediyaning video, audio, shakllarida havolalar berish;

Elektron kutubxona turli xildagi resurslar:

Kutubxona mulki sifatida uning serveri yoki binolarida saqlanayotgan resurslar;

Ahborot bilan taminlovchilar serverida joylashtirilgan chekkadagi resurslar;

Muayyan elektron kutubxona xodimlari tomonidan ko‘rib chiqilgan va baholangan chekkadagi resurslar;

Chekkadagi barcha resurslardan foydalanish xizmatini tashkil etadi. Ulardan foydalanish foydalanuvchining erkin tanlovi va malakasiga bogliqidir. Elektron kutubxona kutubxonachisi mavzuli izlashni amalga oshirishga yordam berishni bilishi kerak.

Elektron kutubxona mavjud bo‘lgan elektron resurslardan tashqari “buyurtmaga oid tijorat” tehnologiyasini keng qo‘llashi mumkin. Elektron kutubxonaning kutubxona axborot tizimidagi o‘rni va rolini to‘liq tushunish uchun quyidagi tushunchalarni bilish zarur:

Ham ananaviy, ham elektron tehnologiyalar uchun yaroqli bo‘lgan kutubxona avtomatlashtirilgan tizimning turli tuman lokal va chetga joylashgan resurslar bilan aloqadorlikda faoliyat ko‘rsatishi. Portal-ajratilgan tarmoqda mavzuli qidiruvni jo‘natish nuqtasi, elektron resurslar katalogini avtomatik tarzda yaratish, axborotni avtomatlashtirilgan tarzda yig‘ish tehnologiyasidir. Elektron resurslar va hujjatlarni elektron tarzda yetkazish tizimining tabiiy shart-sharoitlari sifatida paydo bo‘lgan kutubxonalararo abonnement (KA) bir butun internet tizimi uchun ham hos bo‘lib, jamoa tarzida yoki yakka tartibda foydalanuvchilar uchun kitoblar, maqolalar, elektron materiallarni uzatish, hujjatlarni yetkazib berishdir. Pochta, faks, elektron pochta, buyurtma tarzda skaner qilish, elektron tarzda yetkazib berish – yetkazish mehanizmidir. Elektron resurslarni yaratish vositalari yoki bosma nashrlarni elektron resursga o‘tkazish kutubxonalarining nashriyotchilik funksiyasining o‘zgarishi va kengayishi, kataloglar, bibliografik ko‘rsatkichlar, sharhlar, uslubiy tavsiyanomalar, maqolalar chop etishdan tashqari kutubxona bosma nashr fondining asosiy mavzulari bo‘yicha lokal elektron resursni yaratishdir. Elektron kutubxonadan foydalanish:

axborot tehnalogiyalarining rivojlanishi orqali tehnik taraqqiyotga erishishda;

axborotlarni uzatish yangi turlarining paydo bo‘lishida;

elektron ashyolarni saqlash va qayta ishlashning qog‘ozdagagi nashrlarga nisbatan qulayligi va arzonligi;

ijtimoiy, telekomunikatsiyalar aloqa tizimining kengayishi;

axborotlar, xujjatlardan erkin foydalanish;

uzoq hududlarda joylashgan resurslardan keng foydalanish va kutubxonalar faolyatini uygunlashtirish hamda uyuştirishda muhim ahamiyatga egadir. Elektron resurslar, elektron ashyolar hujjatlar jamlanmasi bo‘lib, elektron kataloglar, bibliografik, referativ va faktografik malumotlar bazasi, elektron kitoblar va to‘liq matnli elektron jurnal-lar singarilarni o‘z ichiga oladi.

Metamalumot-axborot haqidagi ahborot hisoblanadi. Elektron kutubxona resurslaridan foydalanish quyidagi qulayliklarni yaratib beradi:

Ko‘p joy egallamasligi;

Bog‘lanishning osonligi, erkinligi;

Axborotga tezlikda ega bo‘lish;

Kuchli qidiruv aparating mavjudligi;

Bir paytning o‘zida ko‘p foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish mumkinligi va ha-kozolar.

Foydalanuvchilarning savollariga elektron pochta chat, sms orqali javob berish kutubxona axborot xizmatining virtual (elektron) usullari jumlasiga kiradi. Bu usullar yuzma-yuz javob berishdan unchalik farq qilmasada aloqa paytida kutubxonachiga foy-dalanuvching ovozi, yuz va tana harakatlari malum bo‘limganligi uchun uning ehtiyoji qanchalik darajada qondirilalayotganligini aniqlash imkoniyatining mavjud emasligi ularning asosiy kamchiligidir. Shuning uchun ham kutubxonachilarga virtual savol-javob jarayonini yuzma yuz aloqa davomida kechadigan tartibda shakllantirish tavsiya qilinadi. Lekin vaqt cheklangan, uydan chiqish imkoniyatiga ega bo‘limgan, yuzma yuz aloqada tortinchoq bo‘lgan foydalanuvchilar uchun qulayligi, manbalarning barcha

uchun ochiqligi sababli aksariyat kutubxonachilar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zining maqsadli yo‘nalishiga ko‘ra virtual(elektron) kutubxonalar quyidagi tarfibda tavsiflanadi: -muayyan shaxslar yoki xodisalar haqidagi hujjatlarni uzoq muddat saqlash uchun mo‘ljallangan virtual (elektron)kutubxonalar;

muayyan fanni uning yo‘nalishini yoki mavzusini mukammal o‘rganish uchun tay-yorgarlikning yuksak darajasiga ega bo‘lgan mutahassislar va ilmiy hodimlar uchun mo‘ljallangan ilmiy virtual (elektron)kutubxonalar;

talimni qo‘llab quvvatlashga yo‘naltirilgan o‘quv uslubiy virtual (elektron) kutubxonalar;

fanning barcha sohalari bo‘yicha zaruriy axborotga ega bo‘lish uchun universal ensiklopediya tarzida tuzilgan malumotlar kutubxonasi;

umumtalim darajasida muayyan fan yoki uning mavzusini majmuaviy tarzda yoritishga mo‘ljallangan ilmiy – ommaviy hususiyatga ega bo‘lgan marifiy harakteridagi kutubxonalar;

muayyan maqsadga yo‘naltirilgan virtual (elektron) kutubxona.

Elektron pochta orqali malumot berish rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarida XX asr 90-yillari o‘rtalaridan boshlangan. Elektron pochta orqali malumot olish uchun to‘ldirilishi lozim bo‘lgan savolnomalar ko‘pchilik kutubxonalarning veb-saytlarida joylashtirilgan bo‘lib, ularning eng qulayi internet ijtimoiy kutubxonasi (www.ipl.orq) savolnomasidir.

Elektron pochta orqali foydalanuvchiga malumot berish jarayoni sekinroq kechсада, bu usul kutubxonachiga tahlil qilish uchun qo‘srimcha vaqt beradi va javobning kengroq miqyosda amalga oshirilishiga imkoniyat yaratadi.

Malumotning qoniqarli bo‘lishi foydalanuvchiga elektron pochta orqali ko‘proq axborot olish uchun yana murojaat qilishi va uning hizmatidan takroran foydalanishga undaydi.

Virtual usulda axborot yetkazishning istiqbolli usullari sifatida chat, bir zumda xabar yetkazish va SMS orqali muloqot qilishni ham ko‘rsatib o‘tish lozim. Masalan, chat usulining afzalligi shundaki, u foydalanuvchi bilan savol – javob ko‘rinishida o‘tkazilishidan tashqari, unga kelajakda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan maslahatlarni ham berish mumkin. Muloqot real vaqt davomida amalga oshirilishi, vaqtning chegaralanganligi uchun savollarga shu zahoti javob qaytarishni maqsad qilgan kutubxonachilar chat usulidan ko‘proq foydalanadilar.

Foydalanuvchi tomonidan berilayotgan savollar izlanayotgan malumot va axborotning mazmunini chuqurroq tushunib yetish uchun kutubxonachi unga kerakligini tu-shuntirishi va nimani qidirishi kerakligini uning o‘zidan tasdiqlatib olishi lozim.

Foydalanuvchi kutubxonachining qanday ish bilan mashg‘ul ekanligini ko‘rib turishning imkoniyati yo‘qligi tufayli, unga bajarilayotgan ish haqida muntazam tarzda axborot berib borish tavsiya qilinadi. Ular o‘rtasidagi muloqot matn yozish orqali amalga oshirilayotganligi bois kutubxonachilarining foydalanuvchi hatti – harakatlarini kuzatib turish uchun imkoniyati bo‘lmaydi va muloqotning qanchalik samarali amalga oshayotganligini faqat foydalanuvchining yozayotgan javoblarini diqqat bilan o‘qib borish orqaligina aniqlashi mumkin. Eng asosiysi, foydalanuvchiga berilgan malumot uning

ehtiyojini qanchalik darajada qondirayotganligidadir. Kutubxonachi foydalanuvchiga qo'shimcha malumot olish uchun savollar bilan doimo murojaat qilib turishi mumkinligini eslatib turishni unutmasligi kerak. Chat usuli orqali malumot berib turishning eng katta afzalligi shundaki, kutubxonachi keyinchalik ham muloqot jarayonini takroran ko'rib chiqish imkoniyatini saqlab qoladi.

Kutubxonachi foydalanuvchilarni axborot bilan taminlash maqsadida aloqada bo'lish jarayonida matn terar ekan, o'zining doimo yordamga shay ekanligini namoyish qila olishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu foydalanuvchining kutubxona axborot xizmatidan muntazam foydalanishi uchun mustaxkam zamin yaratdi.

Qanday malumot kerakligini aniqlashga qaratilgan savol – javobning muntazam amalga oshirilishi, tekshirilgan manbalarni tavsiya qilish, berilgan malumotning foydalanuvchining ehtiyojini qay darajada qondirilganligini tekshirib turish, foydalanuvchilar nazarida ularning ehtiyojining qondirilishiga alohida etibor qaratayotgan kutubxona va kutubxonachiga nisbatan ijobiy fikr uygonishiga olib keladi. Foydalanuvchilar bilan faol ishlovchi kutubxonalar kutubxona haqidagi malumotlar yoki savollarga javoblarni "feysbuk" (www.facebook.com) sayti vositasida taklif qilmoqda.

Lekin, shuni ham takidlash lozimki, virtual usulda malumot berish ko'p holatlarda foydalanuvchilar mazkur usul to'grisida bexabar bo'lgani bois keng foydalanilmaydi. kutubxonalar o'z saytlarida mazkur xizmat turini ko'rinarli tarzda belgilashi va u kutubxona veb-saytining barcha sahifalarida ko'rinarli tarzda bo'lishini taminlash muhim ahamiyatga egadir. Virtual malumot berish tartib – qoidalari, mazkur xizmatdan kimlar foydalanishi mumkinligi ham hammaga ochiq oydin bo'lishi ham ushbu xizmat usulining yanada kengayishi va takomillashishiga yordam beradi.

Virtual usulning yana bir qulayligi shundan iboratki, u orqali malumot beruvchi kutubxonachilar o'z hamkasblarining faoliyatlarini kuzatish tizimlarini ham yaratishi mumkin bo'lib, shu orqali bir – birlariga ish sifatini yaxshilashda yordam berish imkoniyati oshadi. Foydalanuvchilar bilan amalga oshirilgan yozishmalarning transkripsiyalari muntazam tarzda o'rganilishi va shu orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati darajasini aniqlab borish mumkinligi ham katta ahamiyatga egadir.

Malumot berish xizmatining barcha turlarida muvaffaqiyat faqat yetkazilgan axborot bilan cheklanib qolmasdan, foydalanuvchi va kutubxonachi o'rtasidagi munosobatlarning darajasiga ham bogliqdir.

Ayniqsa, foydalanuvchining olingen axborot va kutubxonachining munosabatidan qoniqqanligini kutubxonachining quyidagi harakatlari belgilab beradi: Foydalanuvchini diqqat bilan samimiylash; Axborot manbalarini foydalanuvchi bilan birga izlash; Axborot manbalarini bilan taminlash; Foydalanuvchiga uning savollariga qanchalik darajada to'liq javob berilganligi bilan qiziqish; Foydalanuvchiga qo'shimcha malumot kerak bo'lgan taqdirda qaytadan murojaat qilishi mumkinligini takidlash orqali doimo yordamga tayyor ekanligini namoyon qilishi.

Kutubxona – axborot xizmati foydalanuvchilariga yordam va yo'l – yo'riq ko'rsatish usullari ham zamonaviylashib va takomillashib borayotgan hozirgi paytda yuqori darajada xizmat ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rish ular ehtiyojining qondirilishini taminlashda asosiy omil ekanligini doimo yodda tutmoq kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Elektron kutubxona tizimini rivojlantirish : O‘zbekiston Respublikasi Pezidentining Farmoni 2021-yil 3-may// Xalq so‘zi. – 2021. – 4-may.
2. Murodov A. Elektron kutubxona faoliyatini rivojlantirish tajribalari// Infolib. – 2018. – № 3. – B. 56–57.
3. www.ipl.org va boshqa xalqaro elektron kutubxona platformalarining rasmiy veb-saytlari.
4. “Facebook” va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda kutubxona xizmatlarini targ‘ib qilish bo‘yicha materiallar.
5. Milliy kutubxonalar veb-saytlarida joylashtirilgan axborot xizmatlariga oid ko‘rsatmalar.

Zebiniso Abduganiyeva
O‘zDSMI “Kutubxon-axborot faoliyati”
kafedrasi o‘qituvchisi

KUTUBXONA MULOQOTI JARAYONIDA IDROK ETISH MEXANIZMZI

Annotasiya. Ilmiy maqolada axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi sharoitida kutubxona-axborot muassalarining mazmun moxiyatini anglab yetish, ular xizmatning hozirgacha kutubxonachi va uning foydalanuvchilari o‘rtasidagi bevosita muloqot o‘rnatilishini nazarda tutishi, turli axborot texnologiyalari inson shaxsiyatini astasekin chetga surib borayotgan bir sharoitda muloqotning muhim ahamiyat kasb etishi, yuzma-yuz muloqot, virtual muloqot xamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, axborotlashgan jamiyat, muloqot, virtual muloqot, virtual axborot, elektron pochta, virtual kutubxona.

Abstract. In the scientific state, understanding the importance of the library and information organization and the conditions for the development of the information society, presupposing the establishment of a direct relationship between librarians and their users, the importance of the community and the situation where different information technologies gradually reduce the human capacity, the public litsom k litsu, the virtual public and ix spetsificheskie osobennosti.

Key words: Information, information society, society, virtual society, virtual information, e-mail, virtual library.

Muloqot jarayonida insonlar bir-birlari bilan muloqotlar almashib, o‘zaro ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, bir-birlarini to‘g‘riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir-birlarini to‘g‘ri tushunishlari va aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo‘lishini ta’mindaydi. Psixolog olimlarning kuzatishlariga ko‘ra insonlarning bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida bir qator psixologik qonuniyatlar mavjuddir.

Ushbu mexanizmlarga: Identifikasiya, Refleksiya, stereotipizasiya kiritiladi

Identifikasiya shunday psixologik xodisaki, bunda muloqot ishtirokchilari bir-birlarini to‘g‘riroq idrok qilish uchun o‘zlarini bir-birlarining o‘rniga qo‘yib ko‘rishga harakat qiladi. YA’ni, o‘zidan bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilishi, o‘zgani boshqalar bilan solishtirish identifikasiyadir. Refleksiya muloqot jarayonida suhabatdoshning nuqtai nazaridan, holatidan kelib chiqib, o‘zini tasavvur qilishidir. YA’ni refleksiya boshqa odamning idrokiga taaluqli bo‘lib, o‘ziga boshqalarning ko‘zi bilan qarashga intilishdir. Chunki busiz inson muloqot jarayonida o‘zini aniq bilmasligi, noto‘g‘ri muloqot shakllarini tanlashi mumkin.

Stereotipizasiya insonlar ongida ko‘p-yillik muloqotlar davomida shakllanib, o‘rnashib qolgan va ko‘nikma hosil qilingan obrazlardan umumlashtirilgan holda foydalanish hollaridir. Ijtimoiy stereotillar har bir shaxsda u yoki bu guruhga mansub kishilar haqida shakllangan obrazlardir. Olimlar bunday stereotiplar ba’zan muloqotning to‘g‘ri yo‘naltirilganligini ta’minlasa, boshqa hollarda esa undagi hatoliklarning sababi bo‘lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar kayzal atribusiya (lotincha – “kayza” – sabab, “atribusiya” – sababni aniqlab bermoq ma’nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o‘qituvchi bilan hamsuhbat bo‘lib qolgan odamda suhbat boshida “hozir odob-axloq haqida dars berishni boshlasa kerak” degan fikr paydo bo‘lishi ham stereotipdir. Bundan tashqari insonlar birinchi marta ko‘rgan odam to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o‘rtasida bog‘liqliklar o‘rnatishga harakat qilar ekan, shunday bog‘liqliklarni aniqlash maqsadida psixolog olim A.A.Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko‘rsatgan.

Guruhdagi 72 kishidan 48 tasi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanliklarini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattiq odamlarning qat’iy va qaysar ekanliklarini, 5 kishi kichik bo‘yli odamlar xokimiyatga intiluvchi, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyl odamlar yo o‘ziga bino qo‘ygan yoki nodon bo‘lishlarini aytishgan.

Tabiiyki bunday fikrlar mutloq to‘gri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Ijtimoiy perspsiya yoki insonlarning bir-birlarini to‘g‘ri idrok etish va tushunish jarayoni mu-loqotning muhim muammolaridan biridir. Bu murakkab jarayon bo‘lib, unda mu-loqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham obyekti ham subekti bo‘lib faoliyat ko‘rsatadilar shaxsga idrokning obyekti sifatida qaralganda, unda hosil bo‘ladigan “boshqa odam obrazi”ning barcha sifatlari va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan belgilarga: ushbu odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o‘zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, yurish-turishi va hakozolar kiradi. Lekin shularning ichida insonning yuzi muloqot mobaynida suxbatdoshga eng ko‘p ma’lumot beruvchi obyektdir. Shuning uchun ham telefon orqali suhbatdan ko‘ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha qulay va axborotlarga boydir.

Insonlarning bir-birlarini to‘g‘ri idrok etishlari ularning perceptiv, ya’ni, hissiy biliish sohasiga aloqador bo‘lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita bog‘liq murakkab jarayondir. Boshqa odamni to‘g‘ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga qaray olgan hisoblanadi, boshqacha aytganda, unda empatiya – birovlarning his-kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan buladi. Yuksak ongli, madaniyatli, ma’naviyatli shaxsga boshqalarni to‘g‘ri tushunishi, ularning mavqeい darajasida tura olishi mumkin.

Insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning ko‘zlagan asosiy maqsadlaridan biri-o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash eski qarashlarini o‘zgartirish, eng asosiysi, yaxshi taa’surot qoldirishdir. Shunga ko‘ra psixologik ta’sir, turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari,

hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir. Ijtimoy psixologiyada psixologik ta'sir o'tkazishning uchta vositasi ajratib ko'rsatiladi:

Verbal ta'sir – o'z va nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir bo'lib, asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki nutq ham o'zaro muloqot jarayonida qo'llanilib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham diologik nutqda ham inson o'zidagi baracha nutqlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchanlarini qo'llab sheringiga ta'sir o'tkazishni hohlaydi.

Noverbal ta'sirning – ma'nosi, nutqsiz ta'sirdir. Bunga muloqot ishtirokchilarining makonda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rnlari, holatlari (uzoq,yaqin) mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar ,tashqi qiyofa, undan chiqayotgan signallar(shovqin, hidlar) kiradi.

Pralipistik ta'sir – bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nutqning atrofidagi nutqni bezovchi uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillardir. Bunga nutqning past yoki baland tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.

Muloqot jarayonidagi harakterli holat shundan iboratki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganida, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etish mumkinligini o'ylab oladilar.Chunki o'ylab aytilgan o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muloqotda muhim rol o'ynaydi. Natija shunday bo'ladiki "ust – boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatib qo'yishadi"

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. Ta'sirning tashabbuskori – bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi va rejasi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi.

Ta'sirning adresati – ta'sir yunaltirilgan shaxs bulib, ta'sir tashabbuskorining muloqotga tayyorgarligi yetarli bo'lmasa yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa u tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Shuning uchun insonlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi ijtimoiy psixologianing muhim masalalaridan biri xisoblanadi. Ma'lumki muloqot jarayonida suhbatdoshlardan biri gapiradi, ikkinchisi esa tinglaydi. Muloqotning samaradorligi gapiresh va tinglashning o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liqdir. Noto'g'ri tanlangan tasavvurlardan biri shundaki, insonni mutolaa yoki muloqotga o'rgatganda odatda mantiqiy asoslangan so'zlardan ifoydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatiladi. Lekin masalaning ikkinchi jihatni tinglash qobiliyatini o'stirishga deyarli e'tibor berilmaydi. Amerikalik mashxur notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan insondir" deganda aynan ana shu qobiliyatning rivojlangan bo'lishi nazarda tutadi.

Mutaxassislarining aniqlashicha, ishlayotgan odam vaqtining 45 foizi tinglash jarayoniga sarflanadi, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35–40 foiz maoshlarini odamlarni tinglaganliklari uchun oladilar.

Demak, bundan, kommunikasiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati insonlarga ko'proq foyda keltiradi. Shuning uchun ham nemis faylasufi

A.Shopengauer “Odamlarning o‘zingiz to‘g‘ringizda yaxshi fikrda bo‘lishini hohlasangiz, ularni tinglang” deb yozadi. Insonning yaxshi so‘zlovchi bo‘la olishi, lekin yaxshi tinglovchi bo‘la olmasligining sababi nimada?

Bunda asosiy xalaqit beruvchi narsa bu insonning o‘z fikr-o‘ylari va hoxishlari og‘ushida bo‘lib qolishidir. Shuning uchun ba’zilar rasmiy shergini tinglayotganday ko‘rinsada, aslida xayoli boshqa joyda bo‘ladi.

Tinglashning xuddi gapirishga o‘xhash texnikasi, usullari mayjuddir. Ularning turi ko‘p bulsada, kundalik hayotda ikki usuli: so‘zma – so‘z qaytarish va boshqacha talqin etish ko‘p qo‘llaniladi. Birinchi usul, suhbatdosh so‘zlarining bir qismini yoki bir butunicha qaytarish orqali suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Ikkinci usul esa – suhbatdoshning so‘zlarini tinglab undagi g‘oyani o‘z talqinida ifoda etishdan iborat.

Demak, muloqot jarayonida gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq hokimi, degan tasavvur to‘g‘ri emasligi aniqlashadi. Yaxshi tinglovchi bo‘lish ham muayan fazilat bo‘lib, ishonch orqali suhbatdoshlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa-foyDALI axborot olishdir. Shuning uchun ham muloqotga o‘rgatishning muhim yo‘nalishlaridan biri – faol tinglashga, barcha paralinevistik va neverbal omillardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatishdir. Bu borada professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

Aktiv holat – agar xonada kreslo yoki divan kabi mebel bo‘lsa yastanib o‘tirib olmaslik, mimika, bosh silkish kabi harakatlar bilan uning har bir so‘ziga qiziqish bildirishayotganligini ifodalab turishi;

Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish – bu nafaqat suhbatdoshni o‘ziga jalg qilib, balki keyin navbat kelganida o‘zining har bir so‘ziga uni ham ko‘ndirishning samarali yo‘lidir;

O‘ychan jimlik – bu suhbatdosh gapirayotganday tasavvur qoldirish orqali suhbatdan manfaatdorlikni bildirish yo‘lidir.

Agar suhbatdosh diqqat bilan tinglansa, o‘z-o‘ziga hurmat ham tarbiyalanadi. Tinglash jarayonining muloqotning samarali bo‘lishidagi ahamiyati kattadir.

Muloqot jarayonida gapirish va tingalashning faol o‘zaro ta’sir uchun teng ahamiyatni nazarda tutiladigan bo‘lsa bu jarayon qatnashchilarining muloqotga oid savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash unchalik qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – 3-nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
2. Maxmudov M. Axborot kutubxona xizmati: nazariyasi va metodikasi: darslik. – Toshkent, 2007. – 125 b.
3. Мелентьев Ю.П. Общая теория чтения. – Москва: Наука, 2015. – 230 с.
4. Езова С.А. Границы библиотечного общения. – Москва: Наука, 2017. – 246 с.
5. Дворкина М.Я. Библиочно-Информационное обслуживание. Москва:Наука, 2017. – 356 с.
6. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102993/13.mavzu.Muloqot.htm>

Zebiniso Xudayberdiyeva
O‘zDSMI “Kutubxona-axborot faoliyati”
kafedrasi o‘qituvchisi

XIV-XV ASRLARDA MOVAROUNNAHR MA’NAVIY VA MA’RIFIY HAYOTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV-XV asrlardagi movarounnahr ma’naviy va ma’rifiy hayoti, Temuriylar davridagi allomalar va shoirlarning ma’naviy me’rosi haqida ma’lumotlar keltirilib, bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, ma’naviy-ma’rifiy hayot, madaniyat va san’at, sulola, me’morchilik.

Abstract. In this article, information about the spiritual and educational life of Movarounnahr in the XIV-XV centuries, the spiritual heritage of scholars and poets during the Timurid era is presented and described.

Key words: Movarounnahr, spiritual and educational life, culture and art, dynasty, architecture.

Yaqin-yillarda mamlakatimizda xalqimizning jonli kechmishini, o‘lkamizning siyosiy-ijtimoiy tarixi, madaniyati va san’ati taraqqiyoti masalalarini o‘rganish shaxsan davlatimiz rahbarining nazorati va g‘amho‘rligi ostida, hukumatimizning bu boradagi keng qamrovli dasturi asosida olib borilmoqda. Mazkur maqolada uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi bo‘lgan Markaziy Osiyodagi XIV–XV asrlar davri madaniyati va san’ati, ilmiy-ma’rifiy merosi, tarixi tadqiq qilindi.

XIV–XV asrlarda Movarounnahr hududi, ya’ni hozirgi O‘zbekiston va atrofdagi joylar, Sharqning madaniy va ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, uning ma’naviy va ma’rifiy hayoti yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda Movarounnahrda nafaqat ilm-fan, balki adabiyot, san’at, falsafa va diniy fikrlar sohalarida ham muhim o‘zgarishlar va taraqqiyotlar sodir bo‘ldi.

XIV asrda Amir Temuring saltanati o‘zining siyosiy kuchi bilan birga, ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlagan, Movarounnahrda ilmiy va diniy tadqiqotlarni rag‘batlantirgan. Shuningdek, ushbu davrda xususan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar Sharqning eng yirik ilmiy markazlariga aylangan. XV asrda esa, bu hududda o‘ziga xos ilmiy-madaniy makonlar rivojlanib, mashhur olimlar va shoirlar, masalan, Alisher Navoiy, Mirzo Ulughbek va boshqa ko‘plab tafakkur va san’at namoyandalari o‘z faoliyatlarini olib borgan.

Movarounnahrning ma’naviy hayoti faqat ilmiy rivojlanish bilan cheklanmay, balki diniy va falsafiy qarashlarning rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda turli diniy ta’limotlar, jumladan, islomning tasavvuf maktablari, madaniy yuksalishni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, Movarounnahrda ilmiy izlanishlar, astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishildi.

XIV–XV asrlarda Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan ma’naviy va ma’rifiy jarayonlar, nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq madaniyatining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va madaniy yuksalish nafaqat Movarounnahr, balki butun musulmon dunyosining fikriy va ilmiy salohiyatini yuqori bosqichga ko‘tardi. Ma’lumki, avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Metsning 1909-yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilganligi tufayli o‘shandan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to‘g‘risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi [1;241]. Ayniqsa rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N.N. Konrad Renessans VII–VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX–XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgани, mo‘g‘ul istilosи tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o‘sganini ta’kidlaydi. U O‘rta Sharq Uyg‘onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho‘zilishini qayd etib o‘tadi [2;10].

O‘zbek xalqi madaniy-ma’naviy qadriyatlari tizimida undan har doim milliy ruhni shakllantirish, jamiyat barqarorligini ta’minalashda foydalanib kelingan. Madaniyat va san’at, ayniqsa ma’naviyat va ma’rifat masalalariga inson hayoti uchun zarur bo‘lgan oddiy hodisa sifatida emas, balki, uning barkamolligini tarbiyalaydigan, millat va davlat manfaatlari uchun mas’ullik darajasini oshirishning muhim omili vositasi deb qaralgan. Bu davrda yurtimizda juda ko‘plab allomalar, olimlar, shoir-u naqqoshlar, sarkardalar yetishib chiqqan. Ayniqsa, Temuriylar sultanati hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot ham yangi bosqichda ko‘tarildi. Shu davrda fors-tojik adabiyoti o‘zining yangi rivojlanish pog‘onasiga erishgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyoti Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimiyy, Yaqiniy ijodlari misolida o‘z taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang”, A.Navoiyning “Xamsa”, “Hazoyin ul manony” asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy yetti dostondan iborat to‘plamiga “Haft avrang” (Yetti taxt) deb nom qo‘yar ekan, Temuriylar sulolasidan yetti (Amir Temur, Xalil Sulton, Shohrux, Ulug‘bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro) ni ko ‘zda tutgan bo‘lsa, Navoiy o‘z “Xamsa”sini yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag‘ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukumdlariiga o‘zlarining ma’lum ma’noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan [3;2].

Madaniyat va ma’naviyat insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchiga aylanganligi sog‘lom fikrli odamlarning hayotiy mezoniga aylanib bo‘lganligiga hech kim shubha qilmaydi. Kishilik jamiyatining barcha davrlari uchun o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy muhit mavjudligi kabi, shaxs kamolotida ham uning tub ma’naviy-ruhiy ehtiyojlariga mutanosib ravishda madaniy makon yuzaga keladi. Ushbu makon esa, o‘z navbatida odamzotni taraqqiyotning yangi bosqichlari sari yo‘naltiradi, ularni ma’naviy-ruhiy jihatdan boyitib boradi.

Bu jarayon tinimsiz davom etadi. Shu tariqa jamiyat a’zolarining madaniy-ma’naviy ehtiyojlari shakllana boradi. Natijada, mazkur ehtiyojlar alohida iqtidor va iste’doda ega bo‘lgan shaxslardan kishilar ma’naviy olamini shakllantirish maqsadida yangi, zamonga mos madaniyat va ma’naviyat asarlarining paydo bo‘lishiga imkon beradi. Bu

davr me'morchiligi va amaliy san'atida asriy an'analar yanada takomillashtirilib, yuqori darajali ma'naviyatni anglatuvchi o'ziga xos uslub yaratiladi. Bu uslubda bino qilingan imoratlar o'zining uy'unligi, qismlarining mutanosibligi rang-barangligi va tantanali manzara kashf etuvchi harakat bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, o'zining mukammalligi, yetuk shakli nafisligi va go'zal naqshlari bilan kishini mahliyo etuvchi XIV–XV asrlar qurilish san'atining ajoyib durdonalari minglab kishilar mehnatining mahsulidir. Ular-da xalq ichidan yetishib chiqqan mohir me'mor, naqqosh va bannolarning aql-idroki, mahorati va qurilish saqlash ko'p asrli o'z ifodasini topgan. Bu me'moriy obida qonunlarining muhandislari tarrohlari go'zallikning obyekтивларини chuqr bilganlar, o'z ijodning g'oyasi va ruhini bera olganlar. Ularning me'moriy usuli, naqshi, o'ziga xos xislat va xususiyatlari beqiyos va takrorlanmasdir [4;5]. Shunday ekan, biz yoshlarimizga butun dunyo tan beradigan, mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahoudin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Dorimiy kabi bobokalonlarimizning bizga meros qilib qoldirgan barcha asarlarini o'qitib, targ'ib qilishimiz shart. Zero, buyuk ajdodlarini e'zozlagan, ularning ilmiy merosi, bunyodkor g'oyalarini o'zining ma'naviy taraqqiyoti mayog'i o'la-roq tutgan millat va xalqlar hech qachon kam bo'lmaydi. Shuning uchun, barchamiz yurtboshimiz boshchiligidagi amalga oshirilayotgan bundayin savobli ishlarga daxldorlik hissi bilan yashashimiz, bunda har birimiz o'zimizning kasbimiz va yo'nalishimizdan kelib chiqib mas'uliyatni his qilgan holda harakat qilishimiz biz uchun ham farz, ham qarz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Metz A. Musulmon Uyg'onish davri. – Moskva. 1966.
2. Abdumatov A.A. Insoniyat tarixida renessansning tutgan o'rni // 2023-yil 25-aprelida o'tkazilgan "Mirzo Ulug'bek – buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumandagi maqolalar o'rin olgan.
3. Kamoliddinov F. Amir Temur va Temuriylar davri adabiy muhit va tasviriy san'atining ba'zi jihatlari tarixiy manbalarda // Academic research in educational sciences. – 2021. – Volume 2, Issue 9.
4. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2013. – №14.
5. Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi // Ijodiy parvoz . – 2018.– № 4 (60).
6. Davlatov S. The leading role of the librarian in the library-information services process / S. Davlatov, Uktam Nosirov // Middle European Scientific Bulletin. – 2020. – P. 33-37.
7. Davlatov S. Amir Temur va Temuriylar davrida kitobat ishi va kutubxonalar // O'rta asrlar sharq allomalari va mutaffakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyatt masalalari. –2020. – B. 92–96.

Ulug‘bek Musinov
*O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi*

IJODIY TARBIYA VOSITASI SIFATIDA QO‘G‘IRCHOQ KONSERT TOMOSHASINING O‘RNI

***Annotatsiy.** Maqolada qo‘g‘irchoq estrada konsert nomerlarining ta’lim va tarbiyadagi o‘rni hamda ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. “Hayot” nomeri misolida pedagogik imkoniyatlar tahlil qilingan. Konsert nomerlari ning sahna mahoratini shakllantirishdagi roli ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, metodik yondashuvlar va takomillashtirish yo‘nalishlari belgilangan.*

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatri, konsert nomeri, estrada tomoshasi, ta’lim jarayoni, estetik tarbiya, dramaturgiya, sahna ijodi, ijodiy tafakkur, pedagogik uslub.

***Abstract.** The article highlights the role of puppet variety performances in education, character building, and creative development. The “Life” performance illustrates the pedagogical potential of puppet art. The importance of concert performances in enhancing stage skills is demonstrated. Methodological approaches and directions for improvement are outlined.*

Keywords: puppet theatre, variety performance, concert show, educational process, aesthetic education, dramaturgy, stage art, creative thinking, pedagogical method.

Qo‘g‘irchoq teatri san’ati o‘zining betakror estetik jozibasi, obrazlilik kuchi va ramziy ifoda vositalari bilan boshqa san’at turlaridan sezilarli darajada ajralib turadi. Ushbu san’at turi nafaqat tomoshabin ongiga badiiy ta’sir ko‘rsatish, balki yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatrining texnik, badiiy va dramaturgik xususiyatlari ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlash jarayonida maxsus yondashuv va innovatsion metodlarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, oddiy bir qo‘g‘irchoq faqatgina jonsiz buyum sifatida qolmaydi – u san’atkor qo‘liga tushgan zahoti badiiy ifoda vositasiga, harakat, emotsiya va ramziy ma’nolarni mujassam etuvchi misoli bir tirik obrazga aylanadi. Bu jarayon aktyorning obraz asosidagi ichki tuyg‘ulari va kechinmalarini o‘zidan o‘tkazib qo‘g‘irchoqqa yo‘naltirishi orqali orqali amalga oshadi. “Boshqa paytda oddiy bolalar o‘yinchog‘idan kam farq qiladigan qo‘g‘irchoq san’atkorning qo‘lida jonlanadi, harakatga keladi, rasmana odamlarday yashay boshlaydi, kuladi, yig‘laydi, urishadi, o‘ynaydi, kuylaydi, nayrang ko‘rsatadi va h. Mana shu mitti artistlar hayot, sevgi, do‘slik, sadoqat, muruvvat, rostgo‘ylik to‘g‘risida hikoya qiladi, xiyonat, tekinxo‘rlik kabi illatlarni ayamay savalaydi” [1.B.4.].

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirishga qaratilgan qator qaror va farmonlar qo‘g‘irchoq teatriga bo‘lgan e’tibor va uning tarbi-

yaviy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu holat zamonaviy talablarga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirgan. Xususan, ushbu soha doirasida ta'lim jarayonida mutaxassislarni tayyorlashda qo‘g‘irchoq konsert dasturlari uchun maxsus tomosha sifatidagi nomerlardan samarali foydalanish orqali talabalar ongida estetik did, ijodiy tafakkur, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, ijtimoiy faollik va ijoddagi o‘ziga xoslikni shakllantirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Qo‘g‘irchoq teatri konsert nomeri – bu teatr san’atining badiiy ifoda vositalarini yanada ixcham va o‘ziga xos shaklda namoyon etuvchi sahna ko‘rinishlaridan iborat bo‘lgan kompozitsiyadir. An’anaviy spektakllardan farqli o‘laroq, konsert dasturida voqelik keng qamrovli dramaturgiya asosida emas, balki qisqa, ta’sirchan va ramziy sahna epizodlari orqali ifodalanadi. Ushbu ko‘rinish qo‘g‘irchoq teatrining barcha imkoniyatlarini – qo‘g‘irchoq turlarining xilma-xilligi, sahna harakati, musiqiy hamohanglik, plastika va vizual effektlarni to‘liq ishga solish imkonini beradi.

Ayniqsa, konsert dasturlarida kichik voqeliklarni badiiy talqin qilish orqali talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni mustaqil sahnaviy yechimlar topishga undash jarayoni kuchli aks etadi. Chunki bu format talabalardan nafaqat texnik mahoratni, balki badiiy did, sahnaviy tafakkur va innovatsion yondashuvni, aktyorlik yo‘nalishlarida rejissyorlik qirralarini kash etishni talab qiladi. Qo‘g‘irchoq teatri spektakllarda asosiy e’tibor syujet asosidagi voqeani ochishga qaratilgan bo‘lsa, konsert dasturida esa har bir estrada nomeri mustaqil badiiy asar sifatida talqin etilib, talabani yana bir bor o‘z ijodiy qobig‘idan chiqib, tomosha san’atining o‘ziga xos qirralarini topishiga xizmat qiladi. “Konsert tomoshasini yaratish va ijro etish jarayoni talabaning kasbni egalashida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki konsert dasturi talabaning bajarayotgan ishiga ishonch bilan yondoshishga, o‘zini sahnada erkin tutib, qo‘g‘irchoq personajni orqali o‘zining bor imkoniyatlarini qo‘g‘irchoq teatri uchun eng kerakli bo‘lgan musiqani his qilgan holda namoyon etishga o‘rgatadi” [2.B.140.].

O‘quv jarayonida qo‘g‘irchoq estrada konsert nomerlari ustida ishslash bugungi kunda “Aktyorlik mahorati” fanining amaldagi o‘quv dasturida 2-kursning ikkinchi yarim-yilligida amalga oshiriladigan muhim bosqichlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu bosqichga qadar talabalar aktyorlik san’atining asosiy tamoyillarini bosqich-ma-bosqich o‘zlashtirib, sahna madaniyati va badiiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirib boradilar.

Xususan, 1-kursning birinchi yarim-yilligida talabalar teatr san’ati turlari va K.S.Stanislavskiy tizimi asosida sahnada maqsadga muvofiq xatti-harakat qilish, his-tuyg‘ularni boshqarish va obraz yaratishning dastlabki sirlarini o‘rganadilar. Ikkinchi yarim-yillikda esa ular yakka va jamoaviy etyudlar ustida ishslash orqali sahnaviy muloqot, improvizatsiya va turli janrlardagi qahramonlar holatlarini ifodalash malakasini mustahkamlaydilar. 2-kursning birinchi yarim-yilligida talabalar adabiy asarlar bilan ishslash jarayoniga jalb etilib, badiiy matn asosida parcha tayyorlash va uni sahnaga moslashtirish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Aynan ikkinchi kursning ikkinchi yarim-yilligida esa talabalar bevosita qo‘g‘irchoq teatri san’atining o‘ziga xos badiiy va texnik jihatlarini chuqur o‘zlashtirish bosqichi-

ga qadam qo‘yadilar. Bu davrda ular masal janri yoki tayyor qo‘g‘irchoq pesalaridan tanlab olingan sahna parchalarini sahnalashtirish bilan bir qatorda, qo‘g‘irchoq estrada konsert dasturlari uchun maxsus nomerlar ustida ham ijodiy izlanish olib boradilar.

Mazkur jarayon qo‘g‘irchoq teatridagi estrada san’atining yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘lib, talabalar uchun sahna ijodining yangi bosqichini ochadi. Bu bosqicha ular qo‘g‘irchoqning harakat estetikasi, musiqiy ritmga mos ijro, plastik ifoda, sahnaviy improvizatsiya va badiiy ramzlar orqali konsert nomerining mavzuga asoslangan g‘oyani yetkazish kabi ko‘nikmalarni chuqur egallashadi.

Shuningdek, konsert nomerlari ustida ishlash talabalarning mustaqil fikrlash, sahna tafakkuri va ijodiy tashabbuslarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, bu jarayon nafaqat texnik mahoratni oshirish, balki san’atkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi muhim bosqichdir. “Talabalar konsert dasturida ham yaratuvchi, ham ijrochi sifatida o‘z mahoratini ko‘rsatadi. Ular ma’lum konsert dasturiga kirish lozim bo‘lgan nomerini o‘zi o‘ylab topadi, so‘ng bevosita o‘z nomerining ijrochisiga aylanib, uni yaratadi” [3.B.140.].

Qo‘g‘irchoq konsert dasturining yana bir muhim jihat shundaki, bu jarayonda talaba o‘zining konsert nomerini mustaqil ravishda ijodiy izlanishlar natijasida o‘ylab topadi, uning asosida badiiy yechimini qidira boshlaydi va uni sahnaga qo‘yish jarayonida dramaturgik, rejissyorlik hamda aktyorlik vazifalarini bir vaqtning o‘zida bajaradi. Bunday ko‘p qirrali ijodiy faoliyat esa talabani o‘z kasbiga yanada mas’uliyat bilan yondashishga va san’atkorlik tafakkurini rivojlantirishga undaydi.

Ta’lim jarayonida qo‘g‘irchoq konsert nomerini shakllantirish jarayoni talabalar uchun nafaqat amaliy mashg‘ulot, balki ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi samarali pedagogik uslub sifatida namoyon bo‘ladi. Buni 2-kurs “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirotida yaratilgan “Hayot” nomli qo‘g‘irchoq estrada konsert nomeri misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Mazkur jarayon talabalarga mustaqil ijodiy izlanish imkoniyatini berish tamoyili ga asoslanadi. Dastlab, har bir talaba o‘z qiziqishlari va dunyoqarashiga mos ravishda ma’lum bir g‘oyaviy yo‘nalishni tanlab, konsert nomeri uchun badiiy asos yaratadi. Bu bosqichda talabalar o‘z fikrlarini sahnaviy ko‘rinish tarzida loyihalab, g‘oyani qog‘ozga tushirish orqali dastlabki konsepsiyanı ishlab chiqadilar.

Keyingi bosqichda kurs Badiiy rahbari va “Aktyorlik mahorati” fanidan dars olib borayotgan professor-o‘qituvchilar ko‘magida talabalarning ishlari tahlil qilinadi. Pedagogik yondashuvning asosiy tamoyili – talabaning ijodiy tashabbusini rag‘batlantirish hamda uning g‘oyasini professional sahna talablariga moslashtirishdan iborat. Bu jarayonda g‘oyaning badiiy qiymati, sahnaviy ifodaliligi va dramaturgik asoslanganligi chuqur o‘rganiladi.

Muhimi, pedagoglar talabaning taklif qilgan ishlanmasini qat’iy ravishda baholash yoki rad etish o‘rniga, unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, sahnaviy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar beradi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga, sahna yechimlarini topishda yangicha yondashuvlarni qo‘llashga undaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qo‘g‘irchoq estrada nomerini yaratish jarayoni ko‘p hollarda butun bir spektaklni sahnalashtirishdan ko‘ra murakkabroq sanaladi.

Chunki konsert nomeri qisqa vaqt ichida tomoshabinga badiiy g‘oya, estetik zavq va emotsiyonal ta’sirni yetkazib berishni talab qiladi. Bunda har bir detal – qo‘g‘irchoq harakati, musiqiy hamohanglik, plastik ifoda va dramaturgik aniqlik uzviy uyg‘unlikda bo‘lishi zarur.

Konsert nomerini yaratishdagi asosiy mezon – mavzuni to‘g‘ri tanlash, uni dramaturgik talablarga moslashtirish va badiiy yaxlitlikni ta‘minlashdir. Aynan shu jihatlar talabaning professional shakllanishida, uning sahna tafakkuri va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, konsert nomerlarini qayta ishlash va takomillashtirish jarayonida talabalarning ijodiy ishlari orasidan “Hayot” nomli konsert nomeri alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan dastur nomerlari orasidan o‘rin oldi. Ushbu sahna ko‘rinishi o‘zining sodda, ammo chuqur ramziy ma’nosи, dramaturgik aniqligi va badiiy ifodaviyligi bilan ajralib turadi.

“Hayot” konsert nomerining asosiy g‘oyasi inson umrining bosqichlarini bitta timsol – oddiy bolalarning sevimli ovunchoqlariga aylangan shar orqali ifodalashga asoslangan. Dramaturgik yechimda shar inson hayotining ramzi sifatida talqin qilinadi va uning har bir holati inson taqdirining turli bosqichlarini badiiy aks ettiradi.

Sahna harakati kapalaklarning erkin uchishi bilan boshlanadi. Bu esa hayotning boshlanishi – insonning dunyoga kelishining ramziy timsolini ifodalaydi. Kapalaklarning nozik harakati hayotning ilk nafasini, beg‘uborlik va poklik timsolini yaratadi. Ularning harakatidan so‘ng shar asta-sekin havoga to‘lib, insonning bolalik davrini ifodalay boshlaydi. Shar o‘sib borishi orqali insonning ulg‘ayishi, orzulari va hayotga qadam qo‘yishi tasvirlanadi.

Keyingi epizodlarda sharning talaba aktyorlar birligidagi sahna harakati orqali o‘smirlilik davri, ta’lim olish jarayoni, ilk muhabbatning barq urishi va insonning oilaviy hayoti aks ettiriladi. Shar atrofida kichik sharlarning qo‘shilishi esa farzandlarning dunyoga kelishini ramziy ifodalaydi. Bu jarayon hayotning to‘kislik va baxtga to‘la pallalarini yoritadi.

Voqealarning keyingi rivojida esa inson hayotining muhim bosqichi – farzandlarni mustaqil hayot sari uchirish ifodalanadi. Shundan so‘ng, shar asta-sekin kichrayib, o‘zidagi havoni yo‘qotadi. Bu esa inson umrining so‘nggi bosqichini, hayotiy quvvatning kamayishini, yakuniy xotirjamlikni bildiradi. Nihoyat, oq kapalaklarning sahnada paydo bo‘lib, parvoz qilishi inson umrining yakunini – hayotning nozik va o‘tkinchi tabiatini, uning “kapalak umri” kabi qisqaligini falsafiy ramz sifatida ifodalaydi.

Ushbu konsert nomeri talabalarning dramaturgik tafakkurini, sahnaviy ifoda vositalaridan foydalanish mahoratini va ramziy badiiy obraz yaratish qobiliyatini namoyon etdi. “Hayot” nomli qo‘g‘irchoq estrada nomerining muvaffaqiyati shundaki, unda murakkab falsafiy g‘oya sodda, ammo ta’sirchan sahna vositalari orqali ifodalanib, tomoshabinga kuchli emotsiyonal va estetik ta’sir ko‘rsatishga erishilgan.

Mazkur ijodiy ish qo‘g‘irchoq konsert nomerlarining tarbiyaviy va badiiy imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, talabaning sahna tafakkuri va san’atkorlik salohiyatini rivojlantirishda samarali namuna bo‘lib xizmat qildi.

“Hayot” konsert nomerini yaratish jarayonida talaba va pedagog o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik teatr san’atidagi ustoz-shogird an’analari vositasida muhim o‘rin tutdi. Dast-

lab, nomerining mavzusi, g‘oyaviy yo‘nalishi, janri va oliv maqsadi birgalikda tahlil qilindi. Ushbu tahlil jarayonida asarning zamonaviy talqinidagi asosiy fikr, uning bunguni kun ijtimoiy-ma’naviy kontekstdagi dolzarbligi alohida e’tiborga olindi. Qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos badiiy va texnik talablari doirasida yuzaga keladigan savollar yuzasidan ustoz va talaba o‘rtasida fikr almashinuvi asosida dramaturgik yechimga aniqlik kiritildi va konsepsiya yakuniy shaklga keltirildi.

Keyingi bosqichda esa texnik ijro imkoniyatlarini hisobga olgan holda, konsert nomerining sahnaviy yechimi ishlab chiqildi. Ushbu jarayonda to‘rtta talaba qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasida faol ishtirok etdi. Asarning markaziy elementi bo‘lgan shar harakati maxsus uslubda boshqarildi. Bunda:

Bitta talaba sharning yuqori qismini ya’ni bosh qismini boshqaradi;

Ikkita talaba sharga biriktirilgan elastik rezinkani o‘ng va chap qo‘llari orqali sharning qo‘li sifatida harakatlantiradi;

To‘rtinchchi talaba esa sharning pastki qismiga ulangan maxsus shlang yordamida hayot bosqichlarini ifodalovchi dramatik pallalarda sharni shishirish va yakuniy sahnalarda havoni chiqarish vazifasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan texnik yechim planshet qo‘g‘irchoq turi asnosida maxsus tayyorlangan stolda amalga oshirildi. Sahnadagi harakat erkinligini ta’minalash uchun ikki tomonlama kirish-chiqish imkoniyatiga ega shirmalar o‘rnatildi. Ushbu shirmalar kapaliklar va boshqa qo‘sishcha atributlarning sahnaga olib chiqilishi uchun qulay makon yaratdi.

Ijodiy jarayon davomida talabalarga sahna kompozitsiyasining badiiy yaxlitligini ta’minalash bo‘yicha topshiriqlar berildi. Jumladan, nomer uchun mos musiqani tanlas-hga alohida e’tibor qaratildi. Fikr almashinuvi va musiqiy materiallarning sinchkovlik bilan tahlil qilinishi natijasida sahnaviy mazmunga mos, falsafiy ohangga ega kompozitsiya tanlab olindi.

Natijada, muntazam repetitsiyalar va puxta tayyorgarlik jarayonidan so‘ng, badiiy jihatdan mukammal, sahnaviy yaxlitlik va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan qo‘g‘irchoq estrada konsert nomeri yaratildi. Ushbu ijodiy mahsulot talabalarning texnik mahorati, badiiy tafakkuri va sahna madaniyatini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa o‘rnida yuqorida keltirilgan tahlillar va amaliy tajribalar asosida aytish mumkinki, qo‘g‘irchoq teatrida konsert nomerlari ustida ishlash talabalarning estetik didi, dramaturgik tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida o‘z o‘rniga ega. Ushbu maqolada konsert nomerlarini yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning ayrim jihatlari yoritildi. Biroq, bu masala hali to‘liq o‘rganilgan deb bo‘lmaydi.

Mazkur izlanish qo‘g‘irchoq estrada konsert nomerlarining ta’limiy, tarbiyaviy va badiiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy-amaliy tajribalardan biri hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bu yo‘nalishda yanada keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, turli metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati mavjud.

Shuningdek, konsert nomerlarining zamonaviy teatr san'atidagi o'rni, ularning yosh kadrlar tarbiyasidagi estetik-ta'sirchan kuchi, hamda innovatsion sahna texnologiyalari bilan uyg'unligi kabi yo'naliishlarda ham ilmiy izlanishlar davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu jihatdan olib qaraganda, qo'g'irchoq estrada konsert nomerlarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirish va uning tarbiyaviy-badiiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun quyidagi yo'naliishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq deb o'ylayman:

Metodik asoslarni rivojlantirish – Qo'g'irchoq konsert nomerlaridan iborat yaxlit konsert dasturlarini sahnalashtirish va pedagogik jarayonga tatbiq etish bo'yicha tizimli metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilishi zarur.

Ijodiy mashg'ulotlarni kengaytirish – Talabalarning sahna tajribasini oshirish maqsadida muntazam ravishda ijodiy laboratoriyalar va amaliy seminarlar tashkil etilishi lozim.

Zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi – Qo'g'irchoq estrada konsert nomerlarida innovatsion sahna texnikasi va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak.

Interaktiv yondashuvlarni qo'llash – Talabalarni mustaqil ijodiy fikrlashga undovchi interaktiv pedagogik uslublardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish – Xalqaro miqqosda teatr maktablari o'rtasida tajriba almashish, ilg'or yondashuvlarni o'zlashtirish va tatbiq etish dolzARB masala hisoblanadi.

Albatta, yuqoridagi tavsiyalar ushbu tomosha janrining kelgusidagi istiqbolini ta'minlovchi jihatlardan bo'lib xizmat qilsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov M. Qo'g'irchoq o'yin. – Toshkent, 1972. – B.4.
2. Ashurova M. Aktyorlik mahorati. – Toshkent, 2020. – B.140.

Oybek Qulmurodov
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi

Umida Sobirjonova
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi”
ta’lim yo‘nalishi 4- kurs talabasi

QO‘G‘IRCHOQ TEATRINING PAYDO BO‘LISH TARIXI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada *Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lish tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati*, asosan, *O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrini shakllanishi*, *tarixi haqida so‘z yuritiladi*. Respublika maqomidagi yetakchi davlat *qo‘g‘irchoq teatrini barpo etgan shaxslar va unda qo‘yilgan dastlabki asarlar haqida*, *truppaning dastlabki a‘zolari haqida ham so‘z boradi*.

Kalit so‘zlar: faoliyat, xalq, *qo‘g‘irchoqboz*, *qo‘g‘irchoq*, teatr, truppa, *davlat*, *vatanparvarlik*, xizmat, *tomoshabin*, *jahon*, spektakl, *Osiyo*, *festival*, *xalqaro*.

Abstract. The article talks about the history of the puppet theater and its current importance, mainly about the formation and history of the puppet theater of Uzbekistan. It also talks about the people who founded the leading state puppet theater with the status of the republic and the first works performed in it, as well as the first members of the troupe.

Key words: activity, people, puppeteer, puppet, theater, troupe, state, patriotism, service, audience, world, performance, Asia, festival, international.

Dunyo xalqlari madaniyati hamda xalqimiz madaniy hayotida *qo‘g‘irchoq teatri o‘zining uzoq tarixi va taraqqiyot yo‘liga ga ega*. Mamlakatimizda *qo‘g‘irchoq o‘yin deb yuritiluvchi bu san’atning ildizi qadim o‘tmish bilan bog‘liq*. *Qo‘g‘irchoq teatrining qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan va soyasi tushiriladigan turlari o‘tmishda keng tarqalgan hamda teatr tomoshalarda musiqa muhim rol o‘ynagan*. Musiqa ham badiiy bezak sifatida, ham ko‘proq qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qilgan.

Qo‘g‘irchoq teatri san’ati qadimiyligi va boy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zining yorqinligi, maftunkorligi bilan ajralib turadi. Bu san’at voqelikni *qo‘g‘irchoq personajlar orqali o‘ziga xos uslubda ba’zan jiddiy, ba’zan hazil, ba’zan esa kinoyali yo‘llar bilan lo‘nda, ravon va qiziqarli qilib ko‘rsata olish imkoniyatiga ega bo‘lgan, betakror san’at turlaridan biridir*.

Taniqli olim San’atshunoslik fanlari doktori M.Qodirov *qo‘g‘irchoq teatr tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlaridan birida: “Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak o‘yin emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir”, – deb ta’kidlaydi”*

Haqiqatdan ham o‘zbek an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri xalq ma’naviyati va badiiy tafakkurining ajralmas qismidir. Shu bois ham bu san’at ming-yillar osha rivojlanib, o‘zgarib, yangi shakl va yangi qirralar kashf etgan navqiron san’at sifatida hayotga kirib kelgan [1].

Qo‘g‘irchoq teatri aktyori rassom va qo‘g‘irchoq ustasining hamkorligida yaratilgan sahnnaviy qo‘g‘irchoqlarga “jon” bag‘ishlaydi, yurak dardini, orzu umidlarini, tabiat va jonivorlarga bo‘lgan munosabatini, Ona-Vatanga bo‘lgan mehr-sadoqatini to‘siq-shirma orqasidan turib qo‘g‘irchoq obrazlari orqali bayon etadi. Bu esa faqat shu san’at turiga xos “jonlanish” mo‘jizasidir. Xo‘sh qo‘g‘irchoq teatri o‘zi nima?

Bu savol bunday olib qaraganda mantiqsizga o‘xshab ko‘rinadi. Bu teatrda tomoshabinlar aktyorlarni emas, qo‘g‘irchoqlarni ko‘rishiadi.

1. Nima uchun sahnada jonli odamlar o‘rniga qo‘g‘irchoqlar o‘ynaydi?
2. Odamlar qo‘g‘irchoqlardan yomonroq harakat qiladimi yoki yomonroq gapiradimi?

Yo‘q, albatta, qo‘g‘irchoqning o‘rniga aktyorlar gapiradi va odamlardek hech qachon harakat qila olmaydi. Qanchalik qo‘g‘irchoq ustalik bilan ishlangan bo‘lmisin, odamning harakati va jonli mimikasi unda hech qachon bo‘la olmaydi. Qo‘g‘irchoq odamning o‘rnini egallay olmaydi. Unda qo‘g‘irchoqni nima keragi bor degan savol tug‘iladi. Bu savolga qo‘g‘irchoq teatri ixlosmandlaridan bir necha xil javoblar bo‘ldi, lekin ular ham qo‘g‘irchoq teatrining asl moxiyatini ochib berolmadi. Masalan: “Qo‘g‘irchoq teatri shunisi bilan yaxshiki, – derdi ular – u ixcham va qulay, boshqa teatr borolmagan joyga u bemalol etib bora oladi”. Bu fikr xato, chunki qo‘g‘irchoqsiz odam, qo‘g‘irchoqliga qaraganda ixchamroq.

San’at mezoni ixchamlilik bilan o‘lchanmaydi. Agar nimadir yomon bo‘lsa, u yoq-dan-bu yoqqa oson olib o‘tilishi bilan yaxshi bo‘lib qolmaydi. Yana boshqalari shunday deyishdi: “Qo‘g‘irchoq teatri bolalarga kerakligi bilan yaxshi”.

To‘g‘ri u bolalarga kerak. San’atning hamma turlari bolalarga kerak: adabiyot, musiqa, rassomlik va shulurni qatorida qo‘g‘irchoq teatri ham. Bolalarga kerak bo‘ladigan adabiyot juda yaxshi darajada bo‘lishi kerak va shuni qatorida qo‘g‘irchoq teatri ham albatta a‘lo darajada bo‘lishi kerak. Qo‘g‘irchoq teatri mezoni tomoshabin yoshini o‘l-chovchi emas, u tomosha san’atini bir turi. Uni tomoshabinga, shu qatorda bolalarga kerakligini quyidagicha isbotlab bersa bo‘ladi, qachonki qo‘g‘irchoq orqali shunday spektakllar qo‘yish mumkinki, zero xayotiy voqealarni va hodisalarini boshqa yo‘l bilan va boshqa teatr turi bilan ochib bo‘lmaydi. Jonli odam ifoda etolmagan voqeani jonsiz qo‘g‘irchoq qanday bajaradi? Uning kuchi nimada? Ajablanarligi aynan uning jonsizligida. Agar aktyor sahnada stulga o‘tirib shimini tizzasidan tortib qo‘ysa tomoshabin bunga e’tibor bermaydi. Agarda bu harakatni sahnada qo‘g‘irchoq bajarsa, hamma chappak chaladi, ularni e’tiborini tortadi, chunki qo‘g‘irchoq harakati orqali barcha ertaklar-dagi umumiyligini ifoda eta oldi.

Qo‘g‘irchoq o‘yini xalq og‘zaki ijodiga asoslangan san’at hisoblanib dastlab uning yozma matni bo‘lmagan. U uzoq-yillar kuzatish, mashq qilish, yodlash, malaka hosil qiliш orqali muayyan syujetlar vosita va uslublar bilan otadan-o‘g‘ilga, ustozdan-shogirdga o‘tib kelavergan. Qo‘g‘irchoqbozlar qo‘yillgan tomoshalar orqali jamiyatdagi il-

latlar: zo‘ravanlik, poraxo‘rlik, tekintomoq amaldorlarni qattiq tanqid qilganlar hamda zahmatkash xalqqa kulgi va zavq bag‘ishlaganlar [2].

Hozirgi kungacha “Fonus hayol” bir qator afzalliklari: teatri asbob-uskunalarining oddiyligi, ko‘rsatishning oson va qulayligi tufayli keng tarqalmoqda. Bunday teatr bolalarni estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. “Fonus hayol” teatrinda ish ham-maga topiladi birining ishi ikkinchisining ish natijasiga bog‘liq bo‘ladi. “Fonus hayol” teatri bolalarning nutqini rivojlantirishda hamda ularning so‘z boyliklarini boyitishda ahamiyatlidir. “Fonus hayol” teatrining jihozlari oddiy. Ingichka plyonkalar yordamida maxsus shirma-ekran yasaladi va u ayni bir vaqtda figura va dekoratsiyalar solinadigan chamadon rolini ham bajaradi. Agarda ekranning hajmi 50x60 sm bo‘lsa har qanday chiroq yorug‘lik manbai xizmatini bajara oladi. Bunday teatrda qog‘ozdan yasalgan dekoratsiyalar bevosita ekranga o‘rnataladi. Shakllar ekranga taqab ushlanadi. Ularning silueti shakllarning katta-kichikligi bilan bir xil bo‘ladi.

Har bir narsaning o‘tmishi va kelajagi bo‘ladi. Har qanday narsaning. Hattoki, o‘x-shamagan biron bir ishning o‘tmishi uning boshlanishi bo‘lsa, kelajagi uning tugashi, ya’ni o‘xshamaganligi, o‘zidan kutilgan natija bermaganligi bo‘ladi. Har bir ishning boshida katta kishilar bo‘lmasada, biroq, katta rejalar bo‘ladi, ulkan maqsadlar bo‘ladi. Tarix va kelajak doimo bir-biriga yonma-yon va chambarchas bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrining tarixi ham xuddi shunday. O‘tmishdagi fidokor bu soha vakillari oldidan chiqqan to‘sqliar va qiyinchiliklarga qaramasdan to‘xtab qolmadi va bu kelajakda o‘z mevasini hali hanuzgacha berib kelmoqda.

O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatri, Respublika qo‘g‘irchoq teatri – respublika maqomidagi yetakchi davlat qo‘g‘irchoq teatri. Rasman o‘z faoliyatini 1939-yil noyabr oyidan boshlagan. Ungacha Xalq qo‘g‘irchoqbozi Po‘latjon Doniyorov rahbarligida kichik truppa tashkil topgan. 1937-yil Po‘latjon Doniyorov, Tillaxon Matyoqubov, G‘afurjon Mirzarahimov va Mirzakarim G‘afurov kabi qo‘qonlik qo‘g‘irchoqbozlar bilan hamkorlikda S. Abdullaning “Saltanat” pesasini sahnalaشتirib, Moskvada o‘tgan o‘zbek san’ati dekadasida ko‘rsatgan. Davlat qo‘g‘irchoq teatriga asos solgan P. Doniyorov, S.A. Urazova, Ye.G.Podgurskayalar o‘zbek xalq qo‘g‘irchoq teatri an’analari va rus qo‘g‘irchoq teatri tajribalariga suyanganlar. Jamoa o‘z ishini bolalar teatri sifatida boshlagan bo‘lsada, Ikkinci jahon urushi davrida katta yoshdagi tomoshabinlarga ham xizmat qilgan. Vatanparvarlik mavzuidagi konsert va parodiyalar qatorida “Davron” (A.Bobojonov), “Nasriddinning sarguzashtlari” (Y. Arbat), “Ali kichkina” (G‘ayratiy), “Sirli o‘rmon” (Ye.Shvars), “Ur, to‘qmoq” (S.Preobrajenskiy) kabi xalq ommasining kuchqudrati, hayotbaxshlikni targ‘ib etuvchi spektakllar yaratildi. Teatr asta-sekin o‘zbek mualliflari bilan ishlashga ham e’tibor kuchaytira bordi. 50-yillarda yaratilgan “O‘rmonda” (G‘ayratiy), “Sehrli quticha” (R.Botirov, A.Lelyavskiy), “Ziyod botir” (N. Habibullayev), “To‘ti va Qumri” (M.Muhamedov), “O‘rmondagи hodisa” (S.Abduqahhor) kabi spektakllar shu hamkorlik samarasidir. Ayniqsa, “Aldarko‘sa” spektakli e’tiborli bo‘ldi. Jamoa spektakllardagi uyg‘unlik, qo‘g‘irchoq yasash va ularni o‘ynatish uslubini mukammallashtirish masalasiga ko‘proq e’tibor bera boshlaydi. Teatr “Rahim va qo‘ng‘iz” (A.Boboxonov, A. Qobulov), “Alijon va Valijon” (S. Abduqahhor), “Temir bola” (Yo.Xo‘jayev) va boshqalar spektakllar bilan boyidi. 1969-yil 15–20-sentabr-

da O‘rta Osiyoning Toshkentda o‘tkazilgan 1festivalida teatr “Semurg” (Zulfiya va S. Somova), “Qoyil, Chiyovjon” (Ye.Chepovetskiy) spektakllari bilan qatnashib yaxshi baho oladi. “Qirol tiktak” (Ye. Xo‘jayev), “Fotimaning sarguzashtlari” (N. Habibullayev), “Dangasaning holi voy” (L. Mahmudov), “Ovdagi hodisa” (X.Rahmatullayev va T. Mahramov) kabi spektakllar teatr izlanishlarining samarasi bo‘ldi. 1966-yil teatr qoshida 2-yillik teatrstudiya tashkil etilgan; uni tugatganlar Andijon qo‘g‘irchoq teatriga asos solganlar. O‘z yutuqlarini Birma (1972), Pokiston (1975) va Hindistonda (1977) namoyish etgan. 1976-yil Moskvada 8 ta spektakl ko‘rsatgan. 1979-yil 25-oktabrda teatr muhtasham zamonaviy binoga ko‘chdi. Bino “Oygul va Baxtiyor” (H.Olimjon dostoni, Zulfiya va S.Somova inssenirovkasi) spektakli bilan ochildi va shu-yili Osiyo mamlakatlari qo‘g‘irchoq teatrlarining 1- xalqaro festivali bo‘lib o‘tdi. Festivalda qo‘-girchoqboz S. Obrazsov ham qatnashdi.

80-yillar bosh rejissyor I.Yoqubov, bosh rassom V. Akudin, qo‘g‘irchoq yasovchi ustalar V.Sagadayeva, S.Strashnov rahbarligi hamda M.G‘ulomova, T.Mahramov, T.Rahmonberdiyev, M.Bobojonov, V.Kalyadin, V.Borisov kabi aktyorlar ishtirokida “Kul, kulaver, Oyxon” (Hamzaning “Maysaraning ishi” asari asosida), “Semurg – baxt qushi” (Zulfiya, S.Somova), “Kenja qiz” (M.Xalil), “Sehrli kiyik” (A.Qobulov), “O‘tkir shohli buzoqcha” (R.Farhodiy), “Temirchi va malika haqida ertak” (Isfandiyor) kabi rangbarang ertak spektakllar maydonga keldi. Teatr kattalar uchun ham “Xoakin Murettanining yulduzi va o‘limi” (Pablo Neruda poemasi asosida), “Kachal Polvon qildi jang – fashist xoli bo‘ldi tang” (N.Ro‘zimuhamedov), “Agent 00” (G.Borovik) kabi asarlarni sahnalashtirdi. 1988-yil Hindiston bo‘ylab ingliz va hindiy tillarida”Sehrli to‘rqovoq” (Y.Xaimov), “Fotimaning sarguzashtlari” (N.Habibullayev), “Senimi, bo‘ri, shoshmay tur!” (L.Xayt) spektakllarini namoyish etdi. “Paxtaoy” (V.Borisov), “Nasriddinning 41 pashshasi” (Z.A’lam), “Sehrli harflar oroli” (H.Imomberdiyev) kabi yangi spektakllar sahnalashtirildi.

Mustaqillikdan so‘ng teatr yangi ijtimoiy sharoitda bolalarga xizmat qilishdan tashqari mamlakatimizda boshqa endi shakllana boshlagan qo‘g‘irchoq teatrlariga yaqinidan yordam berdi. “Karvonsaroy” (I.Lukyanova), “Ur, to‘qmoq” (S.Preobrajenskiy), “Baxt axtargan Hasan” (Ye.Speranskiy), “Chodir jamol” (Sh.Yusupov), “No‘xot bola” (H. Imomberdiyev), “Issumbosi” (yapon ertagi asosida N. Normatov va Sh.Yusupov pesasi) va boshqalar spektakllar an‘anaviy teatr vositalari asosida yaratildi. “Alpomish” dostonining 1000-yilligiga bag‘ishlangan “Qanotli odamlar” (N.To‘laxo‘jayev), Navoiy yubileyiga atab “Lison uttayr” (X.Rasul), “Shum bolaning sarguzashtlari” va “Yana Andersen” (G‘.G‘ulom va G.Andersen asarlari asosida) va boshqalar – keyingi-yillar mahsuli. Samarqand festivali (1991, 2000), shuningdek,Turkiya (1994), Pokiston (1994, 1996, 2004) va Misrda (2004) o‘tgan xalqaro festivallarda, AQSH, Germaniya, Rossiya va boshqalar mamlakatlarda o‘zining eng sara asarlarini namoyish etdi. Teatr 2 til (o‘zbek, rus) da ijod qiladi. Jamoa UNIMA (Xalqaro qo‘g‘irchoq teatrlari ittifoqi) ning a’zosi. Qo‘g‘irchoq ustalaridan V.Sagadayeva, L. Yureva, N.Mirzaahmedova, butafor – R.Ibrohimova, aktyorlardan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist M. Egannazarova, K.Jabborova, E.Mirzohidov, R.Dehqonboyev, G.Xoroshovseva, V.Yusupova, N.Ustyukina, G.Borodin, rejissyor D.Yo‘ldosheva kabilarning xizmatlari alohida.

Teatrning bosh rejissyori – Maryam Ashurova, bosh rassom – M.Ivanyan [3]. Aktyor sahnada boshqa odamni obrazini yaratadi, lekin umumlashgan odamni bir vaqtida bir harakat bilan yaratish qo‘lidan kelmaydi, chunki u shundoq ham odam. Qo‘g‘irchoq esa odam emas, shuning uchun umumlashgan xarakterdagi odamni ifoda etoladi. Masalan: yoshgina qiz juda go‘zal bo‘lishi mumkin, lekin bu uning shaxsiy go‘zalligi va shaxsiy yoshligi.

Rassom yoki xaykaltarosh tomonidan yaratilgan qiz ham go‘zal, yosh, lekin bu yoshlik, go‘zallik ko‘plab qizlarniki umumlashgan ifodasi bo‘lishi mumkin, chunki u jonsiz. Qo‘g‘irchoq – jonli narsani plastik ifodasi – inson, bug‘u, kaptar va h.k. Qo‘g‘irchoq – bu skulptura. Aktyor shu yasalgan jonsiz narsani (skulpturani) jonlantiradi, jon ato etadi. Jonlantirish jarayoni – jonsiz narsani jonlikka aylantirish -tomoshabin uchun mo‘jiza, xoh u tomoshabin katta yoshda bo‘lsin, xoh yosh bola.

Bu mo‘jiza – qo‘g‘irchoq teatri san’atini, harakatsiz statik tasviriy san’atdan, dinamik tomoshaviylici bilan ajratib turadi. Bu jonlanish mo‘jizasi qo‘g‘irchoq teatri san’atini, boshqa tomoshalardan farqlanib turadi, chunki “jonli teatrda” jonlanish emas, katta yangi obraz yaratish (perevopplashenie) protsessi bo‘ladi.

Qachonki, qo‘g‘irchoq, berilgan shart sharoitga to‘liq ishongan, shu jonlanish mo‘-jizasidan o‘zi lazzatlangan aktyorni qo‘lida bo‘lsa, shunda tomoshabinga bo‘lgan qo‘-g‘irchoqni emotSIONAL ta’siri juda kuchli bo‘ladi. Shunda tomoshabinda ham xayratlanish, xursandchilik, turli yangiliklar, har bitta harakatni kuzatib borish, hayajon, kulgu va nafasni ichiga yutib kuzatish holatlari paydo bo‘ladi. Ana shunisi bilan qo‘g‘irchoq teatri buyuk qudratga egadir. Agarda san’atni maqsadi yuzaki bo‘lsa, unda aktyorni mo‘jizasi ko‘zbo‘yamachilikka o‘tadi. Bu san’atni umri qisqa va hech qanday tuyg‘u va hissiyotlarni uyg‘otmaydi. Chunki jonlangan qo‘g‘irchoq bu ko‘zbo‘yamachilik (fokus) emas, obrazni tug‘ilishi. Obrazni yaratishi – bu bir qancha xarakterlarni, insoniy xususiyatlarni umumlashgani va shu xarakterlarni to‘qnashuviga keng, keskin, hayajonli umumiylilik paydo bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq hayotdagi kamchiliklarni keskin fosh etib, odamlarda kulgu va g‘a-zab uyg‘otadi. U – komediya, fars, satira janrlari ustidan xukm suradi va o‘zining ijodiy tarixida bu janrlarda o‘z kuchini ko‘rsatgan. Qo‘g‘irchoq turlari xilma-xil bo‘ladi, bir xillari mushukka o‘xshash yumshoq va mayin, tog‘ga o‘xshagan qomatli, burgutga o‘xshagan shiddatli bo‘ladi, umumlashtirib va oldinga qo‘yilgan g‘oyani ifoda etadi. Qo‘g‘irchoqlar tragik va romantik qahramonlarni o‘ynagan. Hatto o‘rta asr man‘balari xudolarni ham ifoda etgan. Ana shunday ifoda vositalarini o‘zida mujassamlash-tirgan san’at dargohi qo‘g‘irchoq teatridir. Qo‘g‘irchoq teatrda umumiylikni bir obraz orqali aniq ifodasi topilsagina u chinakam teatr bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatrining ifoda vositalaridan biri so‘zdir. So‘zni qo‘g‘irchoq xatti-harakati bilan uyg‘unlikda olib borish joiz. Ammo so‘z darajasiga yetguncha qo‘g‘irchoq teatri sahnaviy nutqi qoidalari, tamoyillarini o‘zlashtirishi kerak. Har bir qo‘g‘irchoq personajga nutqiy o‘zgacha yondashish amallariga e’tibor qaratish kerak.

Ta‘lim muassasalarida ko‘ngil ochish soatlarida quyidagi teatr turlaridan foydalanilar.

1. Soya teatri.
2. Stol teatri.
3. Barmoq teatri.
4. Paxmoq teatri.
5. Qo‘lqopli qo‘g‘irchoq teatrı

Soya teatri-qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos turlaridan hisoblanadi. Unda qo‘g‘irchoqlar emas balki, shakllardan iborat o‘yinchoqlar ishtirot etadi. Tomosha qiluvchilar sahna ro‘parasida o‘tirib ekranda yorug‘lik orqali harakatlaniyotgan soyalar, odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko‘rishi mumkin.

Stol teatri. Stol teatrining bir necha turlari mavjud. Bu teatrlardagi aktyorlar jism-larni qo‘l bilan tagliklar sim magnit orqali turlicha harakatga keltiradi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir. Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi. So‘ngra unga mos personajlar tayyorланади. Jonivorlar shakllarini bolalar rasmlı ertak kitoblardan kal’kaga ko‘chirishlari mumkin. Kal’kadagi rasmni nusxa qog‘oz yordamida ikkita oq qog‘ozga tushiriladi.

Barmoq teatri qahramonlarini qog‘ozdan yasash mumkin. Bu kichik konus va silindr shaklidagi barmoqqa kiyish uchun yasalgan. Qog‘ozdan odam, hayvonlarning kichik shaklda barmoqqa tasvirini taylorlab uni barmoqqa qog‘ozdan uzuk shaklida yasalgan qog‘oz halqaga yelimlab, barmoqqa kiyib olinadi. Teatr qahramonlarini kichik qutichalardan ham yasash mumkin. Qutichalarning tag tomonidan barmoqni kirgizish uchun joy taylorlab qutichaga xohlagan qiyofa berish mumkin. Qutichaning qulay tomonidan barmoq sig‘adigan kichik teshikcha qilib qo‘yiladi, masalan gugurt qutichasidan, kublardan, dumaloq shakldagi qutichalardan va boshqalardan. Barmoq teatri uchun turli xil gazlamalardan foydalanish ancha keng tarqalgan. Bunda gazlamaning sitilib ketmay digan xili tanlanadi va uning teskari tomonidan tikib so‘ngra o‘ngigi ag‘dariladi, qolgan joyi tugib chiqiladi. Bolalarga andazaning teskari tomonidan tikishni, ko‘z, qosh, burun, og‘iz kabilarni tikish yoki yopishtirish kerakligini aytib, ularni bajarishga undash mumkin. Bolalar mustaqil soch, jiyak, lenta va to‘rdan bezaklarni o‘zлари tikadilar.

Qo‘lqob qo‘g‘irchoqlar (barmoqsiz qo‘lqob). Eski qo‘lqobcha, qo‘lqob qo‘g‘irchoqlarni yasash uchun ashyo bo‘la oladi. Bunday o‘yinchoqlarni ham bolalarning o‘zлари yasashlari mumkin. Qo‘lqob qo‘g‘irchoqning bosh qismi, katta barmoq esa, burun bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘lqobni to‘liq hayvonga aylantirib olish ham mumkin, bunda katta barmoq dum vazifasini o‘taydi. Qo‘lqob qo‘g‘irchoq tanasi bo‘lishi, unga bosh va boshqa detallarni biriktirish ham mumkin. Qo‘lqob topilmasa, unda to‘qilgan eski buyum yoki matodan foydalanamiz. Bunda beshta barmoq o‘rnini bichish shart emas, turli detallar unga tikib qo‘yiladi.

Pahmoq teatri. Pahmoq teatrining tuzilishi va jihozlari. Ma’lumki, bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida turli o‘yinlar va teatrlashtirilgan tadbirlarning ahamiyati kattadir. Bunda stol ustida o‘ynaladigan o‘yinchoqlar qo‘g‘irchoqlar keng foydalilanadi [4].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalarga teatr qo‘yishdan maqsad bolalar ongigi milliy urf-odatlarimizni, an‘analarimizni singdirishda ularga shu aziz vatan barchamiz-niki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda, teva-

rak-atrofda bo‘layotgan voqea hodisalarni, o‘zining adabidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab-avaylash, unga mehr uyg‘otishda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati kattadir. Chunki teatrda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko‘rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi: darslik / M.Qodirov, S.Qodirova. – Toshkent: Niso poligrag, 2019.
2. Ashurova M. Mehrdan yaralgan olam. – Toshkent: Zamon poligraf, 2018
3. Mo‘minova M. Bolalik dunyosida ezgulik uyg‘otib yoxud qo‘g‘irchoq teatridan katta teatr sari. – URL:Yuz.uz. – 2021-yil 09-noyabr.
4. Mamatqulov B. Bolalarни tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati // Oriental Art and Culture. – 2022. – Volume 3, Issue 1.
5. Hayitbayev SH. Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti, 2007.
6. Turdiyeva I. Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari. – Toshkent: Zamon poligraf, 2015.

Dilfuza Riskiyeva
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi

ZAMONAVIY VIRTUAL JAMIYATDA BOLA TARBIYASIDA QO‘G‘IRCHOQ TEATRLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Bul maqalada qazirgi zamanǵy balalar biliminiń jetistikteri men kemshilikteri, qazirgi zamanǵy telekomýnikasiyalıq quraldardyń bala tárbiyesindegi róli men mańyzy, qýyrshaq teatrlarynyń balalardyń sanasynda ulttyq qundylyqtardy tárbieleyéde qandai mańyzy bar ekendigi týraly aitylady.

Kalit so‘zlar: qarym-qatynas, teatr, spektákl, qýyrshaq, ertegi.

Abstract. This article describes the achievements and shortcomings of modern children’s education, the role and importance of modern telecommunications in children’s education, and the importance of puppet theaters in educating children of national values.

Keywords: communication, theater, performance, puppet show, fairy tale.

Bugungi XXI asrga kelib zamonaviy virtual reallik ommaviy madaniyatining asosiy quroliga aylanib insoniy munosabatlar ziddiyatlar kelib chiqishiga, insonlarni manqurtga aylantirishi, jangarilik, behayolik buzuqlik, va vahshiylilikni targ‘ib qilinishi va oddiy holatga aylanshi shu qadar rivojlandiki, go‘yo kashf qilinmagan yangilik, yaratilmagan ixtiro qolmadı. Hozirgi zamonning eng asosiy muammolaridan biri hayotning virtuallashib borayotgani va bu narsa ayniqsa, yoshlar hayotida yaqqol ko‘zga tashlanayotganidir. Eng kichik yoshdagı bolalar ham ijtimoiy tarmoq nima ekanligi, undan qanday foydalanish mumkinligini biladi. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan kunda o‘sib kelayotgan yosh avlod bola tarbiyasi masalasi har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Xo‘sh xozirgi o‘sib kelayotgan yosh avlodga kimlar tarbiyani bermoqda? Tarbiya bizdan ko‘p narsalarni talab qiladi. Masalan, vattanni sevmoqlikni, oila muqaddasligini va o‘zidan kattalarni xurmat qilishlikni chuqur anglash kerak.-yillar bir-biriga o‘xshamasligi, avlodlar esa o‘zgarishi mumkin. Ammo yurakdagı mehr-muhabbat hech qachon o‘zgarmaydi. Muhabbat bu-avvalo inson o‘ziga ishonishi, o‘zini hurmat qilishi uchun ham jasorat talab qiladi. Farzandlar o‘z-o‘zidan katta bo‘lib qolmaydi ularga tarbiya, bilm, kiyim, oziq-ovqat, uy-joy zarur. Shuningdek, albatta ta’lim olishi uchun sharoit kerak. Afsuski, hozirgi kunda ular uchun qo‘1 telefoni zarur deb hisoblashadi biroq bolaga e’tibor kerak, telefon emas ammo farzandlar tarbiyasi uchun eng muhimi insoniy samimiyat va ota-onaning e’tibori va mehr-muhabbatidir. Shunday me’yorlar mavjudki ularni o‘zgartirish mumkin emas. Bu insonning biologik xususiyatlari hisoblanadi. E’tibor berilsa, o‘zbek xalqida tarbiya masalasi azaldan muhim ahamiyat kasb etib, bolaning ota-onasi, bobo-buvilari, aka, opa, ammo, xola, tog‘a, amaki, qo‘ni-qo‘shni, mahalla hamma birdek mas’ul bo‘lgan.

Qayerdadir nojoiz ish qilib turgan bolaga ko‘chadan o‘tib ketayotgan har qanday odam nasihat qilgan, tanbeh bergen.-yillar davomida shakllangan urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar zamirida tarbiya masalasi birlamchi omil sifatida qaralgan. “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan maqolning tom ma’nosida ham bola tarbiyasi va uning istiqboli yotadi.

Bolaning dunyoqarashi, uning shaxs sifatida rivojlanishi, ularni ota-bobolardan meros bo‘lib qolgan boy madaniyatimiz, urf-odat va an’analarimiz ruhida tarbiyalash masalasi kun tartibiga qo‘yilar ekan, bugun ota-onasini vazifasini ko‘p hollarda televizor ekraniga, qo‘l telefoni, ijtimoiy tarmoqlar bajarmoqda. Bolalar G‘arb qadriyatlari singdirilgan xorij multfilmlari, fantastik obrazlar bilan boyitilgan turli kompyuter o‘yinlari girdobiga tushib qolmoqda. Chunki, bolalar sahnadagi jonli tomoshalardan – teatr dan yiroqlashmoqda. Teatr san’ati hayotni turli voqeа-hodisalar, turli kurash va ziddiyatlar, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Aksariyat bolalar ana shu hissiyotlardan bebahra ulg‘aymoqda.

Shu o‘rinda ayrim misollarga e’tibor qaratamiz. Har-yili yangi-yil tomoshalari paytida bolalarga mo‘ljallangan yangi-yil sarguzashtlarining bosh qahramonlari asosan rus xalq ertaklaridan olingan. Qorbobo, qorqiz, yalmog‘iz kampir, qor malikasi, qizil qalpoqcha va boshqalar. Shu o‘rinda savol tug‘iladi? Yangi-yil tomoshalarida qachon o‘zbek xalq ertaklari qahramonlari asosiy planda namoyon bo‘ladi? Bolalar “Alpomish”ni qachon taniydi? Nasriddin Afandi obrazi orqali yangi-yil tomoshalarini tashkillashtirish mumkin emasmi? Toshkent shahar hokimligining telegram kanalida yoritilgan xabarga ko‘ra, bolalar uchun yangi muzey foydalanishga topshirilgan. Xabar da “Pashsha-Oyposhsha bilan tanishuv”, “Yalmog‘iz kampir bilan do‘stlashish”, “Qizil qalpoqcha bilan ko‘rishish”, “Buvijon uyida mehmon bo‘lish”, “Zumrad va Qimmat” interaktiv o‘zbek xalq ertagini tinglash mumkinligi aytildi. “E’tibor qilsak, muzeyda asosan rus xalq ertaklari va qahramonlari aks etgan. Eng qizig‘i muzey nomi ham rus tilida “Skazka za skazkoy”!” [1]. Demak, rus xalq ertaklari qahramonlarini ko‘rib ulg‘aygan avlodning Ona Vatanga muhabbati ham savol ostiga qoladi. Shuning uchun bolalarga mo‘ljallangan yangi-yil tomoshalarida milliy qahramonlarni asosiy planga olib chiqish taklif etiladi. Masalaning boshqa tomoni ham borki, bunday tomoshalar ikki tilda olib boriladi. O‘zbekistonda barcha millat va elatlarga bag‘rikenglik asosida munosabat bildiriladi. Ammo, bayram tomoshalarini bir tilda olib borish, tomoshalar reklamasida tomosha qaysi tilda bo‘lib o‘tishini yozish majburiy talab sifatida qo‘yilishi kerak. Bu chipta xarid qilgan iste’molchi huquqlari buzilishiga ham olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston aholisi tobora o‘sib, salkam 40 millionga yaqinlashdi. Bolalar tug‘ilishi va ularning soni ham ko‘tarildi. Maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratilib, davlat maktabgacha ta’lim muassasalari bilan birga, xususiy MTTlar, uy bog‘chalari tashkil etildi. Bolalar muktab yoshiga yetguniga qadar muayyan bilimga ega bo‘lishi ularning ertangi kuni uchun poydevor vazifasini bajaradi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bu masalaga alohida e’tibor qaratadi.

O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrlarining asosiy tomoshabini maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hisoblanadi. Xo‘sish,

O‘zbekistonda ular uchun nechta qo‘g‘irchoq teatri ishlamoqda? Mamlakatning ayrim hududlaridagina qo‘g‘irchoq teatri mavjud. Poytaxtda ham bitta qo‘g‘irchoq teatri bor. Dunyo standartlari bo‘yicha bola soniga nechta teatr to‘g‘ri kelishi kerak. Qo‘g‘irchoq teatrlari kamligi bu alohida masala. Ammo, qo‘g‘irchoq teatrlariga bormayotgan necha minglab bolalar bor. Ular asosan kabel telekanallari va internet tarmog‘i orqali xorij qahramonlari ishtirokidagi mulfilmlarni tomosha qilishadi. Bola qo‘g‘irchoq teatrga bormasa, o‘zini milliy qahramonlar qiyofasida ko‘rolmasa o‘z millatiga havas va mehr qayerdan uyg‘onadi. Shulardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- O‘zbekistondagi barcha maktabgacha bo‘lgan ta’lim tashkiloti rejasiga har oyda kamida bir yoki ikki marta qo‘g‘irchoq teatrlari tomoshasini kiritish;
- Dunyo standartlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrlari sonini ko‘paytirish;
- Bolalar teatrlarida faqat spektakl emas dramaturgiyaga qurilgan estrada konsert shoularini ko‘proq tashkil etish
- Viloyat qo‘g‘irchoq teatrlani qaytadan zamonaviy texnik uskunalar bilan ta’minalash;
- Qo‘g‘irchoq teatrlarini zamonaviy repertuar bilan boyitish;
- Hududlarga borish uchun qo‘g‘irchoq teatrlari aktyorlari uchun rag‘bat tizimini joriy etish joiz.

Xulosa qilib aytganda, o‘sib kelayotgan avlodni milliy ruhda tarbiyalashning muayan chora-tadbirlari ishlab chiqilib, yagona Davlat dasturi yaratilishi zarur. Qo‘g‘irchoq qiyofasidagi milliy ertak qahramonlariga havas orqali Ona Vatanga va millatga muhabbat paydo bo‘ladi, hamda bolalar tarbiyasida katta o‘zgarish seziladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://uz.wikinlu.ru/wiki/puppetry>
2. <https://yuz.uz/uz/news/bolalik-dunyosida-ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari>
3. <https://azon.uz/content/views/bu-muzey-kim-uchun-yohud-alpomishni-tani>

Dilfuza Riskiyeva
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi

Erkinov Og‘abek
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr rejissyorligi”
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORLARIDA NUTQ TEXNIKASI

Annotation. Ushbu ilmiy maqolada qo‘g‘irchoq teatrida sahna nutqining o‘rnini va ahamiyati haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: spektakl, qo‘g‘irchoq, teatr, san’at, sahna nutqi, ovoz, aktyor.

Abstract. This scientific article examines the role and significance of stage speech in the puppet theater.

Keywords: performance, puppet, theater, art, stage speech, voice, actor.

Teatr san’ati bu eng qadimiylaridan biridir, u o‘ziga xos xususiyatlarga va boy rivojlanish tarixiga ega, buning natijasida bu san’at turi hali ham ko‘plab tomoshabinlar nigohidan e’tiborsiz qolmaydi. Teatr san’at turi sifatida uning asarlarida san’atning boshqa turlarida mavjud bo‘lmagan noyob fazilatlarga ega bo‘lish imkonini beruvchi o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Teatr kichik tomoshabinga, ijodini boshlagan yoshlarga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan teatrlarning eng kichigi bo‘lmish qo‘g‘irchoq teatri hisoblanadi. Qo‘g‘irchoq teatri san’atining ajralmas turlaridan biridir. Qo‘g‘irchoq teatri bu bolalar hayotining dastlabki bosqichida tanishadigan san’at va bolalarning sevimli tomoshasidir. Qo‘g‘irchoq shouulari, tomoshalari barcha yoshdagи bolalarga yorqin, unutilmas laxzalarni taqdim qiladi va bu ajablanarli emas, chunki bolalar uchun qo‘g‘irchoq teatri – bu har daqiqada mo‘jizalar sodir bo‘ladigan ertaklar va sehrgarlar olamiga tashrif buyurish imkoniyatini beradi. Qo‘g‘irchoq teatri spektakllarida qo‘g‘irchoq personajlari qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari tomonidan harakatga keltiriladi.

“Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak o‘yin emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriyligi san’ati va albatta, tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy hodisadir”, – degan edi teatrshunos olim Muhsin Qodirov. Shu fikrga qo‘shilgan holda shuni aytish mumkinki, insonga nafosat tuyg‘usini singdirib va murg‘ak qalbiga ezgulik urug‘ini sochishda, yosh avlodning estetik tarbiyasi, ongi va tafakkurini o‘stirishda, qolaversa, ularga milliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, chinakam vatanparvarlik xislatlarini singdirishda qo‘g‘irchoq teatrining o‘rnini beqiyosdir. Albatta, yosh avlodning tarbiyasi biz uchun juda muhim. Shuning uchun ham jazzi murg‘ak qalblarni kelajakka to‘g‘ri yo‘ldan boradigan va xalqiga vafodor, ota-onaga mehribon, haqiqiy ajdodlarga yetuk va bilimli,

dunyoqarashi keng farzand bo‘lmog‘i darkor. Chunki ular bizning davomchilarimiz va kelajagimiz, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi globallashuv davrida asosiy tomoshabinlari bolalardan tashkil topgan qo‘g‘irchoq teatrining kelajagini yangi, innovatsion texnologik o‘zgarishlarsiz rivojlanadi, deyish mushkul. Chunki bugungi tomoshabinni o‘tmish qo‘g‘irchoq personajlari bilan qiziqtirish anchayin mushkulligi barchamizga ma’lum. Zero, qo‘g‘irchoq teatri turdoshlari orasida eng murakkab tur bo‘lib, bunda aktyor bilan qo‘g‘irchoq uyg‘unlashadi va obraz yaratilishida qo‘g‘irchoqning o‘ziga xos tuzilishi, yasalish texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyor esa ularni harakatga keltirish, boshqarish va ularning o‘rniga so‘zlash asnosida, tomoshabinlar nigofiga ko‘rinmasligi lozim. Bir so‘z bilan aytganda “Qo‘g‘irchoqboz bamisoli mo‘jizakordir” [1], – deb yozadi M.Qodirov. Aynan mana shu xususiyatdan qator maxsus texnik vazifalar kelib chiqadi. Bu – imkoniyati keng teatr qo‘g‘irchog‘ini yaratish masalasidir.

Dunyo xalqlarining adabiyot namoyandalari yaratgan asarlarini sahnalashtirib, yosh tomoshabinlarimizga ma’naviy ozuqa berayotgan serg‘ayrat kasb jonkuyarlari – bu qo‘g‘irchoq teatri zahmatkashlaridir. Mana shunday zahmatkashlardan sanalgan qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarining bugungi kundagi nutq texnikalariga biroz to‘xtalib o‘tmoqchiman. Bugungi kunda barcha aktyorlarimiz sahna nutqi metodikasini bir xil uslubda o‘rganib kelmoqda, lekin bir narsaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Bar-chamizga ma’lumki, ixtisoslashtirilgan san’at maktabi va O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida hamda filiallarida estrada aktyorligi, musiqali teatr aktyorligi, dramatik teatri va kino aktyorligi va qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi ta’lim yo‘nalishlari ga tajribali professor-o‘qituvchilar tomonidan tahsil berib kelinmoqda. Lekin barcha aktyorlik san’ati yo‘nalishlarida sahna nutqi bir xil dasturda o‘qitilmoqda. Men shuni aytmoqchimanki qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi ta’lim yo‘nalishiga Sahna nutqi fani das-turini qo‘g‘irchoq teatri san’atining spetsifik jihatidan kelib chiqqan holda o‘zgartirish lozim. Misol uchun dramatik teatr aktyorlari sahnada tomoshabinga qarata so‘zlashi yoki bo‘lmasa o‘zini yoshidan, ko‘rinishidan kelib chiqib o‘ziga mos rolni ijro etishlari mumkin. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorida esa bunday imkoniyatlar mavjud emas.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyori yoshi, jinsi va ko‘rinishidan qatiyy nazar har qanday rolgaga kirisha olishi va uni puxta egallashi kasb etadi. Dramatik teatr tomoshabinlari katta yoshdagagi tomoshabinlar hisoblanadi ular so‘zlarni aniqroq eshitmay qolgan taqdirda ham anglab olishlari mumkin bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatri tomoshabinlari esa kichik yoshdagagi tomoshabinlar bo‘lganligi bois ularga aniqroq, tushunarliroq va bolalarcha til bilan yetkazmasa, ular aktyorlar nima deyayotganini osonlikcha anglab olishlari mu-rakkab bo‘ladi. Dramatik teatrarda yana bir jihat shundaki, aktyor sahnadagi ijrosini to‘g‘ridan to‘gri tomoshabinga yo‘naltiradi.

Qo‘g‘irchoq teatrinda esa, aktyor o‘zidan qo‘g‘irchoqqa, ana undan keyin esa tomoshabinga yetkazadi. Hozirgi zamon sahna nutqi metodlari so‘z boshida aytganimday har qanday aktyorlar uchun bir xil uslubda. Lekin qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari uchun alohida uslub va metodlar yaratilishi lozim. Sababi qo‘g‘irchoq teatri aktyorini oldida teatr shirmasi turishi, aktyor ovozini qaysi tomonga yo‘naltirsa, tomoshabinga aniqroq va tushunarliroq yetib borishi, tepaga, yonga yoki pastga bularni barchasi sahna nutqi

darsligida to‘la to‘kis o‘tilishi kerak. Shunday paytlar keladi qo‘g‘irchoq teatri aktyori sahnada predmet, meva, sabzavot yoki turli xil hayvonlar rollarida namoyon bo‘lishlari va bu rollarni yuqori darajada ijro etish uchun bolalar she’riyati, meva sabzavotlar she’riyati, predmetlar ovozi, har xil tovushlarni, masallar va monologlar bo‘limiga kelganda esa albatda qo‘g‘irchoq asarlaridan ijro qilib bu jarayondan o‘tishlari talab etiladi. Bir vaqtlar qo‘g‘irchoq teatrlarda ham ovozni yo‘lga qo‘yish darslari toshkil etilgan. Sahna nutqi va nutq texnikasi ham anashunday bo‘lib qo‘g‘irchoq teatrlarida o‘tilishi kerak deb hisoblayman va bo‘lajak qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari aynan qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari uchun mo‘ljallangan sahna nutqi xrestomatiyasi yangi metodlarida o‘qitilishi tarafdoriman. “Teatr tomoshabinni tarbiyalamaydi – tarbiyali tomoshabingina o‘zi teatrga boradi. Teatrga tomoshabin spektakl ko‘rgani emas, qahramonlarga hamdard bo‘lgani keladi...”, deb ta‘kidlagan edi davrimizning yetuk rejissorlaridan biri marhum Bahodir Yo‘ldoshev. Bu fikrlarga shuni qo‘sishimcha qilamizki, kichik yoshdagi tomoshabinlar ham san’at darajasidagi spektakllarni ko‘rib ulg‘ayishsa, kelajakda, albatta, tarbiyali tomoshabinlar qatoridan joy olishadi. Bir so‘z bilan aytganda, qo‘g‘irchoq teatri san’atining rivojlanib, taraqqiy topishi uchun har bir ijodkor fidokorona mehnat qilmog‘i darkor. “Qo‘g‘irchoq aktyor bilan emas, aktyor qo‘g‘irchoq bilan” [2], deb yozadi rus olimi N.Simirnova.

Aktyor bo‘laman degan inson bor ekanki oliygohdandan keyin ham teatrlarda sahna nutqini muntazam ravishda o‘rganib, davom ettirilishi kerak bo‘lgan jarayonlardan biridir. Sababi, bu darslar, ya’ni sahna nutqi va plastika mashg‘ulotlari muntazam mas-hq qilish va takrorlashni talab qiladi. Institutdagi jarayonlar ham teatrlarda o‘tkazilishi kerak. “Umringiz davomida yashang va butun umr o‘rganing”, degan ibora ham bejiz aytilmagan. Albatta, bu kasbning yanada rivojlanishi uchun aktyor o‘z ustida tinimsiz ishlashi kerak. Buning uchun aktyorning imkoniyati va shunga mos ravishda yetarli sharoit bo‘lishi kerak. Teatrlar esa bunga sharoit yaratmog‘i lozim.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 58 b.
2. Simirnova N.I. Iskusstvo igrayushix kukol. – Moskva: Iskusstvo, 1983. –125 c.
3. Qodirov M.X. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent:Fan, 1993. – 103 b.
4. Ashurova M. Qo‘g‘irchoq teatrining aktyorlik maktabi:darslik. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo,2020.
5. Yusupova V. Кукловожение. Работа с перчаточной куклой. – Ташкент: Innovatsiya-Ziyo,2020
6. Qodirov M. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi:Talqin nashriyoti / Qodirov M., S.Qodirova. – Toshkent, 2006.
7. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – Toshkent:O‘qituvchi, 1981. – 58 b.
8. Симирнова Н.И. Искусство играющих кукол. – Москва: Искусство, 1983. – 125 c.

Lola Usmanova

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan teacher

THE IMPORTANCE OF OBSERVATIONS OF NATURE AND THE ANIMAL WORLD FOR A PUPPET THEATER ACTOR

Abstract. Just as puppet masters have drawn inspiration from the surrounding world, Modern puppeteers must also harness the power of keen observation to improve their craft. This article discusses the importance of observing nature and the animal world for a puppet theater actor.

Keywords: observation, puppet character, imitation, behavior.

Annotatsiya. Qo‘g‘irchoq ustalari atrofdagi dunyodan Ilhom olgani kabi, zamonaviy qo‘g‘irchoqlar ham o‘z hunarlarini yaxshilash uchun qattiq kuzatish kuchidan foydalanishlari kerak. Ushbu maqolada qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun tabiat va hayvonot dunyosini kuzatishning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kuzatish, qo‘g‘irchoq xarakteri, taqlid, xulq.

Studying the world of nature and animals plays a crucial role in developing puppetry skills, especially in shaping the puppet’s character and movement. Just as great puppet masters have drawn inspiration from the surrounding world, modern puppeteers must also use the power of keen observation to enhance their craft. By studying the complex movements of animals and the natural environment, puppeteers can infuse their works with realism, life, and character. The puppet theater, by its very nature, is aimed at imitating life. Whether the puppet represents a human, an animal, or an abstract concept, the performer must first understand the essence of the life they are trying to portray. Nature offers a vast array of patterns, behaviors, and gestures that can be incorporated into puppet performance. From the flight patterns of birds to the delicate interaction between plants and wind, every element of the natural world can inspire puppet design and movement.

The strongest connection between nature and puppet theater lies in the portrayal of animals. As living creatures, animals perform a variety of physical movements and express emotions that are crucial for portraying their essence on stage. At the same time, nature also encompasses environmental factors such as wind, light, shadows, and textures that can influence puppet creation. The more a puppeteer understands and assimilates these influences, the more vivid and expressive their puppets will become.

Observation is one of the most powerful tools a puppeteer can use for development. To create realistic and convincing puppet performances, the ability to not only observe the precise physical movements of animals or natural phenomena but also to understand the subtle emotional and psychological signals behind those movements is essential.

The following key points emphasize why observing animals and nature is so important for puppeteers:

Emotional Expression: Just like humans, animals express their emotions through body language. By studying how animals display joy, sorrow, aggression, or fear, a puppeteer can mirror these emotions in their puppets, making them more lifelike and relatable. For example, a cat might express excitement by flicking its tail or twisting its body, and understanding these subtle signs helps create a performance that resonates emotionally.

Movement Patterns: Every animal, from the smallest insect to the largest mammal, has a unique movement pattern. Some animals, like cheetahs, move swiftly and gracefully, while others, like sloths, move slowly and deliberately. Learning to capture these movement styles allows the puppeteer to replicate the essence of the animal's behavior in puppet form.

Subtlety and Detail: Careful observation of nature helps puppeteers appreciate the importance of nuance and subtlety in their movements. Puppet movements don't always need to be exaggerated or dramatic; small, understated actions often convey more meaning than large gestures. These subtleties can be found in how birds land, how leaves rustle in the wind, or how an animal shifts its gaze.

Character Creation: Every animal has its own distinct personality and character traits, which influence its behavior and movements. By observing these traits, a puppeteer can imbue their puppet with a sense of individuality. For instance, the graceful movements of a deer might inspire a puppet with an elegant character, while the playful antics of a squirrel could lead to a puppet with a lively and mischievous personality.

Understanding Balance and Coordination: Animals offer valuable lessons in balance and coordination. A bird in flight, a lion chasing its prey, or a fish swimming in the water—these all demonstrate the remarkable control of the body. By observing how these creatures maintain balance and mobility, a puppeteer can apply these principles to their puppet's movements, ensuring a natural and well-coordinated appearance for the character.

When drawing inspiration from animals, it is helpful for the puppeteer to focus on the specific types of movements unique to each species. Below are a few examples of how different animals' movements and characteristics can influence puppet performance:

Birds: Birds are a source of inspiration due to their lightness, fluidity, and variety of movements. They can be observed in flight, gliding, or hopping on the ground, pecking or jumping. To create a bird character, the puppeteer should study the movement of wings, head turns, and how the bird shifts its body weight. The delicate, weightless nature of bird movement can be translated into puppet gestures, with the head tilting to express curiosity or alertness.

Mammals: Mammals such as cats, dogs, horses, and elephants are rich sources of inspiration for puppet movement. Each mammal has its own distinctive posture, gait, and interaction with the environment. For instance, a dog wagging its excited tail or a cat's cautious, measured walk can be replicated through puppetry techniques to express specific emotions. Additionally, mammals often engage in social behaviors, such as grooming or playing, which can be portrayed in puppet interactions with other characters.

Insects: Although small, insects offer a wide range of movements that can add complexity to puppet performances. The delicate, precise movements of a butterfly's wings or the swift, nimble actions of an ant can contribute intricate details to a puppet show. Puppeteers can focus on how insects use their antennae to sense their environment or how a spider spins its web with deliberate movements. These small actions often require a high degree of control and precision from the puppeteer, adding depth to the puppet performance.

Reptiles and Amphibians: Reptiles, such as lizards and turtles, move slowly and purposefully, which can convey patience, caution, or lethargy. On the other hand, amphibians like frogs or toads, which jump and crawl both on land and in water, offer insights into fluid, multi-environment movement. Observing these animals allows a puppeteer to learn how to effectively use space and create movements that express grounded or liquid qualities.

Aquatic Creatures: Fish, seals, and dolphins exhibit a remarkable body language that inspires water-based puppet performances. The fluid, wave-like movements of a fish or the playful twists of a dolphin can be translated into subtle puppet gestures that evoke grace and elegance. For water-themed puppet shows, paying attention to how these creatures interact with water can provide insights into creating convincing underwater movements.

Studying nature and the animal kingdom is an invaluable tool for any puppeteer striving to improve their craft. The more time spent observing the complex and varied movements of animals, the more the puppeteer can internalize these movements and bring them to life through their puppets. These observations serve as the foundation for creativity, helping puppeteers imbue their characters with authenticity, emotion, and purpose. Whether creating a playful cat or a slow-moving turtle, nature offers limitless inspiration, and the puppeteer can unlock the full potential of their puppets.

References

1. Abdullayev D. Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari / D.Abdullayev, L.D. Usmanova. – Toshkent: Turon-Iqbol. – 2018.
2. Mirsaidova N. Qo‘g‘irchoq boshqarish assoslari (qo‘lqopli qo‘g‘irchoq) / N.Mirsaidova, R. O‘taganov. – Toshkent: Zamon-Poligraf, 2017.
3. Samariddinovna N. S. The Importance of the Puppeteer’s Hand in Puppet Theater / N.S.Samariddinovna, R.O‘taganov // Scientific Impulse. – 2024.

Юсупова Венера
Государственный институт искусств и
культуры Узбекистана

**МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ ОТРЫВКА ИЗ РАССКАЗА
ДЛЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЧТЕНИЯ
В ПРОГРАММЕ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ**

Аннотация. Данная статья раскрывает алгоритм выбора качественного материала для работы на уроках по сценической речи на 2 курсе. Так же здесь разъясняется предваряющий процесс обработки текста перед его воплощением в качестве законченного произведения на экзамене, или в качестве самостоятельного выступления.

Ключевые слова: Сценическая речь, художественное чтение, художественный текст, рассказ, отрывок, сокращение текста, монтирование текста, редактирование, литературоведческий анализ.

Abstract. This article reveals the algorithm for choosing quality material for work in stage speech lessons in the 2nd year. It also explains the preliminary process of text processing before its embodiment as a finished work for an exam, or as an independent performance.

Key words: Stage speech, artistic reading, artistic text, story, excerpt, text abbreviation, text editing, editing, literary analysis.

Работа над рассказом включена в программу по Сценической речи второго года обучения студентов Государственного Института искусств и культуры Узбекистана. Это является логическим продолжением работы первого курса над отрывками описательного характера и отрывками с небольшими событиями. Так в чем же отличия и особенности? Елена Валентиновна Ласкавая, доцент кафедры Сценической речи Театрального института имени Бориса Щукина, основатель Школы речи #1, которая ведёт активную педагогическую, творческую и научную деятельность, а также неоднократно приезжала в Узбекистан в рамках программы “Поддержки русских театров за рубежом” с мастер-классами для актеров и педагогов по сценической речи, составила очень понятное и доступное руководство к работе над художественным текстом, на которое будет опираться эта статья [1].

Приступая к работе, в первую очередь, мы, конечно, говорим о подборе хорошего, качественного литературного материала. Разумеется, лучшие образцы – проверенная временем классика. Нередко берутся произведения советских и современных авторов. Так как рассказчик-студент в некоторой степени сливается с автором в его видениях и отношениях к героям и происходящему, немаловажным критерием выбора произведения является живой отклик студента на поднимаемые автором темы.

После того, как произведение выбрано, его необходимо сократить до подходящего временного объема, наилучшее время – 3 минуты. При этом важно сохранить логику развития событий, четкость раскрываемых мыслей и законченность повествования. Как же это сделать?

Первое, нам важно выделить вес отрывок, содержащий законченную мысль автора. Затем переходим к непосредственному сокращению текста, вычленяя отвлекающие и не раскрывающие смысл отрывка части. Определяемся с задачей относительно воздействия на зрителя, анализируя все эпизоды отрывка, отбрасывая малозначимые, затягивающие или отвлекающие моменты.

Елена Валентиновна предлагает следующие варианты сокращений:

1. По сквозной композиции, когда учитывается сюжетная канва и последовательность сцен.

2. Композиционирование по одной интересующей нас линии, при котором учитывается структура текста от пролога через завязку, развитие действия, кульминацию, развязку и эпилог.

Не лишним будет напомнить, что

– пролог – это предваряющая часть произведения, вводящая зрителя в курс дела, вскрывающая предлагаемые обстоятельства;

– завязка – это начало развития действия, конфликта, т.е. столкновения действующих сил;

– развитие действия – это постепенное развертывание и нарастание конфликта)

– кульминация – это когда конфликт достигает своего апогея и требует разрешения сложившейся ситуации;

– развязка – это разрешение ситуации тем или иным способом, развитие определенного конфликтом хода действия;

– эпилог – это завершающая часть произведения, в которой подводится итог конфликту, иногда рассказывается о последствиях событий, иногда выражается окончательное мнение автора о событиях и действующих лицах и т.п.

Немаловажно отметить, что отрывок может не включать в себя пролог, может завершаться на развязке без эпилога.

Выбрав способ сокращения, мы переходим к монтированию текста, когда собираем отдельно выбранные эпизоды в единое целое. При этом мы можем выбрать один из двух вариантов монтажа – сохраняя авторскую фабулу или же нарушая порядок ее элементов. И тот, и другой вариант имеет право на существование, при условии, что сохраняется авторский стиль, язык и мысль. Остаётся последний, завершающий этап – редактирование текста, когда мы производим мелкие сокращения или вставляем ремарки для более точного понимания зрителем сути текста.

Итак, на примере повести “Гонение на рыжих” Юрия Яковleva посмотрим, как производится предварительная работа над текстом.

В первый раз снег выпал в начале октября. Еще деревья были одеты в листву, и трава на газонах не успела пожелтеть. А с неба валил снег. Большими хлопьями снег падал в зеленую траву и оседал на зеленых листьях. Получилась полная неразбериха: зима смешалась с летом. Из этой смеси не могло выйти ничего путного.

Мостовая и тротуары покрыли слякотью, и белые снежинки, достигнув земли, гасли. Первый снег шел на верную гибель, но не мог остановиться.

Таня ощущала снег на губах, на щеках, на ресницах. И ей становилось весело. Тогда она запрокинула голову и оказалась в центре огромной белой воронки, заполненной стремительно летящими снежинками. Снежинки летели прямо на нее. Они как бы попадали внутрь и наполняли сердце веселым холодком.

Девушку охватила, тайная радость. Это новое безымянное чувство наполнило ее и не оставило места для других чувств. Как сильная, высокая вода, оно поднималось, заполняло все уголки Таниной жизни, грозя выйти из берегов.

И в мыслях снова появился Князев. Какое отношение он имел к этому чувству? Почему оно не могло вспыхивать само по себе, без его участия?

Таня старалась перевести мысл о нем на другие рельсы. Но стрелка не работала, и с другими рельсами ничего не выходило. Тогда, думая о нем, Таня старалась вызвать неприязнь и сгустить краски. Но краски не сгущались. Она испепеляла его, а он возникал из пепла.

Она скрывала это странное чувство от людей, от дневного света, от самой себя. Она хранила его в дальних тайниках. Но самым важным было утаить это чувство от него. Это чувство не должно его касаться. Он не должен знать, что оно есть. Не выдать себя дрогнувшим голосом, взглядом.

Да здравствует белый снег, и не надо смотреть под ноги. Там уже все погашено и затоптано, веселая мимолетная жизнь снежинок кончена. Надо смотреть ввысь, быть в центре белой воронки. А он пуст идет рядом, если ему хочется.

Таня подняла глаза и увидела его. Он шел рядом, щурясь от снега.

Таня ничего не сказала. Она отвела глаза. Но через несколько шагов ей захотелось снова посмотреть на своего спутника. Она опасливо покосилась на бобрик, побелевший от снега, на складку между бровей, на прищуренные глаза. И вдруг кров прилила к лицу.

Он, конечно, не заметил, как она покраснела. Но она думала, что он заметил, и покраснела еще сильней. У нее неудобное лицо. На нем отчетливо написано, о чем Таня думает. С таким лицом нельзя ничего скрыть. Оно выдает все тайны. Прямо-таки предательское лицо.

У нас получилось сокращение по сквозной композиционной линии, где мы избавились от затягивающих повествование эпитетов о снеге, но сумели сохранить сопоставление чувств девочки и природного явления, несвоевременного, как бы противоречащего естеству. Так же мы убрали текст об учительнице, уводящий нас в иное русло рассмотрения взаимоотношений девочки и женщины.

Подобная работа с композицией помогает студенту выстроить свою задачу и сверхзадачу относительно слушателя-читателя. Ведя как завещал К.С.Станиславский: "...начиная рассказывать, вы должны точно знать, во имя чего вы рассказываете, какие мысли и чувства вы хотите вызвать в слушателе. И к этой основной цели вы должны стремиться" [2].

Таким образом, актер-студент, работающий над текстом, становится соавтором, сотворцом качественно нового художественного произведения, которое го-

товится к своей новой жизни в качестве сценического действия, чтецкого выступления.

Список литературы

1. Ласкавая Е.В. Техника речи. Как говорит красиво и легко добиваться целей.
– Москва, 2022. – С.37
2. Кнебел М. О. Слово в творчестве актера. – 3-е изд., испр.–Москва: ВТО,1970.
– 160 с.
3. <https://reallib.org/reader?file=343940&pg=2>

Islom Berdimurodov
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi,

**TEATRDA REPERTUAR VA KADRLAR SIYOSATI
(JIZZAX VILOYAT QO‘G‘IRCHOQ TEATRI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada teatr san’atida repertuar siyosatining ahamiyati va uni shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, Jizzax viloyati Qo‘g‘irchoq teatrining faoliyati misolida repertuar tanlashdagi mezonlar; yosh auditoriyaga yo‘naltilgan asarlarning tanlovi va milliy hamda zamonaviy qadriyatlarning uyg‘unligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy rivojlanish, madaniy meros, zamonaviy jamiyat, bolalar, kattalar, psixologik funksiyalar, estetik funksiyalar, tarbiyaviy funksiyalar, qo‘g‘irchoq teatri, san’at, jamiyat, teatr janri

Abstract. The article analyzes the importance of repertoire policy in the theater and the processes of its formation. In particular, the criteria for selecting a repertoire, the selection of works aimed at a young audience, the harmony of national and modern values are demonstrated using the example of the activities of the Jizzakh Regional Puppet Theater.

Key words: historical development, cultural heritage, modern society, children, adults, psychological functions, aesthetic functions, educational functions, puppet theater, art, society, theatrical genre.

Teatr san’ati hamisha xayotning eng muxim muammolariga munosabat bildirib, komil inson tarbiyasidagi maqsad va vazifalarni jamiyat oldiga qo‘yib kelgan. U jamiyat va shaxs o‘rtasida muvozanatni yo‘lga qo‘yish orqali mavjud muammolarga yechim topadi. Darxaqiqat, teatr inson tarbiyasidagi eng murakkab jixatlariga katarsis ta’sir o‘tkazib, eng “yuqori tribunada” turib turli uslublardan foydalangan xolda jamiyatga murojat qiladi.

Teatr – shunday qudratli kuchki, o‘zining ulkan imkoniyatlari bilan har qanday g‘oyani odamlarga singdirish, ta’sir o‘tkazish, kasallash yoki tuzatish, ijodiy jarayonda har bir obraz chizgilari orqali xis – tuyg‘umizni harakatga soladi va tomoshabinni boshqaradi. Ana shunday maskanlardan biri bu – qo‘g‘irchoq teatridir.

Qo‘g‘irchoq teatri san’ati – mo‘jizalar olami sifatida hamisha bolajonlar uchun sevimli maskan bo‘lib kelgan. Qo‘g‘irchoq teatrida qo‘yilayotgan spektakl, unda ishtirok etayotgan personajlarning quvonch va tashvishlari, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurash aks etgan sahna ko‘rinishlari murg‘ak qalb egalarini befarq qo‘ymaydi. Bolajonlar ham spektakl qaxramonlari bilan birga kuladi, yig‘laydi, ular uchun tashvishlanadi, qayg‘uradi, quvonadi.

Bu kasb an'analari va mahorati qudrati tanlangan asar qaxramonlari kechinmalari orqali yosh tomoshabinni individual sifatlarini kashf etilishida bolalikdan shakllantirishga ijodiy ta'sir o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishda ko'rindi. Jumladan: Vatanga muxabbat, rostgo'ylik, mardlik, do'stlik, ojizlarni qo'llash, sevgiga sadoqat v.x.k. Bu mazmunda teatrler uchun yozilayotgan pesalar ayniqsa muhim xisoblanadi. Afsuski ayanan qo'g'irchoq teatrlariga pesa yozish hamma vaqt ham o'z-o'zidan xal bo'lavermadi. Buning uchun qo'g'irchoq teatri san'ati, uning o'ziga xos professional imkoniyat va talablarini bilish, tendetsiyaliridan xabardor bo'lish, eng muximi bu san'at turini sevish kerak bo'ladi.

Jizzax viloyat qo'g'irchoq teatri 1983-yil tashkil topgandan so'ng, o'z faoliyatini I.Suponinning "O'jar quyoncha" asari asosidagi spektaklni tomoshabinlarga namoyish etish bilan boshlagan.

1984-yil Jizzax viloyat davlat qo'g'irchoq teatri tashkil topganiga xali bir-yil xam bulmasdan teatrga rahbar etib tayinlangan U.Mamajonovni teatrni opichib katta kilgan mexnat faxriyalaridan deya ishonch bilan aytish mumkin. Yangi asos solingan teatrnинг intiluvchan, gayratli rahbari U.Mamajonov yangi-yangi spektakllar sahnalashtirib, teatrnинг yosh tomoshabinlari e'tiboriga havola etish uchun bor kuch-g'ayratini ishga soldi. Avvalo ishni ikkita gurux ya'ni uzbek va rus guruxini tashkil etishdan boshlab, eng iktidorli aktyor va shu soxa mutaxassislarini ishga jalb etdi. O'zining yetakchilik saloxiyatini ishga solgan U.Mamajonov oz fursat ichida teatr repertuarini yangidan yangi spektakllar bilan boyitibgina qolmay, yangi iste'dodlarni ham kashf eta oldi. U. Mamajonovning bevosita rahbarligi ostida 1984-yil G.Oster asari "Привет маришка", YE. Chepovets asari "Улыбка клоуна", 1985-yil YE. Chepovets asari "Золотой лист", 1986-yil G.Oster asari "Приключение веселих медвежат", 1987-yil T.Turabayev asari "Ali botir", 1987-yil A.Xodjayev asari "Biz uy kuramiz", 1988-yil V.Itskovich asari "Внук командира", 1988-yil YE. Chepovets asari "Давай поиграем в буквар", 1988-yil M.Shalaxova asari "Жеребёнок", 1989-yil Y. Chepovets asari "Пой и пляши от души", 1990-yil U.Baymuhamedov asari "Сказка про бедняка Мурада", 1990-yil YE. Chepovets asari "Бедний Мурад", 1991-yil Y. Chepovets asari "Драгоценный мой", 1991-yil G.Oster asari "Semurg", 1991-yil V. Rabadan asari "Mitti farishta", 1992-yil T.Turabayev asari "Garoyib musobaka", 1992-yil T.Turabayev asari "Shux xutikcha", 1992-yil U.Mamajonov asari "Yangi-yil yashnaydi dil", 1993-yil T.Turabayev asari "Farxod va Shirin", 1993-yil M.Ashurova asari "Guldasta", 1993-yil M.Ashurova asari "Dono xiylagar", 1994-yil V.Shaynovskiy asari "Quvnoq ayiqchalar", 1994-yil G.Landu asari "Xo'roz qichqirmogi kerak", 1994-yil U.Mamajonov asari "Yangi-yil bazmi", 1995-yil A.Xodjayev asari "Qorboboning sovgasi", 1995-yil M.Ashurova asari "Obi xayot", 1996-yil A.Xodjayev asari "Qugirchoqlar jonlanganda", 1997-yil A.Xodjayev asari "Yangi-yil archasi", 1997-yil A.Xodjayev asari "Shoshmay tur", 1998-yil Y.Patrik asari "Bugirsok" kabi juda ko'p spektakllar saxnalashtirilib, bolajonlar e'tiboriga xavola etildi. Spektakllar sahnalashtirish jarayonidagi mashaqqatli mehnatlar o'z samarasini berib, viloyat ko'g'irchok teatri tez fursat ichida o'zining minglab tomoshabiniga ega bo'ldi. 1999-yil bevosita U.Mamajonov rahbarligida teatr ijodiy jamoasi K.Kodirov asari "Tomosha" spektakli bilan Amerika Qo'shma Shtatlarida qo'g'irchok-

lar festivalida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib, Qo‘shma shtatlarda ijodiy gastrol safarida bo‘lib kaytdilar.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Mar-yam Ashurovada ko‘p yillik pedagogik tajriba, har bir asarni o‘quv sahnasida ko‘p bor sayqallanib dunyoga kelishi va professional teatr sahnasida qayta gavdalanishi, bu san’at turi yo‘lida qo‘yilgan sezilarli qadam bo‘ldi.

Muallif M.Ashurovaning “Mehrdan yaralgan olam” nomli pesalar to‘plami o‘z ichiga ana shunday sinovlarda toblangan asarlarni olgan. Bu to‘plamning yana bir o‘zi-ga xosligi pesalarni bolalar yoshiga, ongi, qabul qilish imkoniyatlariga e’tibor qaratib 3 ta qismga ajratilgan. Bu esa muallifning qo‘g‘irchoq teatri san’atini naqadar chuqur bilishidan darak beradi. Gap shundaki, har bir bo‘limdagi pesalar mavzusi, olg‘a surilgan g‘oya hamda tomoshabinga yetkazish uslublari ayni yosh nuqtai nazardan e’tibor berilgani ahamiyatli. Jumladan: Eng yosh tomoshabin, ya’ni MTM tarbiyalanuvchilari bo‘lib, ular uchun “Alla” (Farg‘ona davlat qo‘g‘irchoq teatri 2016-y.), “Mo‘jiza” (Farg‘ona davlat qo‘g‘irchoq teatri 2014-y.), “Yaxshi fazilating – zebu ziynating” (Jizz-zax davlat qo‘g‘irchoq teatri 2013-yil, Samarqand davlat qo‘g‘irchoq teatri 2014-y.) pesalarni o‘zida jamlaydi. Mavzu o‘ta sodda, turli o‘yinlar orqali goh qo‘g‘irchoqlar bilan, goh jonli planda aktyorlarni o‘zlari ijrosida ifodalansada, eng yuksak umuminsoniy g‘oyalar singdirilgan.

Bunda ko‘zlangan maqsad, jajji bolajonlar nutqiy rivojlanishiga, ritmik xis qilishga moyilligi, plastik harakati o‘sishiga, ovozini shakllanishiga, rivojlanish jarayonini to‘g‘ri kechishiga, bir so‘z bilan aytganda shaxs sifatida shakllanishida optimal ta’sir ko‘rsatishiga e’tibor qaratiladi.

Pesalar tomoshabinni – matabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qaratilgan bo‘lib, “Sehrlangan shaxzoda” (O‘zbekiston davlat qo‘g‘irchoq teatri 2004-y.), “O‘z uyingni – o‘zing asra” (Xorazm davlat qo‘g‘irchoq teatri 2011-y.) “Allo... yerliklar, biz siz bilan”(O‘zbek milliy akademik teatri 2008-yil) kabi qator pesalar joy olgan. Bu yoshdagи tomoshabin o‘ta xayolparast bo‘lishlariga e’tibor qaratsak, Vatanga muxabbat, do‘stlik, rost so‘zlash, ojizlarga yordam berishdek g‘oyalarni turli o‘yin shaklida, qarama-qarshiliklarni mos ravishda uslubiy jixatdan ifoda yo‘li topilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, har bir rejissyor olg‘a surayotgan g‘oyasi bir nechta asrida takrorlanishi mumkin. Ammo u bu safar qanday yo‘l bilan yana o‘sha g‘oya haqida gapirishini bilishi kerak. Bunda mavzuni to‘g‘ri tanlash o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada Deni Didro shunday deydi: “Narsalarning – qanday bo‘lishi kerakligini bilish kishining aqllilagini, narsalar haqiqatda qanday ekanligini bilish taj-ribalilagini, bu narsalarning qanday yaxshi tomonga o‘zgartirilishini bilish kishining genialligini ko‘rsatadi” [1].

Tomoshabin auditoriyasining bu yosh toifasi o‘yin qaroq bo‘lishlariga qaramay, psixologik o‘ta ta’sirchan bo‘ladilar. Arzimasdekkо‘ringan ishlar yo ijobiy yoki salbiy qattiq ta’sir etishi mumkin. Ana shu jixatlarga e’tibor qaratilgani, mavzu va g‘oyalarni ularning qabul idroklaridan kelib chiqib yozilgani, ushbu kitobga ijobiy baho berishda asos bo‘ldi.

Jamlangan pesalar tomoshabini – o‘spirin yoshlar bo‘lib, unda “Mexrdan yaralgan olam” (O‘zDSMI “O‘quv teatri” 2017-yil), “Sindbad – dengiz sayyoxi” (O‘zbekiston davlat qo‘g‘irchoq teatri 2016-y.), “Shoh laylak” (Farg‘ona davlat qo‘g‘irchoq teatri 1993-yil, O‘zbekiston davlat qo‘g‘irchoq teatri 2010-yil), “Oqqushlar nidosi” (Farg‘ona davlat qo‘g‘irchoq teatri 2010-yil) kabi asarlar jamlangan. Ushbu pesalar avvalgilaridan farqli biroz jiddiy, tomoshabinni muloxaza yuritishga undovchi milliy va umuminsoniy g‘oyalar bilan sug‘orilgan.

Endilikda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan o‘nta davlat qo‘g‘irchoq teatrlari jamoasi va O‘zDSMIda ta’lim olayotgan “Sahna va ekran dramaturgiyasi”, “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” ta’lim yo‘nalishlari uchun ham o‘quv adabiyotlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Va bu aktyor kadrlarni tarbiyalashda, ularning kasbiy mahoratlarini o‘stirishda yosh pedogoglarga mahorat potensilini shakllantirishda tayanch manbalardan biri bo‘la oladi. Ushbu kitob chuqur ishonch bilan ayta olamizki, ta’lim yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalarini kasbiy mahoratlarini oshirishda, ularning raqobatbardosh kadrlar bo‘lishida yana bir asosiy manbalar qatoridan joy topadi.

Jizzax viloyat qo‘g‘irchoq teatri tarixida jamoa uchun 2020-yil esda qoladigan-yil bo‘ldi, chunki jamoa bu-yil zamon talablariga javob beradigan, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan binoga ko‘chib o‘tish arafasidalar. Jamoaning quvonchini cheki yo‘q, al-batta bunda e’tibor va qulayliklarga ega bo‘lgan zamonaviy binoda ishlash jamoa uchun yanada mas’uliyat bilan ishlashga, berilgan bu e’tibordan yanada ruhlanib mehnat qilishga undaydi. Jizzax viloyat qo‘g‘irchoq teatri teatri jamoasi uchun 36-yildan beri intiqib kutgan quvonchli voqealardan biri ularning zamon talablariga javob beradigan yangi teatr binosiga ega bulayotganlaridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amlga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Pq-4067-sonli hamda viloyat hokimligining 2018-yil 24-dekabrdagi 864-sonli qarorlariga muvofiq viloyat qo‘g‘irchoq teatrining yangi binosi qurish uchun 0,30 ga yer maydoni Jizzax shahar hokimining 2019-yil 25-apreldagi 1429-sonli qaroriga asosan Sangzor mahallasi huddidagi H.Olimjon xiyobonidan ajratildi. Xozirgi kunda bino ta’mirdan chiqarilish arafasida.

Xulosa qilib aystsak bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika davrining bolalari ham shunga mos juda talabchan va zukko. Endilikda bu yoshlarni biron bir masalada lol qoldirish, xayratga solish o‘ta murakkablik kasb etmoqda. Bugungi kichik tomoshabin dunyoqarashi butunlay o‘zgacha. Shuning uchun ham ularga berila-yotgan ta’lim va tarbiya eng muhim masala bo‘lib qolmoqda. Aksariyat yoshlarimiz internet, telefon va kompyuterlarga “bog‘lanib” qolmoqdalar. Bu o‘rinda, ular e’tiborini tarbiyaviy ahamiyatga ega, qaysiki, internet, uning salbiy ta’siridan holi qilish maqsadi-da ular qalbida ezgulik va umuminsoniy tuyg‘ularni uyg‘otish lozim. Bu masalada ada-biyot, san’at va madaniyatning o‘rni va ahamiyati qo‘g‘irchoq teatri va umuman teatr san’ati yosh avlodimiz tarbiyasida alohida tarbiyaviy, g‘oyaviy, estetik funksiyalarga ega. Shunday dargohlardan biri bo‘lmish Jizzax viloyat qo‘g‘irchoq teatrida ham mana shunday tinib-tinchimas, mehnatkash jamoa yosh avlod qalbiga ezgulik joy olishi uchun tinmay mehnat qilib kelmoqda. Peshqadam teatrlaridan biri bo‘lgan Jizzax viloyat

qo‘g‘irchoq teatri ijodida qo‘g‘irchoq teatri maktabiga hos, jumladan an’anaviylik va zamonaviylik qorishib ketgan jihatlarni turli asarlar va mavzular orqali yoritish prinsipi uning faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tog‘ayev O. Kurash va qahramon:maqolalar.–Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti,1970.– 80 b.
2. Qodirov M. Teatr san’ati o‘tmishdan lavhalar.–Toshkent: Fan nashriyoti 1993.– 163 b.
3. Qodirova S. Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari: ilmiy-amaliy seminar to‘plami.– Toshkent:Lesson pres,2018.
4. Yusupov Sh. Qo‘g‘irchoq teatri san’atini rivojlantirishda innovatsion hamkorlikning afzalliklari: mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy va amaliy konfirensiyasi to‘plami.– Toshkent: Lesson pres, 2020.

*Gulchehra Umaraliyeva
O‘zDSMI “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

QADRIYATLAR TIZIMIDA BIOESTETIKANING O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada bioestetika tushunchasi yovvoyi tabiatni idrok etishga biologik va estetik yondashuvlarni birlashtirgan integral yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. Bioestetikaning zamонавиy inson qadriyatları tizimini, shu jumladan ekologik, madaniy va axloqiy ko‘rsatmalarni shakllantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Tabiatni estetik idrok etish atrof-muhitga hurmat va shaxsni ma’naviy boyitishni rivojlantirishga qanday hissa qo‘shishiga alohida e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: bioestetika, qadriyatlar tizimi, tabiat estetikasi, ekologik ong, madaniy qadriyatlar, estetik idrok, tabiat va inson uyg‘unligi, ma’naviy tarbiya

Abstract. The concept of bioaesthetics is examined in the article as an integrated approach that combines biological and aesthetic perspectives in the perception of wild nature. The impact of bioaesthetics on shaping the system of contemporary human values—including ecological, cultural, and ethical principles—is analyzed. Particular attention is given to how the aesthetic perception of nature contributes to fostering respect for the environment and enhancing individual spiritual enrichment.

Key words: bioaesthetics, system of values, nature aesthetics, ecological awareness, cultural values, aesthetic perception, harmony between nature and humans, spiritual education

O‘tgan davr davomida barcha sohalar singari madaniyat, san’at, adabiyot, xalq ijobi kabi sohalarga bo‘lgan munosabat ham davlat maqomi darajasiga ko‘tarildi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida bir qancha omillar ta’sir etib, uni komillik sari yetaklaydi. Komillikning eng asosiy shartlari sifatida aqliy, ahloqiy, ruhiy va jismoniy ulg‘ayish amalga oshadi. Go‘zal axloq haqida ulug‘ mutafakkir Islom olamining ko‘zga ko‘ringan ustoz, butun insoniyatga islam ta’limini bergen mutafakkir va ma’rifatparvar Abu Homid G‘azzoliy “Mukoshafatul qulub-Qalblar kashfiyoti” nomli kitobida go‘zal xulqlar haqida to‘xtalib quyidagilari yozib qoldiradi,-”Payg‘ambarimiz (s.a.v.) bunday dedilar: Alloh taolo Islomni o‘ziga xos din qildi. Sizning diningizga saxiylik va go‘zal xulqdan boshqasi yarashmaydi.Ko‘zingizni oching. Diningizni shu ikki xislat bilan go‘zallashtiring” [1]. Yana u zot aytadilar: “Go‘zal axloq Allohnинг eng buyuk ne’matidir”.

Ularning tasiri ostida ma’naviy barkamollik hosil bo‘ladi. Bolalarga tarbiya berishning eng zarur shartlaridan biri ularning ma’naviy barkamollikka erishishidir. Bolaning ma’naviy barkamolligi uning aqliy qobiliyatlarini o‘sishi, axloqining rivoj topishi, ruhiyatining yetukligi, jismoniy jixatidan sog‘lom bo‘lishi kabi yo‘nalishlarni qamrab

oladi. Bu yo‘nalishlarning har biri inson ma’naviy qiyofasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Olimlarning ta’kidlashicha ma’naviy shakllanishda aqliy va axloqiy tarbiyaning roli beqiyosdir. Aqliy tarbiya orqali nafaqat o‘qish va yozishga, balki tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan voqeа – hodisalarning mohiyatini anglashga, ularni o‘zlarining maqsadlariga yo‘naltirishga, o‘zgartirishlar kiritishga, takomillashtirishga erishadi. Aqliy tarbiyaning natijasi sifatida ilm-fan madaniyat, adabiyot va san’at rivojlanadi. Inson borliqdagi eng buyuk zotdir. Insonning axloqiy hayoti esa uning axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta’minkaydigan uzuksiz jarayonlaridan biri. Go‘zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma’noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar jamiyatga ta’sir qiladi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug‘ olamga shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoiy ta’biricha, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi. Komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko‘p uchratamiz. Bu borada “komillik” tushunchasiga to‘xtab o‘tish maqsadga muvofiq. Komillikning xilma – xil talqinlari bor. Diniy ta’limotlarda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Insonning kamolotga erishuvi Haqqa talpinishidir, Xujjatul Islom Imom Abu Xamid G‘azzoliy “Kimyoi saodat” asarida yozadilar: “Inson farishta va xayvon orasidagi maxluqdir. Xayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo‘q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o‘zi pok ilohiy nurdan iborat, Chunki insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud” [2]. Demak insonni tarbiyalash, moddiy – xayvoniy xirslarni barham ettirib, ilohiy – rahmoniy sifatlarini ko‘paytirish mumkin. Komil inson – jamiki insonlarning haqiqatidir, ya’ni odamiylar odamiysidir.

Shu tariqa, komil insonning o‘ziga hos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzu – armoni deb qaralgan. Yana shuni ta’kidlash lozimki o‘rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega. Ammo masala qanday qo‘yilishidan qat’iy nazar, komil inson haqidagi g‘oyalar katta ijtimoiy – axloqiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Inson to‘g‘ri tarbiya topmasa, uning xatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi. Buyuk mutafakkir Bedil ta’kidlaganidek, agar me’mor dastlaki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo‘lib qolaveradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamiyat ijtimoiy hayotidagi barcha muammolar yechimi ma’naviy–axloqiy jihatdan yetuk kishilarning fidokorona, halol mehnati, hamkorligi, imon-e’tiqodi asosida ro‘yobga chiqadi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo‘lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko‘rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo‘ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulsasal” singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo‘lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li, bu – namunaviylik tamoyili. Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: Allohning Rasuli (s.a.v.) dedilar: “Mo‘minning sahovati – dini, unga yetarli narsasi – go‘zal xulqi, muruvvati va aqlidir” [1]. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-onas bolaga axloqiy namuna bo‘lishi kerak. Maktabda va oliv o‘quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullari dan tortib, to “mayda-chuyda” xatti-harakatlarigacha o‘z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo‘ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishi ta’minlovchi omillardandir.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li bu- ota-onaning bolaga axloqiy namuna bo‘lishi. Chunki sog‘lom barkamol inson har bir xalq, millat, davlat kelajagining nurli istiqboldir. Ma’naviy boy, axloqan pok va jismonan sog‘lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ilk bor oilada amalga oshiriladi. Insoniy fazillalar – ezgulik, yaxshilik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, insof, rahm – shafqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi. Oila yoshlarni axloqli, odobli, rostgo‘y, xalol va samimiyo bo‘lib voyaga yetishlari uchun zamin tayyorlaydi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiat, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.

Axloq bilan san’atning o‘zaro aloqalari haqida gap ketganda, avvalo, san’at mohiyatan shaxsning xis-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim jarayon ekanligini hisobga olish darkor. San’at insonning xissiyotlari va tuyg‘ular olamiga kirib boradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, san’at barcha davrlarda insonga hamroh bo‘lib kelgan. San’at keng ma’noli tushunchadir. Zero, san’at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San’at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san’at asarida shaxsning o‘ziga xos iste’dodi namoyon bo‘ladi. Va nihoyat, san’at insonning mahorati bilan chambarchas bog‘liqdir. San’at, keng ma’noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste’mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. Nafosatshunos E.Umarovning ta’kidiga ko‘ra, “San’at va axloq o‘zaro munosabatlari estetikada o‘zak masalalardan biri bo‘lib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi- “axloqiylik” uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflatun, yangi davrda esa Russo va L.N.Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan. “Axloqiylik”ning mohiyati shundaki, uning targ‘ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo‘ysundirish, ezgulikni san’atning birdan-bir va eng oliv maqsadi sifatida targ‘ib etishdir. Bundan tashqari, so‘z san’atida, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘ziga xos “axloqiy janrlar” mavjud. Ularni xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. shular jumlasidandir. Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo‘llaridan biri. Uning vositalari ko‘p. Ularning bir qismi an’anaviy tarbiya vositalari bo‘lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagи vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo‘lgan axloqiy tarbiyada

ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamонавији тарбија муввағақијатли qo'llaniladi; bunda bola qizg'anchiqlik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarining ma'naviy qiyofasini, tashqi ko'rinishidan tortib, xulq – atvorigacha, xatti – harakati, munosabat madaniyati, asab tuzilishini boshqarishi bilan birga, yetuk insoniy fazilat egalari bo'lishlikni ta'minlaydi. Bolalarda axloqiy sifatlar atrof–muhitdagilarga ongli munosabat hosil bo'lishi bilan shakllanib boshlaydi. Bolaga kattalar qanday munosabatda bo'lsalar unga mos holda odob – axloq normalari tarkib topib va shakllanib boradi. Axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari sifatida burch, vijdon, nomus kabi ma'naviyatning asosini tashkil etuvchi fazilatlar ro'yobga chiqadi va bolaling kundalik hayotida namoyon bo'lib boradi.

Axloqiy tarbiya kishilarining Vatanga, odamlarga, tabiatga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Kundalik turmush tarzini mazmunli, foydali, aniq maqsadga qaratilgan holda amalga oshishini ta'minlaydi. Yoshlarning vatanparvarlik hissi eng oliv tuyg'ulardan biri bo'lib, bolada birinchi olgan nafasi, ona suti va allasi, quvonch va tashvishlari, orzu – havaslari orqali tarkib topib boshlaydi. Insonparvarlik ota – bobolarimizdan qolgan noyob ma'naviy meros hisoblanib, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallangan, hayratlanarlik darajada tokomiliga yetgan. O'zbek oilasining har bir vakili nafaqat tug'ishganlariga, do'st birodarlariga, tanish – bilishlariga, hatto "yetti yet begonaga" ham samimiyl munosabatda bo'ladi.

Umumiyl ta'lim maktablarimiz dunyoviy xarakterga ega bo'lsada, yoshlarning tarbiyasiga diniy ta'limotlar ta'sir etmasdan qolmaydi. Ota – ona, jamoatchilik, bola yashayotgan ijtimoiy muhitning ta'siri ostida diniy tushinchalar paydo bo'ladi. Ularga amal qilinadi. Shuning uchun ham yoshlarga dinning asl moxiyatini tushintirish, ijobiy ta'sirini hosil qilishni foydali deb sanaymiz. "Qur'on" va Muhammad Payg'ambarimizning hadislarini to'g'ri talqin etish bilan yoshlarni bilimli, o'qimishli, halol va pokiza insonlar qilib ulg'aytirish mumkin. Ba'zan diniy savodsizligimiz, befarq va e'tiborsizligimiz oqibatida yoshlar haddan ortiq diniy e'tiqodga berilib ketishi, bu fidoyilikni ayrim g'araz niyatli kishilar noto'g'ri yo'nalishda foydalanishlari mumkin. Qanchadan – qancha sodda yoshlarimiz diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga bilib – bilmasdan tushib qolib, o'zi va o'zgalarga ko'plab tashvish va aziyatlar keltirdi. Shuning uchun ham yosh bolalarga dinning asl moxiyatini tushintirish: "ilm olish ham savobli ibodat" ekanligini anglattirishimiz zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqida ma'naviy boylik boshqa barcha boyliklardan ustun turgan va hozirda ham eng ulug'vor xazina hisoblanadi. Uni yanada boyitish millatimiz oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu vazifani hal etish uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoit yaratilganligi butun bashariyat tomonidan tan olinmoqda. Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda "Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutloq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyaratu siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo – lim pokiza zot" [2]. Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa

ibora bilan aytayin: bilgilki komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif” [2].

Ma’naviy – axloqiy barkamol inson bugungi kunda ota – onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a’zolari, qo‘ni – qo‘shnilari, mahalla – ko‘yi, qishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘uradi: tevarak – atrofni o‘rab olgan insonlar unga kerak bo‘lgani singari, o‘zi ham ularga kerakli kishi bo‘lishga intilishi, odob-axloqni, fe’l-atvorni yoqimli qilishni insoniy burch hisob, birovning og‘irini yengil qilishni odat qiladi; umumxalq ma’qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qiladi va unga sadoqat namunalarini amalda ko‘rsatadi; Vatanni himoya qilish boshqacha qilib aytganda, harbiy – vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘azzoliy Abu Xomid. Mukoshafatul qulub-qalblar kashfiyoti. I-II qism. – Toshkent, 2018.
2. G‘ofurov G‘ulomjon. Sharq javohirlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.

*Xusnora Ashirmetova
Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
“Ilmiy-metodik” xizmati
yetakchi mutaxassisi*

**IMKONIYATI CHEKLANGAN FOYDALANUVCHILARGA
KUTUBXONA-AXBOROT XIZMATNI KO‘RSATISHDA
KUTUBXONACHI KADRLAR TAYYORLASH MASALASI**

Anatatsiya. Mazkur maqolada kutubxonachi kadrlarini tayyorlashning ahamiyati yoritilingan. Imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish uchun maxsus tayyorgarlikka ega kutubxonachi kadrlarining yetishmasligi, ko‘zi ojizlar va boshqa nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda kutubxonaning roli, shuningdek, zamona-viy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ijtimoiy integratsiyani ta‘minlashning muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada, kutubxonachilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali imkoniyati cheklangan shaxslarning kutubxonalardan samarali foydalanishini ta‘minlash borasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Imkoniyati cheklangan shaxs, maxsus fond, brayl, inklyuziv ta‘lim, kadr, qayta tayyorlash, malaka, maxsus tayyorgarlik, psixologiy.

Abstract. This article highlights the importance of training library personnel. It discusses the shortage of librarians with specialized training to serve users with special needs, the role of libraries in working with visually impaired and other disabled individuals, and the significance of ensuring social integration through the effective use of modern technologies. The article provides suggestions on improving the librarian training system to ensure the effective use of libraries by individuals with special needs.

Key words: Person with disabilities, special fund, Braille, inclusive education, personnel, reskilling, qualification, specialized training, psychology.

Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish va sifat jihatidan takomillashtirish borasida ko‘plab targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalariga katta vazifalar yuklatilgan [1]. Biroq, ta‘lim sohasida pedagoglardan tashqari, kutubxonachi kadrlarni tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga maxsus kutubxona-axborot xizmatini ko‘rsatuvchi malakali kutubxonachi kadrlar yetishmasligi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Jismonan yoki aqlan zaifligi bor o‘quvchilar o‘z ustozlaridan darslarni o‘zlashtirishi mumkin, ammo uyga vazifalarni bajarish uchun kutubxonaga borolmasliklari ta‘lim jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi. Kutubxonaga borganda, o‘quvchi o‘ziga kerakli kitobdan foydalanishi va kutubxona tartib-qoidalariga amal qilishi zarur. Bun-

da, albatta, kutubxonachining roli beqiyos ahamiyatga ega. O‘quvchi uchun dars jaryoni qanchalik muhim bo‘lsa, kutubxona ham uning hayotida shunchalik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kutubxonachi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Biroq, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi kutubxonachi kadrlarining yetishmasligi masalasi, hali ham o‘ta muhim. Hozirgi kunda Respublika oliv ta’lim muassasalarida kutubxonashunoslik yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, talabalarga umumiyl kutubxonashunoslik fanlari o‘qitilmoqda. Qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari ham ko‘proq umumiyl fanlar asosida olib borilmoqda. Maxsus tayyorgarlikka ega kadrlarni o‘qitish tizimini joriy qilish, maxsus fondga ega kutubxonalarini malakali kadrlar bilan to‘ldirish va xizmat faoliyatining sifatini oshirishga olib keladi. Bunday tizimning bosqichma-bosqich amaliyotga tadbiq qilinishi orqali foydalanuvchilar va kutubxona o‘rtasida uzviy aloqalarni o‘rnatish mumkin bo‘ladi.

Xalqaro ta’limda ko‘zi ojizlar psixologiyasi va ularning muammolarini o‘rganuvchi tiflogiya fani keng rivojlangan. Ko‘zi ojiz bo‘lgan shaxslarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va moslashishiga yordam beruvchi mutaxassislar aynan tiflogolgar hisoblanadi. Afsuski, bizning tiflogiya sohasi hali o‘zining to‘liq rivojlanishiga erishmagan, mutaxassislar esa juda kam. Tiflogiya sohasida mutaxassislar tayyorlanmaydi, balki ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan maktab-internatlar o‘qituvchilariga ushbu soha bo‘yicha sertifikatlar beriladi. Shuningdek, ko‘zi ojizlarning ta’lim olish jarayonida faqat brayl yozuvini o‘rganishlariga e’tibor qaratilmoqda, lekin ko‘zi ojizlik faqat brayl yozuvni bilan chegaralanmaydi. Bu faqatgina ko‘zi ojizlarning bir qismi uchun foydali bo‘lishi mumkin, ammo ularning to‘liq ijtimoiy moslashuvi uchun ko‘proq omillar zarur [2].

Zamonaviy media makonining rivojlanishi, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiylashtirish va reabilitatsiya qilish sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kutubxona – millatni insonparvarlashtirish uchun muhim salohiyatga ega ijtimoiy soha bo‘lib, u tez rivojlanayotgan media texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Shuningdek, kutubxona-axborot muassasalari ijtimoiy integratsiya va moslashuv funktsiyalarini bajarishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashda muvaffaqiyatlari natijalarga erishmoqda.

Zamonaviy kutubxona faqat zamonaviy jihozlarga ega bo‘lishi yetarli emas. Agar kutubxona zamonaviy jihozlarga, kitoblarga va maxsus sharoitlarga ega bo‘lsa-da, lekin yuqori malakali kutubxonachilarsiz faoliyat yuritsa, bunday kutubxona samarali bo‘lmaydi. Kutubxonaga foydalanuvchilarini jalb qilishda, ayniqsa imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ishslashda kutubxonachining roli beqiyosdir. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus xizmat ko‘rsatish zarur, chunki ularning kutubxonaga kelishi va kitob tanlash jarayoni o‘ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Sog‘lom odamlar uchun oddiy bo‘lgan jarayonlar, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun juda murakkab bo‘lishi mumkin. Bunday kitobxonlarga malakali kutubxonachi xizmat ko‘rsatishi, ularning kutubxona bilan munosabatini va uning xizmatidan foydalanish istagini yaxshilashga yordam beradi. Kutubxonachi kadrlarini tayyorlashda asosiy e’tibor nafaqat umumiyl fanlarga, balki imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ishslash uchun zarur bo‘lgan psixo-

logik va maxsus bilimlarga ham qaratilishi lozim. Hozirgi kunda bakalavriat darajasiagi talabalarga umumiy kutubxonashunoslik fanlari o‘qitilmoqda, ammo imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar bilan ishlashni o‘rgatuvchi maxsus fanlar ko‘proqe’tiborga olinishi kerak. Agar talabalar bakalavr-yillarida bu fanlarni o‘rganishsa, ular keyinchalik imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ishlash uchun boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘lishadi. Masalan, talaba ko‘zi ojizlar kutubxonasiga ishga joylashsa, lekin brayl yozuvi bilan tanish bo‘lmasa, maxsus fond bilan qanday ishlashni bilmaydi. Bunday holatlarda talabaga kamida 1-2-yil davomida qo‘sishimcha bilim va tajriba kerak bo‘ladi. Agar talabalar bakalavr-yillarida maxsus fanlar o‘qitilgan bo‘lsa, ular kerakli bilimlarga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, agar talaba ommaviy kutubxonaga ishga joylansa, va kutubxonaga kelgan foydalanuvchilarning gapirish yoki eshitishida nuqsoni bo‘lsa, qanday xizmat ko‘rsatishini bilishi lozim. Yosh talaba hech bo‘lmaganda qo‘l harakatlari orqali aloqada bo‘lish, kutib olish va kitob izlashda yordam berish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak. Kutubxona-axborot xizmatlarining sifatini oshirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning kutubxonadan samarali foydalanishini ta’minalash uchun, kutubxonachilarni tayyorlash tizimi takomillashtirilishi zarur. Bu nafaqat kutubxonalarning samaradorligini oshiradi, balki jamiyatdagি barcha shaxslarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madatov, I. Y. (2024). Inklyuziv ta’lim: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali. – 240 b.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki>

Xurshidov Damirjon
O'zDSMI, 2-kurs "Qo'g'irchoq teatr rejissyorligi"
ta'lim yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: O'zDSMI professori M.Ashurova

SAN'ATDA USTOZLIK – QALBDAN QALBGA O'TUVCHI VORISLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada san'atda, xususan teatr va qo'g'irchoq teatrda ustoz-shogird an'anasing o'rni va ahamiyati yoritiladi. Ustozlikning nafaqat kasbiy mahorat, balki ma'naviy tarbiya, ruhiy yetakchilik va ijodiy davomiylikni ta'minlovchi vosita ekani misollar asosida ochib beriladi. Maryam Ashurova va Fatxulla Xodjayev singari ustozlar faoliyati, ularning shogirdlari tajribasi orqali bu an'analing uzlucksizligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: san'at, ustoz–shogird an'anasi, teatr, qo'g'irchoq teatri, tarbiya, ijodiy davomiylik, sahna, mahorat, pedagogika, teatr maktabi

Abstract. This article explores the significance of the mentor-apprentice tradition in the field of art, particularly in theatre and puppet theatre. Mentorship is presented not only as the transfer of professional skills but also as a means of spiritual development and creative continuity. The uninterrupted transmission of this tradition is illustrated through the work of prominent educators such as Mariyam Ashurova and Fatkhulla Khodjaev, and the accomplishments of their students.

Keywords: art, mentorship tradition, theatre, puppet theatre, education, creative continuity, stage, mastery, pedagogy, theatre school.

**"Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila"**

A.Navoiy .

Bugungi kunda san'at va ijod sohalarida insonning qobiliyati muhim o'rin tutadi. Har bir ijodiy jarayon ortida o'ziga xos iste'dod, sezgirlik va estetik tafakkur yotadi. Ayniqsa, san'at bilan shug'ullanuvchi insonda badiiy tasavvur, obrazli fikrlash va ichki kechinmalarni ifoda etish qobiliyati yetakchi o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijoddagi qobiliyat oddiy bilim emas, balki hissiyot, estetik did va o'ziga xoslikka asoslangan murakkab psixik jarayondir.

"Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari" [1, B.478.]. Aynan ana shu imkoniyat va salohiyatni rivojlantirishda ustoz – mo'tabar va yetuk shaxs sifatida katta o'rin tutadi, ayniqsa san'at sohasida bu hissaning ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonda inson tafakkuri va tuyg'ularini estetik shaklda ifodalovchi vosita sifatida san'at alohida o'rin egallaydi. "San'at-insonning dunyoqarashiga, ichki tarbiyalanishiga, aql idroki boy bo'lib shakllanishiga yordam beradi" [2, B.3.].

San'at sohasida ustoz-shogird an'anasi qadim zamonlardan shakllanib, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan muqaddas qadriyatga asoslangan an'ana hisoblanadi. Bu an'anada mohir ustoz o'z bilimini, tajribasini hamda san'atdagi sir-asrlarni shogirdlariga sabr-toqat va mehr bilan o'rgatadi. Mazkur an'ana orqali ustoz o'z san'atini shogirdi vositasida davom ettiradi, uni asrab-avaylaydi, shogird esa san'atning nozik jihatlarini puxta o'zlashtirib, uni rivojlantirish va yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Eng muhimmi, bu an'ana san'atdagi uzlusizlikni ta'minlab, avlodlar o'rta-sidagi ma'naviy va estetik bog'liqlikni mustahkamlaydi hamda qadriyatlar va tarixiy an'analarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Ustozlar o'z shogirdlariga nafaqat kasbiy jihatdan, balki hayotda ham o'z o'rnini topib ketishida muhim rol o'ynaydilar. Biz, talaba yoshlar, ustozlarimizdan tahsil olar ekanmiz, ularning bizga kasbga sadoqatli bo'lish, o'z ishimizni chin dildan sevish va haqiqiy professionallikka intilish ruhini singdirayotganiga guvoh bo'lamiz. Har bir ustozning o'ziga xos yo'nalishi, tarbiyaviy yondashuvi va prinsiplariga asoslangan individual uslubi mavjud.

Afsuski, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga katta orzular bilan kirib kelgan ba'zi talabalar haqiqiy ustozlarning qat'iy prinsiplariga bardosh bera olmay, qachondir orzu qilgan kasblaridan voz kechib, o'qishni tark etayotgan holatlarga ham guvoh bo'lamiz. Bu esa biz yoshlar uchun achinarli fojiadir. Chunki hech bir ustoz o'z shogirdiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ularning har bir tanbehi, har bir maslahat va sabog'i shogirdning kelajakdagi kamoloti uchun berilgan bebafo ta'lim manbaidir.

Bu ayniqsa teatr san'ati vakillari – aktyorlar va rejissyorlar uchun muhimdir. Chunki bu sohada nafaqat kasbiy mahorat, balki insoniy barkamollik, sabr, jamoada ishlash madaniyati va chuqur mas'uliyat hissi ham zarur hisoblanadi. Bu borada mashhur teatr arbobi Yevgeniy Vaxtangovning quyidagi fikrini eslab o'tishimiz asoslidir. "Studiya-chilarning ahloqiy mezoni deb atalgan bu talablar, institut talabalari uchun ham dasturlamal bo'lib qolsa ajab emas.

Ular quyidagilar:

Muomilada – shirinsuxanlik .

Kundalik hayotda – kamtarinlik .

Do'stlarga yordam qo'lini cho'zishlik .

Jamoa ishida bir biriga yelkadoshlik .

Yurishturishda – oliftagarchilik qilmaslik va manmansiramaslik.

O'zaro munosabatlarda – xayrixohlik, o'zgalar muvaffaqiyatidan quvonish.

Jamoat joylarida – yengil tabiatlikdan uzoq bo'lish, o'zini ko'z-ko'z qilmaslik

Tanqidiy fikrlarga sabrli bo'lish" [3, B.10.].

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasida uzoq-yillardan buyon ustozlik faoliyatini olib borayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor M.Ashurova bugungi kunda biz, talaba yoshlarga katta bilim, hayotiy tajriba va san'atga bo'lgan mehrni ularшиб kelmoqdalar. Ustoz Maryam Xamidovna doimo bizga shunday deydilar: "Haqiqiy ustoz, eng avvalo, talabani ijodkor shaxs sifatida shakllantirishi zarur. Buning uchun u talabani ichki dunyosidan kelib chiqib, uning individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi lozim".

Shuningdek, yosh bo‘lishlariga qaramasdan san’at sohasida ustoz sifatida shakllanib borayotgan, “Aktyorlik mahorati” fanidan dars mashg‘ulotlarini olib borayotgan ustozimiz katta o‘qituvchi U.Musinov K.S.Stanislavskiyning “Aktyorda temir intizom bo‘lishi shart” degan fikriga tayangan holda doimo shunday deydilar: “Aktyor yoki rejissyor, eng avvalo, shaxs bo‘lishi kerak. Ular oddiy odamlardan har doim bir necha qadam oldinda bo‘lishi zarur – bu harakatda, yurish-turishda, bilimda, mahoratda, hatto so‘zlashda ham aks etishi kerak. Har bir gapni o‘ylab, tafakkur bilan aytish aktyor shaxsiyatining ajralmas qismidir”.

Yuqoridagi fikrlar zamirida aktyor va rejissyor shaxsiyati, uning nutqi va tafakkuri naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rish mumkin. Zero, so‘z – bu san’atda eng kuchli vositalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, ustozlarimizning yuqoridagi fikrlarini mashhur mutafakkir Jaloliddin Rumi misralari bilan yanada chuqurroq anglash mumkin:

“Bitta so‘z olamni vayron qiladi,
Bitta so‘z qo‘rkoqni polvon qiladi” [3, B.58.].

Ana shunday saboqlar, o‘gitlar, ustozlarning prinsip va uslublari-yillar davomida biz – shogirdlarning qalbi va ongiga singib boradi. Biz, talaba yoshlar, ustozlarimiz bergen har bir darsni, har bir o‘gitni qulog‘imizga quyib olib, unga amal qilishimiz zarur. Ustozlarning tanbih va tanqidlari esa doimo bizning kamolotimizga xizmat qiladigan bebafo saboqlardir. Ba’zida pedagog ustozlarimiz bizga nisbatan tanqidiy fikr bildiradilar, qattiqroq gapiradilar. Bunday vaziyatlarda ba’zi yoshlar ko‘r-ko‘rona ranjib qolishi mumkin. Ammo vaqt o‘tib, aynan o‘sha tanqidlar orqasida katta ma’naviy va kasbiy tarbiya mujassam ekanini tushunamiz.

Yana bir kafedramiz ustozlaridan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent F.Xodjayevning bizga aytgan quyidagi so‘zleri buni yaqqol tasdiqlaydi: “Siz, talabalar, o‘zingiz bilmagan holda hayotingizdagi eng katta matabni bosib o‘tyapsizlar. Haqiqatni aytsam, buni hozir tushunmasligingiz mumkin, ammo vaqt o‘tadi – bir kun kelib bu yo‘lning nechog‘lik qadrli va bebafo bo‘lganini chuqur his qilasizlar”.

Darhaqiqat, biz yoshlar ustozlardan faqat bilim olish bilan cheklanmasligimiz, balki ularning tajribasi va san’at maktablarini ham o‘rganishimiz, davom ettirishimiz zarur. Chunki bugun bizga ta’lim berayotgan ustozlarning o‘zleri ham o‘z vaqtida buyuk ustozlardan saboq olganlar, ularning an’analariga sodiq qolganlar.

Masalan, professor M.Ashurova – Rossianing Sankt-Peterburg shahrida birinchilardan bo‘lib “Qo‘g‘irchoq teatri kafedrasini” tashkil etgan taniqli pedagog M.Koroliov qo‘lida tahsil olgan. Ustoz-shogird an’anasiga sodiq qolgan holda, hozirgi kunda ushbu teatr maktabini biz – yosh avlodga mehr bilan o‘rgatib kelmoqdalar.

Shuningdek, dotsent F.Xodjayev ham o‘zining ustozlaridan biri – O‘zbekistonda “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati” kafedrasini asoschisi S.Iogelsin maktabini davom ettirib kela-yotgan fidoyi san’atkorlardan biridir. Bugungi kunda M.Ashurova va F.Xodjayev kabi ustozlar maktabi doirasida yetishib chiqqan ko‘plab shogirdlar yurtimiz teatrлari va san’atning turli yo‘nalishlarida faoliyat yuritmoqdalar. Bu esa ustoz-shogird an’anasi ning nafaqat davom etayotganini, balki izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Mariyam Ashurovaning pedagogik faoliyati-yillar davomida samarali natijalar berib kelmoqda. Bu natijalarni, avvalo, ustozning yetishtirgan shogirdlari misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Professor M.Ashurovaning bugungi kunda faoliyat yuritayotgan shogirdlari soni ko‘plab bo‘lib, ular respublikamizning turli teatrлари va san’at muassasalarida aktyor, rejissyor, pedagog hamda rassom sifatida samarali faoliyat olib bormoqdalar. Ustoz tomonidan berilgan ta’lim va tarbiya bugungi kunda o‘z mevasini bermoqda. Ko‘plab shogirdlari ustozni muntazam yo‘qlab turadi, ustoz-shogird an’anasiga sodiq qolgan holda o‘z bilim va tajribalarini boshqalarga ulashmoqda, biz – talaba yoshlari uchun esa mahorat darslari o‘tkazib, amaliy saboq berishda davom etmoqdalar.

Ushbu shogirdlar orasida alohida tilga olinadiganlar quyidagilardir: Azim Mullaixonov – Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatri direktori; Sadulla Abdullayev – rejissyor, “Zamin yulduzлari” studiyasi bosh direktori; Valijon Shamshiyev – qiziqchi va “Barkamol avlod” maktabi direktori; Tavakkal Sultonov – Farg‘ona viloyati qo‘g‘irchoq teatri direktori; Anvar Qurbonov – pedagog, O‘zDSMI Registrator ofis bo‘limi boshlig‘i; Baxtiyor To‘rayev – O‘zbek milliy akademik drama teatri bosh rassomi va rejissyor; Lola Usmanova – pedagog, O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi mudiri; Shaxzoda Eshmuxammedova – O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri Oliy toifali aktyor va b.

Xuddi shuningdek, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Fatxulla Xo‘jayevning ijodiy maktabi ham bugungi kunda o‘zining munosib davomchilariga ega. Ustozdan ta’lim olgan ko‘plab shogirdlar hozirda turli teatr sahnalarida, oliy ta’lim muassasalarida hamda madaniyat sohasining boshqa yo‘nalishlarida samarali faoliyat olib bormoqdalar. Jumladan Dmitriy Chernov – Obrazsov nomidagi Moskva markaziy akademik teatri aktyori, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan artist; Rustam Sadikov – O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri sahnalashtiruvchi rejissyor; Ravshan O‘taganov – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bosh mutaxassis; Ulug‘bek Musinov – pedagog, O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi katta o‘qituvchisi; Islom Berdimurotov – pedagog, O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi; Bekzod Jo‘rayev – “O‘zbekiston 24” telekanali suhandoni va b.

Demak, san’atda ustoz–shogird an’anasi – bu vaqt bilan o‘lchanmaydigan, avloddan avlodga o‘tuvchi ruhiy va ma’naviy merosdir. Bu an’ana orqali nafaqat kasb, balki dunyoni idrok etish tarzi, san’atga bo‘lgan munosabat, insoniy qadriyatlar, sabr, fidoyilik va iroda singdiriladi. Chunki sahna bu shunchaki ko‘rinish emas – bu ichki olamning, ruhning aks sadosi. Ustoz o‘zidan bir umrga qoladigan bu ovozni – o‘zining ovozini – shogird qalbiga joylaydi. Va bu sado keyin sahnada, so‘zda, nigohda, harakatda yashay boshlaydi.

Shuning uchun ham ustoz–shogird an’anasi bu – saboq berishdan ko‘ra ko‘proq yurakdan yurakka o‘tuvchi ma’naviy vorislik, san’atdagи mehrning davomiyligini ta’minlovchi muqaddas rishtadir. Ustoz shogirdga ustozlik qiladi, ammo chin ustozlik – shogirdda davom topadi. Haqiqiy ustoz har bir sahnada jonidan parcha qoldiradi, chin shogird esa bu parchani unutmasdan, balki unga yangi nafas, yangi ruh, yangi ifoda bag‘ishlaydi. Ana shunda san’at abadiyat sari yo‘l oladi.

USTOZ

Ko‘p do‘stlari birla, Hazrat Navoiy,
Borardilar otda, ko‘chalar aro.
Suhbatlari qizg‘in, yurt tinchin o‘ylab,
Ne qilsak xalq ko‘ngli topadi oro.
Shu payt Hazrat asta, otdan tushdilar,
Chetdagi bolani o‘pib, quchdilar,
So‘ngra, otsiz, yayov andak yurdilar,
Do‘stlar hayron, unga, savol berdilar.
“Do‘stim, qalbimizni tirnashmidi bu?
Yoki, barchamizni, sinashmidi bu?”
Hazrat javob qildi muloyim, asta,
“Do‘stlar uzr, g‘azablanmang bir past.
Shu yerda dars olgandim, bir ulug‘ zotdan,
Shuning – chun bu yerda, men tushdim otdan.
Hatto, nevarasin e’zozli bilib,
Quchdim uni, ustoz hurmatin qilib”.

Valijon Shamshiyev [5, B.118.]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qiyomiddin Nazar. Falsafa. – Toshkent, 2004. – B.478.
2. Abdullayeva N.D. San’at tarixi. – Toshkent, 2006. – B.3.
3. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent, 2005. – B.10.
4. Bayandihev T. Qo‘g‘irchoqlarga jon bag‘ishlagan san’atkor. – Toshkent, 2022. – B.118.

Эргашева Лола Раимовна.

Заместител директора по научной работе,

Государственная научно-медицинская библиотека МЗ РУз

ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНАЯ ПОДДЕРЖКА ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ МЕДИЦИНСКОЙ БИБЛИОТЕКИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ЭЛЕКТРОННОЙ ПОИСКОВОЙ ПЛАТФОРМЫ ГНМБ

Аннотация. Статья посвящена изучению методов Информационно-библиотечного обслуживания в медицинских библиотеках на примере Электронной поисковой системы (ЭПС) Государственной научно-медицинской библиотеки Узбекистана. Рассматриваются архитектура, функционал и значение системы в условиях цифровизации медицинской науки и здравоохранения. Особое внимание уделяется значению электронной библиотеки в обеспечении свободного доступа к медицинской Информации для профессионалов, исследователей и студентов.

Ключевые слова: медицинская библиотека Узбекистана, Информационное обеспечение, электронная библиотека, искусственный интеллект, ИИ, ГНМБ, цифровые ресурсы, поиск Информации, поисковая система *Natmedlb.uz/fm*.

Abstract. The article is dedicated to exploring methods of information and library services in medical libraries, using the Electronic Search System (ESS) of the State Scientific Medical Library (SSML) of Uzbekistan as a case study. It examines the system's architecture, functionality, and significance in the context of the digitization of medical science and healthcare. Special attention is given to the role of the electronic library in ensuring open access to medical information for professionals, researchers, and students.

Keywords: medical library of Uzbekistan, information support, electronic library, artificial intelligence, AI, SSML, digital resources, information retrieval, search system *Natmedlb.uz/fm*.

Современное здравоохранение невозможно без быстрого доступа к достоверной и актуальной медицинской информации [1]. В условиях роста объёмов научных данных и развития цифровых технологий важную роль играют специализированные библиотеки, такие как ГНМБ [3]. Одним из ключевых инструментов библиотеки является ЭПС *Natmedlb.uz/fm*, которая обеспечивает оперативный поиск и доступ к научным и образовательным медицинским материалам. Информационно-библиотечное обеспечение в медицине включает сбор, систематизацию, хранение и предоставление научной Информации, что критически важно для качества диагностики, лечения и исследований. Электронные медицинские библиотеки служат Централизованными платформами для хранения и поиска данных, способствуя повышению уровня медицинского образования и клинической практики [4,5].

ГНМБ является ведущим центром по сбору, хранению и предоставлению медицинской Информации в Узбекистане. Её фонды насчитывают более 1 миллиона единиц хранения, включая книги, журналы, диссертации, научные отчёты, авторефераты и электронные ресурсы [2]. В рамках цифровизации библиотека активно развивает цифровые сервисы, среди которых выделяется ЭПС Natmedlb.uz/fm.

ЭПС ГНМБ представляет собой веб-платформу, обеспечивающую доступ к электронному каталогу и внешним базам данных. Основные функции системы включают:

Универсальный поиск по авторам, заглавиям, ключевым словам, УДК и другим критериям. Фильтрацию и сортировку результатов по дате, типу документа, языку и другим параметрам. Доступ к полнотекстовым материалам для зарегистрированных пользователей. Интеграцию с международными платформами, такими как PubMed, Scopus и др.

Персонализацию: создание профилей, списков литературы и истории поиска. ЭПС ГНМБ значительно упрощает и ускоряет процесс поиска информации, сокращая время на обработку источников.

Преимущества ЭПС для пользователей: Для врачей – оперативный доступ к клиническим рекомендациям, справочникам и протоколам.

Для студентов и преподавателей – удобный инструмент для подготовки к занятиям и научной работы. Для исследователей – доступ к широкому спектру научных источников, включая редкие издания.

Система особенно ценна в условиях удалённого доступа, что актуально для гибридных моделей образования и научной коммуникации в постпандемийный период. Перспективы развития ЭПС: Внедрение искусственного интеллекта для интеллектуального поиска (Perplexity AI, Oxytech.ai, Reca.ai, Dimension.ai, LENS). Расширение мультимедийного контента (видео, симуляции, обучающие модули).

Интеграция с платформами электронного обучения (LMS).

Развитие многоязычного интерфейса для международной аудитории [6].

ЭПС ГНМБ охватывает 110 тематических разделов, включая более 500 тысяч полнотекстовых документов на узбекском, русском и английском языках, что делает её универсальной и многоязычной. Контент формируется из открытых источников (Open Science, Open Access) и благодаря вкладу профессионального сообщества, включая коллег из стран СНГ. База данных обновляется ежедневно, а команда ГНМБ обеспечивает техническую поддержку и адаптацию системы под запросы пользователей. Среди новых тематических разделов:

Превентивная медицина,

Ядерная медицина,

Народная медицина,

Телемедицина.

Развитие системы поддерживает команда профессионалов, включающая библиографов, ИТ-специалистов и научных консультантов, что гарантирует её высокое качество и удобство для пользователей [6,7].

Заключение

ЭПС ГНМБ – это современный инструмент Информационно-библиотечного обеспечения, соответствующий требованиям цифровой эпохи. В условиях роста объёмов медицинской Информации и необходимости оперативного обновления знаний система играет ключевую роль в обеспечении доступа к актуальным данным. Её функционал – включая расширенный поиск, доступ к полнотекстовым источникам, интеграцию с международными базами и персонализированные сервисы – обеспечивает удобство и эффективность работы с Информацией.

ЭПС способствует сокращению времени и усилий на поиск научных и образовательных материалов, поддерживая как повседневную работу врачей, так и исследовательскую деятельность. В контексте непрерывного медицинского образования система повышает квалификацию специалистов, расширяет их профессиональные горизонты и поддерживает принятие клинических решений.

Единый цифровой ресурс с Централизованным доступом к медицинской литературе создаёт целостное Информационное пространство в здравоохранении, где ГНМБ выступает не только хранилищем знаний, но и активным участником образовательного и научного процесса. ЭПС ГНМБ отражает тенденции цифровизации и формирует новую культуру использования научной Информации, способствуя развитию медицины, образования и науки в Узбекистане.

Список литературы:

1. Болкунова, Фаина Владимировна. Библиотечное дело: перспективы сотрудничества. / Ф. В. Болкунова // Kutubxona.uz. – 2012. – №4. – С. 21-24.
2. Ergasheva L. R. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufida-gi Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi / L. R. Ergasheva // Medical express: Медицинский специализированный научно-практический социально-рекламный журнал / ОО Ассоциация Medical express. – Ташкент: Medical express. – 2022. – № 2. – С. 24.
3. Эргашева Л. Виртуальное библиотечное обслуживание: научное издание / Л. Эргашева // Medical express: Медицинский специализированный научно-практический социально-рекламный журнал / ОО Ассоциация Medical express. – Ташкент: Medical express. – 2020. – № 1. – С. 62.
4. Эргашева Л. Медицинские информационно-библиотечные учреждения в современных условиях: научное издание / Л. Эргашева // Здравоохранение Узбекистана. – Ташкент, 2017. – №45 (3 ноября). – С. 74
5. Эргашева Л. Р. Медицинские библиотеки Узбекистана – как участники открытой научной коммуникации в современном мире // Kutubxona.uz. – 2024. – № 4. – С. 31-34.
6. Эргашева Л. Р. Роль в обеспечении информационной поддержки врачей и информационно-библиотечная Поисковая система NATMEDLIB.UZ/FM в помощь последипломного образования // INFOLIB. – 2024. – № 4. – С. 71-73
7. Эргашева Л. Р. ChatGPT в медицинских библиотеках, возможности, направленные на будущее: интегративный обзор // Журнал Медицина и инновации: Электронный научно-практический журнал. – 2024. – № 3 (15). – С.

Эргашева Екатерина

Государственная Научная медицинская библиотека
Министерства здравоохранения Республики Узбекистан,
главный библиотекарь Отдела Научной Медицинской информации

ИСТОРИЯ ДОКТОРА: ЦИФРОВОЙ МЕДИАПРОРЫВ В РАЗВИТИИ БИБЛИОТЕК

Аннотация. Статья посвящена проекту “История доктора”, который демонстрирует адаптацию библиотек к цифровой эпохе. Проект представляет собой серию видеоинтервью с врачами, которые делятся профессиональными и личными историями, подчеркивая роль библиотеки как центра культуры и образования. Рассматриваются аспекты цифровой трансформации, преимущества медийных технологий, а также вызовы и перспективы их внедрения. Обосновывается значимость таких инициатив для поддержания актуальности библиотек, привлечения новой аудитории и укрепления их социальной роли. Предлагаются рекомендации по масштабированию проекта и решению организационных трудностей.

Ключевые слова: библиотеки, цифровая трансформация, медийная сфера, устная история, проект “История доктора”, YouTube, информационное общество, социальные сети, культурное наследие, инклюзия.

Abstract. The article is dedicated to the “Doctor’s Story” project, which showcases the adaptation of libraries to the digital era. The project consists of a series of video interviews with doctors who share professional and personal stories, highlighting the library’s role as a cultural and educational hub. It explores aspects of digital transformation, the advantages of media technologies, as well as the challenges and prospects of their implementation. The significance of such initiatives for maintaining the relevance of libraries, attracting new audiences, and strengthening their social role is substantiated. Recommendations are provided for scaling the project and addressing organizational challenges.

Keywords: libraries, digital transformation, media sphere, oral history, “Doctor’s Story” project, YouTube, information society, social networks, cultural heritage, inclusion.

Современные библиотеки переживают период трансформации под влиянием стремительного развития цифровых технологий и изменения способов потребления информации. Их традиционная функция хранилищ печатных материалов сменился более активной ролью – центров общения, творчества и обмена знаниями. В условиях конкуренции с цифровыми платформами библиотеки вынуждены искать новые пути взаимодействия с пользователями, внедряя медийные технологии и переосмысливая свою миссию. Проект “История доктора”, реализованный в

одной из библиотек, является ярким примером такого подхода. В рамках проекта врачи делятся историями своего профессионального пути и связью с библиотекой, а их рассказы записываются в видеоформате и публикуются на YouTube. Статья анализирует значение этого проекта для библиотечной деятельности, его влияние на аудиторию и перспективы развития на основе научных данных и практического опыта.

Цифровая эпоха изменила подходы к доступу и восприятию информации. Исследования показывают, что более 85% пользователей интернета предпочитают визуальный контент, такой как видео, текстовым материалам [8]. Это создает вызов для библиотек, которым необходимо соответствовать новым ожиданиям аудитории. Как отмечает Власюк Л. И., “в Информационном обществе библиотеки должны эволюционировать из хранилищ знаний в активных участников цифровой среды” [1]. Использование медийных технологий становится стратегическим инструментом, позволяющим библиотекам сохранять свою актуальность.

Проект “История доктора” демонстрирует эту трансформацию, сочетая традиционные ценности библиотек – сохранение знаний и поддержка интеллектуального развития – с современными каналами коммуникации. Такой подход позволяет привлекать новых пользователей и укреплять связь с существующей аудиторией, представляя библиотеку как инновационное и открытое пространство.

Концепция и реализация проекта

Проект “История доктора” основан на методологии устной истории, которая фиксирует личные рассказы для сохранения профессионального и культурного наследия [9]. Врачи различных специализаций приглашаются для участия и рассказывают о мотивации выбора профессии, профессиональных вызовах, личных ценностях и роли библиотеки в их жизни. Интервью записываются в двух форматах: длинные беседы (15–20 минут) и короткие ролики (до 3 минут), которые публикуются на YouTube-канале библиотеки с аннотациями в социальных сетях.

Выбор видеоформата обусловлен его популярностью: в 2024 году YouTube насчитывает более 2,5 миллиарда активных пользователей ежемесячно [10]. Это позволяет проекту преодолевать географические ограничения и охватывать широкую аудиторию, включая тех, кто не может посетить библиотеку лично.

Преимущества проекта

Проект “История доктора” приносит библиотеке значительные преимущества, укрепляя её позиции в современном обществе. Видеоформат привлекает молодёжь и пользователей среднего возраста, ориентированных на визуальный контент, что способствует расширению аудитории. Публикация на YouTube обеспечивает доступность контента для жителей других регионов и стран, что подтверждается исследованиями о глобальном охвате видеоплатформ [7]. Это повышает репутацию библиотеки, так как истории врачей подчеркивают её интеллектуальный и профессиональный потенциал, позиционируя учреждение как центр притяжения для специалистов, что согласуется с выводами Савкиной С.В. о значении медийных технологий для имиджа библиотек [6].

Видеозаписи проекта формируют цифровой архив, который становится ценным ресурсом для исторических, социологических и медицинских исследований, продолжая традиции таких инициатив, как Oral History Association [9]. Онлайн-доступ с субтитрами обеспечивает инклюзивность, позволяя участвовать в проекте людям с ограниченными возможностями, пожилым и удалённым пользователям. Перевод контента на другие языки, например, английский или узбекский, может дополнительно расширить аудиторию.

Проект также усиливает образовательный потенциал: вдохновляющие истории врачей мотивируют зрителей и могут сопровождаться рекомендациями литературы, доступной в библиотеке, что стимулирует интерес к чтению и самообразованию. Подчеркивая вклад врачей в общество, особенно в контексте глобальных вызовов, таких как пандемия COVID-19, проект приобретает социальную значимость, формируя позитивное восприятие профессии и укрепляя роль библиотеки как института, объединяющего культурные, образовательные и общественные ценности.

Рол медиасфера в библиотечной практике

Интеграция медийных технологий в библиотечную деятельность подкреплена научными исследованиями и способствует адаптации библиотек к современным реалиям. Прежде всего, она усиливает образовательную функцию: видеоконтент, дополненный ссылками на научные ресурсы или тематические выставки, становится эффективным инструментом популяризации знаний. Это особенно важно в цифровой среде, где “медиа делают библиотеки проводниками Информации” [2,6].

Проект способствует формированию сообщества, объединяя врачей, библиотекарей и зрителей через комментарии и обсуждения в социальных сетях, что укрепляет социальные связи. Уникальный контент повышает конкурентоспособность библиотек в перенасыщенном информационном пространстве и развивает навыки работы с искусственным интеллектом при редактировании фото- и видеоматериалов [4,5].

Работа с медиа также стимулирует профессиональное развитие сотрудников: освоение навыков съёмки, монтажа и продвижения контента повышает их квалификацию и открывает новые возможности для библиотечной деятельности. Экономическая эффективность подхода делает его привлекательным: использование бесплатных платформ, таких как YouTube, минимизирует затраты, а в долгосрочной перспективе проекты могут привлечь финансирование через спонсорство или гранты, обеспечивая устойчивость. Таким образом, медиасфера становится ключевым фактором трансформации библиотек, усиливая их образовательную, социальную и профессиональную роль.

Вызовы и решения

Проект сталкивается с рядом трудностей: ограниченные ресурсы для приобретения оборудования, недостаток технических навыков у сотрудников и конкуренция с профессиональными медиа. Для их преодоления предлагаются следующие решения:

Организация обучения персонала через бесплатные онлайн-курсы (например, Coursera или YouTube Creator Academy). Постепенное приобретение оборудования или сотрудничество с местными организациями.

Привлечение волонтёров или студентов для технической поддержки проекта. В долгосрочной перспективе проект может стать самоокупаемым за счёт партнёрств с медицинскими учреждениями или грантовой поддержки.

Перспективы развития Проект имеет значительный потенциал для масштабирования. В будущем возможно: Привлечение представителей других профессий (учителей, учёных, деятелей культуры). Внедрение интерактивных форматов, таких как прямые трансляции или онлайн-дискуссии. Создание тематических плейлистов, например, “Медицина в кризисные времена” или “Женщины в профессии”. Эти меры повысят вовлечённость аудитории и сделают контент более структурированным.

Заключение Проект “История доктора” демонстрирует успешную адаптацию библиотек к условиям цифровой эпохи. Использование медийных технологий позволяет привлекать новую аудиторию, обогащать культурное пространство и создавать диалог между традициями и современностью. Успех проекта подтверждает, что библиотеки могут оставаться актуальными, сохраняя свою миссию и открывая новые возможности для взаимодействия с обществом.

Список литературы:

1. Власюк Л.И. Стратегические возможности библиотек в эпоху цифровизации и экономики впечатлений / Л. И. Власюк, И. З. Чхотуа, А. С. Хворостянная // Стратегирование: теория и практика. – 2022. – № 1. – URL
2. Искусственный интеллект в библиотечном деле: возможности и перспективы [Электронный ресурс] // Einfolib.uz. – URL: <http://einfolib.uz>.
3. Лисовский В.Г. Применение технологий искусственного интеллекта в библиотечно-информационной сфере / В. Г. Лисовский // Информационные технологии и библиотечное дело. – 2019. – № 1. – С. 44-50.
4. Ратнер Н.П. Проблема приватности и защиты данных в контексте искусственного интеллекта, вопросы этики / Н. П. Ратнер // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. – 2023. – № 12 (110).
5. Сабденова Г.Е. Искусственный интеллект в библиотеках: опыт историко-сравнительного анализа / Г. Е. Сабденова, Ж. Т. Космырза // Вестник КазНУ. Серия историческая. – 2024. – Т. 113, № 2. – С. 197-206.
6. Савкина С.В. Мультимедийные продукты в библиотечно-информационном обслуживании: отечественный и зарубежный опыт / С. В. Савкина // Библиосфера. – 2022. – № 2.
7. Cunningham S. Students and Their Videos: Implications for a Video Digital Library / S. Cunningham, D. Nichols, J. Bowen // Digital Libraries: Research and Development. – 2016. – P. 37-42. – DOI: 10.1007/978-3-319-49304-6_5.
8. Global Web Index. Digital Trends 2023 Report / GWI. – London: GWI, 2023. – 120 c.

9. Thompson P. The Voice of the Past: Oral History / P. Thompson. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – 368 c.
10. YouTube Official Blog. YouTube Statistics 2024 [Электронный ресурс] // URL: <https://blog.youtube/press> (дата обращения: 08.04.2025).

SADOQAT ERMATOVA

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Folklor va etnografiya kafedrasи o'qituvchisi*

**BO'LAJAK FOLKLOR IJROCHILARINING AKTYORLIK
MAHORATINI RIVOJLANTIRISH**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratlarini rivojlanirishda va milliy qadriyatlarimizning bugungi kundagi ahamiyati hamda qadriyatlarni ulug'lashga bo'lgan islohotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbek, meros, folklor, do'ppi, urchuq, aktyor, marosim, urf-odat, e'zoz.

Abstract. This article discusses the development of acting skills of future folklore performers and the importance of our national values today, as well as reforms to promote them.

Key words: Uzbek, heritage, folklore, skullcap, urchuq, actor, ceremony, tradition, respect.

Yangi O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy taraqqiy etishida san'at janrlari qatorida milliy qadriyatlarimizni ulug'lovchi, milliy urf-odat va marosimlar bilan yo'g'rilgan sahna asarlarining namoyishi, sahna san'atining ahamiyati beqiyos bo'lib, boy tariximiz, shonli o'tmishimiz, moddiy va nomoddiy madaniy merosimizning asl boqiyligi hamda navqironligini ta'minlashdagi birlamchi ma'naviy vositadir.

Sahna san'ati millatning boy tarixi va kelajagini o'zida mujassam etib namoyon qila oladigan yagona jonli ko'zgu bo'lib, bu jarayondagi ilm-ma'rifikat, ijod va mahoratning badiiy uyg'unligi moziyning to'laqonli yoritilishi va tomoshabinga aniq va to'g'ri dallarni badiiy obrazlarda yetkazishni ta'minlaydi.

Rivojlanayotgan O'zbekiston madaniy sharoitida har bir sohaning taraqqiyot manbai sifatida ilm-ma'rifikat, ilmiy-tadqiqot ishlari birlamchi bo'lib, shonli tarix haqiqatini sahnnaviy badiiy haqiqat orqali namoyish etish, har bir urf-odat va marosimlarni badiiy sahnnaviy talqinini ilmiy faraz va natijalarga asoslangan holda sahnalashtirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos taraqqiyotida muhim strategiyani tatbiq etib kelayotgan muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tub islohotlar va uning yorqin samarasida ilm-fan, ilmiy-tadqiqot, ma'rifikat, ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilib, san'at va uning tarbiyaviy ahamiyati, milliy qadryatlarni ulug'lovchi sahna asarlarini namoyish etilishi ijobiy qaror topmoqda.

Bu islohotlar zamirida ko'hna tarixni jonlantirish, ota-bobolarimiz ma'naviy mero-sini yanada keng targ'ib etish, ular tomonidan amalga oshirilgan buyuk ishlarni namuna sifatida ko'rsatish, bir so'z bilan aytganda ibrat namunasini shakllantirish, o'tmishdan faxrlanish va kelajakka ishonch masalalari o'rin olgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mavzuning metodologik asoslari borasida mutaxassislar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarga to‘xtalamiz. Jumladan, bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratlarini shakllantirishda K.S.Isayev va S.N.Ermatovalarning “Folklor asarlarini sahnalshtirish” o‘quv qo‘llanmalarida folklor san’atining ilk ko‘rinishlari hisoblangan badihago‘ylikdan, xalq o‘yinlariyu, oilaviy, maishiy hamda mavsumiy marosimlarga ketma ketlikda etapma etap o‘tilganini guvohi bo‘lamiz. Talabalarni milliy buyumlarni (do‘ppi, o‘rmak, so‘zana, ko‘za, urchuq, tol tovoq va hokozo) chuqur o‘rganish orqali mashqlar bajarishi, tez aytish, topishmoq, maqol, ertaklardan foydalanib mustaqil kichik ko‘rinish uchun ssenariy yozib, sahnada ijo etishlari ilk aktyorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqotchi Mamatqosimov J ijodi durdonalarini ta’riflab quyidagi fikrlarni bildiradi – “Xalq ijodi zamonaviy san’atning bitmas tunganmas chashmasi hisoblanadi.

Xalq ijodi og‘izdan-og‘izga, ustozdan-shogirdga, avloddan-avlodga o‘tib, tobora takomillashib, sayqal topib, taraqqiy etgan ijod mahsulidir. Unda xalqning mehnat faoliyati, ijtimoiy va maishiy hayoti, turmush, tabiat to‘g‘risidagi tushunchlari, madaniyati, e’tiqodi, orzu-istiklari va ideallari, poetic fantaziyasi, his-tuyg‘ulari va tafakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi o‘ylar o‘z ifodasini topadi.

Xalq og‘zaki ijodi Xalq ijodining durdonalari ommaning qobiliyatli vakillari tomonidan ijod etiladi, og‘izdan-og‘izga ko‘chib boshqalar ham bu asarlarni ijo qiladilar, uning boyib borishiga o‘z hissalarini qo‘sadilar, takomillashtiradilar, boshqa variantlarini yaratadilar. Shunday qilib, xalq ijodining yaxshi namunalari – o‘lmas an’anaga aylanadi.” [3-51-b.]

Xalqning madaniy va ma’naviy qadriyatlari, moddiy va nomoddiy merosi ming-yillar mobaynida qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib, milliy an’analar zamirida xalqimizning boy va qadimiy tarixi, orzu-istiklari, buyuk istiqbol manzaralari mujassamlashgandir.

Bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratlarini rivojlantirish, iste’dodini to‘g‘ri tarbiyalash, bu borada ibrat namunasini yanada ko‘paytirish maqsadida quyidagi tavsiyalar beriladi:

bo‘lajak folklor ijrochilarining o‘qishga qabul qilinish imtihonida ularning iste’dodi birlamchi baholansa, ularning sohaga bo‘lgan muhabbati va bilimdonligi yuzasidan nazariy jarayonlarni yanada kuchaytirish;

xalq namunasidagi folklor jamoalari faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan ijodiy video filmlar, ular ijrosidagi badiiy va hujjatli filmlar namoyishini tashkil etish;

o‘quv jarayonlarini folklor jamoalarining repertuarlari, xalq namunasidagi jamoalar bilan hamkorlikda tashkil etish;

malakaviy amaliyotlarni bevosita folklor jamoalarida o‘tash;

tajribali xalq namunasidagi folklor jamoalari ishtirokida davra suhbatlari, uchrasuvlar, master klasslar tashkil etish;

talabalar sahnasiga mo‘ljallangan milliy va xalqaro festivallarni tashkil etish va unda talabalar ishtirokini ta’minlash;

folklor tarixi va nazariyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish lozim.

Folklor asarlarini sahnalashtirish jarayonida xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-

odat va an'analarini aks ettirgan marosimlardan, afsona va dostonlardan foydalanishimiz yosh avlodni tarbiyalash, xalqimiz ijodiyotining eng yaxshi namunalari misolida ular dunyoqarashini shakllantirish, milliy o'zlikni anglashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki xalq og'zaki namunaliri bo'lgan milliy urf-odatlarimizni targ'ib qilish borasidagi sahna asarlarini sahnalashtirishda xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlardan samarali foydalanishda rejissyorning yuksak mahorati muhim bo'lib, mavzu g'oyasi va maqsadini ochib beruvchi, badiiy qiymatini ta'minlovchi marosimlar tanlash, ularni badiiy sintezlash, sahnalashtirish katta mas'uliyat talab etadi. Shuningdek, bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik mahoratlarini shakllantirishda o'tiladigan "Folklor asarlarini sahnalashtirish" fanida talabalar quyidagi fazilatlarni his qiladilar va o'rganadilar:

o'z vatanini seva oladigan, o'z kasbiga fidoiy, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishni;

ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqr tushuna oladigan hamda uni to'g'ri tahlil qila oladigan shaxs bo'lishni;

rejissura va dramaturgiya qonuniyatlarini va janrlarini chuqr biladigan, adabiy til meyorlarini to'g'ri talqin eta oladigan, tarixni biladigan, xalq og'zaki ijodiyotini huddular kesimida farqlay oladigan, san'at va uning badiiy qiymatini, san'at janrlarini farqlay oladigan bo'lishni;

zamonaviy axborot va texnika vositalaridan to'g'ri va unumli foydalana olishni bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ermatova S. Folklor asarlarini sahnalashtirish. – Toshkent: Shafoat nur fayz, 2024.
2. O'zbek xalq og'zaki poetik xrestomatiyasi / H.Razzoqov, T.Mirzayev, O.Safarov, K.Imomov. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. Mamatqosimov J. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 51 b.

Oybek Davlatov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

KUTUBXONALARNI RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kutubxonalarni raqamlashtirish davrida axborot xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa, axborot xavfsizlinini ta'minlashda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning zarurligiga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, kutubxonalar, ma'naviy xavfsizlik, axborot resurslari, himoY.

Abstract. This article discusses the importance of ensuring information security during the period of library digitization. In particular, special emphasis is placed on the need to ensure moral security in ensuring information security.

Keywords: digitization, libraries, moral security, information resources, protection.

Yangi O'zbekistonda axborot-kutubxona faoliyatini yanada takomillashtirishda axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatida har tomonlama foydalanuvchilarga sifatli va zamonaviy xizmat ko'rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, axborot resurs markazlarini boshqarishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning yangicha istiqbolli loyihalari amaliyotga tatbiq etildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – deya" ta'kidlagan edi. Haqiqatan ham qaysi davlatning ma'naviy salohiyati kuchli bo'lsa, ma'nan yengilmas kuchga ega bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekstonda ham jahonhamjamiyati singari kutubxona tizimida qayta integratsiya jarayoni yuz bermoqda. Aholining ayniqsa yoshlarining kitob va elektron kutubxonaga bo'lgan talabi yuqoriladi. O'z navbatida bu axborot resurs markazlarini boshqarishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va yangicha foydalanishni taqozo etmoqda.

Kitob bu tarix haqidagi ma'lumotlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi, moziy haqiqatlarini kelajakka eltuvchi, jamiyatdagi voqeliklar, ilm-fandagi yangilik va kashfiyotlarni o'zida qayd etib boruvchi, makon va zamon bilmaydigan inson zakosining buyuk mahsullaridan biridir. Xalqimiz azal-azaldan kitob o'qishga, u bilan oshno bo'lishga intilib yashab kelgan. Xalqimiz shuuridagi bu qadimiy an'ana bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mustaqillik-yillarida yurtimizda qadriyatlarni qayta tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, milliy g'ururni paydo qilish, adabiyot va san'atni ma'anaviyatning negizi sifatida rivoj toptirish, erkin fikr, ezgu so'z va xayrli amallarga bosh bo'lish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil qilib kelmoqda [1].

Kutubxonalarni raqamlashtirish davrida esa axborot xavfsizligini ta'minlash soha oldida turgan ham nazariy va amaliy-tashkiliy ishga aylandi.

Kutubxonalarni raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlashda bir qator jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. Kutubxonalarda saqlanayotgan kitoblar, ilmiy maqolalar, jurnallar va boshqa axborot resurslari raqamli shaklga o'tkazilgach, ular internet orqali oson kirib borilishi mumkin. Natijada, ma'lumotlarning o'g'irlanishi, qisman o'zlashtirilishi yoki o'zgartirilishi xavfi ortadi. Shu bilan birga, xorij kutubxonalarida raqamlashtirish davrida turli xil mazmundagi kitoblarni internet bazalariiga indekslamoqda. Bunda esa, ularni tahlil qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari ham mavjuddir.

Raqamli tizimlarga kirish imkoniyatlari kengayishi bilan kutubxonalar zararli dasturlar (viruslar, troyanlar, botlar) orqali tahdidiga duchor bo'lishi mumkin. Ushbu zararli dasturlar tizimlarni buzishi, axborotlarni o'g'irlashi yoki o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun, kutubxonalarda zararli dasturlarni aniqlash va ulardan himoya qilish uchun zamonaviy xavfsizlik yechimlari va dasturiy ta'minotlar talab etiladi. Bugungi kunda kutubxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun aniq siyosat va hujjatlar mavjud bo'lishi lozim. Aks holda, tizimlarda zaifliklar va xavf-xatarlar yuzaga kelishi mumkin. Xodimlarning axborot xavfsizligi bo'yicha malakali treninglardan o'tkazilishi, xavfsizlik siyosatlari va amaliyotlarining muntazam yangilanib turilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kutubxonalarni raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar va qat'iy xavfsizlik siyosatlari zarur. Foydalanuvchilarning axborot xavfsizligini ta'minlash va ularga ishonchli raqamli xizmatlarni taqdim etish uchun kutubxonalar o'z infratuzilmasini rivojlantirib, xavfsizlikka alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi, "Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg'onish davri kitob va kutubxonalardan boshlanadi" [2] – deya ta'kidlagani ham bejiz emas.

Endilikda kutubxonalarni raqamlashtirish jarayonida axborotlarning ma'naviy xavfsizligi faqat ularning texnik va fiziki xavfsizligini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki axborotning mazmuni, ijtimoiy va madaniy ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirilgan materiallarning to'g'riliqi, aniqligi va ishonchliligi axborotlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning asosiy qismidir. Axborotlar noto'g'ri ma'lumot-

lar yoki soxta talqinlar bilan tarqatilmasligi kerak, chunki bu jamiyatda noto‘g‘ri tu-shuncha va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, kutubxonalar axborotlarni raqamlashtirishdan oldin ularning ishonchliligin teksirib, faqat tasdiqlangan va ilmiy jihatdan asoslangan materiallarni tanlab olishlari kerak.

Bundan tashqari, raqamlashtirilgan axborotlar diniy yoki madaniy nuqtai nazarlar ni ham hisobga olishni talab qiladi. Ba’zi axborotlar diskriminatsion yoki stereotipik bo‘lishi mumkin, shuning uchun kutubxonalar ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash uchun axborotlarni tanlashda ehtiyojkorlik bilan yondashish zarur.

Kutubxonalar foydalanuvchilarni ma’naviy xavfsizlikka oid masalalarda o‘qitish va ularni axborotlarni mas’uliyatli ishlatishga o‘rgatishlari lozim. Axborotlardan ma’naviy zarar yetkazmaslik, ularni noto‘g‘ri maqsadlarda ishlatmaslik va axloqiy meyor-larga rioya qilish muhimdir. Bu esa jamiyatda axborotningadolatli va ma’naviy jihat-dan xavfsiz tarzda tarqatilishini ta’minlaydi. Kutubxonalarda axborotlarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatda axborotlarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga, ijtimoiy barqarorlikni saqlashga va madaniy xil-ma-xillikni hurmat qilishga yordam beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa mada-niyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sizlarga ma’lum. Lekin, ko‘plab bolalarimiz kitobdan uzoqlashib, ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgani – bu ham bor gap. Biz farzanlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmay-miz[3]. Bunday vaziyatlarda esa, man’aviyatimizning o‘chmas mayog‘i bo‘lgan kutu-bxonalarimiz faoliyatini yanada samarali ishlashini ta’minlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev I. O‘zbek kitobat san’ati va terminologiyasi: monografiya / I.Yo‘ldoshev; O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi; O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti. – Toshkent: Turon-1qbol, 2018. – 288 b.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 408 b.
3. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari / nashrga tayyorlovchilar: O. Salimov, Q. Quronboyev, M. Bekmurodov, L. Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019. – 156 b.

*Dilshoda Hamdamova
O'zDSMI 1-kurs tayanch doktoranti*

KUTUBXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARNING O'RNI

***Annotatsiya.** ushbu maqolada O'zbekistonda kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Raqamlashtirish davrida kutubxonalar faoliyatini transformatsiya qilish, axborot-resurs markazlari sifatida ularning yangi funksiyalarini shakllantirish, ayniqsa yoshlarni kutubxonalarga jalb qilish muammolari va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy media platformalari va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning zamonaviy usullari, ilg'or xalqaro tajribalar asosida milliy kutubxona tizimini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, kutubxona xizmatlari, raqamli marketing, foydalanuvchi tajribasi, onlayn auditoriya, ijtimoiy media, foydalanuvchi ehtiyojlari, axborot texnologiyalari, raqamli kutubxona.

***Abstract.** This article discusses the role and importance of social networks in the modernization of library services in Uzbekistan. The problems and solutions of transforming the activities of libraries in the era of digitalization, forming their new functions as information and resource centers, especially attracting young people to libraries, are considered. Modern methods of effective use of social media platforms and digital technologies, and the prospects for developing the national library system based on advanced international experience are analyzed.*

Keywords: social networks, library services, digital marketing, user experience, online audience, social media, user needs, information technology, digital library.

Zamonaviy axborot texnologiyalari davri kutubxonalar oldiga yangi talablar qo'ymoqda. Kitob o'qish madaniyatining pasayishi, raqamli axborot manbalarining ko'payishi va internet tarmog'ining keng rivojlanishi an'anaviy kutubxonalar faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda kutubxonalar faqat kitob saqlash va tarqatish markazlari emas, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida faol ishtirok etadigan, axborot-ta'lim markazlariga aylanishi zarur.

O'zbekistonda so'nggi-yillarda kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron kutubxonalar yaratish va kutubxona xizmatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, kutubxonalarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, ayniqsa yoshlarni kutubxonalarga jalb qilish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Global raqamlashtirish sharoitida kitob o'qish madaniyatining pasayishi, raqamli axborot manbalarining ko'payishi va internet tarmog'ining keng rivojlanishi an'anaviy kutubxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyodagi eng rivojlangan mam-

lakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, raqamli transformatsiya kutubxonalar uchun yangi imkoniyatlар va istiqbollarni ochadi, biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun kutubxonalar o‘z strategiyalarini, ish usullarini va foydalanuvchilar bilan muloqot qilish yondashuvlarini tubdan o‘zgartirishi lozim.

O‘zbekistonda so‘nggi-yillarda kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron kutubxonalar yaratish va kutubxona xizmatlari zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi muhim qonuniy-normativ hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4354-son qarori va 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni asosida kutubxonalar faoliyatini tubdan yangilash va zamona-viylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Zamonaviy “raqamli avlod” vakillarining e’tiborini kutubxonalarga jalb qilish uchun yangi yondashuvlar va innovatsion strategiyalar zarur. Bu o‘rinda ijtimoiy tarmoqlar kutubxonalar uchun eng samarali va istiqbolli vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin. Ammo, yurtimizdagи aksariyat kutubxonalar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z sahifalarini yuritishga yetarli e’tibor qaratmayapti, bu esa ularning jamiyat bilan aloqasini susaytirmoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 16-35 yoshdagi aholining atigi 23% muntazam ravishda kutubxonalarga tashrif buyuradi, bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi 45-60% ko‘rsatkichdan ancha past. Yoshlarni kutubxonalarga jalb qilish uchun yangi yondashuvlar, innovatsion xizmatlar va zamonaviy muloqot usullarini ishlab chiqish zarur. Bu borada ijtimoiy tarmoqning afzallik va ustunlik jihatlarini birgalikda ko‘rib chiqsak.

Ijtimoiy tarmoqlar quyidagi asosiy afzalliklarga ega:

Keng auditoriyaga chiqish imkoniyati. Instagram, Facebook, Telegram, YouTube va boshqa platformalar orqali ko‘proq foydalanuvchilarni qamrab olish mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2024-yil boshiga kelib 24 milliondan ortiq ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari mavjud. Bu kutubxonalar uchun potentsial auditoriyaga chiqish imkoniyatini beradi.

Tezkor ma’lumot almashinushi. Yangi kitoblar, tadbirlar, ko‘rgazmalar haqida tezkor ma’lumot berish imkoniyati. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumot tarqatish samaradorligi an’anaviy kanallar orqali ma’lumot tarqatish samaradorligidan 3-4 barobar yuqori hisoblanadi.

Kutubxona resurslarining vizual taqdimoti. Video, foto va infografikalar orqali kutubxona xizmatlari va resurslarini jozibali tarzda namoyish etish. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, vizual kontent matn kontentga nisbatan 40% ko‘proq e’tiborni jalb qiladi va 65% ko‘proq esda qoladi.

So‘nggi-yillarda kutubxona tizimida kadrlar siyosati o‘zgarib, ko‘proq yosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar jalb qilinmoqda. Bu loyiha Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va O‘zbekiston davlat san’at madaniyat instituti

bitiruvchilari misolida ko‘zga tashlanmoqda. Aynan shunday yetuk malakali yosh kadrlar ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalangan holda, an’anaviy kutubxona xizmatlaridan foydalanmaydigan aholi qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jalg qilish, yangi auditoriyani jalg qilish, xalqaro kutubxonalar tajribasini o‘rganish, ular bilan aloqalar o‘rnatish va hamkorlik loyihamini amalga oshirish kabi ishlarni olib borishmoqda.

Biroq, chekka qishloqlarda yashaydigan oddiy aholi, bugungi zamonaviy media vositalaridan foydalanishni bilmaydigan kadrlar kutubxona faoliyatini keng ommaga targ‘ib qilishda bir muncha muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Bir tomonidan kadrlar masalasi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan texnik baza va uskunalarining mavjud emasligi bu holatning asosiy bo‘g‘inidir. Bu borada kutubxonachilar tayyorlash tizimida ijtimoiy media marketing, kontent yaratish va ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Ayniqsa mintaqaviy kutubxonalarda sifatli kontent yaratish uchun zarur bo‘lgan texnik jihozlar (raqamli kameralar, video montaj uchun kompyuterlar) va dasturiy ta’milot yetishmasligi, mala-kali kadrlar bo‘lmaganligi sababli, ko‘plab kutubxonalar ijtimoiy tarmoqlarda aniq reja va strategiyasiz faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda kutubxona xizmatlarini rivojlantirish va yoshlarni kutubxonalarga jalg qilish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Kutubxona xodimlarining media savodxonligini oshirish. Kutubxona xodimlari uchun ijtimoiy tarmoqlarda ishlash, kontent yaratish, targetlangan reklamalardan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish.

Kutubxonalar uchun yagona raqamli strategiyani ishlab chiqish. Barcha darajadagi kutubxonalar uchun ijtimoiy tarmoqlarda ishlash bo‘yicha yagona strategiya va standartlarni ishlab chiqish.

Zamonaviy kutubxona makonlarini yaratish. Kutubxonalarda kovorking zonalar, multimedia xonalar, internet-kafeler va boshqa yoshlar uchun qulay bo‘lgan makonlarni tashkil etish.

Xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish. Xorijiy mamlakatlarning kutubxona sohasidagi eng yaxshi amaliyotlarini o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ular orqali nafaqat kutubxona xizmatlari haqida ma’lumot berish, balki foydalanuvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatish, yangi auditoriyani jalg qilish va kutubxonalar obro‘sini oshirish mumkin. O‘zbekistonda kutubxona tizimini modernizatsiya qilish va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kutubxonalarining jamiyatdagi o‘rnini kuchaytirish va ularni zamonaviy axborot-ta’lim markazlariga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2011-yil 13-aprel № O‘RQ-280 // Xalq so‘zi. – 2011. – 14-apr.
2. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks cho-

ra-tadbirlar dasturi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2017-yil 13-sentabr № PQ-3271 // Xalq so‘zi.–2017.–14-sent.

3. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 5 oktabr № PF-6079 // Xalq so‘zi. – 2020. – 6-okt.

4. Ergashev I. Kutubxona-axborot faoliyatida raqamli texnologiyalar / I.Ergashev, N.Farmonov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 186 b.

5. Qosimov A. O‘zbekistonda yoshlar va kutubxona: sotsiologik tadqiqot natijalari. – Toshkent: Yoshlar va jamiyat, 2023. – B. 78-86.

6. Johnson S. Library and Information Science in the Digital Age / S.Johnson, H.Trabelsi, T.Tin // Journal of Academic Librarianship. – 2018. – P.13-20.

7. Kim J. Innovative library spaces: A case study of South Korean public libraries / J.Kim, S.Lee // Library and Information Science Research. – 2022. – P. 101-112.

8. Lin T. Visual content marketing for libraries: A comparative analysis / T.Lin, J.C-hen // Journal of Library Administration. – 2023. – P. 45-61.

Marufova Zulfiya,

*“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

KITOB – SAN’AT VA MADANIYAT NEGIZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kitobning inson hayotidagi o‘rni, mutolaa madaniyati, hozirgi yoshlarning kitobxonlikka munosabati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, texnika, internet asrida chetga surilib qolayotgan kitoblar, mutolaani oiladan boshlash zarurligi haqidagi mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: kitob, mutolaa madaniyati, san’at, tafakkur, ma’naviyat, kitobxonlik.

Abstract. This article discusses the role of books in human life, the culture of reading, the attitude of today’s youth to reading. It also discusses the books that are being pushed aside in the age of technology and the Internet, and the need to start reading in the family.

Keywords: book, reading culture, art, thought, spirituality, reading.

Xalqimiz orasida azal-azaldan kitob – ziyo, kitob o‘qish – ziyolilik belgisi, shoir va yozuvchilar ziyo tarqatuvchilar sifatida ardoqlanib kelgan. Ota-bobolarimiz kitobni non qadar mukarram qilib, asrab-avaylab, ko‘zlariga surtib, toza joyda saqlaganlar. Qadimda buyuk shoir va yozuvchilarimiz, olimlarimiz kitobga shu qadar mehr qo‘ygan edilarki, hatto tunlari sham yorug‘ida kitob mutolaa qilganlar. So‘z mulkining sultonı Navoiy hazratlari 7 yoshida Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asarini yod olgan, buyuk muhaddisimiz Imom al-Buxoriy hazratlari esa olti mingdan ziyod hadisni yod bilgan. Kitobni inson tafakkurinint qanotlariga o‘xshatishgan. Zero, tafakkuri, fikr doirasi keng ma’rifatli kishilar jamiyatnint chinakam boyligidir. Aksincha, hayotda ro‘y berib turadigan ayrim noxushliklar ildizi esa ma’rifatsizlik, kitob o‘qimasliknint achchiq mevasi. Temirni zang kemirganidek, odamni ham ma’naviyatsizlik mo‘rt qiladi. Ma’naviyat esa insonga kitob o‘qish orqali yuqadi. Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi, biroq insoniyatnint ming-ming yillar davomida qo‘lga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o‘zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Binobarin, kitob-hamisha ilm-ma’rifat, adab va axloq manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham kitobdan ko‘ra qudratliroq vosita yo‘q. Inson aqliy salohiyatining yuksalishida kitobning o‘rni beqiyos. Zero kitob tufayli dunyoqarasimiz boyib, tafakkurimiz yanada o‘sib boraveradi. Ne-ne ulug‘ zotlar kitobga oshno bo‘lib, yetuklikka erishgan, komil inson darajasiga yetishganlar.

Yoshlarni har tomonlama yetuk, ma’naviy to‘yingan, zamon shiddatiga dosh bera oladigan inson qilib tarbiyalashda kitobning o‘rni beqiyos. Inson mutolaa jarayonida nafaqat ruhiy orom, ma’naviy zavq oladi, balki o‘zi bilmagan atrof olam haqida bilimga ham ega bo‘ladi. “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz” romanlarini, Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘qir ekanmiz, ruhan ozuqa olishdan tashqari xalqimizning o‘tmishdagi hayoti haqida bilimga ega bo‘lamiz. Chet el adiblarining asarlari biz uchun mavhum bo‘lgan yangi dunyolar, boshqacha hayot haqida yangi ma’lumot-

larga ega qiladi. Esimda, o‘quvchilik chog‘larimda Jek Londonning “Martin Iden” kitobini qiziqish bilan o‘qir ekanman, o‘zim uchun notanish bo‘lgan dengizchilar hayoti, dengizchilik atamalari, amerikalik kiborlarning turmush tarzi va boshqa ko‘p narsalar haqida bilib olganimni eslayman. Keyinchalik bu ma’lumotlar menga ko‘p asqotgan. Kitoblar, eng asosiysi, insonni tarbiyalaydi. Shukronalik tuyg‘usini shakllantiradi. Martin Idenni oddiy, to‘pori dengizchidan buyuk yozuvchi darajasiga ko‘targan ham kitoblar edi.

Ammo bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti natijasida axborot va ma’naviy zavq olish manbalari ko‘paydi, natijada kitobga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj sezilarli darajada pasaydi. Ko‘pchilik yoshlari kitobni o‘qish shartmas, ekranlashtirilgan asarlarning kinofilmini ko‘rib qo‘yilsa ham bo‘ladi, degan fikrni aytadilar. Aslida, hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm badiiy asar o‘rnini bosolmaydi. Masalan, “O‘tgan kunlar” romani asosida ishlangan film qanchalik mahorat bilan suratra olingan bo‘lmashin, kitobning ta’sirini, jozibasini berolmaydi.

Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Ma’rifatli oilalarda kitobga e’tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Ma’naviyati sayoz, kitob o‘qimaydigan insonlar oilasida tarbiya topayotgan farzandlar kelajakda barkamol shaxs bo‘lib ulg‘aymaydi. Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma’naviyat dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma’naviyati hisoblanadi. San’at va madaniyat sohasining negizi adabiyotdir. Chunki yaratadigan san’at asarlarining “xomashyo”si badiiy asar. Ammo, afsuski, bo‘lajak san’atkor – talabalar orasida kitob mutolaasiga e’tibor talab darajasida deb bo‘lmaydi. O‘zbek adiblarining shoh asarlarini o‘qimagan yoshlарimiz kam emas. Sayoz, tutruqsiz matnli qo‘shiqlarning ko‘payishiga xuddi shu narsa sabab bo‘layotgандir balki?! Eng achinarlisi shuki, uni eshitib voyaga yetayotgan yosh avlod “san’at asari” sifatida qabul qila boshlayapti. Yoshlarningg didi shunday “asarlar” qolipida shakllanyapti.

So‘nggi paytlarda yurtimizda bu masalaga jiddiy e’tibor berila boshladi, hatto davlat siyosati darajasiga chiqarildi. **Respublikamiz prezidenti** “Hududlarga kitob yetkazib berish yaxshi. Lekin ularni o‘qish, o‘qitish yetarli darajada emas. Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi”, deb ta’kidlaydi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2020-yildagi 781-sон “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini bunga misol qilish mumkin. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayon hozirgi kunda ham turli tanlovlар o‘tkazish, yangi kutubxonalar ochish, ijodkorlar bilan davra suhbatlari o‘tkazish kabi ko‘rinishlarda davom etmoqda.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi Xurshid Davron kitob o‘qishning 21 foydasini sanab ko‘rsatadi. Ular orasida quyidagi ma’lumotlar ham bor:

– Emori universiteti olimlari kitob o‘qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o‘qish miyadagi asab tolalari sonini oshirishini ta’kidlashmoqda.

– Kitob o‘qiyotgan paytda notanish so‘zlar ham uchrab qoladi. Ularning ma’nosini umumiy mazmuni orqali ham tushunib olsa bo‘ladi. Kitob o‘qish nafaqat so‘z boyligini ko‘paytiradi, balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi.

– Faol kitobxonlar xayriya ishlari bilan boshqalarga nisbatan uch marta ko‘proq shug‘ullanishadi. Mutolaa muhtoj insonlarga yordam qo‘lini cho‘zishga undaydi [3].

Kitob mutolaasi oiladan boshlanadi. Agar yodga oladigan bo‘lsak, ko‘pgina shoir va yozuvchilar o‘z tarjimayi hollarida bolalik chog‘larida uylarida kitobxonlik kechalari bo‘lib turishi yoki onalari kitob o‘qib berishi, ularida kitob bo‘yicha bahs-munozaralar bo‘lib turishi haqida xotirlab yozadilar. Ota-onalar, kattalar o‘zi o‘qigan kitob haqida yosh avlodga gapirib berishni odat qilishi muhim. Farzandlar nima o‘qiyapti, kimning qanday asarini mutolaa qilyapti? Bu bilan qiziqishimiz kerak. Ayrim yoshlар kitobni faqat o‘qishga kirish uchun yoki imtihon topshirish yoki tanlovda qatnashish uchungina o‘qiydilar. Ammo bu xato! Zero, adabiyot – tarix va kelajakni bog‘lovchi ko‘prik, jamiyatdagi illatlarni, yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatib beruvchi oynadir. Adabiyot – inson his-tuyg‘ularini tarbiyalovchi vosita, ezgulik va yaxshilikka undovchi mayoqdir. Inson ma’naviyatini, vatanparvarlik, yurtparvarlik xislatlarini, dunyoqarashini yuksaltiruvchi murabbiyidir kitob! [2].

Kitob mutolaasining o‘ziga yarasha madaniyati bor. O‘tgan asrning mashhur adiblaridan biri Herman Hessi kitob mutoalasi haqida shunday yozadi: “Shunchaki dam olish, vaqt o‘tkazishni istagan va “o‘qimishli” bo‘lish haqidagina qayg‘urgan kitobxon kitobdagи dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerakligini tushunmasdan, har bir qutichadagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida mutolaa borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir baxsh etadi-gan kitoblarni topa bilishi kerak emasmi?”.

**Peter Gille kitoblarni ovozsiz muallimlarga o‘xshatadi. Ulardan istaganing-
ha bilim olishing, zavqlanishing mumkin. Mishel de Monten esa “Men kitoblarni
emas, kitoblar meni yaratdi”, der ekan, kitoblarning yaratuvchanlik qudratini, in-
songa mo‘jizakor ta’sirini e’tirof etadi.**

O‘quvchilik yillarimda maktab kutubxonasidagi hamma kitoblarni o‘qib bo‘lib, tuman kutubxonasiga qatnaganim, o‘qigan kitoblarimiz ro‘yxatini tuzib, kim o‘zarga musobaqa qilganlarimizni eslayman. Talabalik davrimizda ham ham yaxshi asarlarni tashnalik bilan o‘qir, ba’zi kitoblar kamyoibligidan navbatga yozilib, kitob qo‘limizga tegishini intizorlik bilan kutar edik. Hozir kitob o‘qish uchun barcha sharoitlar muhayyo. Faqat ularni o‘qish kerak. Faylasuf Lebon: “Bobolarimiz kitob topishga qiynalar edilar: hozir esa biz kitob tanlashga qiynalamiz. Mutolaa uchun juda ziyrak bo‘lmoq kerak” deganda, naqadar haq edi.

Mutolaa madaniyatiga rioya qilinmay, pala-partish o‘qilgan kitobning inson hayoti-da hech qanday izi qolmaydi. Ko‘pchilik kitob o‘qishni bilmaydi va ko‘p kishilar nima uchun o‘qiyotganini tuzukroq tushunmaydilar. Ba’zilar buni o‘qimishli bo‘lishning qiyin, biroq yagona yo‘li deb biladi. Ular uchun har qanday kitob kishini “o‘qimishli” qiladi. Boshqa birovlar uchun esa o‘qish – dam olish, shunchaki vaqtini o‘tkazish va

